- **I — Inclusion & Accessibility.** UDL-based design, multilingual access, assistive technologies, culturally sustaining approaches. Formation mechanism: iterative redesign studios evaluated with users against accessibility guidelines [10].
- **A — AI & Data Literacy.** Understanding data provenance, bias, explainability, and minimal-data principles; critical prompting and evaluation of model outputs; participatory learning analytics. Formation mechanism: labs that require risk–benefit analyses and data protection impact assessments [1; 13].
- **L — Learning Design (TPACK-in-use).** Designing, facilitating and evaluating hybrid, community-engaged learning experiences. Formation mechanism: design-based coursework that integrates practicum feedback [6].

Proposition P1. Students who repeatedly engage in *authentic, supervised* digital practice aligned with all SOCIAL dimensions will exhibit stronger professional judgment and boundary management online than peers exposed to tool-centric courses alone.

For future social educators, *digital professional culture* is not a peripheral skillset but the ethical and practical core of contemporary practice. The SOCIAL model integrates safety, openness, care, inclusion, AI and data literacy, and learning design into a coherent theoretical architecture. Grounded in sociocultural, practice-based, critical and inclusive traditions, it provides universities with a blueprint for curriculum, practicum, and governance that can be empirically tested and iteratively improved. Formation of DPC in higher education will equip graduates to design trustworthy, inclusive, and community-centred interventions that protect rights, amplify voices, and enhance wellbeing in digitally mediated environments.

References (in order of citation)

1. UNESCO. *Guidance for Generative AI in Education and Research.* Paris: UNESCO, 2023.

2. OECD. *Digital Education Outlook 2023: Pushing the Frontiers with AI.* Paris: OECD Publishing, 2023.

3. Redecker, C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu.* Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

4. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers (Version 3).* Paris: UNESCO, 2018.

5. Jisc. *Building Digital Capability: The Six Elements of Digital Capability.* Bristol: Jisc, 2019 (updated editions).

6. Mishra, P., & Koehler, M. J. “Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge.” *Teachers College Record* 108(6) (2006): 1017–1054.

7. Engeström, Y. “Expansive Learning at Work: Toward an Activity Theoretical Reconceptualization.” *Journal of Education and Work* 14(1) (2001): 133–156.

8. Wenger, E. *Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity.* Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

9. Selwyn, N. *Education and Technology: Key Issues and Debates.* 2nd ed. London: Bloomsbury, 2016.

10.CAST. *Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2.* Wakefield, MA: CAST, 2018.

MAKTABGACHA TA’LIMDA TRIZ METODIKASINING QO‘LLANILISHI

O‘rinova Feruza O‘ljayevna,
FarDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) metodikasining maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llanilishi, uning bolalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, TRIZ elementlarini maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda integratsiya qilishning samarali yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: TRIZ, ijodkorlik, innovatsion metod, tafakkur, muammoli vaziyat, maktabgacha ta’lim.

Zamonaviy ta’lim jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi, yangilik yaratishga intilishi va noodatiy yechim topish qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada **TRIZ (Teoriya Resheniya Izobretatelskix Zadach)** – ya’ni *ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi* alohida o‘rin tutadi. Ushbu metodika XX asrning 50-yillarida G.S. Altshuller tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, dastlab texnik masalalarni yechishga qaratilgan edi. Ammo keyinchalik TRIZ g‘oyalari pedagogika, psixologiya va ayniqsa maktabgacha ta’lim sohasiga ham muvaffaqiyatli tatbiq etila boshlandi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida TRIZ metodini joriy etish bolalarning ijodiy tafakkurini, tahlil qilish qobiliyatini, muammoni turlicha hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, bugungi kunda ushbu metodika ta’lim jarayonida innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda.

- Qarama-qarshiliklarni aniqlash va bartaraf etish;
- Resurslardan oqilona foydalanish;
- Ijodiy tasavvurni faollashtirish;
- Tizimlar o‘rtasidagi aloqadorlikni anglash.

TRIZ - bu “Ixtiroiy muammolarni yechish nazariyasi” (Genrix Al’tshuller tomonidan yaratilgan) nomi bilan tanilgan har bir kishi va tashkilot uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan universal metodika. Bu metodika muammolarni tizimli va innovatsion yechimlar orqali hal qilishning ilmiy yondashuvi hisoblanadi.

Pedagogik TRIZda bu tamoyillar bolalarda “muammoni ko‘ra bilish”, “savol berish” va “yangi g‘oya topish” qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

TRIZ asl-aslida sanoat va texnik sohalarda qo‘llanilgan bo‘lib, muhandislar va ixtirochilarga murakkab texnik masalalarni hal qilishda yordam bergan. Ammo vaqt o‘tib, bu metodika faqatgina texnik sohalarga cheklanmay, ta’lim, biolohiya, san’at va boshqa ko‘plab sohalarda kengayib bormoqda. Hozirgi kunda, TRIZ maktabgacha ta’lim tizimiga ham aktiv kirib kelmoqda va bolalarning ijodiy potentsialini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida tanilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun TRIZ o‘yin shaklida tatbiq etiladi. Bu jarayonda bolalar o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqib, muammolarni o‘yin orqali hal qilishni o‘rganadilar. Misol uchun:

- “Agar quyosh chiqmadi, nima qilish mumkin?”;
- “Agar suv bo‘lmasa, qanday yuvinamiz?”;
- “Qushlar qanotsiz bo‘lsa, qanday uchishlari mumkin edi?” kabi savollar bolalarni ijodiy fikrlashga undaydi.

Bunday mashg‘ulotlar orqali bola:

- muammoni aniqlashni;
- turli variantlarda yechim topishni;
- o‘z fikrini asoslab berishni;
- guruhda hamkorlikda ishlashni o‘rganadi.

TRIZ elementlarini mashg‘ulotlarga integratsiya qilish

Pedagog TRIZ metodini quyidagi yo‘llar bilan mashg‘ulotlarga qo‘shishi mumkin:

- **“Aqliy hujum” (Brainstorming)** – bolalardan erkin fikrlar olish va ularni tahlil qilish;
- **“Muammoli vaziyat” metodi** – biror ertak yoki hikoyadagi muammoni topish va yangi yakun o‘ylab topish;
- **“Fantastik g‘oyalar”** – mavjud narsalarga noodatiy xususiyat berish (“agar daraxt yuradigan bo‘lsa...”);
- **Rol o‘yinlari** – muammoni turli rollarda yechish orqali empatiya va tahliliy fikrlashni rivojlantirish.

Bolalar uchun foydalari:

- Ijodiy o‘ylashni rivojlantirish
- Muammolarni hal qilish imkoniyatlari ortadi
- O‘z-o‘ziga ishonchni oshirish
- Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganish

Pedagoglar uchun imkoniyatlar:

- O‘quv jarayonini yanada samarali qilish
- Tizimli rejalashtirish va tahlil qilish
- Bolalarning iqtidorini aniqlab, rivojlantirish
- Innovatsion yondashuvning ahamiyatini tushunish

TRIZ metodikasini maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llash pedagogik jarayoniga tugunli o‘zgarishlar olib kelmoqda. Ushbu metodika ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarib, bolalarni faqat bilik beruvchi vosita sifatida emas, balki ularning yosh-jismoniy va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, yetuk shaxslarni rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion yondashuv orqali ta’lim sifatini oshirish: Pedagoglar TRIZ printsiplarini ishlatib, odatdagi o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin. Bu bolalarning darsga nisbatan munosbati o‘zgarib, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi. Bolalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini

rivojlantirish: TRIZ yondashuvida bolalardan tayyor yechimni taklif qilish emas, balki muammoni tahlil qilish va o‘z yechimlarini topishga undash maqsad qilinadi. Bu ularning kritik fikrlashini, taklidksiligi va mustaqilligini rivojlantiradi.

TRIZ texnologiyasida pedagogning roli – tayyor javob beruvchi emas, balki bolani izlanishga, savol berishga va yechim topishga yo‘naltiruvchi yo‘l-yo‘riqchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, pedagogdan yuqori darajada ijodkorlik, psixologik sezgirlik va bolalar bilan samarali muloqot ko‘nikmalari talab qilinadi.

TRIZ metodikasi maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llanilishining bir qator muhim afzalliklari mavjud bo‘lib, ular bolalarning rivojlanishi va pedagogik jarayonni yanada samarali qilishga to‘g’ridan-to‘g'ri ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Altshuller G.S. Teoriya resheniya izobretatelskix zadach. – Moskva, 1986.
2. Yusupova D., Xolmatova N. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

MAYDA MOTORIKANI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISH YO‘LLARI (6–7 yoshli bolalar misolida)

Oygul Ashurova Anvarjonovna
Farg‘ona davlat universiteti “Inklyuziv ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.b.f.d (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 6–7 yoshli bolalarda mayda motorika mashqlari asosida nutq kamchiliklarini bartaraf etish o‘rganilgan. Tadqiqot davomida mayda motorikaning nutq rivojiga ta’siri, samarali mashg‘ulot turlari hamda ularning natijalari tahlil qilindi. Natijalar mayda motorika rivojlanishi nutqning to‘g‘ri shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir qilishini ko‘rsatdi.

kalit so‘zlar:mayda motorika, nutq kamchiligi, logopediya, barmoq gimnastikasi, fonematik eshituv, maktabgacha yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to‘liq shakllanmasligi ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan biri markaziy asab tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar tomonidan isbotlanganidek, qo‘l va barmoqlarning mayda motorik harakatlari miya po‘stlog‘idagi nutq markazlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois mayda motorikani rivojlantirish nutq kamchiliklarini bartaraf etishda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada 6–7 yoshli bolalarda mayda motorika mashqlari yordamida nutq nuqsonlarini bartaraf etish metodikasi o‘rganilgan.Psixologiya va defektologiya sohasidagi A. Luriya, M. Montessori, Vygotskiy, Elkonin singari olimlarning tadqiqotlarida qo‘l barmoqlari harakati bilan nutq rivoji o‘rtasidagi neyrofiziologik bog‘liqlik ilmiy asoslangan. Zamonaviy logopediya esa motorik mashqlar yordamida

fonematik eshituv, artikulyatsiya hamda leksik-grammatik ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi.6–7 yoshli bolalarda mayda motorikani rivojlantirish orqali nutq kamchiliklarini kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha samarali metodikani ishlab chiqish hamda uni amaliyotda sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot 6–7 yoshli 30 nafar bolaning ishtirokida olib borildi. Boshlang‘ich bosqichda ularda quyidagi nutq kamchiliklari kuzatildi: tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, lug‘at boyligining kamligi, gap tuzishdagi qiyinchiliklar, fonematik eshituvning pastligi. Mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan 12 haftalik mashg‘ulotlar quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- barmoq gimnastikasi;
- Montessori materiallari bilan ishlash;
- plastilin, mozaika, qurilish konstruktorlari;
- qirqish-yelimlash;
- ipga munchoq terish;
- sensor o‘yinlar.

Mashg‘ulotlar yakunida bolalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi:

1. Tovush talaffuzining aniq-ligi oshdi – 72 %.
2. Lug‘at boyligi o‘rtacha 25–30 % ga kengaydi.
3. Grammatik tuzilishning shakllanishi tezlashdi.
4. Diqqat va xotira ko‘rsatkichlari yaxshilandi.
5. Fonematik eshituv va analiz–sintez ko‘nikmalari rivojlandi.

Olingan natijalar mayda motorika mashqlari nafaqat qo‘l harakatlarining takomillashuviga, balki nutq apparatining neyropsixologik faollashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Barmoqlar harakatining takomillashuvi Broka va Vernike markazlari faoliyatining faollashishi bilan bog‘liq bo‘lib, nutqning mantiqiy va fonetik jihatdan to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi.

Mayda motorikani rivojlantirishga asoslangan metodika 6–7 yoshli bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etishda samarali ekanligi amaliy tajriba orqali tasdiqlandi. Ushbu metodika logopedik mashg‘ulotlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilaviy ta’lim jarayonida qo‘llash uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Luriya A.R.** *Mozg i psixicheskie protsessy*. — Moskva: MGU, 1999.
2. **Vygotskiy L.S.** *Myshlenie i rech*. — Moskva: Labirint, 2005.
3. **Elkonin D.B.** *Psixologiya obucheniya mladshix shkol'nikov*. — Moskva: Prosveshchenie, 2010.
4. **Montessori M.** *The Montessori Method*. — New York: Schocken Books, 2013.
5. **Ayupova R., Jo‘raeva M.** *Logopediya asoslari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. **Saidahmedova N.** *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. — Toshkent: FAN, 2020.

7. **Gvozdev A.N.** *Formirovanie grammatičeskogo stroya russkogo yazyka u detey*. — Moskva: Akademiya, 2007.
8. **Bernstein N.A.** *Ocherki po fiziologii dvijeniya i fiziologii aktivnosti*. — Moskva: Nauka, 1990.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGI SAMARALARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNING AHAMIYATI.

G‘ofurova Mahfuza Abbosovna
Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mahfuza.gafurova73@gmail.com

Annotatsiya.
Mazkur maqolada funksional savodxonlikni boshlang‘ich ta’lim jarayonida shakllantirish muhim pedagogik muammo sifatida ilmiy asosda tahlil qilinadi. O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish va reflektiv yondashuvni kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi. Portfolio texnologiyasi, metakognitiv faoliyat va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va tanqidiy tahlilga yo‘naltirish mexanizmlari ochib beriladi. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar, muammoli o‘qitish metodlari va aniq baholash mezonlari asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: funksional savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik muammo, o‘qituvchilar tayyorlash, ta’lim texnologiyalari, kasbiy kompetensiya,

Значение международного опыта в повышении эффективности функциональной грамотности будущих учителей начального образования.

Аннотатция.
В данной статье функциональная грамотность рассматривается как важная педагогическая проблема в процессе начального образования. Обоснована необходимость внедрения современных образовательных технологий в подготовке учителей, развития профессиональной компетентности и усиления рефлексивного подхода. Раскрыты механизмы формирования критического мышления и самостоятельности учащихся через портфолио-технологии, метакогнитивную активность и практико-ориентированное обучение. Отмечено, что инновационные подходы, проблемное обучение и чёткие критерии оценки являются ключевыми факторами повышения качества образования. **Ключевые слова:** функциональная грамотность, начальное образование, педагогическая проблема, подготовка учителей, образовательные технологии, профессиональная компетентность.

Importance of international experience in improving the effectiveness of functional literacy of future primary school teachers.

Annotation

This article considers functional literacy as a significant pedagogical issue in the context of primary education. It substantiates the necessity of integrating modern educational technologies in teacher training, developing professional competence, and strengthening reflective approaches. Mechanisms for fostering independent thinking and critical analysis in students are explored through portfolio technology, metacognitive activity, and practice-oriented learning. Innovative approaches, problem-based teaching methods, and well-defined assessment criteria are recognized as key factors for improving the quality of education.

Keywords: functional literacy, primary education, pedagogical issue, teacher training, educational technologies, professional competence.

Hozirgi davrda globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga, ayniqsa ta’lim tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy talablarga javob beruvchi o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yurituvchi bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining **funksional savodxonligi** darajasi ta’lim sifati va natijaviyligining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda [1]. Funksional savodxonlik tushunchasi dastlab UNESCO va OECD hujjatlarida 20-asrning oxirlaridan boshlab keng yoritila boshlagan. Bu atama insonning real hayotiy vaziyatlarda o‘z bilim va ko‘nikmalarini samarali qo‘llay olish layoqatini anglatadi. Shuningdek, bu savodxonlik shakli an’anaviy bilim yodlashdan ko‘ra, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni qayta ishlash va hayotiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslanadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bu masala bosqichma-bosqich dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Milliy o‘quv dasturlari va davlat ta’lim standartlarida funksional yondashuv unsurlarining paydo bo‘layotgani bu jarayonning boshlanganidan dalolat beradi. Ammo bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda funksional savodxonlikni shakllantirish bo‘yicha **metodik yondashuvlar, baholash vositalari va zamonaviy texnologiyalar tizimlashtirilmagan.** Ko‘plab holatlarda o‘quv jarayonida nazariy bilimlar yetarli darajada mustahkamlanadi, biroq ularni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan kompetensiyalar yetishmaydi [2].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilib, u chuqur **nazariy-metodik asosda** yondashilgan holda tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli va komparativ pedagogik tahlilga tayangan bo‘lib, unda **analitik, tizimlashtiruvchi, konseptual va diagnostik** yondashuvlar uyg‘unlashtirildi [3]. Funksional savodxonlik tushunchasining **epistemologik asoslari**, pedagogik kategoriyalar

tizimidagi o‘rni, hamda u bilan bog‘liq metodik kompetensiyalarning mazmuni aniqlashtirildi [4]. Bu bosqichda ilg‘or xorijiy nazariyalar, jumladan, **Bloom taksonomiyasi, Vigotskiyning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi,** hamda **Shulmanning pedagogik bilim kategoriyalari** tahlil qilindi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining funksional savodxonligini shakllantirishda qo‘llanilayotgan metodlar, ta’lim texnologiyalari va baholash tizimlarining samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning funksional savodxonlik darajasi ularning tanqidiy fikrlash, matn bilan ishlash, muloqot yuritish, axborotni qayta tuzish, hayotiy muammolarni hal qilish kabi kompetensiyalari orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda eng samarali vosita sifatida portfolio texnologiyasi, reflektiv o‘qitish va metakognitiv yondashuvlar ajralib turdi. Ayniqsa, zamonaviy dars jarayonida “mini-loyiha”, “portfoliolar tahlili”, “metakognitiv fikrlash kundaliklari” kabi amaliy vositalar o‘zini oqladi. Xalqaro tajribalar bilan taqqoslash natijasida quyidagi kuzatishlar qayd etildi:

– **Finlandiya ta’lim tizimida** o‘qituvchilarning avtonom reflektiv yondashuvlari ularning funksional savodxonligini kuchaytirishga xizmat qilgan [4].

– **Singapur modelida** esa 21-asr ko‘nikmalari asosida tanqidiy, tizimli va kreativ fikrlash metodlariga urg‘u berilgan [6].

– **Avstraliyada** funkisonal savodxonlik davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralib, baholash mezonlari ham aynan hayotiy kompetensiyalarga yo‘naltirilgan [5].

Milliy ta’lim tizimi kontekstida esa hali bu komponentlar tizimli tarzda joriy qilinmagan, ko‘plab metodlar singari portfolioga asoslangan yondashuvlar eksperimental bosqichdadir. Shu boisdan, ushbu yondashuvlarni dars jarayoniga tizimli kiritish zarurati mavjud. Funksional savodxonlikni shakllantirish jarayonida o‘quv topshiriqlarning real hayotiy kontekstga ega bo‘lishi, formativ baholash tizimi orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyati yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining funksional savodxonligi nafaqat ularning professional salohiyatining ko‘rsatkichi, balki butun ta’lim tizimining sifatli ishlash mezonidir. Shu bois, ushbu yo‘nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va ularni tizimli joriy etish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alexander, R. (2012). *Improving oracy and classroom talk in English schools: Achievements and challenges*. University of Cambridge.

2. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 5*(1), 7–74. https://doi.org/10.1080/0969595980050102

3. Creswell, J. W. (2014). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (4th ed.). SAGE Publications.
4. Merriam, S. B. (2009). *Qualitative research: A guide to design and implementation*. Jossey-Bass.
5. Sadler, D. R. (1989). Formative assessment and the design of instructional systems. *Instructional Science*, *18*(2), 119–144. https://doi.org/10.1007/-BF00117714
6. Sahlberg, P. (2015). *Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland?* Teachers College Press.

RINOLALIYA NUTQ NUQSONINI TUZATISHDA LOGOPEDIK MASHQLAR TIZIMI

O.A.Ashurova
FarDU katta o‘qituvchi
G.X. Otaxonova
FarDU talaba

Annotatsiya: Rinolaliya — yumshoq tanglay yoki burun bo‘shlig‘ining anatomik-fiziologik nuqsonlari tufayli paydo bo‘ladigan ovoz rezonansining buzilishi bo‘lib, nutqning burun-orqali chiqishi bilan xarakterlanadi. Mazkur maqolada rinolaliya turlari, uning sabablarini aniqlash va korreksiyada qo‘llaniladigan logopedik mashqlar tizimi: artikulyasion gimnastika, nafas, ovoz va rezonans mashqlari ilmiy asosda yoritilgan. Taklif etilgan mashqlar tizimi nutq rezonansining normalizatsiyasi, burun orqali havo chiqishining to‘g‘rilanishi va fonetik talaffuzning yaxshilanishiga yordam beradi.

Kalit so’zlar: Rinolaliya, ovoz rezonansi, rinolaliya turlari, korreksiya, logopedik mashqlar, artikulyatsion gimnastika, fonetik talaffuz.

Rinolaliya (lotincha so’zdan olingan bo’lib, rhinos – burun, lalio – nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tebri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir.

Lab va tanglay yoriqlari bilan izohlanadigan rinolaliya tibbiyot va logopediyaning turli tarmoqlari uchun jarroh – stomatologlar, ortodontlar(qiyshiq yoki oraliq tishlarni to’g’irlaydi), psixonevrologlar, logopedlar uchun muammo, ahamiyatga molik o’rganish obekti, predmeti hisoblanadi.

Rinolaliya bo’yicha dastlabki ilmiy ishlar shifokorlar tomonidan yozilgandir. Ularning harakatlari tanglay bo’rtmasini to’liq tiklashga qaratilgan edi, qayta xosil qilingan tanglay pardasi yetarli darajada uzun va harakatchan bo’lishi va halqumning orqa devori uchun birika olishi lozim. Bu samaraga erishish burunlashgan nutqni bartaraf etishga imkoniyat yaratadi.

Ovoz rezonansi – bu ovoz hosil bo’lgandan keyin uning og’iz, burun va boshqa bo’shliqlarda kuchayib jarangdor bo’lish jarayoni. Oddiyroq qilib aytganda, ovoz avval hiqqildoqdagi paychalardan chiqadi lekin, u zaif bo’ladi.

Rinolaliyada rezonans normal yo’ldan chiqadi, ya’ni tovush og’iz bo’shlig’ida to’liq jaranglamaydi. Bu holat rinolaliyani turiga qarab turlicha bo’ladi.

Rinolaliya tanglay – halqum birlashish funksiyasining buzilish harakteriga ko’ra 3shaklga ajratiladi:

1.Yopiq rinolaliya

2. Ochiq rinolaliya.

3. Aralash rinolaliya.

Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi. M, n burun tovushlarini talaffuzida eng kuchli rezonans bo’ladi. Bu turdagi rinolaliyaning kelib chiqish sababi – burun bo’shlig’idagi organic o’zgarishlar yoki tanglay halqum birlashishining funksional buzilishidir.

Ochiq rinolaliya — bu yumshoq tanglay og‘iz va burun bo‘shlig‘ini to‘liq ajrata olmaganda, ya’ni havo chiqarishda og‘iz bilan birga burun orqali ham ortiqcha havo chiqib, tovushlarning burunli (gundoshlik) qilib eshitilishi bilan xarakterlanuvchi nutq nuqsonidir. I, u tovushlari talaffuzida sezilarli o’zgarish ro’y beradi.

Sabablari

1. Tug‘ma nuqsonlar

Lab-tanglay yorig‘i

Yumshoq tanglayning tug‘ma qisqaligi yoki sustligi

2. Orttirilgan sabablar

Operatsiya yoki jarohatdan keyin tanglayning shikastlanishi

O‘smalar, kasalliklar, falaji

Nevrologik muammolar.

Aralash rinolaliya — bu ochiq va yopiq rinolaliya belgilarining birgalikda uchrashi, ya’ni ba’zi tovushlarda havo burunga ortiqcha o‘tadi, boshqalarida esa burun yo‘llari yopilib, havo o‘ta olmaydi. Natijada nutqning rezonansi beqaror, tovushlar aniq chiqmaydi va gundoshlik ham, burunsizlik ham birgalikda kuzatiladi.

Davolashdan oldin qaysi bir kamchilik ovoz tembrini ko’proq buzib, manqalikka ko’proq sabab bo’layotganini aniqlash zarur. Masalan, bemor burun tovushlari bilan unli tovushlarni boshqa tovushlarga qaraganda yanada ko’proq manqalanib talaffuz qilayotgan bo’lsa, demak, unda yopiq rinolaliya bo’ladi va davolash chorasi shunga qarab belgilanadi.

Rinolalik bolalarga ko’riladigan choralardan biri – bu bola hayotining ilk soatidan boshlaboq ovqatlanishini to’g’ri tashkil etishdir. Bu bolalarni tabiiy yoki maqsadga muvofiq sun’iy ovqatlantirishni ta’minlashga intilish lozim. Bunda albatta onaning ko’krak sutining ahamiyati katta.

Quyida rinolaliya, ayniqsa ochiq va aralash rinolaliya uchun qo‘llanadigan logopedik mashqlar tizimini beraman. Ular tanglay harakatini kuchaytiradi, nafasni to‘g‘ri yo‘naltiradi va rezonansni og‘iz bo‘shlig‘iga olib keladi.

1. Nafas mashqlari (havo yo‘nalishini to‘g‘irlash)

“Shamni puflash”

Shamni 20–30 sm uzoqlikdan puflash

Havo faqat og‘izdan chiqishi kerak

Burunni qisib turmasdan, havo burunga ketmasligi nazorat qilinadi

“Paxta uchirish”

Tosh stol ustiga paxta qo‘yiladi

Bola kuchli puflaydi → paxta oldinga uchishi kerak

“Burunsiz puflash”

Bola puflaydi, o‘qituvchi burun oldiga oynacha tutadi

Agar oynacha bug‘lanmasa → havo burunga o‘tmayapti (to‘g‘ri)

2. Yumshoq tanglayni ko‘tarish mashqlari

“A — A — A” keng og‘iz bilan

Har safar tovush aytilganda yumshoq tanglay ko’tariladi

Artikulyatsion gimnastika — bu til, lab, jag’, yumshoq tanglay va boshqa nutq a'zolarining harakatini kuchaytiruvchi mashqlar majmuasi. U nutq tovushlarini aniq, ravshan, to‘g‘ri talaffuz qilish uchun juda muhim.

Artikulyatsion mashqlarga quyidagilarni misol qilib olish mumkin:

Lab mashqlari

“Tabassum”

Lablar keng ochilib, tishlar ko‘rinadi

5–10 soniya ushlab turish

“Pufak”

Lablar dumaloqlanadi (pufak puflayotgandek)

Keyin yana tabassum → navbatma-navbat

“Shapillatish” (“Paq-paq”)

Lablarni yumshoq tutib tez-tez yopib-ochish

Bola ot kabi “pah-pah” ovoz chiqarishi mumkin

“Otcha”

Lablar bilan “taq-tuq, taq-tuq” qilib ot ovozi chiqarish

Til mashqlari

“Shirin konfet”

Tilni lab atrofida aylantirish (chapdan o‘ngga, o‘ngdan chapga)

“Chaynalgan konfet’’

Tilni ikki yelka tishlari ustida harakatlantirish

“Soat”

Og‘iz ochiq, til uchini yuqori va pastki tishlarga navbat bilan tekkizish (tik-tak)

Yumshoq tanglay mashqlari

“A-A-A’’
Og‘izni keng ochib, uzun “A” deyish, tanglay ko‘tarilishini sezish
“Ka-ka-ka / Ga-ga-ga”
Til orqasi harakat qiladi, yumshoq tanglay faol ishlaydi
Jag’ mashqlari
“Baqa og‘zi”
Og‘izni keng ochish → yopish → keng ochish
“Chaynash”
Xuddi ovqat chaynayotgandek jag‘ni aylantirish harakati
O’yin shaklidagi mashqlar
Lab bilan shamol chiqarish
Til bilan konfet yalash o‘yinlari
Oyna oldida mashq – bola o‘z harakatini ko‘rib takrorlaydi
Tilni velosiped kabi aylantirish
Mashqlarni bajarish qoidalari
Har kuni 5–10 daqiqa
O‘yin va qiziqarli shaklda
Oyna oldida
Avval oddiy mashqlar → keyin murakkablar

Logopedik mashqlar (nafas mashqlari, artikulyatsion gimnastika, rezonans mashqlari) nutq a’zolarini mustahkamlaydi, tovushlarni to‘g‘ri chiqarishga yordam beradi va nutqning ravonligini oshiradi.

Shuningdek, ba’zi hollarda tibbiy muolajalar (ORL nazorati, adenoid yoki tanglay yorig‘ini tuzatish) ham zarur bo‘lishi mumkin.

Natijada, rinolaliya bilan og‘rigan bolalar va kattalarda nutqni to‘g‘rilash uchun logopedik mashqlar + tibbiy yondashuv birgalikda qo‘llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александрова, Н. В. Логопедия: Учебник для студентов педагогических вузов. — М.: Просвещение, 2018.

2. Виноградова, Е. Н. Нарушения речи у детей: диагностика и коррекция. — СПб.: Речь, 2017.

3. Голубева, И. В. Логопедическая работа с детьми с ринолалией. — М.: Логопед, 2015.

4. Курдюкова, Т. И. Артикуляционная гимнастика и упражнения для коррекции речи. — М.: Просвещение, 2016.

5. Ayupova. M. Y A70 Logopediya: darslik.

TA’LIM MUASASALARINING BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA AMALIY TAJRIBALAR

Dexqonov Laziz Quldashevich
Qo‘qon shahar 1-son politexnikumi direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlar va ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshqaruvning samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va muassasalarni zamonaviy talablarga moslashtirishda innovatsion metodlar, strategik rejalashtirish va raqamli texnologiyalar qanday qo‘llanilishi batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro va mahalliy amaliy tajribalar solishtirilib, ta’lim muassasalarining boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta’lim muassasalarining samaradorligini oshirish, rahbar va pedagoglarning faoliyatini optimallashtirish va o‘quv jarayonini interaktiv, ijodiy va natijaviy qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim muassasalari, boshqaruv tizimi, innovatsion yondashuvlar, amaliy tajribalar, strategik rejalashtirish, ta’lim sifati, rahbarlik, raqamli texnologiyalar, boshqaruv samaradorligi, pedagogik jarayon, innovatsion menejment.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimi ta’lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va muassasa ichidagi resurslarni samarali taqsimlashning muhim omili hisoblanadi. Ta’lim muassasalarining samarali ishlashi nafaqat o‘quv jarayonining sifatiga, balki pedagog va ma’muriy xodimlarning ish faoliyatiga, talabalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqish va faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, boshqaruv jarayonida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda strategik rejalashtirish ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion menejment metodlarini qo‘llash muassasaning samaradorligini oshirish, rahbar va pedagoglarning faoliyatini optimallashtirish, shuningdek, o‘quv jarayonini interaktiv va natijaviy qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, xalqaro va mahalliy amaliy tajribalar ta’lim muassasalarida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlar va amaliy tajribalarni o‘rganish nafaqat pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish, balki strategik rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois maqolada boshqaruv jarayonidagi innovatsion yondashuvlar, ularning amaliy qo‘llanilishi,

yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar keng tahlil qilinadi.

Ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimi muassasa faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Boshqaruv jarayoni pedagogik, ma’muriy va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish va muassasa xodimlarining faoliyatini optimallashtirishga yo‘naltiriladi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv tizimining samarali ishlashi ta’lim sifatini oshirish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, pedagogik jarayonni interaktiv va ijodiy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion yondashuvlar ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh darajaga olib chiqishda strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

Strategik rejalashtirish: muassasaning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va resurslardan samarali foydalanish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish: elektron hujjat aylanishi, ta’lim jarayonini raqamlashtirish va interaktiv platformalarni qo‘llash.

Pedagogik va ma’muriy jarayonlarni integratsiyalash: o‘quv jarayonini boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish va nazorat tizimini samarali tashkil etish.

Yangi menejment metodlarini qo‘llash: innovatsion metodlar va ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish.

Xalqaro amaliyotda ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga erishilgan. Masalan, raqamli monitoring tizimlari va elektron baholash platformalari pedagogik jarayonni optimallashtirishga, xodimlar va talabalar faoliyatini tahlil qilishga xizmat qiladi. Mahalliy amaliy tajribalar esa innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali boshqaruv tizimini soddalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va pedagogik jarayonni interaktiv qilish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Biroq amaliyotda innovatsion yondashuvlarni joriy etishda bir qator muammolar uchraydi:

Raqamli texnologiyalarni yetarli darajada qo‘llay olmaslik.

Pedagog va ma’muriy xodimlarning innovatsion menejment metodlariga tayyor emasligi.

Strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarining to‘liq ishlamasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan: pedagog va ma’muriy xodimlarni innovatsion menejment bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash, elektron monitoring va boshqaruv tizimlarini joriy etish, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash va ta’lim jarayonini interaktiv, natijaviy va ijodiy shakllantirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash muassasa samaradorligini oshirish, pedagog va ma’muriy xodimlar faoliyatini optimallashtirish hamda o‘quv jarayonini

interaktiv va ijodiy qilishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliy tajribalar innovatsion menejment metodlari yordamida boshqaruv jarayonini modernizatsiya qilish, elektron monitoring tizimlari orqali resurslardan samarali foydalanish va o‘quv jarayonini raqamlashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi.

Biroq amaliyotda bir qator to‘siqlar mavjudligi aniqlangan. Jumladan, pedagog va ma’muriy xodimlarning innovatsion yondashuvlarga tayyor emasligi, strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi cheklovlar boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion menejmentni muvaffaqiyatli joriy etish uchun doimiy malaka oshirish, zamonaviy texnologiyalarni tizimli qo‘llash va boshqaruv jarayonini strategik rejalashtirish zarur.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini oshiradi, pedagog va ma’muriy xodimlarning ijodiy va analitik salohiyatini rivojlantiradi, o‘quv jarayonini optimallashtiradi va talabalar faoliyatini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, muassasa rahbarlari uchun asosiy vazifa innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishdan iborat bo‘ladi.

Shu sababli, boshqaruv jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va amaliy tajribalarni tizimli tahlil qilish orqali ta’lim muassasalari o‘zining strategik maqsadlariga samarali erishishi mumkin.

Yuqoridagi tahlil va tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish, balki muassasaning samaradorligini oshirish, resurslarni optimallashtirish va rahbar hamda pedagoglarning faoliyatini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion menejment metodlari, raqamli texnologiyalar, strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarining samarali qo‘llanilishi ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini oshiradi, o‘quv jarayonini interaktiv, ijodiy va natijaviy qiladi.

Shuningdek, tadqiqot amaliy tajribalarni tahlil qilish orqali muassasa boshqaruvida yuzaga keladigan asosiy muammolar — pedagog va ma’muriy xodimlarning innovatsion yondashuvlarga tayyor emasligi, strategik rejalashtirishning yetarli emasligi va raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi cheklovlar — aniqlangan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun doimiy malaka oshirish, innovatsion metodlarni tizimli joriy etish va boshqaruv jarayonini strategik rejalashtirish zarur.

Shu bois, ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlar va amaliy tajribalarni keng joriy etish orqali nafaqat muassasa samaradorligini oshirish, balki pedagog va talabalar faoliyatini rag‘batlantirish, ta’lim sifatini yaxshilash va muassasani zamonaviy talablarga moslashtirish mumkin. Ushbu yondashuvlar kelajakda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, interaktiv va ijodiy

ta’lim muhitini yaratish hamda strategik rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayeva, N. R. (2021). Innovatsion menejment va ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligi. Tashkent: Fan va ta’lim.
2. Islomov, A. (2020). Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va boshqaruv. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. Karimov, S., & Rahimova, L. (2019). Pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlar. Pedagogika va ta’lim nazariyasi, 5(2), 34–42.
4. UNESCO. (2018). Innovations in Education Management: Global Practices. Paris: UNESCO Publishing.
5. OECD. (2019). Education Management and Leadership: International Perspectives. Paris: OECD Publishing.
6. Hamidova, Z. (2020). Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimida innovatsiyalar. Ilmiy axborotnoma, 3(1), 12–20.
7. Jones, P., & Smith, L. (2017). Digital Technologies in School Management. London: Routledge.
8. Tursunov, M. (2018). Strategik rejalashtirish va ta’lim muassasalari boshqaruvi. Tashkent: O‘zbekiston pedagogika instituti nashriyoti.
9. Nazarov, R. (2021). Innovatsion menejmentning amaliy aspektlari. Ta’lim va menejment, 2(4), 45–53.
10. OECD. (2020). School Leadership for Innovation and Excellence. Paris: OECD.
11. Sultonova, D. (2019). Raqamli texnologiyalar yordamida ta’limni boshqarish. Pedagogik tadqiqotlar, 7(3), 28–37.
12. Robinson, V., Lloyd, C., & Rowe, K. (2008). The Impact of Leadership on Student Outcomes. Educational Administration Quarterly, 44(1), 5–28.
13. Karimova, F. (2020). Boshqaruv tizimida zamonaviy tendensiyalar. Ilm-fan va amaliyot, 6(2), 15–23.
14. UNESCO. (2019). School Leadership and Innovation in Education. Paris: UNESCO.
15. Hasanov, J. (2021). Ta’lim muassasalarida innovatsion menejment va boshqaruv samaradorligi. Tashkent: Ilm-fan nashriyoti.

MAKTABGACHA TA’LIMDA KVEST TEXNOLOGIYASI

O‘rinova Feruzaxon O‘ljayevna
Farg‘ona davlat universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrasi professori pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Abdumutalova Dilyora Alimardon qizi, talaba

Annotatsiya: Bugungi kunda davlat va jamiyat tarbiyachi pedagoglar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv konseptsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tashkilotii fasilitatorlik yondashuvini yanada takomillashtirish va respublika maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ommalashtirish mazmuni haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs intellekti, kvest usuli, fasilitator, akmeologiya, kasbiylik, ijodkorlik, Kvest texnologiyasi , zamonaviy ta'lim, ta'limda akmeologik yondashuv, akmeologik muhit tuzilmasi, metodologiya.

Pedagog fasilitatorlik yondashuvini qo‘llanilishida ta’lim texnologiyalaridan faol foydalanish mumkin bo‘lgan kvest usuli bugungi kunda innovatsion metodik jarayon sifatida ommallashib bormoqda. Kvest usuli tarbiyalanuvchilarga faol, ijodiy va guruhda ijobiy hissiy muhitni munozarali suhbatlar, muammoli vaziyat yechimini aniqlash yoki tadqiq etish asosida ta’limiy faoliyatlarni tashkil qilish jarayonidir.

“Kvest” texnologiyasining afzallik jihatlarini shunday talqin qilish mumkin:

• Tarbiyalanuvchining aqliy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan qiziqarli o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, bolaning tasavvur olamida yashash imkoniyatini beradi;

• O‘yin orqali ta’lim berishga qaratilgan ko‘p tarmoqli texnologiyadir. Ushbu texnologiyani qo‘llashda tarbiyachi-pedagog erkin holatda turli topshiriqlarni loyiha ichiga joylashtirishi mumkin. Bu esa ta’limda ko‘rgazmalilik va noan’anaviylikni yaratish imkonini beradi. Bolalar ilgari bajarishni xohlamagan qiyin topshiriqlarni ham jumboq sifatida qarab ijodiy yondasha boshlaydilar.

Tarbiyachi fasilitatorlik faoliyatini kvest o‘yinlarida har tomonlama namoyon qilishi mumkin. Kvest o‘yinlari bosqichma-bosqich olib boriluvchi faoliyat hisoblanadi. Bunda har bir bosqich keyingi bosqichga o‘tish uchun zina bo‘lib xizmat qiladi. Fasilitator tarbiyachi esa bosqichlardan o‘tishda va o‘yin jarayonini qiziqarli syujetda davom etishida muhim “hamkor” sifatida xizmat qiladi.

Bolalar bilan ishlashda ularda bajarilishi zarur bo‘lgan faoliyatga nisbatan motivatsiyani uyg‘otish muhim sanaladi. Faoliyatga katta qiziqish bilan kirishish bolani muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi. 5 slad Kvest o‘yinlari o‘zining izlanishga yo‘naltirilganligi bilan kuchli motivatsiyani uyg‘otish xususiyatini saqlaydi. Ammo motivatsion harakatlarni tadbiq etilishida quyidagilarni bilish zarur.

Motivatsiya qurish qoidalari:

• yoshni hisobga olish (yoshi kattaroq bo‘lsa, bilim olishga qiziqish o‘yin motivatsiyasidan oshadi);

• motivatsiya iqtisodiy bo‘lishi kerak (2-3 daqiqa, ustunlik kerak emas, aks holda bilim olishga qiziqish yo‘qoladi);

• vaziyatning izchilligi va to‘liqligi, qahramon ta’lim faoliyati jarayonida paydo bo‘lishi kerak

Kvest usuli jamoa bo‘lib o‘ynaladi va shuning uchun ham bolalar tomonidan iliq qarshi olinadi. Ayni usulda mashg‘ulot olib borish uchun tarbiyachidan artistlik mahorati, ijodkorlik talab etiladi. Chunki bu usulda shunchaki, nomigagina qilingan o‘yin tarbiyalanuvchilarni qiziqtira olmaydi. Aynan tarbiyachi bolalarga qiyin savollar topadi, ularni mushkul vaziyatlarga solib qo‘yadi va oxir oqibat har bir bolani mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Kvest texnologiyasi aynan bola intellektini rivojlantirish va aqliy bosim o‘rnini qiziqishga aylantirish imkoniyatini beradi.

Ta’lim kvestlari loyiha faoliyatini o‘z ichiga oladi. Kvest - loyiha faoliyati, dizayn usuli va o‘yin texnologiyasi sinteziga asoslangan, sarguzasht yoki o‘yin bilan bog‘liq doimiy, maqsadli qidiruvdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kvest loyihalarini qo‘llash muvaffaqiyatli sanaladi. Kvest texnologiyasining afzalligi shundaki bu - faol o‘qitish usullaridan foydalanish sifatida namoyon bo‘ladi va bolani natijaga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Kvest – ta’limiy faoliyat uchun ham, guruhli qiziqarli o‘yin uchun ham, individual ish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Bunday qidiruv loyihasi ustida ishlash jarayonida bola real voqe’liklarni tushunadi, muayyan vaziyatlarda yashaydi, hodisalarga chuqur kirib borish, yangi jarayonlar va obyektlarni qurishda ishtirok etadi. Axborot faoliyati nuqtayi nazaridan, kvest loyihasi ustida ishlashda uning ishtirokchisi ma’lumotni qidirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini, taqqoslash asosida yangi ma’lumotlarni saqlash, uzatish, taqqoslash va sintez qilish qobiliyatini talab qiladi.

Tarbiyachi-pedagoglar kvest loyihasini tayyorlashda quyidagi tamoyillarga amal qilishi tavsiya etiladi:

- qiziqarli nutq tayyorlash;
- jumboq yoki sarguzasht nafasini beruvchi qiziqarli vazifa senariyini yaratish;
- ish rejasini tuzish;
- axborot resurslari ro‘yxatini tuzish;
- O‘z navbatida bola: rolni tanlaydi; resurslarni topish rejasini tuzadi; mavjud resurslarini o‘rganadi; faoliyatni amalga oshiradi.

Tugallangan kvest vazifalarini bajarish jarayonida bola har bir harakat, vazifa, muammo uchun bir nechta nuqtayi nazar, berilgan vazifalarni hal qilishning bir nechta variantlari bo‘lishi mumkinligini tushunishi mumkin. Bola topshiriqlarni bajarish jarayonida taqqoslashni, solishtirishni, boshqa nuqtayi nazarlarni qabul qilishni o‘rganadi.[havola qo‘yaman] Guruhda kvest texnologiyasidan foydalanish bolalarning axborot bilan ishlash va ularni saralash, o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘ziga nisbatan hissiy jihatdan ijobiy munosabatda bo‘lish, maqsadlarga erishishda fidoyilik va qat’iyatlilik, maksimal mustaqillikni ta’minlaydigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Kvest texnologiyasi asosida faoliyatni tashkil etish orqali bolalarning tadqiqiy faoliyatga motivatsiyasini oshirishni maqsad qilgan pedagog avvalo faoliyat

loyihasini yaratib olishi va uning taxminiy natijasini oldindan belgilab olishi lozim. Kvest texnologiyasi asosida ta’limiy faoliyat loyihasining tarkibini quyidagicha belgilash mumkin:

- kirish qismi: o‘yin holatini yaratish (yechilishi zarur bo‘lgan “jumboq” haqida ma’lumot berish – motivatsiyalash; (sandiq, topishmoq)
- yangi bilimlarni egallash jarayoni: tadqiq etilishi kerak bo‘lgan jumboqni yechish uchun kerakli topshiriqlarni yoki harakatlarni bajarishda ularda tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantiruvchi kichik topshiriqlardan foydalanish;
- yakuniy qism. Faoliyatlar natijasini aniqlash – bunda kirish va bilimlarni egallash jarayonida egallangan bilimlar refleksiya qilinadi. O‘rganilganlarni takrorlash ularning bola tafakkurida samarali refleksiv xarakterga aylanishini ta’minlaydi. Shuning uchun har bir yangi o‘zlashtirilayotgan bilimni qayta-qayta takrorlash uning ongda muhrlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, fasilitatorlik yondashuvi – tarbiyachining ta’lim jarayonini boshqaruvchi sifatida emas balki hamkorlik (ya’ni bolalar bilan faoliyatni tashkil etishda tajribali hamkor) asosida faoliyatlarni olib borishni o ‘z ichiga oladigan faoliyat, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022.
2. U.M.Xalikova.Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. “Fan va Ta’lim” nashriyoti. Buxoro 2022.
3. Urinova F. U. Steam implementation in the organization of activities of the development centers in preschool education //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2024. – T. 2. – №. 5. – S. 45-49.
4. O‘ljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari //Pedagog. – 2024. – T. 7. – №. 5. – S. 827-831.

JISMONIY BARKAMOLLIKKA ERISHISHDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI

Jabborova Marifat Qodiraliyevna
Farg‘ona davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonova Ravshanoy Axatovna
Farg‘ona sh. 56 - DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining bola organizmi, ruhiy holati va ijtimoiy faolligiga ta’siri tahlil

qilinadi. Shuningdek, yosh avlodni jismonan barkamol, sog‘lom va irodali etib tarbiyalashda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rni, maqsad va vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy barkamollik, chiniqish, harakat faoliyati, salomatlik.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va inson salomatligi bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Prezidentimiz tomonidan yoshlar salomatligini mustahkamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Shuningdek, sog’lom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya mashg‘lotlarining o’rni beqiyosdir. Jismoniy tarbiya - bu sog‘lom turmush tarzining asosi, insonning jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etishning turli shakllarida (mashg‘ulotlar, harakatli o‘yinlar, mustaqil harakat faoliyati va h.k.) tarbiyachining e’tibori fikrlaydigan, o‘z yosh imkoniyatlariga ko‘ra ongli harakat qiladigan, harakat ko‘nikmalarini muvaffaqiyat bilan egallaydigan, atrof-muhitda mo‘ljal ola biladigan, uchraydigan qiyinchiliklarni faol tarzda bartaraf etadigan, ijodiy izlanishga intiladigan barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratiladi.

Barkamol inson - bu nafaqat bilimli va irodali, balki sog‘lom tan va ruh egasidir. Jismoniy tarbiya – jismoniy barkamolikka erishish maqsadida harakat ko‘nikmalari hamda ruhiy-jismoniy xususiyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkaziladigan jismoniy tarbiya bolaning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda unga umuminsoniy hamda milliy madaniy qadriyatlarni berish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya bolaning har tomonlama rivojlanishiga munosib hissa qo‘shib, uning ruhiy, ma’naviy, axloqiy taraqqiyotiga asos bo‘ladi. Shuningdek, bolalar orasidagi o‘zaro ijtimoiy munosobatlar, do‘stlik, mehribonlik, insonparvarlik, oqibat, saxovat kabi xususiyatlarni mustahkamlaydi.

Jismoniy tarbiya - inson organizmining sog‘lom rivojlanishiga, harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo‘lib, u insonni jismoniy barkamollikka olib boruvchi vositadir.

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi - inson salomatligini mustahkamlash, harakat madaniyatini shakllantirish va mehnatga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkaziladigan jismoniy mashg‘ulotning ahamiyati quyidagicha:

- Bolada qon aylanish, nafas olish va asab tizimlarining faoliyatini yaxshilaydi;
- Bolaning mushak va suyak tizimini mustahkamlaydi;
- Bolada ruhiy barqarorlikni oshiradi, stressni kamaytiradi;
- Bolaning intizom, iroda va o‘zini boshqarish sifatlarini shakllantiradi.

Shuningdek, muntazam mashg‘ulotlar bolada mehnatsevarlik, sabr-toqat, qat’iyatlilik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Ayniqsa, o‘quvchi va talaba yoshlar

uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari mehnat unumdorligini oshirishda, ta’lim olishga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari quyidagi vazifalar hal etiladi:

- bolalarda yuqori axloqiy, irodaviy, jismoniy fazilatlar tarbiyalanadi;
- bolalar sog‘ligini saqlash va mustahkamlash amalga oshiriladi;
- bolalarda jismoniy tarbiya bo‘yicha bilimlar shakllantiriladi;

Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish organizmning funksional imkoniyatlarini, aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini, o‘quv mehnatining unumini oshiradi. Jismoniy tarbiya vositalaridan mohirlik bilan foydalanish, amaliy va boshqa maxsus intellektual sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, ertalabki badantarbiya, yugurish, suzish, sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol) kabi faoliyatlar organizmni chiniqtiradi va bardamlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, har bir tarbiyachi yosh avlodni sog’lom xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Jismoniy barkamollikka erishish — inson hayotining muhim maqsadlaridan biridir. Bu jarayonda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyosdir. U sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, mehnatga layoqatli, irodali va faol fuqaroni tarbiyalashning eng samarali vositasidir. Shuning uchun har bir oila, ta’lim muassasasi va jamiyat a’zolari jismoniy tarbiyaga e’tibor berishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Усмонхўжаев Т.С.Исломова «Мактабгача таълим муассасаларида жисмоний тарбия» «Илм Зиё» наш. Т.: 2006

3. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya” Tuzuvchi-mualliflar: T.S.Usmonxo‘jayev, S.T.Islomova. T.: “Ilm Ziyo” nash. 2006.

4. M.Q.Jabborova Bo‘lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU Ilmiy xabarlar. 2022\ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32)

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO MEZONLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Gulboyev Akbar Tuxtayevich
BuxDPI, “Umumiy pedagogika” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim sifati monitoringini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, TIMSS, PISA va boshqalar) mezonlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi, matematik savodxonligi hamda tabiiy fanlar bo‘yicha kompetensiyalarini aniqlashda xalqaro standartlarning milliy ta’lim tizimiga

moslashtirilish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaga asoslangan baholash tamoyillari, diagnostik vositalarni yaratish metodikasi hamda baholash natijalaridan foydalanishning samarali mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan. Maqolada xalqaro mezonlarni joriy etish orqali boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning amaliy imkoniyatlari va istiqbollari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, ta’lim sifati, xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, TIMSS, PISA, kompetensiyaga asoslangan ta’lim, baholash mezonlari, monitoring, diagnostika, o‘quv yutuqlarini baholash, metodika, xalqaro standartlar, savodxonlik, ta’lim indikatorlari.

XXI asrda dunyo miqyosida ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar, global raqobat va texnologik taraqqiyot inson kapitaliga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Har qanday davlatning taraqqiy darajasi endilikda uning tabiiy boyliklari bilan emas, balki ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlari bilan baholanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda shaxsning bilimga bo‘lgan qiziqishi, o‘qish va fikrlash madaniyati, ijodkorlik va axloqiy fazilatlari shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *“Ta’lim-tarbiya tizimi — bu xalqimizning kelajagi, yurtimizning taraqqiyotini belgilaydigan eng muhim omildir.”* Shu boisdan mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni tubdan isloh qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ta’lim sifatini baholashning ilg‘or tizimlarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda ta’lim tizimida “bilim berish”dan ko‘ra “kompetensiya shakllantirish”ga o‘tish jarayoni kechmoqda. Bu o‘zgarish o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini, o‘qituvchining rolini, baholash tizimining mazmunini tubdan o‘zgartirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

Ta’lim sifatini aniqlash va nazorat qilishda xalqaro tajriba, baholash mezonlari va tahlil mexanizmlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida sifatni baholash jarayoni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi ta’lim tizimining poydevori bo‘lib, aynan shu bosqichda bola o‘qish, yozish, fikrlash va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi.

Xalqaro baholash tizimlari — PISA, TIMSS va PIRLS — bugungi kunda ta’lim sifatini aniqlashda ishonchli vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Ular o‘quvchilarning faqat nazariy bilimini emas, balki hayotiy vaziyatlarda bu bilimni qo‘llay olish salohiyatini ham baholaydi. Shu jihatdan, boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash mezonlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini o‘rganish dolzarb masala

hisoblanadi. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida boshlang‘ich ta’limda yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalar bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv. An’anaviy ta’lim modeli, asosan, o‘quvchilarga tayyor bilimni berish va uni yodlashga yo‘naltirilgan edi. Zamonaviy ta’limda esa asosiy e’tibor o‘quvchilarning bilimni amaliyotda qo‘llay olish, mustaqil tahlil qilish, ijodiy fikrlash hamda muloqotga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni muammoli vaziyatlarda yechim topishga o‘rgatadi. O‘zbekistonning 2020-yilda qabul qilingan “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standarti”da ham aynan kompetensiyaviy yondashuv asosiy tamoyil sifatida belgilangan. Bu orqali o‘quvchining faqat bilim darajasi emas, balki bilimni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay bilish salohiyati ham baholanadi.

Raqamli ta’lim va texnologik integratsiya. Bugungi raqamli asrda ta’lim jarayonini texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Raqamli vositalar yordamida o‘qituvchi darsni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali shaklda tashkil etadi. Masalan, boshlang‘ich sinflarda elektron darsliklar, “Maktab.uz”, “EduMarket” kabi onlayn platformalardan foydalanish kengaymoqda. Shuningdek, pandemiya davrida onlayn ta’lim tizimining joriy etilishi ta’limdagi raqamli transformatsiyaning zarurligini isbotladi. Raqamli ta’lim nafaqat o‘qitish jarayonini, balki baholash, monitoring va tahlil tizimini ham avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsion kompetensiyasini oshirish dolzarb masalalardan biridir.

Inklyuziv va insonparvar ta’lim modeli Zamonaviy ta’lim konsepsiyasi har bir bolaning o‘ziga xosligi va qobiliyatini e’tiborga oladi. Inklyuziv ta’lim tamoyili shundan iboratki, har bir bola — jismoniy yoki ruhiy imkoniyatidan qat’i nazar — sifatli ta’lim olish huquqiga ega. O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Shu orqali ta’lim jarayonida ijtimoiy tenglik, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalari mustahkamlanmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini baholash — bu o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, kompetensiyalari, o‘qitish jarayoni samaradorligi va pedagogik faoliyat natijalarini aniqlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Baholashning asosiy maqsadi faqat natijani o‘lchash emas, balki ta’lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Ta’lim sifati ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, unda o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi, o‘qituvchilarning malakasi, o‘quvchilar faolligi, darsliklar sifati va ta’lim muhiti kabi ko‘plab omillar bir-biriga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli baholash tizimi kompleks yondashuvga asoslanishi kerak. An’anaviy baholashda o‘quvchining javobi, test natijasi yoki yozma ish asosida baho qo‘yilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda o‘quvchining tahliliy fikrlashi, muammoni hal etish, muloqotga

kirishish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ham e’tibor qaratiladi. Bu esa xalqaro baholash tizimlarining metodologiyasiga yaqinlashishni taqozo etadi.

Integrativ o‘qitish va STEAM ta’limi. Yana bir muhim tendensiya — bu fanlararo integratsiya va **STEAM ta’lim** (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi. Bu usul orqali o‘quvchilarda fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, mantiqiy fikrlash, loyihalash va innovatsion tafakkur shakllanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab STEAM yondashuvini joriy etish bolalarda ijodkorlik va amaliy fikrlashni rivojlantiradi.

Xalqaro baholash tizimlari: tajriba va ahamiyat. Ta’lim sifatini oshirishda xalqaro baholash dasturlari **— PIRLS, TIMSS, PISA** kabi tadqiqotlar — muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki ularning fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish ko‘nikmalarini ham o‘lchaydi.

PIRLS — o‘qish savodxonligi bahosi: PIRLS tadqiqoti 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish va matnni tushunish kompetensiyasini baholaydi. O‘zbekiston 2021-yilda birinchi marta PIRLS tadqiqotida qatnashdi va bu natijalar asosida boshlang‘ich sinf darsliklarida o‘qish va tahliliy savollar tizimi qayta ko‘rib chiqildi. PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlaydi. Unda o‘quvchi nafaqat matnni o‘qiy olishi, balki uni tushunishi, asosiy g‘oyani ajratib olishi, matn mazmuniga tahliliy yondashishi hamda fikr bildirishi baholanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning o‘qish faoliyatini bilim emas, balki **fikrlash jarayoni** sifatida ko‘radi.

TIMSS — matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tahlil: TIMSS natijalari mamlakatlar o‘rtasida ta’lim sifatidagi tafovutlarni aniqlashga yordam beradi. O‘zbekiston uchun bu dastur matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishda metodik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish imkonini berdi. TIMSS dasturi 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika hamda tabiiy fanlar bo‘yicha tayyorgarligini aniqlaydi. Unda o‘quvchilar nazariy bilimni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati asosiy mezon sifatida olinadi. Bu yondashuv o‘qitish jarayonini natijadorlikka yo‘naltiradi.

PISA — hayotiy kompetensiyalar o‘lchovi: PISA tadqiqotida 15 yoshli o‘quvchilar ishtirok etadi, biroq uning yondashuvi boshlang‘ich bosqichda ham muhim. Bu baholash o‘quvchilarning kundalik hayotda bilimni qo‘llay olish salohiyatini aniqlaydi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ham **tanqidiy fikrlash**, **ijodiy yondashuv**, **muammoli vaziyatlarda yechim topish** ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston 2021-yilda PIRLS baholashida ilk bor ishtirok etdi. Bu jarayon milliy ta’lim tizimining real holatini aniqlash va xalqaro mezonlarga moslashtirish yo‘lida muhim tajriba bo‘ldi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi, matnni tushunish darajasi va tahlil qobiliyati bo‘yicha tahlil qilindi.

Xalqaro baholash dasturlari natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston o‘quvchilari uchun matnni tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratish, tanqidiy

fikrlash ko‘nikmalari hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa ta’lim mazmunini va metodikasini xalqaro talablar asosida yangilash zaruratini ko‘rsatadi. Xalqaro baholash tizimlari bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat o‘quvchilarning bilimini, balki ta’lim tizimining samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Boshlang‘ich ta’limda bu tizimlardan foydalanish o‘qitish jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro mezonlarni o‘rganish va ularni milliy baholash tizimiga integratsiya qilish ta’lim mazmunini boyitadi, o‘qituvchilarning metodik saviyasini oshiradi, o‘quvchilarning fikrlash madaniyatini rivojlantiradi. Shu tariqa, boshlang‘ich ta’lim sifatini baholashning ilmiy-metodik asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga joriy etish kelajak avlodning raqobatbardoshligini ta’minlaydigan muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish va ilm-fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Umumiy o‘rta ta’lim davlat standarti”. — 2020.
3. OECD. *PISA 2022 Results*. — Paris: OECD Publishing, 2023.
4. IEA. *PIRLS 2021 International Report*. — Amsterdam: IEA, 2022.
5. Mullajonova D. “Boshlang‘ich ta’limda baholashning zamonaviy yondashuvlari”. — Toshkent, 2022.
6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.
7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.
8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.
9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.
10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.
11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL

JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – C. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – C. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS’COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUV JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Abduraximov Shoqosim Abduraxmonovich
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning usullari va metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli resurslar va loyiha asosida o‘qitish tizimlari orqali o‘quv jarayonining sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llash tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik texnologiyalarni tizimli va interfaol tarzda qo‘llash boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarining faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv, o‘quv jarayoni, ta’lim sifati, loyiha asosida o‘qitish, raqamli resurslar, kognitiv rivojlanish, ijodiy faollik.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish ta’lim sifatining asosiy mezoni sifatida qaraladi. Boshlang‘ich ta’limning muvaffaqiyati o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, raqamli va multimedia resurslar orqali o‘quv jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini va kognitiv rivojlanishini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, texnologiyalar yordamida darslarni vizual va interaktiv tarzda tashkil etish o‘quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantirish va ularning motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, boshlang‘ich sinflarda pedagogik texnologiyalarni tizimli va samarali qo‘llash orqali nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshirish, balki o‘quvchilarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, darslarni interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularning amaliy qo‘llanilishi, samarali interfaol metodlar va loyiha asosida o‘qitish tajribasi keng tahlil qilinadi.

Pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonini tizimli, samarali va interaktiv tarzda tashkil etish uchun mo‘ljallangan ilmiy asoslangan metodlar majmui hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda pedagogik texnologiyalar interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli va multimedia resurslar, shuningdek, o‘quvchilarni faol jalb etishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini nafaqat qiziqarli, balki bilimlarni mustahkamlash, ijodiy va kognitiv rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltiradi.

Interfaol metodlar dars jarayonida o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va muammolarni hal etishga rag‘batlantiradi. Misol uchun, guruh ishlari, muammoli vazifalar, rolli o‘yinlar va loyiha ishlari o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar esa raqamli resurslar, elektron darsliklar, multimediya va interaktiv platformalarni qo‘llash orqali darslarni vizual va qiziqarli qiladi, shuningdek, ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradi, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi va ijodiy salohiyatni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, raqamli resurslar yordamida darslar interaktiv va vizual tarzda tashkil etilib, o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish va ma’lumotlarni tezroq o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Elektron platformalar va interaktiv taxtalar o‘quv jarayonini monitoring qilish, baholash va individual yondashuvni tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda boshlang‘ich sinflarda pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha amaliy tajribalar ijobiy natijalarni ko‘rsatmoqda. Interfaol metodlar va raqamli resurslar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi oshadi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari rivojlanadi, dars jarayoni esa qiziqarli va natijaviy bo‘ladi. Shu bilan birga, pedagoglarning malakasini oshirish va innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish orqali darslarning samaradorligini barqaror oshirish mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish va raqamli resurslar yordamida darslar nafaqat vizual va qiziqarli bo‘ladi, balki o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlash, amaliyotga tatbiq etish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi monitoring qilindi. Natijalar ko‘rsatdiki, interfaol va innovatsion pedagogik metodlarni muntazam qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ancha yaxshilangan. Masalan, loyiha ishlari orqali o‘quvchilar mavzuni chuqurroq o‘zlashtiradi, guruh ishlari esa hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, raqamli resurslar va multimediya vositalari darslarni yanada interaktiv qilganligi sababli o‘quvchilarda darsga bo‘lgan motivatsiya oshgan. Pedagoglarning kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki, texnologiyalar yordamida darslar yanada samarali va qiziqarli o‘tadi, o‘quvchilar mavzuni tezroq tushunadi va amaliyotga tatbiq etadi.

Umuman olganda, natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo‘llash boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish hamda darslarni interaktiv va ijodiy qilish imkoniyatini yaratishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli va multimediya resurslari o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy yondashuvini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, texnologiyalar yordamida darslar vizual va qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilarda mavzuga bo‘lgan motivatsiya ortadi, bu esa bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Interfaol va innovatsion metodlarni qo‘llash nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki pedagoglarning dars o‘tish usullarini takomillashtirish va ularni

zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ba’zi pedagoglar texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda resurslar yetishmasligi, malaka yetarli emasligi yoki texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi kabi muammolarga duch keladi.

Shu sababli, interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglarni muntazam malaka oshirish kurslari bilan ta’minlash, raqamli resurslarni keng joriy etish va darslarni strategik rejalashtirish zarur. Bu yondashuvlar o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantirish va darslarni interaktiv, ijodiy va natijaviy qilishga xizmat qiladi.

Natijalar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni tizimli va samarali qo‘llash boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim vositasidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli va multimediya resurslari yordamida darslar nafaqat qiziqarli va interaktiv bo‘ladi, balki o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlari, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari va mustaqil faoliyatga bo‘lgan tayyorgarligi sezilarli darajada oshadi.

Shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirish va texnologik resurslardan samarali foydalanish darslarning sifatini va o‘quvchilarning bilim darajasini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Interfaol va innovatsion metodlarni tizimli tarzda qo‘llash pedagogik jarayonni optimallashtiradi, o‘quvchilarni faol va ijodiy fikrlashga rag‘batlantiradi hamda o‘quv jarayonini natijaviy qiladi.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda darslarni interaktiv, qiziqarli va natijaviy tashkil etishning muhim vositasidir. Shu bois, pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun samarali o‘quv muhitini yaratishning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – C. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of

Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 11. – C. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – C. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – T. 11. – №. 11. – C. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – C. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – C. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – C. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

BOSHLANG’ICH TA’LIMGA MAJBURIY BIR YILLIK TAYYORLASHDA “ILM YO‘LI” VARIATIV DASTURINING AMALIYOTDAGI O’RNI

Professor: Fayzullayev Sharipboy Nurullayevich
Magistrant:Abdullayeva Dilfuza Sobir qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti.
“Boshlangich va Maktabgacha ta’lim nazariyasi” kafedrasi,
Telfon raqam: +998953350227
Email: abdullayevj146@gmail.com

Annatatsiya Maqolada O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida “Ilm yo‘li” nomli variativ dasturining hozirgi amalga oshirilish holati ko‘rib chiqiladi. Dastur 6–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash hamda ularning asosiy kompetensiyalarini o‘yin va rivojlantiruvchi o‘qitish usullari orqali shakllantirishga qaratilgan. Muallif dastur qo‘llanilishidagi ijobiy natijalar va mavjud muammolarni tahlil qiladi, metodik bazani takomillashtirish hamda pedagoglarning malakasini oshirish zarurligiga e’tibor qaratadi. Xulosa sifatida tayyorlov guruhlari bilan boshlang‘ich sinflar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash muhimligi ta’kidlanadi

Аннотация В статье рассматривается текущее состояние реализации вариативной программы «илм йули» в системе дошкольного образования Узбекистана. Программа направлена на подготовку детей 6–7 лет к школе и развитие их ключевых компетенций посредством игровых и развивающих методов обучения. Автор анализирует положительные результаты и существующие проблемы в применении программы, обращает внимание на необходимость совершенствования методической базы и повышения квалификации педагогов. Сделан вывод о важности обеспечения преемственности между подготовительными группами и начальными классами.

Ключевые слова: «илм йули» вариативная программа, дошкольное образование, подготовка к школе, методическое обеспечение, компетентностный подход

Annotation (in English). This article examines the current state of implementation of the *“Ilm yo‘li”* variative educational program in the preschool education system of Uzbekistan. The program aims to prepare children aged 6–7 for primary school by developing their key competencies through interactive and play-based learning. The author discusses both the positive outcomes and existing challenges of the program’s application, emphasizing the importance of improving methodological support, enhancing teacher qualifications, and ensuring continuity between preschool preparatory groups and primary school education.

Keywords: Ilm yo‘li, variative program, preschool education, school readiness, methodological support, competency-based approach.

Kirish. Hozirgi paytda dunyo nigohi Samarqand shahrida**.(14-noyabr,2025-yil tarixiy sana)** YUNESKO ning 43-konferensiyasi o’z ishini muvaffaqiyatli yakunladi.O’zbekiston xalqi birlashib, yagona Vatan bo’la oliishini isbotladi. Bunda, xalqaro ta’lim tizimida maktabgacha ta’limning mintaqaviy markazi O’zbekistonda ochilishi uchun Qaror qabul **qilindi.** Ayniqsa,bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash muhim masalalardan biri hisoblanib, maktabgacha ta’lim tizimida joriy etilgan “Ilm yo‘li” variativ dasturi ayni paytlarida katta amaliy salmog’i yanada oshib bormoqda .” Ilm yo’li” varyativ dasturi bolalarni har tamonlama ijtimoiy va intellektual jihatdan maktab hayotiga tayyorlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. “Ilm yo‘li” dasturi 6–7 yoshli bolalarning maktabga kirishdan oldingi bir yillik majburiy tayyorgarlik davrida qo‘llaniladi. Dastur bolaning har tomonlama rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosiy faoliyat turlari — nutq o‘stirish, atrof-muhit bilan tanishtirish, savod o‘rgatish elementlari, matematika, san’at, jismoniy rivojlanish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi [1].Ushbu dasturda majburiy faoliyat (80 %) va variativ faoliyat (20 %) nisbati belgilangan. Majburiy qism umumiy davlat standartlariga asoslangan bo‘lsa, variativ qism mahalliy sharoit, o‘quv muhit va pedagog ijodkorligiga bog‘liq tarzda moslashtiriladi [2].

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan “Ilm yo‘li” variativ dasturi so‘nggi yillarda keng amaliyotga joriy qilinmoqda. Ushbu dastur 6–7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga har tomonlama tayyorlashni ko‘zda tutadi. Ya’ni bola nafaqat o‘qish va yozishga, balki muloqot qilish, mustaqil fikrlash, atrof-muhitni anglash va ijodiy faol bo‘lishga ham o‘rgatiladi. Dasturda bolani jismoniy, bilish, nutqiy, ijtimoiy-hissiy va ijodiy jihatdan rivojlantirish asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan.“Ilm yo‘li”ning eng muhim jihatlaridan biri — uning variativ (moslashuvchan) bo‘lishidir. Bu degani, har bir maktabgacha ta’lim muassasasi o‘zining sharoiti, imkoniyatlari va bolalarning ehtiyojidan kelib chiqib dastur tarkibini moslashtirishi mumkin. Masalan, ba’zi

joylarda milliy qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodi asosida darslar tashkil qilinsa, boshqa hududlarda zamonaviy texnologiyalar va o‘yin metodlariga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Pedagoglar tajribalariga ko‘ra, “Ilm yo‘li” dasturi bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularda mustaqillik va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bundan tashqari, dastur inklyuziv ta’lim tamoyillariga ham asoslanadi, ya’ni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash imkoniyatini beradi.Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha muassasalarda metodik qo‘llanmalar va malakali tarbiyachilar bilan to‘liq ta’minlash hali ham muhim masala bo‘lib qolmoqda. Ba’zi joylarda o‘quv-uslubiy materiallar yetarli emas, pedagoglar esa yangi metodikaga to‘liq moslashib ulgurmagan.Shunga qaramay, “Ilm yo‘li” dasturi maktabgacha ta’lim tizimida muhim o‘rin egallab bormoqda. U bolalarni maktab hayotiga bosqichma-bosqich, qiziqarli va samarali tarzda tayyorlashda katta yordam bermoqda. Dastur doimiy ravishda takomillashtirilib, amaliyotda sinalmoqda

1. Yutuqlari (afzalliklari):Individual yondashuv:Har bir o‘quvchining qiziqishi va imkoniyatiga mos ta’lim olish imkonini beradi. Iqtidorli bolalar chuqurlashtirilgan yo‘nalishda rivojlanadi; Moslashuvchanlik:Dastur o‘quv jarayonini mahalliy sharoit, o‘qituvchi tajribasi va o‘quvchi ehtiyojiga qarab o‘zgartirish imkonini beradi.; jodkorlikni rag‘batlantiradi:O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangilik yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi; Zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi:Amaliy bilim, muloqot, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi; Ta’lim sifati oshadi:O‘qituvchilar darsni innovatsion metodlar bilan tashkil etishga harakat qiladilar.

2. Kamchiliklari (muammolari): Resurs yetishmasligi:Har doim ham maktablarda kerakli texnika, metodik qo‘llanmalar yoki malakali kadrlar mavjud emas; O‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi; Ba’zi pedagoglar variativ yondashuvni to‘liq tushunmaydi yoki uni amaliyotda qo‘llashda qiynaladilar; Baholash tizimidagi murakkablik; Har xil yo‘nalishdagi o‘quvchilarni bir xil mezon bilan baholash qiyinchilik tug‘diradi.Ota-onalarning tushunmovchiligi; Ba’zida ota-onalar yangi variativ yondashuvni an’anaviy ta’lim bilan solishtirib, ishonchsizlik bildiradilar; Dastur yuklamasi charchoq va motivatsiya pasayishiga olib keladi.

3. Amaliyotdagi qo‘llanilish holati: Bugungi kunga kelib “Ilm yo‘li” varyativ dasturi respublika miqyosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko’p ishlatilmoqda. Pedagog tarbiyachilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar va o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqilgan [3]. Dastur asosida bolalar bilan mashg‘ulotlar, o‘yinlar va tajribaviy topshiriqlar o‘tkazilib, maktabga tayyorlik darajasi aniqlanmoqda.Kuzatuvlar natijasiga ko‘ra, “Ilm yo‘li” dasturi asosida ta’lim olgan bolalar maktabning birinchi sinfida moslashuv jarayonini tezroq o‘tayotganligi, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalari rivojlanganligi kuzatilmoqda [4]. Hozirgi kunda ilm yo‘li haravvalgidan ham ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, texnologiyaning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, hayotimizga yangi imkoniyatlarning kirib kelishi – bularning barchasi ilm-fanning amaliyot bilan

uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ilm nafaqat nazariya, balki amaliy hayotda qo‘llaniladigan kuchli vositaga aylangan.Avvallari ilm olish, ko‘proq nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanardi. Bugun esa ilmiy bilim amaliyot bilan uyg‘unlashib, har bir sohaga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Masalan, tibbiyotda ilmiy tadqiqotlar asosida yangi davolash usullari yaratilmoqda, qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar qo‘llanilib, hosildorlik oshirilmoqda, ta’lim sohasida esa raqamli tizimlar orqali o‘qitish samaradorligi yuqorilamoqda.Ilm yo‘lida yurayotgan inson uchun eng muhim narsa – sabr va izchillikdir. Chunki ilm bir kunda egallanmaydi, u doimiy izlanish, yangilikka ochiqlik va amaliy tajriba talab qiladi. Har bir o‘rganilgan bilim amalda sinab ko‘rilsa, u yanada mustahkam bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, amaliyot – ilmning poydevori va sinov maydonidir.Shuningdek,har bir bola ham maktab ta’limiga tayyorlashda bolaning bilim salohiyatini oshrish muhum hisoblanmoqda har bir Bola o’zi tashqi dunyo bilan bog’lanib o’rganar ekan o’zi uchun uchunchu pedagog hisoblanadi ilmiy yondashuvsiz amaliy faoliyatda ham kutilgan natijaga erishish mushkul. Shuning uchun bugungi yoshlar nafaqat bilim olishga, balki uni amalda qo‘llashga ham e’tibor berishlari zarur. Ilm va amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlik – har qanday sohada muvaffaqiyat kalitidir.

Xulosa. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida joriy etilayotgan “Ilm yo‘li” variativ dasturi o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyotda ushbu dastur bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda va ijobiy natijalar ko‘rsatmoqda. Umuman olganda, “Ilm yo‘li” variativ dasturi ta’lim tizimini yangilash, o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish yo‘lida muvoffaqiyatli tajriba sifatida qaralmoqda. Dastur samaradorligini yanada oshirish uchun pedagoglar malakasini oshirish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va amaliy qo‘llanmalarni takomillashtirish zarur hisoblanadi.

. **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azamatova D. SH., Mirzayeva R. J. *“ILM YO‘LI” variativ dasturi asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning imkoniyatlari.* Образование Наука и Инновационные Идеи в мире, 47(5), 163-165, 2024. newjournal.org

2. Babayeva G. R. *Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda “Ilm yo‘li” variativ dasturining ahamiyati.* Образование Наука и Инновационные Идеи в мире, 72(2), 242-248, 2025. scientific-jl.com

3. Bolibekova M. *“Ilm yo‘li” variativ o‘quv dasturida inklyuziv ta’limning didaktik tamoyillari.* PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 5(02), 2024. worldlyjournals.com

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 66-son qarori. *Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorgarlikka bosqichma-bosqich o‘tish to‘g‘risida.* (2023 y.) lex.uz

5. **4.*Fayzullayev Sh.N.*** *Bo‘lajak mutaxassislarning bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari // Analytical Journal of Education and Development 176 Volume: 02Issue: 01 | 2022ISSN: 2181-2624www.sciencebox*.uz.

BOLALARNI TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA KUZATISH, SUHBAT, O‘YIN FAOLIYATLARI INTEGRATSIYASI NUTQIY FAOLLIKNI OSHIRISH ASOSIDIR.

Jabborova Marifat Qodiraliyevna
Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Usmanova Mavjuda Ne’matovna
Maktabgacha ta’lim yonalishi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotining turli yosh guruhlarida bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonining ahamiyati hamda mazkur jarayonda nutqni rivojlantirishning usullari, metodlari va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kuzatishlar va amaliy tajribalar orqali bolalarda lug‘at boyligini kengaytirish, bog‘lanishli nutqni shakllantirish hamda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari tahlil etiladi.

Kalit so’zlar: tafakkur, idrok, kuzatuvchanlik, integratsiya, amaliy tajriba, ko’nikma, leksik, grammatik.

Kirish. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug‘at ustida ishlash maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning voqelikni faol idrok qiladigan va tevarak-atrofdagi hayotga kirishib ketadigan bir davrdirki, bu davrda ularning so‘z boyliklari juda tez o‘sib boradi. Tarbiyachi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirar, ularning bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yar va boshqarar ekan, har bir bolaga uning to‘plagan tajribasini tartibga solishga yordamlashadi, unga yangi bilimlar beradi, unda qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi, o‘zini qurshab turgan olamni bilishga bo‘lgan qiziqishini o‘stiradi. Ushbu jarayon bolaning tafakkuri, idroki, kuzatuvchanligi va nutqining rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. “Ilk qadam” o‘quv dasturida ham tevarak-atrof bilan tanishtirishning barcha ta’limiy faoliyatlar bilan integratsiyalashuvi alohida urg‘u bilan ta’kidlangan. Bolalar tevarak-atrofni o‘rganish davomida ko‘plab yangi so‘zlarni, narsalarning nomlanishini eshitadi, ko‘radi va o’yinlarda ulardan foydalanadi. Shuningdek, bola nutqi rivojlanishiga quyidagi jihatlar bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

1. **Leksik birliklarni kengaytirish**

Tabiat hodisalari, hayvonlar, o‘simliklar, mehnat qurollari, transport vositalari haqidagi so‘zlar bilan lug‘at boyitiladi.

2. **Grammatik nutqni shakllantirish**

Ob’yektlarning xossalarini (katta-kichik, uzun-qisqa, yumshoq-qattiq) taqqoslash orqali ularning sifati, miqdori, o‘lchami haqida gap tuzish o‘rgatiladi.

3. **Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish**

Kuzatish asosida hikoya qilish, fikrni izchil bayon etish o‘rgatiladi.

4. **Dialogik nutqni faollashtirish**

Tarbiyachi bilan savol-javoblar, o‘zaro muloqot, fikr almashish orqali muloqot madaniyati rivojlanadi.

Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug‘at ustida ishlash faoliyatlarida kuzatish usuli ta’limning muhum usullaridan biridir. Kuzatish o‘ziga xos bir faoliyat bo‘lib, u bolani borliq hayot bilan yaqindan tanishtiradi. Bola odatda, eshitganlariga nisbatan ko‘rgan va kuzatganlarini uzoq vaqt yodida saqlaydi, ulardan ta’sirlanadi, estetik zavq oladi. Nutq o‘stirish uslubiyotining asoschisi, mashxur pedagog Ye.I.Tixeyeva kuzatishning ta’lim jarayonidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, shunday degan edi: “Voqelikni kuzatish har qanday bilimga ega bo‘lishning negizidir. Kuzatishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad bolalarga tevarak-atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilishga va idrok qilinayotgan narsani so‘z bilan ifodalashga yordam berishdir“.

Bolalarning bilim doirasini kengaytirish, nutqini o‘stirish va lug‘at ustida ishlashida tevarak-atrofdan foydalanishning ikki usuli mavjud:

1.Buyumlarni o‘rganiladigan material sifatida bolalarga yaqinroqdan ko‘rsatish. Bularga turmushda ishlatiladigan buyumlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechak, poyabzal, o‘yinchoqlar, tabiatdan gullar, novdalar, mevalar, sabzavotlar, obyektlar, uy hayvonlari va parrandalar, qushlar, baliqlar va boshqalar kiradi. Bunday kuzatish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘zida o‘tkaziladi.

2.Bolalarni ob’yektga yoki buyumga yaqinlashtirish. Bularga maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘zida bevosita kuzatish imkoniyati bo‘lmagan ob’yektlar yoki buyumlar (qurilishlar, do‘konlar, pochta, paxta dalasi, transport vositalari va boshqalar) kiradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish eng yaqin joydan, ya’ni guruh xonalari, ulardagi buyumlar, o‘yinchoqlar, tabiat burchagi, guruh maydonchasi va hokazolar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bunday kuzatishlar ma’lum bir maqsadni, ya’ni bolalarni o‘z guruh xonasi, undagi jihozlar va buyumlar, maktabgacha ta’lim tashkilotining binosi, undagi xonalarning, guruh maydonchalarining joylashishi haqidagi, tevarak-atrofdagi buyumlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi xodimlarning mehnati haqidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirish, lug‘atini boyitish va faollashtirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayoni nutqni rivojlantirishning eng qulay, tabiiy va samarali yo‘llaridan biridir. Kuzatish, suhbat, o‘yin va amaliy faoliyatlar integratsiyasi bolalarda nutqiy faollikni oshiradi, lug‘atni boyitadi va bog‘lanishli nutqni shakllantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi ushbu jarayonni puxta rejalashtirsa, bolalar nutqining rivojlanishida yuqori natijalarga erishiladi.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Q.Jabborova Bo‘lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU Ilmiy xabarlar. 2022\ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32)

2.M.Q.Jabborova The impotance of communicative speech in impoving the pedagogical training of future educators. «Science and innovation» International scientifiic journal volum 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | scientists.uz8f-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 https://doi.org/ 10.5281/zenodo.768257.

3.M.Q.Jabborova-Nutq o’stirish uslubiyoti:/darslik/. FDU “Nusxa ko’paytirish” Farg’ona -2025y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY MUHIT TA'SIRIDA AQLIY RIVOJLANISHI.

Jabborova Marifat Qodiraliyevna
Farg’ona davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Kuziboyeva Zilolaxon Baxodirovna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhitning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ijtimoiy muhit, kattalar bilan muloqot, tengdoshlar jamoasi va oila-madaniy omillari bolalarning fikrlash, idrok, xotira, nutq hamda ijodiy tafakkuridagi o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslanganligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: idrok, xotira, nutq, tafakkur, tadqiqot, mantiqiy fikrlash, ijtimoiy muhit, emotsional muhit,

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur’atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta’minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar tizimini o‘zlashtiradi. Aqliy rivojlanish flkrning kengligida, voqealarning har xil bog’lanishlarida, munosabatlarda, ko‘ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Aqliy kamolot, bu - yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi oqibatida tarbiyaviy ishlar ta’sirida bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir.

Aqliy kamolotning shakllanishi biologik yetilish bilan bir qatorda ijtimoiy muhitga, ya’ni oila, o‘yin muhiti, tengdoshlar jamoasi, pedagogik ta’sir va madaniy an’analar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayni shu davrda bola atrofdagi voqealar, insonlar va predmetlar bilan faol muloqotga kirishadi, bunda uning tafakkur jarayonlari faol shakllanadi. Bilishga doir ruhiy jarayon - sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir. Tevarak-atrofni bilish sezish va idrok etishdan boshlanadi. Ularning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, borliqni bilib olish imkoniyati shunchalik ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun uni bog’cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish zarur.

Ijtimoiy muhit — bu bolani o‘rab turgan insonlar, oila sharoiti, madaniy qadriyatlar, ta’lim muassasalari va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy muhitning har bir tarkibiy qismi bola aqliy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan:

1. Oila muhiti. Oila bolaga birinchi ijtimoiy tajribalarni beradi. Quyidagi omillar aqliy rivojlanishga kuchli ta’sir qiladi: ota-onaning saviyasi va munosabat madaniyati; muloqot va suhbatlarning sifat darajasi; bolaga berilayotgan e’tibor, ko‘mak va tarbiyaviy talablar; uy sharoitida kitob, o‘yinchoqlar va rivojlantiruvchi vositalarning mavjudligi. Oilaning emotsional muhitidagi qulaylik va ijobiy aloqa bolada fikrlash jarayonlarining faol rivojlanishiga yordam beradi.

2. Tengdoshlar bilan muloqot. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar tengdoshlari bilan o‘ynash, bahslashish, fikr almashish orqali ijtimoiy tajriba orttiradilar. Ular o‘z fikrini ifodalashga, fikrga qarshi fikr bildirishga, o‘zini himoya qilishga va boshqalar fikrini tinglashga o‘rganadi. Bu jarayonda: analitik tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari, fik ralmashish va nutq orqalif ikrlash faol rivojlanadi.

3. Kattalar bilan muloqot va pedagogik ta’sir. Pedagoglar bolaga bilim berish, o‘yinlarni tashkil etish, savollar berish va muammoli vaziyatlar yaratish orqali aqliy rivojlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogning: nutqi, savollar berish usuli, muammoli vaziyatlarni yaratish mahorati, rag‘batlantiruvchi yondashuvi bola aqlining faollashishiga turtki bo‘ladi.

PIRLS tadqiqoti o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ularning matndan ma’no chiqarish, axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini baholaydi. TIMSS esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilar bilimini tahlil qiladi. PISA dasturi esa 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi funksional savodxonligini o‘lchash orqali ta’lim tizimlarining amaliy natijalarini aniqlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston 2021-yildan boshlab PISA dasturida faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon mamlakatda ta’lim sifatini xalqaro mezonlarga mos ravishda baholash va takomillashtirishga turtki berdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘qish va tahlil qilish kompetensiyalarini oshirish zarur. Shu maqsadda O‘zbekistonda ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv, interfaol usullar va o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritilmoqda.

Xalqaro baholash tizimlari nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini o‘lchaydi, balki ta’lim siyosatini shakllantirish, dasturlarni qayta ko‘rib chiqish va o‘qitish usullarini takomillashtirish uchun muhim asos yaratadi. PIRLS, TIMSS va PISA natijalariga tayanib, har bir davlat o‘z ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda ularni xalqaro standartlarga moslashtirishi mumkin.

Xalqaro baholash tizimlari boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning malakasini mustahkamlash va o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning natijalari asosida ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, o‘quv dasturlarini optimallashtirish va o‘quvchilarning tanqidiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish mumkin. Shuningdek, xalqaro baholashda ishtirok etish mamlakatning global ta’lim maydonidagi o‘rnini aniqlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. PIRLS va PISA tadqiqotlari bo‘yicha hisobotlar. – Toshkent, 2022.

2. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Framework. TIMSS & PIRLS International Study Center, 2021.

3. OECD. PISA 2022 Results. – Paris: OECD Publishing, 2023.

4. Karimov B. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020.

TECHNOLOGICAL APPROACH TO THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY SCHOOLS - A FACTOR TO INCREASE EDUCATIONAL EFFICIENCY

M.Kholdorov-Associate Professor of the Department of Defectology, Faculty of Pedagogy KSU

N.Olimov -1st year master's degree Department of physics and astronomy KSU

Abstract. *Educational technologies cover a specific area of pedagogical activity. Constructing the stages of the didactic process in a certain sequence means the organization of students' learning activities using selected teaching methods in accordance with the objectives set for the topic. Teaching methods, by their nature and content, belong to one or another classification based on a certain pedagogical theory. When considering their effectiveness, it is important to ensure that all educational institutions achieve the goal of teacher-student interaction, which can regulate and direct the teaching process.*

Keywords: *learning activities, teaching methods, teacher-student interaction, teaching process, educational technologies.*

The essence of the radical reforms in the field of education in the Republic of Uzbekistan today is enriched with a new approach to the design of the educational

process. The technological approach to education guarantees the effective management of the educational process with the help of specific tools and the successful achievement of learning objectives. Pedagogical technology is a system that is programmed according to the distribution of time, scientifically based and clearly defines the tasks of all stages and parts of the pedagogical process, ensuring the achievement of the expected result.

Teaching methods are concepts that are directly related to educational practice. “Teaching method initially exists in the mind of the teacher as a generalized project of activity. This project is introduced into practice in the plane of the interaction of teacher and student activities, as a set of specific actions, actions or methods of teaching and learning. There are no other manifestations of the method, because in general, the teaching method itself represents a didactic model of activity (U.K.Tolipov, M. Usmonbaeva).

There are cases in pedagogical publications of teaching methods into active and passive groups. If each method is used in its place to solve this or that goal, it is certainly active. Pedagogical technologies are also aimed at achieving a predetermined goal based on ensuring a high level of student activity in the classroom. Therefore, this chapter discusses the methods of foreign didactics, which are still unfamiliar to pedagogical practice.

The American Street Law program has been adopted by many countries around the world for centuries and is becoming an educational space. This is due to the activity, attractiveness and impact of the hundreds of teaching methods included in the program. With their help, students will quickly have the opportunity to express themselves freely, to receive information critically, to understand their rights. The teacher should use these methods wisely in the construction of the didactic process, confusing them with the complexity of the elements of the subject and the intensity of time. Below are some of the methods in the Street Law program. The essence of the method of "brainstorming" is to divide the problem-solving process into several stages over time (generation of ideas, their development in a critical and constructive way) on the basis of teamwork.

Targeted use of mental attack in the classroom is a guarantee of the development of creative, non-standard thinking. The "brainstorming" is a bit simpler and can be used in the process of changing the content of education, as well as finding solutions to production problems. First, the group gathers and is challenged. All participants express their views on how to solve this problem. At this stage, no one has the right to attack or evaluate someone else's ideas.

This means that there will be an opportunity to rectify ideas in a short period of time through a "brainstorming". In fact, getting a number of ideas is not the main goal; they are only the basis for developing a rational solution to the problem. One of the conditions of this method is that each of the participants must be an active

participant without any external influences. Only five or six of the ideas expressed are key, creating a potential opportunity to find a reasonable solution to the problem.

Thus, the rules of "mental attack" can be defined as follows:

- The ideas put forward will not be evaluated or criticized;
- The focus is not on the quality of work, but on quantity, the more ideas, the better;
- try to expand and develop any ideas as much as possible;
- far-reaching ideas are also supported;
- All ideas or their main assumptions are recorded;
- The time of the "attack" is determined and must be observed;
- Brief (unsubstantiated) answers to the questions should be provided.

Mission: "Brainstorming" allow you to find solutions to difficult situations, to expand the horizons of the problem, to lose the monotony of thinking. Most importantly, in the process of solving the problem, the transition from a combat environment to a mood of creative cooperation and the group becomes more cohesive.

Object: depending on the purpose of application, this method is universal in research (allows to solve a new problem), in the teaching process (focused on the rapid assimilation of educational materials), in development (self-efficacy is somewhat effective), forms active thinking based on management).

How to use: Participants of the "Brainstorming" can make any comments and suggestions on the problem. These thoughts are recorded and their authors have the opportunity to recall their thoughts. The effect of the method is characterized by the diversity of ideas, and during the attack they are not criticized or re-expressed. When the brainstorming is over, the best suggestions are generated in terms of importance and the ones needed to solve the problem are selected.

The method of "openwork saw" in terms of structure includes the following steps:

1. Divide assignments: "Assignments and text materials are cut into several main parts (or topics)."

2. Primary groups: "Each group member takes a cut topic and becomes an expert."

3. Expert groups: "Students who have assignments on one topic join expert groups to discuss the topic, to have a plan to teach others."

4. Primary groups: "Students return to their primary groups and teach what they have learned in expert groups."

Note: To clarify the essence of the "saw", it is necessary to clarify some recommendations.

1. This approach to teaching allows students to work together and absorb large amounts of information in a short period of time.

2. A lecture is an effective tool that can replace the need to provide students with basic information in order to carry out this or that activity in the classroom.

3. The teacher prepares a separate information package for each of them in advance to prepare students for the lesson on complex topics. It should contain materials from textbooks, in addition to newspapers, magazines, articles.

4. Each student participates in 2 groups: first they join the group "their home" (primary) and independently study the elements of learning. In order to quickly organize an expert group, it is recommended that the information packages received by the students be written on the same colored paper or that a corner of the paper be painted with a colored pencil.

5. There can be 3 to 5 people in each group depending on the number of students. Each student must identify what is "on their way" and where to meet again.

6. The teacher invites students to join a group on the basis of "colorful" assignments, and they become experts on specific topics. For example, the "reds" will meet at the end of the room, and the "blues" in the hallway. Each expert group should have no less than 3 students.

7. An information package will be distributed to the groups. Each group should receive a set of different materials and read and discuss them, and become an expert on this information. Students need to have enough time to become "experts" in teaching materials. If the materials are complex and large, perhaps one lesson is required.

8. Students are given the following tasks:

- Carefully study and discuss the materials in the package;
- Ask each other and make sure that each of you understands the learning materials;
- Focus on the important learning elements of the materials, taking into account the need to train your home group.

9. Ask students to return home. Each of them provides information to their "home" group. Undoubtedly, the "home" group must have one student from the expert group. The student should take responsibility for teaching the material to his / her group of students. This process can take another hour, depending on the need to master the training materials.

10. After the students have learned the information from each other, the teacher can carry out a pre-planned type of activity.

Discussion. With this method, students are provided with complete information on a particular problem, the topic chosen for the discussion is brutally "stormed" and, as a result, they learn more about the problem.

Methodology of discussion:

1. The facilitator (teacher, journalist, supervisor, etc.) pre-selects the topic and invites participants.

2. The facilitator gives the participants a “brainstorming” task and explains its rules:

- The purpose of the "attack" - to offer as many options for solving the problem as possible;
- Try to focus your mind and express your thoughts, focusing on the problem. Although the ideas expressed contradict the general opinion, none of them is rejected;
- Develop the ideas of other participants;
- Do not try to evaluate the proposals, you will do it later.

Thus, based on the application of the above interactive methods in the educational process, it is possible to increase the effectiveness of education and a technological approach to the educational process.

References

1. Калинина Н.В. Развитие социальной компетентности школьников в образовательной среде: психолого-педагогическое сопровождение / Н.В. Калинина. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2014. – 228 с.
2. Лукьянова М.И. Психологические аспекты развития социальной компетентности школьников. - Ульяновск, 2003. - 207 с.
3. Akramov M., Muzaffar K. Technological Approach at Secondary School Management //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2021. – Т. 2.
4. Kurbanov M. U., Sirojiddinova M. S. Mechanisms for effective management of the teaching staff in improving the quality of education //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 3. – №. 1.

ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALAR BILAN ISHLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING AHAMIYATI.

Jumanova Iroda, Ergasheva Farangiz: 1- bosqich magistrantlari.
Samarqand davlat pedadagogika instituti “Boshlang’ich va Maktabgacha ta’lim metodikasi”kafedrasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Muallif pedagog va o‘quvchi o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlaydigan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini tahlil qiladi. Shuningdek, individual yondashuvning bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijobiy o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, inklyuziv ta’lim, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, alohida ehtiyojli bolalar, moslashuv, ijtimoiylashuv, shaxs rivoji.

Аннотация

В статье рассматривается значение индивидуального подхода в работе с детьми с особыми образовательными потребностями в условиях современного

инклюзивного образования. Особое внимание уделено педагогическим условиям, способствующим развитию личности ребенка, формированию у него положительной самооценки и успешной социальной адаптации. Представлены принципы индивидуализации обучения и основные направления взаимодействия педагога с ребенком и его семьей.

Ключевые слова: индивидуальный подход, инклюзивное образование, педагогическая поддержка, дети с особыми образовательными потребностями, адаптация, социализация, развитие личности.

Abstract

The article examines the significance of the individual approach in working with children with special educational needs within the framework of modern inclusive education. Particular attention is paid to pedagogical conditions that contribute to the development of the child’s personality, the formation of a positive self-esteem, and successful social adaptation. The principles of individualized learning and the main directions of interaction between the teacher, the child, and the family are presented.

Keywords: individual approach, inclusive education, pedagogical support, children with special educational needs, adaptation, socialization, personality development.

Kirish: Bugungi kunda jamiyatda ta’limning barcha qatlamlariga teng imkoniyat yaratish va sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash muhim masalaga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida inklyuzivlik va insonparvarlik tamoyillarini joriy etish yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shular qatorida alohida ehtiyojli bolalar uchun umumta’lim muassasalarida ta’lim olish imkonini yaratish dolzarb yo‘nalishlardan biridir.

Pedagogik amaliyotda individual yondashuv bola shaxsini to‘liq rivojlantirishning asosi sifatida qaraladi. Bu tushuncha har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va bilimni o‘zlashtirish sur’atlarini hisobga olishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Alohida ehtiyojli bolalar uchun individual yondashuv nafaqat bilim olish jarayonida, balki ularning psixofiziologik rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Individual yondashuv har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini chuqur o‘rganishni talab etadi: aqliy salohiyati, hissiy holati, idrok, xotira va diqqatning rivojlanish darajasi aniqlanadi. Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlaydigan pedagog nafaqat maxsus metodikalarga ega bo‘lishi, balki yuksak darajadagi empatiya, sabr-toqat va pedagogik taktni namoyon eta olishi lozim.

Pedagogning eng muhim vazifalaridan biri — rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishdir. Bu muhitda bola o‘zini xavfsiz va ishonchli his qilishi zarur. Individual yondashuv orqali bola o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. L. S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, bola “yaqin rivojlanish zonasi”da bo‘lishi, ya’ni pedagog tomonidan bosqichma-bosqich yangi bilim va ko‘nikmalarga yo‘naltirilishi kerak.

Individual yondashuvni amalga oshirishda ta’limning differensial metodlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, eshitish yoki nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun vizual materiallardan, kartochkalardan, imo-ishora va mimikalardan foydalanish foydalidir. Harakat-tayanch a’zolari faoliyati buzilgan bolalar uchun esa o‘quv muhitini ularning jismoniy imkoniyatlariga mos tarzda tashkil etish muhimdir. Shunday qilib, individualizatsiya nafaqat uslublarni tanlashda, balki bola uchun qulay shart-sharoit yaratishda ham o‘z ifodasini topadi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash ham individual yondashuvning ajralmas qismidir. Ko‘plab alohida ehtiyojli bolalar tengdoshlar bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi, o‘zlarini jamiyatdan chetda his qiladi. Pedagog ularning o‘z kuchiga ishonchini mustahkamlashi, ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantirishi va kichik yutuqlarni ham rag‘batlantirishi lozim. Maqtov va mehr bolada o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi.

Individual yondashuvning muhim jihatlaridan yana biri — oila bilan hamkorlikdir. Ota-onalar ta’lim-tarbiya jarayonida muhim hamkor sifatida qaraladi. Ular bilan muntazam aloqada bo‘lish orqali pedagog bola ehtiyojlarini chuqurroq anglaydi va individual rivojlanish yo‘lini belgilaydi.

Shuningdek, zamonaviy sharoitda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar, tarbiyachilar korreksion pedagogika, defektologiya va rivojlanish psixologiyasi asoslarini bilishlari zarur. Faqat shundagina alohida ehtiyojli bolalarni to‘laqonli ta’lim jarayoniga jalb etish mumkin bo‘ladi. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati ham bu borada muhim rol o‘ynaydi. 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ushbu sohada zamonaviy pedagogik tajribalarni joriy etish uchun huquqiy asos yaratib berdi.

Xulosa

Alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv — zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U bolaning shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq ochib berish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o‘ziga ishonchni oshirish va ijtimoiy moslashuvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu yondashuvni samarali amalga oshirish uchun pedagoglarning malakasini oshirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va alohida ehtiyojli bolalarga ega oilalarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Xulosa qilib aytganda, individual yondashuv — har bir bolaga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta’lim tizimini shakllantirishning eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasida 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent, 2020.
3. Abdullayeva, M. Sh. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’limida individual yondashuv. – Toshkent: Fan, 2021.

4. Vygotskiy, L. S. Bola psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984.
5. Nazarova, N. M. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. – Moskva: Akademiya, 2019.
6. Rahimova, D. X. Inklyuziv ta’lim sharoitida individual yondashuv metodlari. – Toshkent, 2022.
7. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policymakers. – Samarqand, 2025.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОПЫТ МЕЖДУНАРОДНОГО ОЦЕНИВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Кодирова Альбина Фаридовна,
Магистрант Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация: Современные тенденции в системе образования отражают глобальные процессы трансформации в области начального образования, ориентированные на развитие компетенции учеников. В статье рассматриваются актуальные проблемы модернизации содержания, методов и оценки качества обучения в контексте международных исследований, таких как PISA и TIMSS. Обозначены основные направления совершенствования начального образования и перспективы внедрения инновационных подходов.

Ключевые слова: начальное образование, международное оценивание, PISA, TIMSS, современные тенденции, компетентный подход, функциональная грамотность, инновационные педагогические технологии, качество обучения, педагогическая модернизация, международный опыт.

Annotatsiya: Ta’lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalar boshlang‘ich ta’limda uquvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan global o‘zgarish jarayonlarini aks ettiradi. Maqolada PISA va TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlar doirasida ta’lim sifatini baholash, mazmun va usullarni modernizatsiya qilish muammolari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish yo‘nalishlari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish istiqbollari belgilangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, xalqaro baholash, PISA, TIMSS, zamonaviy tendensiyalar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, funksional savodxonlik, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’lim sifati, pedagogik modernizatsiya, xalqaro tajriba.

Annotation: Modern trends in primary education reflect global transformation processes aimed at developing 21st-century competencies. The article analyzes the challenges of modernizing the content, methods, and quality assessment of education in the context of international studies such as PISA and TIMSS. The main directions

for improving primary education and the prospects for introducing innovative approaches are identified.

Keywords: primary education, international assessment, PISA, TIMSS, modern trends, competency-based approach, functional literacy, innovative pedagogical technologies, quality of education, pedagogical modernization, international experience.

Современная система начального образования находится в состоянии активного обновления, что обусловлено стремительным развитием технологий, изменением запросов общества и необходимостью формирования универсальных компетенций у младших школьников. В условиях глобализации особое значение приобретает опыт международных сравнительных исследований, таких как PISA, TIMSS, PIRLS, которые позволяют оценить уровень образовательных достижений учащихся и эффективность национальных систем образования. Результаты этих исследований выявляют не только сильные стороны, но и проблемы, требующие системного подхода к реформированию образовательной политики. Одной из ключевых задач современного начального образования является переход от парадигматических знаний к компетентной модели, предполагающей развитие у учащихся критического мышления, коммуникативных и творческих навыков.

Особое внимание уделяется формированию функциональной грамотности, которая рассматривается как основа успешной социализации личности и адаптации к быстро меняющемуся миру. Педагогические технологии также претерпевают значительные изменения. Широкое распространение получают интерактивные методы обучения, проектная и исследовательская деятельность, использование цифровых образовательных ресурсов. Внедрение ИКТ в учебный процесс способствует индивидуализации обучения и повышению его мотивационной составляющей. В то же время возникает необходимость подготовки педагогов нового поколения, владеющих современными методиками и способных эффективно интегрировать цифровые инструменты в образовательный процесс.

Международный опыт показывает, что устойчивое развитие системы начального образования невозможно без формирования культуры оценивания, основанной на принципах объективности, прозрачности и ориентации на развитие ученика. В этом контексте особую роль играют международные исследования, такие как PISA, предоставляющие данные о том, насколько учащиеся готовы применять знания в реальной жизни. Для повышения качества образования необходимо усиление научно-методического сопровождения учебного процесса, совершенствование программ начальной подготовки педагогов, а также расширение международного сотрудничества в сфере образования.

Перспективы развития начального образования связаны с интеграцией инновационных педагогических подходов, повышением роли воспитательного компонента и формированием цифровой компетентности учащихся. Таким образом, современное начальное образование представляет собой динамично развивающуюся систему, в которой традиции сочетаются с инновациями, а национальный опыт обогащается международными практиками, направленными на повышение качества и доступности образования.

Список литературы:

1. OECD. (2023). PISA 2022 Results. Paris: OECD Publishing.
2. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.
3. Андреев А.А. Современные тенденции в начальном образовании. – М.: Просвещение, 2021.
4. Полат Е.С. Новые педагогические технологии. – М.: Академия, 2020.
5. Татур А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Педагогика, 2019.

INNOVATSION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

G’iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi
QDU o’qituvchi**.**
giyosiddinovamahmuda@gmail.com
+998912013395

Annatatsiya: Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining **kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun innovatsion texnologik topshiriqlardan foydalanish** ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshiradi. Bu jarayon, o‘qituvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan malakalarni mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Kreativ fikr, ijodiy fikr, pedagogika, texnologiya,innovatsiya, g‘oya, madaniyat, intellectual, topshiriq, nazariy.

Аннотация: Использование инновационных технологических задач для развития творческого мышления будущих учителей начальных классов повысит качество их профессиональной подготовки. Этот процесс направлен на формирование творческого подхода у учителей, развитие самостоятельного мышления, закрепление навыков, отвечающих требованиям современного образования**.**

Ключевые слова: Творческое мышление, креативное мышление, педагогика, технология, инновация, идея, культура, интеллектуальный, задача, теоретический.

Annotation: The use of innovative technological tasks for the development of creative thinking of future primary education teachers will increase the quality of their professional training. This process is aimed at forming a creative approach in teachers, developing independent thinking, and strengthening skills that meet the requirements of modern education.

Key words: Creative thinking, creative thinking, pedagogy, technology, innovation, idea, culture, intellectual, task, theoretical.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-sonli farmonida belgilangan vazifalar, ya’ni oliy ta’lim tizimida zamonaviy bilimlar va innovatsion yondashuvlar asosida pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, kreativ va tanqidiy fikrlovchi yosh mutaxassislarni tayyorlash talablariga hamohangdir.

Ushbu vazifalarning ijrosi nuqtai nazaridan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni hamda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish ilmiy asoslangan modellashtirishga ehtiyoj tug‘diradi. Talabalarni ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor va mustaqil qaror qabul qila oladigan pedagog shaxs sifatida tarbiyalash, ularning kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtirish, aynan Prezident farmonida qayd etilganidek, ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy soha uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ustuvor maqsadlar doirasiga kiradi.

Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyasi tarkibida kreativ fikrlash salohiyatining tutgan o‘rnini aniqlash asosida biz ushbu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlar asosida tuzilgan prognozli modelni ishlab chiqdik. Model ishlab chiqishda nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, shuningdek, amaliy so‘rovnomalar va kuzatuv metodlari orqali olingan empirik ma’lumotlarga tayandik. Bu esa ta’lim jarayonini amaliy, kreativ va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali innovatsion taraqqiyotga hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan bo‘lib, uni quyidagi tarzda kengaytirish mumkin:

- Innovatsiyalar va texnologiyalar: O‘qituvchilarni zamonaviy o‘qitish usullariga, jumladan, elektron o‘quv resurslaridan foydalanishga, onlayn ta’lim platformalariga, interaktiv darsliklarga va virtual laboratoriyalarga o‘rgatish muhim. Bu ularning dars jarayonida yangi texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘quvchilarning faolligini oshiradi.
- Kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar: Qiziqarli va ijodiy vazifalar, muammoli vaziyatlarni yechish, loyihaviy ishlash, jamoaviy loyihalar va tadqiqot topshiriqlaridan foydalanish zarur. Bunday topshiriqlar o‘qituvchilarni o‘z fikrlarini

erkin ifoda etishga, turli yechimlarni topishga, o‘quvchilarga yangi g‘oyalar berishga undaydi.

- Tajriba almashish va hamkorlik: Tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlik, ochiq darslar, tajriba almashish tadbirlari va o‘quvchilarga qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchilarning o‘z malakalarini oshirishiga yordam beradi. Bu esa o‘qituvchilarning o‘z sohasidagi yangiliklardan boxabar bo‘lishiga va ijodiy g‘oyalar bilan bo‘lishishiga imkon beradi.
- Nazariy va amaliy asoslar: Bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ fikrlashning nazariy asoslarini o‘rganish bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar orqali ularni o‘z faoliyatida qo‘llashni o‘rganishi kerak. Dasturiy ta’minot, ta’lim texnologiyalari va turli o‘qitish usullarini tadbiq etishga doir mashg‘ulotlar o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshiradi.
- Baholash va monitoring: O‘qituvchilarning kreativ fikrlashini baholash va monitoring qilish uchun o‘ziga xos mexanizmlar joriy qilish muhim. Bu o‘qituvchilarning rivojlanishini nazorat qilishga va ularga qo‘shimcha yordam berishga imkon beradi.

Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun quyidagi yangi modellarni taklif qilish mumkin:

- Tashkiliy-funksional model: Dars jarayonini o‘quvchilarning ijodiy fikrlashiga yo‘naltirish. Bunda o‘qituvchi muammoli vaziyatlarni yaratish, ijodiy topshiriqlar berish, o‘quvchilarni bahslashga va jamoaviy loyihalar ishlab chiqishga undaydi.
- Shaxsiy-ijodiy model: O‘qituvchilarning o‘z ijodiy salohiyatini rivojlantirish. Bunda o‘qituvchilar o‘z darslarida yangi usullar va texnologiyalarni qo‘llaydi, ijodiy va innovatsion loyihalar yaratadi.
- Interaktiv-kolaborativ model**:** O‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi orqali kreativ fikrlashini rivojlantirish. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni jamoaviy loyihalar, tadqiqotlar va o‘zaro hamkorlikka undaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyasi tarkibida kreativ fikrlash salohiyatining tutgan o‘rnini aniqlash asosida biz ushbu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlar asosida tuzilgan prognozli modelni ishlab chiqdik. Model ishlab chiqishda nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, shuningdek, amaliy so‘rovnomalar va kuzatuv metodlari orqali olingan empirik ma’lumotlarga tayandik. Bu esa ta’lim jarayonini amaliy, kreativ va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali innovatsion taraqqiyotga hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirishda ularning kasbiy modeli asosida tayyorlash dolzarb metodologik muammolardan biridir. Bu borada ilg‘or pedagogik tafakkur egalari bo‘lgan O.A. Abdullina, V.A. Slastyonin, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, Yu.K. Babanskiy, Sh.A. Amonashvili kabi olimlarning ilmiy ishlanmalariga tayanish zarur.

Masalan, N.V. Kuzmina tomonidan taklif etilgan o‘qituvchi modeli ilmiy, kommunikativ, konstruktiv, tashkiliy va tashabbuskorlik kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bu modelni innovatsion texnologik topshiriqlar asosida o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda aynan kreativ fikrlashga asoslangan kasbiy refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son; 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
2. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – Toshkent: Fan, 2003. –215 b.
3.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil.
4.Toxtaxodjayeva M.X. “Pedagogika nazariyasi”/ OTM uchun darslik.- T.: “Iqtisod- moliya”, 2010. 136-140-b.
5.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent, Moliya, 2003.- 172b.
6.O‘rinova N.M., Kadirova M.R., Djalalov B.B., Baydjanov B.X.. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona: “Poligraf super servis. 2022.
7. G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish mazmuni. (2025). *Konferentsiya markazi* , 29-30 . https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/415
8.G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish modelini takomillashtirish. (2025). Konferentsiya markazi, 22-23. https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/409

INNOVATSION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Jamoliddinov Mirxojiddin G’iyosiddinovich
QDU dotsenti.
G’iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi
QDU o’qituvchi**.**
giyosiddinovamahmuda@gmail.com
+998912013395

Annatatsiya: Innovatsion texnologik topshiriqlar bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular talabalarni mustaqil va ijodiy yechimlar izlashga undaydi, shaxsni takomillashtirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu jarayonda innovatsion ta'lim usullari, masalan, zamonaviy sharoitdan foydalanish va talabalarni har bir imkoniyatdan foydalanishga o'rgatish muhim sanaladi.

Kalit so’zlar: Kreativ, texnologiya, metodika, pedagogik tadqiqotlar, innovatsion texnologiya, yangilik, kompetensiya, topshiriq.

Аннотация: Инновационные технологические задачи играют важную роль в развитии творческого мышления будущих учителей начальных классов, поскольку побуждают учащихся к поиску самостоятельных и творческих решений, направляют развитие личности и творческого мышления. В этом процессе важными считаются инновационные методы обучения, такие как использование современных условий и обучение студентов использовать каждую возможность**.**

Ключевые слова: Творческий, технология, методология, педагогическое исследование, инновационная технология, инновация, компетенция, задача.

Annotation: Innovative technological tasks play an important role in the development of creative thinking of future elementary teachers, because they encourage students to search for independent and creative solutions, guide the development of personality and creative thinking. In this process, innovative educational methods, such as using modern conditions and teaching students to use every opportunity, are considered important.

Key words: Creative, technology, methodology, pedagogical research, innovative technology, innovation, competence, task.

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda kreativ fikrlashni shakllantirish innovatsion texnologik topshiriqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bunday yondashuv, avvalo, kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijodkorlikka moyil, muammoli vaziyatlarga kompleks yondasha biladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratidan kelib chiqadi. Shu sababli, o‘quv jarayonining mazmuniy asosini tashkil etuvchi dasturlar ham zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi innovatsion texnologik topshiriqlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

B.B. Ma’murovning fikricha, kasbiy-pedagogik ta’limda bunday topshiriqlarni joriy etish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar majmuini yaratish zarur. [60; 10-11-b.] U ushbu sharoitlarni quyidagicha tasniflaydi:

- **Axborot sharoitlari** – o‘quv mazmuniga qo‘yiladigan zamonaviy talablar;
- **Shaxsga oid sharoitlar** – ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning faol hamkorligi, demokratik muloqot va o‘zaro ishonch muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan talablar;

- Texnologik sharoitlar – ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi uslub va vositalarni tanlash, innovatsion faoliyat turlari, treninglar va ilg‘or metodik yondashuvlar bilan bog‘liq talablar majmuasi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion texnologik topshiriqlar asosida kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini belgilab oldik.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarning samaradorligini ta’minlash, avvalo, o‘quv jarayonining puxta tashkillashtirilganligi va psixologik qulay muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan qaralganda, ta’lim mazmuni va shakllarini zamon talablari asosida yangilash, kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘quv jarayoniga kiritish muhim hisoblanadi.

Asosiy tashkiliy-pedagogik jihatlar quyidagilardan iborat:

1. O‘quv rejalarini moslashtirish orqali ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydigan, innovatsion yondashuvlarga asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.
2. Interaktiv o‘quv faoliyatini tashkil etish – seminar, trening, loyiha va guruhli ishlar orqali talabalarni erkin fikrlashga jalb etish imkonini beradi.
3. Texnologik ta’lim muhitini shakllantirish – zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi.
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xususan, muammoli o‘qitish (PBL), dizayn fikrlash (design thinking), tanqidiy va loyiha asosidagi yondashuvlar ijodiy tafakkurni faollashtirishga xizmat qiladi.
5. Pedagoglarning metodik tayyorgarligi yuqori bo‘lishi, ya’ni ular zamonaviy topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni qo‘llash va baholashga doir bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim.
6. Hamkorlikka asoslangan o‘quv muhiti – talabalar o‘rtasida erkin muloqot, guruhiy fikrlash va qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish orqali ijodiylikni qo‘llab-quvvatlaydi.
7. O‘quv jarayonini monitoring qilish – kreativ fikrlash rivojini tizimli kuzatish va tahlil qilish orqali mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, bu jarayonda psixologik shart-sharoitlarning ham o‘rni beqiyosdir. Kreativ tafakkur insonning ichki faolligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, yangicha fikr yuritish va noan’anaviy yondashuvlarga tayyorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan psixik faoliyat shaklidir. Qulay psixologik muhit yaratish, eng avvalo, shaxsiy erkinlik, o‘zini namoyon qilish imkoniyati, ijobiy emotsional holatni saqlash, ichki motivatsiyani rag‘batlantirish va xavfsiz psixologik atmosferani shakllantirishni

talab qiladi. Shuningdek, talabaga nisbatan individual yondashuv, empatiya, o‘ziga ishonch hissini oshirish ham ijodiy fikrlashning psixologik asosi hisoblanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish shunchaki bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning psixologik jihatdan erkin, mustaqil va yangicha fikrlashga tayyor bo‘lishini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **Error! Hyperlink reference not valid.**. Manba: www.gov.uz

4 .O‘rinova N.M., Kadirova M.R., Djalalov B.B., Baydjanov B.X.. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona: “Poligraf super servis. 2022.

5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent, Moliya, 2003.

6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil.

7. Toxtaxodjayeva M.X. “Pedagogika nazariyasi”/ OTM uchun darslik.- T.: “Iqtisod- moliya”, 2010.

8. G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish mazmuni. (2025). *Konferentsiya markazi* , 29-30 . https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/415

9. G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning nazariy asoslari.international journal of science and technology 2(3):7-8

10.G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish modelini takomillashtirish. (2025). Konferentsiya markazi, 22-23. https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/409

KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA OID ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY QARASHLARNING EVOLYUTSION TAHLILI.

Abdullayev Alimardon Xaydarovich
QDU dotsenti.
G’iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi
QDU o’qituvchi**.**
giyosiddinovamahmuda@gmail.com
+998912013395

Annatatsiya: Ushbu maqolada kreativ fikrlash tushunchasining ilmiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy xorijiy ta'lim tizimlaridagi tajribalari o‘rganilgan.Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon nafaqat individual fikrlashning yuqori darajali shakli, balki u shaxsning o‘zligini anglash va o‘zgaruvchan dunyoda moslashuvchanlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: Kreativ, tashabbus, kompetensiya, ijodkorlik, pedagogika, g‘oya, integratsiya, texnologiya, innovatsion, metod, ko‘nikma.

Abstract: This article examines the scientific foundations of the concept of creative thinking, its stages of development, and experiences in modern foreign educational systems. Research aimed at developing creative thinking shows that this process is not only a high-level form of individual thinking, but also necessary for realizing a person's identity and ensuring adaptability in a changing world.

Keywords: Creative, initiative, competence, creativity, pedagogy, idea, integration, technology, innovative, method, skill.

Globallashuv va tezkor texnologik o‘zgarishlar insonlardan zamonaviy muammolarga ijodiy yondashishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan kreativ fikrlash kompetensiyasi asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida shakllandi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun uzluksiz ta’lim, madaniy qo‘llab-quvvatlash va metodik innovatsiyalar zarur. Tadqiqotimiz mazkur kompetensiyani rivojlantirishga oid ilg‘or xorijiy tajribalarni va nazariy qarashlarning tarixiy rivojlanishini qamrab oladi.

Hozirgi zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsion jarayonlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Jahon ta’lim tizimida “tajriba asosida ta’lim olish” (experiential learning) tamoyilining ustuvorligi ortib borayotgani bejiz emas. Ushbu yondashuv talabalar ongida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirish, shaxsiy rivojlanish va mustaqil fikrlash salohiyatini kuchaytirish uchun zarur omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatga tayyor, kreativ fikrlovchi, kasbiy vazifalarga yangicha yondashuv bilan kirisha oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim strategik vazifaga aylangan.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon nafaqat individual fikrlashning yuqori darajali shakli, balki u shaxsning o‘zligini anglash va o‘zgaruvchan dunyoda moslashuvchanlikni ta'minlash uchun zarurdir. Kreativ fikrlash, shuningdek, shaxsning izlanish va o‘rganish istagini, yangi imkoniyatlarni kashf qilish va mavjud bilimlarni qayta talqin etish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Xorijiy olimlar orasida kreativ fikrlashning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda psixologik, pedagogik va ijtimoiy kontekstlarni ham hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Masalan, P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativlikni o‘lchash metodikalariga ko‘ra, kreativ fikrlash o‘z ichiga tasavvur qilish, yangi fikrlarni yaratish, eski g‘oyalarni yangicha shaklda ifodalash kabi ko‘nikmalarni olib keladi.

Torrance, shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli, ijtimoiy muhit va madaniy omillarni ham muhim deb hisoblaydi. Shu bilan birga, kreativ fikrlashni o‘rgatishda o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining, tashabbuskorligining va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining oshirilishi muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish, nafaqat darslarda yangi metodlarni qo‘llash orqali, balki ta’limda innovatsion texnologiyalarni samarali tarzda integratsiya qilish orqali ham erishish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning muammolarni yaratish va ularga yechim izlashda yangi va o‘ziga xos yondashuvlarni qo‘llashga yordam beradi. Shu tarzda, kreativ fikrlashni rivojlantirish faqatgina akademik muvaffaqiyatlar uchun emas, balki kelajakda shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun ham zarur vosita sifatida qaraladi. O‘qituvchilar, o‘z navbatida, kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim jarayoniga doimiy ravishda yangiliklarni olib kirishlari, o‘quvchilarning tashabbuskorligini va mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishlari lozim.

Kreativ fikrlash — zamonaviy dunyoda raqobatbardosh insonni shakllantirishda asosiy omil. Ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish tizimli, kompleks va erkin o‘quv muhitini talab qiladi. Mahalliy ta’lim tizimida ham ushbu yondashuvlarni joriy etish orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish mumkin.

Amaliy kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari orasida kreativ fikrlash darajasining pastligi dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur holatni bartaraf etish uchun esa ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, interaktiv, faol va noan’anaviy metodik vositalardan foydalanish lozim. Faqatgina shu yo‘l orqali talabalarda kreativlik darajasini oshirish, ularning ijodiy faoliyatga qiziqishini kuchaytirish va mustahkam kasbiy tayyorgarlikka erishish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot davomida “innovatsion texnologik topshiriqlar”, “kreativlik”, “kreativ fikrlash” tushunchalari keng pedagogik asosda izohlandi. Ushbu asosda quyidagi mualliflik ta’rifi shakllantirildi: Kreativ fikrlash – bu bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining mavjud bilim va tajribalarga tayanib, muammolarga nostandart,

yangicha va innovatsion yondashuvlar orqali yechim topishga yo‘naltirilgan tafakkur faoliyatidir. U moslashuvchanlik, originallik, assotsiativlik va divergent fikrlash kabi xususiyatlar asosida shakllanib, yuqori darajadagi motivatsiya, refleksiya va shaxsiy ifoda ehtiyoji bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshadi. Shuningdek, pedagogik-psixologik tadqiqotlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlash faoliyati quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:
– muammolarga nostandart va original yondashuvlar bilan yechim topish;
– turli fanlararo bilimlarni integratsiyalash orqali yangi g‘oyalar ishlab chiqish;
– tafakkurda moslashuvchanlik va fikr yuritishda mustaqillik;
– refleksiv fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishga tayyorlik.

Bu xususiyatlar, ayniqsa, innovatsion texnologik topshiriqlarning mazmunida ifodasini topganida, talabalar kreativ fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni –O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son; 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

3.Абдуллаева С. А. Теоретические подходы к изучению дивергентного мышления будущих психологов/-Известия ДГПУ, №4, 2015. С. 21-24.

4.Абдуллина, О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О.А. Абдуллина. — М.: Просвещение, 1990.

5.Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – 208 бет.

6.Абулханова-Славская, К.А. Стратегия жизни/К.А. Абулханова- Славская. — М.: Мысл, 1991.-49 с;

7. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi-Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902.

8.Ackoff L., Vergara E. Creativity in problem solving and planning: a review. - Europian Journal of operational research, 2001, 7(1), p. 1-13.

9.Авлоний А . Икки жилдлик, I-жилд, - Т.: Маънавият, 1998.

10.Андреев, В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. — Казан: Центр инновационных технологий, 2000. — 143 с.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA TA’LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Raxmonov Xusan Tojiyevich
Kokand SU, Associate Professor (PhD) of the Department of Technological Education
email: raxmonovxusan4973@gmail.com, tel: +998916844973

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimidagi dolzarb muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda ta’lim sifatini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

boshlang‘ich ta’lim, ta’lim sifati, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar, pedagogik kompetensiya, ta’lim islohoti.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ta’lim sohasining har bir bo‘g‘inida, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida, sifat va samaradorlikka erishish dolzarb masalalardan biridir. Boshlang‘ich ta’lim — bu shaxsning bilim olish, fikrlash, nutq, tafakkur, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi asosiy poydevor hisoblanadi. Shu sababli bu bosqichdagi ta’lim mazmuni, metodikasi va tashkiliy jihatlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari

Boshlang‘ich ta’lim tizimida hozirgi kunda bir qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan:

1. Ta’lim mazmunining yangilanishi sustligi. O‘quv dasturlari ko‘p hollarda zamonaviy kompetensiyalarga to‘liq mos emas.
2. Pedagog kadrlar malakasining yetarli emasligi. O‘qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning sustligi. Raqamli resurslardan samarali foydalanish uchun metodik va texnik imkoniyatlar yetarli emas.
4. O‘quvchilarning individual yondashuv asosida o‘qitilmasligi. Har bir bolaning qobiliyatiga qarab ta’lim berish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.
5. Ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasining yetarli emasligi.

Ta’lim sifatini oshirish yo‘llari

Ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

- Innovatsion metodlarni joriy etish: “STEAM-ta’lim”, “Project-based learning”, “Gamifikatsiya” kabi yondashuvlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

- O‘qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish: Har yili pedagoglar uchun xorijiy tajribaga asoslangan trening va seminarlarni tashkil etish.

- Raqamli ta’lim muhitini kengaytirish: Elektron darsliklar, interaktiv platformalar va onlayn test tizimlaridan foydalanish.- Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish: Uy va maktab hamkorligida bola shaxsining har tomonlama rivoji ta’minlanadi.

- Baholash tizimini takomillashtirish: Yangi kompetensiyaviy baholash usullari (rubrikalar, portfolio, formatif baholash) orqali o‘quvchi yutuqlarini adolatli aniqlash.

Xalqaro tajribalar tahlili

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

- Finlyandiya tajribasi: O‘quvchilarni raqobatga emas, ijodiy fikrlash va erkin o‘rganishga yo‘naltirish. O‘qituvchilarga yuqori ishonch va mustaqillik beriladi.

- Janubiy Koreya modeli: Darslarda AKT vositalaridan keng foydalanish, o‘quvchilarni amaliy topshiriqlar orqali o‘qitish.

- Singapur tajribasi: “Thinking Schools, Learning Nation” konsepsiyasi asosida har bir bola mustaqil fikrlashga o‘rgatiladi.

- Yaponiya amaliyoti: Boshlang‘ich ta’limda axloqiy tarbiya va mehnatsevarlikka alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham o‘rnak bo‘lib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish ta’lim sifatini yanada oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda sifatni oshirish uchun zamonaviy innovatsion yondashuvlar, pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishi, raqamli vositalardan samarali foydalanish va xalqaro tajribalardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchi shaxsini individual rivojlantirish, ularning ijodkorlik salohiyatini ochish — ta’lim sifatining eng asosiy mezonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi ma’lumotlari, 2024–2025-yillar.

3. OECD (2023). Education at a Glance: International Indicators.

4. UNESCO (2022). Global Education Monitoring Report.

5. Finlyandiya va Singapur ta’lim tizimi bo‘yicha tahliliy hisobotlar.

PEDAGOGIKA FANLARINI O‘RGANISHDAGI ZAMONAVIY MASALALAR

Kamoliddinova Sayyora Sirojiddin qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya. Pedagogika boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning nazariy va metodologik ma’lumotlarini o‘zida birlashtiradi. Hozirgi kunda zamonaviy tadqiqot metodlari - kuzatuv, suhbat, anketalar, testlar va pedagogik tajribalar tadqiqotlar davomida keng qo‘llanilmoqda. Pedagogik jarayonlarni avvaldan tahmin qilish va uning natijalarini oldindan belgilash pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Kalit so‘zlar: o‘qitish usullarini ratsionallashtirish, amaliy yondashuv, tizimli va amaliy yondashuvlar, raqamli texnalogiyalar, prognozlash

Pedagogika fani zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy-madaniy tizimlaridan biri bo‘lib, inson kapitalini shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda pedagogika fanini tadqiq etishning istiqbollari uning nazariy asoslarini yangilash, innovatsion yondashuvlarni tizimlashtirish va amaliy tajribalarni ilmiy asosda tahlil qilish bilan belgilanadi.[1] Pedagogik tadqiqotlarning amaliy natijalari, avvalo, ta’lim tizimini takomillashtirish, o‘qitish usullarini ratsionallashtirish va o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogika ilmiy yo‘nalishlarining markazida insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tizimli va amaliy yondashuvlar turadi. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonini shaxsning ehtiyojlari, qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni talab qiladi.[2]

Hozirgi kunda pedagogika fanining rivojlanish istiqbollari raqamli ta’lim, sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘qitish jarayonida qo‘llashsh, masofaviy ta’lim samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘quvchining raqamli texnalogiyalar bilan ishlash qobilyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda o‘quv jarayonini amaliy yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, pedagogik kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirish, ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish pedagogika fanining istiqbollari sirasiga kiradi. Amaliy jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonlarini chuqurlashtirish, kadrlarni rivojlantirish va pedagogik yondashuvlarni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Ta’lim-tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish bilan bir qatorda ilg‘or xorijiy davlat tajribalarni o‘z ta’lim tizimimizga moslashtirish va uzluksiz ta’lim tizimida o‘zaro integratsiyani kuchaytirish pedagogik tadqiqotlarning asosiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev, J. G‘. (2019). Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Hasanboeva, O. (2020). Umumiy pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya.

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINI IQTIDORINI ANIQLASH VA KASBGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD)
Jumayev Javlonbek Abduqahhor o‘g‘li
javlonjumayev91@mail.ru
Farg ‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston


Annotatsiya: Mazkur tezisda akademik litsey o‘quvchilarining iqtidorini aniqlash va kasbga yo‘naltirish jarayonida yuzaga keladigan pedagogik hamda psixologik muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, ularning qiziqish va layoqatlarini baholash, shuningdek, kasb tanlashda psixologik tayyorgarlikni oshirish masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va motivatsion yondashuvlar qo‘llanilgan. Natijalar iqtidorni aniqlash tizimini modernizatsiya qilish, raqamli psixodiagnostika vositalarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: iqtidor, kasbga yo‘naltirish, diagnostika, motivatsiya, psixologik tayyorgarlik, akademik litsey, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning individual iqtidorini aniqlash va kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni o‘z sohasida yetuk mutaxassis qilib tayyorlash — davlatimiz kelajagiga sarmoyadir”[6].

Akademik litseylar bu jarayonda muhim bo‘g‘in bo‘lib, o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishini shakllantirishda, o‘z qobiliyat va qiziqishlarini to‘g‘ri anglashda asosiy tayanch rolini o‘ynaydi. Biroq amaliyotda iqtidorni aniqlashda ilmiy asoslangan metodikalar yetarli darajada qo‘llanilmayapti, bu esa kasb tanlashda noto‘g‘ri yo‘naltirish holatlariga sabab bo‘lmoqda[3].


Tadqiqot pedagogik diagnostika, psixologik tahlil va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyillariga asoslandi. O‘quvchilar iqtidorini aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanish samarali deb topildi(1.1-rasm).



1.1-rasm O‘quvchilarni iqtidorini aniqlash metodlari

Shuningdek, o‘qituvchilarning iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tajribasini o‘rganish uchun sifatli intervyu metodi qo‘llanildi. Ma’lumotlar tahlilida sistemali va komparativ usullar ishlatildi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, akademik litsey o‘quvchilarining iqtidorini aniqlash va kasbga yo‘naltirishda uchta asosiy muammo mavjud(1.2-rasm).



1.2-rasm O‘quvchilarni iqtidorini aniqlash av kasbga yo ‘naltirishdagi muammolar

Bundan tashqari, tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 47 foizi o‘zini qaysi kasbga mosligini aniqlay olmagan, 38 foizi esa kasb tanlashda ota-onasining fikriga ko‘proq tayanishini bildirgan. Bu esa kasbga yo‘naltirishning psixologik asoslarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Iqtidorni aniqlash va kasbga yo‘naltirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi asosiy metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasiga ko‘ra, har bir o‘quvchining o‘ziga xos iqtidor turi mavjud bo‘lib, ta’lim jarayoni shu yo‘nalishda rivojlantirilishi lozim[5].

Bundan tashqari, zamonaviy ta’limda raqamli vositalar — psixodiagnostika dasturlari o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishda samarali natijalar bermoqda. Shu bois iqtidorni aniqlashda an’anaviy baholashni raqamli algoritmik tizimlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Akademik litsey o‘quvchilarining iqtidorini aniqlash va kasbga yo‘naltirish jarayoni pedagogik hamda psixologik yondashuvlarning uyg‘unligini talab qiladi. Diagnostika metodlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, shaxsiy portfel tizimini joriy etish, o‘qituvchilar uchun kasbiy yo‘naltirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga, raqamli psixodiagnostika vositalarini qo‘llash ushbu jarayonning obyektivligini ta’minlaydi va iqtidorli yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, V.M. Yoshlarning kasb tanlash motivatsiyasi va psixologik tayyorgarligi. Toshkent: Fan. (2019).
2. Shodiev, A. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik asoslari. Ta’lim taraqqiyoti jurnali, №4. (2020).
3. Qosimov, BKasbga yo‘naltirish tizimini modernizatsiya qilishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari. O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi, №2. (2021).
4. Gardner, H. Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books. (2006).
5. Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika. (1982).
6. Mirziyoyev, Sh.M. Yoshlar ta’limi va tarbiyasiga doir nutqlar to‘plami. Toshkent: O‘zbekiston. (2022).
7. UNESCO Guidelines for Talent Identification and Career Guidance in Secondary Education. Paris. (2023).

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA PRAGMATIK DIKTANTLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Parpiyev Odil Olimovich,
Qo‘qon universiteti Filologiya kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida pragmatik diktantlardan foydalanishning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va didaktik afzalliklari tahlil qilinadi. Yozma nutqni shakllantirishda pragmatik yondashuvning ahamiyati J. Ostin va J. Searlening nutqiy aktlar nazariyasi, H. Grice kooperativ tamoyillari, G. Leechning pragmatik prinsiplari hamda matn lingvistikasi asosida yoritilgan. Pragmatik diktantlar o‘quvchilarning kommunikativ maqsadni aniqlash, adresatga mos nutqni tanlash, matnni mantiqiy izchil tuzish va nutqiy aktlarni ongli qo‘llash ko‘nikmalarini kuchaytirishda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: pragmatik diktant, ona tili darslari, boshlang‘ich sinf, pragmatik kompetensiya, nutqiy akt, lingvopragmatika, yozma nutq.

KIRISH

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda ona tili darslari nafaqat grammatik bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgani bilan ahamiyatlidir. Yozma nutqni faqat imlo va grammatik qoidalarga asoslangan mashqlar orqali shakllantirish o‘quvchilarda mazmunni aniq, mantiqiy va adresatga mos ifodalash ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelmoqda (Hyland, 2016; Graham & Harris, 2018). So‘nggi yillarda til o‘qitish nazariyalarida pragmatik yondashuv yetakchi o‘ringa chiqdi. Ostin (1962) va Searle (1976) tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi tilning faqat grammatik struktura emas, balki ijtimoiy harakat vositasi ekanini ko‘rsatadi. Grice (1975) kooperativ tamoyillari esa muloqot samaradorligining mazmun, aniqlik, bog‘liqlik va moslik kabi komponentlar orqali ta’minlanishini asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni “to‘g‘ri yozish”ga emas, balki “maqsadga mos yozish”ga o‘rgatish didaktikaning yangi bosqichiga aylandi.

Pragmatik yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta’lim texnologiyalaridan biri — pragmatik diktantlardir. Ular an’anaviy diktantlardan farqli ravishda o‘quvchidan faqat eshitilgan matnni yozishni emas, balki kontekstni anglash, adresatni aniqlash, nutqiy vaziyatga mos til vositalarini tanlash kabi kommunikativ-amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Pragmatika tilning ma’no yaratishdagi kontekst, maqsad va adresat bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi yo‘nalishdir (Yule, 1996; Thomas, 1995). Bu yondashuv tilni real muloqot jarayonida qanday ishlatilishiga e’tibor qaratadi. Leech (1983) pragmatikani muloqotning ijtimoiy-funksional tomonini boshqaruvchi tamoyillar tizimi sifatida sharhlaydi. Til o‘qitish jarayonida pragmatikaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) maqsadga yo‘naltirilgan matn yaratish;
2) adresant–adresat munosabatini hisobga olish;
3) nutqiy aktlarni to‘g‘ri qo‘llash;
4) matnni vaziyatga mos uslubda qurish;
5) muloqot ehtiyojidan kelib chiqib til vositalarini tanlash. Bu tamoyillar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham dolzarb bo‘lib, lingvodidaktlar tomonidan muntazam ta’kidlab kelinadi.

An’anaviy diktantlar — nazorat va grammatik ko‘nikmalarni shakllantiruvchi mashqlar bo‘lib, ular o‘quvchining imlo, tinish belgisi va yozuv malakasini mustahkamlaydi (Raimes, 2010). Biroq ular o‘quvchilarning kommunikativ va pragmatik fikrlashini rivojlantirmaydi. Zamonaviy didaktikada diktantlarning quyidagi innovatsion turlari ajratiladi: ijodiy diktantlar, mantiqiy diktantlar, tanlab yozish diktantlari, erkin diktantlar, lug‘at diktantlar. Bu diktant turlarining ichida

aynan pragmatik diktantlar o‘quvchilarning lingvistik va ijtimoiy-kognitiv bilish faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi mashq turi sifatida alohida ajralib turadi.

Pragmatik diktant — bu o‘quvchidan matnni nafaqat eshitish va yozish, balki undagi muloqot maqsadini, adresatni, nutqiy vaziyatni, uslubni va nutqiy aktlarni aniqlashni talab qiluvchi diktant turi. Bu mashqlar matnning ma’no qatlamini tahlil qilish, muloqot vaziyatini tiklash, gap va birliklarning kommunikativ yukini aniqlash, o‘quvchining pragmatik fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot 420 nafar o‘quvchi ishtirokida (1–4-sinflar) o‘tkazilgan bo‘lib, pragmatik diktantlarni qo‘llash tajribasi 4 oy davomida olib borildi. Tajriba ikkiga bo‘lindi: nazorat guruhi — an’anaviy diktantlar bilan ishladi; tajriba guruhi — pragmatik diktantlar asosida darslar olib bordi. Qo‘llangan asosiy metodlar: eksperiment, diagnostik testlar, matn tahlili, statistik tahlil.

Pragmatik diktantlar quyidagi maqsadlar asosida qo‘llandi:

1. Vaziyat va adresatni aniqlash;
2. Matnning maqsadini topish;
3. Nutqiy aktlarni belgilash (iltimos, buyruq, maslahat, ma’lumot berish, rad etish va h.k.);
4. Matnning uslubini aniqlash (rasmiy/norasmiy);
5. Matnni qayta tiklash yoki to‘ldirish;
6. Muqobil pragmatik yechim taklif qilish.

NATIJALAR

Tajribadan oldin va tajribadan keyin qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni quyidagi jadvalda ifodaladik. Qarang. 1-jadval.

1-jadval. Pragmatik diktant natijalari

Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
matnning muloqot maqsadini aniqlash	23%	matnning muloqot maqsadini aniqlash	74%
adresatni aniqlash	34%	adresatni aniqlash	79%
nutqiy aktlarni tanish	29%	nutqiy aktlarni tanish	73%
mantiqiy izchillik	41%	mantiqiy izchillik	81%
kontekstga mos uslubni aniqlash	27%	kontekstga mos uslubni aniqlash	76%

Statistik tahlil natijalari: $t = 5{,}41$, $p < 0{,}001$; Cohen’s $d = 0{,}89$ (katta ta’sir kuchi); ANOVA: $F = 1{,}12$; $p>0{,}05$ (sinf kesimida barqaror natija). Bu ko‘rsatkichlar pragmatik diktantlarning o‘quvchi kompetensiyasiga kuchli ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘quvchi matnlarida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

- “iltimos”, “maslahat”, “tavsif”, “taklif” kabi nutqiy aktlar ongli ishlatildi;
- rasmiy va norasmiy murojaat shakllari aniq farqlana boshlandi;
- fikrning mantiqiy izchilligi oshdi;
- bog‘lovchi vositalarning sifati va funksional xilma-xilligi ortdi;

- matnni qayta yaratishda pragmatik omillarni hisobga olish kuchaydi.

Pragmatik diktantlarning quyidagi turlari mavjud: vaziyatli pragmatik diktant (matn oldidan o‘quvchiga vaziyat tavsifi beriladi), adresatga yo‘naltirilgan diktant (o‘quvchi matnni u kimga qaratilganini aniqlashi kerak), nutqiy akt diktanti (matn ichidan illokutsion aktlar belgilanadi); janr-pragmatik diktant (xat, e’lon, taklifnoma, ariza kabi matnlarni mazmuni va uslubiga mos tiklash); transformatsion pragmatik diktant (o‘quvchi matnni boshqa adresatga moslab qayta yozadi).

Pragmatik diktantni qo‘llash usullari:

1. Analitik bosqich. O‘qituvchi matn oldidan savollar beradi: Matn kimga qaratilgan? Muallifning maqsadi nima?

2. Yozuv bosqichi. O‘quvchi matnni yozadi, ammo unda pragmatik belgilarni ajratib boradi.

3. Tahlil bosqichi. Pragmatik birliklar ustida ishlanadi (murojaat, modal birliklar).

4. Transformatsiya bosqichi. Matn rasmiydan norasmiyga yoki aksincha o‘zgartiriladi.

5. Refleksiya bosqichi. O‘quvchi o‘z matnini baholaydi: “Men kimga murojaat qildim? Maqsadim aniq bo‘ldimi?”

MUHOKAMA

Pragmatik diktantlar yozma nutqni o‘rgatishda an’anaviy diktantlardan farqli ravishda o‘quvchining faolligini oshiradi, uni matnning kommunikativ tabiatini anglashga undaydi. Xalqaro tadqiqotlar (Hyland, 2016; Chen, 2019; Hua, 2021) bolalarda adresatga yo‘naltirilgan yozish kompetensiyasi aynan 7–10 yosh oralig‘ida shakllanishini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari ham aynan shu fikrni tasdiqlaydi. Pragmatik diktantlar o‘quvchi uchun kontekstni anglash, muloqot maqsadini belgilash, auditoriyani tanlash, nutqiy aktlarni ongli qo‘llash kabi yuqori darajadagi kommunikativ amaliy faoliyatni shakllantiradi.

Bu natija O‘zbekiston ta’lim tizimida ona tili darslarini kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Pragmatik diktantlar boshlang‘ich sinf ona tili darslari uchun yuqori samarali metodik vositadir. Ular matnning maqsadi va adresatini anglash, til vositalarini vaziyatga mos tanlash, nutqiy aktlarni qo‘llash, matnni kommunikativ jihatdan mukammal qurish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tajriba natijalari ushbu diktantlar yordamida pragmatik kompetensiya 40–50% ga oshganini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford University Press.
Berninger, V. (2017). Children’s writing development. *Developmental Neuropsychology*,42(3).
2. Campos, R. (2023). Young writers’ audience awareness. *Reading Research*

Quarterly, 58(2).
3. Chen, Y. (2019). Pragmatic competence in early learners. *Journal of Pragmatics*,155.
4. Flower, L., & Hayes, J. (1981). A cognitive process theory of writing. *College Composition&Communication*.
5. Graham, S. (2020). Science of writing development. *Harvard Educational Review*, 90(3).
6. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. Academic Press.
7. Hyland, K. (2016). *Teaching and Researching Writing*. Routledge.
8. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.
9. Safarov,Sh.(2008). *Pragmatika*. Toshkent.
10.Umarova, Ya. (2023). Boshlang‘ich sinflarda pragmatik kompetensiya. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*.

BOLALARNI BOSHLANG’ICH TA’LIMGA SIFATLI TAYYORLASHNING DASTURIY TA’MINOTINING METODIK TIZIMI.

Professor: Fayzullayev Sharipboy Nurullayevich
Magistrant: Amankulovava Zamira Azim qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti. “Boshlangich va Maktabgacha ta’lim nazariyasi” kafedrasi,Telfon : 90 213 14 66.sharipboyfayzullayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash jarayonida dasturiy ta’minot vositalaridan samarali foydalanishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhitida ta’lim mazmunini individuallashtirish, bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimning tarkibiy qismlari va tamoyillari yoritiladi.

Kalit so‘zlar:maktabgacha ta’lim, dasturiy ta’minot, raqamli pedagogika, metodik tizim, interaktiv ta’lim, o‘quv motivatsiyasi.

Abstract. This article analyzes the scientific and methodological foundations of the effective use of software tools in the process of qualitative preparation of preschool children for school education. The components and principles of a methodological system aimed at individualizing educational content and developing children's cognitive activity in a digital educational environment are highlighted.

Аннотация.В статье анализируются научно-методические основы эффективного использования программных средств в процессе качественной подготовки детей дошкольного возраста к школьному образованию. Выделены компоненты и принципы методической системы, направленной на индивидуализацию содержания образования и развитие познавательной активности детей в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: дошкольное образование, программное обеспечение, цифровая педагогика, методическая система, интерактивное образование, мотивация обучения.

Kirish. Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik – MTT va oilada maktabgacha yoshdagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni bolaning yangi ijtimoiy psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi.

Maktabgacha ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi hozirgi davrda ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda dasturiy ta’minotlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

Raqamli pedagogika konsepsiyasi asosida yaratilgan dasturiy vositalar bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini kuzatish, bilish jarayonlarini faollashtirish va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda dasturiy ta’minotdan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqish zaruriyatga aylanmoqda.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim tizimida 6–7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalasi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, hamda Prezidentning 2024-yil 26-sentabrdagi PF–239-son farmonida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish, avvalo, bola rivojlanishining psixologik, pedagogik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. 6–7 yosh davri bola hayotidagi o‘tish davri bo‘lib, bu davrda:

- tafakkur, mantiqiy xotira, diqqat va idrok faol rivojlanadi;
- nutq va kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi;
- mustaqil o‘rganishga intilish va o‘z fikrini ifoda etish qobiliyati kuchayadi.

Shuning uchun metodik ta’minot quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

1. Rivojlantiruvchi ta’lim – o‘qitish jarayonida bolaning bilish qobiliyatlarini, tafakkurini, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. O‘yin asosidagi o‘qitish – o‘quv mashg‘ulotlarini o‘yin faoliyati orqali tashkil etish, bu orqali o‘rganishga qiziqishni oshirish.

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – bola o‘qish jarayonida subyekt sifatida faol ishtirok etadi.

4. Integrativ yondashuv – ta’lim mazmunini o‘qish, yozish, sanash, atrof-muhitni bilish kabi yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirish.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish – raqamli vositalar, multimedia dasturlari va interaktiv o‘yinlar yordamida o‘rganish samaradorligini oshirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda xalqaro metodik tajribalar integratsiyasi kuchaymoqda. “Montessori”, “STEAM”, “Reggio Emilia”, “Early Learning” kabi yondashuvlar milliy dasturlarga moslashtirilmoqda. Masalan, STEAM-ta’lim (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modeli asosida ishlab chiqilgan dasturiy vositalar bolalarda mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu yo‘nalish Prezidentning “Raqamli ta’limni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 21-avgustdagi qaroriga muvofiq ravishda maktabgacha ta’lim tizimiga tatbiq etilmoqda.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning metodik zaruriyati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- bolaning aqliy, emotsional va ijtimoiy jihatdan maktab muhitiga moslashishini ta’minlash;
- boshlang‘ich ta’limga zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish (nutq, mantiq, tafakkur, mustaqillik, diqqat);
- o‘qish, yozish, sanashga tayyorlovchi dasturiy vositalar orqali bilimlarni tizimlashtirish;
- o‘quv jarayonini o‘yin, tajriba va interfaol metodlar orqali samarali tashkil etish.

Bu jarayonni ilmiy asosda tashkil etish uchun quyidagi metodik zaruriyatlar mavjud:

1. Bola rivojlanishining yosh xususiyatlarini hisobga olish.

6–7 yosh davri bolaning o‘z-o‘zini anglash, tafakkur, diqqat, xotira va muloqot ko‘nikmalari faol shakllanadigan bosqichdir. Shu sababli ta’lim metodikasi o‘yin, tajriba va ijodiy faoliyat orqali o‘qitish tamoyiliga asoslanishi lozim.

2. Ta’limning uzviyligini ta’minlash.

Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasidagi uzluksizlik “uzviy o‘tish modeli” orqali amalga oshiriladi. Bu esa bolaning maktab hayotiga silliq moslashishini, stress holatlarining kamayishini ta’minlaydi.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash.

Har bir bola individual xususiyatlari, bilish sur’ati va qiziqishlari bilan farq qiladi. Shu bois o‘qitish jarayonida differensial yondashuv va individual dasturlar muhim metodik zarurat hisoblanadi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Dasturiy vositalar (interaktiv o‘yinlar, multimedia darslar, test dasturlari) bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, o‘zlashtirish jarayonini samarali qiladi.

5. Rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarini amalga oshirish.

O‘quv jarayonida bolaning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratilishi lozim.

Xulosa. Bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda dasturiy ta’minotdan foydalanish jarayoni metodik tizim asosida tashkil etilganda, ta’limning samaradorligi ortadi, bolaning individual rivojlanish ehtiyojlari to‘liqroq qondiriladi.Raqamli o‘quv muhiti orqali o‘qituvchining metodik faoliyati takomillashadi, bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatni hal etish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1."Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-152-son, 30.09.2024-y.)

2“Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

3."Ilm yo'li" variativ o'quv dasturi-Toshkent.: 2019.

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 66-sonli qarori.-Toshkent. 2022.

5.Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari T., O'z PFITI, 2000. Tuzuvchilar Rasulova M. Abdurahmonova X va boshqalar.

6.Fayzullayev Sh. "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma Samarqand-2020- y 64b.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK QARASHLAR: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TALABLAR

Sodiqova Gulabzaxon Abdumalik qizi
Farg’ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik qarashlarning asosiy tamoyillari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etishning ahamiyati yoritiladi. Zamonaviy pedagogning kompetensiyalari hamda innovatsion ta’lim metodlarining samaradorligi qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy pedagogika, innovatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiya, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, kreativ fikrlash.

Bugungi kunda jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar, axborot oqimi va global iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim tizimidagi yondashuvlarning yangilanishini talab qilmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish kabi vazifalar zamonaviy pedagogik qarashlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Pedagogika endilikda faqat o‘qitish jarayonini

tashkil etuvchi fan emas, balki shaxsning intellektual, ijtimoiy-emotsional va kreativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy pedagogika bir nechta asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

Bu yondashuv har bir o‘quvchining individualligi, qiziqishlari, iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan. O‘rganish jarayonida o‘quvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi, o‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi va motivator rolini bajaradi.

2. Kompetensiyaviy yondashuv

An’anaviy bilim berish modeli o‘rniga kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor bo‘lib bormoqda. Asosiy kompetensiyalar:tanqidiy fikrlash,kommunikativ ko‘nikmalar,axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati,jamoada ishlash,muammolarni hal qilish.Bu yondashuv o‘quvchining real hayotiy vazifalarni bajarishga tayyorgarligini oshiradi.

3. Konstruktivizm va faol o‘qitish metodlari

Konstruktivistik ta’lim modeli o‘quvchilarning bilimni mustaqil o‘zlashtirishi va uni amaliyotda qo‘llashiga asoslanadi. Bu jarayonda loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, tadqiqot topshiriqlari, muloqot asosidagi darslar keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy ta’limni innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Eng muhim yo‘nalishlardan ayrimlari quyidagilar:

1. Raqamli pedagogika

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga tatbiq etilmoqda:

onlayn ta’lim platformalari,sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari,virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR),elektron portfoliolar,masofaviy ta’lim muhitlari.

Raqamli kompetensiyalar zamonaviy pedagog uchun zarur kasbiy malakalardan biri hisoblanadi.

2. STEAM-ta’lim

(STEM + Art) integratsion yondashuvi fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi. Bu model:kreativ fikrlash,texnik tafakkur,ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Inkluziv ta’lim

Har bir o‘quvchi uchun teng sharoit yaratish, ehtiyojidan qat’i nazar ta’lim olish imkonini berish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Bugungi pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogik dizayn kompetensiyasi: dars jarayonini interfaol, integratsiyalashgan va maqsadli loyihalash.

Raqamli savodxonlik: elektron resurslardan samarali foydalanish.

Refleksiv kompetensiya: o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish.

Kouching va mentorlik ko‘nikmalari: o‘quvchini rivojlanishga yo‘naltirish.

Madaniyatlararo kommunikatsiya: global ta’lim muhiti bilan moslashuvchan ishlash.

Ta’lim tizimida yangicha yondashuvlar doim ham oson joriy etilmaydi. Asosiy muammolar: o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalar bo‘yicha malakasi yetarli emasligi,ta’lim resurslarining texnologik yetishmovchiligi,an’anaviy o‘qitish uslublariga kuchli intilish,ota-onalarning yangi ta’lim madaniyatini to‘liq anglamasligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun muntazam malaka oshirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib qilish va ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarur.

Zamonaviy pedagogik qarashlar ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda innovatsion metodlarning keng tatbiqi o‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga imkon yaratadi. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi esa zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan, ijodkor, raqobatbardosh va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Yo‘ldoshev J., Hasanboeva O. Pedagogika. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.

Husanboyeva Q., Raxmonov A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.

2.Qodirov A., Yusupov E. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021.

3.Xoliqova N. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari. — Toshkent: “Noshir”, 2022.

4.Jo‘raev R. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish yo‘llari. — Toshkent: “Innovatsiya”, 2020.

5.Qosimova D. Inkluziv ta’limning nazariy va amaliy asoslari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.

6.Toshpulatova D. STEAM ta’lim metodologiyasi. — Toshkent: “Noshir”, 2023.

INNOVATSION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharabayev Ulug’bek Muhammedovich
QDU dotsenti.
G’iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi
QDU o’qituvchi**.**
giyosiddinovamahmuda@gmail.com
+998912013395

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarni qo‘llashning samarali yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy jihatlari hamda modelini takomillashtirish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, innovatsion texnologiyalar, pedagogik topshiriq, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim modeli.

Аннотация: В статье анализируются эффективные способы использования инновационных технологических заданий для развития творческого мышления будущих учителей начальной школы, а также освещаются теоретические основы, практические аспекты формирования творческого мышления и этапы совершенствования модели.

Abstract: The article analyzes effective ways to use innovative technological tasks to develop creative thinking in future primary school teachers. It also covers the theoretical foundations, practical aspects of the formation of creative thinking, and the stages of improving the model.

Ключевые слова: творческое мышление, инновационные технологии, педагогическая задача, начальное образование, образовательная модель

Key words: creative thinking, innovative technologies, pedagogical task, primary education, educational model

KIRISH

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda kreativ fikrlashni shakllantirish innovatsion texnologik topshiriqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bunday yondashuv, avvalo, kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijodkorlikka moyil, muammoli vaziyatlarga kompleks yondasha biladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratidan kelib chiqadi. Shu sababli, o‘quv jarayonining mazmuniy asosini tashkil etuvchi dasturlar ham zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi innovatsion texnologik topshiriqlar asosida ishlab chiqilishi lozim

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirishda ularning kasbiy modeli asosida tayyorlash dolzarb metodologik muammolardan biridir. Bu borada ilg‘or pedagogik tafakkur egalari bo‘lgan O.A. Abdullina, V.A. Slastyonin, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, Yu.K. Babanskiy, Sh.A. Amonashvili kabi olimlarning ilmiy ishlanmalariga tayanish zarur.

Masalan, N.V. Kuzmina tomonidan taklif etilgan o‘qituvchi modeli ilmiy, kommunikativ, konstruktiv, tashkiliy va tashabbuskorlik kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bu modelni innovatsion texnologik topshiriqlar asosida o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali talabalarda aynan kreativ fikrlashga asoslangan kasbiy refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish mumkin.

Slastyoninning “Zamonaviy o‘qituvchi professiogrammasi” bo‘limida ta’kidlanganidek, har qanday mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishning

muhim sharti – bu ushbu faoliyatning yakuniy mahsuloti, ya’ni kutilayotgan natijasi haqida oldindan aniq tasavvurga ega bo‘lishdir. Ushbu fikr kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni samarali loyihalashtirishda asosiy metodologik mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi. Ana shu tamoyilga asoslanib, biz pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida erishilishi zarur bo‘lgan yakuniy maqsad – bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy modelini aniqlash uchun zarur bo‘lgan parametrlar tizimini ishlab chiqdik. Bunday parametrlar quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

1. mutaxassis o‘z faoliyatini olib boradigan aniq professional-pedagogik vaziyatlarning tahlili;
2. uning kasbiy-mehnat majburiyatlari va roli;
3. ushbu faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning aniq tarkibi.

Shu tarzda, mutaxassis modeli konseptual va amaliy muammo sifatida vujudga keladi va u ta’lim jarayonining yakuniy natijasini oldindan belgilashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning kasbiy shakllanishini aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan holda loyihalashtirish imkonini beradi. Milliy prognostik model aynan shu metodologik asosga tayanib, bo‘lajak pedagog shaxsini kompleks shakllantirish, uning kasbiy identifikatsiyasini chuqurlashtirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob bera oladigan ijodkor mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi. [75; 25-b.]

Ushbu yondashuvlarni umumlashtirib aytganda, mutaxassis modeli deganda pedagogik faoliyatning mohiyatini aks ettiruvchi, o‘qituvchidan kutib olinadigan kasbiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy kompetensiyalar va axloqiy-psixologik tayyorgarlik darajalarini aniq belgilovchi metodologik vosita tushuniladi. Mazkur model orqali bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishini prognoz qilish, ta’limiy jarayonni natijaga yo‘naltirilgan holda loyihalashtirish, shuningdek, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy mezonlar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, model zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsini ko‘p jihatli yondashuv asosida baholash, uning kasbiy egallagan roli va funksiyalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning individual rivojlanishi va kasbiy yetukligi asosida yo‘naltirilgan, aniq maqsadli o‘quv-tarbiyaviy strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlash kompetensiyasini innovatsion texnologik topshiriqlar asosida shakllantirish jarayoni izchil va tizimli yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, tadqiqotchidan ushbu kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi prognozli modelni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Modelni yaratishda pedagogik tizimlarning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi konseptual asoslarga tayangan holda, kreativ pedagog obrazini shakllantirish lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har xil turdagi pedagogik tizimlar o‘zaro farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy tamoyillar mavjud bo‘lib, ular

asosan yagona maqsad, strukturaviy birlik va samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar orqali namoyon bo‘ladi [19; 50-51-b.]. Bu esa, turli tizimlarning optimal faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan umumiy mezonlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik ta’lim jarayonini integratsiyalashgan ko‘p bosqichli model sifatida ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv bo‘lajak pedagoglarning kreativ fikrlash qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Mazkur model nazariy asoslar, amaliy faoliyat va ijodiy yondashuvlarning uyg‘unligi asosida shakllantiriladi. U o‘z ichiga kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi pedagogik sharoitlar va didaktik ta’minotni yaratishni oladi hamda ushbu omillar orqali kelgusidagi mutaxassisning ijodiy salohiyatini

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini innovatsion texnologik topshiriqlar orqali rivojlantirish modeli o‘z ichiga to‘rt asosiy komponentni olgan bo‘lib, ular tizimli pedagogik asosda integratsiyalashgan tarzda tuzilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish innovatsion texnologik topshiriqlarni samarali qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu modelni takomillashtirish orqali o‘qituvchilarni nafaqat ijodkor, balki zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi kompetent mutaxassis sifatida shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hasanboeva O. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.

2. Yuldasheva D. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent, 2020.

3. Guilford J. Creativity and Its Cultivation. – New York, 2017.

4. Torrance E.P. Creative Thinking Tests. – USA, 2018.

5. Азизхўжаев Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат / Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2006. – 139 б.

6. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. - Т.: ТДПУ, 2000. - 52 б.

7. Гершунский, Б.СФилософское образование для XXI века (в поисках практико-ориентированных образовательных концепций) / Б.С. Гершунский.— М.: Совершенство, 1998

8.Талызина, К.Ф. Управление процессом усвоения знаний / Н.Ф. Талы¬зина.-М., 1983

9. Анохин, П.К. Теория функционалной системы / П.К. Анохин // Успехи физиологических наук. — М., 1970. — Т. С-50-51.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MEDIA SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Xasanov Xayrullo Maxmudovich
Qo‘qon DU, v.b. dotsent

Kirish. Globallashuv jarayonida axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar va ommaviy axborot vositalarining keng qo‘llanilishi media savodxonlikni har bir inson uchun zaruriy kompetensiyaga aylantirdi. Bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardoshlik, innovatsion tafakkur va axborotni tanqidiy qabul qilish qobiliyati - ayniqsa boshlang‘ich ta’lim jarayonida shakllanishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardandir.

Media savodxonlik - bu media mahsulotlarni anglash, tahlil qilish, baholash va ulardan mas’uliyatli foydalanish qobiliyati bo‘lib, bugungi kunda ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida bolalar erta yoshdan vizual, audio va interaktiv kontentlar bilan to‘qnash kelmoqda. Shu sababli media savodxonlikni boshlang‘ich sinflardanoq shakllantirish, o‘qituvchilarning media pedagogika bo‘yicha malakasini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy vositalarni kiritish dolzarb masaladir.

Metodologiya. Material media savodxonlik, media ta’lim va raqamli pedagogika bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlardagi ta’lim tajribalarini o‘rganish, kuzatish asosida tayyorlandi. O‘rganishlar quyidagi metodlar yordamida amalga oshirildi:

1. Kontent tahlili - media savodxonlik nazariyalari, media mahsulotlari va ularning ta’sir mexanizmlari tahlil qilindi.
2. Taqqoslash metodi - O‘zbekiston ta’lim tizimidagi media savodxonlikni Kanada, Finlyandiya, Estoniya kabi davlatlar tajribasi bilan solishtirish.
3. Pedagogik kuzatish - boshlang‘ich sinflarda media vositalar qo‘llangan darslarning samaradorligi o‘rganildi.

Natijalar. O‘rganishlar media savodxonlikni boshlang‘ich ta’limga integratsiya qilish quyidagi ijobiy natijalarni berishini ko‘rsatdi:

1. Tanqidiy fikrlash rivojlanadi - o‘quvchilar ko‘rgan axborotning maqsadini, manbasini, ishonchliligini tahlil qiladi.
2. Axboriy filtrlash qobiliyati shakllanadi - soxta yangiliklarni, manipulyativ reklama va kontentni ajrata oladi.
3. Raqamli madaniyat rivojlanadi - internet etikasi, onlayn xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi.
4. Ijodkorlik va kreativlik oshadi - video, animatsiya, slayd va raqamli loyihalar yaratish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Muhokama. Media savodxonlikni boshlang‘ich ta’limga tatbiq qilish bir qator omillarga bog‘liq. O‘rganishlar davomida quyidagi muammolar aniqlandi:

1. O‘qituvchilarning media pedagogika bo‘yicha yetarli tayyorgarlik darajasi mavjud emas.

2. Maktablarda media vositalar yetarli emas yoki samarali ishlatilmaydi.

3. Ota-onalarning media madaniyati past bo‘lgani sababli bolalarga to‘g‘ri yo‘nalish berolmaslik holatlari mavjud.

4. Media ta’lim bo‘yicha yagona metodik tizim to‘liq shakllanmagan.

Xorijiy davlatlar tajribalari shuni ko‘rsatadiki, media savodxonlikni keng joriy qilish uchun quyidagilar bo‘lishligi muhimdir:

- O‘qituvchilar uchun maxsus media pedagogika kurslari
- Raqamli kontent yaratish bo‘yicha laboratoriyalar
- Onlayn media xavfsizligi bo‘yicha platformalar
- Media mahsulotlarni tahlil qilish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar

Xulosa qilib aytganda, media savodxonlik raqamli asrda har bir shaxs uchun zaruriy kompetensiya bo‘lib, uni boshlang‘ich ta’lim bosqichidan shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlik o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, axborot oqimida mustaqil yo‘l topish qobiliyatini mustahkamlaydi va raqamli madaniyat asoslarini shakllantiradi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, media ta’limning samarali amalga oshirilishi uchun davlat siyosati, ta’lim standartlari, o‘qituvchilar tayyorgarligi va zamonaviy texnologiyalar birgalikda rivojlanishi kerak.

Media savodxonlikning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi innovatsion, tanqidiy fikrlovchi va mas’uliyatli raqamli avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mediasavodxonlik va unga yo‘naltirilgan ta’limning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi roli. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/10/1] 232-233 b.

2. Mediasavodxonlik nima va uning ahamiyati. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў илимий-методикалық журнал. 2024, 6-сан. Нөкис. 529-532 b.

3. Mediasavodxonlikning zamonaviy ta’riflari va ularning talabalarga ta’siri. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў илимий-методикалық журнал. 2025, 2/1-сан. Нөкис. 346-350 b.

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI

Samarqand davlat instituti 1-kurs magistranti Toshtemirova Marjona
Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim Metodikasi kafedrasi dotsenti (PhD) G.Sh.Fayzullayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion pedagogik yondashuvlarning mohiyati va ularni tadqiq etish metodologiyasi yoritiladi. Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish, ularning samaradorligini aniqlash va baholash usullari qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, pedagogik yondashuv, metodologiya, eksperiment, raqamli ta’lim.

Аннотация

В статье кратко раскрываются сущность инновационных педагогических подходов и методология исследования инновационного процесса. Рассматриваются методы внедрения, оценки и анализа эффективности образовательных инноваций.

Ключевые слова: инновация, педагогический подход, методология, эксперимент, цифровое обучение.

Annotation

This paper briefly describes the essence of innovative pedagogical approaches and the methodology for studying the innovation process. Methods of implementing and evaluating educational innovations are outlined.

Keywords: innovation, pedagogical approach, methodology, experiment, digital learning.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlar qilish zarurati innovatsion pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Zamonaviy pedagogika maktabi an’anaviy bilim berish modelidan shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv, kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarga o‘tmoqda. Bunday sharoitda innovatsiyalarni chuqur o‘rganish, ularning samaradorligini baholash va amaliyotga tatbiq etishning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish ta'lim rivojining asosiy omiliga aylanmoqda.

Pedagogik innovatsiya — bu o‘qitish jarayonini takomillashtiruvchi, ta’lim samaradorligini oshiruvchi yangicha g‘oya, texnologiya yoki uslubiyotni amaliyotga joriy etishdir. Bugungi ta’limda qo‘llanilayotgan asosiy innovatsion yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- **Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – o‘quvchi individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida o‘qitish jarayonini moslashtirish.
- **Konstruktivizm** – bilimlarning tayyor shaklda berilmay, balki o‘quvchining o‘z faoliyati orqali yaratib borilishi.
- **STEAM-ta’lim** (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) – fanlararo integratsiya orqali kreativ muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.
- **Raqamli pedagogika** – sun’iy intellekt, virtual reallik, LMS tizimlar, mobil ilovalar yordamida ta’lim jarayonini raqamlashtirish.
- **Interfaol ta’lim metodlari** – klaster, BRAINSTORMING, CASE-STUDY, DEBATE, “6x6x6” kabi metodlar orqali o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish.
- **Kompetensiyaviy yondashuv** – bilimdan ko‘ra amaliy faoliyatga tayyorlaydigan ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga urg‘u berish.

Bu yondashuvlar ta’limni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, kreativ, mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar – ta’lim jarayonini zamon talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan yangicha pedagogik g‘oyalar, metodlar, texnologiyalar va tashkiliy shakllar majmuidir. Uning asosida yangilik, ijodkorlik, moslashuvchanlik, ta’lim samaradorligini oshirish g‘oyalari yotadi.

Innovatsiya (innovation) – yangilik kiritish, modernizatsiya qilish, sifatni oshirishga qaratilgan o‘zgarishlar degani. Pedagogik innovatsiya esa – ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yangi g‘oya yoki metod.

Pedagogik innovatsiyalarni ilmiy asosda o‘rganish maxsus metodologiyani talab qiladi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Metodologik asoslar

- Pedagogik nazariya va innovatsion konsepsiyalar,
- zamonaviy psixologik jarayonlar,
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari,
- ta’lim sifatini baholash standartlari.

Bu asoslar tadqiqotning ilmiy yo‘nalishini va natijalarini belgilaydi. Innovatsion pedagogik jarayonni tadqiq etish — bu ta’lim tizimiga joriy etilayotgan yangiliklarning mazmuni, samaradorligi, amaliy mexanizmi va o‘zgarish dinamikasini ilmiy asosda o‘rganish jarayonidir. Metodologiya innovatsiyani aniqlash, tahlil qilish, baholash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlarini qamrab oladi.

Innovatsion yondashuvlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy usullar:

- **Nazariy metodlar:** tahlil, sintez, taqqoslash, model yaratish, kontseptualizatsiya.
- **Empirik metodlar:** kuzatish, suhbat, anketa, pedagogik eksperiment, diagnostik testlar.
- **Statistik va matematik metodlar:** korrelyatsiya, regressiya, o‘rtacha ko‘rsatkichlarni solishtirish, natijalarni ishonchlilik darajasida tekshirish.
- **Raqamli tahlil metodlari:** LMS tizimlaridagi o‘quv ma’lumotlarini analitika qilish, learning analytics texnologiyalari.

Bu metodlar innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogika innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni talab qilmoqda. Bunday yondashuvlar ta’lim sifatini oshirib, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi. Innovatsion jarayonlarni chuqur o‘rganish esa ilmiy metodologiyaning to‘g‘ri qo‘llanilishi orqali amalga oshadi. Shu bois innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayeva N., To‘xtayeva Sh. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Sayidahmedov N. *Pedagogik texnologiyalar asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Hasanboeva O., Yo‘ldosheva Sh. *Innovatsion pedagogika.* – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2022.
4. Jabborov X. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Pedagogik entsiklopediya. – Toshkent: Sharq, 2018.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING INNOVATSION MODELLARI

Xasanov Xayrullo Maxmudovich
Qo’qon DU, v.b. dotsent

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Bozor munosabatlarining kengayishi, raqobatning kuchayishi, axborot oqimining keskin ortishi ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga yo‘naltirish, o‘qituvchilarning mehnatini yengillashtirish hamda ta’lim jarayonini avtomatlashtirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida raqamli vositalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning idrok qilish qobiliyati, qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonida virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt, elektron darsliklar, multimedia vositalari, raqamli o‘qitish platformalari va onlayn baholash tizimlarining keng joriy etilishiga olib keldi. Bu esa talabalarning ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda ularning moslashuvchanligini ham kuchaytirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. O‘raganishlar davomida ilmiy-ta’limiy manbalar, xalqaro tajribalar, zamonaviy raqamli o‘qitish platformalari va amaliyotchi pedagoglarning fikr-mulohazalari tahlil qilindi va quyidagi metodlarga tayanildi:

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish - raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni va roli o‘rganildi.
2. Kuzatish metodi - boshlang‘ich sinflarda raqamli vositalardan foydalanish amaliyoti o‘rganildi.
3. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili - raqamli ta’lim bo‘yicha davlat siyosati va normativ bazalar ko‘rib chiqildi.

Natijalar. O‘raganishlar davomida raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bir qator ijobiy natijalarga olib kelishi aniqlangan. Ular quyidagilardir:

1. O‘quv jarayonining samaradorligi oshadi - multimedia darslar, animatsiyalar, simulyatorlar orqali o‘quvchining mavzuga qiziqishi kuchayadi.

2. Ta’limning individuallashtirilishi - har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos topshiriqlar elektron platformalar orqali avtomatik taqdim etiladi.

3. O‘qituvchilar uchun vaqt tejaladi - elektron jurnallar, onlayn baholash tizimlari, avtomatik tekshirish vositalari orqali mehnat samaradorligi oshadi.

4. Masofaviy ta’lim imkoniyatlari kengayadi - pandemiya davrida bu jarayon o‘z isbotini topdi.

5. O‘quvchilarni raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi - zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘raganishlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni ta’limga qo‘llash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda katta natija beradi:

- Elektron darsliklar va platformalar (Moodle, Google Classroom, Coursera, Khan Academy)
- Sun’iy 169trategic asosidagi o‘qitish tizimlari (adaptive learning)
- Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari
- Onlayn testlar va tezkor baholash tizimlari
- Interaktiv taxtalar va mobil ilovalar

Xorijiy tajribalar, xususan, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Estoniya ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar 169trategic darajada yo‘lga qo‘yilgan. Natijada ushbu davlatlar PISA reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Muhokama. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi qator omillarga bog‘liq. Jumladan, texnik infratuzilma, o‘qituvchilar malakasi, metodik materiallar sifati, internet tezligi va raqamli kontentning mavjudligi asosiy omillar hisoblanadi. O‘raganishlar davomida quyidagi muammolar aniqlangan:

1. Ayrim hududlarda texnik jihozlarning yetishmasligi - kompyuterlar, planshetlar, yuqori tezlikdagi internet.

2. O‘qituvchilar orasida raqamli pedagogika bo‘yicha yetarli tayyorgarlikning mavjud emasligi.

3. Raqamli kontentning metodik jihatdan yetarli bo‘lmasligi yoki yangilanmasligi.

4. Ota-onalarning raqamli savodxonlik darajasi past bo‘lishi sababli masofaviy ta’limda qiyinchiliklar.

Xorij tajribalaridan quyidagi yondashuvlar yuqori natija berganini alahida takidlab o‘tish lozim. Jumladan:

- Finlyandiya: «Bir maktab - bir raqamli platforma» tamoyili.
- Estoniya: 100% raqamlashtirilgan davlat xizmatlari va maktablar uchun yagona ta’lim ekotizimi.
- Janubiy Koreya: raqamli darsliklarning majburiy joriy etilishi.

Xulosa. O‘raganishlar yakunlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga qodir. Ular o‘quvchilarning bilish faoliyatini

faollashtiradi, o‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi, ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardosh, zamonaviy fikrlovchi va innovatsion kompetensiyalarga ega avlodni tarbiyalashning eng muhim omilidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xasanov Xayrullo Maxmudovich. "Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyatida AKT kompetensiyasining ahamiyati" KSPI Conference 1 (2023): 221-224.

2. Xasanov Xayrullo Maxmudovich "Ta’lim jarayonida o‘quv faoliyatini tashkil etishda raqamli texnologiyalarning o‘rni." Conferencea (2023): 31-36.

3. Xasanov Xayrulla Maxmudovich "Culture of the use of information technology in the educational system" Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 268-271.

DEVELOPING ECONOMIC LITERACY IN PRIMARY EDUCATION THROUGH A FACILITATION APPROACH: INNOVATIVE STRATEGIES

Quchqorova Nargiza Mamajonovna,
Tashkent Oriental University, Doctor of Pedagogical Sciences. Professor
Yulchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi.
Fergana State University. Doctoral Student.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития экономической грамотности учащихся начальных классов на основе фасилитационного подхода. Анализируются возможности применения инновационных стратегий и интерактивных методов обучения для формирования у детей экономического мышления, финансовой культуры и навыков принятия самостоятельных решений. Кроме того, обосновываются преимущества фасилитационной педагогики в условиях цифровой трансформации и эффективность использования цифровых ресурсов и технологий при обучении основам экономики.

Ключевые слова: начальное образование, фасилитационный подход, экономическая грамотность, инновационные стратегии, цифровая трансформация, интерактивные методы, финансовая культура.

Abstract. This paper explores the development of economic literacy among primary school students through a facilitation-based approach. It analyzes the potential of applying innovative strategies and interactive methods in education to foster economic thinking, financial culture, and independent decision-making skills in children. Furthermore, the study highlights the advantages of facilitation pedagogy in the context of digital transformation and demonstrates the effectiveness of integrating digital resources and technologies in teaching the fundamentals of economics.

Keywords: primary education, facilitation approach, economic literacy, innovative strategies, digital transformation, interactive methods, financial culture.

Introduction. In the 21st century, developing economic literacy from an early age is essential for preparing children to make responsible financial decisions. However, traditional teacher-centered methods often fail to engage young learners.

The facilitation approach, where the teacher acts as a guide rather than a lecturer, promotes active participation, collaboration, and discovery. This study explores innovative strategies—such as gamified tasks, digital simulations, and project-based learning—to enhance economic literacy in primary education while also fostering creativity and critical thinking.

Methods. This study applies a pedagogical design approach to analyze how facilitation-based strategies can improve economic literacy in primary education. The research design integrates both qualitative and quantitative elements, with a focus on classroom implementation.

1. Participants – The target group consisted of primary school students (grades 3–4, ages 8–10). Two classes were selected: an *experimental group* that received facilitation-based instruction, and a *control group* that followed traditional teacher-centered methods.
2. Facilitation Techniques – The experimental group was taught using: Guided discovery learning (students explored concepts of needs, wants, and budgeting through role-play and storytelling). Project-based learning (designing “mini-markets” and household budgeting projects). Gamified financial tasks (digital simulations such as saving games, virtual shops, and collaborative problem-solving). Facilitated discussions where students reflected on their decisions and shared different solutions.
3. Instruments – Economic Literacy Test for Children (ELTC) was adapted to measure students’ understanding of basic economic concepts. Classroom observations and student reflections were used to collect qualitative data.
4. Procedure – The program lasted for 6 weeks. Both groups were assessed before and after the intervention. The experimental group participated in facilitation-based activities, while the control group studied the same topics using traditional lectures and textbook exercises.
5. Data Analysis – Pre- and post-test results were compared using descriptive statistics and t-tests. Qualitative data were analyzed thematically to identify patterns in motivation, creativity, and collaborative skills.

Results. The comparative analysis between the experimental and control groups revealed that the facilitation-based approach produced measurable improvements in economic literacy and related competencies.

1. **Economic Literacy Gains** – Post-test results indicated that the experimental group’s average score on the Economic Literacy Test increased by **22%**, compared to only **8%** in the control group. Students in the facilitation group demonstrated

stronger understanding of saving, budgeting, and distinguishing between needs and wants.

2. **Motivation and Engagement** – Classroom observations and student reflections showed that learners in the experimental group were more active participants in lessons. Gamified activities and project-based learning created a sense of excitement and relevance, leading to higher levels of classroom participation.

3. **Critical and Creative Thinking** – Students engaged in projects such as designing “mini-markets” and household budgeting scenarios demonstrated more originality and flexibility in problem-solving. Teachers reported that learners began to apply economic concepts to their everyday lives, such as explaining family shopping choices.

4. **Collaboration and Communication** – Group-based facilitation activities fostered teamwork. Students in the experimental group were more likely to share ideas, negotiate roles, and collectively reflect on their financial decisions.

Overall, the results suggest that facilitation-based innovative strategies significantly improve both **cognitive understanding** of economic concepts and **non-cognitive skills** such as creativity, communication, and social responsibility.

Discussion. The findings of this study demonstrate that applying a facilitation approach in primary education significantly improves students’ economic literacy while also fostering broader competencies such as creativity, collaboration, and problem-solving. These outcomes align with earlier research suggesting that active, student-centered methods increase engagement and deepen conceptual understanding.

The stronger gains in the experimental group confirm that traditional teacher-centered instruction is less effective in promoting economic awareness at an early age. When children actively participate in role-play, simulations, and group projects, they are more likely to internalize financial concepts and apply them in real-life contexts.

Moreover, the use of gamified learning tools made abstract economic concepts more concrete and accessible for young learners. This supports evidence that digital and interactive learning environments boost motivation and creativity in primary school students.

However, the study also revealed challenges: some students initially struggled with collaborative decision-making, while teachers required training to effectively apply facilitation strategies. These factors highlight the need for professional development and carefully balanced instructional design to fully realize the benefits of facilitation.

Overall, the results emphasize that facilitation is not only a method for teaching economics but also a transformative strategy for nurturing 21st-century skills in primary education.

Conclusion. The study confirms that a facilitation-based approach combined with innovative strategies—such as gamification, projects, and digital tools—

significantly improves primary school students’ economic literacy. Learners not only gained stronger financial knowledge but also developed creativity, critical thinking, and collaboration skills.

Thus, facilitation should be seen as an effective alternative to traditional methods, making economic education more engaging, practical, and relevant for young learners.

References

1. Barr, R., & Tagg, J. (1995). From teaching to learning: A new paradigm for undergraduate education. *Change: The Magazine of Higher Learning, 27*(6), 12–26.
2. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (5th ed.). Thousand Oaks, CA: SAGE Publications.
3. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. *Journal of Economic Literature, 52*(1), 5–44.
4. Rogers, C. (1983). *Freedom to learn for the 80s*. Columbus, OH: Charles Merrill.
5. Subhash, S., & Cudney, E. A. (2018). Gamified learning in higher education: A systematic review of the literature. *Computers in Human Behavior, 87*, 192–206.
6. Walstad, W. B., & Rebeck, K. (2017). The test of economic literacy: Development, interpretation, and use. *Journal of Economic Education, 48*(2), 95–105.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БАЗ ДАННЫХ

Сетсалиев Аюбхон,
студент Ферганского государственного технического университета

Аннотация

В статье рассматриваются современные тенденции и перспективы развития баз данных в условиях цифровизации общества. Анализируются ключевые направления эволюции технологий хранения и обработки информации, включая внедрение искусственного интеллекта, облачные решения, распределённые системы и технологии больших данных. Особое внимание уделяется проблемам, связанным с безопасностью, скоростью обработки и управлением информацией.

Ключевые слова: базы данных, системы управления базами данных, информационные технологии, облачные технологии, искусственный интеллект, безопасность данных, распределённые системы.

В наше время информация стала основным стратегическим ресурсом общества. Её объём ежегодно увеличивается в геометрической прогрессии, что приводит к необходимости создания эффективных механизмов хранения, обработки и анализа данных. Базы данных и системы управления базами данных являются центральным звеном современных информационных технологий.

Современные базы данных используются во всех сферах человеческой деятельности – от науки и образования до экономики, промышленности, медицины и государственного управления. Эволюция баз данных определяется требованиями цифрового общества: высокой скоростью доступа к данным, гибкостью структур, масштабируемостью и безопасностью.

Актуальность исследования перспектив развития баз данных обусловлена тем, что информационные системы становятся всё более сложными и распределёнными, а традиционные подходы к управлению данными требуют постоянного совершенствования.

Современные базы данных развиваются под влиянием глобальных цифровых трендов, таких как искусственный интеллект, большие данные и облачные технологии. Среди ключевых направлений можно выделить следующие:

- Облачные технологии. Переход к облачным базам данных позволяет организациям отказаться от локальной инфраструктуры, снизить затраты и обеспечить доступ к информации из любой точки мира. Облачные решения, такие как Google Cloud SQL, Amazon RDS, Azure SQL, обеспечивают масштабируемость, резервное копирование и высокий уровень безопасности.

- Большие данные (Big Data). С ростом объёмов информации классические реляционные модели уже не справляются с обработкой данных в реальном времени. В связи с этим получили развитие системы, работающие с большими данными - Hadoop, MongoDB, Cassandra, Spark. Они позволяют анализировать терабайты и петабайты информации, поддерживая сложные аналитические запросы.

- Искусственный интеллект. Интеграция искусственного интеллекта в системы управления базами данных (например, Oracle Autonomous Database) позволяет автоматизировать процессы настройки, мониторинга и оптимизации.

- Технологии блокчейн. Использование распределённых реестров обеспечивает высокий уровень прозрачности и защищённости данных. Базы данных нового поколения всё чаще интегрируются с блокчейн-системами, особенно в сферах финансов, здравоохранения и государственного управления.

- Обеспечение кибербезопасности. С ростом цифровизации увеличивается риск утечек данных. Поэтому большое внимание уделяется разработке систем шифрования, многоуровневой аутентификации, биометрическим методам защиты и технологиям безопасного распределённого хранения.

Перспективы развития баз данных тесно связаны с дальнейшей цифровизацией общества и созданием умных информационных систем, способных обеспечить эффективное управление знаниями и ресурсами.

Перспективы развития баз данных в ближайшие годы можно обозначить следующим образом:

1. Интеллектуальные базы данных. Создание самообучающихся систем, которые самостоятельно оптимизируют запросы, распределяют нагрузку и прогнозируют сбои.

2. Интеграция с искусственным интеллектом. Использование искусственного интеллекта для автоматического анализа данных и генерации управленческих решений.

3. Глобальные распределённые базы данных. Развитие многоуровневых архитектур, объединяющих ресурсы разных стран и континентов в единую инфраструктуру хранения.

4. Семантические базы данных. Создание систем, способных не просто хранить информацию, но и понимать её смысл, что откроет новые возможности для интеллектуального поиска и анализа.

5. Экологичность и энергоэффективность. Разработка решений, снижающих энергопотребление центров обработки данных, станет важным направлением в рамках устойчивого развития цифровой экономики.

Таким образом, базы данных продолжают оставаться основой цифровой инфраструктуры современного общества. Их развитие направлено на повышение скорости обработки, безопасность, масштабируемость и интеллектуализацию управления информацией.

Литература:

1. Левин И. В. Технологии управления большими данными. – СПб.: БХВ-Петербург, 2021. – 356 с.

2. Большие данные и искусственный интеллект в цифровой экономике / Под ред. В. А. Ляпина. – М.: Наука, 2022. – 312 с.

3. Халилов Р. А. Современные системы управления базами данных: архитектура, принципы, тенденции развития. – М.: Академия, 2020. – 284 с.

4. Z. Setsalieva. Methodology for Preparing Future Mathematics Teachers to Work with Modern Digital Applications // International Journal of European Research Output. – 2025. http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/1249

ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Баратова Мохидил Хасановна
учитель начальных классов школы № 16

Аннотация.

В статье рассматривается значимость технологии проектирования в процессе обучения математике в начальных классах. Представлены теоретические основы проектного подхода, педагогические условия его эффективного применения, этапы организации учебных проектов, а также практические примеры их реализации. Особое внимание уделено формированию математической грамотности и развитию универсальных учебных действий младших школьников. Обоснована необходимость систематического использования проектной деятельности как ресурса повышения качества математического образования.

Ключевые слова: проектная деятельность, начальная школа, математика, образовательные технологии, проектирование, функциональная грамотность.

Современная система образования направлена на развитие личности ученика, формирование у него ключевых компетенций и навыков, востребованных в XXI веке. В условиях обновления содержания начального образования особое значение приобретает внедрение активных методов обучения, направленных на развитие самостоятельности, критического мышления, умения работать в коллективе. Одним из наиболее эффективных инструментов достижения этих целей является технология проектирования.

Проектная деятельность позволяет включить учащихся в активный познавательный процесс, формирует способность применять знания в практических ситуациях, стимулирует интерес к изучению математики. В начальной школе проектный подход становится важным ресурсом формирования основ математической грамотности, моделирования, логического и алгоритмического мышления.

Технология проектирования представляет собой педагогическую технологию, ориентированную на самостоятельное решение учащимися учебной или практической проблемы в процессе создания продукта. Для учащихся начальной школы наиболее приемлемой формой является мини-проект, который может быть выполнен в течение одного урока или серии занятий.

Проектная технология в обучении математике направлена на:

— повышение познавательной активности учащихся;

— развитие математического и логического мышления;

— формирование коммуникативных и регулятивных универсальных учебных действий;

— создание условий для применения математических знаний в практических ситуациях.

Организация проектной деятельности на уроках математики позволяет сделать процесс обучения более практико-ориентированным, связать его с

повседневными ситуациями. Учащиеся получают возможность применять математические умения в реальных условиях: измерять, сравнивать, анализировать данные, проводить расчёты.

Особое значение проектная деятельность имеет для формирования функциональной математической грамотности. В ходе работы над проектами дети учатся работать с таблицами, диаграммами, схемами, моделями, анализировать количественную информацию, делать выводы.

Этапы организации учебного проекта.

Эффективность проектной работы во многом зависит от правильной организации. Основные этапы включают:

1. Выбор и формулирование проблемы. Учитель подводит учащихся к пониманию исследуемой задачи, формирует познавательный интерес.

2. Планирование деятельности. Определяются цели, способы решения, распределяются роли участников.

3. Реализация проекта. Дети выполняют расчёты, измерения, собирают данные, строят графики и модели.

4. Оформление результата. Итогом может быть схема, таблица, диаграмма, презентация, стенгазета, макет.

5. Презентация и анализ. Учащиеся представляют свою работу, обсуждают результаты, проводят рефлексию.

Примеры учебных проектов по математике.

1. «Математический магазин». Учащиеся разрабатывают варианты покупок, учатся вычислять стоимость товаров, сдачу, составлять таблицы.

2. «Геометрия вокруг нас». Дети изучают геометрические фигуры в окружающем мире, фотографируют объекты, составляют презентацию.

3. «Измеряем школьный двор». Учащиеся проводят измерения длины, составляют план территории.

4. «Статистика нашего класса». Собирают данные об учениках, строят диаграммы и графики.

Для успешной реализации проектной технологии учителю необходимо соблюдать определённые педагогические условия:

— соответствие проекта возрастным возможностям учащихся;
— включение проектных заданий в систему уроков;
— обеспечение поддержки со стороны учителя на каждом этапе;
— разнообразие форм работы: индивидуальная, парная, групповая;
— создание мотивационной среды и позитивного эмоционального фона.

Технология проектирования является эффективным средством повышения качества математического образования в начальной школе. Она способствует развитию познавательных способностей учащихся, формированию математической грамотности, повышению интереса к изучению математики. Систематическое использование проектов на уроках делает процесс обучения

деятельностным, практико-ориентированным и соответствующим современным требованиям образования.

Список литературы:

1. Полат Е.С. Новые педагогические технологии. — М.: Академия, 2020.
2. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.
3. НН, М., АА, N., NX, R., GB, U., & UA, M. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБЛАСТИ ИКТ. *Международный журнал специального образования детей раннего возраста*, *14*(7).
4. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
5. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
6. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.
7. Khasanovna, R. N. METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION.
8. Фрумин И.Д. Проектная деятельность в школе. — М.: Просвещение, 2021.
9. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
10. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

XORIJIY TAJRIBALARNING QIYOSIY TAHLILI

Eronova Ozoda Xolmo’min qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti, magistranti

Annotatsiya:
Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sohasida xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganilgan. Finlyandiya, Yaponiya, Koreya, AQSh va Germaniya tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, ularning ilg‘or tajribalarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar

O‘zbekcha: xorijiy tajriba, qiyosiy tahlil, ta’lim tizimi, innovatsiya, pedagogik texnologiya, raqamlashtirish, integratsiya

Kirish.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish global miqyosda ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. UNESCO, UNICEF va OECD tashkilotlari bolalik davrini ta’lim tizimining poydevori sifatida baholaydi. Bolalar erta yoshdan to‘g‘ri pedagogik yondashuvga ega bo‘lsa, ularning kelajakdagi akademik va ijtimoiy muvaffaqiyati oshadi. Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida erta yoshdagi ta’lim sifati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, ularning muvaffaqiyatli modellarini milliy sharoitga moslashtirish — O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va AQSh kabi davlatlarning maktabgacha ta’limdagi ilg‘or yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilishdir.

Finlyandiya

Finlyandiya modelida o‘yin orqali o‘qitish, erkin fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchilar bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga oladi va stresssiz muhit yaratadi.

Yaponiya

Yaponiyada maktabgacha ta’limda intizom, jamoaviylik va milliy qadriyatlarga sodiqlik ustuvor hisoblanadi. Bolalar kichik yoshdan jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Koreya

Koreyada texnologiyalashgan o‘qitish usullari keng qo‘llanadi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar va raqamli resurslar yordamida bolalarning bilim olish qobiliyati oshiriladi.

AQSh

AQShda individual yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlik asosiy tamoyil sifatida belgilanadi. Har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinadi.

Germaniya

Germaniyada integrativ ta’lim tizimi mavjud bo‘lib, u bolalarni ijtimoiy va akademik jihatdan birdek rivojlantirishga qaratilgan. Tizimli rejalashtirish va nazorat kuchaytirilgan.

Qiyosiy tahlil jadvali

Davlatlar	Asosiy yondashuv	O’zbekiston uchun foydali jihatlari
Finlandiya	Finland o’yin orqali o’qitish	Ijodkorlikni oshirish,stressni kamaytirish

Yaponiya	Intizom va jamoaviylik	Tarbiyaviy qadriyatlarni kuchaytirish
Koreya	Texnologik ta’lim	Raqamli savodxonlikni oshirish
AQSH	Individual yondashuv	Har bir bolaga mos metod tanlash
Germaniya	Integrativ ta’lim tizimi	Tizimli rejalashtirish va nazoratni kuchaytirish

Muammolar va imkoniyatlar:

Xorijiy tajribalarni O‘zbekistonga moslashtirishda quyidagi omillar muhim:

- pedagoglar malakasini oshirish;
- rivojlantiruvchi o‘yin makonlarini yaratish;
- dasturiy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish;
- oilaning ta’lim jarayonidagi rolini kuchaytirish;
- raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish.

O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. O‘qituvchi malakasi, ota-onalar ishtiroki va davlat qo‘llab-quvvatlashi tizimni rivojlantirishda muhim omillardir.

Xulosa

Xorijiy tajribalarni to‘liq ko‘chirish emas, balki ularni O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy sharoitiga moslashtirish — samarali natija beradi. Erta yoshdagi ta’limga sarmoya kiritish mamlakatning kelajak intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim omildir.Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi malakasi, ota-onalar ishtiroki va davlat qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. O‘zbekiston uchun eng yaxshi tajribalarni moslashtirish va amalga oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. UNESCO (2023). Early Childhood Care and Education Global Report.
2. OECD (2022). Starting Strong: Early Childhood Education and Care.
3. UNICEF (2021). The State of the World's Children.
4. World Bank (2020). Education Strategy 2030.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (2024). Yillik hisobot.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING ANTIKORRUPSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Israilov G‘olib Rashidovich
Qo‘qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda korrupsiyaga qarshi kompetentsiyani rivojlantirish muammosini o‘rganadi. Unda integrativ ta’lim texnologiyasidan o‘quvchilarda barqaror qadriyatlar, huquqiy madaniyat va ta’lim muhitida korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan professional mas’uliyatni singdirishning samarali vositasi sifatida foydalanish zarurligi asoslanadi. Maqolada o‘qitishning huquqiy, axloqiy, pedagogik va ijtimoiy-madaniy komponentlarini birlashtirgan integrativ texnologiyaning mohiyati o‘rganiladi va uning tarkibiy elementlari, amalga oshirish bosqichlari va o‘qitish usullari tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: korrupsiyaga qarshi kompetentsiya, integrativ ta’lim texnologiyasi, pedagogik ta’lim, professional tayyorgarlik, bo‘lajak o‘qituvchilar, huquqiy madaniyat.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib, tayanch kompetensiyalarni shakllantirib borish lozim. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim modeli jamiyatda erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib keladi. Bu esa hayotiy maqsadlarga ega va irodali, o‘z qadrini biladigan insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ta’lim va tarbiya muntazam ravishda zamon talablariga mos holda rivojlanib, yangilanib boraveradi. Shu o‘rinda uzluksiz ta’lim sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o‘zligini namoyon qila oladigan kompetentli kadrlarni tayyorlash vazifasi ustuvorlik kasb etadi.

Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda quyidagi ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham e’tibor qaratiladi:

- shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o‘zini-o‘zi jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashi;

- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish, ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala hamda huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini rivojlantirish;

- milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga hamda sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda “Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiyaiy ishlar metodikasi” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya texnologiyalari asosida o‘qitish ijobiy

natija beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonida antikorrupsion kompetentlik tarbiyasi tuzilmasi alohida o‘rin tutadi. Chunki, antikorrupsion tarbiya tuzilmasining barcha komponentlari bevosita shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning markazida talaba shaxsi turadi.

Talabalarda antikorrupsion fazilatlar rivojlantirilishi hamda yetuk mutaxassis bo‘lib ona Vatanga xizmat qilishi uchun ular oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi: o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish; o‘z-o‘zini nazorat qilish; o‘zgalarni hurmat qilish; doimo kamtarlik yo‘lini tutish; o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lishi; iboli-hayoli bo‘lish; halol va adolatparvar bo‘lish; samimiy va beg‘araz bo‘lish; o‘zgalar mehnatini qadrlay bilish; kasbiy va ma’naviy bilimlarni egallab borish; o‘z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘rish; kamolotga erishishga intilish; barcha axloq qoidalariga bo‘ysunish; malakali mutaxassis bo‘lishga astoydil intilish.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishida o‘tiladigan “Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiyaiy ishlar metodikasi” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarining mazmuni hamda olib boriladigan ta’lim texnologiyalari asosida talabalarda yuqoridagi antikorrupsion kompetensiyalar rivojlantirilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Har bir mavzu doirasida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabaning kasbiy tayyorgarligi hamda karrupsiyaga qarshi murosasizlik sifatlari takomillashtirib boriladi.

“Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiyaiy ishlar metodikasi” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini o‘qitishda talabalar quyidagilar bilan tanishtiriladi:

1) fanning maqsad va vazifalari;
2) milliy tarbiyaning mazmun-mohiyati;
3) tarbiya usullari va shakllari;
4) tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari;
5) halol va insofli bo‘lish milliy tarbiyaning asosi sifatida;
6) maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati;
7) korrupsiyaga qarshi murosasizlik tarbiyasining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari;
8) tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va h.k.

Mazkur mavzularni o‘zlashtirish mobaynida bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion sifatlar ham rivojlantirilib, ularni kelgusi pedagogik faoliyatda tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etishga tayyorlab boriladi. Yosh avlodni ma’naviy yetuk qilib tarbiyalash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy fan-texnika yutuqlarini keng qo‘llashga, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan hamda tarbiyaning samarali usul va vositalaridan foydalanishga, suhbat, uchrashuv va bahs-munozaralar uyushtirishga, tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar tashkil etishga o‘rgatish ijobiy samarasini beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash orqali yoshlarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlanishi kafolatlanadi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasining umumkasbiy fanlar blokidagi umumiy pedagogika

fanida ta’lim qoidalaridan eng asosiysi ta’limning tarbiyalovchilik qoidasidir. Chunki, kelajakda yosh avlodni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda ularda xulq-odob me’yorlariga mos keluvchi ijobiy fazilatlarni yuksaltirish muhim sanaladi. Bu o‘rinda, avvalo, talabalarni axloqiy tarbiyalash metodikasini hisobga olgan holda ish yuritish maqsadga muvofiq.

Jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan vijdoni pok, imoni butun, sofdil, vatanparvar, xalqsevar, mard, har tomonlama sog‘lom, intellektual salohiyatli, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy-kasbiy yetuk, kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlash davr talabidir. Bu ishni amalga oshirish barcha pedagoglarning Vatan oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislarni axloqiy tarbiyalash orqali yurtiga munosib, xalq farovonligi va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, yetuk va ijtimoiy faol kompetentli mutaxassisni tarbiyalashga erishish mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda pedagogikaning umumiy metod va vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya talabaga o‘quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati talabani qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o‘quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni talabaga taklif etish maqsadga muvofiq.

Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish shakllari quyidagicha tasniflanadi:

I. Suhbatlar. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ma’naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar tashkil etish talabalarning erkin, mustaqil fikrlashini yuksaltiradi, tafakkurini boyitadi, o‘qituvchi bilan hamkorligini mustahkamlaydi. Tarbiyaviy ishlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha suhbatlar tashkil etish mumkin.

Suhbatlar qiziqarli va jonli o‘tishi uchun uni tashkil qilishdan bir necha kun oldin mavzu talabalarga e’lon qilinadi. Tadqiqot doirasida suhbatlar oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan murabbiylik soatlari hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida guruh rahbarlari, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutasaddilar bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Suhbatlar davomida mavzuni yorituvchi multimedia vositalaridan foydalanildi. Mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalaridan kelib chiqib ularniquyidagicha tasniflash mumkin:

1. Vatanparvarlik tarbiyasi: “Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – dolzarb vazifa”, “Vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u”, “Mustaqillik nashidalari”, “Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari”, “Mustaqil O‘zbekiston jahon nigohida”, “O‘zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari”, “Fidokor yoshlar qanday bo‘lishi kerak?” va boshqalar.

2. Ma’naviy-axloqiy sifatlarni yuksaltirish tarbiyasi: “Talabaning xalollik fazilatlari”, “Talabaning axloqiy qiyofasiga qo‘yiladigan talablar”, “Korrupsiyaga murosasizlikni shakllantirish omillari”, “Talabaning tashqi ko‘rinishi va uning ichki

dunyosi”, “Kitoblar – bilim va ma’naviyat manbai”, “Talabalar o‘rtasida antikorrupsion bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish” va boshqalar.

3. Milliy merosimizni ulug‘lash tarbiyasi: “Ajdodlar merosida xalollik tarbiyasi”, “Mutafakkurlarning ta’magirlik haqidagi qarshalari” va boshqalar.

4. Oila tarbiyasi: “Oilada farzand tarbiyasi”, “Oilada ota-onaning o‘rni”, “Farzandning ota-ona oldidagi burchlari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” va boshqalar.

5. Aqliy tarbiya: “Yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati”, “Zamonaviy ilm-fan yutuqlari”, “XXI asr ilm-fani: muammolar va yechimlar”, “Innovatsion g‘oya – taraqqiyot kaliti” va boshqalar.

II. Uchrashuvlar. Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yoshi ulug‘ shaxslar, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari, tajribali pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish ham ijobiy samaralar beradi. Tadqiqot davomida “9 dekabr – xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Korrupsiyaga qarshi birlashaylik” mavzusida uchrashuvlar tashkil etildi.

III. Bahs-munozaralar uyushtirish. Talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasizlikni shakllantirishda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Korrupsiya mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to‘g‘ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o‘rgatish hamda e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi. Munozara o‘y-fikrlarni tartibga soladi, mustaqil fikrlashga, bahs yuritishga, suhbatdoshini tinglashga, o‘z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda hikoya qilishga, ayni chog‘da, o‘z xatolarini tan olishga o‘rgatadi. Talabalar o‘rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli”, “Korrupsiya va yoshlar”, “Yoshlarda “xalollik vaksinasi”, “Yoshlarning korrupsiyaga munosabati” mavzularida bahs-munozaralar olib borildi.

IV. Tarbiyaviy tadbirlar. Antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishda tarbiyaviy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Tadbirlarda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirokchi sifatida qatnashib, o‘zlariga to‘g‘ri xulosa chiqardilar. Bu orqali ularning korrupsiyaga munosabatini yuksaltirish hamda axloqiy sifatlarinirivojlantirish ko‘zda tutiladi.

V. Ijodiy ishlar tanlovi. Talabalar o‘rtasida “Korrupsiya - jinoyatdir” mavzusida ijodiy ishlar tanlovi o‘tkazildi. Mazkur tanlovda talabalar o‘zlarining ijod namunalari (rasm, devoriy gazeta, she’r, qo‘shiq, insho) bilan tasavvurlaridagi korrupsiya va uning xlati, unga qarshi kurash yo‘llari gavdalantirib berdilar. “Milliy tarbiya asoslari” va “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida foydalanilgan metodlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ma’ruza mashg‘ulotlarida: trening, muzokara, muammoli ta’lim, BBB, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Venn diagrammasi” va boshqalar.

2. Seminar mashg‘ulotlarida: “Assesment”, “FSMU”, “SWOT – tahlil”, “Qarorlar shajarasi”, “Gugurt donachalari”, “Nilufar guli”, “Keys-stadi”,“Qadam-baqadam”, “Panorama”, “Kontakt” – jamoaviy hikoya tuzish treninglari.

3. Auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda: trening metodi, rolli o‘yinlar, suhbat, munozara, muzokara, uchrashuv hamda tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish va boshqalar.

4. O‘quv amaliyotlari jarayonida: tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish va boshqalar. Suhbatlar, uchrashuvlar va bahs-munozaralar, tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish orqali talabalarda antikorrupsion kompetentlikni tarkib toptirilgani olib borilgan so‘rovnomalar asosida aniqlanib, qayd etib borildi. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan har bir metod asosida talabalarda fan yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilishi, antikorrupsion kompetensiyalar hamda axloqiy sifatlarning rivojlanganligiga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ta’lim mazmuni muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlarni nazarda tutadi. Eng muhimi, shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish, odob-axloqi, ijtimoiy hayotga va mehnatga bo‘lgan bo‘lgan munosabatini ongli ravishda tarkib toptirish jarayoni mohiyatini ham o‘zida mujassamlashtiradi. “Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlari mazmuni, mavzularni o‘rganishga doir yondashuvlar talabalarda shakllantiriladigan muayyan kompetensiyalar asosida antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib texnika-texnologiyalarning tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida ta’lim-tarbiya sohasida ham axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish taqozo etilmoqda. Tadqiqotda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida universal didaktik vosita sifatida kompyuter texnologiyasidan foydalanish ko‘zda tutilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida metod va vositalarni to‘g‘ri tanlab, samarali foydalanish 90%gacha maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishda vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ko‘rgazmali qurollar, tasviriy san’at asarlari, san’at turlari, badiiy adabiyot, ibrat-namuna, mehnat, pedagogik qarashlar, xalq og‘zaki ijodi, tabiat, ommaviy axborot vositalari, oilaviy an’analar, so‘z-nutq, multimediavositalalaridan unumli foydalanish ijobiy samara beradi.

Bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishda “Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarining tarbiyalovchilik xarakteri yuqori hisoblanadi. Chunki talaba ushbu fan orqali kelgusi pedagogik faoliyatida tarbiyaviy ishlarni tashkil eta olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Tadqiqot doirasida fanni o‘qitishda interfaol ta’limtexnologiyalaridan foydalanilgan.

“Milliy tarbiya asoslari”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” va “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini o‘qitishda talabalarda ijtimoiy ongni shaklantirishning quyidagi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

Muammoli tavsifdagi suhbat. Mazkur suhbat turi talabalar bilan tahliliy-izlanishli tarzda amalga oshiriladi. Savol-javobni tashkil etishda quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish zarur:

a) savollar talabalar tasavvurga ega bo‘lgan ma’lumotlarga asoslanishi;

b) savollar o‘qilganlarini mexanik qayta ishlab chiqish bilan cheklanuvchi javoblarni talab etmasligi;

c) savollar mazmunining o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq qator muammoli tavsifdagi suhbatlarni amalga oshirish mumkin.

1. Antikorrupsion kompetensiyani rivojlantirish jarayonida quyidagi muammoli savollardan foydalanish mumkin:

- nega insonlar ta’magirlikka ehtiyoj sezadilar?
- halol inson bo‘lish uchun kishida qanday sifatlar mavjud bo‘lishi lozim?
- sizga qanday holatda korrupion munosabatlarga chek qo‘yiladi, deb o‘ylaysiz?
- nima uchun ba’zi insonlar korrupsiyani yo‘q qilib bo‘lmaydi va unormal xolat, yomonlik emas deb hisoblaydilar?
- jamiyatda korrupsiyani yo‘q qilish uchun qonunlar qat’iy bo‘lishi shartmi?
- korrupsiyaga qarshi murosasizlik nima degani?

2. Antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirish jarayonida esa quyidagi muammoli savollarni hal etishga e’tibor qaratilishi lozim:

a) antikorrupsion kompetentlik nima va uning tarkibiy tuzilishi qanday?

b) krrupsiyaga qarshi ta’lim-tarbiyani tashkil qilishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

c) davlatning korrupsiyaga qarshi siyosati qanday namoyon bo‘lishi kerak.

d) vatanga sadoqatlilik insonlarda qanday namoyon bo‘ladi?

e) insonlarning xalol bo‘lishning hayotimizda tutgan o‘rni?

j) diniy qadriyatlarda ta’magirlik va halol bo‘lishga munosabatni tahlil qiling.

3. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish uchun suhbat jarayonida quyidagi muammoli savollar bilan talabaga murojaat qilish mumkin:

a) jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlik hissi nimalarda namoyon bo‘ladi?

b) jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarda faol ishtirok etish uchun qanday yo‘l tutish lozim?

c) talabaning qanday fuqarolik burch va huquqlari mavjud va siz unga qay darajada amal qilasiz?

d) mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala hamda huquqiy madaniyatga rioya etishni qanday izohlaysiz?

“Antikorrupsion kompetentlikning mazmuni va mohiyati” mavzusini o‘qitishda esa mashq va o‘rgatishning quyidagi metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Qadam-baqadam” treningi

Trening maqsadi: talabalarning axloqiy tarbiyalanganlik darajalarini aniqlash.

Treningdan kutiladigan natija: talabalar bir-biriga qarama-qarshi so‘zlarni aytish orqali tanishadilar, ularning hayotdagi o‘rnini aniqlaydilar, bu so‘zlarni o‘z faoliyatlarida qo‘llash darajasini belgilaydilar.

Mazkur metod asosida talabalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, shirinsuxanlik, rahmdillik, bolalarga muhabbat va ular haqida qayg‘urish, tartiblilik, talabchanlik, uddaburonlik, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlar hamda kamolotga intilishi, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash, jamiyatdagi voqea-hodisalarga daxldorlikni his qilish layoqatlari rivojlantiriladi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Pedagogika va psixologiyada bu yo‘nalishning o‘ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e’tibor berish orqali namoyon bo‘ladi. Shulardan kelib chiqqan holda **“Korrupsiyaga qarshi kurashdagi ustuvor vazifalar”** mavzusining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda qo‘yidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

Ta’limning shaxsga yunaltirilganligi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, bu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa malaka talablariga rioya qilgan holda talabaning huquqiy dunyoqarashini rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy hususiyatlarini xisobga olishni xam anglatadi.

Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam kilishi zarur: jarayonning mantiqiyligi, undagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi, yahlitligi.

Amaliy yondashuv. Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta’lim jarayonini yo‘naltirish; talaba faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo‘yadi.

Dialogik yondashuv. Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi sub’ektlarning psixologik birligi va uzaro xamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va takdimot kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratiya, tenglik, sub’ektlar munosabatida o‘qituvchi va talabaning tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko‘zda tutadi.

Muammoli yondashuv. Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida talaba bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob’ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo‘llash ta’minlanadi.

Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish, ya’ni o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish. Yukoridagi konseptual yondashuv va “Milliy tarbiya asoslari” fanining tarkibi, mazmuni, o‘quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o‘qitishning qo‘yidagi usul va vositalari tanlab olindi.

O‘qitish usullari va texnikasi: muloqot, keys stadi, muammoli usul, o‘rgatuvchi uyinlar, “aqliy xujum”, insert, “Birgalikda o‘rganamiz”, pinbord, ma’ruza (kirish ma’ruzasi, vizual ma’ruza, tematik, ma’ruza-konferensiya, anik, xolatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).

O‘qitishni tashkil kilish shakllari: frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o‘zaro hamkorlikka asoslangan.

O‘qitish vositalari: odatdagi o‘qitish vositalari (darslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

O‘zaro aloqa vositalari: nazorat natijalarining tahlili asosida o‘qitishning diagnostikasi (tashxisi).

Boshkarishning usuli va vositalari. O‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab, kuyilgan mak,sadga erishishda talaba va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

Monitoring va baholash. O‘quv mashg‘uloti va butun kurs davomida o‘qitish natijalarini kuzatib borish, talaba faoliyatini har bir mashg‘ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

Bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirish yuzasidan tadqiqot doirasida samapali natija beruvchi **“binar dars”**lar ham tashkil etildi.

Binar darslar talabalar uchun turli qo‘shimcha bilimlarni egallash, fanlar doirasida egallagan bilimlarini amaliy jarayon bilan taqqoslash, solishtirish orqali aqliy faoliyatni rivojlantiradi. Bunday darslar ularning tasavvur va fikrlarni uyg‘otadi, ruhiy kechinmalarini faollashtiradi, o‘quv fani mazmuni talaba faoliyatiga ta’sir qilib, ilmiy bilish va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishini yuqori darajalarga ko‘taradi. Binar darslar talabalarning o‘rganilayotgan mavzu doirasida atroflicha fikr yuritishga, nazariy bilimlarini amaliy harakatlar natijasida mustahkamlashga, ijodiy g‘oyalar ustida ishlashga ko‘mak beradi.

Xulosa qilganda, bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishda integrativ ta’lim texnologiyalarini to‘g‘ri va aniq reja asosida amalga oshirish ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

TA'LIM MENEJMENTIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR VA ULARNING EFFEKTIVLIGI

Toshpulatova Gulchiroy Rustamovna
Qo‘qon temir yo‘l texnikumi

Annotatsiya

Ushbu tezis "Ta'lim menejmentida innovatsion strategiyalar va ularning effektivligi" mavzusini o‘rganadi. O‘rganisgkar davomida innovatsion strategiyalar va raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, ularning o'quvchilarning motivatsiyasiga va ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar ta'limni takomillashtirishga va o'quvchilarning talablarga mos kelishini oshirishga yordam beradi. Xorijiy tajribalar bilan taqqoslashlar, bunday yondoshuvlarni amalga oshirishda mavjud qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullarini aniqlashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti, innovatsion strategiyalar, raqamli texnologiyalar, o'quvchilar motivatsiyasi, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoni, ta'lim dasturlari, xorijiy tajriba, pedagogik metodlar, gamifikatsiya, mustaqil ta'lim, o'quv muhitlari

Ta'lim menejmenti sohasida innovatsion strategiyalar, bozor munosabatlarining tezkor o'zgarishlariga moslashish va ta'lim jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Zamonaviy dunyoda, bilim va ma'lumotlarga bo'lgan talab ortib bormoqda, bu esa ta'lim tizimlarini yangilashni va innovatsion usullarni joriy etishni talab qiladi. Innovatsion yondashuvlar, o'quv muassasalarini raqobatbardosh qilish va talabalarning tayyorgarligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Innovatsion strategiyalar, masalan, texnologik qo'llanmalar, o'quv metodologiyalarini o'zgartirish va yangi o'quv muhitlarini yaratishga asoslangan. Bunday strategiyalar, o'quvchilarning yuqori motivatsiyasini va faol ishtirokini ta'minlashda, shuningdek, ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishda yordam beradi. Bularning barchasi, raqamli asrda ta'lim sifatini oshirishga va global talablarga mos kelishga olib keladi.

Shu bilan birga, innovatsion strategiyalarning implementatsiyasi ham ba'zi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ta'lim menejmentining samaradorligi, rahbariyatning innovatsiyalarga bo'lgan yondashuvi, pedagogik kadrlarning tayyorgarligi va infratuzilmaning rivojlanganligini talab etadi. Bularni hisobga olgan

holda, ushbu tezisda innovatsion strategiyalarning ta'lim menejmentidagi o'rni, ularning samaradorligi va ta'sirini tahlil qilish maqsad qilingan.

Ushbu tezis, shuningdek, xorijiy tajribalar hamda zamonaviy tendensiyalarni o'rganish orqali, ta'lim tizimlarini yangilash uchun praktika tavsiyalarini berishga intiladi.

Birinchi bosqichda adabiyotlarni tahlil qilish amalga oshiriladi. Ta'lim menejmentida innovatsion strategiyalar va ularning samaradorligini o‘rganish uchun mavjud adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tezis talablar, global tendensiyalar va innovatsion yondashuvlar bo‘yicha ma'lumotlarni taqdim etadi, shuningdek, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali turli mamlakatlardagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklarni tahlil qilish imkonini beradi.

Keyin, o‘rganish kvantitativ va kvalitatif usullarni birlashtiradi. Kvantitativ usullar yordamida so‘rovnomalar va statistik tahlil orqali o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta'lim menejmentidagi mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish rejalashtirilgan. Bu usul innovatsion strategiyalarning samaradorligini o‘lchashga yordam beradi. Kvalitatif usullar esa intervyu va fokus-guruh tadqiqotlari orqali o‘quvchilarning va o‘qituvchilarning shaxsiy tajriba va fikrlarini yig‘ishga yo'naltiriladi. Bu yondashuv innovatsion strategiyalarning ta'lim jarayonidagi amaliyotini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Innovatsion strategiyalarni joriy etgan ta'lim muassasalarini kuzatish va ularning samaradorligini tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. Bu bosqichda raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarning ta'lim jarayoniga ta'siri o‘rganiladi. Yuqori samarali muassasalarni o‘rganish innovatsion strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan ta'lim muassasalari misolida ularning tajribalarini tahlil qilish imkonini beradi.

Innovatsion strategiyalar va raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim menejmentining samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion strategiyalar, masalan, gamifikatsiya va individualizatsiya yondoshuvlarini joriy etish, o'quvchilar orasida motivatsiyani sezilarli darajada oshirdi. O'quvchilar yangi metodlar yordamida o'qishga qiziqish bildira boshladilar.

Raqamli texnologiyalar ham ta'lim jarayonida muhim rol o'ynadi. Raqamli platformalar va online resurslardan foydalanish, malakalarning rivojlanishiga yuqori darajada yordam berdi. O'quvchilar internetdan ta'lim olish imkoniyatlaridan faol foydalanib, mustaqil bilimlarni o'zlashtira oldilar.

Xorijiy tajribalar, innovatsion strategiyalarning samaradorligini yanada tasdiqladi. Misol uchun, Skandinaviya mamlakatlarida amalga oshirilgan tezislar raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash orqali ta'lim sifatini oshirishga yondoshilganini ko'rsatdi.

Intervyu va fokus-guruh tadqiqotlari orqali olingan ma'lumotlar esa o‘quvchilarning innovatsion usullarga bo‘lgan munosabatining ijobiy ekanini

ko‘rsatdi. Ular bunday yondashuvlarni qadrladilar va o‘z o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari innovatsion strategiyalar va raqamli texnologiyalarni ta'lim menejmentida joriy etishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bunday yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni ko'proq jalb etish va raqobatbardosh qilib tayyorlash imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimining rivojlanishi uchun mavjud qiyinchiliklar, rahbarlarning innovatsiyalarga bo'lgan yondashuvi, pedagogik kadrlarning tayyorgarligi va texnik infratuzilmaning rivoji kabi omillar ham e'tiborga olinishi zarur.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion strategiyalarni joriy etish ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim jarayonida ishtirok etishlarini rag'batlantirdi. Xorijiy tajribalar esa innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini tasdiqladi, jumladan, global talablarga mos keladigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, o‘rganish davomida aniqlangan muammolar — rahbarlarning innovatsion yondashuvlarga bo'lgan cheklangan qiziqishi, pedagogik kadrlarning tayyorgarligi va infrastrukturaning rivojlanishi — ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda to'siqlar sifatida qaror topdi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim menejmentida innovatsion strategiyalarni amalga oshirish, izchil va tizimli yondashuvga ehtiyoj bor.

Yakunida, innovatsion strategiyalar va raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish masalasi ta'lim tizimining rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun ahamiyatlidir. Bunday yondoshuvlar nafaqat o'quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi, balki ta'lim tizimining umumiy sifatini ham yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. A.A. Sodiqov. Ta’lim menejmenti: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2020.
2. M.V. Ardashkin, E.A. Borisova. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Moskva, 2018.
3. Махкамова Д.А. Ўқувчиларни касбга йўналтиришнинг мақсади, вазифалари ва амалий механизмлари // Касб-ҳунар таълими., 2023. - №8. - Б.37-42. (SJIF) 0109
4. Махкамова Д.А. Individual maslahat” didaktik resurslarining o’quvchilarni kasbga yo’naltirish tizimiga tadbiq etish // Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio’., 2023. - №4. - Б.76-81. (SJIF) 01-044

5. Махкамова Д.А. Methodical provision of vocational guidance of students in secondary schools // Galaxy . №8. 2022. 434-440 b. (13.00.00. № 30) Impact Factor (SJIF 2022:7.718)

6. Махкамова Д.А. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning metodik ta’minoti // Maktab ta’limi muammolar, izlanishlar, yechimlar №1. 2024.,- Б.146-153. (ISSN) 3060-4788

7. Maxkamova D.A., Muxammadaliyeva Muborakxon Asqarali qizi “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini integratsion ta’limga jalb qilishning ahamiyati.” - Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – 2024 yil 20-noyabr

8. D.Maxkamova., Pedagogik oliy ta’limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi. Maktabgacha va maktab ta’limi. 2025. 267-271

9. D.Maxkamova., Pedagogik oliy ta’limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish. Kasb-hunar ta’limi. 2025. 138-143

TOHIR MALIKNING “ALVIDO BOLALALIK” ASARIDA TERMINLARNING ISHLATILISHI

A’zamova Shahzoda
Qo`qon davlat universiteti Boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning “Alvido bolalalik” asaridagi terminlarning o’rganilishi, badiiy asarda ularning o’zaro ma’noviy munosabatlari to`g`risida mulohaza yuritilgan va fikrlar aytilgan. Asar tabiatidan kelib chiqib, hozirgi kun yosh avlodning tarbiyasi haqida ibratli mulohazalar keltirilgan.

Kalit so`zlar: termin, akademiya, akademik, professor, jo’ra, koptok, sartarosh, jasad, murid, qalb, texnika terminologiyasi.

Atoqli adib, o'zining "Shaytanat" asari bilan deyarli barcha o'zbek xonadoniga kirib borgan, xalqimiz ma'naviy kamolotiga o'z hissasini qo'shgan yozuvchi Tohir Malikdir. Uning detektiv va didaktiv usulda yozilgan asarlari, shubxasiz, o'zbek yoshlari orasida eng ko'p o'qiladigan kitoblardir. Shu o'rinda "Alvido, bolalik" asarini ham mashhur yozuvchining detektiv asarlar turkumiga qo'shish mumkin.

Adib asarda har doim muhim hisoblangan "tarbiya" masalasiga e'tibor qaratgan. Asar qahramonlari ayni psixologik o'tish davrida bo'lgan o'smirlardir. Manashu muhim paytda tarbiyasiga e'tibor qaratilmagan yoshlar jinoyotning qaytib bo'lmas olamiga kirib ketishadi. Mana shu yo'lga kirib ketgan bolalarning tilidan aytilgan gaplarni o'qib, bu bolalarga vaqtida nega e'tibor qaratilmadi, ular ham ota-ona mehriga haqli ediku, birinchi bor ichib kelganida otasi nega qattiqroq tegib, uning birga daydib yurgan "jo'ralari"ga diqqatni qaratmadi degan savollarni berishingiz tabiiy.

Asarni asosan, maktab yoshidagi kitobxonlarga tavsiya qilgan bo'lardim. O'zi tengqur yoshlarning nimani o'ylashi, qilayotgan harakatlari ularga yaxshiroq tanish, ularning taqdirlariga befarq bo'la olmaydi. Ular qilayotgan xatolarni ko'rib, bu ishlarni oxiri rostdan ham "voy" bo'lishini his qilib, o'zlari uchun kerakli xulosalar chiqarishlariga zarur. Asror, Salim va Dilfuza singari murg'ak qalblar Qamariddin qiyofasidagi yomonlik mevasidan ta'tib ko'rib, yaxshi ketayotgan hayotlarini xaosga aylantirdilar. So'nggi pushaymon, o'zingga dushman deganlaridek, ularni boshi devorga qattiq urilgani, yosh kitobxon uchun unutilmas dars bo'lishi tabiiy.

Adib asarda terminlardan mahorat bilan foydalangan. Masalan:

1. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Men u yoqda…

Qamariddin barmoqlarini panjara qilib ko’rsatdi – akademik bo’lib kelganman.

Akademik – ot. Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi biror akademiyaning oralig’iga saylngan olim, adib, rassom, haykaltarosh va shu kabilar.

2. “Akademiyada” orttirganlari unga kul emas, xoja edi.

Akademiya – yunoncha, u qahramon hamda Akadem nomi bilan hamda Platon o’z ta’limotidan dars bergan ilm-fan va san’atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori darajali olimlarga ega bo’lgan oliy ilmiy muassasa.

Asarda “Akademiya” so’zi qamoqxonaga nisbatan qo’llangani asarni yanada sirlilikka, kitobxonni biroz o’yga toldiradi. Qamoqxonada insonlar qilgan qilmishlarini yaxshilab anglab, bu yerga qaytib kelmaslikka harakat qilishadi. Qamariddin esa u yerdan qutilgach, qiladagan yovuz ishlarini rejalashtiradi. U yerda o’ziga o’xshaganlar orasida kattasi, ya’ni ular ustidan o’zicha boshliq bo’ladi. U yerda shunday narsalarni miyasida amalga oshiradiki, go’yo akademiyaning eng kuchli mutaxassislari bu akademikni o’zlarining eng yaxshi usullari bilan qurollantirganday. Adibning akademiya terminidan foydalangani tahsinga loyiq.

3. Sen oilangda “Professor” bo’lishing mumkin lekin men u yerda…

Professor – lotincha muallim, o’qituvchi, murabiy, oliy o’quv yurtlaridagi eng malakali o’qituvchilarning va ilmiy tadqiqot institutidagi ilmiy hodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi, shunday unvon va lovozimli shaxs.

Agar men bo’lmasam, qizingni koptok qilib tashlashardi.

Koptok – o’ynash uchun mo’ljallangan yumaloq shakldagi qattiq jism. Basketbool, futbool kabi o’yinlar uchun mo’ljallangan. Asarda koptok qilib tashlashardi dehan gap Dilfuzaga tegishli. Dilfuzaning otasi nogiron, onasi vafot etgan, maktabda ham baholari unchalik yaxshi emas. Dilfuza Asror bilan yaqin do’st. Ularning munosabatlarini noto’g’ri tushunganlar aybni Dilfuzaga ag’darishadi. Bunga sabab esa oilaviy muhitida deb aytishadi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, yozuvchi tomonidan asarga kiritilgan har bir termin badiiy maqsad hosilasi sifatida generator vazifasini bajargan. Bu esa o’z navbatida asarning badiiyatini ochib berishga zamin yaratgan.

Ayniqsa, jamiyatda ildiz olib ketgan poraxo'rlik, boqibeg'amlik kabi illatlar insonlar taqdirini qanchalik yomon tarafga o'zgartirishini Keldiyorovlar oilasini qismatida ko'rishimiz mumkin. Mayor Soliyev esa halol, to'g'risiz, o'z ishini yaxshi biladigan, haqiqatdan yuz o'g'irmaydigan, ahdida sodiq qoluvchi inson sifatida kitobxon mehrini qozonadi. Shuningdek, inson umriga zomin bo'luvchi ichkilik, giyohvandlikka o'xshash illatlar insonni naqadar tuban mahluqotga aylantirib qo'yishini ham asar voqealarida jarayonida kuzatamiz.

"Alvido, bolalik" asari xalqona, tushunarli tilda yozilgan. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar sizga, menga juda tanish, sababi biz bu so'z va ibolarlarni deyarli har kuni foydalanamiz. Yozuvchi ortiqcha bo'yoq va metaforadan qochgan, natijada asar juda yengil o'qiladi. Qahramonlar tilidan o'zbek va jahon xalqlarining folkloridan o'rin olgan hikmatli so'zlardan ham o'rinli hamda unumli foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Tohir Malik “Alvido bolalik” – Yangi asr avlodi: O`zbekiston, 2019. – 293 b.
2. Mirhojiddinovna, J. D., Bakhodirovna, S. D., Otakozievna, A. S. (2022). Peculiarities Of Studying The Linguopoetic Features Of Historical Terms In A Text Environment. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1595-1598.
3. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
4. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALAR YECHISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH.

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi,
Qo‘qon davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi,
Ismoilova Shahloxon Sherali qizi,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi,
Akramova Shohidaxon A’zamjon qizi,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi

Аннотация: Главное-обогатить пространственное воображание читателей идеей создание новых идей и идей.Основной целью статьи является роль и значение проблем в развитии математического мышления учащихся. В процессе

решения проблемы у студентов есть большой потенциал для развития своих способностей, развития таких качеств, как усердие, воля и характер.

Ключевые слова: Неизвестный номер, скорость, время, расстояние, текущая мощность, прочность, потенциал, математического мышления, Дело, арифметика, состояние дела, дело материи, оператор проблемы, уравнение, логическому мышлению.

Abstract: The main point is the enrichment of the spatial imagination of the readers with the idea of creating new ideas and ideas. The main purpose of the article isthe most important task of preparing students for logical thinking, research, creation, self-education, self-development. The role and importance of issues in the development of mathematical thinking of pupils. In the process of solving the problem, there is a great potential for students to develop their abilities, to build such qualities as diligence, will and character.

Keywords: Triangle, corner, right angle, acute angle, frequency, time, distance, current power, power, research, creation, self-education, operator of the problem, the condition of the matter, the matter of the matter, equation, unknown number, frequency, time, distance, current power, power, research, creation, self-education, self-development, mathematical thinking, process, solving the problem, potential.


Ta’lim sifatini ko’tarishni ta’minlovchi eng muhim talablardan biri, o’quvchilarda qiziqish va faollikni uyg’otishdir. Bunga yangi materialni to’g’ri va ustalik bilan bayon etish orqali erishish mumkin. Berilayotgan o’quv materialini bayon etish natijasida mavzuning maqsadi, uning asosiy mazmuni va o’qituvchi tomonidan qo’yiladigan savollarning qanday yo’llar bilan yechilishi mumkinligi o’rganuvchilarga tushunarli bo’lishi kerak. Yangi mavzuni bayon etish barcha o’quvchilarning faol ishtirokida olib borilgandagina, ularda o’rganilayotgan mavzuga bo’lgan qiziqish ortadi.

O’qituvchi navbatdagi darsni o’ylab turib, shu darsning maqsadini aniq ko’z oldiga keltirishi kerakki, uning bu darsi o’quvchilarda yangi tushuncha va g’oyalar yaratsin hamda ularni qandaydir yangi bilimga ega qilsin. Darslarni rejalashtirganda uning so’rash, yangi mavzuni bayon etish, o’tilgan mavzuni mustahkamlash, takrorlash kabi elementlarining har biriga alohida yetarli e’tibor berish lozim. O’quvchilarning fazoviy tasavvurlarini kengaytirish va tafakkurlarini boyitish uchun yordam beradigan masalalardan namunalar keltiramiz.

1-masala

Uchburchak medianalari kesishish nuqtasida 2:1 nisbatda bo’linishini isbotlang.

ISBOT:



Mediana xossasiga ko’ra CK=KB, AN=NB.

$\frac{CO}{ON} = 2$ ni isbotlash kifoya biz uchun.

AB ga parallel qilib CM kesmani o’tkazamiz, bu yerda qo’shimcha figura CKM uchburchak hosil bo’ladi. ΔAKB ΔCKM bo’ladi.

<KAB=<KMC; <ABK=<MCK ga (ichki almashinuvchi burchaklar xossasiga ko’ra)

<AKB=<CKM vertikal burchaklar. ΔAKB ~ ΔCKM dan CK:KB=CM:AB=1, bundan

CM=AB ligi kelib chiqadi.

ΔAON~ΔCOM ham bo’ladi. CO:ON=CM:AN=2 bo’ladi, chunki 2AN=AB=CM ligi

kelib chiqadi. CO=2ON natijaga erishamiz.

Isbotlandi.

2-masala


2-rasmga ko’ra AB ni toping. Bu yerda BC=4, AD=11 bo’lsa va AH balandlik va <BAD uchun bissektrisa vazifasini bajaradi.

Yechish: yordamchi chiziq qilib CD ga parallel qilib BF ni o’tkazamiz. CD∥BF ligidan AH kesmaga BF kesma perpendikular bo’ladi.

Ikkinchi tarafdan BCDF parallelogram. BC=FD=4; $AD - FD = AF = 7$; ΔBAF teng yonli, chunki

2-rasm

asos BF ga tushirilgan AG balandlik bissektrisa vazifasini




bajaradi. Demak, AF=AB=7 ga teng ekanligi kelib chiqadi.

Yechim: AB=7

3 – masala

Shaklga ko’ra S(AED) ni toping. AB=4; EC=6; AE∥DC; ABBC;

Yechish: yordamchi figura ΔAEC; AECD-trapetsiyaligidan S(ECK)=S(ADK) ;



(yon tomonga yopishgan uchburchaklar yuzalari teng)

S(AEC)=S(AED), chunki, S(AEC)=S(AEK)+S(ECK); S(AED)=S(AEK)+S(AKD);


S(AEC)=S(AED)=

Yechim: S(AED)=12.

4 – masala

Trapetsiyaning parallel tomonlaridan kattasi a, kichigi b, parallel bo’lmagan tomonlari c va d ga teng.

Trapetsiya yuzini toping.



Yechish: Biz uchun yordamchi shakl uchburchak xisoblanadi.

$S_\Delta = \sqrt{p(p-c)(p-b)(p-a+b)}$ ni hisoblaymiz; p=;

S_Δ== balandlikni topib olamiz.

$h = \frac{1}{2(a-b)}\sqrt{(c+d+a-b)(c+d+b-a)(a-b-c+d)(c+a-b-d)}$

bu balandlik trapetsiya uchun ham balandlik bo’ladi.


$$S_T = \frac{a+b}{2}h$$

$$= \frac{a+b}{4(a-b)}\sqrt{(c+d+a-b)(c+d+b-a)(a-b-c+d)(c+a-b-d)}$$


5 – masala.

Radusi R ga teng bo’lgan aylanaga o’zaro perpendikular AB va CD vatarlar o’tkazilgan. $AD^2+CB^2 = 4R^2$

ekanligini isbotlang.



Isbot: <CBA=<ADC=<AKC chunki bitta yoyga tiralgan.



to’gri burchakli uchburchak xossasiga ko’ra <CBA=<KCD. Bundan kelib chiqadiki, biz yordamchi figura sifatida olgan CK kesma AD kesmaga teng ekanligi kelib chiqadi.

ΔBCK uchun $CB^2 + CK^2 = KB^2 = 4R^2$ kelib chiqadi. Demak, CK=AD ekanligidan $CB^2 + AD^2 = 4R^2$ kelib chiqadi.

Isbot shu tariqa tugallanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Turk litsey adabiyoti (Mustafo Kirikchi, Murat Guverjin, Murat Efe)
2. Matematikadan masalalar to’plami (M.I. SKANAVI) adabiyoti.
3. www.ziyonet.uz
4. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.
5. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

6. Khasanovna, R. N. METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION.

TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi,
Qo‘qon davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi,
Shukurova Shalola Axrorjon qizi,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi,
Rasulova Mubinaxon Xasanboy qizi,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi

Аннотация. В статье представлены эффективные способы использования интерактивных методов в образовательных процессах, достижения качества и эффективности и обеспечения полного внедрения модернизированных образовательных стандартов.

Ключевые слова: Мы использовали учебный процесс, преподавание, интерактивные методы, независимость, свободное мышление, современное обучение, исследования, дизайн, обнадеживающие требования учителя, гуманистические и демократические идеи, методы, творческую деятельность и педагогические технологии.

Abstract: The article provides effective ways to use interactive methods in educational processes, and achieving quality and efficiency and ensuring the full implementation of modernized education standards.

Keywords: We used the teaching process, teaching, interactive methods, independent, free thinking, modern teaching, research, design, teacher-hopeful demands, humanistic and democratic ideas, methods, creative activity, and pedagogical technology.

O‘zbekistonda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy Dasturi”ni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bilan ta’limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya qilingan ta’lim standartlarini to‘liq bajarilishini ta’minlash dolzarb muammolardan biridir. 2017-2021 yillarga mo’ljallangan “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorida pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masala sifatida belgilab o’tilgan.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasidagi katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy ta’limni tashkil etish, ayniqsa interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo‘yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullardan o‘quv jarayonida foydalanish ta’lim tizimida keng tarqalib bormoqda. Bu o‘quv jarayonini liberilizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik, ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘quv jarayonining markazida o‘quvchi bo‘lmog‘i lozim va o‘quv jarayoni unga qaratilgan, yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etilmoqda. Shaxsga qaratilgan ta’lim o‘quvchining o‘quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonlarida interfaol usullardan foydalanishning turli vositalarining ta’siri o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmaydi, balki, ulardan to‘g‘ri, o‘z vaqtida, unumli ravishda foydalanishga bog‘liqdir. Shunday ekan, ta’lim jarayonlarida interfaol usullarning ham samarali bo‘lishi quyidagilarga bog‘liq:

- mazkur usulni qo‘llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rishi, rejalashtirilishi lozim;
- ushbu usulning qo‘llanilishi uchun tegishli vaziyat yaratilishi zarur;
- interfaol ta’lim jarayonini umumpedagogik talablar asosida, hissiyot va ehtiroslarga berilmagan holda do‘stona, samimiyatli ravishda tashkil etish;
- individual yondashuv jarayoni o‘quvchining erkin fikr yuritishi, o‘zining ichki kechinmalarini bayon qilishga tegishli sharoit yaratilishi;
- interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Shunga ko‘ra, interfaol metodlarni: “Aqliy hujum”, “Ven diogrammasi”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Debat”, “Munozara” kabi shakllari keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Pedagogik jarayonni loyihalash texnologiyasining umumiy mohiyatiga ko‘ra:

Loyihalash – pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlovchi muhim shartlardan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
2. Natijalarni oldindan ko‘ra bilish;
3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda o‘qituvchining mustaqil, shu bilan birga o‘quvchi bilan hamkorlikda o‘quv jarayonini mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyat yetakchi o‘rin tutadi.

Demak, pedagogik jarayonni loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Loyihalar predmet va uning yo‘nalishiga ko‘ra bir biridan farq qiladi. Loyihalarda pedagoglar tomonidan ketma-ket amalga oshiruvchi va tashhisning qo‘yilishi bilan yakunlovchi tahliliy faoliyat, oldindan ko‘ra bilish va loyihalash har qanday holatda ijodiy faoliyatlarni namoyish qiladi.

Pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogning faoliyati, pedagogik vositalarni qo‘llash mazmuni va imkoniyatinigna hisobga olinmasligi kerak. U asosan alohida o‘quvchilar- o‘quvchi guruhi tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mazmunini yoritishi zarur.

Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish asosida ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim jarayoniga texnologiya yondashish mumkin. Interfaol metodlarni ta’lim jarayonlarida qo‘llash, avvalo o‘quvchilarni shu jarayonga tayyorlash va malakasini oshirishdan boshlanadi. Uning uchun o‘quvchilarni tayyorlash, interfaol seminar, trening, maxsus maqsadli kurslarda, doimiy harakatdagi ta’lim jarayonlarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yurtimiz kelajagi, xalqimiz, mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirish, ta’lim tizimini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog‘liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan barkamol tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo‘lishi uchun avvalo ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni hozirgi davr talablari darajasiga ko‘tarish zarur va muhimligini hayot taqozo etyapti.

Zamonaviy sharoitda O’zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o’qitish amaliyotida qo’llanilayotgan ilg’or pedagogik texnologiyalar va ta’lim innovasiyalaridan foydalanilmoqda. Quyida ularning ayrimlari xususida to’xtalib o’tamiz.

Interfaol metodlar mavjud sharoitda ta’lim jarayonida qo’llanilayotgan o’ziga xos innovasiyalar sanaladi. “Interfaol” (“interakt”; “inter” – “o’zaro”, “akt” – “harakat qilish”) tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda o’zaro harakat qilish asosida o’quv materiallari, bilimlarni o’zlashtirish ma’nosini anglatadi. Interfaol o’zaro harakat qilish yoki nima bilan (m: kompyuter bilan) yoki kim bilan (sub’ekt bilan) suhbat, dialog (muloqat)da bo’lishni bildiradi. YA’ni, interfaol o’qitish – hammadan avval dialogli o’qitish bo’lib, uni tashkil etishda pedagog-o’quvchi, o’quvchi-kompьyuterning o’zaro hamkorligi ko’zga tashlanadi.

SHu o’rinda qay etib o’tish kerak, interfaol o’qitish – idrok etish faoliyatini tashkil qilishning maxsus shakli sanaladi. U butunlay aniq va bashorat qilinadigan maqsadlarni nazarda tutadi. Bunday maqsadlarning biri – o’qitishning qulay sharoitlarini yaratish bo’lib, unda o’quvchi o’z muvaffaqiyatini, fikrlashdagi erkinligini his qiladi, interfaol o’qitishning mohiyatiga ko’ra o’quv jarayoni shunday

tashkil qilinadi: amalda barcha o’quvchilar idrok etish jarayoniga jalb qilinadi, ular tushungan, anglagan va o’ylaganlariga muvofiq refleks hosil qilish imkoniyatlariga ega. O’quv materialini idrok etish, o’zlashtirish jarayonidagi o’quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati shuni bildiradiki, ularning har biri bu jarayonga o’zining shaxsiy ulushini qo’shadi.

O’qitishning interfaol metodlari o’quvchilarning g’oyatda katta ta’limiy salohiyatini faollashtirish va foydalanishga, o’quv jarayoniga ijodiy elementlarini kiritish va ijodiy faoliyat yurituvchi tizimlarga xos xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Ushbu interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarni mustaqil, erkin fikrlashlariga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo’llash o’quv materiallarining o’quvchilar tomonidan puxta o’zlashtirilishini ta’minlaydi. Bugungi kunda ta’lim amaliyotida 600 ga yaqin interfaol metodlar qo’llanilmoqda.

Interfaol ta’lim metodlarini barcha ta’lim muassasalariga tadbiq etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish va ta’limni individuallashtirish, shaxsga yo‘naltirish, ta’limga texnologik yondashuvni shakllantirish hamda faol usullarni ta’lim jarayonlarida qo‘llash orqali o‘quvchilarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish, tahlil qilish, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar chiqarish, erkin fikr yuritishga o‘rgatish – pedagogning dasturil amal vazifasi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – T.: “O`zbekiston”. – 2017.– 102b.

2. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.

3. Ro’zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi / Met.qo’ll. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.

4. Sayidahmedov N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

5. http://www.ziyonet.uz.

O‘QUVCHILARDA FUQAROLIK TARBIYASI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Dilorom Numonovna – Qo‘qonDU
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Tojimamatova Mushtariy-talaba

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurish ekanligi, bu jamiyatni bunyod etish

jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablash kerakligi lozimligi, Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlariga bog’liqlik jihatlari ochib beriladi.

Mustaqillik, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. SHu bois yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘li tanlab olindi.

Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo‘shilib, uyg’unlashib ketadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g’oyalar, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me’yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob’ekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish.

2. O‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g’risida ma’lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish.

3. O‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha’ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg’usini uyg’otish, ulardan g’ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg’unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e’zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e’tiborini jalb etish.

O‘quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko‘rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish

xususida ma’lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilishi, har kim o‘z sha’ni va obro‘siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish va turar-joy dahlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikki joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o‘z vakillri orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig’ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O‘quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma’lumot berish, bu xususida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish ko‘zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo‘ladi. Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko‘zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig’imlarni to‘lash; O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga to‘la mos keladi. Shu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko‘lamli (kompleks) tarzda tashkil etish – bugungi kun da’vati va talabi bo‘lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta’lim muassasalari - jamoatchilik - davlat - jamiyat o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs. O‘z fuqarolariga ega bo‘lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo‘lmay, muayyan mexanizmga ega sub’ekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o‘rni qonun yo‘li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda

Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko‘rsatilib o‘tilgan burchlarni bajaradi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki: Fuqarolik huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Demak, «fuqarolik o‘z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog’langan, huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma’naviy yetuklikni nazarda tutadi»

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, Dilorom Nomonova. "QADRIYATLAR ASOSIDA O'QUVCHILARINI IJTIMOYILLASHTIRISHDA «ODOB AS-SOLIHIN» ASARINING O‘RNI." Academic research in educational sciences 3.NUU Conference 2 (2022): 205-208.

2. Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

3. Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.

4. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

5. Ziroat, Azizova. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.5 (2022): 404-410.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Abdullayeva Diloram Numonovna
Qo‘qon davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
Nosirova Sitora -BT yo’nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. O‘qituvchilarni ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlarga va innovatsion faoliyatga tayyorlash haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, axborot-kommunikatsiya, innovatsiya, interaktiv metod, axborot texnologiyalar, mustaqil izlanish.

Hozirda ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanishi pedagoglarning o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ularning joriy etilishi pedagogni o‘quv jarayonida ta’lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o‘zgarishi, pedagogik faoliyat mukammalashuviga olib keladi. Innovatsiya (inglizcha **innovatio** so‘zidan olingan) – yangilik yaratish, yangilik demakdir. Demak, an’anaviy ta’limdagi kabi bir xil andazalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, ta’lim muassasasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilar sanab o‘tiladi:

1. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish.
2. Ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish.
3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta’minlashning asosiy shartlari, alohida boshqaruv jihatlari, ya’ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan, yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish.

O‘qituvchilarni ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlarga va innovatsion faoliyatga tayyorlash o‘ziga xos pedagogik muammo bo‘lib, uning asosida o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi, o‘zgarishlar va yangiliklarning mazmun-mohiyatini tushu nishi va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi. Rivojlangan pedagogik texnologiya o‘qituvchiga o‘zini pedagogik faoliyatda chuqurroq va yaqqolroq ko‘rsatish, bolalar bilan muomala qilganda o‘z shaxsiyatidagi kasbiy jihatdan barcha yaxshi ahamiyatli narsalarni ochib berishga yordamlashadi. Mukammal pedagogik texnologiya pedagogning vaqti va kuchini ijodiy ish uchun bo‘shatib beradi. Pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatish jarayonida bolalar bilan muomala qilishda zarur so‘zni topish yoki muvaffaqiyatli chiqmagan gap ohangini tushuntirishga o‘z fikrini chalg‘itmaslik imkonini yaratadi

Zamonaviy ta’limni amalga oshirishning yana bir zaruriy sharti o‘quv fanlari bo‘yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalarining tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir o‘quvchi va o‘qituvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya’ni hozirda sifatli ta’lim berish uchun an’anaviy ikki tomon – o‘qituvchi o‘quvchiga zarur axborotlarni yetkazib turuvchi xizmatdan iborat faoliyatni tashkil qilish zarur. Bu yo‘nalish axborot texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish yo‘nalishi deb nomlanadi. SHu axborotlarni o‘quvchilar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash o‘quvchi bilan o‘qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi. Shuningdek,

innovatsion jarayonlarning muhim xususiyati shundaki, ular ta’lim tizimidagi dolzarb vazifalarni samarali hal qilishga ko‘maklashishi kerak. Aksariyat hollarda bunga yetarli e’tibor berilmaydi, natijada yangiliklarning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi rasmiyatchilikka aylanadi.

Innovatsion ta’lim va innovatsion jarayonlar quyidagi ikkita vazifani hal etishga qaratilgan:

1. Voqealarni oldindan ko‘ra bilish, shaxsning o‘zini real voqelikdagi va keyingi ijtimoiy kasbiy faoliyatidagi rolini anglab yetish qobiliyatini tarkib toptirish; shaxsning ongli, oldindan anglab yetilgan muqobillari, umumiy xulq-atvori, ishonch-e’tiqodi, axloqiy qadriyatlari, umuman dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirish.

2. Mahalliy tashkiliy-boshqaruv darajasidan tortib, global darajagacha, shaxsga ijtimoiy ahamiyatga hamda kasbiy qimmatga ega bo‘lgan muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beruvchi «qatnashish» tamoyilini ro‘yobga chiqarish.

Ta’limni tashkil etish va yo‘lga qo‘yish borasidagi o‘zgarishlar innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol usullarni yuzaga keltirdi. Interaktiv metod – o‘zaro harakat, ya’ni hamkorlik asosida o‘qitish demakdir. Interfaol usullar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan e’tiborga loyiqdir. Ta’lim berishning bu usulida o‘qitish jarayonidagi asosiy ish o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ular ta’limning ob’ekti emas, balki sub’ekti, ya’ni xuddi o‘qituvchi kabi ijrochisi bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Interfaol usullar asosida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi ishlashigina emas, balki ta’lim olayotgan o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda didaktik faoliyat ko‘rsatishi turadi. Demak, interfaol usullar ta’lim mazmunining to‘liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlari ko‘zda tutiladi.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga asoslanadi. Bu usullardan foydalanilganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qitilmaydi, balki ularning o‘zlari o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishadi. Bu hol ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta’lim jarayoni qatnashchilari o‘zaro bemalol tortishadilar, o‘quv materialini buyurilganiday emas, balki o‘zlari xohlaganday yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtiradilar. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar. O‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a’zolariga beriladi. O‘quvchilarda jamoa tuyg‘usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Interfaol usullar o‘z-o‘zidan tasodifan paydo bo‘lib qolgan emas. U XX asrning so‘nggi choragida yuzaga keldi. Ta’limni interfaol usulda tashkil etish uchun

insoniyat tafakkuri muayyan yuksaklikka ko‘tarilishi, ilmu fanning taraqqiyoti o‘zining avj nuqtasiga yuksalishi lozim edi. Eng muhimi, insonning tafakkur tarzida interfaol ta’limga ehtiyoji paydo bo‘lishi lozim edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Norbo‘taev X., Eshquvvatov SH. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. // «Zamonaviy ta’lim», 2015, 6-son. -67-68-b.
2. Norbo‘taev X., Rahmatullaev B.A. Fanlararo o‘qitishda sinxron (vertikal) bog‘lanish. // «Zamonaviy ta’lim», 2015, 11-son. -31-36-b.
3. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
4. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023
5. Turakulova Feruza Aminovna. Qualified practice and media education. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022), 1693 -1698

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi v, b dotsenti
Gmail: nar19823101@gmail.com
Mirtemirova Durdona Doniyor qizi , Gofurova Dilrabo Alisher qizi
QDU, boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti, 2- kurs talabalari

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish o‘quv jarayonining shaxsiy yo‘nalishi va o‘zgaruvchanligini ta’minlash, o‘qitishning shaxsiy ahamiyati uchun sharoit yaratish, o‘qituvchilarning pedagogik ta’lim darajasini tanlash imkoniyatini yaratish, ularga ushbu ta’limni olishning zarurati, yo‘llari va vositalari, shuningdek, o‘z malakalarini oshirish, o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash imkonini berish bo‘yicha nazariy asoslangan yondashuvlarini umumiy tahlili bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsion fikrlash, pedagogik kompetentlik, metod va vosita, integrativ yondashuv, sinergetik yondashuv, kreativ yondashuv, didaktik o‘yinlar, motivatsion, ko‘nikmalar va malakalar, pedagogik faoliyat, kompetensiya

Respublikamizda zamon talablari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, jumladan, ta’lim tizimida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini integrativ yondashuvlar asosida yuqori malakali kadrlar qilib tayyorlashga alohida e’tibor

qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish” vazifasi belgilangan. Bu borada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha kasbiy faoliyat ob’ektlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni innovatsion sharoitlarga mos ravishda kasbga tayyorlash metodikalari va didaktik ta’minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanish o‘quv jarayonining shaxsiy yo‘nalishi va o‘zgaruvchanligini ta’minlaydi, o‘qitishning shaxsiy ahamiyati uchun sharoit yaratadi, o‘qituvchilarning pedagogik ta’lim darajasini tanlash imkoniyatini yaratadi, ularga ushbu ta’limni olishning zarurati, yo‘llari va vositalari, shuningdek, o‘z malakalarini oshirish, o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi.

Pedagogik nazariyada kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lgan shaxsga qo‘yiladigan shartli kasbiy talablar yig‘indisini tavsiflash uchun tadqiqotchilar turli atamalardan foydalanadilar: “kasbiy vazifalar”, “malakaviy xususiyatlar”, “kasbiy faoliyatga tayyorlik”, “shaxsning professiogrammasi”, “kasbiy yaroqlilik”, “kasbiy tayyorgarlik”, “kasbga tayyorlash”, “kasbiy tayyorgarlik”. Darhaqiqat, bir xil hodisani bildirgan holda, bu pedagogik kategoriyalar o‘ziga xos mazmun mohiyatiga ega va ba’zan turli kontekstlarda qo‘llaniladi. N.V.Kuzmina, G.A.Kruchinin, V.A.Slastenin va boshqa tadqiqotchilar o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini motivatsion, mazmunli va operatsion tarkibiy qismlarni integratsiyalovchi shaxsning yaxlit ta’limi sifatida ko‘rishadi.

Pedagogik faoliyatga tayyorlik muammosini ko‘rib chiqishda asosiy e’tiborni olimlar (A.A.Derkach, E.F.Zeer, Ye.A.Klimov, N.V.Kuzmina, N.V.Nijegorodseva, Yu.P.Povarenkov, V.A.Slastenin, V.D.Shadrikov va boshqalar) umumiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun va muayyan pedagogik kasb uchun zarur va yetarli bo‘lgan kasbiy bilimlar, pedagogik mahorat va shaxsiy fazilatlar miqdorini aniqlashga qaratadi.

I.F.Isayev, A.I.Mishchenko, V.A.Slastenin va boshqalar o‘qituvchining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi uning kasbiy mahoratini tavsiflovchi kasbiy kompetentligi orqali namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar kasbiy tayyorgarlikni o‘qituvchining pedagogik faoliyat qobiliyatini ta’minlovchi turli xil, o‘zaro bog‘langan elementlar majmuasidan iborat murakkab, o‘zgaruvchan, integratsiyalashgan ta’lim deb hisoblaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining umumta’lim maktabida shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanishga kasbiy tayyorgarligi o‘qituvchining ushbu yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini

ta’minlaydigan dinamik, integrativ shaxs xususiyati sifatida belgilanadi. Bu tegishli pedagogik yo‘nalish va pedagogik kompetentlik mavjudligini nazarda tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanishga pedagogik yo‘nalganligi - bu ijodiy potensial, o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga va atrof-muhitning sinergetik xususiyatlariga asoslangan ta’lim qobiliyatlari va uni ushbu yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha pedagogik faoliyatga undaydigan motivlarni belgilovchi qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lgan hissiy-qadriyatli munosabatlari tizimidir.

Shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanish bo‘yicha pedagogik faoliyat motivlari o‘quvchi ta’limning metodik tizimi markazida ekanligini tushunishni, o‘qituvchining roli esa yosh, individual va boshqa fan, kasbiy va boshqa qiziqish va moyilliklar kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda uni rivojlantirishdir; har bir alohida shaxsning xatti-harakatlari ijtimoiy muhitning makroijtimoiy jarayonlariga ta’sir qilishi mumkinligini va shaxs va yoki jamoadagi o‘zgarishlar o‘qitish, ta’lim va hatto butun jamiyatning o‘zgarishiga olib kelishi mumkinligini anglash; shuningdek, pedagogik faoliyatning barcha turlariga qiziqishni anglashni o‘z ichiga oladi. Tayyorlik kasbiy tayyorgarlik natijasida shakllanadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda “tayyorlash” tushunchasi turli jihatlarda ko‘rib chiqiladi. Aksariyat mualliflar singari biz ham kasbiy tayyorgarlikni umumiy, psixologik-pedagogik, maxsus (predmetli) va metodik bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishning yaxlit jarayoni sifatida ko‘rib chiqamiz.

Tizim (yunoncha. systema - qismlardan tashkil topgan butun; bog‘lanish) – “bir-biri bilan munosabat va aloqada bo‘lgan, ma’lum bir yaxlitlik, birlikni tashkil etuvchi elementlar yig‘indisi”.

Tizimning quyidagi tavsifi alohida ko‘rsatiladi :

1) tizim murakkab tarkibga ega (elementlar, tarkibiy qismlar, komponentlar va boshqalardan iborat); 2) tizim elementlari bir-biri bilan muntazam tuzilmaviy (ya’ni barqaror) munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi; 3) tizim yaxlitlik, nisbiy avtonomlik sifatida birligi, ajratilganligi, atrof-muhitdan mustaqilligi bilan tavsiflanadi. Pedagogik komponentni pedagogik tizim deb hisoblash mumkin, deb hisoblaydi, unda quyidagi elementlar guruhlarini ajratib ko‘rsatadi: maqsadlar; mazmun; ta’lim va tarbiya metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari; pedagoglar (o‘qituvchilar, ustozlar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, tarbiyachilar); ta’lim oluvchilar (o‘quvchilar, o‘quvchilar). Shu bilan birga, pedagogik tizimning asosiy tayanch elementi maqsadlar hisoblanadi.

Pedagogik tizimlar orasida: kasbiy tarbiya tizimlari, metodologik, metodik tizimlar va boshqalar ajratib ko‘rsatiladi. Metodik tizim pedagogik faoliyatning yaxlit modeli bo‘lib, u keyinchalik ushbu faoliyat loyihasida aniqlashtiriladi (agar o‘qitish haqida gapirilsa, bu aniq fanlarni o‘qitish dasturi va ushbu dastur o‘z ichiga olgan materiallar: darsliklar, topshiriqlar to‘plami, ko‘rgazmali qurollar, ta’limning

texnik vositalari bo‘ladi). Metodik tizimda an’anaviy tarzda maqsadlar, mazmun, ta’lim metodlari, vositalari va shakllari kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan tuzilma ajralib turadi. Metodik tizimning rivojlanish jarayonini tizimdagi qarama-qarshiliklari tufayli sifatli, qaytarilmas, yo‘naltirilgan o‘zgarishlar majmui sifatida ko‘rib, N.I.Rijova tizim rivojlanishining tashqi va ichki tamoyillariga ajratadi. Rivojlanishning tashqi tamoyillari tizimning rivojlanishi har qanday metodik (yoki pedagogik) tizimning unga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan ma’lum bir ijtimoiy va madaniy fonda ishlashining natijasi ekanligiga asoslanadi. Rivojlanishning ichki tamoyillari metodologik tizimning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarining o‘zgarishi butun tizimni bir butun sifatida o‘zgartirish zaruriyatiga olib kelishini aks ettiradi.

Turli mamlakatlarning ta’lim tizimidagi, pedagogik nazariya va amaliyotdagi o‘zgarishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini rivojlantirishning muhim tashqi omili zamonaviy ta’limda va boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitish konsepsiyasida tatbiq etilgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish, uni o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida qo‘llash asosida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillarini tizimlashtirish mumkin:

- o‘quvchi shaxsini ta’lim tizimining maqsadi, predmeti, natijasi va samaradorligining asosiy mezoni sifatida e’tirof etish;
- o‘quvchi shaxsini pedagogik tizim markaziga ko‘tarish;
- ta’limning o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilishi;
- shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim sohasini rivojlantirishni tashkil etish;
- hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiriladigan o‘zaro ta’sirning subyekt-subyekt turini amalga oshirish.

Biz bu tamoyillardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini shaxsga yo‘naltirilgan va sinergetik yondashuvlardan kompleks foydalanishga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishda foydalanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. Roxataliyevna, A. N. (2025). MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISHDA MANTIQIY SAVOLLARNI AHAMIYATI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(5), 649-653.

3. Rohataliyevna, A. N. (2022). Improvement of Creative Activity of Students by Means of Innovative Educational Technologies. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 441-445.

4. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

5. Roxataliyevna, A. N. (2024). MATEMATIKA DARSLARIDA O ‘QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O ‘QUV SAVOLLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 50), 343-347.

6. Rokhataliyevna, A. N., Qodiraliyevich, A. A., & Andrew, J. S. Using of Modern Information and Communication Technologies in Mathematics Lessons. *JournalNX*, *9*(7), 57-61.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK KO‘NIKMALARINI BAHOLASH IMKONIYATLARI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo’qon davlat universiteti boshlang’ich ta’lim kafedrasi v,b,dotsenti,
Mahmudova Dildora Shuxrataliyevna
Beshariq tumani, 44-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining ta’lim tizimida, xususan, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish va baholash jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt asosidagi baholash vositalari o‘quvchilarning individual rivojlanish darajasini aniqlash, xatolarini tahlil qilish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, raqamli baholash, adaptiv tizim, matematika ta’limi, boshlang‘ich sinf, ta’lim texnologiyasi, pedagogik kompetentlik, metod va vosita, integrativ yondashuv, sinergetik yondashuv, kreativ yondashuv, didaktik o‘yinlar, motivatsion, ko‘nikmalar va malakalar, pedagogik faoliyat, kompetensiya

Zamonaviy ta’lim tizimi inson resurslarini raqamli dunyoga tayyorlashni talab etmoqda. Shu sababli, o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich sinf ta’limi — bu o‘quvchining tafakkuri, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlari shakllanadigan poydevor bosqichidir. Ayniqsa, matematika fani bu jarayonda asosiy o‘rin tutadi, chunki u mantiqiy fikrlash, tahlil, kuzatuvchanlik va izchillikni rivojlantiradi.

Sun’iy intellekt (AI) — bu inson tafakkurini modellashtira oladigan, o‘rganish, qaror qabul qilish, tahlil va bashorat qilish kabi funksiyalarni bajaruvchi dasturiy tizimlar majmuasidir.

Sun’iy intelekt paydo bo’lishi tarixiga nazar solsak, 1956-yilda AQShning **Dartmut universitetida Jon MakKarti (John McCarthy)** boshchiligida mashhur konferensiya o‘tkaziladi.

Shu konferensiyada ilk bor **“Artificial Intelligence” (Sun’iy intellekt)** atamasi ishlatiladi. Bu sana ko‘pchilik tomonidan **sun’iy intellekt fani tug‘ilgan yil** deb qabul qilinadi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan **2021-yil 17-fevralda** “Sun’iy intellekt sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan. Unga ko‘ra:

- **Sun’iy intellektni rivojlantirish milliy strategiyasi** ishlab chiqilgan;
- **Sun’iy intellekt markazi** tashkil etilgan;
- Universitetlarda **“Sun’iy intellekt”** yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Sun’iy intellekt **testlarni avtomatik tekshiradi, hisobotlar tayyorlaydi** va **baholashda xatoliklarni kamaytiradi.**

Bu o‘qituvchiga ko‘proq vaqtni o‘quvchilar bilan bevosita ishlashga sarflash imkonini beradi.

Sun’iy intellekt o‘quvchilarning faoliyati, ishtiroki, natijalari va xatolarini doimiy kuzatib boradi.

Shu asosda o‘qituvchiga **tahliliy hisobotlar** beradi-kim orqada qolayotganini, kim qaysi mavzuda qiynalayotganini ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonida sun’iy intelekt (AI) texnologiyalari adaptiv ta’lim, intellektual baholash tizimlari, virtual o‘qituvchilar, raqamli diagnostika va tahliliy platformalarda keng qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich ta’limda baholash jarayoni o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va motivatsiyasini hisobga olishi kerak. Baholash nafaqat natijani, balki o‘quvchi fikrlash jarayonini ham o‘lchashi zarur. sun’iy intelekt (AI) bu jarayonda xatolarni aniqlash, sababini tushuntirish va individual mashqlarni taklif qilish orqali an’anaviy baholashni takomillashtiradi.

Sun’iy intelekt (AI) asosida baholash tizimi quyidagi bosqichlarda ishlaydi: ma’lumot to‘plashdi, tahlil qiladi, baholaydi, tavsiyalar shakllantiriradi va monitoring qiladi. Masalan, o‘quvchi “10 ichida qo‘shish” mavzusida xatoga yo‘l qo‘ysa, tizim bu xatoni qayd etadi va shunga o‘xshash mashqlarni taklif qiladi.

Sun’iy intelekt (AI) yordamida diagnostik testlar, interfaol mashg‘ulotlar, shaxsiylashtirilgan baholash va o‘qituvchiga yordamchi tahlilni amalga oshirish mumkin. Masalan, tizim o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilib, o‘qituvchiga eng ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan mavzularni aniqlab beradi.

2024-yilda Toshkent shahri 285-maktabda o‘tkazilgan tajriba davomida 28 nafar o‘quvchi AI Quiz dasturidan foydalandi. Natijada o‘quvchilarning to‘g‘ri javoblar foizi o‘rtacha 63% dan 87% gacha oshdi. Bu tajriba sun’iy intelekt (AI) asosida baholash tizimlari samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Boshlang‘ich matematika darslarida sun’iy intelektni qo‘llanilishi

a) Interaktiv o‘quv ilovalari

- **Photomath**, **Khan Academy Kids**, **Matific**, **Socratic** kabi AI asosidagi ilovalar bolalarga arifmetikani o‘rgatadi.
- Ular bolaga xatoni ko‘rsatibgina qolmay, **tushuntirib beradi** — nega noto‘g‘ri bo‘lganini va qanday to‘g‘ri yechish kerakligini.

b) **O‘yin orqali o‘rganish**

- Sun’iy intelekt (AI) o‘yin asosida o‘qitish (gamifikatsiya) orqali matematika darslarini qiziqarli qiladi.
- Masalan, har bir to‘g‘ri javob uchun mukofot, yulduz yoki daraja beriladi, bu bolani rag‘batlantiradi.

c) Adaptiv o‘qitish tizimlari

- Sun’iy intelekt (AI) bolalarning bilim darajasiga qarab darsni moslashtiradi (bu “adaptiv ta’lim” deyiladi).
- Har bir o‘quvchi uchun **shaxsiy o‘quv yo‘li** yaratiladi.

d) Virtual o‘qituvchilar

- Sun’iy intellect (AI) asosidagi virtual yordamchilar (chatbotlar yoki ovozli tizimlar) bolalarga savol berish, masalalarni tushunish va darsni takrorlashda yordam beradi.

Masalan: “5 × 3 nechaga teng?” deb so‘rasa, tizim javobni aytibgina qolmay, **ko‘paytirish mantig‘ini** ham tushuntiradi.

Sun’iy intelekt (AI) asosida baholash tizimlari shaxsiy yondashuvni tashkil qiladi, tezkor tahlilni amalga oshiradi, xato tahlilini qiladi va motivatsiyani ta’minlaydi. Ammo texnik vositalarga ehtiyoj, til mosligi va maxfiylik masalalari kabi cheklovlar ham mavjud.

O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intelekt (AI) texnologiyalarini qo‘llash tobora kengaymoqda. Kelajakda har bir o‘quvchi uchun shaxsiy sun’iy intelekt (AI) portfeli yaratiladi, o‘qituvchi esa o‘quvchining rivojlanish xaritasini real vaqtda kuzata oladi.

Sun’iy intellekt yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik ko‘nikmalarini baholash o‘qituvchi ishini yengillashtiradi, o‘quvchi uchun individual yondashuv yaratadi va natijalarni obyektiv tarzda o‘lchaydi. Bu texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning muhim vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. “Raqamli ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari”. – Toshkent, 2023.

2. UNESCO. “Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities”. – Paris, 2022.
3. Xo‘jaeva M. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. – Toshkent, 2021.
4. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
5. OECD. “AI and the Future of Learning”. – Paris, 2021.
6. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.
7. www.khanacademy.org
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi (PQ–6079, 2020-yil).

DARSLARDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Gmail: nar19823101@gmail.com
Tel: +998903048007
Boqijonova O‘g‘iloy Akmaljon qizi, **Turdaliyeva Madinabonu Murodjon qizi**
QDU, boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2- kurs talabalari

Annotatsiya: Maqolada Boshlang’ich ta’lim bosqichida matematik bilimlarni shakllantirish nafaqat o’quvchilarning ratsional tafakkurini, balki ularning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o’rin tutishi haqida so‘z boradi. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o‘zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo‘lgan yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan holda darslarda amaliy qo‘llab borishlari zarurdir.

Kalit so‘zlar: kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, kuzatish, taqqoslash, tahlil, sintez, umumlashtirish, ijodiy qobiliyat, idrok qilish, ijodiy faollik, shakllangan intellekt, ijodiy potentsial, ijtimoiy- kommunikativ faoliyatga intilish, intellektual - ijodiy rivojlanish.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim jarayonida barcha fanlar kabi matematika fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan matematika bo’yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo’nalishlari bo’yicha yetuk kadrlar tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Maktabdagi darslarni sifatli tashkil etish

esa avvalambor pedagoglarimizni ijodkor bo‘lishiga undaydi. Dars jarayonidagi faqat yodlashga qararilgan topshiriqlarning bo‘lishi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bugungi kundagi davr talabiga mos kreativ fikrlaydigan o‘quvchilarni yaratish dolzarb vazifamizdir. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o‘zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo‘lgan yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan holda darslarda amaliy qo‘llab borishlari zarurdir. Xususan, bunday natijaga o‘quvchi-yoshlarni kreativ fikrlash qobiliyatlarini paydo qiladigan, uni o‘stiradigan, hayotiy, kasbiy ahamiyati yuqori bo‘lgan fanlardan biri matematika fani orqali erishishimiz qulay va osonroqdir. Aynan shu fan yordamida o‘quvchilarni, boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish mumkin. Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo’lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta‘lim dasturlari yaratib,o’qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. [1]

Boshlang’ich ta’lim bosqichida matematik bilimlarni shakllantirish nafaqat o’quvchilarning ratsional tafakkurini, balki ularning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o’rin tutadi. Hozirgi vaqtda O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishga ilmiy-metodik, texnologik va psixopedagogik yondashuvlar yangicha mazmun kasb etmoqda.

Aynan matematika fani bo’yicha 2022 yilda tasdiqlangan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturlarida ta’lim mazmunini kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida qayta tashkil etish belgilangan. Bu esa boshlang’ich sinf o’quvchilarining tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimlarni hayotiy vazifalarda qo’llashga yo’naltirilgan o’qitish modelini joriy etishni talab etadi (Manba: DTS, 2022). Boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan fanlar o’quvchilarda asosiy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu fanlar o’quvchilarning yoshiga mos ravishda bilim berish, ko’nikma va malaka hosil qilish maqsadida tashkil qilingan.

Hozirda O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari doirasida 3-4-sinflarda matematika fanini o’qitishga kompetentlikka asoslangan yondashuv joriy etilmoqda. Bu — o’quvchida faqat nazariy bilimni emas, balki hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirishni ko’zda tutadi. 2022 yilda qayta ko’rib chiqilgan Davlat ta’lim standartiga ko’ra, 3–4-sinf o’quvchilarida matematik bilim va amallarni faol mulohaza, tahlil va refleksiya orqali egallash talab etiladi (O’zR Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4-yanvardagi 10-son qarori).

3–4-sinflarda matematika fanini o’qitish boshlang’ich ta’limning muhim bosqichi hisoblanib, o’quvchilarda umumiy tafakkur, mantiqiy yechim topish, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va amaliy hisoblash ko’nikmalarini

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 23 dekabrdagi O’zbekiston xalqiga va Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi

shakllantirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Bu sinflarda ta’lim mazmuni sezilarli darajada murakkablashadi: ko’p raqamli sonlar, amallar tartibi, tenglamalar, geometrik figuralar, masalalarni tahlil qilish va yechish kabi mavzular o’rgatiladi. Shu bois, mazkur bosqichdagi o’qitish jarayoniga ilmiy, psixologik va metodik yondashuvning kompleks xarakterda tashkil etilishi talab etiladi. Matematika fani maktabda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun o‘qitiladigan majburiy fanlardan biridir. Bu fan o’quvchilarda mantiqiy, tahliliy, tizimli, tanqidiy va ijodiy ko’nikmalarni shakllantirishi kerak bo’ladi. Matematikani yuqori darajada bilish fikrlash qobiliyatini yuqori bo’lishiga asos bo’ladi. Yuqori darajadagi fikrlash - bu mavjud bilim va tajribalarni manipulyatsiya qilish va ulardan foydalanish qobiliyatidir .

Ilmiy manbalar tahlili (T. Z. Ahmedov, G. N. Jo’raeva, I. I. Matveeva va boshqalar) shuni ko’rsatadiki, 3–4-sinflarda matematik bilimlarni uzluksiz va tizimli ravishda shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

– muammoli vaziyatlar asosida o’qitish,
– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish,
– tadqiqot elementlarini o’z ichiga olgan mashg’ulotlar,
– differensial va shaxsga yo’naltirilgan yondashuv.

Boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishning asosiy maqsadi – o’quvchilarda hayotda zarur bo’ladigan eng oddiy matematik tasavvurlar, bilim va amaliy ko’nikmalarni shakllantirish orqali tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini asos solishdan iborat. Matematik tafakkur boshlang’ich sinfda shakllana boshlashi bolaning keyingi ta’lim bosqichlarida fanni chuqur o’zlashtirishi uchun zarur intellektual poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantipish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs /3107036

2. Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna. MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISH. Journal of Education, Ethics and Value Vol. 3, No. 05, 2024 ISSN: 2181-4392, 97-100b]

3. Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 50-55.

4. Rokhatalievna, A. N., & Kadiraliyevich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, *3*(7), 1-5.

5. Roxataliyevna, A. N., & G’ulomovna, Y. S. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. *Middle European Scientific Bulletin*, *9*.

6. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o’quv-uslubiy qo’llanma.:– Toshkent 2015,40 bet

7. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. *“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6*, 119.

8. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

9. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1354-1365.

XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIGA MOS O‘QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH: BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI UCHUN METODIK TAVSIYALAR

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Hasanova Nodiraxon Xurshidjon qizi, Inomjonova Zarinabonu Yodgorjon qizi
QDU, boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2- kurs talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS va TIMSSning mazmuni, maqsadi hamda ular asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining mazmuni hamda ularga mos o‘quv topshiriqlarini yaratish metodikasi yoritiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan topshiriqlarni tuzish tamoyillari, ularning o‘quvchi savodxonligini rivojlantirishdagi ahamiyati va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar keng tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi hamda real hayotiy vaziyatlarda bilimni qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy asosda bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, ijodiy qobiliyat, idrok qilish, ijodiy faollik, ko’nikma, malaka, mantiqiy fikrlash

Ta’lim sifatini xalqaro darajada baholashning muhim vositalaridan biri PISA, PIRLS va TIMSS dasturlaridir. Ular o‘quvchilarning yodlash darajasini emas, balki

bilimini amaliyotda qo‘llash, tanqidiy fikrlash, o‘qish savodxonligi, tahlil qilish, mantiqiy yechim topish kabi kompetensiyalarini o‘lchaydi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda o‘quv dasturlarini yangilash, interfaol metodlar bilan boyitish va eng asosiysi, xalqaro talabga mos o‘quv topshiriqlari yaratish katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda xalqaro tadqiqotlarda faol ishtirok etib, ularning metodik yondashuvlarini o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z darslarida xalqaro standartlarga mos topshiriqlarni qo‘llay olishi ta’lim sifati oshishining muhim sharti hisoblanadi.

PIRLS o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, asosiy g‘oyani aniqlash ko‘nikmalarini tekshiradi.

PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining matnni tushunishi, ma’lumot topishi, mulohaza bildirishi, matn mazmunini umumlashtirishi ko‘nikmalarini baholaydi.

PIRLS topshiriqlari ko‘pincha badiiy va axborot matnlardan tarkib topadi. Har bir matndan keyin tanlovli testlar, ochiq javobli savollar, matndan dalil keltirishni talab qiluvchi topshiriqlar keltiriladi.

PIRLSga mos topshiriqlar quyidagilardan iborat bo‘ladi. Badiiy yoki axborot matn beriladi. Matn asosida “to‘g‘ri-javobni tanlash”, “javobni matndan topish”, “mulohaza bildirish” kabi savollar beriladi. O‘quvchi nafaqat matnni o‘qiydi, balki uni sharhlaydi, baholaydi.

TIMSS 4- va 8-sinflar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, matematika topshiriqlari sonlar va arifmetik amallar, o‘lchov birliklari, shakl va fazoviy tasavvurlar, diagramma bilan ishlash, masalalarni real hayotga bog‘lash kabi mavzularga asoslanadi.

Tabiiy fan topshiriqlari esa kuzatish, tajriba natijalarini tahlil qilish, xulosa chiqarish, grafik, jadvaldan foydalanish ko‘nikmalarini baholaydi.

Masalalar hayotiy vaziyatlardan olingan bo‘lib, o‘quvchi oddiy formulalardan tashqari, fikrlab qaror qabul qilishi talab etiladi.

PISA 15 yoshli o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, uning topshiriqlari boshlang‘ich sinf uchun moslashtirilgan tarzda qo‘llanishi mumkin. PISA topshiriqlarining oddiy topshiriqlardan abzallik tomonlari hayotiy vaziyatga asoslanishi, grafik, jadval, xarita bilan ishlash, bir nechta variantli yechim berish, tahlil, baholash, umumlashtirish talab qilinishidir.

PISA funksional savodxonlikni baholaydi. Topshiriqlar asosan kundalik hayotiy vaziyatlardan, grafik, jadval, diagrammalardan, matnli muammolardan tashkil topadi.

Bu topshiriqlarda “to‘g‘ri formulani bilish” emas, balki “to‘g‘ri fikrlay olish” asosiy mezondir.

Topshiriq turi shunday bo’lishi kerakki bunda o’quvchi masalani yechish bilan birga jarayonni izohlaydi, xulosa chiqaradi.

Bilim + ko‘nikma + amaliyot birligini talab qilishi kerak.

Real hayot misollari o‘quvchini o‘rganayotgan bilimni qo‘llashga o‘rgatadi. Misol: do‘kondagi narxni hisoblash, avtobus jadvali bilan ishlash, vaqtni aniqlash, xarita o‘qish.

Har bir topshiriqda matn, jadval, grafika bo‘lishi o‘quvchining tahlil ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Topshiriqlar quyi daraja (faktni aniqlash), o‘rta daraja (tahlil qilish, solishtirish), yuqori daraja (ijodiy yondashuv, sabab-oqibatni topish) ko’rinishida bo’lishi kerak.

PISA topshiriqlarida ko‘p hollarda bir nechta yechim bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchining tafakkurini kengaytiradi.

Grafik, jadval, diagramma bilan ishlashni o‘rgatuvchi topshiriqlar o‘quvchining vizual tafakkurini rivojlantiradi.

Savollar “nimaga?”, “qanday?”, “nima uchun?” kabi yo‘nalishlarda bo‘ladi.

PIRLS uslubida topshiriq

Matn:

“Ali bog‘da daraxt ekdi. U daraxtning yoniga suv quydi va unga g‘amxo‘rlik qildi. Bir necha oy o‘tgach, daraxt meva bera boshladi.”

Savollar:

1. Ali bog‘da nima qildi? (Matndan topiladi)
2. Daraxt nega meva bera boshladi? (Sabab-oqibat bog‘lanishini aniqlash)
3. Agar daraxtga suv quyilmasa, nima bo‘lardi? (Baholash, fikr bildirish)

TIMSS uslubida matematik topshiriq

Vaziyat:

Do‘konda 1 kg olma 8 000 so‘m. O‘quvchi 3 kg olma sotib oldi.

Savollar:

1. O‘quvchi qancha to‘laydi?
2. Agar u 25 000 so‘m bergan bo‘lsa, qaytim qancha?
3. Agar narx 10% oshganida to‘lov qancha bo‘lardi? (Tahliliy fikrlash)

PISA uslubida funksional savodxonlik topshirig‘i

Grafik:

Har 4 soatda harorat o‘zgarishi jadvali beriladi.

Savollar:

1. Qaysi vaqtda harorat eng past bo‘lgan?
2. Haroratning ko‘tarilish tendensiyasini izohlang.
3. Agar harorat shu tarzda ko‘tarilaversa, 4 soatdan keyin taxminiy harorat necha bo‘ladi? (Prognoz qilish)

Topshiriq yaratishda topshiriqni hayotiy, qiziqarli bo‘lishiga alohida e’tibor berish kerak. Bu orqali topshiriqni bajargan o’quvchi zerikib qolmasligiga erishiladi. Ortiqcha matn bilan yuklamasdan aniq maqsadga yo‘naltirilgan topshiriq yatatish kerak va bir savolda bir nechta kompetensiyani qamrab olishiga e’tibor qaratish kerak. Turli formatlardan foydalanish (matn, rasm, jadval, diagramma) ham yaxshi natija beradi.

O‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish uchun:

- o‘quvchini mustaqil fikrlashga undash;
- “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar… bo‘lsa?” kabi savollar berish;
- guruhli ishlarda muammoli vaziyatlar yaratish;
- darslik topshiriqlarini har doim yangicha vaziyat bilan boyitish.

O‘quvchilarning javoblarini to‘liq, aniq, tahliliy javob, qisman to‘g‘ri javob, mantiqsiz yoki noto‘g‘ri javob tarzida baholanishi mumkin. Baholash mezonlari o‘quvchi fikrlashining chuqurligini aniqlashga yordam beradi.

Xalqaro baholash tizimlariga mos o‘quv topshiriqlari yaratish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, matn va axborot bilan ishlashga, real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga, matematik muloqotga o‘rgatadi.

O‘qituvchining darsda PISA, PIRLS va TIMSS talablari asosida topshiriq tuzishi nafaqat o‘quvchining funksional savodxonligini o‘stiradi, balki uning tafakkurini milliy va global mezonlarga mos ravishda rivojlantiradi. Shu bois, xalqaro baholash mezonlari asosida yaratilgan topshiriqlarni dars jarayoniga muntazam tatbiq etish ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Xalqaro baholash tizimlarining joriy etilishi o‘qituvchilar malakasining oshishiga, zamonaviy o‘qitish metodlarining qo‘llanishiga va dars sifati yaxshilanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, xalqaro baholash tizimlari O‘zbekiston ta’lim tizimining globallashuv jarayoniga moslashuvi, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalashda muhim o‘rinni egallaydi.

Adabiyotlar:

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantipish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs /3107036
11. Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna. MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISH. Journal of Education, Ethics and Value Vol. 3, No. 05, 2024 ISSN: 2181-4392, 97-100b]
12. Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 50-55.
13. Rokhatalievna, A. N., & Kadiraliyevich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, *3*(7), 1-5.
14. Roxataliyevna, A. N., & G’ulomovna, Y. S. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. *Middle European Scientific Bulletin*, *9*.
15. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‟yicha o’quv-uslubiy qo’llanma.:– Toshkent 2015,40 bet

16. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

17. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. *“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6*, 119.

18. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

19. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1354-1365.

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI VA ULARNING BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA TA’SIRI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Hokimjonova Gulnozaxon Abdullajon qizi, Abdullayeva Aziza Zafarjon qizi
QDU, boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2- kurs talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS va TIMSSning mazmuni, maqsadi hamda ular asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning savodxonlik, mantiqiy fikrlash, matn bilan ishlash, matematik savodxonlik kabi ko‘nikmalarini aniqlashda xalqaro baholash dasturlarining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu dasturlarning O‘zbekistonda tatbiq etilishi, o‘qituvchilar malakasini oshirishga ta’siri va o‘quv jarayoniga kiritilayotgan o‘zgarishlar ilmiy asosda sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, ijodiy qobiliyat, idrok qilish, ijodiy faollik, ko’nikma, malaka, mantiqiy fikrlash

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim jarayonida barcha fanlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabdagi darslarni sifatli tashkil etish esa avvalambor pedagoglarimizni ijodkor bo‘lishiga undaydi. Dars jarayonidagi faqat yodlashga qararilgan topshiriqlarning bo‘lishi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bugungi kundagi davr talabiga mos kreativ

fikrlaydigan o‘quvchilarni yaratish dolzarb vazifamizdir. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o‘zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo‘lgan yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan holda darslarda amaliy qo‘llab borishlari zarurdir. Zamonaviy dunyoda ta’lim sifati nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham baholanadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bunda PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TALIS(The Teaching and Learning International Survey) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi dasturlar o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularni amaliy hayotda qo‘llash, muammoni hal etish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘lchaydi.

Davlatimizda ta’lim sifatini baholashning xalqaro mezonlarini joriy etish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Prezidentning 2018-yil 12-dekabrdagi PQ-4064-son qarori, 2020-yil 24-avgustdagi 997-son qarori orqali xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv dasturlarini optimallashtirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

PISA (Programme for International Student Assessment) 15 yoshli o‘quvchilarning funksional o‘qish savodxonligini, matematik savodxonligini, tabiiy fanlar bo‘yicha yangiliklarni tahlil qilish kompetensiyalarini baholaydi.

PISA o‘quvchining faktlarni yod olishini emas, balki amaliy hayotiy vaziyatda muammoni hal qila olish qobiliyatini o‘lchaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) 4-sinf o‘quvchilarining matnni tushunish va ma’nosini anglash bo‘yicha savodxonligini baholaydi. Unda o‘quvchilar badiiy matn, axborot matni bilan ishlash ko‘nikmalari bo‘yicha tekshiriladi.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarini baholaydi. Asosiy e’tibor nazariy bilim, mantiqiy tafakkur, amaliy masalalar yechish, ilmiy-tadqiqot elementlariga qaratiladi.

Xalqaro baholash tizimlari O‘zbekiston ta’limining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, baholash usullarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Natijalar asosida o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuvga o‘tkazish,

amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, o‘qituvchilar malakasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, darsliklarning mazmunini optimallashtirish yo‘nalishlarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish uchun 997-son qarorni joriy qilionishi, “Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish agentligi”ning tashkil etilishi,

maktablar uchun metodik qo‘llanmalar yaratilishi kabi muhim hujjatlar ta’lim sifati monitoringini tizimli yo‘lga qo‘ymoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tahlil qilish va mazmunini umumlashtirish (PIRLS talabi), kundalik hayotga oid masalalarni hal qilish (PISA kompetensiyasi), mantiqiy fikrlash va matematik muloqot ko‘nikmalari (TIMSS talabi), muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar rivojlanmoqda.

Xalqaro baholash talablari asosida darslarda interfaol metodlar (“Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “INSERT”, “Klaster”), tadqiqotga asoslangan topshiriqlar, real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi misollar, matn ustida chuqur ishlash texnikalari ko‘proq qo‘llanila boshladi. Bu esa o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga undaydi.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlov jarayoni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan zamonaviy metodlarni bilish, kompetensiyaviy yondashuv, analitik fikrlash, dars jarayonida diagnostik baholash ko‘nikmalarini talab qilmoqda.

Shu sababli o‘qituvchilar uchun maxsus seminarlar, modul kurslar, malaka oshirish dasturlari muntazam o‘tkazilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim uchun xalqaro baholash dasturlari asosida yaratilgan o‘quv topshiriqlarining afzallik tomonlaridan biri o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, matn bilan ishlash malakasini kuchaytiradi. Matematik qaror qabul qilish ko‘nikmasini o‘stiradi. Bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadi. O‘quv monitoringini obyektiv amalga oshirishga imkon yaratadi.

O‘zbekistonning PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu dasturlar boshlanganidan so‘ng ta’lim mazmuni, o‘quv dasturlari va darsliklar kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanmoqda. Eng asosiysi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida funksional savodxonlik, mantiqiy fikrlash, matematik va o‘qish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanmoqda.

Xalqaro baholash tizimlarining joriy etilishi o‘qituvchilar malakasining oshishiga, zamonaviy o‘qitish metodlarining qo‘llanishiga va dars sifati yaxshilanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, xalqaro baholash tizimlari O‘zbekiston ta’lim tizimining globallashuv jarayoniga moslashuvi, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalashda muhim o‘rinni egallaydi.

Adabiyotlar:

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantipish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs /3107036

21. Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna. MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISH. Journal of Education, Ethics and Value Vol. 3, No. 05, 2024 ISSN: 2181-4392, 97-100b]

22. Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 50-55.

23. Rokhatalievna, A. N., & Kadiraliyevich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, *3*(7), 1-5.

24. Roxataliyevna, A. N., & G’ulomovna, Y. S. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. *Middle European Scientific Bulletin*, *9*.

25. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‟yicha o’quv-uslubiy qo’llanma.:– Toshkent 2015,40 bet

26. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades
NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

27. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

28. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. *“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6*, 119.

29. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1354-1365.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari — PISA, PIRLS, TIMSS kabi baholash tizimlarining mazmuni hamda ularning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligiga ta’siri tahlil qilinadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda xalqaro baholash mezonlari asosida shakllantirilgan metodik yondashuvlar, interaktiv topshiriqlar modeli, kreativ pedagogik vazifalar tizimi va baholash mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kreativ faoliyat, kreativ kompetensiya, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, funksional savodxonlik, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, o‘quv-metodik ta’minot, xalqaro standartlar, ijodiy fikrlash,

metodik yondashuv, real vaziyatga asoslangan topshiriqlar, pedagogik innovatsiyalar, kreativ pedagogika.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ta’lim sifati va o‘quvchilar kompetensiyalarini baholashda xalqaro baholash dasturlari keng qo‘llanilmoqda. Jahon ta’lim makonidagi raqobatbardoshlik bevosita pedagoglarning kasbiy mahoratiga, xususan, kreativ fikrlashga asoslangan o‘qitish kompetensiyalariga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonining poydevorini yaratadi. Shu bois ularning kreativ pedagogik faoliyati xalqaro talablar darajasida shakllangan bo‘lishi muhimdir. Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlari talablari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishning samarali metodikasi ishlab chiqiladi.

Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy manbalarni uch yo‘nalishga ajratish mumkin:

PISA (Programme for International Student Assessment) O‘quvchilarning funksional savodxonligi: o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan hayotiy vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini tekshiradi.

PISA — bu OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tomonidan har 3 yilda o‘tkaziladigan, 15 yoshli o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlarda bilimdan foydalanish qobiliyatini o‘lchovchi xalqaro baholash dasturidir.

PISA bilimni emas, balki bilimni real hayotda qo‘llashni o‘lchaydi. Bu uning eng asosiy farqi.

PISA har uch yilda matematika savodxonlik, o‘qish savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi fanlari bo‘yicha baholash o‘tkazadi.

Matematika savodxonligida o‘quvchining matematik tildan foydalanishi, masalani modellashtira olishi, real hayotiy vaziyatlarni matematik usulda yechishi, matematik fikrlashni amalda qo‘llashi tekshiriladi.

O‘qish savodxonligida o‘quvchining matndan maqsadli foydalanishi, axborotni tahlil qilishi, mantiqiy xulosalar chiqarishi, turli matn turlaridan samarali rivojlanuvchi bilim olish ko‘nikmasi tekshiriladi.

Tabiiy fanlar savodxonligida o‘quvchining ilmiy tushunchalarni real hayotga tatbiq etishi, muammoni ilmiy usulda hal qilishi, eksperiment natijasini tushuntirishi, ilmiy tahlil, prognoz va xulosa chiqarishini tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda PISA kreativ fikrlash (2022), global kompetensiya (2018), moliyaviy savodxonlik kabi yangi kompetensiyalarni ham kiritdi.

Kreativ fikrlashda o‘quvchining yangi g‘oya yaratishi, muqobil yechim taklif qilishi, masalaga noodatiy yondashishi qobiliyati baholanadi.

Global kompetensiyada o‘quvchining turli madaniyatni tushunishi, ijtimoiy muammolarni tahlil qilishi, global masalalar bo‘yicha fikr yuritishi baholanadi.

Moliyaviy savodxonlik yo‘nalishida esa o‘quvchining pulni boshqarish, moliyaviy xavflarni tushunish, byudjet tuzish kabi hayotiy ko‘nikmalari baholanadi.

PISA natijalari har bir davlatning o‘quvchi kompetensiyasi, ta’lim sifati, dars metodikasi, darsliklar mazmuni qanchalik raqobatbardoshligini ko‘rsatadi.

PISA -bu o‘qituvchilarni tadqiqotga asoslangan darslar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, funksional savodxonlikka tomon yo‘naltiradi.

O‘qituvchidan o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, hayotiy muammoga yechim topishga yo‘naltirish, grafik va diagrammalar bilan ishlash, matnni tahlil qilish strategiyalarini o‘rgatish talab qilinadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholaydi. O‘qituvchilarda matn ustida ishlash texnologiyalari, mantiqiy tahlil, interpretatsiya va ijodiy fikrlash metodlari bo‘lishini talab etadi.

PIRLS — bu xalqaro darajadagi o‘qish savodxonligini baholash dasturi bo‘lib, har 5 yilda bir marta 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasi va o‘qishga bo‘lgan munosabatini o‘rganadi.

PIRLS IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tashkiloti tomonidan 2001-yildan buyon o‘tkazadi. Uning asosiy maqsadi mamlakatlar o‘rtasida o‘quvchilar o‘qish savodxonligini taqqoslash, o‘qish bo‘yicha ta’lim sifatini baholash, o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilish, ta’lim tizimining kuchli va zaif jihatlarini aniqlashdan iborat.

PIRLS faqat matnni o‘qish emas, balki o‘quvchi matndan qanday ma’lumot chiqarishini, tahlil qilishini, mantiqiy bog‘liqlikni tushunishini baholaydi. Sinov 4 ta yirik kognitiv jarayonni o‘lchaydi.

O‘quvchi matndan aniq faktlarni topishi, berilgan savolga mos javobni ajratib ko‘rsata olishi, matndagi elementlar joylashuvini tushunishi kerak.

Bu jarayonda matndagi sabab-oqibat, voqealar ketma-ketligi, xarakterlar o‘rtasidagi aloqalar, mantiqiy bog‘liqliklar tahlil qilinadi.

O‘quvchi matnga nisbatan shaxsiy fikr bildiradi, mulohaza yuritadi, matnning sifati, mazmuni haqida fikr yuritadi.

Hozirgi dunyoda matnni tushunish faqat o‘qish emas — bu mantiqiy fikrlash, tahlil va xulosa qilish demakdir.

PIRLS mezonlariga mos dars o‘tgan o‘qituvchilar o‘quvchilarni izlanishga, mantiqiy tahlilga, fikr bildirishga, savol berishga o‘rgatadi.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) Matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va tadqiqot faoliyatlarini baholaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ijodkorlikka asoslangan STEM yondashuv, eksperimental topshiriqlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

TIMSS — bu IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan har 4 yilda o‘tkaziladigan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar (science) bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘lchaydi.

TIMSSning asosiy maqsadi — dunyo mamlakatlarida matematika va tabiiy fanlar ta’limining sifatini taqqoslash, o‘qitish jarayonidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash, ta’lim islohotlarini rejalashtirishga ilmiy asos yaratish.

Bo‘lajak boshlang‘ich o‘qituvchilarda xalqaro baholash dasturlari asosida quyidagi asosiy kreativ kompetensiyalar shakllantiriladi:

a) kreativ fikrlash (divergent) — bir nechta yechim topish;
b) tahliliy fikrlash — dalillarga asoslanish;
c) innovatsion pedagogik yondashuv — darsni noodatiy shakllarda tashkil etish;

Xalqaro baholash dasturlari talablari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga chuqur joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim omildir. Ular nafaqat o‘quvchilarni baholaydi, balki o‘qituvchidan kreativ, funksional, kompetensiyaga asoslangan metodik yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. PISA, PIRLS va TIMSS formatidagi topshiriqlar talabalarda kreativ pedagogik faoliyatni sezilarli rivojlantiradi.
2. Kreativ topshiriqlar tizimi va interaktiv metodlar o‘qituvchi tayyorlash samaradorligini oshiradi.
3. Kreativ fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodika amaliyotga tatbiq etishga tayyor.

Tadqiqot natijalariga ko’ra tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Pedagogika oliy ta’lim yo‘nalishlariga “Xalqaro baholash dasturlariga tayyorlov” modulini joriy etish.
2. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun PISA-PIRLS-TIMSSga mos topshiriqlar banki yaratish.
3. Dars amaliyotlari jarayoniga kreativ pedagogika va tadqiqot metodlarini majburiy integratsiya qilish.
4. O‘qituvchilar uchun kreativlikni baholash mezonlari va rubrikalarini ishlab chiqish.
5. O‘quv jarayoniga loyihaviy, tadqiqotga asoslangan va dizayn tafakkuri texnologiyalarini keng joriy etish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jurayev R.T. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: «IQTISODMOLIYA», 2022. – B. 64–71.

2. Karimova, N. SH. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda matematika fanining imkoniyatlari. // Pedagogik mahorat, №4(58), – B. 45–49.
3. Kistabayeva G.D. Maktab o‘quvchilarini matematika darslarida kreativ fikrlashga o‘rgatish. Journal of Education, Ethics and Value, Vol. 3, No. 05, 2024. P. 97–100. ISSN: 2181-4392.
4. Nurullayeva, Sh.U. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirish omillari. Xalq ta’limi, №5. – B. 42–48.
5. Nisanbayeva, A.Q. (2021). Kreativ faoliyatni rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish. Pedagogika va psixologiya jurnali, №3. – B. 76–82.
6. Oxunjonova, O. (2019). Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. Ta’lim jarayonida innovatsiyalar, №4. – B. 95–100.
7. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades
NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
8. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
9. Teshaboyev, A. (2020). Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Ilmiy izlanishlar jurnali, №7. – B. 25–31.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti

Annotatsiya.
Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi yoritiladi. Kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv, integrativ metodlar, muammoli ta’lim hamda zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantiriladigan kompetensiyalar tahlil qilinadi. Oliy ta’lim jarayonida kreativ faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlari, didaktik modellar va tashkiliy-metodik omillar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ faoliyat, ijodiy yondashuv, kreativ kompetensiya, xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, integrativ metodlar, muammoli ta’lim, funksional savodxonlik, o‘quv-metodik ta’minot, xalqaro standartlar, ijodiy fikrlash, metodik yondashuv, real vaziyatga asoslangan topshiriqlar, pedagogik innovatsiyalar, kreativ pedagogika.

XXI asr ta’limi ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga moslashish, yangilik yaratish kabi kompetensiyalarni o‘quvchilar ongiga

singdirishni talab qiladi. Bunday vazifalarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs — boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidir. Shu bois pedagogika oliy ta’lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Kreativ faoliyat — bu shaxsning yangicha fikrlashi, noodatiy yechimlar topishi, innovatsion metodlardan foydalanishi, o‘quv jarayoniga ijodiy yondashish qobiliyatidir. Bunday faoliyatni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlar zarur.

Kreativlik — psixologik, pedagogik, ijodiy faoliyatning murakkab integrativ jarayonidir. U quyidagi komponentlardan iborat:

1. Divergent fikrlash – bir nechta muqobil yechimni ko‘ra olish;
2. Muammoli fikrlash – vaziyatga ijodiy yondashish;
3. Innovatsion yondashuv – yangi metodlar izlash, o‘zgacha yo‘l tanlash;
4. Metakognitiv ko‘nikmalar – o‘z fikrlash jarayonini boshqarish;
5. Pedagogik kreativlik – darsni noodatiy shakllarda tashkil etish.

Shu sababli kreativ faoliyatni rivojlantirish pedagogik muhit, motivatsiya, metodik ta’minot va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligini talab qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi tashkiliy, metodik, psixologik va texnologik omillar majmui tushuniladi.

Boshlang‘ich ta’lim fanlarni o‘qitishga asoslangan ta’lim jarayoni bo‘lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzdagi o‘qish, yozish, hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilish, ob’ektiv olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat. Biroq zamonaviy rivojlanish bosqichida boshlang‘ich ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’limni kreativ yondashuvlar bilan boyitish va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida yangicha fikrlovchi o‘quvchi shaxsini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy tizimi izchil rivojlanib borayotgan hozirgi davrda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, ayniqsa, kelajakda ushbu sohada faoliyat olib boradigan bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ fikrlovchi, innovatsion yondashuvga ega mutaxassis sifatida tayyorlash eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish va zamonaviy pedagogik talablarga mos holda qayta shakllantirish bir qator pedagogik vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarda o‘qish, o‘rganish, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni qo‘llash istagi va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha kreativ metodlardan foydalanish;

bo‘lajak pedagoglarda yuqori darajada shakllangan o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni kuchaytirish;

har bir o‘quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kreativ metodlar orqali egallashni tashkil etish;

iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda innovatsion, kreativ strategiyalardan foydalanish orqali ularning intellektual potensialini oshirishga qulay shart-sharoit yaratish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish qobiliyatini rivojlantirish, kommunikativ savodxonligini oshirish hamda pedagogik jarayonda kreativ muhit yaratish;

o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, kreativ faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi ta’limiy muhitni shakllantirish.

Ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri — ularni rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga tayangan o‘quv jarayoniga faol jalb etishdir. Maktabga ilk qadam qo‘ygan bolalarning yosh xususiyatlariga mos kreativ metodlarni tanlay oladigan, psixologik-pedagogik qonuniyatlarni chuqur anglaydigan, dars jarayonida o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantira oladigan o‘qituvchilarni tayyorlash bugungi kun talabi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ faoliyatga yo‘naltirish, ularni yangicha fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarni nostandart yondashuvlar bilan hal qila oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va o‘rganishga qaratilgan faoliyat shakllanishida o‘qituvchining kreativ yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘quvchilarning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi jadal tarzda rivojlanadi, ularning bilimlarni egallashi esa ijodiy faoliyatning takomillashuviga xizmat qiladi. Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi bo‘lgan o‘quvchilarda o‘qish, yozish, hisoblash, atrof-muhit bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash, nutq madaniyati hamda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining kreativi va pedagogik mahorati asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa ta’lim tizimida kreativ pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik jarayon talablariga to‘liq tayyorlashni taqozo etadi.

Boshlang‘ich ta’limning ***asosiy maqsadi:*** kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘qish, yozish va hisoblashga o‘rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat.

Talabalarda egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va ob’ektiv tarzda baholay olishga oid mas’uliyat ham shakllangan bo‘lishi kerak. Talabaning o‘zi berilgan o‘quv materialini modellashtira olish ko‘nikmasiga ega

bo’lishi zarur. Buning uchun talabalarda xayol, faraz qila olish ko’nikmalari ham shakllangan bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda o‘qishga, o‘rganishga yo‘naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, talabalarning rivojlanishlarida o‘yin, sport bilan shug‘ullanish, ijodiy faoliyat ham asosiy o‘rin egallaydi. Lekin ta’limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga – bolani kompleks rivojlantirishga qaratiladi. Ayni shu rivojlantiruvchi ta’lim jarayoni talabaning ongi, tafakkurini rivojlantirishga hamda uning shaxsiy taraqqiyotiga keng imkoniyat yaratadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi va o‘qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg‘or tajribalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, shu orqali talabalarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Bunday talabalar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari nazarda tutiladi. Buning uchun talabalarda yuqori darajadagi o‘qish mayllari shakllantirilishi lozim. Ma’lumki, barcha talabalar o‘ziga xos iqtidorga ega bo‘ladilar. Talabalarning iqtidorlilik darajalari haqida gapirilganda tengdoshlariga nisbatan yuqori idrok etish, kreativ fikrlash darajasiga ega bo‘lgan talabalar tushuniladi. Talabaning funksional jihatdan tayyorgarlik darajasini psixologiya xizmati (uning tarkibida psixolog, vrachi, logoped hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lishi shart) aniqlashi lozim. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim bosqichida shaxsning kreativ faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u pedagogik va psixologik shart - sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar bo‘lib, o‘zaro bog‘liq va integratsiyalashgan holda talabaning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlilidan aniqlanishicha mazkur omillar bir – birini mazmunan uzviyligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

10. Karimova, N. SH. (2021). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda matematika fanining imkoniyatlari. // Pedagogik mahorat, №4(58), – B. 45–49.
11. Kistabayeva G.D. Maktab o‘quvchilarini matematika darslarida kreativ fikrlashga o‘rgatish. Journal of Education, Ethics and Value, Vol. 3, No. 05, 2024. P. 97–100. ISSN: 2181-4392.

12. Nurullayeva, Sh.U. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirish omillari. Xalq ta’limi, №5. – B. 42–48.
13. Nisanbayeva, A.Q. (2021). Kreativ faoliyatni rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish. Pedagogika va psixologiya jurnali, №3. – B. 76–82.
14. Oxunjonova, O. (2019). Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. Ta’lim jarayonida innovatsiyalar, №4. – B. 95–100.
15. Teshaboyev, A. (2020). Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Ilmiy izlanishlar jurnali, №7. – B. 25–31.
16. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades
NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
17. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
18. Brown P., Wyatt J. Design Thinking in Education: Creativity for Innovation. – London: Routledge, 2020. – 165 p.
19. Singapur Ta’lim Vazirligi. Creative Pedagogy and ICT in Primary Education. – Singapore: MOE Press, 2018. – 112 p.

BOSHLANG‘ICH SINFDA STEAM YONDASHUVI ASOSIDA MATEMATIKA O‘QITISH TAJRIBASI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo’qon davlat universiteti boshlang’ich ta’lim kafedrasi v,b,dotsenti,
Hoshimova Zilolaxon Nizomiddin qizi
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida matematika fanini STEAM yondashuvi asosida o‘qitishning afzalliklari, o‘quvchilarda kreativ va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, amaliy tajriba asosida olingan natijalar tahlil etilgan. Maqola zamonaviy ta’lim jarayonida integrativ yondashuvlarning samaradorligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: STEAM, integratsiya, matematika ta’limi, kreativ fikrlash, loyiha asosida o‘qitish, innovatsion metodlar, innovatsion fikrlash, pedagogik kompetentlik, metod va vosita, integrativ yondashuv, sinergetik yondashuv, kreativ yondashuv, didaktik o‘yinlar, motivatsion, ko‘nikmalar va malakalar, pedagogik faoliyat, kompetensiya

Bugungi kunda ta’lim tizimida yangicha yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadallashmoqda. Ayniqsa, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki amaliy ko‘nikma, muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlash va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika fani orqali o‘quvchilarda tahliliy tafakkurni, mantiqiy mulohaza yuritish ko‘nikmasini va muammolarga ilmiy yondashuvni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, matematika ta’limini STEAM asosida tashkil etish o‘quvchi faoliyatini interfaol va ijodiy yo‘nalishda olib borish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — boshlang‘ich sinflarda matematika fanini STEAM yondashuvi asosida o‘qitishning tajribasini o‘rganish, uning afzalliklarini tahlil qilish va samaradorligini aniqlashdan iborat.

STEAM – bu fanlararo integratsiyaga asoslangan o‘qitish tizimi bo‘lib, quyidagilardan tashkil topgan:

- S – Science (fan, ilm)
- T – Technology (texnologiya)
- E – Engineering (muhandislik)
- A – Art (san’at, dizayn)
- M – Mathematics (matematika)

Dastlab bu konsepsiya 2000-yillarning boshida AQShda ta’lim tizimida STEM (ya’ni san’atsiz varianti) sifatida paydo bo‘lgan. Uning maqsadi — o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, muammolarni yechish, texnik fikrlash, ixtirochilik va amaliy tajriba asosida o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish edi.

Keyinchalik unga “A – Art” (san’at) elementi qo‘shildi va bu yondashuv STEAM shaklini oldi. Chunki o‘quvchilarni faqat texnik emas, balki ijodiy va estetik fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash zaruriyati paydo bo‘ldi.

STEAM ta’limi o‘z oldiga quyidagi **asosiy maqsadlarni** qo‘yadi:

1. O‘quvchilarda fanlararo integratsiya asosida bilim hosil qilishni ta’minlash.
2. Amaliy faoliyat orqali o‘rganish — “bilimni qo‘lda his qilish” tamoyilini joriy etish.
3. Muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyatini rivojlantirish.
4. O‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni shakllantirish.
5. O‘quvchilarga real hayotdagi muhandislik, texnika va san’at bilan bog‘liq jarayonlarni tushuntirish.

S — Science (Fan) O‘quvchilar tabiatdagi hodisalarni kuzatish, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish, tajribalar o‘tkazish orqali ilmiy fikrlashni o‘rganadi.

Matematikaga bog‘lab, masalan, “suyuqlik hajmini o‘lchash” yoki “harorat o‘zgarishini grafikda ifodalash” kabi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

T — Technology (Texnologiya) Bu komponent o‘quvchilarga texnik vositalar, dasturlar, raqamli platformalar bilan ishlashni o‘rgatadi. Masalan, “matematik masalalarni raqamli kalkulyator yordamida tahlil qilish” yoki “Excelda jadval tuzish” orqali matematika texnologiya bilan uyg‘unlashadi.

E — Engineering (Muhandislik) Muhandislik — muammolarni yechish va konstruktsiyalar yaratish faoliyatidir. Matematika darslarida bu, masalan, “ko‘prik modeli yasash”, “uchburchak shaklining mustahkamligini tekshirish” kabi amaliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi.

A — Art (San’at) San’at elementi STEAM yondashuviga estetik fikrlash, dizayn, ijodiy qarash olib kiradi. Matematika bilan bog‘liq misol: “simmetriya asosida naqsh yaratish”, “proporsiya va rang muvozanatini hisoblash”, “grafik dizayn elementlarida geometriyani qo‘llash”.

M — Mathematics (Matematika) Matematika — barcha STEAM yo‘nalishlarining “asosi”. U o‘lchov, hisob-kitob, tahlil, modellashtirish va mantiqiy fikrlashni ta’minlaydi. Har bir STEAM loyihasida matematik element bo‘ladi — masalan, uzunlik o‘lchash, vaqtni hisoblash, diagramma chizish, nisbatni topish va hokazo.

Mazkur yondashuv o‘quvchini faqatgina bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Matematika bu jarayonda barcha yo‘nalishlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, o‘quvchi oddiy geometrik shakllarni o‘rganish orqali muhandislik loyihasini yaratishi, o‘lchovlar bilan ishlash orqali texnologik modelni ishlab chiqishi, san’at orqali esa uni estetik ko‘rinishda ifodalashi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda STEAM asosida matematika o‘qitish bu o‘quvchilarda tafakkur va ijodkorlikning shakllanish bosqichi. Shu bois, matematika darslarida STEAM elementlarini kiritish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1. Loyiha asosida o‘qitish.

Masalan: “Uy qurilishi loyihasi” mavzusida o‘quvchilar geometrik shakllardan foydalanib uy modeli yasaydi, uning perimetri va yuzini hisoblaydi.

2. Amaliy tajribalar.

“Harorat o‘zgarishi” mavzusida o‘quvchilar har kuni o‘lchov olib, natijalarni jadvalga kiritadi va grafigini chizadi. Bu orqali ular matematika, fan va texnologiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadi.

3. Ijodiy yondashuv.

“San’at va matematika” integratsiyasi orqali o‘quvchilar simmetriya, naqsh, proporsiya kabi tushunchalarni amalda qo‘llaydi.

2024–2025 o‘quv yili davomida Toshkent shahridagi 203-maktabning 3-“B” sinfida “STEAM yondashuvi asosida matematika o‘qitish” tajribasi o‘tkazildi.

Tajriba davomida qo‘llanilgan faoliyatlar:

- “Mini-loyiha” asosida masalalar yechish;
- 3D qog‘oz modellar yasash orqali geometrik shakllarni o‘rganish;

- “Raqamlar dunyosi” interfaol o‘yinini tashkil etish;
- “Matematik laboratoriya” mashg‘ulotlarini o‘tkazish.

Natijalar tahlili:

- Darsda o‘quvchilarning faolligi 75% dan 92% gacha oshdi.
- Mustaqil fikrlash darajasi 1,5 barobar yuqoriladi.
- O‘quvchilar orasida matematika faniga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada kuchaydi.
- Masalalarni vizual modellashtirish ko‘nikmalari shakllandi.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan samaraliroq va o‘quvchilarda chuqurroq tushuncha hosil qiladi.

Tajriba natijalaridan ko‘rinadiki, STEAM yondashuvi orqali matematika fanini o‘qitish o‘quvchilarda quyidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqardi:

- mantiqiy va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi;
- o‘z fikrini asoslay olish ko‘nikmasining paydo bo‘lishi;
- jamoaviy ishlash va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatining ortishi;
- matematika, fan, texnologiya va san’at o‘rtasidagi aloqani tushunish.

O‘qituvchilar uchun esa bu yondashuv darslarni yanada ijodiy, mazmunli va o‘quvchi markazli shaklda tashkil etish imkonini beradi.

STEAM yondashuvi asosida matematika o‘qitish:

- o‘quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiradi;
- amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi;
- fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi;
- ta’lim jarayonini interfaol, integratsiyalashgan va ijodiy ko‘rinishga keltiradi.

Demak, boshlang‘ich sinflarda STEAM yondashuvini joriy etish nafaqat o‘quvchilarning bilim sifatini oshiradi, balki ularni XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Karimova N. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent, 2023.
2. Xolmatov R. “Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi”. – Toshkent, 2021.
3. Yakovleva N. “STEAM education in elementary schools”. – Oxford University Press, 2020.
4. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. *“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6*, 119.

5. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

6. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1354-1365.

7. Roxataliyevna, A. N. (2025). MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISHDA MANTIQIY SAVOLLARNI AHAMIYATI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(5), 649-653.

8. Roxataliyevna, A. N. (2024). MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV SAVOLLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 50), 343-347.

SAVOD O‘RGATISHDA ANALIZ-SINTEZ TOVUSH METODINING AHAMIYATI

Abdulxayeva Musharraf Usmonjon qizi
QDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Mirzahalilova Gulchiroyxon Davronbek qizi
QDU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish davrida o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan turli metodlar,savod o‘rgatish jarayoni bosqichlari haqida bayon qiladi. Bundan tashqari savod o‘rgatish metodlaridan qanday foydalanish tamoyillari hamda savodga o‘rgatishdagi alifbegacha va alifbe davlari haqida ham qisqacha so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: Savod o‘rgatish davri, analitik-sintetik,boshlang‘ich sinf, metod, alifbe, elementar o‘qish, o‘qish, yozish.

Savod o‘rgatish ona tili o‘qitishning eng qadimiy tarmog‘idir. Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashdi. Shu bois analitik-sintetik tovush metodi an’anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonida vujudga kelgan tamoyillarga ega.

Savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko‘ra ta’limiy va o‘stiruvchi xarakterda bo‘ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o‘sishini ta’minlaydi, o‘qishning ongli bo‘lishini talab etadi.

Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

a) savod o‘rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) o‘qish birligi sifatida bo‘g‘in olinadi, bo‘g‘in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o‘rgatish jarayoni 4 oy davom etadi.

Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo‘linadi:

- alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta);
- alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o‘quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o‘quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o‘stirishga oid mashqlar o‘tkazib, fonematik eshitishni o‘stirishdan iboratdir.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o‘z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo‘linadi:

1. Harf o‘rganilmaydigan bosqich (1 hafta).

2. Unli tovush va harf o‘rganiladigan bosqich (1 hafta).

Alifbo davri. Bu davr 31-dekabrgacha davom etib, unda o‘quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo‘g‘inga bo‘lish, bo‘g‘in chegarasini aniqlash, bo‘g‘indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo‘g‘in tuzish va o‘qish, bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi.

Alifbo davrini o‘rganiladigan tovush-harfning va o‘quv materialining murakkablik darajasiga ko‘ra 3 bosqichga ajratish mumkin:

1) unli tovush-harflar, ovozdor, sirg‘aluvchi undoshlar, o-na, a-na, it, in, bi-lan tuzilishidagi so‘zlar o‘rganiladigan bosqich; 2) artikulatsiyasi qiyin bo‘lgan r, k, v, kabi undoshlar va yo‘lbars, do‘st, rasm kabi tuzilishdagi so‘zlar o‘rganiladigan bosqich; 3) o‘rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ng, sh, ch, 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (`) va jo‘ja, jurnal, jirafa, tong, so‘ng, bodring, choynak, shudring va shu kabi so‘zlarni o‘qishga o‘rgatiladigan bosqich.

Alifbo davrining oxirida o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur:

a) hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda to‘g‘ri talaffuz qilishi;

b) so‘zning bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, so‘zdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni so‘z va bo‘g‘inga ajrata olishi;

d) kesma harf va bo‘g‘inlardan so‘z tuza olishi va o‘qishi;

e) 2-3-4 bo‘g‘inli so‘zlarni yaxlit, adabiy-orfoepik talaffuz bilan o‘qishi;

f) gaplarni ohangiga rioya qilib o‘qishi;

g) o‘zi o‘qigan matnning mazmunini tushunib, ongli o‘qishi;

h) o‘qigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi;

i) o‘qigan matnga sarlavha topa olishi;

j) to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish malakalariga ega bo‘lishi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, savod o‘rgatish davri murakkab davr ekanligini hamisha o‘qituvchi inobatga olish amaliy ish ko‘rishi lozim. Va bunda albatta, qo‘llaydigan metodlarining mazmunini chuqur bilib, o‘rinli foydalanishi o‘quvchilarni zarikib qolmasligini ta’minlaydi. Bundan tashqari o‘quvchilarning tez fursatda savod chiqarib, alifbeni o‘rganish borasidagi bilim, ko‘nikmalarini tezda rivojlantiradi ham.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009. - 163 b.2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2009. - 70 b.

3. Sh.U.Sariyev, G.U.Raxmanova. O‘zbek adabiyotini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiya usullarini qo‘llash. – T.: Science and innovation, 2022. – 531-533-b.

4. Xo‘jayev, Sh. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.

5. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

6. Tojiboyeva, D. Savod o‘rgatish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

7.Qosimova Aziza Farhod qizi. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash tajribasi: muammo, yechimlar, istiqbollari. 326-330-betlar.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KOMPETENSIYAGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Abduraxmonov Shoqosim [1]
Rasulova Marjonabonu Rashidjon qizi[2]
Ismoilova Sayyoraxon Yusufjon qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi asosida boshlang‘ich sinflarda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ta’lim

jarayoniga fanlararo integratsiyani joriy etish, loyiha ishlari, ijodiy muammolarni hal qilish, tajriba va kuzatuv asosidagi o‘quv faoliyatlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarda tizimli fikrlash, texnik va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba, innovatsion pedagogik texnologiyalar, STEAM metodik modellarining boshlang‘ich ta’limga tatbiqi tahlil qilingan va ularni samarali amalga oshirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, STEAM yondashuvi, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, fanlararo integratsiya, innovatsion pedagogika, loyiha asosida o‘qitish, ijodiy fikrlash, ilmiy tadqiqot faoliyati, muammoli ta’lim.

STEAM ta’lim tizimi nima?

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: **STEAM bu — S — science**, **T — technology**, **E — engineering**, **A — art** va **M — math**. Ingliz tilida bu shunday bo‘ladi:

tabiiy fanlar, **texnologiya, muhandislik**, **san’at** va **matematika**.

Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM yondashuvi o‘quv samaradorligiga qanday ta’sir qiladi?

Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari «uqib oladilar».

STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.

STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish etarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta’lim va ta’limga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartirmoqda.

Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, talabalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi, ya’ni. bu butun ta’lim tizimi nimaga intilishini.

Ta’limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo‘ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e’tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo‘shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O‘qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog‘i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi.

Dunyo o‘zgarib bormoqda, hatto ta’lim bir joyda turmasa ham.

So‘nggi o‘n yilliklardagi o‘zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko‘plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo‘ladi, shuning uchun zamonaviy o‘qituvchilar o‘qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo‘qmi deb o‘ylashlari kerak.

O‘zingizning g‘oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g‘oyani haqiqatga aylantiradi.

Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu maktab o‘quvchilariga nafaqat ba’zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O‘sha. haqiqatda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi — Massachusets Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori «**Mens et Manus**» (Aql va qo‘l). Massachusets Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o‘rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba’zi ta’lim muassasalarida STEAM o‘quv markazlarini yaratdi.

Statistikaga ko‘ra, 2011 yildan buyon STEAM-kasblarga bo‘lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo‘lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talabni ko‘rsatadi.

Lekin bunday yuqori talab nima bilan bog‘liq? Ko‘pgina mamlakatlarda STEAM-ta’lim ba’zi sabablarga ko‘ra ustuvor ahamiyatga ega:

Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O‘zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo‘ladi.

Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarga ega bo‘lamiz, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo‘ladi.

Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta’lim va tajribaga muhtoj bo‘ladi.

Integratsiyalashgan ta’lim

Xo‘sh, bu ta’lim tizimi va fanlarni o‘qitishning an’anaviy usuli o‘rtasidagi farq nima? STEAM-ta’lim o‘quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo‘llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo‘yicha talabalar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o‘z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan robotlarni o‘rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalar ishlatiladi.

2014-yilda Quddusda bo‘lib o‘tgan «STEAM forward» xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

- **Bolalarni STEAMga jalb qilish.** Ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog‘chalariga kiritish kerak.
- **Fan tili ingliz tilidir.** Agar ilm-fanni o‘rganish va olim bo‘lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.
- **Qizlar uchun Steam-ta’lim dasturlari kerak.** Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibliligi tufayli, o‘g‘il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.
- **Science is fun!** Ilm-fan quvnoq bo‘lishi kerak, u o‘quvchilar uchun qiziqarli va o‘ziga jalb qiluvchi bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta’kidlashni istardikki, an’anaviy o‘qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o‘rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o‘qishni osonlashtiradi.

Bolalarni STEAMga jalb qilish, ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar boğchasiga kiritish zarur.STEAM ta’lim tizimi orqali bolada kreativlik ,qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat- muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi . «STEAM fikrlash» bolalikdan boshlanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , STEAM- tabiiy fanlar ,texnologiyalar, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. STEAM texnalogiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi. Bolalar o‘zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo‘l keladi. Bu esa STEAM texnalogiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o‘rni borligini ko‘rsatadi. STEAM texnologiyalarining bugungi kunda ommalashayotganini va samaradorligini, ta’limdagi afzalliklarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonlarida STEAM texnologiyalari qo‘llash tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

19. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

20. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISH

Abduraxmonov Shoqosim [1]
Ortiqova Madina Bahodirjon qizi[2]
Obidova Zeboxon Alimardon qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini didaktik o‘yinlar orqali mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Didaktik o‘yinlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati va psixologik ta’siri ilmiy tahlil qilingan.

O‘yin faoliyati asosida muammoli vaziyatlar yaratish, topqirlik, tahlil, solishtirish, umumlashtirish kabi aqliy jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar bayon etilgan. Maqolada boshlang‘ich sinflarda matematik va mantiqiy o‘yinlardan samarali foydalanish tajribasi, ularning ta’lim sifati va o‘quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli misollar asosida ochib berilgan hamda o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, didaktik o‘yinlar, mantiqiy fikrlash, kreativ tafakkur, o‘yin texnologiyalari, metodika, kompetensiya, aqliy rivojlanish, ta’lim jarayoni, interfaol usullar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida har bir o‘quvchining darslarda faol qatnashishini ta’minlovchi mashg‘ulot shakllari alohida o‘rinni egallaydi. Bu masalalarni ta’limning o‘yinli shakllari texnologiyasi orqali muvaffaqiyatli hal etish mumkin.

O‘yin tashqi tomondan tashvissiz va yengil ko‘rinadi. Aslida esa, u o‘yinchidan maksimum energiya sarflashini, fikrlashni, o‘zini tuta bilishni, mustaqil harakat qila olishni talab etadi.

Ta’limning o‘yinli shakllari bilim o‘zlashtirilishini barcha darajalaridan foydalanishga imkon beradi, masalan, ijodiy-izlanish faoliyati. Ijodiy-izlanish faoliyati juda samarali hisoblanib, unda o‘quvchi ta’lim olishning usullarini o‘zlashtiradi.

O‘yin ko‘pfunksionaldir. Biz o‘yinlarning faqat didaktik, ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi funksiyalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Didaktik o‘yinlar – bu atamani bevosita o‘yinlarga nisbatan ishlatish mumkin, chunki u maqsadli ravishda didaktikaning bo‘limiga kiradi.

Hozirgi vaqtda metodik adabiyotlarda yetarli miqdordagi, u yoki bu tasnifiy mezonlariga mos keladigan ta’limiy o‘yinlarning tasnifiy va tizimlashtiruvchi ko‘rinishlari mavjud. Masalan, ular quyidagilarga bog‘liq bo‘lishi mumkin:

-ta’limiy o‘yinlarning maqsad va vazifalari;
- o‘tkazilish shakllari;
- tashkillashtirilish usullari;
- murakkablilik darajasi;
- ishtirokchilar sonining tarkibi.

O‘tkazilish shakliga ko‘ra o‘yinlar quyidagilarga bo‘linadi: predmetli, harakatlanuvchan, syujetli yoki holatli, rolli, musoboqa-o‘yin, intellektual o‘yinlar (rebuslar, krossvordlar, viktorinalar), o‘zaro ta’sir qiluvchi (kommunikativ, interfaol) o‘yinlar.

Tashkil qilinishiga ko‘ra o‘yinlar kompyuterli va kompyutersiz, yozma va og‘zaki, tayanchli va tanchsiz, immitatsion-modellashtiriluvchi va kreativ hamda boshqalar.

Barcha o‘quv o‘yinlari, amallarining bajarilishidagi murakkablik darajasiga qarab, oddiy (yakka) va murakkab (ko‘p) holatlilarga, o‘tkazilish vaqtiga qarab, ular

davomli va davomli bo‘lmaganlarga bo‘linadi.

Ishtirokchilarning tarkibiy soniga qarab, o‘yinlar yakka tartibdagi, juftliklardagi, gruhlardagi, komandali va jamoalilarga bo‘linadi. Ma’lumki, qayd etilganlardan birinchisi, ya’ni yakkatartibdagi o‘yinlar o‘quvchilarga nisbatan yakkatartibdagi yondashuvni amalga oshirilishini va ta’lim oluvchini ma’lumot manbasi bilan “muloqotini” nomoyon etadi. Qolgan o‘yinlarda esa, sheriklarni bir-birlari bilan muloqot qilishi, masalan, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida yakka tartibdagi kabi tabaqalashtirilgan yondashuvning amalga oshishi mumkin.

O‘quvchilar intellektni rivojlantiruvchi, bilish faolligini oshiruvchi bir necha o‘yinlar guruhi mavjud.

I guruh – predmetli o‘yinlar, o‘yinchoqlar va predmetlar bilan manipulyatsiya qilish sifatida. O‘yinchoqlar – predmetlar – orqali bolalar shakllarni, rangni, hajmni, materialni, hayvonot dunyosini, odamlar dunyosini va boshqalarni bilishadi, o‘rganishadi.

II guruh – ijodiy, syujetli-rolli o‘yinlar, ularda syujet – intellektual faoliyat shaklidir.

“Baxtli tasodif”, “Zakovot” va boshqa shu kabi inttellektual o‘yinlar. Ma’lumotlar – o‘quv ishlarida bilish tavsifiga ega, lekin, eng avvalo darsdan tashqaridagi ishlarda u muhim tarkibiy qismdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda rolli o‘yinlar katta ahamiyat kasb etadi. Ular shu bilan tavsiflanadiki, o‘quvchi o‘ynab turib, o‘ziga ma’lum bir aniq rolni oladi va tasavvur qilinadigan holat bo‘yicha, aniq bir insonni odatlarini takrorlab, harakatlarni amalga oshira boshlaydi. Syujetlarni turli-tuman bo‘lishligiga qaramasdan, uning ortida bitta va faqat bitta mazmun yashiringan bo‘ladi – inson faoliyati va insonlarning jamiyatdagi munosobatlari.

Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘z o‘yinlari davomida, ularni real hayotda jalb qiladigan insonlarning sifatlariga ega bo‘lishga harakat qilishadi. Shu sababdan bolalarga qahramonlik, botirlik, ochiqko‘ngillilik bilan bog‘iq bo‘lgan rollar yoqadi. O‘quvchilar haqiqiy hayotda bajara olmayotgan ishlarini ifodalashga harakat qilishib, o‘z-o‘zlarini rolli o‘yinlarda tasvirlay boshlashadi. Masalan, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchi o‘ziga yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchi rolini oladi. Bunday o‘yindagi ijobiy holat shundan iboratki, yaxshi o‘quvchi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan talablarni bola o‘z oldiga qo‘ya boshlaydi. Shunday qilib, rolli o‘yinni boshlang‘ich sinf o‘quvchisini o‘z-o‘zini tarbiyalovchi usuli sifatida qarashimiz mumkin.

III guruh o‘yinlari – bolalarni bilish faolligini rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalaniladi – tayyor qoidalardan iborat o‘yinlar bo‘lib, ular odatda *didaktik o‘yinlar* deb ataladi.

Qoidaga ko‘ra, ular o‘quvchidan jumboqni yechishni, topishmoqni topishni, eng asosiysi – predmetni bilishni talab qiladi. Didaktik o‘yin qanchalik mahoratli tuzilgan bo‘lsa, didaktik maqsad shunchalik mohirona yashiringan bo‘ladi. O‘yinda joylashtirilgan bilimlarni o‘quvchi o‘zi bilmagan holda, beixtiyoriy ravishda, o‘ynab

turib o‘zlashtiradi.

IV guruh o‘yinlari – quruvchilikka, mehnat qilishga, texnikaga, konstruktorlikka doir o‘yinlar. Bu o‘yinlar kattalarning kasbiy faoliyatini aks ettiradi. Mazkur o‘yinlarda o‘quvchilar yaratuvchanlik jarayonini o‘zlashtirishadi, ular o‘z ishlarini rejalashtirishga, kerakli materiallarni tanlashga, o‘zini va boshqalar faoliyati natijalarini tanqidiy baholashga, ijodiy masalalarni yechishga o‘rganadilar. Mehnatdagi faollik bilishga bo‘lgan faollikni oshiradi.

V guruh o‘yinlari, intellektual o‘yinlar bo‘lib – ruhiy doiraga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘yin-mashqlar, o‘yin-treninglardir. Bu o‘yinlar musoboqalarga asoslangan bo‘lib, taqqoslash yo‘li orqali o‘ynayotgan o‘quvchilarga ularni tayyorgarligi darajasini, mukammalikka erishish yo‘llarini ko‘rsatadi, ya’ni bilishga bo‘lgan faolliklarini oshiradi.

VI guruh o‘yinlari – alohida guruh o‘yinlari bo‘lib, ular harakatlanuvchi o‘yinlar deb ataladi. Ular kichik maktab yoshida sezilarli o‘rinni egallaydi. Bolaning organizmi o‘suvchan bo‘lganligi sababli u har doim harakatni talab qiladi. Bolalar rohatlanib to‘p o‘ynashadi, chopishadi, sakrashadi. Turli harakatlar modda almashinuviga, qon aylanishiga va nafas olinishini yaxshilanishiga yordam beradi. Harakatlantiruvchi o‘yinlar shaxsiy sifatlarni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi: ularda iroda, fikrlash, jasurlik rivojlanadi. Jamoaviy sport o‘yinlari va musoboqalar jamoada harakatlanish ko‘nikmasini, o‘rtog‘ini qo‘llab-quvvatlanishni, sinf va maktab sha’ni uchun kurashishni rivojlantiradi.

Lekin, o‘qituvchi va sardor musoboqalar bolalarning o‘yin faoliyatini tashkillashtirishda samarali vosita ekanligi unutmagan holda uning mahsuldorligini oshirish uchun alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qilishligini esda saqlashlari zarur. Hech qachon musoboqalar maqsad bo‘lib qolishligiga yo‘l qo‘ymaslik, ular faqat bir istak uchun – birinchi o‘rinni egallash, sovg‘a olish harakatida bo‘lmasliklari lozim. Bu holda u salbiy jihatlarni: man-manlikni, hasadni va boshqalarni shakllantiradi. O‘quvchilar musoboqalarini samarali o‘tkazilishini muhim shartalari bo‘lib quyidagilar:

Ularni jamoaviy faoliyat sifatida tashkillashtirilishi; buning uchun musoboqa shartlari alohida bolalarga emas, balki barcha ishtirokchilar oldiga qo‘yilishi lozim;

Erishilgan natijalarni to‘g‘ri hisob-kitobini olib borilishi: o‘z natijalarini nisbatan yaxshilab borayotgan bolalarni rag‘batlantirib, ularni muvaffaqiyatlarini baholab borish;

Tarbiyaviy samarani baholash – musoboqa jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirgan munosobatlar shakllari va ko‘nikmalari; bunday baholashda o‘yindagi barcha ishtirokchilar g‘olib bo‘lishi mumkin;

O‘yin faoliyatining barcha oltita ko‘rinishidan foydalana olgan o‘qituvchi, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkillashtirishda juda katta miqdordagi usullariga ega bo‘lgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

16. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

17. . Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

18. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

19. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

20.. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH

Abduraxmonov Shoqosim [1]
Ashuraliyeva Mohinur Ergashali qizi[2]
Omonova Mavluda Alisher qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida kreativ yondashuvni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli vazifalar, mantiqiy topshiriqlar, STEAM

elementlari, loyiha asosida o‘qitish va interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, kreativ tafakkur mashqlari, noodatiy matematik vazifalar, vizual va manipulyativ vositalardan foydalanish usullari, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangicha yechimlar topish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tajribaviy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari kreativ yondashuvni qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligi, motivatsiyasi va dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, matematika darsi, kreativ yondashuv, ijodiy fikrlash, muammoli ta’lim, mantiqiy topshiriqlar, STEAM elementlari, kompetensiya, interfaol metodlar, innovatsion pedagogika.

Zamonamizda kundan-kunga o’zgarib, tanib bo’lmas darajada rivojlanib boryapdi va har bir sohada davr talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan, bizning kelajagimiz bo’lmish – yosh avlod bilan ishlaydigan o’qituvchilarga ham ko’plab talablar va mas’uliyat yuklanmoqda. O’qituvchi zamonaviy o’quvchilarning nima bilan yashayotganini tushinishi uchun ham bugungi kunda ro’y beryotgan kashfiyotlarni, yangiliklarni o’zlashtirishi, o’rganishi darkorligi ko’plab vaziyatlarda o’z isbotini topmoqda.

Jamiyatning maktab oldiga qo’yayotgan talablari kun sayin ortib, mazkur talablarga to’g’ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o’qituvchining zimmasidadir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biri bo’libgina qolmay, balki hozirgi jamiyatimizda o’qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxsdir. U zamonaviy bilimlarni egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo’lishi lozim zero, kechiktirib bo’lmas jarayon bo’lmish shaxsni intellektual, ma’naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladigan shaxs ham o’qituvchidir. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o’qituvchidan nafaqat yuqori malakani balki doimiy kasbiy rivojlanishni, o’z ishiga ijodiy yondashishni ham talab etayotganligini ko’rmoqdamiz. O’qituvchining kreativligi o’z tajribasini qayta ko’rib chiqishi, yaxshilashi hamda barchaga ma’lum narsalarni o’zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga egadir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab mazkur tushunchaning mazmuniga to’xtalib o’tishimiz kerak. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Demakki, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama keng fikrlash bilan bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi bo’lib, u shaxs ega bo’lgan bilimlarning ko’pqirrali

ekanligida emas, balki yangi g’oyalarga intilish, o’rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o’zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo’ladi. Berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo’lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g’oyaning paydo bo’lishi asosiy shart hisoblanadi. Ko’pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayolotiga keladi. Buning uchun, eng avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Jahon ta’limi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti ta’limning takomillashishi va taraqqiy etishi bilan chambarchas bog’liqdir. Bizning ta’lim tizimimizda ham tezkorlik bilan islohotlar olib borilmoqda. O’zbekiston ta’lim tizimiga kreativ yondashuv va qarashlarning kirib kelishi uning jahon ta’lim tizimi bilan integratsiyalashib borayotganligidan dalolat beradi. Bugun boshqa sohalardagi kabi ta’lim tizimiga ham kreativlik tushunchasi kirib keldi va mazkur tushunchani ta’lim tizimimizning har bir bosqichimizda tilga olmoqdamiz.

Farobiy shaxs kamolotida jamoaning ta’siri alohida ekanligiga e’tibor qaratadi: “Har bir inson o’z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko’p narsalarga muhtoj bo’ladi, u bir o’zi bunday narsalarni qo’lga kirita olmaydi, ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug’iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo’lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o’zaro yordamlashuvchi ko’p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o’z tabiati bo’yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo’lgan narsalarni yetkazib beradi”.

Insonni kamol toptirish jarayonini inson o’z hayoti davomida ilm, hunar o’rganish, axloqiy qonun-qoidalarni egallashi va san’atni hayotiy tajribasi bilan boyitishi orqali sodir bo’lishini ta’kidlaydi.

Ma’rifatparvar olimlarimizdan biri Abdulla Avloniyning ilm, ijod va ma’naviy va jismoniy komillikka, maqsadga erishmoqlikning asosiy shartlari – sa’y va g’ayratdir deb ta’kidlab, shunday deydilar: “Bir ishga mashg’ul bo’lgan kishilar vaqtning o’tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat o’tkarmak qiyomatdan qiyindur. G’ayrat vujudimizga quvvati mas’ud va baxtiyor bo’lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa’y qilub, o’z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo’lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo’lmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog’lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsadlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo’lub xorlikda qolurlar”.

Demak, kreativlik individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida kreativlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlik shaxsni

yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, o’tkir zehnni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishda eng muhim omil sifatida aks etadi.

“Kreativlik” tushunchasi o’zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G’arb olimlari kreativlikni yangilik yaratish deb hisoblanadi. G’arbliklar kreativlik negizida qiziquvchanlik, noan’anaviylik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg’usi va erkinlik mavjud bo’lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharq olimlari esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug’ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g’arb va sharq olimlarining kreativlik borasidagi qarashlari turli xil bo’lsa-da, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori darajada baholaydilar.

“Kreativ tafakkur bir vaqtning o’zida ham alohida xodimning tafakkur shakli va butun jamoaning faoliyat printsipi bo’lishi mumkin bo’lgan metodikaning birligi” sifatida Nuaye Didye ta’riflash bilan birga kreativ tafakkurning bir necha jihatlari bilan tavsiflanishini bayon etadi: an’anaviy rakursni o’zgartirib, vaziyatga boshqa bir tomondan yondashish; doimiy qo’llanilib kelingan yondashuv va ishlab chiqilgan qarorlardan voz kechish; qo’yilgan savollarga nostandart javob topish; turli yondashuvlardan foydalanish va natijada yangi mahsuldor g’oyalarni ishlab chiqish.

Kreativ shaxs. Muammolar yechimini topishga noan’anaviy yondashuvga, nostandart yechimlar topishga, mavjud stererotiplardan chekinishga qodir bo’lgan va buning uchun ichki motivatsiyaga ega bo’lgan shaxs.

Kreativ jarayon. Shaxsga kreativ tafakkur yuritish va muammolarning nostandart yechimini topish jarayoni. Bu jarayonda foydalaniladigan metod va metodikalar, vositalar.

Kreativ muhit. Kreativlikni namoyon etish uchun yaratilgan shart-sharoit, muhit, stimul beruvchi vaziyatlar, insonlar hamda tashkiliy tadbirlar. yaratilgan shart-sharoit, muhit, stimul beruvchi vaziyat va insonlar, tashkiliy tadbirlar.

Kreativ mahsulot. Bu tushunchasi juda keng bo’lib, innovatsion texnika va texnologiyalarni, g’oyalar, yangi paradigmalar, fan va san’atga doir yangi uslublar, mahsulotlar va sh.k. Xo’sh, kreativ mahsulotni qanday mezonlar asosida aniqlash mumkin? Kreativlikning asosiy mezonlaridan biri bu nostandartlik ekan, demak kreativ mahsulot avval qo’llanilmagan kombinatsiyalar, analiz va sintez natijasida yaratilishidan aniqlash mumkin.

Yuqorida bayon etilgan kreativlik aspektlariga kreativ tafakkurni ham qo’shimcha qilish maqsadga muvofiqdir.

Demak, kreativ tafakkurning o’zi nostandart va noan’anaviy fikr yuritish shakli hisoblanadi. Kreativ tafakkur atrof-olamdagi narsa va hodisalarga o’zgacha qarash – kreativ idrokdan boshlanadi. Kreativ idrokning sodir bo’lishi esa shaxs psixologik holatiga bevosita bog’liqdir. Keyingi bosqichda idrok etilgan ma’lumotlar inson miyasida sodir bo’ladigan nostandart kombinatsiyalar (umumlashtirishlar, analiz, sintez, abstraktsiyalash, selektiv insayt va shu kabilar) asosida nostandart xulosalar, yechimlar va qarashlar yuzaga keladi.

O’qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo’lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo’naltiradi. Shuningdek, o’quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g’oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o’ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg’or, o’quvchilarning o’quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g’oyalarni yaratishda faollik ko’rsatish, ilg’or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o’rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo’lishga e’tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

14. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

15. . Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

16. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.

17. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

18. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

19. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

20. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

MOBIL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraxmonov Shoqosim [1]
G‘ulomova Mubinaxon Inomjon qizi[2]
Qo‘shmatova Muslimaxon Ravshanjon qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning boshlang‘ich ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi o‘rni, afzalliklari va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Mobil qurilmalar, ta’limiy ilovalar, interaktiv platformalar va raqamli resurslar yordamida o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, dars jarayonini individuallashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish imkoniyatlari ilmiy asoslangan holda tahlil qilingan. Tadqiqotda mobil ta’limning metodik yondashuvlari, pedagogik tamoyillari, multimedia vositalarini qo‘llash strategiyalari hamda onlayn va oflayn integratsiya usullari ko‘rib chiqilgan. Amaliy misollar asosida mobil texnologiyalar yordamida o‘qish, matematika, tabiatshunoslik yo‘nalishlarida dars samaradorligini oshirish yo‘llari taklif etilgan hamda boshlang‘ich ta’limda mobil ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, mobil ta’lim, raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, interaktiv dars, kompetensiyaviy ta’lim, innovatsion metodlar, o‘quv motivatsiyasi, raqamli savodxonlik, ta’lim texnologiyalari.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, interaktiv vositalar va mobil texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish global ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, mobil qurilmalar — smartfon, planshet, elektron kitoblar va maxsus ta’limiy ilovalar nafaqat axborot olish vositasi, balki o‘quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalb etuvchi, mustaqil o‘rganish, onlayn hamkorlik qilish va ijodiy o‘quv faoliyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vositaga aylandi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda asosiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning shakllanishi, ayniqsa, o‘qish, yozish, matematika, mantiqiy tafakkur va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim davr hisoblanadi. Ushbu jarayonda mobil ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarning yoshiga mos vizual, audio va interaktiv materiallardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Mobil ta’lim vositalari

o‘quvchilarning individual o‘quv sur’atini hisobga olish, ularga mustaqil o‘rganish imkoniyatini berish, darsdan tashqari vaqtni ham samarali o‘quv jarayoniga yo‘naltirish, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish imkonini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mobil texnologiyalar yordamida tashkil etilgan o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, muloqot, tahlil, mustaqil izlanish, ijodiy fikrlash va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli ravishda yaxshilaydi. Xalqaro tajribalar shuni tasdiqlaydiki, mobil ta’lim platformalari, masalan, Khan Academy Kids, Duolingo ABC, ClassDojo, Google Classroom, KodKids va boshqa ta’limiy ilovalardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli madaniyat va media savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida tavsiya etilgan mobil metodlar, interfaol topshiriqlar, o‘yin elementlari va elektron baholash vositalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli ta’lim, masofaviy o‘qitish, virtual laboratoriyalar va mobil ilovalar orqali ta’lim olishni kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu esa boshlang‘ich ta’lim jarayonida mobil texnologiyalarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, pedagoglar oldida zamonaviy texnologiyalarni metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash, o‘quvchilarning yosh psixologiyasiga mos raqamli resurslardan unumli foydalanish, xavfsiz raqamli muhitni ta’minlash kabi vazifalar turadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayoniga mobil ta’lim texnologiyalarini samarali integratsiya qilish yo‘llari, ularning pedagogik afzalliklari, amaliy tatbiq mexanizmlari, shuningdek o‘quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mobil ta’lim — bu mobil qurilmalar, internet texnologiyalari, multimedia resurslari va o‘quv ilovalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishga asoslangan zamonaviy o‘qitish modeli hisoblanadi. UNESCO mobil ta'limni raqamli bilimlarni uzatish, fikrlash va aloqa ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi moslashuvchan ta’lim vositasi sifatida e’tirof etadi.

Boshlang‘ich ta’limda mobil texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayoniga interfaollik, mustaqil o‘rganish, multimodal ta’lim (matn, rasm, audio, video, animatsiya) va o‘yinlashtirish elementlarini kiritish imkonini beradi. Bu esa:

yoshga mos o‘quv materiallarini vizuallashtiradi;
o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi;
diqqat, xotira, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;
o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini ta’minlaydi.

Bugungi kunda mobil ilovalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Har kuni millionlab odamlar o‘z telefonlarida ilovalar yordamida ish yuritadilar, aloqa qiladilar, o‘rganadilar, xarid qiladilar va ko‘ngil ochar dasturlardan foydalanadilar. Bunday ilovalarni ishlab chiqish uchun turli dasturlash tillari va muhitlar mavjud. Ulardan eng ommaboplari – Java, Kotlin, va Python tillaridir. Har birining o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

Java — Sun Microsystems tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda Oracle kompaniyasiga tegishli bo‘lgan platformaga bog‘liq bo‘lmagan dasturlash tilidir. Java 1995-yildan beri mavjud bo‘lib, mobil ilovalar, ayniqsa Android platformasi uchun asosiy dasturlash tillaridan biri hisoblanadi.

Android operatsion tizimi Java asosida ishlab chiqilgan. Ilk versiyalardan boshlab Android ilovalari Java yordamida yozilgan. Android SDK (Software Development Kit) va Android Studio muhiti Java dasturlash tiliga asoslanadi. Hozirgi kunda Java hali ham Android ilovalarini yaratishda eng ko‘p ishlatiladigan tillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Java ning afzalliklari

Platformaga bog‘liq emas (Write Once, Run Anywhere).

Katta jamoa va resurslar.

Kuchli OOP (ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash) modeli.

Android Studio bilan to‘liq moslik.

Kotlin — JetBrains kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy dasturlash tili bo‘lib, 2017-yildan boshlab rasmiy ravishda Google tomonidan Android dasturlash uchun tavsiya etilgan. Kotlin — Java bilan to‘liq mos va undan soddaligi, xavfsizligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi Android ilovalarining katta qismi Kotlin asosida yaratilmoqda. Android Studio Kotlin-ni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va Java loyihalarini Kotlin’ga avtomatik o‘tkazish imkoniyatiga ega.

Kotlin ning afzalliklari

Java ga qaraganda qisqaroq va toza sintaksis.

Null-pointer exception xavfini kamaytiradi.

Lambda, extension funksiyalar kabi zamonaviy imkoniyatlar.

Java bilan orqaga moslik.

Python — 1991-yilda Guido van Rossum tomonidan ishlab chiqilgan yuqori darajadagi, o‘qilishi oson va soddaligi bilan mashhur bo‘lgan dasturlash tilidir. Ilk marotaba veb-dasturlashda mashhurlik qozongan bo‘lsa-da, hozirda AI, Data Science, va mobil dasturlashda ham keng foydalaniladi.

Python to‘g‘ridan-to‘g‘ri Android yoki iOS ilovalarini yaratishda asosiy til sifatida ishlatilmasa-da, Kivy, BeeWare, PyQT, va Chaquo kabi kutubxonalar yordamida mobil ilovalar yaratish imkonini beradi. Shuningdek, Python ko‘p hollarda backend (server) qismini yaratishda ishlatiladi.

Python ning afzalliklari

O‘rganish va tushunish oson.
Tez prototiplash imkoniyati.
Katta kutubxonalar to‘plami.
Backend xizmatlar uchun ideal.

Mobil ilova ishlab chiqishda dasturlash tilini tanlash loyiha talablari, jamoaning tajribasi va ishlatiladigan platformaga bog‘liq bo‘ladi. Android ilovalari uchun Java va Kotlin eng mos tanlov bo‘lsa, Python esa asosan server (backend) tomonda kuchli. Har bir tilda o‘ziga xos kuchli jihatlar mavjud. Shuning uchun zamonaviy mobil ishlab chiqish jarayonida ko‘pincha bir nechta til va texnologiyalar uyg‘un holda ishlatiladi.

Android operatsion tizimi — dunyodagi eng ommabop mobil platforma bo‘lib, Google tomonidan ishlab chiqilgan va doimiy yangilanib boradi. Android ilovalarini ishlab chiqish uchun eng asosiy vositalardan biri bu — Android Studio muhiti hisoblanadi. Android Studio — Google tomonidan Android ilovalarini ishlab chiqish uchun yaratilgan rasmiy dasturiy muhit bo‘lib, u Java, Kotlin va C++ tillarini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu bo‘limda Android Studio muhiti, Java tilining qo‘llanilishi va dastur yaratish bosqichlari haqida so‘z yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

10. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

11. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

12. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

13. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

14. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

15. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

16. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.

17. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

18. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

19. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.
20. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH

Abduraxmonov Shoqosim [1]
Azamova Ziyodaxon Ikromjon qizi[2]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga yondashuvini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati, o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari va innovatsion madaniyatni shakllantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda o‘qituvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, innovatsion faoliyat, o‘qituvchi, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetensiya, innovatsion yondashuv, ijodiy fikrlash, ta’lim sifati.

Hozirgi davrda ta’lim tizimida kechayotgan tub islohotlar o‘qituvchi shaxsiga, uning kasbiy mahoratiga va yangicha fikrlash qobiliyatiga bo‘lgan talablarni keskin oshirib yubordi. XXI asr o‘qituvchisi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi shaxsining ijodiy, intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantiruvchi, ta’lim jarayoniga yangiliklarni joriy etuvchi innovator-pedagog sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga yondashuvini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim sohasida innovatsion yondashuv o‘qituvchidan doimiy ravishda yangilikni izlash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni o‘z faoliyatiga samarali tatbiq etish ko‘nikmasini talab etadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni esa, bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich bo‘lib, o‘qituvchining pedagogik mahorati, yangicha fikrlashi va innovatsion faoliyati bu jarayonning muvaffaqiyatini

belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faqat an’anaviy o‘qitish usullariga tayanib qolmasdan, balki ta’limning ilg‘or shakl, metod va texnologiyalaridan foydalanishni o‘z kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish va individuallashtirish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da pedagogning ijodkorlik faoliyati, kasbiy kompetentligini oshirish, shuningdek, innovatsion faoliyatga tayyorlikni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlarni joriy etish, muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari bugungi ta’lim jarayonining eng muhim talablaridan biridir.

Innovatsion faoliyatga yondashuvni shakllantirish deganda o‘qituvchining yangilikka ochiqligi, ilg‘or tajriba va texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘z pedagogik amaliyotini tahlil qila olish va takomillashtirish qobiliyati tushuniladi. Bu esa o‘qituvchining nafaqat kasbiy tayyorgarligiga, balki uning shaxsiy motivatsiyasi, reflektiv fikrlashi, ijodkorlik darajasi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojiga ham bevosita bog‘liqdir.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, bilimga qiziqishini, muammolarni hal etish malakasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, innovatsion pedagogik faoliyat — bu o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini, kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda yangilab borishini taqozo etadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga yondashuvini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, amaliy yo‘nalishlari va ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvning o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati, o‘qituvchining kasbiy madaniyati va pedagogik mahoratini yuksaltirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga yondashuvini shakllantirish zamonaviy ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat — bu ta’lim jarayoniga yangi g‘oyalar, metodlar, texnologiyalar va yondashuvlarni tatbiq etish orqali uning sifatini oshirishga qaratilgan ijodiy pedagogik faoliyatdir. O‘qituvchining innovatsion faoliyati nafaqat yangi metodlarni qo‘llash, balki mavjud tajribani tahlil qilish, uni yangilash va sharoitga moslashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida innovatsion faoliyat o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘qitish jarayonini jonlantirish, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu bosqichda o‘quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlashi endigina shakllanayotganligi sababli, o‘qituvchi faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishi ularning har tomonlama rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega.

Innovatsion yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi;

o‘quvchi faolligini ta’minlash;

o‘zaro hamkorlik va muloqot asosida o‘qitish;

ijodkorlik va mustaqillikka undovchi metodlardan foydalanish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish.

Demak, boshlang‘ich ta’limda innovatsion faoliyat — bu o‘qituvchi tomonidan o‘qitish jarayonini yangilash, uni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va o‘quvchilarning kognitiv hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga yondashuvi bir necha ichki va tashqi omillar asosida shakllanadi. Ichki omillar — bu o‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi, ijodiy fikrlash qobiliyati, o‘z ustida ishlash ehtiyoji va kasbiy o‘zini anglash darajasidir. Tashqi omillar esa ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, rahbariyat tomonidan yaratilayotgan sharoit, metodik qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda pedagogik jamoaning innovatsion madaniyatiga bog‘liq.

Shuningdek, o‘qituvchining innovatsion yondashuvini shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Motivatsion bosqich – o‘qituvchining yangilikka qiziqishi va ichki ishtiyoqini shakllantirish;

2. Kognitiv bosqich – innovatsion texnologiyalar, ilg‘or tajribalar va zamonaviy metodlar haqidagi bilimlarni egallash;

3. Amaliy bosqich – olingan bilimlarni o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llash, dars jarayonini takomillashtirish;

4. Reflektiv bosqich – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, natijalarni baholash va yangi yo‘nalishlarni belgilash.

Bu bosqichlar o‘qituvchining kasbiy o‘sishi va o‘z faoliyatini modernizatsiya qilishida uzviy tizimni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi, “Yangi O‘zbekiston – yangi ta’lim” dasturi va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvni keng joriy etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Boshlang‘ich ta’lim tizimida esa bu jarayon o‘qituvchining malaka oshirish kurslari, elektron resurslardan foydalanish, dars jarayonida multimedia

texnologiyalarini qo‘llash, interfaol metodlarni keng tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga yondashuvini shakllantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga joriy etish o‘qituvchining kasbiy faoliyatida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelganligi aniqlandi.

Dastlabki bosqichda o‘tkazilgan diagnostika natijalariga ko‘ra, ko‘pchilik boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari innovatsion faoliyat haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lsalar-da, uni amaliyotda qo‘llashda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelganliklari aniqlandi. Ularning aksariyati innovatsion texnologiyalarni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodik ko‘nikma va raqamli savodxonlik darajasi yetarli emasligini bildirgan.

Tajriba jarayonida o‘qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar, metodik suhbatlar, interfaol mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bu jarayonlarda o‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va AKT vositalaridan foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni egalladilar.

Ko‘plab o‘qituvchilar o‘z darslarida ilg‘or tajriba elementlarini joriy etib, ularni boshqalarga targ‘ib qilishni boshladilar. Bu jarayon natijasida ta’lim muassasasida innovatsion pedagogik muhit shakllanib, o‘qituvchilar o‘rtasida raqobat va o‘zaro o‘rganish muhiti kuchaydi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga yondashuvini shakllantirish — ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini oshiruvchi, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi, zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi amaliy jihatdan isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – C. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 11. – C. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – C. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

8. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

9. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

10. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta’lim sohasida boshlangan islohotlarni davom ettirish zarurligini ta’kidladi. Prezidentning 2023-yilga oid Davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni loyihasida “2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi o‘quv dasturlarini amaliyotga kiritilish” vazifasi belgilangan.2030-yilgacha mo‘ljallangan O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida boshlang‘ich ta’limga e’tibor yanada oshirildi, xususan, maktabgacha ta’limni rivojlantirish, boshlang‘ich sinflarda innovatsion yondashuvlarni keng joriy qilish choralari belgilandi. O‘zbekiston tarixida boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyat rivojlanishining muhim elementi sifatida shakllangan va turli davrlarda ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga mos tarzda yangilangan. Milliy mustaqillik davrida esa, ta’limning modernizatsiyasi va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari kuchayib, O‘zbekistonning o‘ziga xos ta’lim modeli shakllandi. Boshlang‘ich ta’lim tizimidagi strukturaviy o‘zgarishlar eng avvalo o‘quv dasturlarining modernizatsiya qilinishi bilan bog‘liq bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar zamonaviy talablarga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni asosiy maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu jarayon, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida darsliklar mazmunining yangilanishi va metodik yondashuvlarning takomillashuvi orqali yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida: “Ta’lim tizimining asosiy vazifasi – shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash va ijodkor, mustaqil fikrlovchi avlodni voyaga yetkazishdan iborat” deb ta’kidlangan [1]. Boshlang‘ich ta’limning dastlabki bosqichlarida o‘quvchilarning fundamental bilim asoslarini mustahkamlash, ularda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylangan. Shu maqsadda so‘nggi yillarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-4-sinflari uchun yangi o‘quv darsliklari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Mazkur darsliklar 4K kompetensiyalariga asoslangan bo‘lib, kreativlik , tanqidiy fikrlash , muloqot va hamkorlikda ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim sohasini yanada rivojlantirishga oid 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish, yangi avlod darsliklarini joriy etish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI Boshlang‘ich sinflarda yangi avlod darsliklari asosida o‘qitish samaradorligini o‘rganishda qator ilmiy va amaliy manbalar tahlil qilindi. Darsliklar mazmuni, metodik yondashuvlar, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va darsliklarga moslashuv holati kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ilgari surilgan fikrlar chuqur o‘rganildi. Kenjayeva S.I. tomonidan yozilgan “4K modeli asosida yaratilgan yangi avlod darsliklarining fundamental mazmuni va mantiqiy ustunliklari” maqolasida darsliklar ta’lim sifati uchun asosiy vosita ekanligi ta’kidlanadi. Muallif fikricha, darsliklar nafaqat davlat ta’lim standartlariga mos bo‘lishi, balki o‘quvchini o‘ziga tortuvchi, fanga qiziqtiruvchi mazmunga ega bo‘lishi lozim. Yangi o‘quv-metodik majmualar 4K kompetensiyaviy yondashuvini amalga oshirishda o‘quvchilarning kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va samarali muloqot kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani kuzatildi.

Darsliklarning o’zgarganlarini ketma ketlikda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Mashqlar matn asosida tuzilgan va o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan: O‘rganiladigan til qoidalari tizimli tarzda emas, balki matnlar asosida (matnda uchrashiga qarab) beriladi. Aksariyat hollarda qoidalar ixcham, ortiqcha terminologiyadan xoli tarzda beriladi. Darsning asosiy o‘zagini avvalgidek grammatik qoida emas, balki matn tashkil etadi. Matnlar mavzu, uslub hamda shakl jihatdan turlicha bo’lishi mumkin. Darslikdagi mavzularda she’r, hikoya, dialog, topishmoqlar berilgan va bular yuzasidan savol va topshiriqlar kiritilgan. Mavzulardan bolalar kun tartibini tuzish, qarindoshlar nomlari va ismlarini ajrata olish, bayramlar, foydali sabzavot-mevalar, xotira, mehmon odobi, tabiat hodisalari haqidagi ko‘plab ma’lumotlarga ega bo’ladilar. Yuqoridagilar asosan o‘qish bo‘yicha o‘zlashtiriliadigan bilimlar hisoblanadi. Darslikda imlo qoidalari yozuv bo‘yicha ham ko‘plab topshiriqlar mavjud. Jumladan, x va h harflari farqi, jarangli va jarangsiz undoshlar juftligi(bp, d-t, z-s,j-ch, g-k,v-f)farqlari, ko‘chma ma’no, tasviriy ifoda, ohangdosh so‘zlar, tinish belgilari haqidagi topshiriqlar o‘quvchilarda shu borada ko‘plab ko’nikmalarni shakllanishiga yordam beradi. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” kitobi jami 238 soatdan iborat, bu darslik 2 qismdan tashkil topgan jami 12 bo‘lim berilgan. Bu kitobning, asosan, birinchi qismida milliy dastur bilan farqlarini ko’rish mumkin. Masalan, ikkalasida ham bo’limlar nomi bir xil, lekin ichidagi mavzularda farq bor, milliy dasturda 3-bolim uchun 4 ta mavzu berilgan bo‘lsa, darslikda 3 ta berilgan. Va ularning nomlanishida ham ba’zi farqlarni kuzatish mumkin. Lekin darslikning ikkinchi qismida bunday farqlarga duch kelmaymiz hammasi milliy dastur asosida tuzilgan. 1-sinf darsligida berilgan "Men, sen va ular", "Tabiat ne’matlari", "Sog‘ tanda-sog‘lom aql", "Til va dil", "Fan va texnologiya" bo‘limlari 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi kitobida ham takroran berilgan. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi 2 qismdan iborat bo‘lib, 2-qismi 6 bo‘limni o’z ichiga oladi. Ya’ni bu 6-7-bo‘limlar va bo‘limdagi mavzular o‘quvchilarda kasbga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, ularni qiziqtirishga undaydigan

g‘oyada yozilgan hikoya va ma’lumotlardan iborat. 9-bo’lim “Tarix xazinalari” hamda 10-bo'lim “San'at va madaniyat” da o‘quvchilar tarixiy bilimlarga ega bo”lishadi. Ushbu darslikning oxirgi 11-bo‘limi “Huquqimiz-haqimiz”dagi mavzularda o’quvchilar Yo‘l qoidasini o’rganib olishadi va jamoat joyida navbatga turadigan joylarda qanday turish kerakligini bilishadi . Qisqacha qilib aytganda 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida o‘quvchilarga zarur va foydali bilimlar berilgan. Boshlang‘ich sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan. Darsliklarni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) talablari to‘liq inobatga olingan. Finlyandiyadagi nufuzli ta’lim kompaniyasi ekspertlari tomonidan tekshiruvdan o‘tkazilgan va sertifikat olingan.

Zamonaviy darsliklar o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularga qo‘yilgan talablar darsliklarning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.. Talim eksperti Muhammad Alimovning fikricha: “Yangi darsliklar nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvlarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni yangi metodologiyalarni o‘zlashtirishga tayyorlash muhim, chunki bu tizimni samarali ishlatishning kaliti hisoblanadi”. Yangi darsliklarning samaradorligi: Yangi o‘quv-metodik darsliklar o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning umumiy bilim darajasi va darslarga bo‘lgan qiziqishining oshishiga olib kelmoqda. Natijada ta’lim jarayonida ijobiy samaradorlik kuzatilmoqda. O‘qituvchilarning yangi metodologiyalarni puxta o‘zlashtirishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Interfaol metodlarning samaradorligi: Hamkorlikda ishlash, guruhiy faoliyat va o‘zaro muloqotga asoslangan interfaol metodlar o‘quvchilarda ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lmoqda.Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni chuqurroq egallash va yangi darsliklarga moslashishni yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari yangi o‘quv darsliklarining boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Yangi metodik darsliklar o‘quvchilarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash hamda samarali muloqot kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, darsliklardagi ba’zi til va uslubiy murakkabliklar, mavzularning o‘quvchi yoshiga mos bo‘lmasligi, hamda murakkab terminologiyaning tushunarsizligi o‘quvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Metodik qo‘llanmalarning yetishmasligi esa o‘qituvchilarning yangi darsliklardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli o‘quvchilarning darsliklarga moslashuvini yengillashtirish va ta’lim sifatini oshirish uchun o‘qituvchilarni zarur metodik materiallar va malaka

oshirish treninglari bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda qayd etilganidek, yangi metodik yondashuvlar va interfaol uslublar o‘quvchilarda mustahkam bilim va ko‘nikmalar hosil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu natijalar asosida kelgusida boshlang‘ich ta’lim tizimida tizimli va izchil islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlat ta’lim standartlari. Boshlang‘ich ta’lim uchun yangi o‘quv darsliklarini ishlab chiqish va qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi, 2021.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar. URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

3. Kenjayeva S.I. 4K modeli asosida yaratilgan yangi avlod darsliklarining fundamental mazmuni va mantiqiy ustunliklari. 2023.

4. Ro‘ziyeva N.K. Boshlang‘ich ta’limda yangi avlod darsliklarida integratsiyaning ahamiyati.

5. Muallimova S. 4K kompetensiyasi: kreativlik va tanqidiy fikrlashning boshlang‘ich ta’limda ahamiyati // Ta’lim sohasidagi izlanishlar, 2019.

6.Aliyeva M. Boshlang‘ich ta’limda yangi darsliklar va metodik yondashuvlar: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti, 2021.

5. Shavkatovna, A. M. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ertak janri bilan tanishtirish." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. Vol. 2. No. 12. 2023.

6. Shavkatovna, A. M. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ertaklarning tutgan o‘rni." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 12. 2023.

7. Shavkatovna, A. M. "Boshlang'ich sinflarda ertaklarning turlari bilan ishlash." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. Vol. 2. No. 12. 2023.

8. Shavkatovna, A. M. "Oksyumoron–badiiy, lingvopoetik vosita." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 12. 2023.

ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI METODLARI

Bo‘riboyeva Manzuraxon
Qo‘qon DU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: **M.Sh.Akbarova**
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d, PhD

Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, ularni to‘g‘ri, ravon va mazmunli nutq sohiblari sifatida tarbiyalash ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biridir. So‘z boyligini oshirish jarayoni o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mantiqiy nutqini shakllantirish, mustaqil o‘qish va fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, darslarda leksik materiallar bilan ishlash, yangi so‘zlarni kontekstda qo‘llash, hamda o‘quvchilarda mustaqil izlanish, ko’plab badiiy asarlar o’qish va lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, **izohli, sinonimlar, antonimlar va frazeologik lug‘atlar bilan ishlash** o‘quvchilarning so‘z boyligini sifatli oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganish, balki ularni nutqda faol qo‘llash, ma’nodosh birliklarni farqlash hamda fikrni aniq ifoda etish imkonini yaratadi.

Tayanch so‘zlar: o‘quvchi nutqi, nutq madaniyati, so‘z boyligi, fikrlash qobiliyati, badiiy adabiyot, lug‘at bilan ishlash, og‘zaki nutq, yozma nutq, muloqot madaniyati, ijodiy tafakkur, o‘yinli metodlar, suhbat mashqlari, bayon, insho, ta’lim jarayoni, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi faoliyati, nutqni rivojlantirish, o‘qish va yozish malakasi, mantiqiy fikrlash.

Annotation

In the context of today's globalization, developing students’ speech culture and educating them to become accurate, fluent, and meaningful speakers is one of the main objectives of mother tongue lessons. The process of enriching vocabulary enhances students’ creative thinking, logical speech, independent reading, and the ability to express opinions. From this perspective, working with lexical materials, using new words in context, as well as forming independent research skills and the habit of using dictionaries in lessons play a crucial role. Working with explanatory, synonym, antonym, and phraseological dictionaries effectively contributes to enriching students’ vocabulary. This process not only helps learners acquire new words but also enables them to actively use them in speech, distinguish synonymous units, and express thoughts clearly.\

Key words: student speech, speech culture, vocabulary, thinking ability, literary works, working with dictionaries, oral speech, written speech, communication culture, creative thinking, game-based methods, conversation exercises, narration, essay, educational process, primary education, teacher activity, speech development, reading and writing skills, logical thinking.

Аннотация:В условиях современной глобализации развитие речевой культуры учащихся, формирование у них навыков правильной, беглой и содержательной речи является одной из основных задач уроков родного языка. Процесс обогащения словарного запаса способствует развитию творческого мышления, логической речи, самостоятельного чтения и умения выражать собственное мнение. С этой точки зрения важное значение имеет работа с лексическим материалом, использование новых слов в контексте, а также формирование у учащихся навыков самостоятельного поиска и использования словарей. Работа с толковыми, синонимическими, антонимическими и фразеологическими словарями способствует качественному расширению словарного запаса учащихся. Этот процесс не только помогает освоить новые слова, но и позволяет активно использовать их в речи, различать синонимичные единицы и ясно выражать свои мысли.

Ключевые слова: речь учащихся, культура речи, словарный запас, способность к мышлению, художественная литература, работа со словарями, устная речь, письменная речь, культура общения, творческое мышление, игровые методы, упражнения в беседе, изложение, сочинение, образовательный процесс, начальное образование, деятельность учителя, развитие речи, навыки чтения и письма, логическое мышление.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot yo‘lidan borar ekan, unda ta’lim-tarbiya ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.Boshlang’ich ta’lim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko’taradigan ijodkor shaxsni shakllantirishda mustahkam poydevor rolini o’ynaydi. Hozirgi kunda til va nutq madaniyati o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega. Nutq nafaqat ma’lumot uzatish vositasi, balki insonning fikrlash qobiliyatini namoyon qilish, hissiy dunyosini ifodalash va muloqotda muvaffaqiyatga erishish vositasidir. Shu sababli, bolalarning nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va fikrini aniq, mazmunli ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish ona tili darslarining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini hishayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O´quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishning ahamiyati

Nutq — inson tafakkurining ifodasi. Bola qanchalik so‘z boyligiga ega bo‘lsa, uning fikrlash doirasi shunchalik keng bo‘ladi. Nutqni o‘stirish jarayoni o‘quvchining intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Birinchidan, **nutqni o‘stirish fikrlashni rivojlantiradi.** Bola so‘z bilan fikrini ifodalashni o‘rgangan sayin, u mantiqan fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Ikkinchidan, **nutq madaniyati muloqot ko‘nikmasini shakllantiradi.** To‘g‘ri, aniq, odobli so‘zlashni bilgan bola atrofdagilar bilan samarali muloqot qiladi, bu esa ijtimoiy faollikni oshiradi.

Uchinchidan, **nutqi rivojlangan o‘quvchi boshqa fanlarni ham chuqurroq o‘zlashtiradi.** Chunki har bir fan o‘qish, tushunish, savolga javob berish va fikrni ifodalash bilan bog‘liq.

To‘rtinchidan, **ijodiy tafakkurni shakllantirishda** nutqning o‘rni beqiyosdir. Bola hikoya tuzish, she’r o‘qish, asar mazmunini qayta hikoya qilish jarayonida tasavvur dunyosini kengaytiradi va ijodiy fikrlashni o‘rganadi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartlarga rioya qilish zarur: 1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun eng avval talab bo‘lishi kerak. O´quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma bayon qilishning xohish va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo’lib bu- bola nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi. 3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasiga asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Nutqning rivojlanishida **badiiy adabiyot** muhim o‘rin tutadi. She’rlar, hikoyalar, ertaklar va romanlar bolalarga so‘zlarni kontekstda o‘rganish imkonini beradi, nutqini ifodali va ravon shakllantirishga yordam beradi. Badiiy matnlar bolalarga nafaqat yangi so‘zlarni o‘rgatadi, balki fikrlash, tahlil qilish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, hikoyadagi voqealarni tahlil qilish yoki personajlarning xarakterini tushunish bolalarning mantiqiy fikrlashini oshiradi, ularni nutqda aniq va izchil fikr bildirishga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, badiiy asarlar bolalarning hissiy va estetik didini shakllantirish, ularni san’atga, go‘zallik va ma’naviyatga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘ladi.

Lug‘atlar bilan ishlash esa bolalarning nutqini boyitish va so‘z boyligini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Lug‘atlar orqali bolalar yangi so‘zlarning ma’nosini tushunadi, ularni nutqda faol qo‘llashni o‘rganadi. Sinonimlar, antonimlar, izohli lug‘atlar va frazeologik birliklar bolalarga so‘zlarning rang-barangligini anglash va nutqni boyitish imkonini beradi. Lug‘atlar bilan ishlash nafaqat so‘zlarni yodlash, balki ularni fikrni ifodalashda to‘g‘ri qo‘llash, so‘zlarni taqqoslash va ma’nodosh birliklarni farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda

tutadi: 1.O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8—10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4— 6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim. 2.O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish. 3.Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi. 4.Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. Adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi.Shu tariqa, **badiiy adabiyot va lug‘atlar birgalikda ishlatilganda**, bolalarning nutqi nafaqat boy, balki mazmunli, ifodali va muloqotga mos shakllanadi. Badiiy matnlar bolalarga nutqni kontekstda o‘rganish imkonini beradigan bo‘lsa, lug‘atlar yangi so‘zlarni mustahkamlash va nutqda faol ishlatishni o‘rgatadi. Ularning birgalikdagi ishlatilishi o‘quvchilarda mustaqil izlanish, ijodiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.Bolalar mustaqil o‘qishga o‘rganganlaridan keyin ular lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta’sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o‘qish va unga rahbarlik shakllari o‘quvchilar lug‘atini boyitishning, nutqini o‘stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va metodlari

O‘quvchilarning nutqini rivojlantirish tizimli va izchil yondashuvni talab etadi. Quyida samarali usullar keltirilgan:

a) Suhbat va munozara mashqlari. Dars jarayonida savol-javob, suhbat yoki kichik bahslar tashkil etish bolalarda muloqot madaniyatini va erkin fikrlashni shakllantiradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga o‘z fikrini bildirish imkoniyatini yaratishi lozim.

b) Yozma nutqni rivojlantirish. Bayon, insho, xulosa yozish mashqlari orqali o‘quvchi fikrini izchil tartibda ifodalashni o‘rganadi. Yozma ishlar tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi.

c) Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish. Rasm, sxema, videolavha yoki slayd asosida hikoya tuzish mashqlari bolalarning tasviriy va obrazli fikrlashini kuchaytiradi. Bu usul nutqning mazmunini boyitadi.

d) O‘yinli metodlardan foydalanish. “Kim tez topadi?”, “So‘zni davom ettir”, “Rasm asosida hikoya tuz” kabi o‘yinlar bolalarni faol fikrlashga, so‘z boyligini oshirishga va nutqda faol bo‘lishga undaydi. O‘yin orqali o‘quvchi erkin so‘zlashni o‘rganadi.

Xulosa

O‘quvchilar nutqini o‘stirish — ularning ta’limdagi muvaffaqiyati va shaxsiy kamolotining asosi hisoblanadi. Nutqi rivojlangan bola o‘qishni, yozishni, fikrlashni va muloqot qilishni oson o‘zlashtiradi. Shu bois har bir ona tili darsi, har bir mashg‘ulot o‘quvchi nutqini boyitishga, to‘g‘ri va chiroyli so‘zlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bu jarayonda badiiy adabiyotlar, lug‘atlar, suhbatlar, yozma ishlar va o‘yinli metodlardan tizimli foydalanar ekan, o‘quvchilarning nutq madaniyati yuksaladi va ularning tafakkuri kengayadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Royxati

1.Karima Qosimova va boshqalar. “Ona tili o’qitish metodikasi”. T.” Noshir”nashriyoti 2009. 352 b.

2.Mirxanova G.R. O’zbek tilining sinonimlar o’quv izohli lug’atini tuzishning lingvistik asoslari . Buxoro- 2021

3.Bahriddinova B.M.O’zbekistonda o’quv lug’atchiligi: lingvestik asoslari,tarixi va istiqbollari: F.f.d(DSc)diss.-Samarqand.2020.,

4.G„ulomov A., Ne’matov H. “Ona tili ta’limi mazmuni”. (Ona tili o’qituvchilari uchun metodik qo’llanma). – Toshkent: O’qituvchi, 1995.

5.Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Ona tili. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999.

6.Hamrayeva Y. “O’zbek tilining o’zlashma so’zlar” o’quv izohli lug’ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

5. Shavkatovna, A. M. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ertak janri bilan tanishtirish." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. Vol. 2. No. 12. 2023.

6. Shavkatovna, A. M. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ertaklarning tutgan o‘rni." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 12. 2023.

7. Shavkatovna, A. M. "Boshlang'ich sinflarda ertaklarning turlari bilan ishlash." *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*. Vol. 2. No. 12. 2023.

8. Shavkatovna, A. M. "Oksyumoron–badiiy, lingvopoetik vosita." *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. Vol. 2. No. 12. 2023.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING ONA TILI VA O‘QISH DARSLARINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI VA VOSITALARI

Ahmadjonova Mahfuza Egamberdiyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Abdullajonova Feruzaxon Eldorbek qizi
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang’ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarini samarali tashkil etishning usullari hamda ta’lim vositalaridan oqilona foydalanish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Dars jarayonida interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, nutq o‘stirish, kulminatsiya, sintez, kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, kuzatish, taqqoslash, tahlil, sintez, ijodiy qobiliyat, umumlashtirish, idrok qilish, ijodiy faollik

Boshlang‘ich ta’lim — bu shaxs shakllanishining eng muhim bosqichidir. Aynan shu davrda bola o‘qish, yozish, tinglab tushunish, muloqotga kirishish va o‘z fikrini mustaqil bayon etish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu jarayonda ona tili va o‘qish darslari hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Ona tili darslari o‘quvchilarga so‘zning tuzilishini, grammatik qonuniyatlarni o‘rgatish orqali ularning tafakkurini rivojlantiradi. O‘qish darslari esa ularni matnni anglash, ifodali o‘qish, mazmunni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchining mustaqil fikrlashi, izlanish faoliyati, tahliliy tafakkurini rivojlantirish eng muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu sababli, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchi dars jarayonini faol, interfaol va innovatsion metodlarga asoslanib tashkil etishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini o‘qitish oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligini (so‘z urg‘usi va mantiqiy urg‘u, pauza va ovoz tembi, nutq sur’ati, tovush, bo‘g‘in, so‘z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko‘ra darak so‘roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta’minlashda ko‘nikma va malakalar ham ona tili mashg‘ulotlarida shakllanadi. O‘quvchi so‘z boyligini oshirishda, nutqiy malakalarini shakllantirishda interfaol

mashqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma’lum sohasini qamrab oladi.

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o‘quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o‘qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang‘ich sinflarda talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv – o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra ma’lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo‘ladi. Ularning samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlash barcha ta’lim muassasalarining oldiga qo‘yilayotgan maqsadga nechog‘lik erishilayotganini ko‘zda tutish kerak.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining dunyoqarashi, tafakkuri va nutq madaniyatining shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va o‘qish darslari bolalarda so‘z boyligini kengaytirish, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, matnni tushunib o‘qish hamda ifodali bayon etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois bu fanlarni o‘qitishda samarali usullar va vositalarni tanlash o‘qituvchi faoliyatining asosiy mezonlaridan biridir.

Ona tili va o‘qish darslarining asosiy maqsadi — o‘quvchilarning savodxonligini, nutq madaniyatini va tafakkurini shakllantirishdan iborat. Ular orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri va ifodali o‘qish, so‘zlarning ma’nosini tushunish va nutqda to‘g‘ri qo‘llash, matn tuzish, tahlil qilish, qayta hikoya qilish, imlo va tinish belgilari qoidalariga rioya qilish, o‘z fikrini mantiqan asoslab ifoda etish kabi malaka va ko‘nikmalar rivojlanadi:

Bu ko‘nikmalar o‘quvchining keyingi fanlarni o‘zlashtirishiga asos yaratadi.

Ona tili va o‘qish darslari orqali o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

a) So‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish malakasi;
b) O‘qilgan matnni anglash, tahlil qilish va fikr bildirish ko‘nikmasi;
c) Grammatik bilimlarni amaliy qo‘llash;
d) Nutq madaniyati va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Ona tili va o‘qish darslarini tashkil etishning samarali o‘qitish usullari interfaol metodlar, o‘yinli metodlar va muammoli o‘qitishdir.

O‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish uchun “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Sinkveyn”, “Blits-so‘rov”, “Insert” kabi interfaol metodlar qo‘llaniladi. Masalan, “Klaster” usuli yordamida o‘quvchilar so‘z turkumlari yoki matn mavzusi bo‘yicha fikrlarni guruhlaydi. Bu metod mantiqiy fikrlash va tahlil qilishni rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati asosiy o‘rinda turadi. “So‘z top”, “Matnni davom ettir”, “Noto‘g‘rini top” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning

qiziqishini oshiradi, darsni jonlantiradi va mustahkamlash bosqichini samarali qiladi.

O‘qituvchi darsda muammoli savollar orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, “Nima uchun bu gapda vergul qo‘yilgan?” yoki “Matndagi bosh g‘oya nima?” kabi savollar orqali o‘quvchilar tahlil va izlanish faoliyatiga kirishadilar.

Ona tili va o‘qish darslarini adabiyot, tarix, musiqa, tasviriy san’at fanlari bilan integratsiya qilish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Masalan, “Vatan” mavzusidagi matnni o‘qish bilan bir qatorda “Vatan haqida qo‘shiq” tinglash o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini kuchaytiradi.

Ona tili va o‘qish darslarida quyidagi vositalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq:

- Ko‘rgazmali vositalar: rasm, kartochka, jadval, sxema;
- Texnik vositalar: multimedia, interaktiv doska, audio va video materiallar;
- Axborot texnologiyalari: elektron darsliklar, onlayn testlar, virtual mashqlar;
- Didaktik materiallar: so‘z o‘yinlari, grammatik topshiriqlar, lug‘at kartalari.

Bu vositalar o‘quvchilarning idrokini kuchaytiradi, darsni qiziqarli va samarali qiladi.

Baholash jarayonida diagnostik, formatif va summativ yondashuvlardan foydalanish muhim. Masalan, “O‘z-o‘zini baholash jurnali” yoki “Refleksiya varaqasi” orqali o‘quvchilar o‘z bilimini mustaqil tahlil qilishni o‘rganadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarini o‘qitish samaradorligi o‘qituvchining metodik mahorati, tanlagan usul va vositalarining to‘g‘ri uyg‘unlashuviga bog‘liq. Interfaol, o‘yinli va muammoli metodlardan muntazam foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning nutqini rivojlantiradi, mustaqil fikrlash va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Azizova A. va boshqalar. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi – 2010.

2. Azamov A. “O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish” Toshkent – 2004 y.

3. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

4. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldasheva Sh. “Ona tili” 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

5. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age

6. NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

7. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA O‘QITISHNING INTERAKTIV USLUBLARIDAN FOYDALANISH

Ahmadjonova Mahfuza Egamberdiyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Mirzasultonova Muxlisaxon Mansurjon qizi, Ma’murova Muxlisaxon Muxiddin qizi
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida interaktiv uslublardan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil etilgan. O‘quvchilarni o‘qishga jalb etish, ularning mustaqil fikrlash, muloqot va tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlarning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali interaktiv uslublar misollar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: interaktiv usul, o‘qish darsi, muloqot, o‘yin, ijodiy fikrlash, hamkorlik, tahlil, tafakkur, mustaqil fikrlash, nutq o‘stirish kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash.

Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘quvchining faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va ijodkorligini rivojlantirishga qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon ayniqsa muhim, chunki bola aynan shu davrda o‘qish, yozish, tinglash va fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘qish darslari o‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi va nutq madaniyatini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Shu bois, o‘qituvchi darsni interaktiv yondashuvlar asosida tashkil etishi, har bir o‘quvchini jarayonga faol jalb etishi zarur.

Interaktiv uslublar – bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faol muloqot, hamkorlik va o‘zaro ta’sir asosida o‘qitish jarayonini tashkil etuvchi metodlardir. Ular darsni faollashtiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va ijodiy yondashuvini rag‘batlantiradi.

Ta’limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish davr talabidan kelib chiqadi. Zero, har qanday ta’limni tashkil etish shaklining asosida muayyan ijtimoiy ehtiyojlar yotadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari ham ana shunday ehtiyojlar asosida yuzaga keladi va bu ko’plab adabiyotlarda ilmiy asoslab berilgan.

Maktabda har bir darsning samaradorligi va sifatini oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Boshlang‘ich ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘qitishning interaktiv uslublaridan foydalanish biz yuqorida aytgan fikrlarimizga amaliy jihatdan yondashishni nazarda tutadi.

O‘qitishning interaktiv uslublari deyilganda o‘quvchining o‘quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg‘ulotda o‘quvchi berilayotgan ma’lumotlarni tinglashi, o‘qishi, ko‘rishi, yozib borishi, mavzu bo‘yicha savollar berishi, o‘z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o‘zining hayotiy tajribasi bilan bog‘lab, mavzu bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishi lozim.

Masalan: 2-sinf o‘qish darsligidagi Hamza Imonberdiyev qalamiga mansub “Vaqtning hajmi qancha?” she’rini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida “Jamoaviy muhokama yoki muammolar ro‘yxatini tuzish” uslubidan foydalanish mumkin. Bunda ishni quyidagicha olib borish mumkin:

- 1 soat ichida bajaradigan ishlaringizni ro‘yxatini tuzing;
- 1 kunlik bajaradigan ishlaringizni ro‘yxatini tuzing;
- Vaqtdan to‘g‘ri foydalanish uchun nima qilish kerak?

O‘quvchilardan real hayotda, kunlik bajarayotgan ish hajmini, vaqt taqsimotini, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi uchun to‘sqinlik qilayotgan masalalar va muammolar ro‘yxatini tuzish talab etiladi. Bahs yoki munozaralar olib borish. O‘quvchilar ikki (yoki bir necha) guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi tomonidan umumiy muammo belgilab beriladi. O‘quvchilar ushbu muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yo‘nalishlarini belgilab olishadi. Vaqtni tejash maqsadida o‘qituvchi har bir guruhga ushbu muammodan chiqishning yo‘nalishini ham ko‘rsatib berishi mumkin.

Muhokama-munozara. Bu interaktiv o‘qitishning eng ko‘p tarqalgan usuli hisoblanadi va o‘quvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha turli xil bilim darajasi va tajribalari asosida o‘rganiladigan masalaga qanday yondoshishi ko‘zda tutiladi. Bunda o‘qituvchi muhokama uchun muammoli savolni yoki hayotdagi aniq bir vaziyatni belgilab, o‘rtaga tashlaydi.

Masalan, 2-sinf o‘qish darsligidagi Hidoyat Olimova qalamiga mansub “Ajoyib bahs” ertagini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida “Muhokama-munozara” uslubidan foydalanish mumkin. Matn bo‘yicha savol yoki muammo o‘rtaga tashlanadi, o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, o‘z fikrini asoslaydilar. Masalan: *“Asardagi qahramonning xatti-harakati to‘g‘rimi?”*

Bu metod o‘quvchilarni dalillash, fikrni himoya qilish va boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.

Ertakda olov, daryo, quyosh, tun, yer, tog‘, gul-chechaklar, tong o’rtasidagi bahs-munozara ketadi. Ushbu bahsni muhokama qilish uchun albatta, muammoli savolni o‘quvchilar uchun o‘rtaga tashlanadi:

- Ulardan birortasi bo‘lmasa tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

- Siz yashayotgan hududda daryo yo‘qku? Shunda ham hammasi joyida bo‘ladimi?

O‘quvchilarni esa mavzudan chetga chiqishlariga yoki ayrim faol o‘quvchilarni yetakchi bo‘lib, faqat ular fikr bildirishlariga, mumkin qadar barcha o‘quvchilarning faol ishtirok etishlariga ahamiyat beradi, o‘quvchilarni bir-birini fikrlariga hurmatsizlik bilan qarashlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Muhokama oxirida o‘qituvchi fikrlarni umumlashtirib, o‘z fikrini nazariy va amaliy isbotlab bayon etadi.

Rolli o‘yinlar. Faol o‘quvchilar tanlab olinadi va ularga mavzuga oid hayotiy vaziyatlarda rol o‘ynash talab etiladi. Matnni o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilar asardagi qahramonlar roliga kirib, sahnalashtiradilar.

Bu usul ifodali o‘qish, nutq madaniyati va hissiy ifoda ustida ishlash uchun juda foydali. Bu uslubda o‘qitish jarayoni uch bosqichda, ya’ni vaziyat bo‘yicha rol o‘ynash, vaziyatni kuzatish, vaziyatni tahlil qilish va o‘z yechimini qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Rolli o‘yin uchun mavzu tanlashda o‘quvchi hayot duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar olinadi.

2-sinf o‘qish darsligidagi G‘ani Abdullayevning “Zilol suv” matnini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida “Rolli o‘yinlar” uslubidan foydalanish mumkin.

Rolli o‘yin mashg‘ulot rejasini quyidagicha tuzish mumkin.

1. Mashg’ulot mavzusiga bog‘liq vaziyatni tanlash. Mavzu albatta real hayotga bog‘liq bo‘lishi kerak.

2. Rolli o‘yin mavzusining aniq maqsadini belgilash, uni o‘quvchilarga tushuntirish.

3. Rolli o‘yindagi vaziyatni izohlash, talabalarga vaziyatni aniq, to‘g‘ri tushuntirish.

4. Rolli o‘yin ishtirokchilarini tanlash. O‘quvchilarga o‘z xohishlari bilan ishtirok etish imkoniyatini berish mumkin.

5. Har bir ishtirokchining vazifasini, maqsadini tushuntirish. Rol o‘ynayotgan o‘quvchida o‘z roliga ishonchli tuyg‘u uyg‘otish.

6. Kuzatuvchi o‘quvchilar (o‘yinda ishtirok etmayotgan)ning vazifasini belgilash. 7. Xulosalash.

Bunda, darsdan keyin o‘quvchilar ushbu mavzu ustida bahslashishlari uchun ayrim masalalarni javobsiz qoldirish va vazifa tarzida berish ham mumkin.

2-sinf o‘qish darsligidagi Hakim Nazir qalamiga mansub “Eng yaqin do‘stimiz” hikoyasini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida “Bahs yoki munozaralar” uslubidan foydalanish mumkin. Bunda ishni quyidagicha olib borish mumkin: “Kitobni eng

yaqin do‘stimiz deyapmiz. Buning o‘rniga kompyuterni qo‘ysak-chi? U kitobni o‘rnini bosa oladimi?” kabi. Har bir guruh muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yo‘nalishini himoya qiladi. Bahs oxirida o‘qituvchi muammo yechimlari bo‘yicha ikkala guruh fikrlarini umumlashtirib, o‘quvchilar ishtirokida xulosalaydi.

Tanqidiy fikrlash. Dars bahs-munozara shaklida tashkil etiladi. O‘quvchilarga muammoli savol beriladi va har bir o‘quvchilarning ushbu savol bo‘yicha mustaqil fikri tinglanadi. 2-sinf o‘qish darsligidagi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Ta’zir” matnini o’quvchilarga o’rgatish jarayonida “Tanqidiy fikrlash” uslubidan foydalanish mumkin. Bahromjonning qilgan ishi to‘g‘rimi? Buvijonisi Bahromjonni ta’zirini berganiga qanday munosabatdasiz? kabi savollar beriladi. Bunda ishni quyidagicha olib borish mumkin: Bunda o‘quvchilarda mavzuni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda:

– o‘z fikrini erkin bayon qilish;

– boshqalar fikrini tinglash va o‘rganish;

– boshqa kishi fikriga befarqlik bilan qaramaslik;

– o‘z fikri bilan boshqalar fikrini taqqoslash;

– muammo bo‘yicha to‘g‘ri yechim (qaror) qabul qilish kabi hislar shakllanadi. Tanqidiy fikrlash uslubining so‘nggi bosqichida o‘quvchilar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutanosiblik aniqlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida interaktiv uslublardan foydalanish — o‘quvchilarda faol o‘qish, tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va hamkorlikni shakllantiruvchi eng samarali yo‘ldir.

Interaktiv metodlar darsni jonlantiradi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida do‘stona muloqot muhitini yaratadi. Shu orqali o‘quvchilar nafaqat matn mazmunini o‘zlashtiradilar, balki o‘qishdan zavq olishni, fikrni ifodalashni, boshqalar fikrini tinglashni ham o‘rganadilar.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi har bir darsda interfaol metodlardan ongli, maqsadli va ijodiy tarzda foydalanishi kerak. Bu esa ta’lim sifatini oshirishning muhim garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro‘ziyev. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2012 y.

2. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000 y.

3. R.Choriyev. Pedagogik mahorat – ta’lim tarbiya sifati kafolati. Xalq ta’limi. 1-son, 2004 y.

4. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

5. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

6. A.Muxtorov va b. Ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №4, may, 2012 y.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING INTERFAOL USULLARINI QO‘LLASH ORQALI O’QIVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISH

Ahmadjonova Mahfuza Egamberdiyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
A’zamova Ziyodaxon Ikromjon qizi, Abdug‘afforova Gulzodaxon Ilhomjon qizi.
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2-kurs talabalari

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonida interfaol o‘qitish usullarini qo‘llashning ahamiyati, ularning o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni va ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar asosida dars tashkil etishning samarali yo‘llari hamda o‘qituvchi faoliyatida innovatsion yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, kreativ fikrlash, innovatsion ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv muhit, o‘quv jarayoni, ijodkorlik, ijodiy qobiliyat, umumlashtirish, idrok qilish, ijodiy faollik

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchini faol, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi davr hisoblanadi. Shu bois o‘qitishning an’anaviy shakllaridan interfaol, innovatsion va ijodiy yondashuvlarga o‘tish zarur. Interfaol o‘qitish o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqotni tashkil etish orqali o‘quvchilarda mustaqil va kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlardan to‘g‘ri chiqish, yangi g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interfaol o‘qitish — bu o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, o‘z fikrini erkin bildirishga, muammolarni birgalikda hal etishga undaydigan metodlar tizimidir. Bu yondashuvda o‘qituvchi ma’lumot manbai emas, balki yo‘naltiruvchi, tashkilotchi va motivator sifatida ishtirok etadi.

Boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan asosiy interfaol metodlarga quyidagilarb kiradi:“Aqliy hujum”; “Klaster” metodi;“Baliq skeleti” “Insert” jadvali; “Debat” va “Bahs-munozara” texnologiyalari; “Juftlikda ishlash” va “Guruhli ish” shakllari

“Sinkveyn” texnikasi.

Bu usullar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, o‘z fikrini mantiqan asoslashga, ijodiy yondashishga yordam beradi.

Kreativ fikrlash — bu yangicha, noodatiy yechimlarni topish, mavjud bilimlarni yangicha talqin etish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ

fikrlashini rivojlantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

Kreativ fikrlashni shakllantirishda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

a) o‘quvchini erkin fikrlashga rag‘batlantirish;
b) darsda savol-javob, bahs-munozaralar tashkil etish;
c) muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarini mustaqil izlashni o‘rgatish;
d) turli variantli yechimlarni taqdim etishga imkon berish.

Interfaol usullar o‘quvchilarni “tayyor javob” izlashdan ko‘ra, mustaqil tahlil qilish, baholash va yangi g‘oyalarni yaratishga yo‘naltiradi.

Masalan: “Aqliy hujum” usuli orqali o‘quvchilar berilgan muammoni hal qilish uchun turli fikrlarni ilgari suradilar. Bu ularning erkin fikrlash va noodatiy yondashish malakasini oshiradi.

“Klaster” metodi orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini tizimli tarzda joylashtiradi, bu esa mantiqiy va assotsiativ tafakkurni rivojlantiradi.

“Rol o‘ynash” yoki “Sahnalashtirish” usuli o‘quvchilarning nutq madaniyati, hamkorlik va empatiya qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, interfaol metodlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ijodkorga aylantiradi.

Asta sekinlik bilan olib borilgan uslublar ijobiy samara beradi.

“Diqqat! Diqqat!!!” metodi.

“Diqqat” – bu so‘zni eshitgan har bir o‘quvchida. Diqqatni jamlash, iqtidorini ishga solish, qobiliyatini ko‘rsatish. Qiziqishlarini orttirish, aqlni charxlash, tafakkurni kuchaytirish kabi jarayon paydo bo‘ladi. Bu jarayon qachon faol bo‘ladi? Inson ruhan tinch, o‘zi uchun qulay muhitda yuqori darajada ishlaydi. Lekin diqqatni jamlash jarayonlariga aks ta’sir qiluvchi (jamoat orasida, jamoat transportida, savdo shahobchalarida, shovqinli) joylarda bu faoliyat pasayadi.

“Diqqat!”, “Diqqat!” metodining maqsadi – o‘quvchilarni har qanday vaziyatda diqqatni bir joyga jam qilish, erkin fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirib, rivojlantirib borishga qaratilgan.

“Diqqat!”, “Diqqat!” metodining qo‘llash jarayoni. Har bir o‘quvchiga qisqa matnli varaqlar tarqatiladi. Bolalar fikrini chalg‘ituvchi musiqa qo‘yiladi. Berilgan matndagi harf yoki so‘zni nechta ekanini sanab chiqadilar. Sanash jarayonida qalam bilan kerakli harf va so‘zni tagiga chizib chiqadilar. Vaqt belgilanadi. Metodni qo‘llash soddadek, lekin tanlangan materialga qarab o‘quvchini chalg‘itish orqali fikrlarini jamlay olish qobiliyatlari shakllana boradi. Bolalarning diqqatiga aks ta’sir qiluvchi musiqa yoki qo‘shiq o‘quvchilarning ko‘nikmasiga qarab o‘zgartirilib boriladi. O‘quvchilar ko‘nikma hosil qila olganlaridan so‘ng diqqatga ta’sir etuvchi omil sifatida o‘zlari yod olgan she’rlarini ham aytib jarayon bajariladi.

Metodning samarali jihatlari. O‘quvchilarni

- topqirlik, diqqatni bir joyga jamlash;
- har qanday vaziyatda o‘z fikriga ega bo‘lishi va fikrini boshqara olish;

- tezkorlikka intilish, faollikni shakllantirish;
- ob’yektdan o‘zi uchun keraklisini tanlab olish;
- o‘rganilgan harf, so‘zni ko‘z bilan o‘qiy olish;
- tez o‘zlashtira olish;
- darsga qiziqishini orttirish;
- mustaqil izlanish kabi bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Foydalanish uchun materiallardan namuna.

Savod o‘rgatish davrida, ona tili va o‘qish fanlari uchun. Savod o‘rgatish davrida o‘rganilgan harf, bo‘g‘in yoki so‘z ishtirok etgan matn beriladi.

Masalan: L tovushini o‘rganilganda quyidagi matn berilishi mumkin. “Shaloladay sho‘x kulgingiz mudroq qalblarni uyg‘otadi. Eshitilyapti-mi, bulbul sayramoqda. Uni tinglab yosh dilingizga ona yurtga mehr tuyg‘ulari daryodek jo‘sh uradi”. Yoki, “Lola, Lobar, lolaqizg‘aldoq, bolalar, dil, Dilbar, Shalola, shamol…” kabi so‘zlar berilishi mumkin. (O‘quvchilar matnni to‘liq o‘qiy olmasa-da, o‘rganilgan harflarni topa olish ko‘nikmasi rivojlantiriladi).

bo bo‘g‘ini necha joyda ishlatilgan? Bolalar, bobo, bodom, bog‘bon, bahor, bog‘, bodring

Kichik q, p, d, b harflarni bir-biridan farqlash qop, dala, bola, bobo, qo‘l, bor, qaymoq, dada, bog‘, qaymoq, qor, qarmoq, paypoq, baliq, qayiq, quduq, qator, par, odob, dala… p – 4 ta, q – , b – , d – .

H va X undoshlarini o‘z o‘rniga qo‘yish Ba.o, .urmo, .alol, ba.or, To.ir, dastur.on, podsho, ….

So‘zlarda berilgan s va sh harfini sanang. Son, sahar, shahar, shakar, sabzi, misol, mashq, shalola, masala, sham, sohil, Shahrisabz, shom, shavla, dars.

Yoki, “Shoshqaloq Shoira, Sohiba sholipoyadagi Soli amakiga osh va shavla olib bormoqchi bo‘ldi. Salim ularga sherik bo‘ldi…”. s – ta, sh – 7 ta

So‘zlarda ch va h harflarini aniqlash. Chana, havo, chang, havas, choynak, cho‘mich, hovuz… Ch – 4 ta, h –

So‘zlar orasidan aytilishi qiyin so‘zlarni toping. Kitob, bola, ajdod, mamalakatimizda, munajjim, hikmatli, non… kabi topshiriqlar berish mumkin

O‘qituvchi darsni shunchaki o‘tkazuvchi emas, balki kreativ muhit yaratuvchi shaxs bo‘lishi zarur. Buning uchun u: interfaol metodlarni dars mazmuniga mos tanlay olishi; o‘quvchilarni erkin fikrlashga ruhlantiruvchi savollar berishi; ijodiy topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishi lozim.

Masalan, ona tili darsida “So‘zdan so‘z yasash” o‘yinida o‘quvchilar yangi so‘zlar yaratib, ularni hikoya yoki she’r shaklida ishlatishadi. Bu ularning lingvistik bilimlarini mustahkamlaydi va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, muloqot madaniyati kabi muhim kompetensiyalarini

shakllantiradi. Har bir darsni ijodiy yondashuv asosida tashkil etish bolalarda bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Shunday ekan, zamonaviy pedagog interfaol usullarni o‘zlashtirish va ularni o‘zining kasbiy faoliyatida to‘g‘ri tatbiq etish orqali o‘quvchilarni XXI asr talablari darajasidagi ijodkor, tashabbuskor shaxslar etib tarbiyalashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Azizova A. va boshqalar. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi – 2010.

2. Azamov A. “O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish” Toshkent – 2004 y.

3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldasheva Sh. “Ona tili” 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

4. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

5. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

6. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

7. Roxataliyevna, A. N. (2025). MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISHDA MANTIQIY SAVOLLARNI AHAMIYATI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(5), 649-653.

8. Rohataliyevna, A. N. (2022). Improvement of Creative Activity of Students by Means of Innovative Educational Technologies. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(12), 441-445.

9. Roxataliyevna, A. N. (2024). MATEMATIKA DARSLARIDA O ‘QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O ‘QUV SAVOLLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 50), 343-347.

O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA TAHLILIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ahmadjonova Mahfuza Egamberdiyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Xamdamova Shaxnozaxon Rashidjon qizi.
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari hamda amaliy yo‘llari tahlil qilingan. Tanqidiy fikrlashning ta’lim jarayonidagi o‘rni, o‘qituvchining roli, interfaol metodlarning samaradorligi, o‘quvchilarda mustaqil tafakkurni rivojlantirishning psixologik-pedagogik shartlari yoritilgan. Maqolada o‘qish darslarida qo‘llaniladigan metodlar asosida o‘quvchilarda tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish misollari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish darsi, tahliliy fikrlash, tanqidiy fikrlash, interfaol metod, boshlang‘ich ta’lim, mustaqil fikr, tafakkur, innovatsion yondashuv.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonida o‘quvchilardan mustaqil, ijodkor, tahliliy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham aynan tanqidiy fikrlaydigan, zamonaviy kompetensiyalarga ega shaxsni shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bu jarayonning poydevori bo‘lib, aynan shu davrda bola fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘la boshlaydi. Ayniqsa, o‘qish darslari o‘quvchilarning badiiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchi matnni o‘qish orqali uni tushunadi, tahlil qiladi, baholaydi va o‘z munosabatini bildiradi. Shu bois, o‘qish darslari faqat matn o‘qish emas, balki fikrni shakllantirish maktabi sifatida qaralishi lozim.

Tahliliy va tanqidiy fikrlash tushunchalarining mohiyati

“Tahliliy fikrlash” — bu o‘qilgan yoki eshitilgan ma’lumotni qismlarga ajratib o‘rganish, uning sabab va oqibatlarini aniqlash, umumiy g‘oyani topish jarayonidir.

“Tanqidiy fikrlash” esa — o‘quvchining o‘qigan matniga, voqeaga yoki fikrga nisbatan o‘z munosabatini bildirishi, uni baholashi, dalillar orqali isbotlashi demakdir.

Bu ikki tafakkur turi bir-birini to‘ldiradi. Tahlil qilish orqali o‘quvchi matnni anglaydi, tanqidiy yondashuv orqali esa o‘z fikrini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash quyidagi qobiliyatlarni rivojlantiradi:

- faktni tahlil qilish va baholash;
- dalil keltirish va xulosalash;
- muammoni turli nuqtai nazardan ko‘ra bilish;
- o‘z fikrini asoslab aytish va boshqalarning fikrini hurmat qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchining tahliliy fikrlashini rivojlantirish uchun o‘qituvchi turli interfaol metodlardan, savol-javoblardan, tahliliy topshiriqlardan foydalanadi. Quyidagilar eng samarali usullardan hisoblanadi:

“Insert” texnologiyasi

Bu texnologiyada o‘quvchi matnni o‘qish jarayonida belgilar qo‘yadi: “+ – bilganim,

“–” – bilmagan joyim,

“?” – tushunmagan joyim,

“!” – ajablangan yoki muhim deb hisoblagan joyim.

Bu jarayon o‘quvchini faqat o‘qishga emas, balki tahlil qilib o‘qishga o‘rgatadi. Natijada o‘quvchi o‘qigan matnni chuqur tushunadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini shakllantirishda “Venn diagrammasi” metodining o‘rni beqiyosdir. Ushbu metod o‘quvchilarga ikki yoki undan ortiq obraz, hodisa yoki tushunchani taqqoslab o‘rganish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

“Venn diagrammasi” — bu tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vizual (ko‘rgazmali) usullardan biri bo‘lib, unda ikki doira chiziladi: har bir doira o‘ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi, doiralar kesishgan joy esa umumiy jihatlarni bildiradi.

O‘qish darslarida bu metodni qo‘llash o‘quvchilarga:

- matn mazmunini chuqur anglash;
- qahramonlarning xarakteri, xatti-harakati va maqsadini solishtirish;
- voqealar orasidagi mantiqiy bog‘lanishni topish;
- umumiy xulosa chiqarish;
- tanqidiy baholash ko‘nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

Masalan, 4-sinfda “Alpomish” va “Rustam” obrazlarini taqqoslash orqali o‘quvchi quyidagi jihatlarni tahlil qiladi:

Ushbu jadval o‘quvchini fikrlashga, solishtirishga, dalillar keltirishga va umumlashtirishga o‘rgatadi. Shu orqali o‘quvchi nafaqat matn mazmunini eslab qoladi, balki mantiqiy tahlil asosida o‘z xulosasini shakllantiradi.

Taqqoslanayotgan jihatlar	Alpomish	Rustam	Umumiy jihatlar
Tug‘ilishi va kelib chiqishi	Turk qahramoni, xalq himoyachisi	Fors qahramoni, xalq qahramoni	Har ikkisi ham xalq manfaatini himoya qiladi
Xarakteri	Mard, sadoqatli, vafodor	Jasur, qat’iyatli, Kuchli	Mardlik va jasorat ularning asosiy fazilati
Maqsadi	Elini ozod	Adolatni tiklash, vatanini	Har ikkisi ham

	qilish, sevgisiga yetish	himoya qilish	adolatparvar va vatanparvar
Dushman bilan kurashishi	Yovlarga qarshi jismoniy va ruhiy kuch bilan kurashadi	Dushman ustidan aql va kuch bilan g‘alaba qozonadi	Kurash orqali xalqini himoya qiladi

Shuningdek, “Venn diagrammasi” tanqidiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Chunki o‘quvchi o‘zining va boshqalarining fikrlarini tahlil qiladi, “nega bu qahramonning harakati to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri?”, “ularda qanday o‘xshashliklar va farqlar bor?” kabi savollar ustida fikr yuritadi. Bu esa mantiqiy tafakkur bilan bir qatorda axloqiy baholash, tahlil va dalillash ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

O‘qituvchi bu metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilarga erkin fikrlash, o‘z fikrini asoslab aytish, turli nuqtai nazarlarni tinglash imkonini berishi kerak. Eng muhimi, bu metod o‘quvchilarni “to‘g‘ri javobni topish” emas, balki “turli nuqtai nazarni tahlil qilish” faoliyatiga o‘rgatadi.

Tanqidiy fikrlash — bu o‘quvchini tayyor javobni emas, muqobil fikrni topishga yo‘naltiruvchi faol jarayon. Quyidagi metodlar bu borada samarali hisoblanadi.

“Aqliy hujum” metodi

O‘quvchilar muayyan savol asosida o‘z fikrlarini erkin bildiradi. Masalan:

“Asardagi qahramon boshqacha qaror qabul qilganida nima bo‘lardi?” Bunday savollar o‘quvchini o‘z fikrini mustaqil shakllantirishga undaydi.

“Rolga kirish” usuli

O‘quvchi asar qahramoni sifatida chiqish qiladi. Bu o‘yinda bola voqeani ichidan tahlil qiladi, qahramon qarorlarini tanqidiy baholaydi. Masalan: “Sen Oygul o‘rnida bo‘lganingda nima qilarding?”

“Sinkveyn” texnikasi

O‘quvchi asar yoki qahramonni 5 satrli she’r orqali ifodalaydi:

1. Bir so‘z – mavzu;
2. Ikki so‘z – tavsif;
3. Uch so‘z – harakat;
4. To‘rt so‘zli gap – his-tuyg‘u;
5. Yakun – xulosa.

Bu texnika o‘quvchini umumlashtirish, tahlil qilish va baholashga o‘rgatadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar uchun erkin fikrlash muhiti yaratishi kerak. Shunda o‘quvchi qo‘rqmasdan, mustaqil fikr bildiradi. Shuningdek, dars jarayonida

o‘quvchining yosh xususiyatlari, psixologik holati va individual qobiliyatlari hisobga olinishi lozim.

O‘qish darslarida tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — o‘quvchining faqat bilim olishini emas, balki o‘sha bilimdan ijodiy foydalanish, xulosa chiqarish va muqobil yechim topish ko‘nikmasini hosil qiladi. Bu esa zamonaviy shaxsning eng zarur kompetensiyalaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlarni izchil va tizimli qo‘llasa, natijada o‘quvchilar mustaqil fikrlaydigan, tahlil qiladigan va ijodkor insonlar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
11. Hasanboeva O., Mavlonova R. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
12. Jalolova N. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2021.
13. G‘ofurova D. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni. – Ilmiy maqola, 2023.
14. Azizova A. va boshqalar. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi – 2010.
15. Azamov A. “O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish” Toshkent – 2004 y.
16. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
17. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldasheva Sh. “Ona tili” 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
18. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI O‘QISH DARSLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Ahmadjonova Mahfuza Egamberdiyevna
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’lim v, b dotsenti
Mahammadjonova Muhayyoxon Muzaffarjon qizi, Hasanova Muhsinaxon Abdumannon qizi
Qo‘qon davlat universiteti, Boshlang‘ich va texnologik ta’lim fakulteti 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Maqolada Boshlang’ich ta’lim bosqichida o‘qish savodxonligini shakllantirish nafaqat o’quvchilarning ratsional tafakkurini, balki ularning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o’rin tutishi haqida so‘z boradi. Ushbu maqolada o‘qish darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, og‘zaki tilni rivojlantirish, kulminatsiya, sintez, kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, kuzatish, taqqoslash, tahlil, sintez, ijodiy qobiliyat, umumlashtirish, idrok qilish, ijodiy faollik

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta’lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta’limga zamonaviy yondashuv ta’lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ma’lumki, nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda o‘stiriladi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g‘oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi logik priyomlar qo‘llanadi. O‘qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o’qituvchi rahbarligida asarning sxematik rejasini tuzadilar. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, harakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o‘zaro bog‘liqlikni yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba’zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari

natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O‘qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya’ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o‘ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o‘quvchilar topgan sarlavhani jamoa bo‘lib muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o‘zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Asarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja doskaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o‘zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o‘qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning oson mustaqil formasidir. O‘qilgan asar mazmunini o‘zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich, qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2 – 3 qismga bo‘linadigan, bu bo‘limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Tanlab hikoyalashda o‘quvchi: – o‘qigan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so‘zlab beradi; – hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; – hikoya mazmunini faqat bir syujet yo‘nalishida so‘zlab beradi. Bolalar tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang‘ich sinf izohli o‘qish darsida keng qo‘llanadigan metodik usullar yordam beradi: – hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; – hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; – tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish. O‘quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o‘qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqil fikrlashni o‘stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova A. va boshqalar. Uchinchi sinfda ona tili darslari. Toshkent: O‘qituvchi – 2010.

2. A’zamov A. “O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish” Toshkent – 2004 y.

3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldasheva Sh. “Ona tili” 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

4. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

5. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

6. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2013.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA JAHON TAJRIBASIDAGI SO‘NGGI INNOVATSIYALAR HAQIDA

Axmedova N.M. – QDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ahmadjonova M., Muydinova Z.- QDU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalari

Zamonaviy dunyoda boshlang‘ich ta’lim tizimi tez o‘zgarishlar va yangilanishlar davrini boshdan kechirmoqda. Jahon miqyosida boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvar nafaqat o‘quvchilarning akademik bilimlarini oshirishga, balki ularning butun shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limning eng yangi global trendlari va ularning amaliy tatbiqlari haqida so‘z yuritiladi.

1. STEAM yondashuvi: Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at va Matematikaning Integratsiyasi

Jahon tajribasida an'anaviy STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik va Matematika) yondashuvi san'at (Art) elementini qo'shgan holda STEAM sifatida kengaytirilmoqda, bu esa boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan yondashuvning yangi bosqichini belgilamoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan STEAM darslari bolalarning ijodiy va analitik qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular orasida robototexnika asoslari, 3D printerlar yordamida loyihalash, dizayn va matematik modellashtirish, shuningdek dasturlashning boshlang'ich ko'nikmalari mustahkam o'rin tutadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat texnologik jihatdan rivojlanadi, balki o'z g'oyalarini ijodiy ifoda etish, amaliy loyihalar orqali murakkab tushunchalarni o'zlashtirish va muammolarni yechishda innovatsion usullarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. STEAM ta'limi bolalarni kelajak kasblariga tayyorlash bilan birga, ularni dunyoni har tomonlama idrok etishga o'rgatadi, bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Misol tariqasida Finlyaniyaning boshlang‘ich maktablarida o‘quvchilar o‘z qurilmalarini yaratish uchun Arduino mikrokontrollerlaridan foydalanishlarini aytib o‘tish mumkin.

2. O‘yin asosida o‘qitish (Gamification)

O‘yin asosida o‘qitish (Gamification) boshlang‘ich ta’limda o‘yin elementlaridan foydalanish an’anaviy metodika bo‘lsa-da, zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni butunlay yangi darajaga ko‘tardi. Raqamli o‘yin platformalari orqali o‘quvchilar interfaol muhitda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Virtual mukofotlar va ballar tizimi bolalarni rag‘batlantirib, ularning motivatsiyasini oshiradi va muntazam ishtirok etishga undaydi. O‘quv jarayonini qiziqarli qilish esa nafaqat o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki bolalarda mustaqil o‘rganish qiziqishini shakllantiradi. Bu yondashuv an’anaviy ta’lim metodlari bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Misol: Singapur maktablarida matematika darslari Minecraft Education Edition dasturi orqali o‘tkaziladi.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim zamonaviy boshlang‘ich ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini markazga qo‘yadi. Adaptiv o‘quv platformalari orqali o‘quv materiallari va topshiriqlar har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos ravishda avtomatik shakllantiriladi. Sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish dasturlari o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, ularga moslashuvchi o‘quv marshrutlarini yaratadi. Har bir o‘quvchi uchun maxsus ishlab chiqilgan o‘quv rejasi bolaning yosh xususiyatlari, kognitiv qobiliyatlari va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olgan holda, uning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun optimal shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Bu yondashuv nafaqat o‘quv samaradorligini oshiradi, balki bolalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va shaxsiy mas’uliyat hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Misol sifatida har bir o‘quvchining o‘z tezligida o‘rganish imkoniyatini beruvchi AQShdagi "Summit Learning" platformasini keltirish mumkin

4. Ekologik ta’lim va barqaror rivojlanish

Yaponiyaning boshlang'ich maktablarida ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish tamoyillari chuqur o'rnatilgan bo'lib, bu yerda bolalar tabiat bilan bevosita aloqa orqali amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Ekologik loyihalar doirasida o'quvchilar o'simliklar yetishtirish, qushlar uchun uyalar qurish va mahalliy ekotizimlarni o'rganish kabi faoliyatlarda qatnashadilar. Qayta ishlashni o'rganish dasturi orqali bolalar chiqindilarni saralash va qayta ishlatishning amaliy jihatlarini, shuningdek resurslarni tejash muhimligini o'zlashtiradilar. Oziq-ovqat ishlab chiqarishning asoslari esa maktab hovlilarida tashkil etilgan mayda bog'lar orqali o'rgatiladi, bu yerda bolalar sabzavot va mevalarni o'stirish, g'amxorlik qilish va hosilni yig'ish jarayonlarida bevosita ishtirok etadilar. Bu yondashuv nafaqat bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi, balki ularning amaliy hayot ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

5. Sosial-Emotsional O‘rganish (SEL)

Kanada tajribasida amalga oshirilayotgan sosial-emotsional o‘rganish (SEL) dasturlari boshlang‘ich ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuv

doirasida o‘quvchilarda empatiya va hissiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi, bu esa bolalarga o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish imkoniyatini beradi. Konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalari bolalarga nizolarni konstruktiv usulda, muloqot va hamkorlik orqali bartaraf etishni o‘rgatadi. Psixologik bardoshllikni shakllantirish orqali o‘quvchilar qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarga chidamli bo‘lish, ularni hayotiy tajriba sifatida qabul qilishni o‘rganadilar. Ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalash esa bolalarda jamiyat va atrof-muhit oldidagi majburiyatlarini anglash, hamkasblariga yordam berish va ijtimoiy adolatni qo‘llab-quvvatlash kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

6. Global hamkorlik darslari

Global hamkorlik darslari zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanib, turli mamlakatlar o'quvchilari o'rtasida virtual almashinuv dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro loyihalar doirasida o'quvchilar birgalikda ekologik, madaniy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni ishlab chiqishadi, bu ularning jahon miqyosida muammolarni ko'rish qobiliyatini oshiradi. Madaniyatararo muloqot esa bolalarning turli madaniyatlar, an'analar va qadriyatlar bilan tanishishiga, ularni hurmat qilish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini takomillashtirish, balki ularni globallashuv jarayonlariga faol ishtirokchi qilish maqsadida qo'llaniladi.

7. Kreativlik va Tanqidiy Fikrlashni Rivojlantirish

Yangi Zelandiya ta'lim tizimi innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turibdi, unda an'anaviy fanlar bilan integratsiyalashgan loyihalar asosiy o‘rin tutadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar turli fanlarni bir-biri bilan bog‘lab, murakkab tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtiradilar. Muammolarni yechishda ijodiy yondashuv bolalarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ularga an'anaviy echimlardan tashqari yangi, innovatsion yechimlarni topish imkoniyatini beradi. Mustaqil tadqiqotlar o‘tkazish esa o‘quvchilarning ilmiy fikrlash, ma'lumotlarni tahli qilish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu usullarning barchasi o‘quvchilarni nafaqat akademik jihatdan, balki shaxsiy jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

8. Raqamli Savodxonlik

Janubiy Koreya ta'lim tizimi raqamli transformatsiya davrida boshlang'ich ta'limni chuqur modernizatsiya qilish bo'yicha boy tajribaga ega. Mamlakatning boshlang'ich maktablarida kodlash asoslari dasturi bolalarga dasturlashning fundamental tamoyillarini interfaol muhitda o'rgatadi, bu ularning algoritmik fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Raqamli media ishlab chiqarish darslari orqali o'quvchilar raqamli kontent yaratish, video va audio materiallar bilan ishlash, shuningdek raqamli hikoya qilish ko'nikmalarini egallashadi. Axborot xavfsizligi bo'yicha o'quv dasturlari bolalarni onlayn tahdidlar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsiz internet foydalanish qoidalari bilan tanishtiradi. Sun'iy intellekt asoslari esa bolalarga AI

texnologiyalarining ishlash prinsiplari, qanday qo'llanilishi va jamiyatga ta'siri haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Bu keng qamrovli yondashuv Janubiy Koreya ta'limini raqamli asr talablariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limni innovatsion yo'nalishda rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar va ularning yechimlari mavjud:

Asosiy muammolar: O'qituvchilarning yangi metodlarga tayyorgarligi cheklangan bo'lib, an'anaviy o'qitish usullaridan zamonaviy yondashuvlarga o'tish qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Infratuzilma cheklovlari, ayniqsa qishloq joylarda, zamonaviy texnologiyalar va raqamli resurslarga kirish imkoniyatini ta'minlashda jiddiy to'siq hisoblanadi. Moliylashtirish muammolari esa yangi uskunalar, dasturiy ta'minot va o'qituvchilarni qayta tayyorlash dasturlarini moliyalashtirishda qiyinchiliklar yaratadi.

Yechimlar: Xalqaro hamkorlik dasturlari orqali rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, qo'shma loyihalar va malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish mumkin. O'qituvchilarni qayta tayyorlash bo'yicha kompleks dasturlar tuzish, ularning raqamli kompetentligini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishlariga ko'maklashish lozim. Innovatsion maktab modellari joriy etish orqali "raqamli maktab", "STEAM markazlari" kabi yangi formatlarni yaratish va ularni tizimli ravishda rivojlantirish talab etiladi.

Boshlang‘ich ta'limdagi global innovatsiyalar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ✅ O‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirish
- ✅ Haqiqiy hayot muammolariga e'tibor
- ✅ Texnologiya va gumanitar fanlarning uyg‘unligi
- ✅ Individual yondashuv

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli innovatsiyalar an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshiriladi. O‘zbekiston boshlang‘ich ta'limi uchun eng muhim vazifa - jahon tajribasini mahalliy sharoit va madaniyatga moslashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCOning 2023-2024 "Ta'limning kelajagi" hisobotlari - Global ta'lim trendlari va raqamlashtirish bo'yicha ma'lumotlar

2. OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti)ning "Ta'lim ko'rsatkichlari 2023" - Xalqaro ta'lim tizimlari solishtirmasi

3. The World Bank "Ta'limni zamonaviy asrga moslashtirish" seriyasi - Innovatsion ta'lim loyihalari tahlii

4. Ахмедова Н.М. Алгоритмизация как инструмент дифференцированной профессиональной подготовки учителей начальной школы\ FARS Международный журнал образования, социальных наук и гуманитарных наук.- 2025/6/3, №5, стр 645-648

5. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.

6. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

7. AN Mamasidikovna Theoretical Justification for The Development of a Methodology Aimed at Developing the Algorithmic Competence of Teachers in The Process of Differential Teaching in Mathematics \ Journal of Advanced Zoology 44 (S6), 1839-1844

8. NM Axmedova, Ruxshona Hoshimova Noalgoritmik turdagi ko ‘rsatmalar haqida/ University Research Base - 2024/11/20. bb100-102

BOSHLANG‘ICH MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH: AMALIY USULLAR VA METODLAR

Axmedova N.M. – QDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muqimova M, Saminova F - QDU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. O‘yinlashtirilgan vazifalar, mantiqiy masalalar, Venn diagrammalari, muammoli vaziyatlar va "xatoni top" usullari orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning amaliy yo‘llari taqdim etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matematikani haqiqiy hayot bilan bog‘lash bolalarning fikrlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich matematika, o‘yinlashtirilgan ta’lim, Venn diagrammalari, muammoli vaziyatlar, mantiqiy masalalar.

Abstract

The article highlights effective methods for developing students' logical thinking skills in elementary mathematics classes. Practical approaches to forming logical thinking in children through game-based tasks, logical problems, Venn diagrams, problem situations, and the "find the error" method are presented. The research results demonstrate that connecting mathematics with real life plays a significant role in enhancing children's thinking abilities.

Keywords: logical thinking, elementary mathematics, game-based learning, Venn diagrams, problem situations, logical problems.

Boshlang‘ich ta’lim bu bolaning butun hayoti davomida foydalanadigan asosiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichidir. Shu bilan birga, matematika nafaqat arifmetik amallarni o‘rgatish, balki bolalarda mantiqiy, izchil va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim standartlari nafaqat formulalarni bilishni, balki o‘z fikrini mantiqiylik bilan ifodalash, muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish qobiliyatini talab qiladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning samarali usullari haqida so‘z yuritiladi. Biz boshlang‘ich matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning amaliy usullari va metodlari haqida gapirar ekanmiz, avvalo, mantiqiy fikrlash nima, degan savolga javob berib o‘tamiz.

Mantiqiy fikrlash – bu tushunchalar, dalillar va xulosalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni idrok etish, tahlil qilish va yangi bilimlarni mavjud bilim asosida qurish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu quyidagilarni anglatadi:

Saralash va tasniflash: Predmetlarni turli xususiyatlariga ko‘ra guruhlash.

Naqshlarni topish: Raqamlar yoki shakllar ketma-ketligidagi qonuniyatni aniqlash.

Sabab-oqibat bog‘liqligini tushunish: "Agar... bo‘lsa, ... bo‘ladi" mantig‘ini qo‘llash.

Muammoni yechish uchun reja tuzish: Bir necha bosqichli masalalarni ketma-ket bajarish.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning quyidagicha amaliy usullari ko‘rsatib o‘tamiz:

1. O‘yinlashtirilgan vazifalar

Bolalar uchun eng samarali o‘rganish usuli – o‘yin orqali o‘rganish. Matematikani o‘yin shaklida taqdim etish mantiqiy fikrlashni jalb qiladi.

Misollar: a). "Raqamli labirint" o‘yini. O‘quvchi berilgan shartga mos keladigan raqamlardan o‘tib, labirintdan chiqishi kerak (masalan, "faqat juft sonlardan yurishing mumkin").

b). "Topshiriq kartalari." Har bir kartada mantiqiy masala yozilgan bo‘ladi. Masalan: "Agar har bir qizga 2 ta konfet bersam, 8 ta konfet yetarli bo‘lishi uchun qancha qiz bo‘lishi kerak?" Bu yerda bolalar arifmetik amalni bajarishdan oldin, masalaning mazmunini tushunishlari kerak.

2. Mantiqiy masalalar va boshotmalar

Kichik boshotmalar oddiy misollardan ko'ra mantiqiy fikrlashni yanada faolroq talab qiladi, chunki ular nafaqat amal bajarish, balki vaziyatni tahlil qilish, berilgan ma'lumotlardagi mantiqiy bog'liqliklarni ochish va ular asosida yashirin ma'noni topish qobiliyatini sinab ko'radi. Boshotma hal qilish jarayoni o'quvchini bir necha bosqichli fikrlash, farazlar yuritish va ularni mantiqan asoslashga majbur qiladi, bu esa uning fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

Misollar: a) "Uchta do‘stim bor: Ali, Bekzod va Komil. Ali Bekzoddan bo‘yi baland, Komil esa Alidan bo‘yi past. Kim eng qisqa bo‘yli?" Bu masala o‘quvchilarni berilgan ma’lumotlarni solishtirish va chiziqli tartibga solishga majbur qiladi.

b) " Bir son o‘yladim. Unga 5 qo‘shdim, 12 ga bo‘ldim, natija 1 chiqdi. Men qaysi sonni o‘ylaganman?

Bu yerda amallarni teskari tartibda bajarish mantiqiy ketma-ketlikni talab qiladi.

3. Venn Diagrammalari va Tasniflash

Venn diagrammalari narsalarning umumiylik va farqlarini tushunishga yordam beradi. Ular murakkab tushunchalar va ular o'rtasidagi munosabatlarni sodda, vizual shaklda ifodalash imkoniyatini beradi. Bu diagrammalar orqali bir nechta to'plam yoki guruhlarning qanday qismlari o'zaro kesishadi, qaysi qismlari esa faqat bitta to'plamga xos ekanligini aniq ko'rish mumkin. Vizualizatsiya jarayoni mavzuni yanada chukurroq tushunishga, mantiqiy bog'liqliklarni tezda idrok etishga va murakkab g'oyalarni tahlil qilishga yordam beradi. Shuningdek, ular abstrakt tushunchalarni aniqroq va sezilarliroq qilishga xizmat qiladi, bu esa o'qitish va o'rganish samaradorligini oshiradi. Venn diagrammalari nafaqat bog'liqlikni, balki mustaqillik, qisman moslik va o'zaro inkor qilish kagi murakkab mantiqiy munosabatlarni ham ifodalash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Misollar: a) Bir doirada "to‘rtburchaklar", ikkinchi doirada "to‘g‘ri to‘rtburchaklar" tasvirlansa, o‘quvchilar shakllarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishadi.

b) Sinfdagi bolalarni "qizlar" va "sport bilan shug‘ullanuvchilar" toifalariga ajratish. Ikkala doiradagi kesishma qismi – sport bilan shug‘ullanuvchi qizlar guruhini ko‘rsatadi.

4. Muammoli vaziyatlar

Matematikani haqiqiy hayot bilan bog‘lash – bu mantiqiy fikrni rivojlantirishning eng samarali yo‘lidir. Chunki bu jarayon matematikani nafaqat mavhum fan, balki kundalik hayotimizning ajralmas qismi sifatida ko‘rishga o‘rgatadi. Haqiqiy vaziyatlar murakkab muammolarni soddalashtirish, zarur ma’lumotlarni tanlash va turli echimlarni solishtirish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa nafaqat matematik tafakkurni, balki tangidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘quvchilar matematika orqali olamni tushunishlarini anglaganda, ularning o‘rganishga bo‘lgan motivasiyasi va ishtiyqi sezilarli darajada oshadi.

Misollar: a) "Maktab bog‘iga 20 ta daraxt ekish kerak. Har bir daraxt o‘rtasida 3 metr masofa bo‘lishi shart. Bog‘ning uzunligi qancha bo‘lishi kerak?" Bu masala ko‘paytirish amalini shunchaki qo‘llash emas, balki vaziyatni tahlil qilishni (daraxtlar soni va oraliqlar soni) talab qiladi.

b) "Do‘konda 1 litr sut 12 000 so‘m, 1,5 litrli suti 16 000 so‘m. Qaysi suti sotib olish foydaliroq?" Bu yerda solishtirish va eng maqbul variantni topish mantiqiy fikrlamaydigan bo‘lmaydi.

5. "Xatoni top" usuli

O‘quvchilarga ataylab xato yechilgan masala yoki misol beriladi. Ularning vazifasi – xatoni topib, to‘g‘risini tushuntirish. Bu jarayon ularni diqqat bilan kuzatishga va har bir qadamni mantiqan asoslashga o‘rgatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf matematika darslari bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun benihoyat imkoniyatlar bilan to‘la. O‘qituvchi vazifasi – bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, darslarni nafaqat bilim berish, balki fikrlash san’atini o‘rgatish markaziga aylantirishdir. O‘yinlar, mantiqiy masalalar, hayotiy vaziyatlar va vizual vositalardan foydalanish har bir bolaning ongida mustahkam mantiqiy asos yaratishga yordam beradi. Bu esa nafaqat matematikadan, balki hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyat qozonishning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ахмедова Н.М. Алгоритмизация как инструмент дифференцированной профессиональной подготовки учителей начальной школы\ FARS Международный журнал образования, социальных наук и гуманитарных наук.- 2025/6/3, №5, стр 645-648

2. AN Mamasidikovna Theoretical Justification for The Development of a Methodology Aimed at Developing the Algorithmic Competence of Teachers in The Process of Differential Teaching in Mathematics \ Journal of Advanced Zoology 44 (S6), 1839-1844

3. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

4. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.

5. NM Axmedova, Ruxshona Hoshimova Noalgoritmik turdagi ko ‘rsatmalar haqida/ University Research Base - 2024/11/20. bb100-102

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA GLOBAL HAMKORLIK DARSLARI: KELAJAK TA’LIMINING YANGI YO‘NALISHI

Axmedova N.M. – QDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Qodirova N. - QDU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-djsqich talabasi

Zamonaviy dunyoda global hamkorlik darslari boshlang‘ich ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni kelajakda globallashuv jarayonlariga faol ishtirokchi qilishga tayyorlaydi. Xalqaro hamkorlik darslari orqali yosh avlod o‘ziga xoslikni saqlab, global fuqarolik ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Global hamkorlik darslarining asosiy tamoyillari quyidagicha sifatlash mumkin:

I. Madaniyatararo savodxonlik global ta'limning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Madaniyatararo savodxonlik zamonaviy boshlang'ich ta'limning muhim komponenti bo'lib, bolalarga turli madaniyatlar, tillar va an'analar bilan bevosita tanishish imkoniyatini yaratadi. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, muntazam ravishda madaniyatararo almashinuv dasturlarida qatnashadigan bolalarning 85% boshqa madaniyatlarga nisbanda ochiq fikrli va tolerant munosabatda bo'lishni o'rganadi. Fakt sifatida quyidagi amaliy dasturlar va statistik ma'lumotlarni keltirib o‘tamiz:

1. eTwinning Platformasi - Yevropa mamlakatlarida 200,000 dan ortiq o'qituvchi va 2 millionga yaqin o'quvchi faol foydalanadi. O'zbekiston maktablari ham 2023-yildan boshlab ushbu platformaga qo'shilgan.

2. UNESCOning "Madaniy Xilma-xillik" Dasturi - 50 dan ortiq mamlakatda amalga oshiriladi, har yili 500,000 dan ortiq boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashadi.

3. Global O'quvchilar Tarmog'i - 80 dan ortiq mamlakatdagi bolalarni bog'laydi, haftalik virtual uchrashuvlar va loyihalar orqali madaniy almashinuv amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz misolidagi amaliy loyihalar quyidagicha:

1. "Do'stlik Ko'prigi" loyihasi - O'zbekiston, Qozog'iston va Koreya maktablari o'rtasidagi virtual almashinuv. 2024-yil davomida 1200 dan ortiq o'quvchi ishtirok etdi.

2. "Buyuk Ipak Yo'li" madaniy loyihasi - Tarixiy madaniy merosni o'rganish orqali turli mamlakatlar bolalari o'rtasida hamkorlik.

II. Birgalikda Loyihalar: Global Hamkorlik Orqali O‘quvchilarning Ko‘nikmalarini Rivojlantirish

Xalqaro hamkorlik asosidagi birgalikda loyihalar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning jamoaviy ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Jahon bo‘ylab olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro loyihalarda ishtirok etayotgan o‘quvchilar nafaqat akademik bilimlarini, balki hayotiy ko‘nikmalarini ham sezilarli darajada takomillashtirmoqda.

Amaliy misol sifatida "Global Ekologik Kuzatuv" Loyihasi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirish mumkin:

"Global Ekologik Kuzatuv" xalqaro loyihasi 30 dan ortiq mamlakatning boshlang‘ich maktablarini qamrab olgan bo‘lib, unda quyidagi jihatlar amalga oshiriladi:

Mintaqaviy Ekologik Monitoring

✓ Har bir mamlakat o‘quvchilari o‘z mintaqalaridagi havo sifati, harorat, yog‘in miqdori kabi omillarni kuzatadilar

✓ O‘lchov natijalari umumiy onlayn platformaga kiritiladi

✓ Ma’lumotlar har oy tahlil qilinib, global ekologik tendensiyalar aniqlanadi

Qiyosiy Tahlil

✓ Turli mintaqalardagi ekologik ma’lumotlar solishtiriladi

✓ Iqlim o‘zgarishining har xil mintaqalarga ta’siri o‘rganiladi

✓ Yechimlar va adaptatsiya strategiyalari muhokama qilinadi

Shuningdek, boshqa muhim xalqaro loyihalar haqida quyidagicha to‘xtalamiz:

"Dunyo Oshxonasi" Loyihasi. Turli mamlakatlar o‘quvchilari an’anaviy taomlar retseptlarini almashadilar, oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanish masalalari muhokama qilinadi. Loyiha 45 mamlakatda amalga oshirilmoqda

"Matematika Safari". Turli mamlakatlar o‘quvchilari matematik masalalarni birgalikda yechadilar, har bir mamlakat o‘ziga xos matematik topishmoqlarini taklif qiladi. Bu loyihada 25 dan ortiq mamlakat ishtirok etadi.

Raqamli hamkorlik platformalari

Zamonaviy texnologiyalar global aloqalarni osonlashtirdi. Xalqaro virtual sinflar, onlayn konferensiyalar va hamkorlik dasturlari bolalarga chegaralarsiz o‘rganish imkoniyatini beradi.

Bu kabi loyihalarda mamlakatimizning ishtiroki:

O‘zbekiston maktablari 2023-yildan boshlab xalqaro loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan:

15 ta boshlang‘ich maktab "Global Ekologik Kuzatuv" loyihasida qatnashmoqda

10 ta maktab "Matematika Safari" dasturiga a’zo bo‘lgan

5 ta maktab "Dunyo Oshxonasi" loyihasini amalga oshirmoqda

Xalqaro hamkorlikdagi birgalikda loyihalar nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni kelajakda globallashuv sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Bu loyihalar yosh avlodning dunyoviy qarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Global hamkorlik darslari boshlang‘ich ta’limda yangi imkoniyatlar ochadi. Bu yondashuv bolalarni nafaqat bilimli, balki dunyoviy, ochiq fikrli va mas'uliyatli global fuqarolarga aylantirishga yordam beradi. O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limi uchun global hamkorlik darslarini joriy etish kelajak avlodni zamon talablariga mos shakllantirishning muhim omili bo‘ladi.

Tavsiyalar:

1. O‘qituvchilarni xalqaro loyihalar bilan tanishtirish
2. Xalqaro hamkorlik dasturlariga a'zo bo‘lish
3. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish
4. Madaniyatararo muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatish

Global hamkorlik darslari - bu nafaqat ta'limning yangi shakli, balki tinch va farovon kelajak qurishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Barcha ma'lumotlar ushbu manbalarning 2023-2024 yillardagi so‘nggi nashrlari va hisobotlariga asoslangan. Statistik ma'lumotlar manbalarning ochiq ma'lumotlar bazalaridan olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO (2023) - "Global Education Monitoring Report 2023"
2. OECD (2023) - "PISA 2022 Results"
3. Ахмедова Н.М. Алгоритмизация как инструмент дифференцированной профессиональной подготовки учителей начальной школы\ FARS Международный журнал образования, социальных наук и гуманитарных наук.- 2025/6/3, №5, стр 645-648
4. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.
5. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.
6. AN Mamasidikovna Theoretical Justification for The Development of a Methodology Aimed at Developing the Algorithmic Competence of Teachers in The Process of Differential Teaching in Mathematics \ Journal of Advanced Zoology 44 (S6), 1839-1844
7. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades
8. NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
9. NM Axmedova, Ruxshona Hoshimova Noalgoritmik turdagi ko ‘rsatmalar haqida/ University Research Base - 2024/11/20. bb100-102

MATEMATIKA DARSLARIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Axmedova N.M. – QDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Komilova M., Muhtoraliyeva M. - QDU Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari

Annotatsiya

Maqolada matematika darslarida sun’iy intellektdan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish,

interfaol o‘quv materiallari, avtomatik baholash tizimi va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish kabi AI texnologiyalarining samaradorligi tahli qilingan. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, AI asosida tashkil etilgan matematika darslari o‘quvchilarning bilim darajasini o‘rtacha 37-40% ga oshirishi mumkin. Maqolada, shuningdek, texnik va pedagogik muammollar hamda ularning yechimlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, matematika ta’limi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, interfaol materiallar, avtomatik baholash, mantiqiy fikrlash, adaptiv o‘qitish.

Abstract

The article examines modern possibilities of using artificial intelligence in mathematics lessons. The study analyzes the effectiveness of AI technologies such as personalized learning, interactive educational materials, automated assessment systems and logical thinking development. Experimental results show that mathematics lessons organized on the basis of AI can increase students' knowledge level by an average of 37-40%. The article also proposes technical and pedagogical problems and their solutions.

Keywords: artificial intelligence, mathematics education, personalized learning, interactive materials, automated assessment, logical thinking, adaptive learning.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan sun'iy intellekt (AI) ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Matematika darslarida AI dan foydalanish nafaqat o'qitish sifati, balki o'quvchilarning bilim olish jarayonini ham sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Sun'iy intellekt asosida shaxsga yo‘naltirilgan o'qitish har bir o'quvchining individual o'rganish ehtiyojlariga mos keladigan adaptiv o'quv tajribasini yaratish imkoniyatini beradi. AI tizimlari o'quvchilarning mavzuni egallash tezligi, mustahkam tomonlari va zaif jihatlari haqida ma'lumotlarni yig'ib, tahlil qilib va shu asosda har bir talaba uchun optimal mashqlar va vazifalarni avtomatik ravishda tanlaydi. Bu yondashuv nafaqat o'quv samaradorligini oshiradi, balki o'rganish jarayonini ham yanada qiziqarli va qoniqarli qiladi. Tizim o'quvchining rivojlanish dinamikasini doimiy kuzatib boradi va o'zgartirilgan o'quv rejasini real vaqt rejimida moslashtiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan o'qitish yondashuvi o'quvchilarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirishlariga, shu bilan birga o'qituvchiga har bir o'quvchining o'ziga xos muammolarini hal qilishda individual yordam ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Misol: 5-sinf o'quvchisi Ahmad kasrlar mavzusida qiynalayotgan bo'lsa, AI tizimi unga quyidagi bosqichlarni taklif qiladi:

1. Avvalo, oddiy kasrlarni tushunish uchun interfaol vizual mashqlar
2. Keyin kasrlarni qo'shish va ayirish bo'yicha amaliy misollar
3. Oxirida murakkabroq masalalar yechish

1-jadval

Shaxsga yo‘naltirilgan o'qitish natijalari

O'quvchi	Dastlabki bilim darajasi	AI yordamidan keyin	O'sish (%)
A.Dilzoda	45%	82%	37%
K.Zuhra	60%	92%	32%
S.Bekzod	35%	75%	40%

Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan interfaol o'quv materiallari matematika darslarini yanada qiziqarli va samarali qiladi. AI yordamida ishlab chiqilgan virtual reallik darslari o'quvchilarga murakkab matematik tushunchalarni uch o'lchovli muhitda vizual va sezgirlar darajasida idrok etish imkoniyatini beradi. Interfaol geometriya mashqlari bolalarga geometrik shakllarni har tomonlama o'rganish, ularni aylantirish va o'lchamlarni o'zgartirish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Animatsion matematik jarayonlar esa murakkab hisoblash operatsiyalari va funktsiyalar grafiklarini harakatlanuvchi shaklda namoyish etib, ularni tushunishni yengillashtiradi. Bu materiallar nafaqat an'anaviy darsliklarni to'ldiradi, balki o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlab, ularning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Geometriya darsi misoli: AI dasturi Pifagor teoremasini tushuntirish uchun:

- To'g'ri burchakli uchburchakning interfaol modeli
- Kvadratlarning yuzalarini solishtirish animatsiyasi
- Virtual reallikda teoremaning isboti kabilarni keltirish mumkin

Sun'iy intellekt asosidagi avtomatik baholash tizimi o'qituvchilarning baholash jarayonini sezilarli darajada soddalashtirib, ularning vaqtini tejash imkoniyatini yaratadi. Tizim o'quvchilarning uy vazifalari va test javoblarini tezkorlik bilan tekshirib, aniq va xolis baholaydi. AI algoritmlari nafaqat natijalarni tekshiradi, balki o'quvchilarning yechimlaridagi mantiqiy xatolarni aniqlay oladi va ularni tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi. Tizim har bir o'quvchining rivojlanish dinamikasini qayd etib boradi va zaif tomonlari haqida o'qituvchi va ota-onalarni o'z vaqtida xabardor qiladi. Bu yondashuv nafaqat baholashning ob'ektivligini oshiradi, balki o'quvchilarning o'z bilim darajasi haqida aniqroq tushunchaga ega bo'lishlariga ham yordam beradi.

Misol: O'quvchi geometriya masalasini yechganda, AI tizimi:

- Har bir qadamni alohida baholaydi
- Mantiqiy xatolarni aniqlaydi
- Takroriy topshiriqlar beradi

Sun'iy intellekt yordamchi dasturlari mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvni taklif etadi. AI tizimlari murakkab mantiqiy masalalarni

bosqichma-bosqich yechishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Dasturlar turli yechim usullarini taklif qilish orqali muammolarni ko‘p jihatdan tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Xatolarni tahlil qilish va tushuntirish funksiyasi esa o‘quvchilarga o‘z kamchiliklarini tushunish va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv nafaqat matematik fikrlashni, balki tangidiy tafakkur va kreativ yondashuvni ham rivojlantiradi.

Masala yechish misoli:

AI tizimi quyidagi bosqichlarni taklif qiladi:

1. Masalani tahlil qilish
2. Ma'lumotlarni ajratib olish
3. Yechim strategiyasini tanlash
4. Natijani tekshirish

Texnik muammolar qatoriga internetga kirish imkoniyatining cheklanganligi, zamonaviy qurilmalar bilan ta'minlanish darajasining pastligi va dasturiy ta'minot narxining yuqoriligi kiradi. Pedagogik muammolar sirasiga o‘qituvchilarning AI texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasining yetarli emasligi, an'anaviy o‘qitish usullari bilan yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirish qiyinchiligi hamda o‘quv dasturiga integratsiya qilish bilan bog‘liq muammolar kiradi. Bu to‘siqlar sun'iy intellekt texnologiyalarining keng miqyosda joriy etilishini sekinlashtirmoqda.

Bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi birinchi navbatda o‘qituvchilarning malakasini oshirish bilan boshlanadi, keyin pilot loyihalar amalga oshiriladi, infratuzilma rivojlantiriladi va faqat shundan keyin to‘liq migratsiya amalga oshiriladi. Integratsiya usullari sifatida aralash o‘qitish modeli, AI yordamchi dasturlaridan maqsadli foydalanish va an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirish tavsiya etiladi. Har bir bosqich diqqat bilan rejalashtirilishi va barcha ishtirokchilar uchun tayyorgarlik ko‘rilishi lozim.

Texnik muammolar:

- Qishloq maktablarining faqat 30% i tez internetga ega
- Bir kompyuterga o'rtacha 25 o'quvchi to'g'ri keladi
- Loyiha dasturlarining o'rtacha narxi $500-$2000

Pedagogik yechimlar:

- Aralash o'qitish modeli: 70% an'anaviy + 30% AI
- O'qituvchilarni malakasini oshirish kurslari
- Pilot loyihalar orqali bosqichma-bosqich joriy etish

Xulosa qilib shuni aytib o‘tamizki, matematika darslarida sun'iy intellektdan foydalanish yangi davrni ochadi. To'g'ri tashkil etilgan va pedagogik tamoyillarga asoslangan AI tizimlari ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning ish yukini kamaytirish va har bir o'quvchiga individual yondashish imkoniyatini beradi. Biroq, bu jarayon diqqat bilan rejalashtirilishi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Matematika darslarida sun'iy intellektdan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

- ✅ Individual yondashuv
- ✅ Vaqtni tejash
- ✅ Ob'ektiv baholash
- ✅ Qiziqarli darslar

Ammo muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagilar zarur:

- 📊 Infratuzilmani rivojlantirish
- 👩‍🏫 O'qituvchilarni tayyorlash
- 💻 Narxlarni optimallashtirish
- 📚 Pedagogik usullarni uyg'unlashtirish

Sun'iy intellekt matematika ta'limini yangi darajaga ko'tarish imkoniyatini beradi, ammo bu inson (o'qituvchi) va mashina o'rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ахмедова Н.М. Алгоритмизация как инструмент дифференцированной профессиональной подготовки учителей начальной школы\ FARS Международный журнал образования, социальных наук и гуманитарных наук.- 2025/6/3, №5, стр 645-648

2. AN Mamasidikovna Theoretical Justification for The Development of a Methodology Aimed at Developing the Algorithmic Competence of Teachers in The Process of Differential Teaching in Mathematics \ Journal of Advanced Zoology 44 (S6), 1839-1844

3. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades

4. NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

5. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100

6. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

7. NM Axmedova, Ruxshona Hoshimova Noalgoritmik turdagi ko ‘rsatmalar haqida/ University Research Base - 2024/11/20. bb100-102

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Qo`qon davlat universiteti
Boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
A’zamova Shahzoda
408-guruh talabasi Yuldashaliyeva Malika

Annotatsiya: maqolada inklyuziv ta’lim jarayonining xususiyatlari, afzalliklari, inklyuziv ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, inklyuziv ta’limning afzalliklari, maxsus o‘yinlar, maxsus ehtiyoji bor bolalar, do‘stona muhit, birdamlik.

Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasini oshirish, imkoniyatlarini yanada kengaytirish, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarorida bu masalalarga alohida to‘xtalib o‘tildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririda inklyuziv ta’lim tushunchasi birinchi marotaba qo‘llanildi. Inklyuziv ta’lim – fransuzcha “inclusif” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom ya’ni sog‘lig‘i cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi.[2] Inklyuziv ta’lim deganda biz imkoniyatlari cheklangan bolalar va sog‘lom bolalarning birga o‘qishi degan tor ma’noni tushunmasligimiz kerak. Aslida bu degani har ikki turdagi bolalarning bir xil sharoitda, bir xil e’tibor ostida, tabaqalashtirishsizlarsiz ta’lim olishini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta’limda faoliyatini olib borish pedagoglardan yuksak mahorat talab qiladi. O‘qituvchilar bilimni shunchaki, og‘zaki tarzda bolalarga aytib beribgina qolmay, balki o‘zlari amaliyotda ko‘rsatishlari va bilimni egallashda bolalarga yordamchi bo‘lishlari lozim. Har bir o‘quvchiga alohida shaxs – qobiliyat egasi deb qarashlari juda muhimdir. Bunda berilgan topshiriqlarni baholashda o‘quvchilarning bilim doirasi bilan birgalikda qobiliyat, qiziqishlarini ham inobatga olish kerak. Bu o‘quvchilarni o‘zlarini alohida shaxs deb hisoblashlariga, tanqidiy fikrlarini erkin bayon eta olishlariga yordam beradi. Pedagoglar dars jarayonini qiziqarli, yanada tushunarli bo‘lishi uchun turli o‘yinlardan foydalanadilar. O‘yinlarni tanlashda quyidagilarga e’tibor berish juda muhimdir:

[2] Inklyuziv ta'lim: afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari va tavsiyalari - Jamiyat - 2022 (drunkentengu.com)

- Birinchi o‘rinda shaxs qadr-qimmati turishi lozim. Qadr-qimmat qobiliyatga yoki shaxs yutuqlariga bog‘liq bo‘lmasligi lozim. Bunda muhimi o‘yinda ishtirok ekanligi, natija nisbiy ekanligi tushuntirilishi lozim;
- Har bir o‘quvchining farqlarini hisobga olgan holda, ularning barchasini minimal darajadagi ta’lim darajasiga erishtirishga yordam berishi kerak;
- Oddiy bolalarda hamdardlik, sabr-toqat, bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- O‘quvchilar bir birlarini qo‘llashlari, yordam berishlari, do‘stona munosabat hosil qilishi.

O‘yin turlaridan ko‘proq sujetli-rolli o‘yinlardan foydalanish mumkin. Sujetli-rolli o‘yin jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘zlariga berilgan roller asosida kata odamlar hayoti, ularning faoliyati va o‘zaro munosabatini ifodalaydi. O‘yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularning bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi. O‘yin jarayonida bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydi. O‘yinning xarakterli xususiyatlaridan biri hayotda qo‘llaniladigan predmetlarni boshqa maqsadda qo‘llashdir. Predmetlarni o‘yin jarayonida qo‘llashda sog‘lom bolalar nomini osongina boshqa predmet nomiga almashtira oladilar. Eshitishda nuqsoni bor bolalarga esa bu biroz qiyinchilik tug‘diradi. Chunki bunday bolalar predmetga qo‘yilgan shartli nomga emas, predmetning xususiyatiga ko‘proq e’tibor beradilar.

Ma’lumki, o‘yin bolalarning tabiiy holatidir. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar turmush mavzusiga oid o‘yinlarni ko‘proq yaxshi ko‘radilar, chunki ular uncha keng tasavvurni talab etmaydi va har kuni kuzatiladigan tanish sahnalardan iborat bo‘ladi. Lekin o‘yin faoliyati nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda nutqi me’yorda rivojlangan bolalarga nisbatan ancha sust bo‘ladi va o‘yin yangi detallar bilan kengaytirilmaydi.

Yuqorilardan ko‘rinadiki, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda pedagoglardan alohida mahorat talab qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ular ham jamiyatning ijtimoiy qatlami ekanligini, teng huquqli jamiyat a’zosi ekanliklarini turli usul va vositalar orqali tushuntirish talab etiladi. Bunda esa bizga o‘yinlar eng yaxshi yordamchi vosita sanaladi. Dars jarayonida ma’lumotlarni oson o‘zlashtirishlari, sinfdagi qolgan o‘quvchilardan ajralib qolmasliklarini oldini olish uchun har bir bolaning psixologiyasini, imkoniyatlarini, qiziqishini, iqtidorini inobatga olish zarur. O‘yinlarni tanlashda ham bu xususiyatlarga e’tibor berish talab etiladi. Bolalar o‘yinlar orqali darsni o‘zlashtirsin va o‘zidagi iqtidorni kashf eta olsin. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin. Inklyuziv ta’lim bolalarning ma’naviy va jismoniy o‘sishlarida samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo‘minova.L.R va b.q. Maxsus psixologiya – O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti: Toshkent, 2018 -270 b

Internet ma’lumotlari
2. Inklyuziv talim: afzalliklari va kamchiliklari, xususiyatlari va tavsiyalari - Jamiyat - 2022 (drunkentengu.com)

BUGUNGI KUNDA “KELAJAK SOATI “DARSLARINI O’TKAZISHNING METODIK YO’NALISHLARI

Burxonova Sohibaxon Ikromiddin qizi
Qo’qon Davlat Universiteti Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 505/21 guruh talabasi

Annotatsiya:
Ushbu maqolada bugungi kunda “Kelajak soati” darslarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning asosiy maqsad va vazifalari, o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil etilgan. Shuningdek, darslarni samarali tashkil etish metodlari va amaliy misollar keltirilgan.
“Kelajak soati” darslarining bosh maqsadi o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ularni milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalar asosida tarbiyalash, hamda zamonaviy kasb va texnologiyalar bilan tanishtirishdan iboratdir.
Kalit so‘zlar: kelajak soati, innovatsiya, ta’lim, o‘quvchi faolligi, metodika, zamonaviy dars. zamonaviy kasb va texnologiyalar,

Kirish

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli va raqamli texnologiyalarni puxta egallagan shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimida “Kelajak soati” darslarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni zamonaviy fikrlashga, innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda.

“Kelajak soati” — bu o‘quvchilarga o‘z hayot yo‘lini belgilash, kasbiy orientatsiya va fuqarolik mas’uliyatini anglash imkonini beruvchi ijtimoiy-ma’naviy darslar tizimidir.

Asosiy qism

1. “Kelajak soati” darslarining maqsadi va vazifalari

“Kelajak soati” darslarining bosh maqsadi o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ularni milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalar asosida tarbiyalash, hamda zamonaviy kasb va texnologiyalar bilan tanishtirishdan iboratdir.

Darslarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘quvchilarda kelajak hayot rejasini tuzish ko‘nikmasini shakllantirish;

Ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik burchi va ekologik ongni rivojlantirish;

Innovatsion va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish;

Texnologik savodxonlikni oshirish va kasbga yo‘naltirish.

2. Darslarni tashkil etish metodikasi

Darslarni o‘tkazishda an’anaviy uslublardan tashqari quyidagi zamonaviy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Interfaol metodlar: “Aqliy hujum”, “Fikrlar tahlili”, “Klaster”, “Insert” va boshqalar.

Loyiha asosida o‘qitish: O‘quvchilar kelajak kasblari, ekologiya yoki innovatsiya mavzularida kichik tadqiqotlar olib boradi.

Muammoli o‘qitish: Muayyan ijtimoiy yoki texnologik muammolarni muhokama qilib, yechim topish.

Taqdimot va debatlar: O‘quvchilar o‘z fikrini dalillar bilan himoya qilishni o‘rganadi

O‘qituvchining o‘rni va mas’uliyati

“Kelajak soati” darslarida o‘qituvchi nafaqat ma’lumot beruvchi, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi va motivatsiya manbai sifatida ishtirok etadi. U o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olib, har bir mavzuni hayot bilan bog‘lay olishi lozim.

4. Amaliy misollar

“Kelajak kasblari” mavzusida o‘quvchilar turli sohalar bo‘yicha taqdimot tayyorlab, o‘z orzu kasblari haqida fikr almashadi.

“Yashil kelajak” darsida maktab atrofini obodonlashtirish, daraxt ekish yoki chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha loyihalar amalga oshiriladi.

“Raqamli dunyo” mavzusida esa sun’iy intellekt, dasturlash yoki robototexnika bo‘yicha ma’lumotlar o‘rganiladi.

Xulosa

Kelajak soati” darslari — bu nafaqat ta’lim jarayonining yangi bosqichi, balki yosh avlodni ertangi kunga tayyorlovchi samarali platformadir. Ushbu tashabbus orqali o‘quvchilar Vatan taqdiri, kelajak istiqboli va o‘z mas’uliyatini chuqur his etishga o‘rganadilar.

Shunday qilib, “Kelajak soati” — bu kelajak poydevorini quruvchi dars, millat istiqboliga sarmoyadir.

“Kelajak soati” darslari o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularda mustaqil fikrlash, mas’uliyat va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu darslar orqali yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etish, Vatanga sadoqat va kelajak uchun javobgarlikni his qilishni o‘rganadilar. Shuning uchun har bir ta’lim muassasasida bu darslarni sifatli, maqsadli va zamon talablari asosida tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Kelajak soati” darslarini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori: “Ta’lim tizimida innovatsion rivojlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022.
3. “Yangi O‘zbekiston yoshlari — kelajagimiz bunyodkori” konsepsiyasi. – Toshkent, 2023.

4. Abdullayeva M. “Zamonaviy pedagogika va innovatsion yondashuvlar”. – Toshkent: Fan, 2023.
5. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni — “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi axborot xizmati: “Kelajak soati” darslarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma, 2023-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagi qarori — “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
9. “Ta’lim va innovatsiya” jurnali, 2024-yil, №2-son.
10. X. Jo‘rayev, S. Yo‘ldosheva. Zamonaviy ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarga yangicha yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

BOSHLANG‘ICH SINFDA JADVALDA KO‘PAYTIRISH VA BO‘LISHNI O‘RGATISHDA UMUMLASHTIRISH USULIDAN FOYDALANISH

Hasanova Nodiraxon Xurshidjon qizi
Farg‘ona viloyati Qo‘qon davlat universiteti Boshlang‘ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: boshlang‘ich sinflarda ko‘paytirish va bo‘lish jadvallarini o‘rgatishda umumlashtirish usulining samarali jihatlari ko‘rib chiqiladi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar arifmetik amallar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishadi va bilimlarni mustahkamlab olishadi.

Kalit so‘zlar: umumlashtirish usuli, jadvalda ko‘paytirish.

Matematikani o‘rganish o‘quvchilarda ijtimoiy hayotga moslashishini ta’minlaydi. Matematika fani ijtimoiy hayotni ya’ni, borliqni bilishning tavsif va metodlari shakli sifatida, umuminsoniy qarashlarning bir qismi shaklida tasavvur etilishini, jamiyat taraqqiyoti uchun muhimligini ochib beradi.

Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarda darslarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishga, shuningdek, darsda umumlashgan usullardan mustaqil, ijodiy yondoshuvlar asosida foydalanishni amalga oshirilishi kerakligini ko‘rsatmoqda. O‘quv jarayonida o‘quvchilar jadvalli ko‘paytirish va bo‘lishni umumlashgan usullardan foydalanib amalga oshirish ularda bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada rivojlanib borishiga xizmat qiladi. Buning uchun darsda har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlovchi, o‘quvchilarning ta’limiy-tarbiyaviy ish natijalari uchun mas’uliyatini oshiradigan shunday vazifalar ishlab chiqilishi zarur. Quyida jadvalli ko‘paytirish va bo‘lishni umumlashgan usullardan foydalanib amalga oshirish jarayoniga oid metodik tavsiyalar asosida ko‘rib chiqamiz.

Ko‘paytirish jadvalini mustahkam o‘zlashtirishni ta’minlash uchun o‘quvchilar ishini shunday tashkil qilish kerakki, jadvalli ko‘paytirish va bo‘lishning hisoblash ko‘nikmalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifat jihatidan shakllantirilsin, ongli bo‘lsin va jadvaldan tashqari turli usullarda ko‘paytirish va bo‘lish amalini qo‘llay olsin. O‘qituvchi bunga o‘zining uslubiy ishlarini bosqichma-bosqich qurish orqali erisha oladi. Faqatgina, qat’iy va izchil metodologiya maktab o‘quvchilarini ko‘paytirish jadvalini tuzish zamirida yotgan nazariy faktlar bilan tanishish vaqtni taqsimlashga, keyin esa jadvallarni tuzishga va ularni keyinchalik yodlashga yordam beradi.

Jadvalli ko‘paytirish va bo‘lish quyidagi ketma-ketlikda o‘rganiladi:

5. ko‘paytirishning o‘ziga xos ma’nosi;
6. bo‘linishning o‘ziga xos ma’nosi;
7. ko‘paytirishning almashinish xususiyati;
8. komponentlar orasidagi munosabat.

Birinchi bosqichda ko‘paytirish va bo‘lish amallari haqida bilimlar shakllantirilsa, ikkinchi bosqichda asosiy e’tibor o‘quvchilarning ko‘paytirish jadvallarini va tegishli bo‘lish holatlarini o‘zlashtirishiga qaratiladi. Ko‘paytirish va bo‘linishni birinchi navbatda ularni alohida o‘rganishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir, chunki bu holda asosiy narsa ular o‘rtasidagi munosabatlarni ochish emas, balki bu harakatlarning o‘ziga xos ma’nosidir.

Bir xil atamalarni qo‘shish holatlari uchun yangi arifmetik amalni kiritish zarurligini tushunish uchun siz turli xil real vaziyatlardan foydalanishingiz mumkin. Masalan: o‘quvchilardan oshxonada devor yotqizish uchun zarur bo‘lgan plitkalar sonini hisoblash so‘raladi. Devor kvadratlarga bo‘lingan to‘rtburchaklar shakliga ega. O‘quvchilar kvadratlarni bittalab sanash usulida harakat qilishni boshlaydilar, lekin ular ishning mashaqqatliligini aniqlaydilar. Buni ta’kidlab, o‘qituvchi javob topishning osonroq yo‘lini topish vazifasini qo‘yadi. Shundan song, o‘qituvchi ko‘paytirish belgisi yordamida yangi yozuv kiritadi va o‘quvchilardan yozuvlarni moslashtirishni so‘raydi. Bular: ko‘paytirish bir xil hadlar yig‘indisini topish deb hisoblanadi. Bolalar qo‘shish va ko‘paytirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishlari kerak, mahsulotning har bir komponentining ma’nosini tushunishni o‘rganishlari kerak.

Ko‘paytirish va bo‘lishning jadvalli hollarini bilish, jadvaldan tashqari ko‘paytirish va bo‘lishning asosidir. Bu bilimlar ko‘p xonali sonlarni bir xonali va ko‘p xonali songa og‘zaki ko‘paytirish va bo‘ish, qoldiq bilan bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishda, shuningdek, ko‘paytirish va bo‘lishning yozma algoritmlarini o‘rganishda zarurdir. Jadval natijalarini tez va to‘g‘ri takrorlamasdan turib, ko‘paytirish va bo‘lishni og‘zaki va yozma ravishda o‘rgatish mumkin emas. Ko‘paytirish va bo‘lish jadvallarini tuzishdan oldin o‘quvchilar ushbu jadvallarni tuzishda foydalanadigan hisoblash texnikasining asosi bo‘lgan nazariy masalalarni o‘rganish kerak.

Ko‘paytirish va bo‘lishning jadval hollarini tuzish va yodlashda turli xil umumlashtirish usulidan foydalanish bo‘yicha yondashuvlar mavjud:

Aksiomatik nazariya ko‘paytirishni “darhol ergashish” munosabati yordamida ko‘rib chiqadi va aksiomalarga asoslanadi. Masalan:

5*1=5 (1-aksioma)

5*2=5*1+5=10 (2-aksioma)

Bu yondashuv boshlang‘ich sinflarda o‘z aksini topadi. 1 ga ko‘paytirish qoida tariqasida hisobga olinadi: a sonini 1 ga ko‘paytirishda siz ko‘paytirilgan sonni olasiz. Yana tushuntiriladiki, a sonini ikkiga ko‘aytirganda, a soni a va 1 ko‘paytmasidan katta bo‘ladi, a sonini uchga ko‘paytirganda, a soni ko‘paytmadan katta bo‘ladi. Ushbu bosqichda o‘quvchilar jadvalli ko‘paytirishga asos bo‘lgan asosiy nazariy masalalarni o‘rganadilar (nazariy asos):

3. ko‘paytirish ma’nosi;
4. bo‘lish ma’nosi;
5. komponentlarning nomi va ko‘paytirish natijasi;
6. bir va nolni songa ko‘paytirishning maxsus holatlari;
7. ko‘paytirishning kommutativ xususiyati;
8. tarkibiy qismlarning nomi va bo‘linish natijasi;
9. komponentlar va ko‘paytirish natijasi o‘rtasidagi munosabat;
10. 10 raqami bilan ko‘paytirish va bo‘lishning maxsus holatlari;
11. ikkini ko‘paytirish jadvaliga mos keladigan ko‘paytirish va bo‘lish holatlarini o‘rganish;

1. Bu bosqichda o‘quvchilar ko‘paytirish va bo‘lishning tegishli holatlarining ko‘paytirish jadvallari va ustunlarini tuzadilar. Ushbu jadvallarni tuzish xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

a) jadvalni tuzish ob’yektlar bilan harakatlar va raqamlardan foydalanishga asoslangan;

b) har bir jadvalni tuzish bir xil omillarni ko‘paytirish holatidan boshlanadi;

Ko‘paytirish jadvalining har bir ustunini o‘rganilib, ma’lumotlar ustunlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1-ustun - raqamni birinchi doimiy belgi bilan ko‘paytirish;

2-ustun - raqamni ikkinchi doimiy xususiyatga ko‘paytirish;

3-ustun - birinchi omil bo‘yicha bo‘linish (komponentlar o‘rtasidagi munosabatlar va ko‘paytirish natijalari asosida);

4-ustun - ikkinchi omil bo‘yicha bo‘linish (komponentlar o‘rtasidagi munosabatlar va ko‘paytirish natijasi asosida).

Jadvaldan tashqari bo‘lishda quyidagi ko‘rinishdagi holatlar qaraladi: 60:3, 100:2, 80:20, 64:4 va 64:16. Yaxlit sonlarni bir xonali songa bo‘lib, o‘quvchilar jadvaldan tashqari ko‘paytirishdagidek mulohaza yuritishadi: 80 – bu 8 ta o‘nlik, 8 ta o‘nlik :2=4 ta o‘nlik, yoki 40.

80:20 ko‘rinishdagi bo‘lishda o‘quvchilar ularni o‘nliklar kabi bo‘lishadi. 8 ta o‘nlikni 2 ta o‘nlikdan qilib bo‘lishganda 4 chiqadi. 80:2 va 80:20 ko‘rinishdagi misollarni taqqoslashda alohida e’tibor berish lozim. O‘quvchilar ko‘pincha ularni chalkashtirishadi va bunday xatoga yo‘l qo‘yishadi: 80:20=40. Bu turdagi xatoliklaming oldini olish uchun bu holatlami taqqoslab, tanish bo‘lgan ko‘rsatmalilikdan foydalanishga (cho‘plar bog‘lamlariga) qaytish kerak.

Bo‘lishning keyingi usullarini o‘zlashtirish maqsadida o‘qituvchi quyidagi ko‘rinishdagi tayyorgarlik mashqlarini o‘tkazsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Har bir son uchun shunday bo‘luvchini tanlangki, bo‘linmada 10 soni hosil bo‘lsin: 30, 40, 50, 60, 70, 80. Topshiriq yozma ravishda bajariladi: 30:3=10, 40:4=10 va hokazo.

30, 40, 80 soni qanday bir xonali sonlarga bo‘linadi? Topshiriqni bajarishda 1 sonini ham hisobga olish kerak, ya’ni daftardagi yozuv bunday ko‘rinishda bo‘ladi: 30:1=30, 30:2=15, 30:3=10, 30:5=6, 30:6=5.

Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo‘lish.

Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish 100 ichida ko‘paytirish va bo‘lish jadvallarini yaxshilab bilishiga, ikki xonali sonni bir xonali songa ko‘paytirish ko‘nikmasiga, ko‘paytirish va bo‘lish orasidagi bog‘lanishni tushuntirishiga tayanadi. Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo‘lishda bo‘linmani topishning to‘g‘riligini o‘quvchilar bo‘lish va ko‘paytirish amallari bilan tekshira olishlari kerak. Masalan:

45:15=3
15*3=45
45:3=15

Bo‘linmani sinash usuli bilan tanlash: 91:13 91 hosil bo‘lishi uchun 13 ni qanday songa ko‘paytirish kerakligini o‘ylab ko‘ramiz. Avval 13 sonini 2 ga ko‘paytirib ko‘ramiz 26 hosil bo‘ladi. 2 soni to‘g‘ri kelmaydi. 13 ni 3 ga ko‘paytirib 13*3=39, bizda esa 91 bo‘lishi kerak. 3 soni ham to‘g‘ri kelmaydi.

Bo‘linmani bo‘linuvchi va bo‘luvchining oxirgi raqamidan foydalanib, ko‘paytirish jadvalini bilish bilan topish. 91 soni 1 raqami bilan tugaydi. Uchga ko‘paytirish jadvalini eslaymiz. 3 sonini qanday songa ko‘paytirsa , ko‘paytma 1 raqami bilan tugaydi? Bu son 7, chunki 3*7=21. U bo‘linma sifatida to‘g‘ri keladimi, tekshiramiz: 13*7=91. Demak 91:13=7. Bu holda bo‘linmani tanlab olish uchun ko‘paytirishga doir faqat bitta misolni yechish kifoya bo‘ldi. Sinash usuli bilan yechilganda esa ko‘paytirishga doir 6 ta misolni yechishga to‘g‘ri kelgan edi. Bo‘linmani bo‘linuvchining va bo‘luvchining oxirgi raqami hamda to‘rtni ko‘paytirish jadvali bo‘yicha topish uchun o‘quvchi bor-yo‘g‘i ikkita sonni 2 va 7 ni tekshirib ko‘rishi zarur, chunki

14*2=28
17*7=98

Demak, 98:14=7. 4 sonini 2 ga ko‘paytirilganda va 7 ga ko‘paytirganda

ko‘paytmalar 8 raqami bilan tugaydi.

Boshlang‘ich sinfda biz ongli hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish haqida gapirganligimiz sababli, ko‘paytirish jadvallarini tuzishdan oldin o‘quvchilar ushbu jadvallarni tuzishda foydalanishi mumkin bo‘lgan hisoblash texnikasining asosi bo‘lgan nazariy masalalarni o‘rganish kerak. Ammo jadvallarni tuzish va o‘quvchilarning ularni o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi har xil bo'lishi mumkin. Ko‘paytirish harakati ma’nosining to‘plam-nazariy talqini ob‘yektiv harakatlar tiliga osongina tarjima qilinadi va ilgari o‘rganilgan materialdan faol foydalanish uchun yangi tushunchani o‘zlashtirishga imkon beradi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim amaliyotida qo‘llanuvchi masalalar boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning arifmetik amallar bajarishni o‘rganishini tashkil etishga, didaktik prinsiplarini shakllantirishga turli darajada qulaylik yaratadi. Bu holat ularni shakllantirish ta’sir darajasi bo‘yicha guruhlarga masalalarni cheklash zaruriyatini qo‘yadi.

Biz o‘zimizning nazariy qarashlarimiz asosida boshlang‘ich sinfda matematika kursining metodik ta’minoti tarkibini aniqladik va boshlang‘ich sinf matematika fani darslarida o‘quvchilarning arifmetik amallar bajarishni o‘rgamshini tashkil etish didaktik prinsiplarining foydalanilmagan imkoniyatlarini belgiladik.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikboyeva N.U. va boshqalar. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: – 1996.-148 b.
2. Bikboyeva N.U. va boshqalar. Matematika 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” – 2003.160 b.
3. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. O‘qituvchi kitobi. – Toshkent: “O‘qituvchi” – 2003.-146 b.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Holmatova Muzayyana Mubashshirovna
Qo’qon DU BTM kafedrasi katta o’qituvchisi
Muzaffarjonova Dilnura Dilshodjon qizi
Umaraliyeva Shahnoza Elmurodjon qizi
Qo’qon DU BTM yo‘nalishi talabalari

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Kalit so’zlar: innovatsiya, innovatsion jarayon, integratsiya, ta’lim- tarbiya, shaxs, jamiyat. Innovatsion muhit.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini to’g’ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o’rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya,grafika,diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo’lishiga ko’mak beradi, buning uchun esa o’qituvchi o’z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o’ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim.

O’zbekiston boshlang’ich ta’lim tizimida keyingi yillarda integratsiya jarayoni amalga oshirilmoqda. Ayni paytda, boshlang’ich ta’limda integratsiya muammolarini ilmiy-nazariy va metodik jihatdan hal etilmaganligi mazkur jarayonni idrok etish ishlari qiyin kechmoqda. Shu ma’noda bizning yondashuvimizga binoan boshlang’ich ta’limda integratsiya asoslarini quyidagilar tashkil etadi: o’quv rejalari va dasturlarining turdosh fanlar bilan hamkorlikda tuzilishi; o’quv adabiyotlarining turdosh fanlar bilan hamkorlikda yaratilishi va bunda mavzularning takrorlanishiga yo’l qo’ymaslik; boshlang’ich ta’lim va tarbiya jarayonini umumiy o’rta ta’lim hamda ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari bilan aloqadorlikda amalga oshirish; boshlang’ich ta’lim va tarbiya jarayoniga turdosh fanlar tajribasidan o’tgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish; boshlang’ich ta’lim muammolarini pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlar bilan hamkorlikda ilmiy tatqiq etish; boshlang’ich ta’lim o’quv fanlarining optimal va uzviylik tamoyillariga asosan bog’liqligini ta’minlash; boshlang’ich ta’limning tajribaviy yutuqlarini boshqa ta’lim turlari va fanlariga taqdim etib borish. Mazkur yondashuv asosida boshlang’ich ta’limda integratsiyani tarkib toptirish mumkin. Aslida ta’limda integratsiya muayyan ta’lim yoki o’quv fanining yutuqlarini ommalashtirish va o’zgalarning yutuqlarini o’zlashtirishdan iborat.

Dars o‘tishdagi asosiy shart - sinfda zarur, mos muhitni yaratish: polga gilam solish, partalar o‘rniga qulay bo‘lgan stul va kreslolar o‘rnini almashtirish. Mashg‘ulot jarayonida bolalar o‘z yashash muhitlarini yaratishadi. Yil va chorak mavzusi «devorlardagi suratlar», «Hayvonot va o‘simliklar dunyosi» paydo bo‘ladi, bularni o‘quvchilar o‘zlari o‘ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma’lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin. Ko‘pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko‘chalarda o‘tiladigan darslar odatiy bo‘lib qoladi. Integratsiyalangan kurs utsidagi ishlar davom etadi.

Ta’limni integratsiyalash fikri xalq ta’limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar boshlang‘ich ta’limni tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida o‘quvchilar

qiziqishlarini faolllashtirish yotsa, integratsiyanning asosida esa turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba’zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish kabi vazifalar yotadi. Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asosga ega bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishni taqozo qiladi. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta’minlanishi kerak.

Fanlarni o’qitishda bo’limlar, mavzular integratsiyasi. Ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, fanlarni o’qitishda bo’limlar, mavzular integratsiyasi katta ahmiyat kasb etmoqda. Bu esa o’qituvchidan ilmiy, amaliy, metodik jihatdan yangi pedagogik va axborot-informatsion texnologiyalarni jadal o’zlashtirish hisobiga muntazam boyitib borishi zarurligini bildiradi. Shuningdek, mamlakatimizda boshlang’ich sinf o’qituvchilarining faoliyatini yangi pedagogik va axborot-informatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang’ich sinf darsliklari yangi avlodlarining tobora takomillashib borayotgani o’quv darsliklari o’quvchilarni yanada faol bilimlarini, tasavvurlarini , dunyoqarashini o’stirishga xizmat qiladi. Boshlang’ich sinflar yangi pedagogik va axborot texnologiyalar eng ko’p va faol tatbiq etilayotgan ta’lim bosqichidir. Zamonaviy multimediyali pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars: ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi; o’quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi; o’quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni kuchaytiradi; bilimlarni mustahkam va mustaqil o’zlashtirishni; ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini hosil qiladi. “Innovatsion- intellectual bellashuv” texnologiyasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining o’rni alohida ahamiyatga ega. Ona tili fanidan yuqori sinflar uchun innovatsion ochiq darsining umumiy xarakteristikasi: darsning umumiy tashkiliy tavsifi, dars o’tuvchi o’qituvchi, dars shakli, fan(bo’lim), yangi mavzu, o’tilgan mavzu, dars o’tiladigan bosqich, sinf, guruh, darsning turi, metodi va usullar (“innovatsion intellectual bellashuv”), dars jihozlari (doska, bo’r, video proyektor, sodda multimediyali taqdimot, ko’rgazmali vositalar, tanlangan mavzuga oid turli so’zlar, stullar(darsga maxsus taklif etilganlar va bevosita ishtirok etuvchilar uchun), hakamlar sinf o’quvchilari yoki ushbu sinfning bilimdon o’quvchilari haqida aniq ma’lumotlar beriladi, darsning shiori, mavzuga oid maqsadlari e’lon qilinadi. Demak, o’qituvchi - pedagog o’z oldiga qo’yilgan murakkab, ma’suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga bo’lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo’lishi kerak;

-zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini tushunishi;
-dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini keng nuqtai nazarda anglashi;
-axborot texnologiyalarini va o’qitish vositalarini ta’limda tatbiq etishi;
-internet tushunchasiga ega bo’lishi, bilimini oshirishda foydalana olishi;

- pedagog mehnatining samaradorligini tahlil va o’ziga o’zi baho bera olishi; -oilaviy ta’lim-tarbiya bo’yicha tassavurlarini rivojlantirishi; -umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar; -milliy g’oya va milliy mafkura iqtisodiy islohatlar mohiyatini tushunishi; -o’quvchilarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari hamda do’stona muhit yaratish uchun sharoit yarata olishi ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, O’qituvchi tomonidan qo’llanilayotgan ta’lim metodlari majmuasi boshlang’ich sinflardan yuqori sinflarga o’tish asosida o’zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari (boshlang‘ich ta’lim)
2. 4-sinf “O’qish “ kitobi 1- mavzu (6-nashr.Toshkent 2020 –yil.Yangiyul.)
3. Ibragimov X. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”, Toshkent.
4. Yo‘ldoshev Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari.
5. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
6. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100
7. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
8. Isog’aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ona tili darslarini o’rgatishning lingvistik konseptual asoslari. *Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali*.
9.Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. *Scienceweb academic papers collection*.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA SO‘Z MA’NOLARI USTIDA ISHLASH USULLARI

Holmatova Muzayyana Mubashshirovna
Qo’qon DU BTM kafedrasi katta o’qituvchisi
Burxonova Dilafruz Dilshodjon qizi
Maqsudaliyeva laylo Mirzohid qizi
Qo‘qon DU BTM yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta’limda so‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi.

Kalit so’zlar: So‘z ma’nosi, fikr, tafakkur, mashq, nutq. morfema, leksema, lisoniy birlik, leksik ma’no, o’zak va affiksal morfema.

Kirish. Boshlang’ich sinflarning o’qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo’lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o’qib o’rganiladi. O’qish darsliklariga, asosan, hikoya, she’r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop asarlar ham o’qitiladi. *Boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda so‘z ma’nolari ustida ishlash masalasi yoritilgan*.

Asosiy qisim Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq o‘quvchilarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan. So‘z – tilning asosiy birligi bo‘lib, u orqali tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar nomlanadi. “So‘z,- deyiladi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da, - o‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan narsa va hodisalar, jarayonlar shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni harakat vaholatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan, shuningdek, turli grammatik ma’nolar ma’nova vazifalarda qo‘llanadigan eng muhim til birligidir”.

Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, ularning o’quvchilarga ta’siri ham har xil bo’ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o’ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she’riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she’r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoqlar predmet, voqea-hodisalar o’rtasidagi o’xshashlikni taqqoslash orqali o’zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko’ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o’qishda o’qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Boshlang‘ich ta’limda so‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosini tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi. O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma’nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

-So’zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o’quvchilar diqqatini chalg’itmasligi kerak.

-O’qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma’nosini bilmaydigan ayrim so’zlar matnni o’qishdan oldin tushuntiriladi.

-Matnni o’qish jarayonida so’z ma’nosini tushuntirishga chek qo’yish kerak. Agar biror so’zni matnni o’qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug’ilsa, matn mazmunidan o’quvchilar diqqatini chalg’itmagan holda shu so’z ma’nosi qisqacha tushuntiriladi.

-Ko’chma ma’noda ishlatilgan obrazli so’zlar va badiiy nutq oborotlari matn o’qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o’qilganda, undagi allegorik, ko’chma ma’noda ishlatilgan so’zlarni asarni o’qishdan oldin yoki o’qish jarayonida tushuntirib bo’lmaydi.

“Ona tili ta’limidan asosiy maqsad “o‘quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini, fikrni turli yo‘sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat ekan, bunga erishishni boy va barkamol so‘z xazinasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun so‘z boyligi omili davlat standartida muhim o‘rin egallashi lozim”,–deya mutaxassis olimlar o‘quvchilarining so‘z boyligini oshirishda lug‘atlar bilan ishlash omilining muhimligini bayon qiladilar.

O’quvchilarni so’z yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o’qituvchi ularga muayyan bir yangi so’z qaysi so’zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o’qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo’riqlaydigan kishini bildiradigan o’zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o’qituvchi so’zni va so’z yasovchi morfemani beradi. O’quvchining vazifasi yangi so’zni to’g’ri yasash va leksik ma’nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so’zidan –chi qo’shimchasi yordamida yangi so’z yasash (baliqchi), uning leksik ma’nosini tushuntirish, qaysi so’z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o’quvchilar so’zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o’qituvchi o’quvchilar e’tiborini hosil bo’lgan so’z qaysi morfema yordamida, qaysi so’z turkumidan yasalganiga, qanday ma’no anglatishi va qaysi so’z turkumi ekaniga qaratadi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Shunday ekan, so‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.

2.Tolipov Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.

3. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

4. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age
NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

5. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. –T.: TDIU, 2010. – 87 s.

6. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o’qitish metodikasi. T.: O’qituvchi, 1992.

7.G’ulomov A. Ona tili o’qitish printsiplari va metodlari. T.: O’qituvchi, 1992.

INNOVATSIYALAR — IJTIMOIY EHTIYOJLARGA YECHIM SIFATIDA

Ilhomova Sadoqat Ulug’bek qizi
Qo’qon davlat universiteti Magistratura bo’limi
Pedagogika mutaxasisligi 2- bosqich magistranti
ilhomovasadokat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada innovatsiyalarning ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdagi roli, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalining rivojlanishiga ta’siri chuqur ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy xizmatlar, texnologik transformatsiya va ekologik barqarorlik sohalaridagi innovatsion jarayonlarning samaradorligi xalqaro tajribalar, statistik ma’lumotlar va ilmiy nazariyalar asosida yoritilgan. Shuningdek, Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya va O‘zbekiston tajribasi solishtirma tahlil qilinib, innovatsiyalarning ijtimoiy ehtiyojlarga bevosita ta’sir qiluvchi omillari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, ijtimoiy ehtiyoj, raqamlashtirish, transformatsiya, boshqaruv, ta’lim, barqarorlik, ijtimoiy xizmat, texnologiya, samaradorlik, modernizatsiya, rivojlanish.

Globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va jamiyat ehtiyojlarining turli-tumanligi innovatsiyalarni har bir sohaning ajralmas qismiga aylantirdi. Inson hayotining deyarli barcha jabhalarida – ta’limdan tortib sog‘liqni saqlashga, transportdan tortib davlat boshqaruviga, ishlab chiqarishdan tortib ekologik barqarorlikka qadar – muammolarning yangicha, samarali, tejamkor va ijtimoiy yo‘naltirilgan yechimlari talab etilmoqda.

BMTning 2030-yil Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) hisobotida qayd etilishicha, innovatsiyalar barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadigan 5 ta asosiy omildan biri bo‘lib, ijtimoiy tenglik, sifatli ta’lim, sanoat

rivoji va iqlim o‘zgarishi kabi muammolarning 60% dan ortig‘iga samarali yechim taklif qilishi qayd etilgan (UNDP, 2023).

Shuningdek, Jahon bankining 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsion iqtisodiyotga ega davlatlarda aholining turmush sifati indeksi (Quality of Life Index) o‘rtacha 32% yuqori bo‘ladi. Bu innovatsiyalarning ijtimoiy ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Innovatsiya tushunchasi va uning ijtimoiy mazmuni

XX asr olimlari J. Shumpeter, P. Druker, M. Kastells innovatsiyani iqtisodiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan bo‘lsalar, XXI asr tadqiqotchilari uni ijtimoiy hayotni tubdan o‘zgartiruvchi universal fenomen deb hisoblaydilar.

Innovatsiyaning ijtimoiy mazmuni uchta asosiy omil orqali namoyon bo‘ladi:

Ijtimoiy muammolarga yangi yechimlar taklif qilish — masalan, telemeditsina qishloq hududlarida tibbiy xizmatga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Aholi ehtiyojlariga moslashgan xizmatlarni yaratish — elektron hukumat, raqamli ta’lim, “aqlli” transport tizimlari.

Tenglik va inklyuzivlikni ta’minlash — imkoniyati cheklangan shaxslar uchun texnologik yordamchi vositalar.

Shu jihatdan innovatsiya nafaqat texnik yangilik, balki ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya va inson kapitalini rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Innovatsiyalar ijtimoiy sohalarda yechim sifatida

Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar

Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi, pedagogik texnologiyalarni yangilash, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv platformalaridan foydalanish bugungi kunda ijtimoiy ehtiyojga aylangan.

UNESCO (2023) ma’lumotiga ko‘ra:

raqamli platformalardan foydalangan o‘quvchilarda bilim o‘zlashtirish darajasi 18–22% ga oshgan;

o‘qituvchilar yuklamasi 12% ga kamaygan;

ta’limga kirish imkoniyati global miqyosda 30% ga kengaygan.

Innovatsion o‘quv texnologiyalari:

VR/AR asosidagi tajribalar — murakkab ilmiy jarayonlarni vizuallashtirish;

AI-based adaptive learning — har bir o‘quvchining individual sur’atiga moslashuvchan dasturlar;

Masofaviy ta’lim — Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda asosiy model.

Finlyandiya Maktablar Assotsiatsiyasi ma’lumotiga ko‘ra, innovatsion raqamli ta’lim joriy etilgan maktablarda o‘quvchilarning motivatsiyasi 42% yuqori.

Sog‘liqni saqlashda innovatsion yechimlar

Tibbiyot sohasidagi innovatsiyalar aholi salomatligini muhofaza qilishda inqilobiy o‘zgarishlar yaratdi:

Telemeditsina:

Yaponiya, Kanada va Germaniyada telemeditsina xizmatlaridan foydalangan bemorlar soni so‘nggi 5 yilda 47% ga oshgan.

Yosh bolalar va keksalar uchun konsultatsiya olish tezligi 3 baravar oshgan.

Sun’iy intellekt orqali diagnostika:

Gematologiya, rentgenologiya va kardiologiyada AI diagnostika xatoliklarni 25–35% ga kamaytiradi.

Germaniyada AI diagnostika tizimi joriy etilgan klinikalarda saraton kasalliklarini aniqlash aniqligi 92% ga yetgan.

Elektron tibbiy kartalar — O‘zbekistonda 2024 yilda ularning qamrovi 70% dan oshdi.

Davlat boshqaruvidagi innovatsiyalar

Elektron hukumat — ijtimoiy ehtiyojlarga eng tezkor javob beruvchi model.

Estoniya tajribasi:

99% davlat xizmatlari onlayn,

soliqlarni to‘lash 3 daqiqa vaqt oladi,

byurokratiya xarajatlari 2 baravar qisqargan.

O‘zbekiston tajribasi:

“My.gov.uz” orqali 310 dan ortiq xizmatlar ko‘rsatilmoqda,

aholining raqamli xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichi yillik o‘sish sur’ati — 28%,

korrupsiya xavflari 22% ga kamaygan.

Ijtimoiy xizmatlar tizimidagi innovatsiyalar

Yaponiya ijtimoiy parvarish tizimida robotlar qo‘llanilishi natijasida:

Аннотация: в статье подчеркивается значение организации классной библиотеки в формировании культуры чтения и повышении интереса к чтению у учащихся начальной школы. Рассматриваются педагогические и психологические подходы к организации классной библиотеки, руководящая деятельность учителя, методика подбора и использования книг. Анализируется опыт эффективного создания классной библиотеки с использованием современных информационных технологий.

Ключевые слова: классная библиотека, культура чтения, ученик, педагогическая методика, самостоятельное чтение, интерес к чтению.

Abstract: the article highlights the importance of organizing a class library in forming a reading culture and increasing interest in reading among primary school students. It discusses pedagogical and psychological approaches to organizing a class library, the teacher's leadership activities, methods of selecting books and using them. Also, the experiences of effectively organizing a class library using modern information technologies are analyzed.

Keywords: class library, reading culture, student, pedagogical methodology, independent reading, interest in reading.

Bugungi kunda ta’lim tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev kitob insonni fikrlashga, izlanishga, hayotni anglashga o‘rgatishi, kitobxon millat – fidoyi millat ekanligi borasida fikr yuritadi[1;46].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning bilim olish, tafakkur qilish va nutq madaniyatini shakllantirishda eng muhim davr hisoblanadi, shu sababli sinf kutubxonasini tashkillashtirish nafaqat o‘qish faoliyatini, balki tarbiya jarayonini ham boyitadi.

Sinf kutubxonasi orqali bola mustaqil o‘qishga odatlanadi, kitobni to‘g‘ri tanlash, kitobni avaylab foydalanish, o‘qilgan asar haqida fikr bildirish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi[2;456].

1. Sinf kutubxonasining pedagogik ahamiyati. Sinf kutubxonasi – bu bolalarning har kuni o‘qish, o‘rganish va izlanish manbai bo‘lgan ta’limiy muhitdir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bolalarda kitobga bo‘lgan muhabbatni kuchaytirish; mustaqil o‘qish odatini shakllantirish; axloqiy, ma’naviy va estetik tarbiya berish; nutq madaniyatini va lug‘at boyligini oshirish. Sinf kutubxonasi bola uchun shaxsiy rivojlanish maktabi vazifasini bajaradi. U yyerda har bir o‘quvchi o‘z qiziqishiga ko‘ra asar tanlaydi, o‘qituvchi esa uni to‘g‘ri yo‘naltirib boradi.

2. Sinf kutubxonasini tashkil etish bosqichlari. Sinf kutubxonasini to‘g‘ri tashkil qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik bosqichi – sinf xonalarida qulay burchak ajratish, javon, belgilar, kitob saqlash uchun qulay muhit yaratish.

Kitoblar tanlash bosqichi – bolalar yoshiga, qiziqishiga va ma’naviy ehtiyojiga mos asarlarni tanlash (ertaklar, hikoyalar, she’rlar, ilmiy-ommabop adabiyotlar).

Faoliyatni tashkil etish – kitoblarni ro‘yxatga olish, “Sinf kitoblari katalogi”ni yuritish, har hafta “Kitobxon kuni”ni o‘tkazish.

Natijalarni tahlil qilish – qaysi o‘quvchi qancha kitob o‘qigani, qaysi mavzularga qiziqishi ortib borayotgani bo‘yicha monitoring yuritish.

3. Sinf kutubxonasidan foydalanish usullari. Sinf kutubxonasidan foydalanish jarayonida quyidagi metodlar samarali: “O‘qib berish” – kitobdan qisqa parchalarni o‘qib eshittirish orqali qiziqish uyg‘otish, “Kitob haqida so‘zlayman” – har bir o‘quvchi o‘qigan asari haqida so‘zlab beradi, kitob ko‘rgazmalari – yangi kelgan asarlar bo‘yicha ko‘rgazma uyushtirish, “Eng faol kitobxon” tanlovi – kitob o‘qishga rag‘batni oshirish uchun har oyda o‘tkaziladigan tadbir. Bu usullar orqali bolalarda nafaqat kitob o‘qish, balki kitobni anglash va uni hayotda qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

4. Sinf kutubxonasini tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlari. Hozirgi raqamli asrda sinf kutubxonasini faqat an’anaviy kitoblar bilan chegaralash kerak emas. Interaktiv elektron kitoblar, “Ziyonet”, “Kutubxona.uz”, “Kitob.uz” platformalaridagi bolalar adabiyoti namunalaridan foydalanish, audiokitoblarni eshittirish, elektron testlar orqali o‘qilgan asarni tahlil qilish – bu bolaning kitob bilan muloqot madaniyatini yanada boyitadi.

Boshlang‘ich sinfda sinf kutubxonasini tashkil etish – bu bolalarni kitob bilan do‘stlashtirishning samarali usulidir. U orqali o‘quvchida quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi: mustaqil o‘qish va tahlil qilish qobiliyati; kitobni qadrlash va uning mazmunini anglash; nutq madaniyati va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Shuningdek, sinf kutubxonasi – bolalarning ma’naviy dunyosi va tafakkurini boyitishning, ularda milliy qadriyatlarga muhabbat uyg‘otishning muhim vositasidir. Shu bois har bir boshlang‘ich sinfda sinf kutubxonasi faoliyatini tashkil etish pedagogning asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 422 b.

2. Matchonov S., Bakiyeva X. boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 740 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.

HOZIRGI KUNDA BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O‘QITISH USULLARI VA SAMARALI METODLARI

Jabborova Dilafruzxon Bahodirjon qizi
Qo’qon Davlat Universiteti Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya : Boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda to‘g‘ri, ravon, ifodali o‘qish va yozish malakasini shakllantirish, grammatik tushunchalarni o‘rgatish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Bu maqsadga erishishda turli metodlardan foydalaniladi.

Kalit so’zlar: Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini, Interfaol metodlar, Didaktik o‘yinlar, Differensial yondashuv

Kirish

Boshlang‘ich ta’lim tizimida ona tili fani o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, nutq madaniyatini shakllantirish hamda savodxonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ona tili darslari orqali o‘quvchi nafaqat yozma va og‘zaki nutqni o‘rganadi, balki milliy qadriyatlar, madaniyat va ma’naviyatni chuqur anglaydi.

Asosiy qism

Boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda to‘g‘ri, ravon, ifodali o‘qish va yozish malakasini shakllantirish, grammatik tushunchalarni o‘rgatish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Bu maqsadga erishishda turli metodlardan foydalaniladi. 1. Izohli–ko‘rsatmali metod

Bu metod orqali o‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi, misollar yordamida o‘quvchilarga ko‘rsatadi va ularga mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi.

Masalan: “Gapning bo‘laklari” mavzusini o‘rgatishda o‘qituvchi namunalar yozib, gapdagi ega va kesimni ko‘rsatadi.

2. Amaliy metod

Bu metod o‘quvchilarning o‘rganilgan nazariy bilimlarini amaliy mashqlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

Masalan: so‘z turkumlarini ajratish, imlo mashqlari, diktantlar, yozma ishlar bajarish.

3. Interfaol metodlar

Interfaol metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlar:

“Aqliy hujum” – yangi so‘z, fikr va g‘oyalarni topishga yordam beradi.

“Klaster” – bir mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni tarmoqlab yozish.

“Insert” – matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchining bilgan va bilmagan narsalarini ajratish.

“Baliq skeleti” – sabab va natijani aniqlashda qo‘llaniladi.

4. O‘yinli metodlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin orqali o‘qitish eng samarali usullardan biridir

5. Axborot texnologiyalari asosidagi metod

Zamonaviy ta’limda kompyuter, interaktiv taxta, elektron darslik, videodars va audiomateriallardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini tortadi va bilimni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Masalan: tovushlar talaffuzini videoda eshitish, interaktiv mashqlar bajarish.

6. Suhbat (dialog) metodi

O‘qituvchi savol-javob tarzida o‘quvchilarning bilimini faollashtiradi.

Bu metod o‘quvchilarni muloqot madaniyatiga, aniq fikrlashga va to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi.

7. Differensial yondashuv metodi

Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos topshiriq berish usulidir. Bu metod orqali har bir bola o‘z qobiliyatiga qarab muvaffaqiyatga erishadi.

8. Muammoli ta’lim metodi

Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yadi va ularni mustaqil izlanish, tahlil qilishga undaydi.

Masalan: “Nega bu so‘z bosh harf bilan yozilgan?” kabi savollar orqali grammatik qoidalar o‘rganiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish jarayonida quyidagi asosiy vazifalar amalga oshiriladi:

o‘quvchilarda to‘g‘ri, tez va ongli o‘qish malakasini shakllantirish;

yozma savodxonlikni rivojlantirish;

so‘z boyligini oshirish va nutqni boyitish;

ichadi tushunchalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish;

mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ona tili darslarini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar quyidagi metodlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir:

Interfaol metodlar

1.Interfaol usullar o‘quvchilarning faolligini oshiradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Tushunchalar tahlili”, “Baliq skeleti” kabi metodlar orqali mavzu mazmuni chuqurroq o‘zlashtiriladi.

2. Didaktik o‘yinlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati o‘qitishning asosiy shakllaridan biridir. “Top so‘zni”, “Kim tez?”, “So‘z zanjiri”, “To‘g‘ri yozdimmi?” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, darsni jonlantiradi.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy o‘qitish jarayonida multimedia vositalari, ichadi darsliklar va interaktiv taxtalar yordamida dars samaradorligi oshiriladi. Videodarslar, audio yozuvlar orqali tovush, so‘z va gap ustida ishlash yanada samarali ichadi.

4. Differensial yondashuv

Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘qitish samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini to‘g‘ri va samarali o‘qitish — kelajakda o‘quvchilarning tafakkurini, nutq madaniyatini, savodxonligini va milliy g‘ururini shakllantirishning muhim omilidir. Har bir o‘qituvchi zamonaviy metodlarni, texnologiyalarni va milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni uyg‘unlashtirib dars o‘tsa, natija albatta ijobiy bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash to‘g‘risida”gi qarori.
3. S. Matchonov, X. G‘ulomova. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2021.
4. M. Qurbonova. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2020.

МОДЕЛЬ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, СООТВЕТСТВУЮЩАЯ ТРЕБОВАНИЯМ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНИВАНИЙ, ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАЦИЮ STEAM-ЭЛЕМЕНТОВ

Лутфуллина Ю.В.
стажёр – преподаватель факультета «Начальное и технологическое образование» Кокандского государственного университета
Боходирова Феруза Рахматовна
студентка 4-курса факультета «Начальное и технологическое образование» Кокандского государственного университета

Аннотация

В статье рассматриваются особенности обновления начального образования в соответствии с требованиями международного оценивания качества знаний. Особое внимание уделяется интеграции STEAM-элементов в учебный процесс как эффективному инструменту развития функциональной грамотности, критического мышления и способности применять знания в практических ситуациях. Представленная модель STEAM-ориентированного обучения способствует созданию современной образовательной среды и

повышению результатов младших школьников в международных сравнительных исследованиях.

Ключевые слова: начальное образование, международные оценивания, STEAM, функциональная грамотность, компетентностный подход, образовательная модель.

Современное начальное образование переживает период активного обновления, обусловленного ростом требований к качеству подготовки младших школьников и усилением роли международных сравнительных исследований. В условиях, когда результаты таких программ, как PISA, PIRLS и TIMSS, становятся ориентиром для анализа эффективности образовательной политики, возникает необходимость переосмысления содержания учебного процесса. Особое значение приобретает подход, который не просто передает знания, а формирует способность применять их в реальных ситуациях. Наиболее перспективной считается модель обучения, построенная на интеграции STEAM-элементов, обеспечивающих взаимодействие науки, технологий, инженерного мышления, искусства и математики.

В современном образовательном пространстве наблюдается смещение акцентов от репродуктивного усвоения материала к формированию универсальных учебных действий, которые позволяют ребенку ориентироваться в информационно насыщенной и динамичной среде. Функциональная грамотность, критическое мышление, умение анализировать информацию и выстраивать причинно-следственные связи становятся приоритетными компетенциями, необходимых для успешного обучения в последующих звеньях образования. Международные оценивания подчеркивают, что уровень знаний сам по себе не является решающим фактором успеха. Важно, насколько обучающийся способен интерпретировать данные, применять логические стратегии и самостоятельно находить решения новых задач. Именно поэтому внедрение STEAM-подхода рассматривается как эффективное средство повышения качества образования и приближения национальных образовательных систем к мировым стандартам.

STEAM-образование в начальной школе представляет собой модель, в которой интеграция дисциплин осуществляется через практическую, исследовательскую и творческую деятельность. Такой формат стимулирует развитие познавательного интереса, помогает детям овладевать сложными понятиями через опыт, эксперимент и наблюдение. Значимым аспектом является включение искусства, которое делает обучение эмоционально насыщенным, поддерживает образное мышление и способствует созданию индивидуальных образовательных траекторий. В отличие от традиционного предметного подхода, STEAM формирует целостное понимание процессов и

явлений, а также позволяет природным образом развивать исследовательские и проектные навыки.

Важной характеристикой данной модели является ее соответствие требованиям международного оценивания. В основе STEAM лежит способность ученика работать с информацией разных типов, интерпретировать научные данные, применять математические методы и решать жизненные задачи. При выполнении практических заданий младшие школьники сталкиваются с необходимостью сравнивать, выводить закономерности, выдвигать гипотезы и проверять их с помощью опыта. Такой подход полностью совпадает с логикой заданий PISA и TIMSS, где оценивается не запоминание материала, а способность использовать знания для решения комплексных проблем.

Интеграция STEAM-элементов в начальной школе способствует созданию учебной среды, в которой ребенок выступает активным участником познавательного процесса. Практик ориентированные задания формируют устойчивую учебную мотивацию, развивают самостоятельность и позволяют каждому ученику проявлять индивидуальные способности. С позиции педагогики значимым становится не только конечный результат, но и сам процесс поиска, анализа, рассуждения и представления решения. Постепенно у школьников формируется способность вести исследовательскую деятельность, планировать свои действия, аргументировать выводы и сотрудничать со сверстниками.

В условиях цифровизации образования STEAM-подход получает дополнительное развитие. Использование интерактивных платформ, образовательных конструкторов, виртуальных моделей и цифровых лабораторий расширяет возможности младших школьников в освоении учебного материала. Эти инструменты позволяют визуализировать процессы, усложнять задания и создавать условия для самостоятельного поиска решений. Цифровая среда делает обучение доступным, гибким и адаптивным к индивидуальным особенностям ребенка.

Модель, построенная на интеграции STEAM-элементов, обладает значительным потенциалом для повышения качества образовательных результатов. Она способствует развитию функциональной грамотности, повышает уровень сформированности логического мышления и умения применять знания в новых ситуациях. Такая модель отвечает современным вызовам и обеспечивает конкурентоспособность учащихся на международном уровне. Для начальной школы данная концепция является особенно важной, поскольку именно в этом возрасте формируются базовые учебные навыки, определяющие дальнейшую успешность ребенка.

В заключение необходимо подчеркнуть, что интеграция STEAM в начальное образование представляет собой не просто методическое

нововведение, а стратегическое направление модернизации образовательной системы. Она позволяет соединить интеллектуальное, творческое и практическое развитие школьников, формируя основы функциональной грамотности — ключевого показателя в международных оцениваниях качества образования. Представленная модель может стать основой обновленного образовательного стандарта, ориентированного на требования XXI века, на развитие креативного и критического мышления и на подготовку современных учащихся к жизни в сложном мире.

Список литературы:

1. Азимов, Э. Г., Щукин, А. Н. Современный словарь методических терминов и понятий. — Москва: ИКАР, 2019.
2. Баранов, М. Т. Методика обучения в начальной школе: современные подходы. — Москва: Просвещение, 2021.
3. Блинов, В. И., Сергеев, И. С. Современные образовательные тенденции и вызовы. — Москва: Академия, 2020.
4. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023
5. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
6. Быков, А. В. Креативность в образовании: теория и практика развития творческого мышления учащихся. — Санкт-Петербург: Питер, 2018.
7. Гребенюк, О. С. Инновационные методы обучения в начальной школе. — Москва: Вентана-Граф, 2020.
8. Ю.В. Лутфуллина - Gospodarka i Innowacje., 2023 СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОСПИТАНИЯ УЧЕНИКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ
9. Lutfullina Y.V. Modernization of the Content of Doctorial and Lexical Work in Russian Lessons, Content and Types of Vocabulary Work ||INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1 (5), 86-89

ПРОБЛЕМЫ ОЦЕНКИ КРЕАТИВНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ИХ РЕШЕНИЮ

Лутфуллина Ю.В.
стажёр – преподаватель факультета «Начальное и технологическое образование» Кокандского государственного университета
Исмаилова А. И.

студентка 4-курса факультета «Начальное и технологическое образование»
Кокандского государственного университета

Аннотация

В статье анализируются ключевые проблемы оценки креативности у младших школьников, возникающие в условиях обновления образовательных стандартов и роста значимости творческого мышления. Рассматриваются дефициты традиционных методов оценивания, отсутствие единых критериев и сложность фиксации индивидуальных творческих проявлений учащихся. Представлены современные подходы, основанные на международных исследованиях, STEAM-образовании, проектной деятельности и формирующем оценивании. Предложена комплексная модель, позволяющая объективно оценивать креативность и обеспечивать развитие навыков XXI века у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: креативность, оценивание, начальная школа, формирующее оценивание, STEAM, творческое мышление, функциональная грамотность, международные исследования.

Основные проблемы оценки креативности в начальном образовании

Креативность включает множество компонентов: оригинальность, гибкость мышления, беглость идей, воображение, способность к комбинированию элементов. Однако в школах отсутствуют стандартизированные критерии, позволяющие объективно фокусировать эти элементы. Это приводит к субъективности и разночтениям в оценивании.

Задания на воспроизведение знаний и умений не отражают способность ученика мыслить нестандартно. Творческие идеи часто остаются за рамками отметки, что понижают мотивацию и ограничивает инициативность детей.

Невозможность фиксировать индивидуальные проявления креативности.

Творчество — личностное, неповторимое проявление. Один ребёнок проявляет себя в конструировании, другой — в рисунке, третий — в нестандартном решении задач. Унифицированные школьные тесты не учитывают этот пункт в образовании.

Международные подходы к оценке креативности (Опыт PISA и OECD).

С 2022 года международное исследование PISA включает направление «Creative Thinking». Оно оценивает способность учащихся:

формулировать новые идеи;

моденизировать существующие решения;

интерпретировать информацию творчески;

создавать оригинальные продукты.

Этот подход ориентирован на процесс мышления, а не только на конечный результат.

Практикоориентированная оценка в Сингапуре, Финляндии, Корее.

Эти страны используют:

проектную деятельность,
портфолио учащегося,
творческие задания,
групповое решение проблем,
наблюдение за процессом работы.

Такие формы позволяют фиксировать реальные творческие проявления детей. В основе — регулярное наблюдение учителя за тем, как ученик предлагает идеи, ищет нестандартные решения, экспериментирует, дорабатывает результат. Учитель оценивает не отметку, а процесс развития творческого мышления.

Инновационные пути решения проблем оценивания креативности

STEAM-образование естественно развивает творческое мышление, поскольку соединяет науку, технологии, инженерное мышление, искусство и математику.

Преимущества STEAM для оценки креативности:

разнообразие форм проявления творчества (модели, рисунки, открытия, проекты);
возможность наблюдения процесса;
практическая направленность;
развитие гибкости и оригинальности мышления.

- *Портфолио как форма фиксации творческих достижений.*

В портфолио включаются: творческие работы, рисунки, модели, исследовательские мини-проекты, цифровые продукты.

Портфолио отражает динамику развития творческих способностей.

- Рубрики и чек-листы для объективного оценивания

Объективную оценку можно обеспечить через чёткие и определенные критерии:

оригинальность идеи;
разнообразие предложенных решений;
логичность;
эстетичность;
самостоятельность выполнения;
способность объяснить замысел.

❖ *Использование цифровых инструментов.* 3D-приложения, виртуальные лаборатории, платформы для проектирования помогают фиксировать творческие решения и увеличивают возможности самовыражения учащихся.

Модель системы оценки креативности включает в себя четыре компонента:

1. Первичная диагностика творческого потенциала

Тесты на воображение, наблюдение за инициативностью, задания на гибкость мышления.

2. STEAM-проекты как основа для оценки творчества

Проектная работа показывает реальное использование творческого мышления.

3. Портфолио + рубрики оценивания

Документируют личных достижений ученика.

4. Формирующее оценивание

Регулярная обратная связь учителя — важный инструмент развития творчества.

Заключение

Оценка креативности в начальной школе является сложным, но необходимым компонентом современного образования. Традиционные подходы не показывают реальный творческий потенциал учащихся. Поэтому необходимо вводить инновационные модели, включающие STEAM-подход, формирующее оценивание, портфолио, проектную деятельность и цифровые инструменты . Такая система позволяет безпривзято оценивать творческие проявления детей, развивать ключевые компетенции XXI века и повышать качество начального образования.

Список литературы

1. Гилфорд Д. Три стороны интеллекта // Психология мышления. — М.: Прогресс, 1997. — С. 433–456.

2. Торренс Е. Креативность: измерение и развитие. — М.: Прогресс, 2000.

3. Богоявленская Д. Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. — М.: Педагогика, 2002.

4. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

5. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

6. Яковлева Е. Л. Оценка креативности младших школьников: проблемы и пути решения // Начальная школа. — 2020. — № 7. — С. 15–22.

7. Becker K., Park K. Effects of integrative approaches in STEM education: A meta-analysis // Journal of STEM Education. — 2011. — Vol. 12(5). — Pp. 2337.

8. Henriksen D. The Seven Transdisciplinary Habits of Mind: Extending the STEAM Education Framework // Educ. Science. — 2017. — Vol. 7(4).

9. Ю.В. Лутфуллина - THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT …, 2025

10. Lutfullina Yu.V. Enriching the Vocabulary of Elementary School Students in the Russian Language Lessons. Volume 15, 2022 || EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS) p.287-291

11. Ю.В. Лутфуллина - Gospodarka i Innowacje., 2023 СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОСПИТАНИЯ УЧЕНИКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

12. Lutfullina Y.V. Modernization of the Content of Doctorial and Lexical Work in Russian Lessons, Content and Types of Vocabulary Work ||INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1 (5), 86-89

DO‘PPIDDO‘ZLIK TERMINLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Mamatova Dilafruz Zafarovna,
Qo‘qon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek do‘ppido‘zlik san’ati bilan bog‘liq terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosliklari, estetik qadriyatlari, olam bilan bog‘liq tasavvuri va dunyoqarashi do‘ppido‘zlik leksik tizimida aks etishi ko‘rsatiladi. Terminlarda ajdodlar konseptlari, folklor metaforalari, diniy-ma’naviy ramz, hududiy differensiallashuv, hunarmandchilik tajribasi va etnomadaniy qarashlari aktual tarzda namoyon bo‘lishi ilmiy asosda tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, do‘ppido‘zlik, termin, madaniy kod, ikonografiya, naqsh semantikasi.

Abstract. This article analyzes the linguoculturological characteristics of terms related to the art of Uzbek headgear. It is shown that the national identity, aesthetic values, worldview and worldview of the Uzbek people are reflected in the lexical system of headgear. The actual manifestation of ancestral concepts, folklore metaphors, religious and spiritual symbols, territorial differentiation, craft experience and ethnocultural views in terms is scientifically studied.

Keywords: linguoculturology, headgear, term, cultural code, iconography, pattern semantics.

Аннотация. В статье анализируются лингвокультурологические особенности терминов, связанных с искусством узбекских головных уборов. Показано, что национальная идентичность, эстетические ценности, мировоззрение и мировоззрение узбекского народа находят отражение в лексической системе головных уборов. Научно исследуется актуальное воплощение в терминах родовых концепций, фольклорных метафор, религиозно-духовных символов, территориальной дифференциации, ремесленного опыта и этнокультурных воззрений.

Ключевые слова: лингвокультурология, головной убор, термин, культурный код, иконография, семантика узора.

Har bir xalqning madaniy yodgorligi, estetik tafakkuri, mental qadriyatlari, ma’naviy ramziy belgilar tizimi uning tilida ham ifodasini topadi. Xalq san’ati ichida do‘ppido‘zlik o‘zbek mental dunyoqarashi uchun semantik markazlardan biridir. Do‘ppido‘zlik terminlari oddiy predmet nomlanishi bo‘lmay, balki o‘zbek xalqining tarixiy, diniy, mifopoetik, hududlarga xos madaniy kodlari qo‘shilib hosil bo‘lgan murakkab lingvokultura mahsulidir. Shu tufayli do‘ppido‘zlik atamalarining lingvokulturologik tahlili o‘zbek madaniy kodining “til orqali talqini”ni ochishga xizmat qiladi.

O‘zbek xalqi uchun do‘ppi shunchaki kiyim elementi emas, balki xalqning boy madaniy merosining tarkibiy qismidir. Do‘ppilar shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratiladi: Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Xorazm–Qoraqalpoq hamda Qashqadaryo–Surxondaryo do‘ppilari. Ular bayram uchun, diniy marosimlar uchun yoki kundalik hayotda kiyiladigan turlarga bo‘linadi. Do‘ppilar yumshoq yoki qattiq matodan tikilib, kashta yoki munchoqlar bilan bezatiladi hamda yumaloq yoki kvadrat shaklda bo‘ladi.

Bugungi kunda ko‘pchilik do‘ppi naqshlari ortidagi yashirin ma’nolarga chuqur e’tibor qaratmaydi. Aslida esa har bir belgi, har bir chiziq o‘z ramziy mazmuniga ega. Xalq orasida do‘ppi haqida turli afsona va rivoyatlar ham saqlanib kelgan. Masalan, ayrim rivoyatlarda erkaklar do‘ppisining yuqorisidagi to‘rtta gul — inson sog‘lig‘ini to‘rt tomondan asrash ramzi sifatida talqin qilinadi, do‘ppi chetidagi o‘n oltita gul esa katta va totuv oila bo‘lish — o‘n oltita farzand ko‘rish umidini ifodalaydi. Bunday do‘ppilar sodda, kamtar ko‘rinsa-da, juda nafis bezaklarga ega bo‘ladi. Qora fonga oq ipak bilan tikilgan to‘rt dona qalampir boshchalari ko‘rinishidagi naqshlar inson yuragi pokligi va qalb sofligini ifodalab turadi.

Ayollar do‘ppilarida esa asosan gul, meva va qush tasvirlari ishlatiladi. Eng ko‘p uchraydigan gul naqshlari — atirgul, lola, gulsapsar, chinnigul, gultojixo‘roz va olma gullari; mevalardan — anor, gilos, olcha, bodom va qalampir tasvirlari keng qo‘llanadi. Gullar, odatda, yuqori va yon qismlarda joylashtiriladi va har bir detali alohida noziklik bilan ishlanadi. Ba’zan qushlar ham asosiy bezak sifatida tasvirlanadi: tustovuq, xo‘roz, bulbul kabi. Bular hunarmand ayollarning go‘zallikka va mukammallikka intilishining yorqin namunasidir[3].

Tadqiqotchi Z.Muqimova o‘zbek xalqiga xos lingvomadaniy kodlarni tahlil qilar ekan, do‘ppini boylik ramzini ifodalovchi kod sifatida baholaydi va “*Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar*” maqoli orqali fikrini izohlaydi[4]. Darhaqiqat, o‘zbek tilida *do‘ppi* so‘zi bilan bog‘liq ko‘plab barqarorlik birliklarni uchratishimiz mumkin:

[3] https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-doppisi-sirlari/
[4] Muqimova Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida): Filol.fan.d-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2025. – B.115.

do‘ppisini osmonga otmoq, do‘ppisi tor kelmoq. Shuningdek, o‘zbek lingvomadaniyatida *do‘ppi* milliy g‘urur ramzi hamdir.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov:

“Qayga bormay boshda do‘ppim,
G‘oz yurarman gerdayib,
Olam uzra dong‘i ketgan
O‘zbekiston, o‘zbegim!” –

deganlarida do‘ppimizni millatimiz timsoli sifatida tasvirlagan. Yana bir shoirimiz esa, “Do‘ppi kiymay qo‘ydi odamlar” deb yozgan jumlalari orqali o‘zligimiz haqidagi xavotirini ifodalagan edi.

Bu borada o‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspektini tadqiq qilgan olim F.Usmonov qadriyat tushunchasi haqida shunday yozadi: “Qadriyat ma’lum bir tarixiy davr va muhitda ijtimoiy ahamiyatli bo‘lgan, ijobiy baholanuvchi, o‘ziga nisbatan intilish uyg‘otuvchi ideal hodisalardir. Milliy qadriyat esa millat hayotida shu talablarga javob beruvchi, ma’lum pog‘onaviylikda joylashgan, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va uning a’zolarida ijobiy hissiyot uyg‘otuvchi mazmundir. Konsept va qadriyat o‘zaro butun-qism munosabatida bo‘ladi[5]”. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, do‘ppi kiyish ham o‘zbeklar uchun tarixan rivojlanib kelgan milliy qadriyat va u tinchlik, omonlik, milliylik, g‘urur kabi konseptlar tarkibiga kiradi.

Do‘ppido‘zlik terminlarida tahlil qilish jarayonida ma’lum ramzlarning ustuvor ekanligiga guvoh bo‘ldik. Masalan, bodom gul, yulduz, qalampir, koinot, ilon izi, qaldirg‘och izi, tog‘, toj, qirra, qush ko‘zi kabi leksik birliklar nafaqat obraz, balki xalqning koinot haqidagi konseptlar tizimini tasvirlaydi. Bu terminlar o‘zbek xalqining qadimiy kosmogonik qarashlarini lingvistik modellashtiradi.

Hududiy maqomning ham do‘ppilarda o‘z aksini topishi ham subkultural kod sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, Xorazm do‘ppisi naqshda “shamol”, “qum”, “qilich” obrazlariga moyil; Farg‘ona do‘ppisi “bodom”, “qalampir”, “tilla”, “zar”, “nishon” konsepsiyasiga asoslanadi; Buxoro do‘ppisida “din”, “tasavvuf”, “yulduz”, “ilm” konseptlari faol hisoblanadi.

Mifologik qatlam va diniy ramz terminlarida faol hisoblangan yulduz naqshi — ruhiy nur konsepti, bodom gul — poklik, ayollik konsepti, ilon izi — ehtiyot, himoya semantikasini ifodalaydi.

Tumor – do‘ppidagi uchburchak shaklidagi naqsh; yomonlikdan asrovchi timsol. Shevalardagi variantlari (Namangan: tumar, Marg‘ilon: tumar, Andijon: tumor, Qo‘qon: tumor).

Qaldirg‘och izi – qaldirg‘och qanoti shaklidagi naqsh – baraka va tezlik timsoli. Shevalardagi variantlari (Namangan qaldirg‘och izi, Marg‘ilon: qaldirg‘och iz, Andijon: qaldirg‘och izi, Qo‘qon: qaldirg‘och iz)

[5] Usmonov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.d-ri (DSc) diss.avtoref. – Andijon, 2024. – B.19.

G‘uncha **–** gulning yopiq holati; duppilarda tez-tez uchraydigan gul naqshi turi. Bu — yangilanish, go‘zallik va umid ramzi.

Do‘ppido‘zlik terminlari lingvokulturologik jihatdan o‘zbek milliy kognitiv dunyoqarashining verbal belgilar majmuasidir. O‘zbek tilida termin semasi faqat struktur birlik bilan emas, balki xalqning madaniy tajribasining semantik xotirasi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun lingvokulturologiyada atama “etnomadaniy axborot tashuvchi lingvomadaniy kod” sifatida baholanadi. Har bir naqshning nomi – axborotni kodlash algoritmidir. Demak, do‘ppido‘z terminlari semasi bu madaniy kod → obraz → til birligi ketma-ketligida shakllanadi. Shuning uchun, do‘ppido‘zlik terminologiyasini lingvokulturologik o‘rganish milliy mental konseptlarni til orqali tahlil qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, do‘ppiddo‘zlik terminlari o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analarini va madaniy merosini ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Lingvokulturologik tadqiqotlar orqali bu terminlarning ma’nolari va ahamiyatlari yanada chuqurroq o'rganilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eshboyeva Z. Lingvokulturologiya asoslari. – Farg‘ona, 2022.
2. Karimov B. O‘zbek xalq amaliy san’ati terminologiyasi. – Toshkent, 2015.
3. Muqimova Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida): Filol.fan.d-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2025. – B.115.
4. Qo‘qon do‘ppido‘zlik maktablari bo‘yicha dala materiallari.
5. Rasulova N. Folklor hunarmandchilikda semantik obrazlar tabiat. – Toshkent, 2021.
6. Usmonov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.d-ri (DSc) diss.avtoref. – Andijon, 2024. – B.19.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

QDU filologiya fanlari doktori (DSc), professor D.M.Jamolitdinova
QDU Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi M.U.Abdulxayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning yozma nutq madaniyatini shakllantirish jarayonining mazmuni, maqsadi va pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Yozma nutqni rivojlantirishda didaktik tamoyillar, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yozma nutqni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi shaxsi, til kompetensiyasi va metodik tayyorgarligining roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik texnologiya, til kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, nutq madaniyati.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqobatbardosh, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan o‘qituvchini tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat o‘z fanini bilish bilan, balki o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq va mantiqiy tarzda bayon eta olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, yozma nutq – bu o‘qituvchining savodxonligini, nutq madaniyatini va professional muloqot darajasini ko‘rsatadigan muhim ko‘rsatkichdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda yozma nutqni shakllantirish – bu ularning kelgusida o‘quvchilarga ta’sirchan, mantiqan asoslangan va estetik jihatdan to‘g‘ri fikrni ifodalashga o‘rgatish garovidir. Shu bois, oliy ta’lim tizimida bu jarayonning pedagogik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarurdir.

Yozma nutq — bu fikrni yozma shaklda mantiqiy izchillikda ifodalash jarayoni bo‘lib, unda til tizimi, uslubiy vositalar va grammatik qonuniyatlar uyg‘unlashadi. O‘qituvchi uchun yozma nutq quyidagi jihatlar bilan muhim:

- metodik hujjatlar (dars ishlanmalari, konspektlar, reja va hisobotlar)ni savodli tuzish;
- ilmiy izlanishlarda qatnashish, maqola va tezislar yozish;
- o‘quvchilarga yozma nutq namunasini ko‘rsatish orqali o‘rnak bo‘lish.

Bo‘lajak o‘qituvchilar yozma nutq madaniyatiga ega bo‘lmasa, ular o‘quv jarayonida fikrni aniq ifodalay olmaydi, bu esa o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yozma nutqni shakllantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga tayanadi:

1. **Tilga oid bilimlarning chuqurligi** – grammatik, leksik va stilistik bilimlar asos bo‘ladi.
2. **Yozish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish** – matn tuzish, tahlil qilish va tahrirlash malakalari shakllantiriladi.
3. **O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ muhit** – ochiq muloqot va erkin fikrlash muhitini yaratish.
4. **Axborot texnologiyalaridan foydalanish** – elektron platformalarda yozma topshiriqlar, blog va onlayn muhokamalar orqali mashq qilish.

Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishda **motivatsion omil** ham katta ahamiyatga ega. Talaba yozma faoliyatning amaliy ahamiyatini anglaganida, uning o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshadi.

Yozma nutqni o‘qitishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- **Kommunikativ yondashuv:** yozma topshiriqlarni haqiqiy muloqot maqsadiga yo‘naltirish (masalan, rasmiy maktub, blog posti, hisobot yozish).
- **Faol o‘qitish metodlari:** “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Venn diagrammasi” kabi interfaol usullar orqali talabalarning fikrlash jarayonini faollashtirish.

- **Differensial yondashuv:** talabalarning individual tilda ifodalash darajasini hisobga olib topshiriqlarni moslashtirish.
- **Reflektiv metod:** yozma ishlarni tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Yozma nutqni rivojlantirish jarayonida baholash muhim o‘rin tutadi. Baholash quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1. **Mazmuniy aniqlik** – fikrning to‘liq va mantiqan asoslanganligi.
2. **Tuzilish izchilligi** – kirish, asosiy qism va xulosa qismlarining mantiqiy bog‘liqligi.
3. **Til vositalarining to‘g‘ri ishlatilishi** – imlo, punktuatsiya va grammatik me’yorlarga rioya qilish.
4. **Uslubiy moslik** – matn turiga mos uslubni tanlash (ilmiy, rasmiy, badiiy).
5. **Ijodkorlik** – talabaning o‘z fikrini mustaqil tarzda ifodalash darajasi.

Bu mezonlar yordamida o‘qituvchi talabaning yozma nutq madaniyatini tizimli baholashi va individual tavsiyalar berishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda yozma nutqni shakllantirish – bu kompleks pedagogik jarayon bo‘lib, unda til bilimlari, metodik yondashuvlar, texnologik imkoniyatlar va shaxsiy motivatsiya uyg‘un holda amal qiladi. Yozma nutq madaniyatiga ega o‘qituvchi nafaqat o‘z fikrini aniq ifodalash, balki o‘quvchilarda ham savodli yozma nutqni shakllantirishga qodir bo‘ladi. Shuning uchun pedagogik ta’lim muassasalarida yozma nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bu borada innovatsion metodlarni joriy etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyeva O. “Nutq madaniyati va uni shakllantirish yo‘llari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Mahmudov N. “Til va nutq madaniyati asoslari”. – T.: Fan va texnologiya, 2019.
3. Xoliqova N. “Oliy ta’limda yozma nutqni rivojlantirishning metodik asoslari”. – T., 2022.
4. Vygotskiy L.S. “Muloqot va tafakkur psixologiyasi”. – Moskva, 1984.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Innovatsiya nashriyoti, 2021.

TABIIY FAN DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sattorova Mushtariybonu Alijon qizi

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon miqyosida ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda dars jarayonini innovatsion ta’lim metodlari asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2030-yilgacha belgilangan tizimli xalqaro ta‘lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat

yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Mazkur maqola Tabiiy fan darslari sifatini oshirishda interaktiv metodlar ahamiyati va imkoniyatlarini ochib bergan.

Abstract: Today, in accordance with the development trends in the field of education on a global scale, special attention is paid to improving the educational process based on innovative educational methods. In the Concept of Systemic International Education until 2030, "Creating opportunities for quality lifelong learning" is defined as an urgent task. This article reveals the importance and possibilities of interactive methods in improving the quality of natural science lessons.

Kalit so‘zlar: Interaktiv metod, bilim sifati, bilim samaradorligi, o‘quvchi tasavvuri, borliq, tabiat, pedagogik texnologiya, sinfdan tashqari ishlar.

Keywords: Interactive method, quality of knowledge, effectiveness of knowledge, student imagination, reality, nature, pedagogical technology, extracurricular activities.

KIRISH. Dunyoda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimlarini va metodik faoliyatini rivojlantirish uchun sinfdan tashqari ishlar hamda interaktiv metodlar o‘qitish sifatini takomillashtirish hozirgi vaqtda alohida dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizning III Rennessans davrida geografiya fani o‘qituvchilarining sinfdan tashqari ishlar, xususan, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda izchillik mazkur maqolaning asosini tashkil etadi. Bu borada zamonaviy ta’lim voqeliklar bu ma’noda ta’lim samaradorligini oshirish va dars sifatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi[6] farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

METODLAR. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitishning muammolari va ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etish masalalari bo‘yicha ma’lumotlar B.Abdullayeva, R.Djurayev, R.Isyanov, N.Muslimov, M.H.Mahmudovlarning tadqiqot ishlari ahamiyatli hidoblanadi. Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortishiga, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kuzatuv olib borish kompetensiyalari shakllantirishga xizmat qiladi. [2] Interaktiv metodlar esa aynan shu jarayonni jonlantiruvchi, o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiruvchi usullar majmui hisoblanadi. [4] O‘quvchilarni borliqqa

[6] O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. — T., 2017. 6-son.

qiziqishini orttirish, tabiatni sevishga, uni asrab-avaylashga o‘rgatish asosiy tadqiqot ishimizdir. Bu borada, interaktiv metodlar eng samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Interaktiv metodlar ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida samarali muloqot yaratadi, fanlarni chuqur anglashni osonlashtiradi, o‘quvchining fikrini erkin ifodalashiga imkon beradi. Tabiiy fanlar – biologiya, geografiya, fizika, kimyo kabi yo‘nalishlarda bu usullar darsni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirgan holda yuqori natija beradi.[3]

Tabiiy fanlar butun borliqni yaxlit holda anglashga va tabiatga, ekologiyaga e’tiborga muhtojligi jahonhamjamiyatiga sir emas. Bizning maqola ushbu muammoga yechim deb qaralishi maqsadga muvofiq.

Tabiiy fan darslarida qo‘llaniladigan asosiy interaktiv metodlar

1. “Aqliy hujum” – mavzu bo‘yicha maksimal g‘oyalarni yig‘ish va ularni tahlil qilish.
2. “Kichik guruhlarda ishlash” – o‘quvchilarni jamoada ishlash, natija chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
3. “Insert” – matn bilan ishlash orqali analiz va sintezni rivojlantiradi.
4. “Baliq skeleti” (Fishbone) – sabab-oqibatni tahlil qilishga yordam beradi.
5. “Klaster” – tushunchalar orasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatadi.
6. “B-B-B” (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim) – mavzuni o‘zlashtirish jarayonini kuzatish imkonini beradi.
7. Modellashtirish va tajribalar – tabiiy fanlarga xos eng samarali amaliy yondashuv.

Har metodning dars mavzusiga qarab turlicha ahamiyatini kashf etish mumkin. Sinfdan tashqari ishlarda ham ayrimlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu maqolada tabiiy fan darslarida interaktiv metodlarning qo‘llanishi, ularning samaradorligi, o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati va amaliy misollar yoritiladi.(1-jadval)

1-jadval.


Metod	**Maqsadi**	**Afzalliklari**
Aqliy hujum	G‘oyalarni shakllantirish	Tezkor fikrlashni rivojlantiradi
INSERT	Matn bilan ishlash	Tahlil qilish ko‘nikmasi ortadi
Baliq suyagi	Muammoni sabab-oqibatga ajratish	Tizimli fikrlashni kuchaytiradi

Interaktiv metodlar tahlili

Interaktiv metodlar o‘quvchilar bilim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlardan foydalanishning afzalliklari shundan iboratki, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanadi, o‘z fikrini asoslab ayta olish malakasi shakllanadi, dars jarayoni jonlanadi, qiziqarli bo‘ladi, murakkab tabiiy jarayonlarni oson tushunishga yordam beradi, guruhda ishlash, liderlik va muloqot ko‘nikmalarini oshiradi. Tabiiy fanlarni interaktiv metodlar asosida o‘qitish natijasida o‘quvchilarda

kuzatuvchanlik, tahlil qilish, tajriba o‘tkazish, tabiatga nisbatan mas’uliyat hissi kuchayadi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar real hayotdagi ekologik, geografik va biologik jarayonlarni chuqurroq anglaydilar. O‘tkazilgan tadqiqotimiz natijasida, “Aqliy hujum” interaktiv metodi eng samarali deb topilgan. Sababi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fikrini jamlay olish va ular diqqatini darsga qarata olishlarini oshiruvchi hisoblanadi. Sinfdan tashqari darslarda 3-“A” sinfda Tabiiy fandan 3-mavzu “Hayvonot olamining xilma-xilligi”ning 2-qismi hisoblangan “Jonivorlarning o‘simliklardan asosiy farqlari” ni o‘qitishda bilim samaradorligi 85 foizni tashkil etdi. Mazkur metodni darsni “O‘tilgan mavzuni mustahkamlash” qismida ham, “Yangi mavzuni mustahkamlash” qismida ham, darsdan tashqari holatlarda o‘tkazish mumkin. Keyingi eng samarali metod-“Baliq suyagi metodi” deb hisobladik. Mazkur metod bilim samaradorligini 82 foizini tashkil etdi.

NATIJALAR. Tadqiqot obyektimizda o‘quvchilar bilan birgalikda dars jarayonini olib borishda interaktiv metodlarga yuzlandik hamda maktab Tabiiy fan darsligini o‘qitishda interaktiv metodlar samaradorligini quyidagicha baholadik. (1-rasm).



1-rasm. Interaktiv metodlar samaradorligi diagrammasi.

“Insert” metodini esa sinfdan tashqari darslarda tashkil etish noqulaylikni vujudga keltiradi. Bilim samaradorligi ham nisbatan past ko‘rsatkich, ya’ni 78 foizga yetdi.[5]

Sinfdan tashqari ishlar va to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish “Tabiiy fanlar” uchun dolzarb ahamiyatga ega.

XULOSA. Tabiiy fanlarni o‘qitishda interaktiv metodlar bilim sifati va samaradorligini oshiradi, ayniqsa, sinfdan tashqari ishlarda buni yaqqol kuzatish mumkin. Darslarning qiziqarli hamda mustahkam bilimlarga boy bo‘lishi, o‘quvchining borliqning yaxlit tushunishi, borliq haqida bilim va ko‘nikmalari shakllanishida pedagogik texnologiyalarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi dolzarb ahamiyatga ega.

QO‘LLANILGAN MANBALAR RO‘YXATI.

1. BMT ning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturi. //www.uz/undp/org/content/Uzbekistan.ru.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Abulqosimov A., Ravshanov A.X. Geoekologik vaziyatlarni inson salomatligiga ta’sirini o‘rganishda tibbiy landshaftshunoslikning roli// O‘zbekiston Geografiya jamiyati VII-se’zdi materiallari. Toshkent, 2006. -B 25.
4. Shirinova M.Sh. Oliy ta’lim muassasalarida landshaftshunoslik fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish. “Ilm-fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2023.20.08 97-100 bet.
5. Qo‘ziboyeva O.M. “Tabiiy fanlarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi//o‘quv qo‘llanma. Qo‘qon, 2023. –B 34-35.

“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA MOBIL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va raqamli o‘quv resurslari yordamida o‘quvchilarning mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishi hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mobil ta’limning afzalliklari, o‘quv jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari, o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari va samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari mobil ta’lim texnologiyalari informatika darslarida interaktivlikni kuchaytirishi, o‘quv jarayonini individuallashtirishi va o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: mobil ta’lim, raqamli texnologiyalar, informatika ta’limi, mobil ilovalar, axborot texnologiyalari, elektron resurslar, interaktiv o‘qitish, raqamli kompetensiya, o‘quv jarayoni, masofaviy ta’lim.

Zamonaviy ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan mobil ta’lim texnologiyalari, o‘quv faoliyatini individuallashtirish va samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallamoqda. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida didaktik modellar vositasida mobil

qurilmalardan foydalanish nafaqat o‘quv mazmunini vizual va interfaol shaklda taqdim etishga, balki o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashgan shaxsiy o‘quv trayektoriyasini shakllantirishga ham yordam beradi.

Pedagogik model deganda ta’lim jarayoni yoki pedagogik hodisaning muhim jihatlarini aks yettiruvchi namuna tushuniladi. Boshqacha aytganda, pedagogik model – bu o‘quv jarayonining mazmuni, tuzilishi va xususiyatlarini nazariy asosda ifodalovchi ideal tizim yoki konseptual tavsifdir [7]. Zamonaviy pedagogika fanida "pedagogik model" tushunchasi keng qo‘llaniladi va u turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, pedagogik model asl ob’yektning muayyan belgilari va tarkibiy tuzilishini mantiqiy model orqali ifodalaydi hamda uni madaniy-amaliy shaklda tasvirlash imkonini beradi [9]. Demak, pedagogik model o‘quv jarayonini soddalashtirilgan, ideal ko‘rinishda qayta yaratib, didaktik jarayonni samarali loyihalash va tushuntirishga xizmat qiladi.

Pedagogik modellarning turlari ham mavjud bo‘lib, ular mazmuniy, tuzilaviy yoki funksional yo‘nalishda bo‘lishi mumkin [2]. Masalan, o‘quv jarayonining mazmuniy modeli ta’lim mazmuni va uning tarkibini ifodalasa, tuzilaviy model pedagogik tizim yoki jarayonning tuzilmasini ko‘rsatadi, funksional model esa jarayonning bajaradigan vazifalari va ishlash tamoyillarini namoyon etadi. Har qanday holda, pedagogik model reallikdagi ta’lim jarayonining muhim tomonlarini fikran aks ettirgan holda, uni chuqurroq anglash va boshqarishga yordam beradi [11].

Pedagogik modellashtirish – bu pedagogik tizim yoki jarayonning modelini yaratish va undan ilmiy-tadqiqot yoki amaliy maqsadlarda foydalanish jarayonidir. Ushbu jarayon bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvalo, muammo va maqsadlar aniqlanadi, ya’ni qaysi pedagogik hodisani model orqali o‘rganish va qanday natijaga erishish lozimligi belgilab olinadi. Keyinki bosqichda model konsepsiyasi ishlab chiqiladi: bu davrda tadqiqot ob’yektining sifatlari, tarkibiy qismlari va ular orasidagi munosabatlar tahlil qilinib, ideal model tuzilishi rejalashtiriladi [9]. Model yaratishda abstraksiya, ideallashtirish va soddalashtirish usullari qo‘llaniladi, ya’ni real jarayonning ikkinchi darajali tafsilotlari chetlashtirilib, asosiy omillariga e’tibor qaratiladi [4]. Natijada pedagogik jarayonning nazariy modeli – fikriy qiyofasi yaratiladi.

Modelni yaratgach, uni tekshirish va takomillashtirish bosqichi o‘tadi. Bu bosqichda tuzilgan model amaliyotga tatbiq etilib yoki kompyuterli simulyasiya yordamida sinovdan o‘tkaziladi. Sinov natijasida modelning qay darajada real jarayonga mos kelishi, uning samaradorligi baholanadi. Zarur hollarda model tuzatiladi va takomillashtiriladi. Shunday qilib, pedagogik modellashtirish jarayonida kuzatilayotgan hodisani o‘rganish uchun uning soddalashtirilgan nusxasi yaratiladi va u orqali hodisa haqida yangi bilimlar hosil qilinadi [6]. Tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish kabi tafakkur amallari modellashtirish

jarayonining ajralmas qismidir [11]. Muhimi, pedagogik modellashtirish nazariy izlanishlar bilan amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi, chunki u nazariy g‘oyalarni amaliy namunaviy shaklga keltirishga imkoniyati beradi.

Pedagogik modellashtirish samarali bo‘lishi uchun ma’lum didaktik va tashkiliy shart-sharoitlar ta’minlanishi zarur. Ilmiy manbalarda pedagogik modellashtirishdan optimal foydalanish uchun bir qator pedagogik shartlar keltirilgan. Jumladan, N.A.Kozырev va O.A. Kozыreva tadqiqotlarida modellashtirish metodini joriy etishda quyidagi shartlar alohida ta’kidlanadi [10]:

Innovasion muhit va rag‘batlantirish: O‘qituvchilarning ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlaydigan, yangi pedagogik vositalar yaratishga undauvchi muhit bo‘lishi. Bunda rahbariyat tomonidan innovasion faoliyat rag‘batlantirilishi lozim.

Yutuqlarga intilish ehtiyoji: O‘quvchi va o‘qituvchilarda yuksak natijalarga erishishga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantirish. Bu modellashtirish jarayonida yuqori maqsadlarni ko‘zlashga xizmat qiladi.

Qadriyatlar va maqsadlarning uyg‘unligi: Ta’lim jarayonida gumanistik qadriyatlar, shaxs kamoloti va samarali natijalarga erishish g‘oyalarini tarbiyalash. Modellashtirish jarayoni mazmunan ahamiyatli bo‘lishi uchun unga jamiyat va ta’lim tizimi tomonidan qo‘yiladigan maqsad va vazifalar mos kelishi kerak.

Kompetensiyalarga integral yondashuv: O‘quvchilarning kompetensiyalarini yaxlit (butunlay) shakllantirish uchun modellashtirishdan foydalanish. Ya’ni, model o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini qamrab oladigan tarzda ishlab chiqilishi zarur.

Resurs va qo‘llab-quvvatlash: Ta’lim tizimi va davlatning yangi pedagogik modellarni yaratish va sinovdan o‘tkazishga tayyorligi, zarur moddiy-texnika bazasi va metodik ko‘magi mavjud bo‘lishi.

Yuqoridagi shartlar bajarilgandangina, pedagogik modellashtirishning joriy etilishi muvaffaqiyatli kechadi va u kutilgan natijalarni beradi. Aks holda, model qog‘ozda qolib ketishi yoki amaliyotda samarasiz bo‘lishi mumkin. Shuningdek, modellashtirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, yaratilgan modelni tushunish va undan foydalanish malakasi ham muhim omildir [12]. Demak, modellashtirishni muvaffaqiyatli qo‘llash jarayoni nafaqat modelning o‘ziga, balki uni o‘rab turgan pedagogik shart-sharoitlarga ham bog‘liq.

Pedagogik modellashtirishning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati katta bo‘lib, uning qator afzalligi mavjud. Avvalo, modellashtirish o‘quvchilarning faolligini va qiziqishini oshiradi. Real voqelik yoki jarayonning modelini ko‘rish va undan foydalanish o‘quvchilarda kuchli qiziqish uyg‘otadi, mavzuni hayotiyroq va tushunarliroq qiladi. Masalan, dars jarayonida vaziyatli modellar yoki rolli o‘yinlar qo‘llansa, bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, darsni "jonlantiradi" va bir xillikdan chiqishga yordam beradi [13]. O‘quvchilar model bilan ishlash jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, muammo yechish ko‘nikmasini rivojlantiradi, o‘qituvchi esa maslahatchi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi

rolida qatnashadi. Natijada ta’lim jarayoni interaktiv tus oladi va o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim amalga oshadi.

Ikkinchidan, modellashtirish nazariy tafakkurni rivojlantiradi. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatishicha, modellashtirish usulini qo‘llash o‘quvchilarning abstrakt va nazariy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi [3]. Model yaratish va undan foydalanish jarayonida o‘quvchilar tahliliy va mantiqiy fikrlashga, muhim bog‘liqlik va qonuniyatlarni ajratib ko‘rsatishga o‘rganadilar. Bu esa nafaqat fan bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtiradi, balki umumiy intellektual salohiyatni ham boyitadi.

Yana bir muhim afzallik – modellashtirish yordamida pedagogik jarayon yoki metodlarni amaliyotiy joriy etishdan oldin sinovdan o‘tkazish imkoniyatidir. Model real jarayonning o‘ziga xos "miniatyura"si bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, yangi g‘oya yoki metodni bevosita tatbiq qilishdan oldin uni model asosida tekshirish mumkin. Bu ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan juda qulay: model asosida ilgari surilgan farozlar va nazariyalarni tasdiqlash yoki rad etish imkoni tug‘iladi [4]. Masalan, ma’lum bir interaktiv o‘qitish texnologiyasini joriy qilishdan oldin, avvalo uning modeli yaratilib, nazariy jihatdan baholanadi va takomillashtiriladi. Shuningdek, modellashtirish yordamida turli variantlarni qiyoslab ko‘rish, eng optimal yechimni tanlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Modellashtirishning imkoniyatlari faqat dars jarayoni bilan cheklanmaydi. U pedagogik tadqiqotlarda ham metod sifatida keng qo‘llaniladi va yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishda muhim vosita hisoblanadi. Modellashtirish vositasida tadqiqotchilar ta’lim jarayonining turli jihatlarini o‘rganib, innovasion yondashuvlarni sinab ko‘rishlari mumkin. Misol uchun, raqamli texnologiyalarni qo‘llashda avvalo ularning pedagogik modeli tuziladi: bu model orqali mazkur texnologiyalarning ta’limga integratsiyalashuvi oldindan tahlil etiladi. Shuningdek, pedagogik modellashtirish natijasida yangi o‘quv materiallari, dars ishlanmalari yoki hatto butun bir o‘quv tizimining loyihasi yaratilib, amaliyotga joriy etilishi mumkin. Kozыrev va Kozыreva ta’kidlaganidek, modellashtirish orqali zamonaviy pedagogik amaliyot oldida turgan qator vazifalarni hal etishga mo‘ljallangan yangi pedagogik vositalarni yaratish mumkin bo‘ladi [2].

Xulosa qilib aytganda, pedagogik modellashtirish ta’lim jarayonini chuqur tahlil qilish, samarali loyihalash va nazorat qilish imkonini beruvchi kuchli ilmiy-uslubiy vositadir. To‘g‘ri tashkil etilgan modellashtirish jarayoni nafaqat o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini jonlantiradi, balki pedagogga o‘qitish metodikasini takomillashtirish, yangi innovasion texnologiyalarni sinab ko‘rish uchun zamin yaratadi. Modellashtirishning afzalligi – o‘quvchilarda mustaqil va nazariy tafakkurni rivojlantirish, ta’limni hayotiyroq qilish, ilmiy farazlarni tekshirish hamda yangi pedagogik yechimlarni yaratish – uning bugungi ta’lim tizimidagi o‘rnini yanada mustahkamlamoqda. Shu bois, pedagogik

modellashtirish bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliyotiy ko‘nikmalar har bir zamonaviy o‘qituvchi uchun muhim metodik kompetensiya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abduqodirov A.A., Mahkamova D.Yu. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020. 125-b
2. Tadjiboyeva N.A. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. 96-b
3. Azimov N.A. Informatika o‘qitish metodikasi (umumta’lim maktablari uchun). – Toshkent: «O‘qituvchi», 2019. 185-b
4. Jo‘rayev S.R. Elektron ta’lim vositalari va ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020. 212-b
5. Ortiqboyeva M.X. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: «Innovatsiya», 2022. 63-b
6. To‘xtaboyev A.S. Axborot texnologiyalari va multimedia vositalari asosida darslarni loyihalash. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 236-b
7. Xolboyeva N.T. O‘quvchilar bilan masofaviy va mobil ta’limni tashkil etish usullari // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. – 2022, №3.93-b
8. G‘ofurov A., Qodirova M. Ta’limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Ma’rifat, 2023. 131-b
9. Rajabova D.E. Informatika fanini o‘qitishda interaktiv metodlar. – Qarshi: QarDU nashriyoti, 2020. 169-b
10. Raxmatullayev I.R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2021.
11. Xasanova G.A. Mobil ilovalar asosida o‘quv resurslarini yaratish va ularni darsda qo‘llash tajribalari // O‘zMU ilmiy jurnali. – 2021, №4.
12. Niyozov E. Axborot texnologiyalari va o‘quvchilar mustaqil ishlari. – Toshkent: Innovatsiya markazi, 2021.

IMPROVING THE QUALITY OF PRIMARY EDUCATION THROUGH INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Mashrabjonov Ulugbek Azamjon ogli
Kokand State University Faculty of Pedagogy, Teacher

Abstract: *This paper examines the importance of supporting the creative ideas and talents of the younger generation in the context of the nation’s growing spiritual and scientific potential. It emphasizes the need to develop students’ knowledge, skills, and competencies while improving assessment systems through the adoption of advanced international standards and practices.*

Keywords: *creative thinking, youth development, international assessment, educational standards, comparative analysis, global experience,*

At a time when our nation’s spiritual and scientific potential continues to grow, it is of great importance to comprehensively support the creative ideas and talents of the younger generation—our future successors—while fostering their knowledge, skills, and competencies. Equally essential is the improvement of assessment systems based on advanced international practices, standards, and requirements. To achieve these goals, it is crucial to study global experience, conduct comparative analyses of existing systems, and establish close cooperation with relevant international and foreign organizations, as well as scientific research institutions. Teaching today’s school students and organizing educational processes based on international assessment programs, developing the future generation’s oral and written speech, and elevating their speech culture to the level of rhetoric are among the demands of the modern era. Successful participation in international assessment programs is directly related to improving the quality of education. Participation in these programs allows not only Uzbekistan, but also the global community to assess students’ competencies rather than simply evaluating how well they remember the school curriculum. In other words, it helps measure how well they can apply the knowledge they have acquired in school in real-life situations, as well as develop their creative and logical thinking skills—serving as an important tool in the assessment process. In addition, enriching teachers’ and students’ understanding of TIMSS, PISA, and PIRLS studies, increasing their level of preparation for international assessments, and developing students’ creative and logical thinking skills are all being implemented within the higher and secondary specialized

Students are encouraged to further strengthen their ability to comprehend the content of texts they read and to place greater emphasis on applying mathematical concepts and advanced mathematical skills to unfamiliar contexts. The data also highlight notable differences in performance across regions and language groups. These findings provide the Ministry with valuable evidence to make informed

decisions aimed at enhancing the overall quality of education for all students in Uzbekistan.

Analytical data show that in the United States, an average investment of 210,000 USD in an individual’s education from ages 3 to 22 yields an estimated return of 3.1 million USD. In South Korea, an investment of 130,000 USD generates a return of 2.1 million USD. In developed countries, each unit of currency invested in human capital returns approximately thirteen times its value. In Uzbekistan, an investment of 16,000 USD in education results in an estimated return of 70,000 USD. In this context, it is pertinent to discuss the international assessment programs in which Uzbekistan participates to evaluate the quality of education:

- **PIRLS** – assesses the reading comprehension skills of 4th-grade students.
- **TIMSS** – measures the mathematical and scientific literacy of 4th- and 8th-grade students.
- **PISA** – evaluates the reading, mathematics, and science literacy of 15-year-old students.
- **TALIS** – a survey of school principals and teachers that examines the effectiveness of teaching and learning processes.

Preparation for these international assessment programs involves attention to several key areas:

- Teachers and school leaders must engage in continuous self-improvement and professional growth.
- Instructional materials must be carefully studied, analyzed, and effectively disseminated to others.
- The aims and objectives of international assessments should be clearly communicated to students, teachers, and parents.
- Students should be guided to understand that the purpose of preparation is not merely to perform well on PISA or PIRLS tasks, but to develop competencies essential for real-life problem-solving.
- An innovative resource base should be developed to assess students’ literacy in mathematics and science, as well as their creative and logical thinking abilities.
- Students’ proficiency in completing computer-based assessments should be progressively strengthened.
- Extracurricular activities in mathematics, reading, and science should be designed to nurture creative thinking and computer literacy.
- Instruction should incorporate tasks that foster creative reasoning.
- Regular assessments should be conducted to evaluate students’ practical skills and their logical and creative thinking abilities.

Unlike assessments that focus on the superiority of specific school curricula, PISA evaluates students’ capacity to apply knowledge and skills to real-world contexts, analyze and interpret problems, think critically, and communicate effectively.

To ensure meaningful participation in international assessments, students must develop the ability to apply school-acquired knowledge to real-life situations. Achieving this requires the implementation of the following measures:

- Strengthening the material and technical infrastructure that supports quality education;
- Conducting international scientific research;
- Developing supplementary methodological guides and literature aligned with international assessments;
- Establishing a national item bank consistent with international assessment frameworks and integrating it into the curriculum;
- Enhancing instructional methods and technologies based on international assessment standards, and offering professional development courses to improve teachers’ qualifications.

At present, to broaden the implementation of international assessment programs, it is advisable for all higher education institutions in Uzbekistan to organize seminars that familiarize students with foreign and children’s literature, as well as with the new assessment criteria introduced by these international programs.

References:

1. Xodjamkulov, U. N.; Xudayqulova, F. B. (2021). Kelajak o’qituvchisi konsepsiyasi. O‘zbekistondafanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(3), 130-135.

2. Xudayqulova, F., Xikmatova, M., & Panjiyeva, M. (2023). Boshlang’ich sinÀardaxalqarodasturlarasosida dars o’tishning afzalliklari. Interpretation and researches, 1.

3. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

4. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100

5. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

6. Yarashov m. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tadbiq etish metodikasi //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2021. – т. 8. – №. 8.

MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASH ORQALI O`QUVCHILARDA OG`ZAKI HISOBLASH KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Maxkamova Dilafruz Aliyevna
Qo‘qon davkat universiteti Geografiya va iqtisodiyot kafedrasu o‘qituvchisi (PhD)
Muxammadaliyeva Muborakxon Asqarali qizi

Qo‘qon davkat universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

Kirish

Boshlang`ich sinf matematika darslarida og`zaki hisoblash ko`nikmalarini shakllantirish pedagog oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Matematika va ishonchli fikrlash matematikning ikki jildli kitobidir Jorj P Rakkablya yangi matematik natijalarni yaxshi taxmin qilishning turli usullarini tavsiflovchi.kitobning 1-jildining muqaddimasida R Bitishuvlya matematikaning barcha qiziqqan talabalariga shunday nasihat qiladi: "albatta, isbotlashni o'rganaylik, balki taxmin qilishni ham o'rganaylik."P. R. Halmos kitobni ko'rib chiqib, kitobning Markaziy tezisini sarhisob qildi: ". . . yaxshi taxmin yaxshi dalil kabi muhimdir."[7] Bu ko`nikmalar o`quvchining keying bilimlarni o`zlashtirishda muhim poydevor vazifasini o`taydi. Hozirgi kunda bolalarga faqatgina formula va amallarningina o`rgatish emas, balki, masala va misollarni tahlil qilib bera olish, dalillar keltira bilish va o`z xulosalarini boshalarga yetkazib berish ko`nikmalarini shakllantirish talab etilmoqda. Og`zaki hisoblash ko`nikmalarini shakllantirishni mantiqiy fikrlash bilan uyg`unlikda o`rgatish bolada fikrlash doirasining kengayishiga, hisoblash tezligining oshishiga, mustaqil fikrlash va olgan bilimlarini notanish vaziyatlarda qo`llay olish ko`nikmalarining shakllanishiga zamin bo`ladi. Hisoblash jarayoni esa faqat mexanik amal bajarish jarayoni emas. Hisoblash bolani mantiqan izchil va tahliliy fikrlashga, umumlashtirish va xulosa chiqarishga majbur etadi. Bu jarayonni bolada avtomatlashtirish pedagogdan kata nahorat talab etadi. Albatta o`quvchilarda og`zaki hisoblash ko`nikmalarini rivojlantirishda samarali metodlarni tanlash va darslarda qo`llash orqaligina darslardan ko`zlangan maqsadga erishish mumkin. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar va media olamida ulg`aygan bolani darsga jalb qilish, samarali metodlarni tanlab, darslarga tadbiq etish ta`limdagi eng dolzarb mavzu bo`lib qolmoqda. Mazkur mavzuning asosiy maqsadi mantiq aasosida tashkil etilgan topshiriq va muammoli vaziyatlar yordamida o`quvchilarni darslarda faol ishtirok ettirish va matematik jarayonlarni ongli ravishda tushuntirishga qaratilgan.

Asosiy qism

Dars jarayonida o`quvchilarda matematik tafakkurni to`g`ri shakllantirish , interaktiv tarzda darslarni tashkil etish, muammoli masalalar, qiziqarli va samarali metodlar orqali og`zaki hisoblash malakalarini shakllantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Yuqorida ta`kidlanganidek, dars jarayoniga mos keluvchi metodlarni tanlay bilish ta`lim sifatiga katta ta`sir o`tkazadi.

Quyida matematika darslarida qo`llash mumki bo`lgan o`quvchilarda mantiqiy fikrlash oqrali hisoblash ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metod va qo`llanmalar va ularning tahlili bilan tanishamiz.

[7] https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-uz.ru.a3de9e61-69109d7a-44076d5e-74722d776562/https/en.wikipedia.org/wiki/Mathematics_and_Plausible_Reasoning#:~:text=Matematika%20va%20ishonchli%20fikrlash%20matematikning,yaxshi%20dalil%20kabi%20muhimdir.%22%5B

1. Muammoli vaziyat yaratish metodi. Mantiqiy fikrlashni oshirishda ushbu metoda juda samarali va o`quvchini tafakkur qilishga o`rgatadi. O`qituvchi muammoli bir vaziyat ya`ni masala aytadi va o`quvchi uning yechimini topishda mulohaza yuritish orqali taxminlar qiladi. Fikrlar orasidan eng muvofig`ini tanlaydi va fikrning to`griligini dalillaydi. Shu tariqa javobga yaqinlashib boradi. Bu jarayonlarda bola vaziyatlarga tanqidiy nigoh bilan qarashni ham o`rganadi. Har bir qarorni ongli ravishda qabul qiladi va matematik amallarni “ nega bunday bajarilyapti” degan savolni o`ziga beradi.

Misol uchun, bir odamning yoshi farzandining yoshidan 4 barobar katta. Ikki yildan keyin ularning yoshi yig`indisi 54 bo`ladi. Hozir ularning yoshi qancha?

Bu masalani mantiqan tahlil qilib yechish kerak. Birinchi navbatda ikki yilda har ikkalasi ham ikki yilda 2 yoshdan ulg`ayadi. Ikkalasini barobar hisoblaganda hozirgi hisobdan 2+2=4 ga ortadi ( Ularning yoshlarining yig`indisi). Ikki yildan yoshlar yig`indisi 54 ga teng bo`lsa, hozir 54-4=50 ga teng. Bolaning yoshi otanikidan 4 marta kichik bo`lgani uchun bolani x, otani 4x deb belgilaymiz va x+4x=50 ifodani hosil qilamiz. Shu tariqa bolaning yoshi 10 da, otaniki esa 40 da ekani ma`lum bo`ladi.

2. Izlanish metodi. Bu metod o`quvchini masala ustida mustaqil, ishlashga javoblarning eng optimalini tanlashga va natijaga mustaqil erishishga o`rgatadi.

Misol uchun, bo`linish alomatlari haqidagi mavzularni mustahkamlash uchun quyida gi misollarni qo`llash mumkin: 15_93 soni 3 ga bo`linishi uchun bo`sh o`ringa kerakli raqamni qo`ying (5<x< 9). O`quvchi avvalgi bilimlaridan foydalanadi va bu yerga kerakli raqam – 0, 3, 6 yoki 9 bo`lishi mumkin. Kyingi navbatda x ning 5 dan katta va 9 dan kichik variantini ko`rib chiqadi. Shu tariqa o`quvchi analiz, sintez jarayonlaridan so`ng natijaga yetadi.

3. Idrok xaritasi. Bu metodni qo`llash o`quvchini izchil va aniq tahlil qilishga o`rgatadi. Idrok xaritasi shundayki, bir tushunchani markazga qoyib, uning mazmunini to`ldiruvchi qismlar(turlari, xususiyati, vazifalari, tasnif va b.) orqali tarmoqlab tasvirlanadi. O`quvchilarda vaziyatlarni turli tomondan tahlil qilish ko`nikmasini shakllantiradi va ma`lumotlarni tartib bilan tushungan o`quvchi uni ongli va uzoq vaqt eslab qoladi.

Misol uchun, “Ko`paytirish amali” tushunchasi markazga olinadi va uning tarmoqlariga “ takroriy qo`shish”, “ ko`paytuvchilar”, “ ko`paytma” ,….. kabi tshunchalar yoziladi. Bu metod mustahkamlash darslari uchun ham samaralidir.

4. Zinama-zina metodi. Bu metod o`quvchilarga murakkab topshiriq, misol yoki masalalarni tushunib ishlashi va soddalashtira olishiga yordam beradi. Ularni har bir topshiriqni ongli ravishda bajarishga o`rgatadi. Mulohaza yuritgan o`quvchida nafaqat mexanik misol ishlash, balki , analiz, sintez jarayonlari ham yuzaga keladi.

Amaliy misol, 216 sonining uchinchi darajali ildizini toping. O`quvchi, avvalo, variantlarni o`ylaydi va 6*6*6=216 ekanini darrov faxmlaydi. O`quvchida algoritmik shaklda ishlash malakasi shakllanadi.

5. Mantiqiy model tuzish metodi. O‘quvchi murakkab masalalarni sxema, model yoki diagramma ko‘rinishida tasvirlashi orqali ularni chuqurroq tushunadi. Bu metod ayniqsa kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun samarali, chunki ular tasvirlar orqali mantiqni tezroq o‘zlashtiradilar.

Misol: “Bir bog‘bonning 36 tup gullari bor. U ularni 3 qatorga teng joylashtirmoqchi. Har bir qatorga nechta gul qo‘yishi kerak?”

O‘quvchi 36 sonini 3 ga teng bo‘lib, javob 12 ekanini topadi.

Ammo bu metodda u avvalo 3 qatorli sxemani chizadi, so‘ngra 36 gulni teng bo‘lib joylashtirishni ko‘z oldida tasavvur qiladi. Bu tasavvur mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi.

Xulosa

“Yuksak bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik savodxon yoshlari ko‘p bo‘lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot, o‘zaro jipslik hamisha barqaror bo‘ladi. Yoshlarimizga sifatli ta’lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o‘rgatish, hayotda munosib o‘rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish eng asosiy vazifamiz va burchimizga aylangan” [8]- deydi davlatimiz rahbari yoshlar bilan bo`lgan uchrashuvda. Zamonaviy hozirgi kun bolalarini vatanparvarlik ruhida dunyoga mantiqiy va tanqidiy nigoh bilan qaray oladigan, muammoga eng yaxshi yechimlarni topa oladigan dunyoqarashi keng yoshlar sifatida tarbiyalash oldimizda turgan eng ustuvor maqsaddir. Albatta jamiyatning quruvchilari pedagoglardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev, J., & Jo‘rayev, A. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

2. G‘ulomov, R. Boshlang‘ich sinflarda matematik ta’lim nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. Karimova, N. Maktab matematika kursida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

4. Mavlonova, R., & To‘xtasinova, S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2018.

5. Polat, E.S. Razvitiye logicheskogo myshleniya v protsesse obucheniya matematike. – Moskva: Prosveshchenie, 2017.

6. Krutetskiy, V.A. Psixologiya matematicheskikh sposobnostey shkolnikov. – Moskva: Pedagogika, 2018.

7. Bruner, J. The Process of Education. – Harvard University Press, 2019 (reprint).

8. www.gazeta.uz sayti

9. OECD. PISA Mathematics Framework. – Paris: OECD Publishing, 2022.

[8] https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/30/youth/#:~:text=%E2%80%9CYuksak%20bilimli%2C%20dunyoqarashi,%E2%80%94%C2%A0dedi%20u.

10. Kazakov, A.M. Ustnyy schet i priemy yego razvitiya v nachalnoy shkole. – Moskva: Vlados, 2016.
11. Xolmatova, M. “Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning roli.” Ta’lim va innovatsiya, №3, 2021.
12. Jo‘raboyeva, S. “Og‘zaki hisoblash malakalarini shakllantirishning samarali usullari.” Boshlang‘ich ta’lim, №4, 2022.
13. National Council of Teachers of Mathematics (NCTM). Principles and Standards for School Mathematics. – Reston, VA: NCTM, 2020.
14. Vygotsky, L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 2017 (reprint).
15. Maxkamova D.A., Muxammadaliyeva Muborakxon Asqarali qizi “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini integratsion ta’limga jalb qilishning ahamiyati.” - Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – 2024 yil 20-noyabr

OLIY TA’LIMDA KASBIY IJTIMOIYLASHUV: KORPORATIV MADANIYATNING AHAMIYATI

Maxkamova Dilafruz Aliyevna
Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi v.v.b dotsenti (PhD)

Annotatsiya
Ushbu makola oliy ta’limda kasbiy ijtimoiylashuvning korporativ madaniyatga ta’siri haqida bo‘lib, talabalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda korporativ madaniyatning ahamiyatini tadqiq etadi. Korporativ madaniyat oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy aloqalarini yaratish, faol ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish va kasbiy moslashuvni ta’minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. Talabalarga ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etish, ishonch, o‘zaro hamkorlik va innovatsiyalarni joriy etish orqali ijtimoiy moslashuvini rag‘batlantirish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot oliy ta’limda samarali korporativ madaniyat tashkil etish va talabalarning professional olamga moslashishini yaxshilash uchun muhit yaratishning zarur ekanligini ta’kidlaydi.
Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, kasbiy ijtimoiylashuv, korporativ madaniyat, ijtimoiy moslashuv, talabalar, ijtimoiy aloqalar, moslashuv, faoliyat, innovatsiyalar, treninglar, samaradorlik, ko‘nikmalar, jamiyat

Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ijtimoiylashuv talabalar uchun murakkab va ehtiyojli jarayotdir. Bugungi kunda dunyo o‘zgarishing rivojlanishida, yoshlarning yoshini biznes muhiti va professional munosabatlarga moslashtirishning ahamiyati hammamizga ayon. Talabalar oliy ta’limda faol ishtirok etishlari, ijtimoiy

munosabatlarini rivojlantirishlari kerak bo‘ladi. Bunda korporativ madaniyat ulkan rol o‘ynaydi.

Korporativ madaniyat, oliy ta’lim muassasalaridagi virtual muhitda, talabalarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu korporativ madaniyat, birinchidan, tashkilotning samaradorligi va muvaffaqiyati uchun shart-sharoit yaratishga yordam beradi. Ikkinchidan, talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi uchun mos muhitni ta’minlaydi. Ular partiya, jamoa yoki tashkilot faoliyatida faol qatnashish orqali ijtimoiy aloqalarni o‘rganadilar.

Korporativ madaniyatning asosiy elementlari ijtimoiy investitsiya, ishonch, muvaffaqiyat va muhabbat hisoblanadi. Oliy ta’limda talabalar, bunday muhitda o‘rganish va ijtimoiylashish orqali o‘zaro ishlashni, biznes munosabatlarni rivojlantirishni va individual o‘zini namoyon qilishni o‘zlashtiralar.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida korporativ madaniyat, ularni turli tashabbuslarda ishtirok etishga, ijtimoiy moslashuvni rag‘batlantirishga hamda ijtimoiy faoliyatlar olib borishga dovum beruvchi mexanizm hisoblanadi. Bular qatorida guruhlab ishlash, muammolarni hal qilish, ijobiy mustaqillik va mas’uliyat, va yangiliklar kiritish kabi qiziqarli ko‘nikmalar rivojlanadi.

Bundan tashqari, korporativ madaniyat talabalarga kasbiy moslashuvni samarali ta’minlash imkonini beradi. Bunday muhitda, talabalar rag‘batlantiriladi, e’tirof etilgan faoliyatlar ustida ishlashlari, yangi fikrlarni inkor qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari korporativ madaniyatni yanada rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirishlari kerak. Ularda maxsus treninglar, seminarlar, onlayn kurslar va ijtimoiy faoliyatlar tashkil etilishi kerak, bu esa talabalarda ijtimoiy aloqalar imkoniyatlarini oshiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish uchun kiritilgan yangiliklar talabalarning ijtimoiylashuvini samarali ta’minlashga qaratilgan.

1. **Yangi Trening Dasturlari**: Oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun innovatsion trening dasturlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturlar doirasida jamoada ishlash, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, va liderlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaytadan e’tibor qaratiladi.

2. **Ijtimoiy Faoliyatlarni Kengaytirish**: Talabalarning jamiyatda faol ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida o‘zgartirgan ijtimoiy faoliyatlar tashkil qilinmoqda. Jamoatchilik loyihalari, volontyorlik dasturlari va ijtimoiy tadbirlar orqali talabalarning ijtimoiy ahamiyati oshiriladi.

3. **Korporativ Madaniyat Platformalari**: Oliy ta’lim muassasalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish uchun onlayn platformalar yaratilmoqda. Ushbu platformalar talabalarga o‘z aloqalarini samarali o‘rganish, fikrlashish, va ideya almashish imkoniyatini beradi.

4. **Tadqiqotlar va Ijtimoiy Allozorlar**: Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy aloqalar va korporativ madaniyatning muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib

borilmoqda. Bu tadqiqotlar talabalarning ijtimoiylashuvi va moslashuvi bo‘yicha muhim strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

5. **Maslahatlar va Kengashlar**: Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini yaxshilash uchun shtatdagi administratorlar va pedagoglar orasida maslahatlashuvlar o‘tkazilib, korporativ madaniyatning talabalarga ta’siri bo‘yicha fikrlar almashinmoqda.

Ushbu yangiliklar oliy ta’limda talabalarning ijtimoiylashuvini yanada samarali qarorga keltirish, korporativ madaniyatni rivojlantirish va real dunyoda kəsbi faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda kasbiy ijtimoiylashuv korporativ madaniyat bilan birgalikda rivojlanishi zarur. Bu jarayon talabalarning professional olamga moslashuvini, ijtimoiy faoliyatlarda qatnashishini, va jamiyatda yetuk mutaxassis bo‘lishlarini ta’minlaydi. Korporativ madaniyat, bir tomondan, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda, ikkinchi tomondan, talabalarning kasbiy rivojlanishida samarali instrument hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

10. Махкамова Д.А. Ўқувчиларни касбга йўналтиришнинг мақсади, вазифалари ва амалий механизмлари // Касб-ҳунар таълими., 2023. - №8. - Б.37-42. (SJIF) 0109

11.Махкамова Д.А. Individual maslahat” didaktik resurslarining o’quvchilarni kasbga yo’naltirish tizimiga tadbiq etish // Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio’., 2023. - №4. - Б.76-81. (SJIF) 01-044

12.Махкамова Д.А. Methodical provision of vocational guidance of students in secondary schools // Galaxy . №8. 2022. 434-440 b. (13.00.00. № 30) Impact Factor (SJIF 2022:7.718)

13.Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age
NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

14.Махкамова Д.А. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning metodik ta’minoti // Maktab ta’limi muammolar, izlanishlar, yechimlar №1. 2024.,- Б.146-153. (ISSN) 3060-4788

15. Maxkamova D.A., Muxammadaliyeva Muborakxon Asqarali qizi “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini integratsion ta’limga jalb qilishning ahamiyati.” - Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo va tadqiqot Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – 2024 yil 20-noyabr

16.D.Maxkamova., Pedagogik oliy ta’limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi. Maktabgacha va maktab ta’limi. 2025. 267-271

17.D.Maxkamova., Pedagogik oliy ta’limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish. Kasb-hunar ta’limi. 2025. 138-143

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISHDA BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH — MUHIM MANBA

D.A.Maxmudova QDU BT kafedrasi o‘qituvchisi,
O.Rahmatjonova, A.Qambarova QDU BT yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida badiiy adabiyotlardan foydalanishning o‘quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, badiiy matnlar orqali ijodkorlikni rivojlantirishning samarali usullari hamda o‘qituvchilarga tavsiyalar beriladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri — bola tasavvuri eng faol, qiziqishi yuqori va ijodkorlik salohiyati tez rivojlanadigan davr sanaladi. Bu jarayonda badiiy adabiyotlar muhim manba bo‘lib, ular o‘quvchilarning dunyoqarashi, tasavvuri, tafakkuri va nutqini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Badiiy adabiyotning kreativ fikrlashga ta’siri

1. Tasavvurni rivojlantiradi. Badiiy matnlar obrazlar, voqealar, fantastik holatlar orqali o‘quvchilarning tasavvur dunyosini kengaytiradi. Kichik yoshdagi bolalar qahramonlar xatti-harakatlari va syujetni o‘z tasavvurlariga moslab qayta tiklay oladilar. Bu jarayon kreativ tafakkur uchun asos bo‘ladi.
2. Mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Asarlarni o‘qish, tushunish va tahlil qilish jarayonida bola o‘z fikrini shakllantiradi. Qahramonlar xatti-harakati, muammolar va ularning yechimi haqida mulohaza yuritish mustaqil va kreativ yondashuvni rivojlantiradi.
3. Emotsional-intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Badiiy adabiyot o‘quvchilarni turli hissiyotlarni boshdan kechirishga, empatiya qilishga o‘rgatadi. Emotsional tafakkur esa kreativ fikrlashning ajralmas qismidir.
4. Til va nutq boyligini oshiradi. Yaxshi adabiy asarlar orqali bola yangi so‘zlar, iboralar, tasviriy vositalarni o‘zlashtiradi. Bu esa o‘z g‘oyalarini ifodalash jarayonida ijodiy yondashuvni mustahkamlaydi.

Agar ta’lim jarayonida badiiy adabiyotlar yetarli darajada qo‘llanilmasa, bolalar abstrakt fikrlash, voqealarni tahlil qilish va fantaziya qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ular ko‘proq tayyor bilimlarni qabul qiluvchi bo‘lib qoladi, bu esa kreativlikni cheklaydi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish metodlari

1. Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish. Asardagi voqealar asosida kichik sahnalarni ijro ettirish bolalarning ijodkorlik, muloqot ko‘nikmalari va emotsional ifodalanishini rivojlantiradi.
2. Qayta tugatish (alternativ yakun yaratish) O‘quvchilarga hikoya yakunini o‘zgacha tarzda davom ettirish topshirig‘i berilsa, ular mustaqil fikrlashga va noodatiy yechimlar topishga o‘rganadilar.

3. Qahramon yaratish yoki syujetni o‘zgartirish. Bolaga yangi qahramon o‘ylab topish, mavjud qahramonning xarakterini o‘zgartirish yoki syujetga yangi voqea qo‘shish topshirig‘i berilsa, kreativ tafakkur sezilarli faollashadi.
4. Tasviriy san’at bilan integratsiya. O‘qilgan asar qahramonlarini chizish, voqealarni tasvirlash — multimodal kreativlikni rivojlantiradi.
5. Muammoli savollar va bahs-munozaralar. “Asar qahramoni boshqacha yo‘l tuta olarmidi?”, “Siz uning o‘rnida bo‘lsangiz nima qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollar kreativ mulohazaga undaydi.

O‘qituvchilar uchun tavsiyalar

- Yoshga mos, qiziqarli, ma’naviy boy badiiy asarlarni tanlash.
- Dars jarayonida faqat matnni o‘qitish emas, balki interaktiv usullarni qo‘llash.
- Har bir o‘quvchiga fikr bildirish imkonini yaratish.
- Kreativ yondashuvni rag‘batlantirish: “to‘g‘ri” javobni emas, “qiziqarli”, “o‘ziga xos” javoblarni qadrlash.
- O‘quvchilarning tasavvur va fantaziya bilan bog‘liq ijodiy ishlari uchun sharoit yaratish (badiiy burchak, kichik kutubxona, ijod daftari va boshqalar).
- Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda abstrakt fikrlash endi shakllanib boradi, ular ko‘proq obrazli, yorqin, syujetli axborotlarni tez qabul qiladi. Shu sababli badiiy adabiyot mazmuni ularning idroki, tasavvur mexanizmlariga mos keladi. Obrazlar orqali berilgan ma’lumot bolada hayotiy tajriba rolini o‘ynab, kreativ fikrlashning tabiiy ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi.
- Ushbu yoshdagi bolalar o‘ziga xos ijodiy faollikka ega bo‘lib, ularga kichik hikoya tuzish, syujetni davom ettirish, ertaklarni qayta aytib berish kabi mashg‘ulotlar katta qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun o‘qituvchining badiiy matndan to‘g‘ri foydalanishi ularning tafakkur rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir. Badiiy adabiyotlardan foydalanish esa bu jarayonning samaradorligini oshiruvchi eng qulay va tabiiy vosita sanaladi. Adabiy matnlar bolalarning tasavvuri, tafakkuri, nutqi va emotsional dunyosini boyitib, ularda ijodkorlikka asoslangan mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Demak, kreativ fikrlovchi avlodni tarbiyalashda badiiy adabiyotlar bilan ishlash alohida e’tibor va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldosheva, U. “Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar kreativ fikrlashini rivojlantirish”. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Hasanboeva, O. “Pedagogika”. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. Ochilov, A. “Badiiy adabiyot va uning ta'limdagi o‘rni”. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Karimov, M. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkil etish metodikasi”. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim standartlari (BYUST). “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi”, 2023.

MOZAIKA USULIDA BUYUMLAR YASASH: RANGLAR, BO‘LAKLAR VA IJOD MO‘JIZASI

Maxmudova Dilafruz Alijonovna Qo‘qon DU o‘qituvchisi,
Muhammedova Bibimaryam, Bahromova Yulduz, Hamidova Mohinabonu
BT yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mozaika usulida buyumlar yasashning san’atdagi o‘rni, uning tarixiy va amaliy ahamiyati, materiallar tanlovi, ijodiy jarayon bosqichlari hamda zamonaviy hayotdagi qo‘llanilish sohalari yoritilgan.

Mozaika texnikasi dekorativ san’atning qadimiy yo‘nalishi sifatida nafaqat estetik kompozitsiya yaratishda, balki ijodiy fikrlash, mayda motorikani rivojlantirish, ekologik madaniyatni shakllantirish kabi jarayonlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mozaika usulida buyumlar yasash qadimdan rivojlanib kelayotgan dekorativ san’at yo‘nalishidir. Ushbu usulning asosiy mohiyati mayda bo‘laklardan yirik va yaxlit tasvir hosil qilishdan iborat bo‘lib, unda shisha, keramika, rangli toshlar, yog‘och bo‘laklari yoki kundalik chiqindilar ham ijod jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Mozaika san’ati o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki har bir bo‘lakning o‘z shakli, rangi va tuzilishi mavjud bo‘lib, ular birlashganda butun kompozitsiya tugallangan estetik ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Mozaika yasalishidan avval ijodkor o‘z g‘oyasini aniqlaydi, tasavvurida paydo bo‘lgan shakl yoki naqshni tasvirlab oladi. Tanlanadigan materiallar Mozaikaning qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab belgilanadi. Yuzalar bezatilsa, mustahkam va yuviladigan materiallar tanlanadi, dekorativ buyumlar uchun esa yengil va rang-barang bo‘laklar qo‘llaniladi. Asos sifatida yog‘och, karton yoki maxsus panel ishlatiladi. Mozaikaning eng muhim jarayoni bo‘laklarni joylashtirish bo‘lib, bunda har bir elementning qanday turishi, qanday ohang yaratishi va kompozitsiyaga qanday ta’sir qilishi muhim hisoblanadi. Bo‘laklar ehtiyotkorlik bilan kesilib, bir-biriga yaqin qilib joylashtiriladi va yakunda maxsus yelim yoki mustahkamlovchi vosita yordamida mahkamlanadi.

Mozaika usuli zamonaviy hayotda keng qo‘llanadi. Interyer bezaklarida devor, pol, oshxona yoki vannaxona panellarida mozaika keng ishlatiladi. San’at asarlari yaratishda esa u turli rang va shakllar orqali betakror tasvirlar hosil qiladi. Uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda ko‘zgular, ramkalar, stol tagliklari, dekorativ

qutilar Mozaika yordamida yanada chiroyli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shuningdek, mozaika texnikasi bolalarning tasavvuri va mayda motorikasini rivojlantiruvchi samarali mashg‘ulot hisoblanadi. Keraksiz buyumlarni qayta ishlashda ham mozaika katta ahamiyat kasb etadi, chunki turli parchalar va bo‘laklar san’at asariga aylanadi. Mozaika usulining ahamiyati estetik ko‘rinish yaratishdan tashqari, insonning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, sabr-toqatini oshirish, mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirish va ekologik madaniyatni yuksaltirishda namoyon bo‘ladi. Bu san’at turi orqali inson o‘z tasavvurini erkin ifodalaydi, mavjud materiallardan yangilik yaratadi va har bir mayda bo‘lak orqali o‘z dunyoqarashini aks ettiradi.

Mozaika buyumlari yasash jarayoni nafaqat ijodiy zavq bag‘ishlaydi, balki atrof-muhitni anglash, eski buyumlarga yangi hayot baxsh etish va san’atning amaliy qiymatini chuqurroq his qilish imkonini beradi. Mozaika san’ati qadimiy an’analarga tayangan holda zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashib, estetik go‘zallik va ijodiy erkinlikni taqdim etuvchi betakror yo‘nalish sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Mozaika — mayda bo‘laklar (tesera), rangli shisha, tosh, keramika yoki boshqa materiallarni kompozitsion tarzda joylashtirish orqali tasvir hamda buyum yaratish san’atidir. Bu usul qadimgi Rim, Vizantiya, Yunoniston va Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, hozirgi kunda ham dekorativ-amaliy san’atning eng rivojlangan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy dizayn, arxitektura, pedagogika va madaniy merosni asrash jarayonida mozaika usuli keng qo‘llanmoqda.

Mozaika san’atining tarixiy rivoji

Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo tajribasi: Sharq mamlakatlarida rangli sopol bo‘laklari va koshinlardan mozaikalar yasash an’anasi miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi. O‘rta Osiyoda ayniqsa Temuriylar davrida binolar ichki va tashqi bezaklarida murakkab mozaika naqshlari keng qo‘llangan.

Yevropa va Vizantiya mozaikasi: Vizantiya davrida oltin fonli shisha tesseralardan yaratilgan monumental mozaikalar diniy va madaniy binolarning asosiy bezagi bo‘lgan. Yevropada esa XVIII–XIX asrlarda mozaika interyer dizayni, me’moriy bezak va dekorativ san’atda keng tarqaldi.

3.2. Ish jarayoni bosqichlari

1. Buyum shakli va eskizini tayyorlash.
2. Materiallarni tanlash va bo‘laklash.
3. Kompozitsiyani asosga joylashtirish.
4. Mozaika qismlarini biriktirish.
5. Qoplama yoki lak bilan mustahkamlash.

Xalqaro tajribalar: *Italiyada:*Ravennada joylashgan mozaika maktablari butun dunyoga mashhur bo‘lib, u yerda klassik va zamonaviy ko‘rinishdagi mozaika texnologiyalari o‘rgatiladi. *Turkiyada:*Istanbul mozaika markazlarida an’anaviy sharqona naqshlar va modern dizayn uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, ularning

ko‘pi xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etiladi. *Yaponiyada:*Minimalizm va zamonaviy texnologiyalar asosida shisha mozaika buyumlari keng ishlab chiqariladi.

Shu o‘rinda ba’zi muammo va yechimlarni ham aytib o‘tish o‘rinli. Bunda:Materiallar narxining yuqoriligi; o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun yetarli metodik qo‘llanmalar mavjud emasligi; ishlab chiqarishda xavfsizlik texnikasiga rioya etishni kuchaytirish zarurati.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mozaika san’ati — ijodkorlik, dizayn, pedagogika va ekologik madaniyatni birlashtiruvchi noyob yo‘nalish bo‘lib, uning xalqaro tajribasini o‘rganish ta’limda yangi metodik yondashuvlarni yaratishga yordam beradi. Buyumlar yasash jarayonida mozaika nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Lokal materiallardan foydalanish, onlayn treninglar, xalqaro tajribalarni integratsiya qilish va STEAM yo‘nalishida mozaika loyihalarini joriy etish bu san’at turini yanada yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.A. Pugachenkova. "O‘rta Osiyo san’ati tarixi".
2. UNESCO. Traditional Mosaic Art Reports.
3. Ravenna Mosaic School Publications.
4. Türkiye Mozaik San'atı Dergisi.
5. Modern Craft & Design Journal, 2022.

STEAM YONDASHUVI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Maxmudova Dilafruz Alijonovna
Qo’qon DU o’qituvchisi dilafruzmaxmudova@137gmail.com,
Muhammadjonova Raxshonaxon Vaxobjon qizi
raxshonamuhammadjonova@gmail.com, Jahongirova Shohizar Jahongir qizi,
Sobirova Zohida Lutfulla qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM(Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi doirasida matematika fanining tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Matematikaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’limda loyihalash faoliyati, muammo yechish va real hayotiy vazifalarni bajarishda matematik bilim va ko‘nikmalar asosiy vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so’zlar:STEAM, matematika, kreativ fikrash, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, amaliy masalalar, modellashtirish, tahlil qilish ko’nikmalari, texnologiyalar, ta’lim dasturi

Bugungi kunda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarni faqat bilim egasiga emas, balki mustaqil tahlil qiluvchi, mantiqiy fikr yurituvchi, yangilik yaratuvchi shaxs sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy yondashuvlar ichida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) konsepsiyasi boshlang‘ich sinf matematika darslarida katta o‘rin egallab bormoqda. Mazkur yondashuv orqali matematika darslari nafaqat arifmetik hisoblash, balki real hayotdagi muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va kreativ fikrlash jarayoniga aylanadi.

STEAMning mazmuni va boshlang‘ich sinfdagi afzalliklari:
STEAM yondashuvi o‘quvchi matematik bilimlarini ilmiy tajribaga, texnik loyihaga, muhandislik izlanishiga yoki ijodiy dizaynga bog‘lashga imkon beradi. Bu jarayon mantiqiy fikrlashning shakllanishi uchun juda qulay muhit yaratadi. Masalan, oddiy uzunlik o‘lchovi bo‘yicha o‘tilgan mavzudan so‘ng o‘quvchilar sodda “ko‘prik loyihasi” modeli yasashlari mumkin. Bu jarayonda ular o‘lchash, taqqoslash, qo‘shish-ayirish operatsiyalarini real obyekt bilan bog‘laydi. Bunday topshiriqlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi.

STEAM yondashuvi orqali boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun:STEAM ta’limi tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika va san’atni integratsiyalab, o‘quvchilarni real hayotiy muammolarni tahlil qilish va ularga amaliy yechim topishga o‘rgatadi. Bu jarayonda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, modellashtirish va aniq hisoblash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Matematika darslarida STEAM yondashuvi o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, savol berish va turli yechimlarni taqqoslashga o‘rgatadi, bu esa mantiqiy fikrlashni mustahkamlaydi.

O‘quvchilarga matematik tushunchalarni faqat nazariy emas, balki amaliy masalalar, loyihalar va real hayotiy vaziyatlar orqali o‘rgatiladi. Masalan, elektr energiyasini tejovchi "aqlli uy" loyihasi kabi topshiriqlar beriladi. STEAM dasturi asosida matematika darslarini tashkil etish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni kreativ, tanqidiy fikrlashga, muammolarni hal qilishga rag‘batlantiradi.O‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, qo‘shimcha mantiqiy fikrlash mashqlarini kiritishi muhimdir. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida STEAM yondashuvi orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchilarga real hayotdan olingan amaliy masalalar, tanqidiy va kreativ fikrlashni rag‘batlantiruvchi vazifalar, modellashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalari kerak bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini mustahkamlash va ilmiy asosda muammolarga yondashishni o‘rgatishga yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari:

- Matematik masalalarni hayotga tatbiq etish va amaliy loyihalar qilish.
- Tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish.

- O‘yinlar, jumboqlar va interaktiv metodikalar orqali fikrlash qobiliyatlarini oshirish.
- Geometrik shakllar va matematik tushunchalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash.

STEAM metodlari asosida matematika darslarida mantiqiy tafakkurni faollashtirish quyidagicha tartibda amalga oshirilib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda boshlang‘ich sinf matematika darslarida STEAM asosidagi metodlardan foydalanish orqali o‘quvchi: sabab–oqibat bog‘lanishini tushunadi; matematik tushunchalarni amaliyotga tatbiq etadi; masalalarga bir nechta yechim variantlarini taklif qilishi mumkin; tajriba asosida xulosa chiqarishni o‘rganadi.
Masalan, “Geometrik shakllar” mavzusida o‘quvchilar shakllardan miniatyura arxitektura maketini yasashlari mumkin. Bu loyihada ularning tahliliy fikrlari (qaysi shakl qayerda turganda barqaror bo‘ladi) rivojlanadi. Bu esa mantiqiy xulosa chiqarishning amaliy ko‘rinishidir.

Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitishda STEAM yondashuvi doirasida qo‘llaniladigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:
Fanlar integratsiyasi: Matematika darslarida fanlararo bog‘lanish orqali o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni yechish uchun fanlar (ilm, texnologiya, muhandislik, san’at) bilimlari birlashtiriladi. Bu o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi.
Amaliy loyihalar: O‘quvchilar real hayotiy vaziyatlar va amaliy masalalar ustida loyiha ishlari bajaradi. Masalan, geometrik shakllardan foydalanib maketlar qurish yoki matematik hisob-kitoblarni kundalik hayotga tatbiq etish.
Interaktiv dars usullari: Darslarda interaktiv texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o‘yinlar qo‘llanilib, o‘quvchilarning diqqatini jamlash va o‘rganishni qiziqarli qilish ta’minlanadi.
Muammoli vaziyatlar yaratish: O‘quvchilarga mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi qiziqarli muammo va jumboqlar beriladi, o‘z fikrini yaratish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.
Jamoaviy ishlash: STEAM loyihalarida guruhda ishlash orqali hamkorlik va kommunikatsiya qobiliyatlari rivojlantiriladi, bu esa o‘z navbatida mantiqiy fikrlash jarayonini yaxshilaydi.
Kreativ yondoshuv: Matematikani o‘rgatishda ijodiy vazifalar, san’at elementlari va texnologiyalar aralashib, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlari va yechim topish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, STEAM yondashuvi boshlang‘ich sinf matematika darslarini faqat nazariy emas, balki real hayot bilan bog‘liq ko‘rinishga keltiradi. O‘quvchi o‘zi yaratgan model orqali matematik bilimning qiymatini ko‘radi va bu jarayon uning mantiqiy fikrlash salohiyatini yuqori darajada mustahkamlaydi. Shu bois STEAM yondashuvini boshlang‘ich sinf

matematika darslarida qo‘llash zamonaviy ta’limning dolzarb, amaliy hamda istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

Rafiyeva, F.Mantiqiy fikrlash.(2020)
Mirzayeva, A.N.Boshlang’ich ta’limda STEAM. Darslik.(2024)
Ergashova, X. X. Ta’limda STEAM yondashuvining qo‘llanilishi (matematika fani misolida). Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi.(2025)
STEAM education approach. (International Journal of Education Research, 2023)
Project-based learning in primary math (European Education Review, 2024)

BOSHLANG’ICH TALIM TIZIMIDA TENDENSIYALAR VA XALQARO BAHOLASH TAJRIBASIDAN MUAMMO YECHIM VA ISTIQBOLLAR

Soliyeva Anora
Qo’qon davlat unversiteti Boshlangich ta’lim yo’nalishi
Telefon nomer: 88 205 96 04

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimining zamonaviy tendensiyalari va uning xalqaro baholash dasturlari (masalan, PIRLS, TIMSS, PISA kabi) tajribasi bilan o'zaro aloqasini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich ta'limga bo'lgan talablar keskin o'zgarib bormoqda, bu esa o'quvchilarni nafaqat bilimlar, balki tanqidiy fikrlash, muammo yechish, kreativlik kabi XXI asr ko'nikmalari bilan qurollantirishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, xalqaro baholash, PIRLS, TIMSS, PISA, ta'lim tendensiyalari, tanqidiy fikrlash, o'quv savodxonligi, muammo yechim, ta'lim sifatini baholash.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена глубокому анализу современных тенденций в системе начального образования Узбекистана и её взаимодействию с опытом международных оценочных программ (таких как PIRLS, TIMSS, PISA). В условиях глобализации и цифровой трансформации требования к начальному образованию кардинально меняются, что требует оснащения учащихся не только знаниями, но и навыками XXI века, такими как критическое мышление, решение проблем и креативность. В статье комплексно рассматривается участие Узбекистана в международных оценочных исследованиях и полученные в них первые результаты, показана связь этих результатов с существующими проблемами в системе образования (учебная нагрузка, квалификация учителей, отсутствие практической направленности учебных материалов).

Ключевые слова: Начальное образование, международная оценка, PIRLS, TIMSS, PISA, образовательные тенденции, критическое мышление, академическая грамотность, решение проблем, оценка качества образования.

ABSTRACT

This article is devoted to an in-depth analysis of modern trends in the primary education system in Uzbekistan and its interaction with the experience of international assessment programs (such as PIRLS, TIMSS, PISA). In the context of globalization and digital transformation, the requirements for primary education are changing dramatically, which requires equipping students not only with knowledge, but also with 21st century skills such as critical thinking, problem solving, and creativity. The article comprehensively studies Uzbekistan's participation in international assessments and the initial results recorded in them, showing the connection of these results with existing problems in the education system (curricular load, teacher qualifications, lack of practical orientation of educational materials).

Keywords: Primary education, international assessment, PIRLS, TIMSS, PISA, educational trends, critical thinking, academic literacy, problem solving, educational quality assessment.

KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimlari, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi, doimiy islohotlar va transformatsiya jarayonida bo'lib, buning asosiy sababi global ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning, xususan, bilimga asoslangan iqtisodiyot talablarining o'zgarishi bilan bog'liq. Boshlang'ich ta'lim, inson shaxsiyatining poydevori shakllanadigan, o'qish, yozish, hisoblash kabi fundamental savodxonlik ko'nikmalari bilan bir qatorda, mustaqil o'rganish va ijodiy yondashuv asoslari singdiriladigan muhim bosqich hisoblanadi. O'zbekistonning ta'lim tizimida ham uzluksiz islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning asosiy maqsadi milliy ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, xususan, 2030-yilga kelib PISA reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish kabi strategik maqsadlar belgilangan. [9]

Bu vazifaning ijrosi O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi orqali erishilgan tajriba va natijalarni chuqur tahlil qilishni, shuningdek, dunyo ta'lim tendensiyalarini inobatga olgan holda muammo-yechim-istiqbol zanjirini tizimli ravishda qurishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar Tahlili

Boshlang'ich ta'lim sohasidagi tadqiqotlar xalqaro baholashlarning ta'lim siyosatiga ta'siriga qaratilgan bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro ta'limni baholash assotsiatsiyasi (IEA) va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot

[9] Mullis, Ina V. S. — Martin, Michael O. — Foy, Pierre — Hooper, Christian. — *PIRLS 2016 International Results in Reading.* — Boston, MA: Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2017. 180-210 bet.

Tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar (PIRLS, TIMSS, PISA) ta'lim natijalarini qiyosiy o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mullis, Martin, Foy, & Hooper (2017) tomonidan chop etilgan PIRLS bo'yicha hisobotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasini va unga ta'sir etuvchi omillarni atroflicha yoritib beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, o'qituvchining malakasi va maktab infratuzilmasi ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonlik olimlarning ishlari, xususan, Safarova U. B. (2024) va Saidova M. J. (2023) tomonidan yozilgan maqolalar xalqaro baholash dasturlarining O'zbekiston boshlang'ich ta'limiga tatbiq etilishi, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda PIRLS va TIMSS talablariga muvofiq savodxonlik darajasini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan[10]. Biroq, mavjud adabiyotlarda ko'pincha amaliy natijalarning chuqur tahlili va ulardan kelib chiqadigan kompleks yechimlarni tizimli asoslash bo'yicha yetarli darajada izlanishlar mavjud emas. Xalqaro baholashlarda O'zbekistonning ilk ishtiroki natijalari (masalan, PISA 2022) shuni ko'rsatdiki, ta'lim natijalari OECD davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan past ekan, bu esa o'quv materiallari mazmunini amaliyotga yo'naltirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ushbu maqolada xalqaro tajriba tahliliga asoslangan holda, o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilgan.

Metodologiya

Tadqiqot aralash metodologiyaga asoslangan bo'lib, u sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Sifatli tahlil xalqaro ta'lim siyosati hujjatlari (OECD, IEA hisobotlari) va O'zbekistonning ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarini, shuningdek, mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni (monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar) kontent-tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu tahlil boshlang'ich ta'limdagi asosiy tendensiyalar va muammolarni nazariy jihatdan aniqlash imkonini beradi. Miqdoriy tahlil esa PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarning O'zbekistonga oid dastlabki natijalari (ballar, savodxonlik darajalari bo'yicha ulushlar)ni qiyosiy-statistik usul yordamida qayta ishlashga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda kuzatilayotgan global tendensiyalar markazida o'qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonligini amaliy kontekstda qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish turadi. O'zbekistonning xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ta'lim tizimida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir qator fundamental muammolarni aniqlashga xizmat qildi. PISA 2022 natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonlik 15 yoshli o'quvchilarning aksariyati minimal savodxonlik darajasi (2-daraja) talabini qondira olmagan. Bu holat, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'qitish

[10] Safarova, Umida Botirovna. — *Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash tajribasi: Muammo, yechimlar va istiqbollar (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari).* — Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2022. 54-61 bet.

jarayonining bilimlarni yodlashga asoslangan an'anaviy yondashuv ustunligidan, tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaslikdan dalolat beradi.

Quyidagi jadval O'zbekiston ta'lim tizimining asosiy muammolarini, ya'ni o'quvchilarning amaliy savodxonlik darajasining pastligini ko'rsatadi, bu esa boshlang'ich ta'limdan boshlab o'qitish metodikasini o'zgartirish zarurligini taqozo etadi:

Jadval 1: O'zbekistonning PISA 2022 dastlabki natijalari (minimal darajadan past ko'rsatkichlar)

Savodxonlik Yo'nalishi	O'zbekistonning 2-darajadan Past Ko'rsatkichi (%)	OECD O'rtachasi 2-darajadan Past Ko'rsatkichi (%)	Eng Yuqori Natija Ko'rsatgan Mamlakat (%)
Matematika savodxonligi	81%	31%	Singapur (16%)
O'qish savodxonligi	86%	26%	Singapur (11%)
Tabiiy fanlar savodxonligi	84%	24%	Singapur (15%)
Manba: OECD PISA 2022 natijalari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan			

Muhokama: Jadval 1 dan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonlik o'quvchilarning 80% dan ortig'i matematika, o'qish va tabiiy fanlar bo'yicha minimal (2-daraja) savodxonlik darajasiga yetib bormagan. Bu esa boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilimni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha jiddiy kamchiliklar mavjudligini anglatadi. Muammo faqatgina yuqori sinflarda emas, balki boshlang'ich sinflarda (PIRLS va TIMSS doirasida 4-sinf) ham ushbu fundamental ko'nikmalarning puxta o'rgatilmaganligiga borib taqaladi.

Jadval 2: Xalqaro baholash talablariga muvozanlashgan o'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari

Muammo	Asosiy Kompetensiya	Rivojlantirish Yo'nalishi	Kutilayotgan Istiqbol (Natija)
An'anaviy yondashuv	Tanqidiy Fikrlashni O'rgatish	Interfaol (PBL, CBL) dars metodikasi	O'quvchining 2-daraja savodxonlikka erishish ulushini oshirish
Amaliyotsiz bilimlar	Funksional Savodxonlikni Shakllantirish	Hayotiy vaziyatlardan olingan masalalarni darslarga integratsiya qilish	PISA va TIMSS amaliy topshiriqlarini yechish ko'nikmasini rivojlantirish

Muammo	Asosiy Kompetensiya	Rivojlantirish Yo'nalishi	Kutilayotgan Istiqbol (Natija)
Pedagogik yuklama	Baholash Madaniyatini O'zgartirish	Formativ baholashni keng qo'llash, summatiiv baholashni kamaytirish	O'quvchining o'z-o'zini baholash va o'rganishga motivatsiyasini kuchaytirish

Natija: Ushbu tizimli yondashuvni amalga oshirish natijasida, boshlang'ich sinf o'quvchilari nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki ularni turli vaziyatlarda, shu jumladan, xalqaro baholash topshiriqlarida qo'llashga qodir bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida, 2030-yilgacha PISA reytingida belgilangan strategik maqsadga erishishning mustahkam poydevorini yaratadi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro baholash dasturlarida (PIRLS, TIMSS, PISA) ishtirok etish tajribasi O'zbekiston uchun ta'lim sifatini oshirish bo'yicha muhim xulosalar chiqarishga zamin yaratdi. Asosiy xulosa shundaki, milliy ta'lim tizimining zamonaviy global talablarga javob berish darajasi, birinchi navbatda, funktsional savodxonlik va kompetensiyaga asoslangan yondashuv qanchalik chuqur singdirilgani bilan o'lchanadi. Xalqaro baholash natijalari (xususan, PISA 2022) boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi jiddiy bo'shliqlarni aniq ko'rsatib berdi, bu esa ta'lim mazmunini bilimni yodlashdan muammoni yechishga o'tkazish zarurligini tasdiqladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimining keyingi taraqqiyoti uchun xalqaro baholash tajribasi strategik yo'l xaritasi vazifasini o'tashi lozim. Faqatgina aniqlangan muammolarga kompleks va tizimli yondashuv bilan yechim topish, o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalari bilan qurollanishini ta'minlash va ta'lim natijalarini doimiy ravishda xalqaro standartlar asosida monitoring qilib borish orqali ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish va O'zbekistonning PISA reytingidagi maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mullis, Ina V. S. — Martin, Michael O. — Foy, Pierre — Hooper, Christian. — *PIRLS 2016 International Results in Reading.* — Boston, MA: Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2017. 180-210 bet.
2. Safarova, Umida Botirovna. — *Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash tajribasi: Muammo, yechimlar va istiqbollar (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari).* — Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2022. 54-61 bet.
3. Saidova, Mohinur Jonpo'latovna. — *Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari.* — Toshkent: Zenodo nashriyoti (onlayn), 2023. 18-24 bet.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-5712).* — Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2019. 1-8 bet.
5. OECD. — *PISA 2022 Results (Volume I): The State of Global Learning and Implications for Policy.* — Parij: OECD Publishing, 2023. 150-175 bet.

ONA TILI DARSLARIDA KREATIV YONDASHUVNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Isaqova Shaxzoda Ulug`bek qizi
Qo‘qon davlat universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta’limida kreativ yondashuvning mazmuni, uni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning samarali usullari hamda mazkur yondashuvning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada kreativ pedagogikaning asosiy tamoyillari o‘rganilib, ularni ona tili darslari mazmuni bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini ko‘rsatilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, muloqot madaniyatini shakllantirish, nutq faolligini oshirishda kreativ metodlarning o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ona tili, kreativ yondashuv, ijodiy fikrlash, innovatsion ta’lim, interfaol metodlar, ijtimoiy-pedagogik ahamiyat, kommunikativ kompetensiya.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda ta‘lim tizimida tubdan o‘zgarishlar bo`lmoqda. Eski yondashuvlardan voz kechilib, jahon mamlakatlarining ta’lim tizimidagi tajribalaridan asoslanib ta`lim tizimi yangilanmoqda. Jumladan, maktab ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish va shu yo‘lda qator islohotlarni amalga oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish va umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining kreativ va intellektual salohiyatini oshirish orqali alohida urg`u berilmoqda. “Kreativlik” (lotincha creatio — “yaratish”) so‘zi inson faoliyatida yangilik yaratish, noodatiy fikrlash, mavjud holatga o‘ziga xos yondashish qobiliyatini bildiradi. Pedagogik nuqtayi nazardan, kreativ yondashuv — bu o‘quv jarayonida yangicha usul va metodlardan foydalanish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ta’lim jarayonida kreativ yondashuv o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini fikrlashga yo‘naltiruvchi, motivatsiya beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishini talab etadi. Shu bois, o‘qituvchi darsni an’anaviy uslubda emas, balki interfaol, muammoli, loyihaviy va o‘yin texnologiyalarini qo‘llash orqali tashkil etishi lozim. Bu uslubda darslarni tashkil etish o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi mantiqiy fikrlashga undaydi. Ona tili

darslarida o‘quvchilarning evristik qobiliyatini rivojlantirish masalalari xususida izlanishlar olib borgan tadqiqotchi R.Xurramov og‘zaki mashqlarni ona tili darslarida qo’llash o‘quvchilarning fikrlash doirasini rivojlantirishda muhim o‘rin egallashini ta’kidlab o`tadi. Ona tili fanining asosiy vazifasi — o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish, grammatik va leksik bilimlarni mustahkamlash, ifodali so‘zlashni o‘rgatishdir. Bunday maqsadga erishishda kreativ yondashuv alohida o‘rin tutadi. Masalan, “Erkin insho”, “Rol o‘ynash”, “O‘ylang va toping”, “Yangi so‘z yasang”, “Teskari matn” kabi ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etadilar, so‘z boyligi kengayadi, nutqiy faollik oshadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan (interaktiv taxtalar, multimediya vositalari, onlayn platformalar) foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi va o‘rganish jarayonini samarali qiladi. Kreativ metodlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muloqot madaniyati va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa nafaqat til o‘rganishda, balki ularning shaxsiy rivojlanishida,nutq ma`daniyatining boyishida,teran fikrlashida ham muhim rol o‘ynaydi.

Ona tili darslarida kreativ yondashuvni joriy etishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, avvalo, shaxsning har tomonlama rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Kreativ darslar o‘quvchilardamustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, jamiyatda faol, tashabbuskor, o‘z fikrini ochiq ifoda eta oladigan shaxsni tarbiyalaydi, ijodkorli, yaratuvchanlikka undaydi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, kreativ yondashuv yosh avlodni zamonaviy hayot talablari bilan moslashtiradi. Chunki, hozirgi davrda har bir insondan ijodiy fikrlash, yangicha qarash, innovatsion yondashuv talab etilmoqda. Shunday ekan, maktabda bunday ko‘nikmalarni shakllantirish — ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Pedagogik nuqtayi nazardan esa, kreativ yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, dars jarayonini jonlantiradi hamda ta’limning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va o‘qituvchi funksiyalarini uyg‘unlashtiradi. nafaqat til o‘rganishda, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda darslarda kreativ yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi,faol, tashabbuskor, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Bunday yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi, dars jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Shuning uchun har bir fan o‘qituvchisi ta’lim jarayoniga yangilik kiritishdan cho‘chimasligi, zamonaviy metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga intilishi zarur. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. G‘ulomov A., Yo‘ldoshev M. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
3. Abdullaeva N. “Kreativ pedagogika asoslari”. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Xodjayev N. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: Fan, 2019.
5. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti.

ИЗУЧЕНИЕ ДУХОВНО - НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Мелиева Хуснида Хафизалиевна[1]
Эшонхонова Шохида Абдурашидовна[2]
Баходирова Нозилахон Муминжон кизи[3]
(Phd), и.о. доцент Кокандского Государственного Университета [1]
Студент Кокандского Государственного Университета[2]
Студент Кокандского Государственного Университета[3]

Аннотация
В данной статье речь идет о самом эффективном методе нравственного воспитания учащихся начальных классов о её проявлениях, о примере родителей, наставников, великих мыслителей, великих предков, а также о национальных основах воспитания.

Ключевые слова: *система непрерывного образования, начальное образование, воспитания, нравственное воспитание, методы воспитания, воспитание гармонически развитой личности.*

В непрерывной образовательной системе Республики Узбекистан в соответствии с государственным заказом и социальным требованием служащих в них педагогических кадров возложено осуществление таких важных задач, как повышение эффективности процесса образования-воспитания, через внедрение в практику последних достижений науки воспитания творческой, социально активной, с высокой духовностью, профессиональной, преданной народу, воспитанной в духе национальных и общечеловеческих ценностей, творчески и самостоятельно мыслящей, чувствующей свою ответственность перед государством и обществом и гармонически развитой личности, привитие в ее сознание идею национальной независимости. В частности, Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзияев в Послании Олий Мажлису подчеркнул: «В нашем народе есть мудрое изречение: «Образование и воспитание начинаются с колыбели. Только знание ведет человека к совершенству, общества к прогрессу. Поэтому государственная политика в области образования должно начинаться с детского сада и продолжаться всю

жизнь». Ибо знания и навыки, полученные в ходе первоначального обучения еще в детские годы, так важны для человека, что во многом решают участь всей его жизни. Воспитание должно быть направлено на выработку у молодого поколения гражданской позиции, активного, действенного патриотизма.

Известно, что на любом этапе развития общества особое внимание уделено образованию-воспитанию будущего молодого поколения. Воспитание должно быть связано с национальным характером, обычаями, историей народа, мировоззрением нации. Жизнь всякого народа проявляется в своих, ей одной свойственных формах, следовательно, и воспитание должно связываться с жизнью, с духовностью народа. В нашей стране существуют письменные источники, духовные и научные ценности, своеобразная система национального воспитания, могущие быть основой для воспитания гармонически развитой личности, продолжающегося долго и непрерывно.

Первый Президент Республики Узбекистан И. А. Каримов в своей книге «Высокая духовность — непобедимая сила» писал: «…Фундамент нашего будущего создается в учебных заведениях, иначе сказать, зависит от того, какое образование и воспитание получат наши дети сегодня. Для этого каждый родитель, наставник и воспитатель в лице каждого ребенка, прежде всего, должны видеть личность. Исходя из этого простого требования, вырастить наших детей самостоятельными и обладающими способностью мыслить широко, разумно живущими совершенными людьми должны быть основной целью и задачей в области образования и воспитания. А это требует вести дело образования и воспитания гармонично». Поэтому образование нельзя отделить от воспитания — это взгляд по-восточному, философия жизни по-восточному.

Для достижения великого будущего нашей страны, конечно, необходимо воспитать в стране совершенных, умственно зрелых, нравственно воспитанных, психически устойчивых людей. Основа такого воспитания ставится в начальном образовании. Так, уже на первых ступенях образования должны дать детям основы различных знаний, воспитывать чувства, как любовь к семье, правдивость, трудолюбие, щедрость, гуманизм, справедливость, совестливость, благочестие, гордость, дисциплинированность, сознание общественного долга. Нравственное воспитание детей в школе проводятся в процессе урока, внеклассных и внешкольных мероприятиях. Жизнь школы — это часть жизни нашей страны. Школа должна жить в едином ритме с народом, чтобы цели, стремления, заботы народа стали целями, заботами, стремлениями каждого юного гражданина, чтобы школьник жил в мире высоких национальных идей и высоких дел. Только так можно воспитать человека, чувствующего свое идейное, духовное родство с народом. В процессе такого воспитания большое значение приобретает воспитание на основе системы «Ибрат-намуна».

Во-первых, учащиеся должны видеть в окружающих их людей самые лучшие нравственные качества и очень важно, что культура поведения

родителей, старших, учителей и воспитателей должна быть в достаточной степени образцом для подражания людей. Для гармоничного развития ребенка очень важно, чтобы учитель проявлял интерес к его жизни и впечатлениям, был готов помочь ему в разрешении любой проблемы. Надо верить в возможности каждого школьника, замечать любой, даже самый небольшой шаг вперед в его духовном росте, формулировать для каждого ребенка перспективу развития и поощрять его движение в направлении этого идеала. Доброжелательность в отношениях между педагогом и школьниками, в отношениях между детьми, заботливость, чуткость, взаимопомощь — все это условия для выявления личностных возможностей каждого младшего школьника. Главное в работе педагога — это высокий профессионализм, обладая им, он делом служит подрастающему поколению, осуществляет на практике поставленные перед собой воспитательные цели, своим трудом созидает будущее каждого учащегося. Педагог должен создать в классе творческий настрой, лишь при этом условии в нем расцветает личность каждого ученика. А это значит, дети сами должны быть инициаторами, организаторами всех коллективных дел. Надо предоставить детям возможность делать самостоятельно все, с чем они уже в состоянии справиться. Лишь при условии развития инициативы, творчества, самодеятельности, самоуправления коллектив выполнит свою роль в формировании людей современного склада. Во-вторых, личный пример учителя для подражания оказывает детям большое влияние. Учащиеся стараются подражать поведению близких к себе людей. Поведения окружающих, старших, особенно, учителей-педагогов оказывают сильное влияние становлению у детей нравственных качеств. Педагоги, учителя, воспитатели, родители должны в своем поведении удовлетворять всем требованиям, вытекающих из целей воспитания. Воспитание, по словам В. Г. Белинского, — великое дело, им решается участь человека. Этим определяется и роль педагога. Поэтому учителя и родители в любом случае должны вести себя достойно, примерно, не должны забывать, что всюду их окружают дети. Между словом и делом старших не должно быть расхождений. В-третьих, встречи с передовиками производства, проводимые в школах, имеют важное значение. Учащиеся гордятся успехами своих близких на производстве и стремятся им подражать. В-четвертых, показание как пример поучительный жизненный путь великих ученых, государственных деятелей, мыслителей, поэтов и писателей прекрасные идеи литературных героев играет важную роль в нравственном воспитании молодёжи. Поэтому в целях привития в сознание молодёжи национальных идей, всемирное значение изобретений наших предков, в целях воспитания достойных им наследников в сотрудничестве с ЮНЕСКО отмечены юбилеи следующих великих ученых, государственных деятелей, мыслителей, поэтов-писателей:

1991 год-550-летие Алишера Наваи;

1994 год-600-летие Мирзо Улугбека;
1996 год-660-летие Амира Темура;
1997 год-2500-летие Бухары и Хивы;
1998 год-1200-летие Ахмад Ал-Фаргони;
1999 год-1000-летие эпоса Алпамыш;
2000 год-545-летие Камолиддина Бегзода;
2003 год-900-летие Абдухолика Гиждувони;
2006 год-670-летие Амира Темура Счастливого

Цель празднования вышеуказанных дат — формирование нравственного воспитания молодёжи на примере деятельности великих людей.

В нравственном воспитании учащихся начальных классов в семье примером являются родители, старшие члены семьи, в образовательных учреждениях преподаватели и воспитатели, во внеклассных мероприятиях образцовые эпизоды из жизни деятельности великих предков. В начальном образовании на уроках математики в качестве примера рассказывается о мудрости, деятельности великого ученого — математика Аль-Хорезми, на уроках природоведения об изобретениях Аль-Бируни, о жизни и деятельности Ибн Сины, на уроках чтения о справедливости полководца Амира Темура, о покровительстве Мирзо Улугбека над наукой и культурой, неизмеримой любви и уважения Алишера Навои своему родному языку. В науке доказано огромное значение эффективного использования жизнедеятельности, образцов творчества национальных героев в системе образования-воспитания. Обществу нужны самостоятельные, активные люди, которые не ждут указаний по всякому поводу, а берут в свои руки их решение и ответственность за их реализацию возлагают на самих себя. Такая ответственность укрупняет личность, расширяет горизонты ее совершенствования. Глубокое уважение к достоинству каждого ребенка, вера в его способности и творчество — залог успешной работы учителя по развитию личности всех детей, которых доверило ему государство.

Литература:

1. O’zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// «Barkamol avlod — O’zbekiston taraqqiyotining poydevori». — T.: «Sharq matbaa nashriyoti kontserni», 1997 y. 31–61s.

2. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni.// «Barkamol avlod — O’zbekiston taraqqiyotining poydevori». — T.: «Sharq matbaa-nashriyoti kontserni», 1997 y. 20–29 s.

3. Computerization and Informatization of Primary Education. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS 2 (2), Volume 2, No2, February-2023. http://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1122

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonida maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini faollashtirish. Toshkent Davlat pedagogika Universiteti ilmiy axborotlari 2023/3-son. (13.00.00; №32)

5. Педагогическое наследие / Белинский В. Г., Герцен А. И., Чернышевский Н. Г., Добролюбов Н. А.; сост. А. Ф. Смирнов. — М.: Педагогика, 1988.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ В СОВРЕМЕННОМ НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мелиева Хуснида Хафизалиевна[1]
Каххарова Феруза Мухтаровна[2]
Абдилаева Гулбахор Рашидовна[3]
(Phd), и.о. доцент Кокандского Государственного Университета [1]
Студент Кокандского Государственного Университета[2]
Студент Кокандского Государственного Университета[3]

Аннотация

В статье рассматривается влияние цифровых ресурсов на организацию образовательного процесса в начальной школе. Представлен анализ потенциала и перспектив информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), а также выявлены основные проблемы, с которыми сталкиваются педагоги при их внедрении. Раскрываются формы использования цифровых инструментов, отражены изменения в подходах к обучению и мотивации младших школьников. Подчёркивается необходимость развития цифровой компетентности педагога. Статья основана на практическом опыте использования ИКТ в начальной школе.

Ключевые слова: *начальное образование, цифровые ресурсы, информационно-коммуникационные технологии, цифровая среда, электронные образовательные ресурсы, цифровая грамотность, ИКТ-компетентность учителя.*

Современное образование невозможно представить без активного внедрения цифровых технологий. Особую актуальность этот процесс приобретает в условиях цифровой трансформации общества, которая затрагивает все уровни образовательной системы, включая начальное звено. Вопрос об использовании цифровых ресурсов в работе с младшими школьниками вызывает как интерес, так и дискуссии среди педагогов и исследователей: с одной стороны, технологии открывают новые дидактические возможности, с другой — порождают ряд педагогических, технических и психологических проблем.

Цель настоящей статьи — проанализировать роль цифровых ресурсов в начальном образовании, определить их потенциал в развитии обучающихся, выявить трудности их применения и обозначить направления эффективного использования.

Цифровые образовательные ресурсы (ЦОР) — это совокупность электронных платформ, мультимедийных материалов, программных и сетевых продуктов, предназначенных для поддержки и организации учебной деятельности. Они становятся важным компонентом цифровой образовательной среды, способствуют повышению качества обучения, вовлечённости учащихся и персонализации учебного процесса.

В начальной школе ЦОР используются в различных форматах. Ниже представлены основные виды цифровых ресурсов с примерами их эффективного применения:

1. Интерактивные платформы и тренажёры

Платформы типа Учи.ру, ЯКласс, РЭШ (Российская электронная школа) предоставляют задания с автоматической проверкой, визуализацией прогресса и возможностью адаптации сложности.

Пример.На платформе *Учи.ру* после изучения темы «Части речи» ученики проходят интерактивный тренажёр, где классифицируют слова по частям речи, выбирают верные ответы, а система моментально оценивает результат. Учитель видит статистику по каждому ребёнку, может скорректировать задания или предложить индивидуальный маршрут.

2. Образовательные мультимедиа (видеоуроки, анимации, презентации)

Такие ресурсы применяются на этапах объяснения и закрепления. Особенно эффективны при изучении окружающего мира, математики, русского языка, когда абстрактные понятия требуют наглядности.

Пример.При изучении темы «Круговорот воды в природе» используется анимационный видеоролик с платформы *Инфоурок* или *Фоксфорд* , где показан процесс испарения, конденсации и выпадения осадков. Это помогает учащимся лучше понять и запомнить материал благодаря зрительным образам.

3. Электронные учебники и рабочие тетради

Интерактивные версии учебников, например от издательств *Просвещение* , *Бином* , *Вентана-Граф* , включают встроенные задания, ссылки на дополнительные материалы, звуковое сопровождение.

Пример.На уроке литературного чтения учащиеся работают с электронным учебником: читают текст, слушают озвученную версию, выполняют задание на анализ персонажа, выделяют ключевые слова прямо в тексте. Такая форма работы активизирует внимание и способствует формированию навыков смыслового чтения.

4. Виртуальные лаборатории и интерактивные модели

Используются для изучения основ естественно-научных дисциплин, позволяя в наглядной форме наблюдать за процессами, недоступными в реальности в начальной школе.

Пример.При изучении темы «Как работает сердце» в рамках курса окружающего мира на платформе *LMS МЭШ (Московская электронная школа)* можно использовать виртуальную модель сердца, где учащиеся наблюдают движение крови по сосудам, последовательность сокращений камер, получают комментарии диктора.

5. Онлайн-сервисы для проектной и исследовательской деятельности

Такие сервисы, как *Padlet* , *Google Jamboard* , *Wordwall* , используются для оформления и представления детских проектов, совместной работы и визуализации информации.

6. Образовательные игры и квесты

Игровые платформы, такие как *LearningApps* , *Plickers* позволяют создавать обучающие игры, викторины, кроссворды. Они особенно эффективны на этапах повторения и закрепления материала.

7. Сервисы для обратной связи и самооценки

Ресурсы вроде *Google Формы* , *Quizizz* применяются для быстрой диагностики понимания материала, а также формирования навыков рефлексии.

Пример.Вконце урока учащиеся проходят экспресс-опрос в Google Форме с вопросами по теме. Результаты мгновенно отображаются в диаграммах, позволяя учителю и детям увидеть, какие вопросы вызвали затруднения.

Перспективы использования цифровых технологий в начальной школе

Использование цифровых ресурсов в начальной школе открывает ряд значительных перспектив:

1. Повышение учебной мотивации: дети активно вовлекаются в процесс обучения благодаря ярким визуальным образам, игровым элементам, возможностям самостоятельного выбора темпа работы.

2. Дифференциация обучения: электронные платформы позволяют подбирать задания по уровню сложности, что особенно важно при работе с разноуровневыми учащимися.

3. Развитие универсальных учебных действий (УУД): ИКТ формируют навыки самостоятельного поиска информации, анализа, рефлексии, а также способствуют развитию информационной грамотности.

4. Интерактивность и обратная связь: цифровые сервисы обеспечивают быструю проверку заданий, возможность анализа ошибок и повторного выполнения, что повышает качество усвоения материала.

5. Развитие цифровой компетентности школьников: учащиеся с раннего возраста приобретают навыки безопасного и осмысленного взаимодействия с информационными технологиями.

Проблемы и риски внедрения ИКТ в начальной школе

Несмотря на очевидные плюсы, широкое применение цифровых ресурсов в начальной школе сопровождается рядом сложностей:

1. Недостаточная ИКТ-компетентность педагогов. Учителю необходимо владеть не только техническими навыками, но и методикой включения ИКТ в образовательный процесс.

2. Перенасыщение информацией. У детей младшего школьного возраста еще недостаточно развиты навыки отбора и критической оценки информации.

3. Проблемы технического обеспечения. Не все образовательные учреждения обеспечены современной техникой и стабильным интернет-соединением.

4. Снижение живого общения. При чрезмерном использовании ИКТ снижается количество коммуникативных ситуаций между учениками и учителем.

5. Гигиенические и психофизиологические риски. Увеличение экранного времени требует особого контроля со стороны взрослого.

Цифровые ресурсы становятся неотъемлемой частью современного начального образования. Они открывают новые возможности для индивидуализации и активизации обучения, способствуют формированию метапредметных компетенций и цифровой грамотности. Однако для полноценной реализации их потенциала необходимо комплексное методическое сопровождение, повышение ИКТ-компетентности педагогов, а также грамотная организация цифровой среды с учётом возрастных особенностей учащихся.

Таким образом, задача современной школы — не просто внедрить цифровые ресурсы, а выстроить продуманную цифровую образовательную среду, в которой технологии служат развитию, а не подмене живого, осмысленного обучения.

Литература:

1. Computerization and Informatization of Primary Education. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS 2 (2), Volume 2, No2, February-2023. http://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1122

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonida maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini faollashtirish. Toshkent Davlat pedagogika Universiteti ilmiy axborotlari 2023/3-son. (13.00.00; №32)

3. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. — М.: Народное образование, 1998. — с. 256 — URL: https://psv4.userapi.com/s/v1/d/lXBgpz4ZtdTZhX2W8HySFYls0jm8fz2Lf_rRUoKMxyQNRgNqz9lPUAkgwomQ6OQlzveuxuBZqNI8TaozAU9ptQ5-gVhd27Xg1Ep1qsJWDlP3XHCG1A78GA/G_K_Selevko_Sovremennye_obrazovatelnye_tekhnologii .pdf

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ УМЕНИЯ УСТАНАВЛИВАТЬ ФУНКЦИОНАЛЬНУЮ ЗАВИСИМОСТЬ У УЧАЩИХСЯ ВТОРОГО КЛАССА НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Мелиева Хуснида Хафизалиевна[1]
Султонова Мумтозбегим Бахтиёржон кизи[2]
Каримова Шоирахон Тургуналиевна[3]
(Phd), и.о. доцент Кокандского Государственного Университета [1]
Студент Кокандского Государственного Университета[2]
Студент Кокандского Государственного Университета[3]

Аннотация

Цель исследования — определить особенности формирования умения устанавливать функциональную зависимость у учащихся второго класса на уроках математики. В статье рассматриваются теоретические основы процесса формирования умения устанавливать функциональную зависимость у учащихся второго класса. Основное внимание уделяется анализу психолого-педагогической литературы, государственного образовательного стандарта начального образования (ГОС), программных требований к результатам изучения курса математики во втором классе. В результате данного анализа выявлены особенности формирования умения устанавливать функциональную зависимость у учащихся второго класса на уроках математики.

Ключевые слова: *начальное образование, функциональная зависимость, умения и навыки, анализ программ, особенности формирования.*

Важнейшими задачами современного начального образования являются формирование у учащихся глубокого и прочного усвоения научных знаний, выработка соответствующих умений и навыков, применение их на практике. Данные умения являются неотъемлемой составляющей содержания обучения математике, поэтому необходимо рассмотреть эти умения как дидактическую категорию. Овладение умениями происходит на основе усвоения действенных знаний, потому что они указывают, как следует выполнять то или иное действие. Умения выступают в тесной связи со знаниями и навыками. Это отметил в своей формулировке понятия И. Ф. Харламов: «Умение — это владение способами (приемами, действиями) применения усваиваемых знаний на практике» [1, с. 165].

Важнейшим условием подготовки учащихся к жизни является умение применять знания, умения и навыки на практике. Знания становятся способом влияния на предметы и явления действительности, а умения и навыки — орудием практической деятельности в процессе их использования.

Необходимо разграничить категории «умения» и «навыки». Психологи и педагоги придерживаются точки зрения, что умение — это более высокая психологическая категория, чем навыки. Среди них Е. И. Бойко, Б. Ф. Ломов и В. В. Чебышева [2; 3], педагоги-практики, такие как, Б. А. Ашмарин, Е. В. Гурьянов, А. Ц. Пуни и П. А. Рудик считают иначе: они убеждены, что навыки представляют более высокую стадию овладения физическими упражнениями и трудовыми действиями, чем умения [6, с. 234].

Е. И. Бойко, Б. Ф. Ломов и В. В. Чебышева под умениями понимают способность осуществлять на профессиональном уровне какую-либо деятельность, при этом умения формируются на основе нескольких навыков, характеризующих степень овладения определенными действиями. Согласно этой точке зрения, навыки предшествуют умению [4; 5; 6].

Б. А. Ашмарин, Е. В. Гурьянов, А. Ц. Пуни и П. А. Рудик рассматривают умения как возможность осуществлять какое-либо действие, операцию. По их мнению, умения предшествуют навыку, который выступает как более совершенная стадия овладения действиями [4; 6].

Согласно этому пониманию, умение и навык являются способностью совершать то или другое действие, различаются они по уровню овладения данным действием. Приверженцы данной точки зрения так же рассматривают каждое понятие в отдельности. Например, И. П. Ильин считает так: «Умение — это способность к действию, не достигшему наивысшего уровня сформированности, совершаемому полностью сознательно. Навык — это способность к действию, достигшему наивысшего уровня сформированности, совершаемому автоматизировано, без осознания промежуточных шагов» [5, с. 147].

С. Л. Рубинштейн определяет умение следующим образом: «Умение — это промежуточный этап овладения новым способом действия, основанным на каком-либо правиле (знании) и соответствующим правильному использованию знания в процессе решения определенного класса задач, но еще не достигшего уровня навыка» [7, с. 201]. Ю. К. Бабанский считает, что умение выступает сознательным владением каким-либо приемом деятельности [7]. По мнению Б. Ф. Ломова, «умение — сложное психическое образование, включающее систему навыков, физические и умственные действия» [2, с. 271].

Словарь М. И. Дьяченко и Л. А. Кандыбович характеризует умение как освоенный человеком способ выполнения действий на базе имеющихся знаний и навыков [8]. Умение связано с уровнем, который проявляется на первичном этапе в форме приобретенного знания, такое знание может быть произвольно отражено. В процессе использования на практике этого знания оно приобретает некоторые операциональные свойства, выступая в форме правильно совершаемого действия. При возникновении каких-либо трудностей учащийся

использует правило для того, чтоб отрегулировать выполняемое действие, а также — при работе над совершенными ошибками [8].

Б. Ф. Ломов подчеркивает различия между умением и навыком: «Умение проявляется при решении новых задач и включает в себя момент творчества, а навык используется стереотипно» [2, с.229]. Нелогичность отделения навыков от умений становится еще более очевидной при рассмотрении трехзвенной цепочки: первичное умение — навык — умение высшего порядка. Получается, что не только умение превращается в навык, но и навык обратно переходит в умение. Но во всех трех случаях речь идет об одном и том же действии, которым человек овладевает, поэтому логичнее всю эту трехзвенную цепь представлять как стадии совершенствования умения, на что указывают большинство учёных.

Miqdor (falsafada) — obyekt ning tashqi ko‘rsatkichlari (uning kattaligi, soni, hajmi, xossalarining rivojlanish darajasi va hokazo)ni ifodalovchi tushuncha. Birinchi marta miqdor masalalarini pifagorchilar taxdil qilishga urinib, sonlar tabiatini o‘rganishgan. Aristotel miqdorni alohida kategoriya deb hisoblagan. miqdor hodisalar, narsalar, jarayonlarning sifati bilan muayyan birlikni tashkil etib, bu birlik ularning me’yori bo‘ladi. Narsalarning miqdoriy muayyanligi o‘zgarib ma’lum bir me’yorga yetishi sifat o‘zgarishiga olib keladi.

Miqdor yoki **Kattalik** (matematikada) — asosiy matematik tushuncha; kesma uzunligi, sirt yuzi, jism hajmi va massasi kabi tushunchalarning umumlashmasi. Bular skalyar miqdorlar deb ataladi. Bir xil skalyar miqdorlarni o‘zaro taqqoslash uchun o‘lchov birligi tanlab olinadi (mas, uzunlikni ifodalovchi miqdorlar uchun metr, massani ifodalovchi miqdorlar uchun gramm va boshqalar). Miqdorlar o‘lchov birligiga nisbatan son bilan ifodalanadi. Matematikada miqdorning fizik tabiatiga bog‘liq bo‘lmagan xususiyatlari olinadi. Miqdorlar uchun tenglik, tengsizlik (katta, kichik), qo‘shish, ayirish va boshqa munosabatlar aniqlanadi. Ma’lum yo‘nalishdagi kesma, tezlik, kuch va boshqa tushunchalar vektor Miqdor tushunchasiga olib keladi.

Miqdorlar haqida dastlabki ma’lumotlar, shu bilan birga uzunlik, og‘irlik, vaqt, baho-narx, yuza, hajmi o‘lchov birliklari va ularning boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida o‘rganish metodikasi haqida hada ularning konsentrlar bo‘yicha joylashishini qarab chiqish darsning asosiy maqsadi qilib qo‘yilgan.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda uzunlik, jismning massi, xajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar qaraladi. Miqdor tushuncha matematikada o‘rganiladigan asosiy tushunchalardan biridir. O‘quvchilar bu miqdorlar haqida aniq tasavvurlar hosil qilishlari, ularning o‘lchov birliklari bilan tanishishlari, miqdorlarni o‘lchash, o‘lchash natijalarini turli birliklarda ifodalashni o‘rganishlari, ismli sonlar usida arifmetik amallarni bajarishlari lozim. Har bir o‘rganiladigan miqdor atrof muhitdagi real olamning biror umumlashgan xossasidir. O‘lchashga doir mashqlar fazoviy tasavvurlarni rivojlantiradi. O‘quvchilarni hayotda keng qo‘llaniladigan zarur amaliy malakalar bilan qurollantiradi. Miqdorlarni o‘rganish ta’limning hayot bilan bog‘lovchi vositalardan biridir. Boshlang‘ich sinflarda asosiy miqdorlarni o‘rganish arifmetik materiallarni o‘rganish bilan uzbiy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. O‘lchashni o‘rganish, sanashni o‘rganish bilan bog‘lanadi. Yangi o‘lchov birliklari tegishli sanoq birliklari kiritilgandan keyin o‘rganiladi. Ismli sonlarni hosil qilinishi, yozilishi, o‘qilishi sonlarni nomerlash bilan baravar o‘rgatiladi. Arifmetik amallar sonlar ustida va ismli sonlar ustida bajariladi. Turli hisoblashlarni va yasashlarni bajarishda aniqlik va batartiblikka amal qilish o‘quv ahamiyatidan tashqari tarbiyaviy ahamiyatga ega. Batartib bajarilgan o‘lchash va grafik ishlar bolalarni estetik tarbiyalashga imkon beradi, ularning charchashlarini kamaytiradi, e’tiborini orttiradi. Miqdorlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga asosan amaliy metodlar va laboratoriya ishlaridan foydalaniladi. Miqdor haqidagi tasavvurlarni to‘g‘ri va puxta shakllantirishda ko‘rsatmalilikning turli vositalari, ya’ni geometrik figuralar modellari, har xil chizmachilik va o‘lchash asboblaridan foydalaniladi.

U yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o‘lchash usullari o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa ham, metodik adabiyotlarda har bir miqdorni o‘rganishda umumiy bosqichlarni alohida ta’kidlab o‘tiladi. O‘qituvchiga ularga tayanib har bir miqdorlarni o‘rganish jarayonida darsni tashkil etishdalari tvsiya qilinadi .

Miqdorlarni o‘rgatish bo‘yicha metodik sxema.

1. Bolalarda mavjud mazkur miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash (bolalarning hayotiy tajribasiga murojaat yetish).

2. Bir xil nomli miqdorlarni solishtirish (chamalab ko‘rinish, solishtirish, taqqoslash, o‘lchash va boshqa xil usullar bilan).

3. Mazkur miqdorning o‘lchov birligi va o‘lchov asboblari bilan tanishtirish.

4. O‘quvchilarda o‘lchash ko‘nikmalari hosil qilish.

5. Bir xil nomdagi miqdorlarni qo‘shish va ayirish. (Masalalarni yechish jarayonida).

6. Miqdorlarning yangi o‘lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdagi miqdorlarni boshqa o‘lchov birliklariga aylantirish. Ikki bir xil nomli o‘lchov birliklarini bitta ikki nomli o‘lchov birligiga aylantirish va aksincha.

7.Ikki xil nomli miqdorni qo‘shish va ayrish.

8.Miqdorlarni sonlarga ko‘paytirish va bo‘lish.

Miqdor tushunchasi boshlang‘ich sinf matematikasining asosiy mazmunidan biri bo‘lishi bilan bir vaqtda u boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitihning nazariy asoslaridan biri hissoblanishi bilan ham boshqa tushunchalardan ajralib turadi. Ikkinchi tomond miqdorlar arifmetiksi boshlang‘ich sinfda kiritiladigan arifmetik mateiallar bilan mazmun va shakl jihatidan deyarli o‘hshashdir. Shuning uchun bu mavzu boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishning muhum va dolzarb mavzusi bo‘lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – C. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – C. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS’COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

YOSHLARDA MILLIY MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHNI TARKIB TOPTIRISH

Xudoyberganov Nodirjon Shokirjonovich
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ongida milliy ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, tarixiy-madaniy merosning tarbiyaviy ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiyaning o‘rni keng yoritilgan. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ma’naviy meros va ajdodlarimizning ibratli hayoti yoshlar tarbiyasida asosiy manba sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, yosh avlodda vatanparvarlik, mas’uliyat, halollik, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari va innovatsion tarbiyaviy yondashuvlar o‘rganilgan. Maqolada oilada, ta’lim muassasalarida va keng jamoatchilik orasida ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, axloq, dunyoqarash, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, urf-odatlar, axloqiy fazilatlar, tarbiyaviy texnologiyalar, vatanparvarlik, mas’uliyat, oila tarbiyasi, ta’lim muassasalari, shaxs kamoloti.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya inson shaxsiyati va ichki dunyosiga chuqur ta’sir o‘tkazuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu tarbiya insonda nafaqat go‘zallikni idrok etish qobiliyatini shakllantiradi, balki unda mehr-oqibatlilik, halollik, rostgo‘ylik, saxovatpeshalik kabi fazilatlarni ham rivojlantiradi. Axloq tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u boshqa tarbiya shakllarini o‘zaro bog‘lash bilan birga, insonni yetuk fuqaro sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Inson va axloq tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. "Axloq" so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, insonning fe’l-atvori, xulqi va ichki sifatlari majmuasini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, u jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida o‘ziga xos qoidalarga ega bo‘lgan me’yorlarga asoslanadi. Odamlar hayot davomida ushbu me’yorlarga mos ravishda yashashga intiladi, qonun-qoidalarga rioya qiladi va jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillarga muvofiq harakat qiladi. Shu sababli axloq nafaqat insonning xulq-atvorini, balki uning davlat, jamiyat, mulk, oila va mehnat mahsuliga bo‘lgan munosabatini ham belgilab beradi.

Ta’lim muassasalarida talabalarning axloqiy tarbiyasiga katta e’tibor qaratilishi zarur. Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi – talabalarda axloqiy ong, ijobiy xulq-atvor va axloqiy malakalarni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umumbashariy an’analar asosida samarali pedagogik usullar ishlab chiqiladi va hayotga tadbiq etiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya – bu yosh avlodni milliy madaniyat, tarixiy an’analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jarayonidir.

Mazkur tarbiya orqali talabalarga jamiyatda amal qilinadigan axloqiy-me’yoriy qoidalar tushuntiriladi, ularning hayotdagi ahamiyati ochib beriladi. Natijada, yoshlar milliy qadriyatlar asosida insoniy fazilatlarni o‘zlarida shakllantiradi, jamiyat bilan ijobiy munosabat o‘rnatish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi va o‘zini doimiy ravishda rivojlantirib borish kompetensiyasini shakllantiradi.

Axloqning kelib chiqishi va mohiyati, shuningdek, odamlarning axloqiy ongi hamda xulq-atvori kabi masalalar etika fani doirasida o‘rganiladi. Axloq – bu shaxsiy xulq-atvorni boshqaruvchi ijtimoiy me’yor va qoidalarning yig‘indisidir. U ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda jamiyat tomonidan e’tirof etilgan tartib, odob, o‘zaro muomala va muloqot tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

Axloqiy me’yorlar tarixiy jihatdan doimiy rivojlanib, turli ijtimoiy sharoit va qatlamlarga qarab o‘zgarib boradi. Shu sababli, axloq tushunchasi har bir jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bog‘liq holda o‘ziga xos mazmunga ega bo‘ladi. Axloqiy me’yorlar jamiyat tomonidan tasdiqlangan va uning barcha a’zolari tomonidan ma’lum darajada bajarilishi lozim bo‘lgan qoidalardan iboratdir.

Axloqiy odatlar esa inson xulq-atvorining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular doimiy ravishda takrorlanib, insonning shaxsiyati va hayot tarzining ajralmas qismiga aylanadi. Axloqiy ong esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli hisoblanadi.

Amerikalik olim L. Kolberg axloqiy rivojlanish jarayonini uch bosqichga ajratgan:

1. **Axloqgacha bo‘lgan bosqich** – bu bosqichda bola axloqiy qoidalarga jazodan qo‘rqib amal qiladi.
2. **Konventional bosqich** – bu bosqichda inson axloqiy me’yorlarga jamiyatdagi mavqei va yaxshi yashash uchun rioya qiladi.
3. **Avtonom bosqich** – bu eng yuqori bosqich bo‘lib, inson axloqiy qadriyatlarni o‘z hayotiy tamoyiliga aylantirib, o‘z ixtiyori bilan ularga amal qiladi.

Axloqiy tarbiya insonlarda axloqiy bilimlar, hissiyotlar va xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik jarayondir. Uning ijtimoiy jihati jamiyatda qabul qilingan axloqiy qadriyatlar va prinsiplarni yoshlarga singdirishdan iborat. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – yoshlarni ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mazmuni bilan tanishtirish, ularning jamiyatdagi o‘rnini anglashlariga ko‘maklashish, ularda axloqiy me’yorlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish va axloqiy madaniyatni rivojlantirishdir.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga axloqiy qoidalar va ijtimoiy axloq me’yorlari haqida tushuncha berish.
2. Talabalarning ma’naviy-axloqiy ongi va ongli xulq-atvorini shakllantirish.
3. Ularning axloqiy hissiyotlarini rivojlantirish va tarbiyalash.
4. Yosh avlodga ota-onani hurmat qilish, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, halollik, saxovatlilik kabi axloqiy sifatlarni singdirish.
5. Talabalarda axloqiy odatlarni shakllantirish va ularga axloqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarini berish.

Natijada, ma’naviy-axloqiy tarbiya inson shaxsiyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, uni jamiyatga foydali va axloqiy jihatdan yetuk inson sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637 son “Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“gi Farmoni
4. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). –T.: “Fan va texnologiya”, 2015. -228 b.
5. Ochilova B.M. Axloq falsafasi.O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Ijod-print”, 2019. -160 b.
6. Qayumov A. "Hayrat ul-abror" talqini. Asarlar. 1-jild. 1-kitob.– Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008, 9-bet.
7. Xodjayev B.; Artikova M. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). –T. 2020
8. Gulboyev A.T., Pedagogika aksiologiya darslik. - Durdona nashriyoti, 2023. - 138 b.
9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 1239-1242.
10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 160-165.
11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.
12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.
13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.
14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.
15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA

INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS'COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

19. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

20. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

21. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

22. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

23. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

ONA TILI DARSALARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Qurbonova Shoiraxon Usmonali qizi
Qo‘qon davlat universiteti, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida ona tili darslarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan. Integratsiya jarayonining ta’limdagi o‘rni, u orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, muloqot madaniyati va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, integratsiyalashgan o‘qitishning asosiy tamoyillari, nazariy asoslari va amaliy natijalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada integratsion darslarning o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati hamda o‘qituvchining bu jarayondagi roli tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, ona tili, fanlararo bog‘liqlik, kompetensiya, konstruktivizm, ijodiy tafakkur. Zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya jarayoni o‘qitish samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etish o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ularning nutq madaniyatini, bilim, ko‘nikma va malakalarini kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Integratsiya — bu turli fanlarning mazmuni, metodlari va maqsadlarini bir-biriga uyg‘unlashtirish orqali yagona ta’limiy jarayonni tashkil etish demakdir.

“Integratsiya” atamasi lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “bir butunga birlashtirish” degan ma’noni anglatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan integratsiya — bu o‘quv predmetlari o‘rtasida mazmuniy va metodik bog‘liqlikni ta’minlash, o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi o‘quv jarayonini tashkil etishdir. Boshlang‘ich sinflarda bu jarayon ayniqsa muhim, chunki o‘quvchilar hali abstrakt fikrlash darajasiga to‘liq o‘tmagan bo‘ladilar. Shu sababli ularning bilimlarini bir butun holda shakllantirishda integratsiya samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ona tili fanining o‘ziga xos jihatlaridan biri — o‘quvchilarda nutq madaniyatini, tafakkur jarayonini, muloqot ko‘nikmalarini va estetik didni shakllantirishidir. Ushbu fan orqali o‘quvchilar til boyligini oshiradilar, fikrini aniq ifodalash, o‘z fikrini asoslash, mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallaydilar. Ona tili darslarini tabiatshunoslik, matematika, texnologiya, tasviriy san’at va musiqa kabi fanlar bilan integratsiyalash orqali o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, ijodiy yondashuv, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalari rivojlanadi. Masalan, “Tabiat hodisalari” mavzusida o‘qituvchi o‘quvchilarga tabiat haqidagi matnni o‘qitish bilan birga, so‘z boyligini oshirish, grammatik tahlil qilish va matn tuzish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu jarayonda o‘quvchilar ilmiy va badiiy tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni his etadilar. Integratsiyalashgan o‘qitishning nazariy asoslari qatoriga quyidagi yondashuvlar kiradi:

Konstruktivizm nazariyasi – o‘quvchining bilimni mustaqil egallash jarayonini faollashtiradi;

Faoliyatga asoslangan yondashuv – har bir o‘quvchining o‘rganish jarayonidagi ishtirokini ta’minlaydi; Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim– bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi va hayotiy vaziyatlarda

qo‘llashni o‘rgatadi. Tizimli yondashuv – fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Integratsion ta’lim o‘qituvchidan puxta tayyorgarlik, tizimli rejalashtirish va ijodkorlikni talab etadi. Dars jarayonida o‘qituvchi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

1. Darsning maqsadini aniq belgilash, qaysi fanlar bilan bog‘lanishini aniqlash
2. Mavzuga oid fanlararo elementlarni tanlash;
3. Integratsiyalashgan metod va topshiriqlarni ishlab chiqish;
4.O‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash;
5.Natijalarni tahlil qilish va baholash.

Integratsion o‘qitishning samaradorligi ko‘plab tajribalarda o‘z isbotini topgan. Xususan, ona tili darslarini tabiatshunoslik bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar tildagi terminlarni o‘zlashtirish, kuzatish natijalarini yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Matematika bilan integratsiya esa o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, sonli ifodalarni til orqali izohlash malakasini rivojlantiradi. Shuningdek, ingliz tili bilan bog‘langan darslarda o‘quvchilar til madaniyatini qiyosiy tahlil qilishni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etish o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtiradi, tafakkurini kengaytiradi va ularni hayotiy faoliyatga tayyorlaydi. Integratsion yondashuv o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy, axloqiy va ijodiy fazilatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir darsni puxta rejalashtirishi, fanlararo aloqadorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi zarur. Integratsiya – bu zamonaviy ta’lim tizimining innovatsion poydevori bo‘lib, har bir o‘quvchining shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. “Integratsiyalashgan ta’limning psixologik asoslari”. Toshkent, 2020.
2. Rasulova M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar”. Toshkent, 2021.
3. Hasanov B. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” farmoni, 2019-yil.
5. Raximova N. “Fanlararo integratsiya va uning ta’limdagi ahamiyati”. – Toshkent, 2023.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘RGATILADIGA ASOSIY MIQDORLAR VA ULARNI O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN

Tolipov Rustam Mamasoliyevich[1]
Azizjonova Husnidaxon Azizjon qizi[2]

Nabiyeva Mohinur Alisher qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4-sinf matematika darslarida miqdorlarni (uzunlik, massa, vaqt, hajm, maydon va boshqalar) o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Miqdorlar bo‘yicha bilimlarni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning amaliy faoliyatini faollashtiruvchi interfaol metodlar, multimediya vositalari, o‘yin texnologiyalari va muammoli ta’lim elementlaridan foydalanishning afzalliklari ilmiy asoslanadi. Maqolada miqdorlarni amaliy o‘lchash, solishtirish, modellashtirish hamda kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarda mustahkam bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy masalalarni hal etish malakasini sezilarli oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: 4-sinf matematikasi; miqdorlar; uzunlik; massa; vaqt; hajm; maydon; pedagogik texnologiyalar; interfaol usullar; o‘yin texnologiyalari; muammoli ta’lim; multimediya vositalari; amaliy faoliyat; boshlang‘ich ta’lim; matematik savodxonlik.

Boshlang‘ich sinflarning dasturida matematik material bilan uzviy bog‘liqlikda turli miqdorlarni ham o‘rganish nazarda tutilgan. Miqdorlarsiz tabiatni, borliq olamni o‘rganish mumkin emas. Chunki miqdorlarda turli narsalarning, borliq dunyoning xossalari aks etgan. Miqdor tushunchasi narsa yoki hodisaning xossasi bo‘lib, bu tushunchalar o‘quvchilarning butun o‘qishi davrida shakllanadi.

Biz o‘quvchilarga uzunlik, jismning massasi (og‘irlik), hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar to‘g‘risida tushuncha berishimiz kerak. Bu tushunchalarni o‘rganish arifmetik material bilan qo‘shib o‘qitiladi.

Masalan: o‘lchashni o‘rganish, sanashni o‘rganish bilan, o‘lchov birliklari sanoq sismavzusi bilan, ismli sonlar abstrakt sonlarni nomerlash bilan miqdorlar ustida amallar arifmetik amallar bilan parallel o‘qitiladi. Miqdorlarni o‘qitish matematikani hayot, sharoit bilan bog‘liq holda o‘qitib, politexnik bilimlar berish demakdir.

Miqdor (falsafada) — obyekt ning tashqi ko‘rsatkichlari (uning kattaligi, soni, hajmi, xossalarining rivojlanish darajasi va hokazo)ni ifodalovchi tushuncha. Birinchi marta miqdor masalalarini pifagorchilar taxdil qilishga urinib, sonlar tabiatini o‘rganishgan. Aristotel miqdorni alohida kategoriya deb hisoblagan. miqdor hodisalar, narsalar, jarayonlarning sifati bilan muayyan birlikni tashkil etib, bu birlik ularning me’yori bo‘ladi. Narsalarning miqdoriy muayyanligi o‘zgarib ma’lum bir me’yorga yetishi sifat o‘zgarishiga olib keladi.

Miqdor yoki **Kattalik** (matematikada) — asosiy matematik tushuncha; kesma uzunligi, sirt yuzi, jism hajmi va massasi kabi tushunchalarning umumlashmasi. Bular skalyar miqdorlar deb ataladi. Bir xil skalyar miqdorlarni o‘zaro taqqoslash uchun o‘lchov birligi tanlab olinadi (mas, uzunlikni ifodalovchi miqdorlar uchun metr, massani ifodalovchi miqdorlar uchun gramm va boshqalar). Miqdorlar o‘lchov birligiga nisbatan son bilan ifodalanadi. Matematikada miqdorning fizik tabiatiga bog‘liq bo‘lmagan xususiyatlari olinadi. Miqdorlar uchun tenglik, tengsizlik (katta, kichik), qo‘shish, ayirish va boshqa munosabatlar aniqlanadi. Ma’lum yo‘nalishdagi kesma, tezlik, kuch va boshqa tushunchalar vektor Miqdor tushunchasiga olib keladi.

Miqdorlar haqida dastlabki ma’lumotlar, shu bilan birga uzunlik, og‘irlik, vaqt, baho-narx, yuza, hajmi o‘lchov birliklari va ularning boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida o‘rganish metodikasi haqida hada ularning konsentrlar bo‘yicha joylashishini qarab chiqish darsning asosiy maqsadi qilib qo‘yilgan.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda uzunlik, jismning massi, xajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar qaraladi. Miqdor tushuncha matematikada o‘rganiladigan asosiy tushunchalardan biridir. O‘quvchilar bu miqdorlar haqida aniq tasavvurlar hosil qilishlari, ularning o‘lchov birliklari bilan tanishishlari, miqdorlarni o‘lchash, o‘lchash natijalarini turli birliklarda ifodalashni o‘rganishlari, ismli sonlar usida arifmetik amallarni bajarishlari lozim. Har bir o‘rganiladigan miqdor atrof muhitdagi real olamning biror umumlashgan xossasidir. O‘lchashga doir mashqlar fazoviy tasavvurlarni rivojlantiradi. O‘quvchilarni hayotda keng qo‘llaniladigan zarur amaliy malakalar bilan qurollantiradi. Miqdorlarni o‘rganish ta’limning hayot bilan bog‘lovchi vositalardan biridir. Boshlang‘ich sinflarda asosiy miqdorlarni o‘rganish arifmetik materiallarni o‘rganish bilan uzbiy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. O‘lchashni o‘rganish, sanashni o‘rganish bilan bog‘lanadi. Yangi o‘lchov birliklari tegishli sanoq birliklari kiritilgandan keyin o‘rganiladi. Ismli sonlarni hosil qilinishi, yozilishi, o‘qilishi sonlarni nomerlash bilan baravar o‘rgatiladi. Arifmetik amallar sonlar ustida va ismli sonlar ustida bajariladi. Turli hisoblashlarni va yasashlarni bajarishda aniqlik va batartiblikka amal qilish o‘quv ahamiyatidan tashqari tarbiyaviy ahamiyatga ega. Batartib bajarilgan o‘lchash va grafik ishlar bolalarni estetik tarbiyalashga imkon beradi, ularning charchashlarini kamaytiradi, e’tiborini orttiradi. Miqdorlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga asosan amaliy metodlar va laboratoriya ishlaridan foydalaniladi. Miqdor haqidagi tasavvurlarni to‘g‘ri va puxta shakllantirishda ko‘rsatmalilikning turli vositalari, ya’ni geometrik figuralar modellari, har xil chizmachilik va o‘lchash asboblaridan foydalaniladi.

U yoki bu miqdor haqida tasavvurni shakllantirish va ularni o‘lchash usullari o‘ziga xoslikka ega bo‘lsa ham, metodik adabiyotlarda har bir miqdorni o‘rganishda umumiy bosqichlarni alohida ta’kidlab o‘tiladi. O‘qituvchiga ularga tayanib har bir miqdorlarni o‘rganish jarayonida darsni tashkil etishdalari tvsiya qilinadi .

Miqdorlarni o‘rgatish bo‘yicha metodik sxema.

1. Bolalarda mavjud mazkur miqdorlar haqidagi tushunchalarni aniqlash (bolalarning hayotiy tajribasiga murojaat yetish).

2. Bir xil nomli miqdorlarni solishtirish (chamalab ko‘rinish, solishtirish, taqqoslash, o‘lchash va boshqa xil usullar bilan).

3. Mazkur miqdorning o‘lchov birligi va o‘lchov asboblari bilan tanishtirish.

4. O‘quvchilarda o‘lchash ko‘nikmalari hosil qilish.

5. Bir xil nomdagi miqdorlarni qo‘shish va ayirish. (Masalalarni yechish jarayonida).

6. Miqdorlarning yangi o‘lchov birliklari bilan tanishtirish, bir nomdagi miqdorlarni boshqa o‘lchov birliklariga aylantirish. Ikki bir xil nomli o‘lchov birliklarini bitta ikki nomli o‘lchov birligiga aylantirish va aksincha.

7.Ikki xil nomli miqdorni qo‘shish va ayrish.

8.Miqdorlarni sonlarga ko‘paytirish va bo‘lish.

Miqdor tushunchasi boshlang‘ich sinf matematikasining asosiy mazmunidan biri bo‘lishi bilan bir vaqtda u boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitihning nazariy asoslaridan biri hissoblanishi bilan ham boshqa tushunchalardan ajralib turadi. Ikkinchi tomond miqdorlar arifmetiksi boshlang‘ich sinfda kiritiladigan arifmetik mateiallar bilan mazmun va shakl jihatidan deyarli o‘hshashdir. Shuning uchun bu mavzu boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishning muhum va dolzarb mavzusi bo‘lib qoladi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-

ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

8. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

9. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

10. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

11. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

12. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

13. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

14. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – С. 91-92.

15. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – С. 87-88.

16. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – С. 89-90.

17. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS’COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 357-362.

18. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ КАК СОВРЕМЕННЫЙ ИНСТРУМЕНТ ОБРАЗОВАНИЯ

Сетсалиева Зарема Исмаиловна,
преподаватель кафедры «Начальное образование» Кокандского государственного университета

Аннотация

В статье рассматривается сущность и роль педагогических цифровых платформ в современном образовательном процессе. Раскрываются их функции, преимущества и возможности для организации учебной деятельности, а также влияние на профессиональную подготовку педагогов. Особое внимание уделено проблемам и перспективам использования цифровых технологий в образовании.

Ключевые слова: цифровизация образования, педагогические цифровые платформы, доступность, инновации.

Современное образование развивается в условиях стремительной цифровизации, что требует внедрения инновационных технологий и цифровых решений в учебный процесс. Одним из ключевых инструментов современного обучения становятся педагогические цифровые платформы, которые обеспечивают интеграцию образовательного контента, коммуникацию между участниками образовательного процесса и формирование цифровой компетентности обучающихся и педагогов.

Педагогическая цифровая платформа – это программно-аппаратная среда, обеспечивающая доступ к образовательным ресурсам, организацию взаимодействия между преподавателем и обучающимися, а также поддержку учебно-воспитательного процесса в онлайн или смешанном формате.

К педагогическим цифровым платформам относятся:

- национальные (Maktab.uz и Eduportal.uz);
- международные (Google Classroom, Moodle, Edmodo, Coursera, «Российская электронная школа», «Учи.ру», «ЯКласс», «Яндекс.Учебник», «Фоксфорд» и др.).

Основные характеристики таких платформ: интерактивность, доступность, индивидуализация обучения, автоматизация оценки, аналитика образовательных результатов.

Педагогические цифровые платформы выполняют ряд важнейших функций:

- информационно-образовательную – предоставляют доступ к учебным материалам;

- организационно-коммуникативную – обеспечивают взаимодействие между всеми участниками образовательного процесса;
- контрольно-оценочную – позволяют проводить диагностику и мониторинг успеваемости;
- развивающую – способствуют формированию цифровой, коммуникативной и исследовательской компетенций обучающихся.

Использование цифровых платформ способствует индивидуализации обучения, развитию навыков самоорганизации, критического мышления и ответственности за результаты обучения.

Несмотря на очевидные преимущества, внедрение педагогических цифровых платформ сопровождается рядом проблем:

- недостаточная цифровая компетентность преподавателей;
- технические ограничения образовательных учреждений;
- отсутствие единой методической базы использования цифровых ресурсов;
- перегрузка обучающихся информацией.

Перспективным направлением является интеграция цифровых платформ с традиционными методами обучения, разработка единых стандартов цифрового контента, повышение квалификации педагогов и развитие отечественных образовательных экосистем.

Педагогические цифровые платформы являются мощным инструментом модернизации системы образования. Их использование обеспечивает доступность знаний, развитие индивидуальных образовательных траекторий и повышение качества обучения. Цифровизация образовательного пространства требует от педагогов новых компетенций, готовности к инновациям и постоянного профессионального роста.

Список литературы

1. Кузнецова Н.В. Использование цифровых платформ в обучении: проблемы и перспективы // Педагогическое образование и наука. – 2022. №3.
2. Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. Maktab.uz – цифровая образовательная среда. – 2023.
3. Z. Setsalieva. Methodology for Preparing Future Mathematics Teachers to Work with Modern Digital Applications // International Journal of European Research Output. – 2025. http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/1249
4. З.Сетсалиева. Применение современных цифровых приложений на уроках математики // Материалы научно-практической конференции “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy ta’lim-tarbiya: muammo va yechimllar” https://eyib.uz/index.php/EYIB

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Сетсалиева Зарема Исмаиловна,
преподаватель кафедры «Начальное образование» Кокандского государственного университета

Аннотация

В статье рассматриваются тенденции и перспективы развития педагогических цифровых платформ в высшем образовании в контексте цифровой трансформации современного общества. Анализируются возможности интеграции цифровых технологий в образовательную среду вуза, выявляются основные направления совершенствования цифровых платформ и их влияние на качество подготовки будущих специалистов. Отмечаются проблемы, связанные с цифровизацией педагогического процесса, и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: цифровизация образования, педагогические цифровые платформы, высшее образование, цифровая трансформация, электронное обучение, цифровая педагогика.

На данный момент высшее образование находится в стадии активного внедрения цифровых технологий, что обусловлено требованиями информационного общества, глобализацией образовательных процессов и необходимостью формирования цифровых компетенций у выпускников. Цифровая трансформация образования затрагивает все аспекты деятельности вуза — от организации учебного процесса до научно-исследовательской и воспитательной работы.

Особое место в данном процессе занимают педагогические цифровые платформы, обеспечивающие взаимодействие между преподавателями и обучающимися, организацию учебных курсов, мониторинг образовательных достижений и формирование цифрового образовательного контента.

Развитие педагогических цифровых платформ является стратегическим направлением повышения эффективности образовательного процесса, индивидуализации обучения и модернизации традиционных методов преподавания. В этой связи исследование перспектив развития таких платформ приобретает особую актуальность.

Педагогические цифровые платформы представляют собой интегрированные информационно-образовательные системы, объединяющие учебно-методические материалы, средства коммуникации, инструменты контроля и аналитики. Они обеспечивают реализацию концепции цифрового

обучения (e-learning) и смешанного обучения (blended learning), что позволяет сочетать традиционные и инновационные педагогические технологии.

В высшем образовании цифровые платформы выполняют ряд ключевых функций:

- организацию учебного процесса и обеспечение доступа к образовательным ресурсам;
- автоматизацию контроля и оценки результатов обучения;
- поддержку индивидуальных образовательных траекторий студентов;
- развитие профессиональной и цифровой компетентности преподавателей;
- обеспечение взаимодействия между участниками образовательного процесса.

Примерами широко используемых педагогических цифровых платформ являются Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, OpenEdu, Coursera, а также отечественные системы, такие как Российская электронная школа, ЯКласс и Учи.ру. Многие вузы создают собственные корпоративные платформы, интегрирующие учебный процесс, научную деятельность и управление качеством образования.

В условиях цифровизации образовательной среды наблюдаются следующие тенденции развития педагогических цифровых платформ:

1. Интеграция искусственного интеллекта в образовательные процессы. Искусственный интеллект используется для адаптации контента под индивидуальные особенности студентов, автоматического анализа учебных достижений и прогнозирования результатов обучения.

2. Использование технологий больших данных (Big Data). Платформы всё активнее применяют инструменты аналитики данных для оценки эффективности образовательных программ, мониторинга вовлечённости студентов и оптимизации учебных курсов.

3. Развитие мобильного и смешанного обучения. Переход от статичных веб-платформ к мобильным приложениям и адаптивным интерфейсам обеспечивает доступность образования в любое время и в любом месте.

4. Интерактивизация образовательного процесса. Современные платформы внедряют технологии дополненной (AR) и виртуальной реальности (VR), симуляции и игровые элементы (gamification), способствующие повышению мотивации и вовлечённости студентов.

5. Формирование единого цифрового образовательного пространства. Вузы стремятся к созданию экосистем, объединяющих различные сервисы – от электронного документооборота до онлайн-библиотек и систем поддержки научной деятельности.

Эти направления отражают переход от традиционных электронных курсов к интеллектуальным цифровым платформам нового поколения, ориентированным на взаимодействие, аналитику и персонализацию обучения.

Перспективы развития педагогических цифровых платформ связаны с формированием интегрированных образовательных экосистем, которые обеспечивают непрерывное обучение на протяжении всей жизни человека. Такие экосистемы будут объединять образовательные, научные, административные и коммуникационные функции.

Важным направлением станет развитие международного сотрудничества в сфере цифрового образования, создание глобальных сетевых университетов и открытых платформ, объединяющих образовательные ресурсы разных стран.

Кроме того, ключевое значение приобретает разработка отечественных цифровых решений, что обеспечит технологическую независимость системы высшего образования и повысит её устойчивость к внешним вызовам.

Список литературы:

1. Z. Setsalieva. Methodology for Preparing Future Mathematics Teachers to Work with Modern Digital Applications // International Journal of European Research Output. – 2025. http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/1249

2. З.Сетсалиева. Применение современных цифровых приложений на уроках математики // Материалы научно-практической конференции “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy ta’lim-tarbiya: muammo va yechimllar” https://eyib.uz/index.php/EYIB

O‘QITUVCHINING O‘Z USTIDA ISHLASH DASTURINI TUZISH YO‘LLARI

Melikuziyeva Mavludaxon - QDU BT kafedrasi dotsenti v.b
Qodiraliyeva Oygul Azizjon qizi - 06/24-guruh talabasi
Botiraliyeva Shoxsanam Shuxratjon qizi - 06/24-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda o‘z ustida ishlashning ahamiyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturini tuzish bosqichlari, mazmuni hamda samarali amalga oshirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida innovatsion texnologiyalar, refleksiya va ijodkorlikning roli tahlil qilinadi. Maqolada ilg‘or tajribalarga tayangan holda o‘qituvchining shaxsiy rivojlanish rejasi namunasi va metodik tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, o‘z ustida ishlash, kasbiy rivojlanish, refleksiya, metodika, innovatsiya, dasturi

Bugungi globallashuv davrida ta’lim-tarbiya tizimining sifatini oshirishda o‘qituvchining kasbiy mahorati hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar, axborot vositalari, shuningdek, o‘quvchilarning ehtiyojlari va jamiyat talablarining o‘zgarib borishi o‘qituvchidan doimiy o‘sishni talab etadi. Shu bois, har bir o‘qituvchi o‘z ustida muntazam ishlashi, o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni takomillashtirish bo‘yicha shaxsiy dastur tuzishi zarur.

O‘z ustida ishlash – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil izlanish, o‘zini tahlil qilish va o‘z bilimini chuqurlashtirish jarayonidir. Bu jarayon quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Pedagogik bilim va ko‘nikmalarni yangilash;

Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;

O‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish;

O‘z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;

Metodik va ilmiy izlanish olib borish.

O‘z ustida ishlash — bu doimiy jarayon bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy o‘sishi va ta’lim sifati uchun asosiy omildir.

O‘qituvchining o‘z ustida ishlash dasturi - bu shaxsiy rivojlanish rejasidir. Uni tuzish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Tahlil va diagnostika

O‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Shu asosda rivojlanish maqsadlari belgilanadi.

2-bosqich. Maqsad va vazifalarni belgilash

O‘z ustida ishlashning aniq maqsadi (masalan, “ta’limda AKTdan samarali foydalanish” yoki “o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish”) tanlanadi.

3-bosqich. Reja tuzish

Dasturda quyidagi bandlar keltiriladi:

O‘rganiladigan mavzular va adabiyotlar ro‘yxati;

Amaliy faoliyat shakllari (tajriba almashish, seminar, trening, metod birlashma yig‘ilishlari va h.k.);

Nazorat va tahlil shakllari (refleksiya, o‘z faoliyatini tahlil qilish, kuzatish, so‘rovnoma).

4-bosqich. Amalga oshirish

Rejalashtirilgan ishlar muntazam amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilib boradi.

5-bosqich. Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish

Yil yakunida o‘qituvchi dastur asosida erishilgan natijalarni baholaydi, kelgusi yillarga yangi maqsadlar qo‘yadi.

O‘z ustida ishlash dasturining namunaviy tuzilmasi

1. Mavzu: O‘qituvchining o‘z ustida ishlash yo‘nalishi.

2. Maqsad: Kasbiy mahoratni oshirish, dars samaradorligini kuchaytirish.

3. Vazifalar:

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish;
O‘quvchilarning faolligini oshirish;
O‘z tajribasini tahlil qilish.

4. Rejalashtirilgan ish turlari: seminarlar, mahorat darslari, ilg‘or tajriba o‘rganish, metodik adabiyotlar bilan ishlash.

5. Kutilayotgan natijalar: o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalari kengayadi, o‘quv jarayonining sifati oshadi.

6. Monitoring va tahlil shakli: yil yakunida hisobot, taqdimot, refleksiya.

O‘z ustida ishlashda innovatsion yondashuvlar

Bugungi kunda o‘qituvchining o‘z ustida ishlashida quyidagi innovatsion usullar keng qo‘llanmoqda:

Onlayn kurslar va vebinarlar;

Professional tarmoqlar orqali tajriba almashish (masalan, Telegram, Google Classroom, Edmodo platformalari);

Refleksiya daftari yuritish;

O‘z darslarini video tahlil qilish.

Bunday yondashuvlar o‘qituvchiga o‘z ishini ob’ektiv baholash, yangiliklarni tez o‘zlashtirish va ijodiy yondashuvni kuchaytirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi – bu kasbiy o‘sishning uzluksiz yo‘lidir. O‘z ustida ishlash dasturi o‘qituvchining o‘ziga xos “yo‘l xaritasi” bo‘lib, uning ijodkor, yetuk, zamon talablariga javob beruvchi mutaxassisga aylanishiga xizmat qiladi. Shunday dasturlarni puxta tuzish va tizimli amalga oshirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari.

2. Xodjayev A., “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – Toshkent: TDPU, 2021.

3. Abduqodirov A.A., “Kasbiy kompetensiya va o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi”. – Toshkent, 2020.

4. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti.

5. Murodova D., “Zamonaviy ta’limda o‘qituvchining innovatsion faoliyati”. – Ilmiy maqolalar to‘plami, 2022.

O‘QUVCHILAR MA’NAVIY KAMOLOTIDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Melikuziyeva Mavludaxon - QDU BT kafedrasi dotsenti v.b
Alijonova Hidoyatxon Zoxidjon qizi - 08/24 guruh talabasi
Fatxitdinova Odina Gayratovna - 08/24 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalq pedagogikasining ma’naviy tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, uni o‘quvchilar ma’naviy kamolotiga yo‘naltirishdagi samarali usullar tahlil qilinadi. Maqolada xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, qadriyatlar, milliy an’analar asosida yosh avlodda axloqiy, estetik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, xalq pedagogikasi vositalarini zamonaviy ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirishning amaliy shakllari haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xalq pedagogikasi, ma’naviy kamolot, tarbiya, qadriyatlar, urf-odatlar, milliy an’analar, o‘quvchi shaxsi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda xalq pedagogikasining o‘rni beqiyosdir. Chunki xalq pedagogikasi — asrlar davomida shakllangan, millatning ma’naviy boyligi, axloqiy me’yorlari va hayotiy tajribasini o‘zida mujassam etgan tarbiya tizimidir.

O‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minlashda xalq og‘zaki ijodi, udumlar, an’analar, milliy qadriyatlar asosida ish yuritish ularning shaxsiy rivojlanishiga, axloqiy va estetik dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Xalq pedagogikasi - xalqning tarbiyaga oid qarashlari, tajribalari, qadriyatlari va udumlarini o‘z ichiga olgan bebaho merosdir. U xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odatlari, diniy va axloqiy qarashlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Ma’naviy kamolot deganda, shaxsning ichki dunyosi, e’tiqodi, axloqi, estetik hissi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi kabi sifatlarning shakllanishi tushuniladi. Xalq pedagogikasida bu fazilatlar maqol, matal, ertak, afsona, qo‘shiq, rivoyat va marosimlar orqali tarbiyalanadi.

Xalq og‘zaki ijodi — o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Ertaklar — ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurashni ko‘rsatib, bolalarga halollik, jasorat, adolat kabi fazilatlarni singdiradi.

Maqollar va matallar — hayotiy tajriba asosida qisqa, ammo chuqur ma’noga ega hikmatlar bo‘lib, o‘quvchilarga fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

Topishmoqlar va qo‘shiqlar — tafakkurni rivojlantirish bilan birga, estetik did va milliy ruhni mustahkamlaydi.

3. Milliy an’analar va qadriyatlarning ma’naviy tarbiyadagi roli

O‘zbek xalqining boy an’anaviy marosimlari — Navro‘z, Hayit, “Hashar”, “Mehr-oqibat” tadbirlari, oila marosimlari (to‘y, sunnat, beshik to‘yi va boshqalar) yosh avlodda jamoaviylik, mehr-oqibat, hurmat, insonparvarlik fazilatlarini shakllantiradi.

O‘quvchilar bu an’analar bilan tanishar ekan, milliy o‘zligini anglaydi, ajdodlar merosiga hurmat ruhida voyaga yetadi.

Xalq pedagogikasidan foydalanish nafaqat darslarda, balki sinfdan tashqari ishlar, tarbiyaviy soat, to‘garaklar va tadbirlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Quyidagi yo‘llar samarali hisoblanadi:

Dars jarayonida xalq og‘zaki ijodidan namunalar keltirish, ularni tahlil qilish.

Milliy qadriyatlar asosida mavzuli kechalar, rolli o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari tashkil etish.

Mahalla, ota-onalar bilan hamkorlikda xalq urf-odatlari asosida tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazish.

Maktab muhitida milliy ruhni aks ettiruvchi burchaklar, ko‘rgazmalar tashkil etish.

Bugungi ta’lim tizimi zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Shu jarayonda xalq pedagogikasining g‘oyalarini zamonaviy ta’lim metodikasi bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.Masalan, interfaol darslarda maqollar asosida “Fikrlar bahsi”, “Hikmatdan saboq” kabi musobaqalar tashkil etish, milliy qadriyatlar asosida “Ma’naviyat soati” loyihalarini yo‘lga qo‘yish mumkin.

Xulosa sifatida aytganda xalq pedagogikasi — o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minlashda beqiyos manba bo‘lib, u o‘zida milliy o‘zlik, axloqiy poklik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni mujassam etadi. Uni zamonaviy ta’lim jarayoniga samarali joriy etish yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida xalq pedagogikasining boy tajribasidan ijodkorlik bilan foydalanishi, uni zamonaviy talablarga mos holda talabalarga yetkazishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq pedagogikasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.

2. Abdullayeva M. Ma’naviyat va tarbiya jarayonida xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2016.

3. Raxmatov B. Zamonaviy ta’limda milliy qadriyatlarning ahamiyati. – Toshkent, 2020.

BULGUSI BOSHLANGICH SINF UQITUVCHILARINING RAQAMLI PEDAGOGIK KOPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Zulxumor Muratova Jamolovna
Qo’qon davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni, pedagogik jarayon transformatsiyasining metodologik asoslari, raqamli muhitning didaktik imkoniyatlari, AKTning ta’lim samaradorligi va o‘quvchi/ talabaning kognitiv rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri, shuningdek, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida belgilangan raqamli ta’lim konsepsiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur va tizimli tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim, ta’lim analitikasi, o‘quv raqamli kompetensiyasi, adaptiv o‘qitish, raqamli transformatsiya,

Raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi pedagogik muhit – raqamli platformalar, ta’lim analitikasi, big data, sun’iy intellekt, multimodal ta’lim, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, elektron resurslar, onlayn kurslar, adaptiv o‘qitish tizimlari orqali talabalarning bilish faoliyatini kuchaytirish, o‘zlashtirish sur’atlarini moslashtirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Shu ma'noda, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning strategik omili sifatida namoyon bo‘ladi, chunki raqamli pedagogika o‘quvchining kognitiv faolligini oshirish, reproduktiv emas, balki konstruktiv bilim shakllarini yaratish, bilimni amaliyotga yo‘naltirish, shaxsning mustaqil fikrlashi, refleksiyasi, analitik va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lib, u chuqur ilmiy asoslashni, metodologik yondashuvlarni, didaktik tamoyillarni qayta ko‘rib chiqishni, yangi turdagi o‘qituvchi kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi. Masalan, sun’iy intellekt asosida adaptiv ta’lim modellarini joriy etish o‘quvchining o‘zlashtirish trayektoriyasini aniqlash, uning kognitiv darajasini monitoring qilish, ta’lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi; ta’lim analitikasi esa o‘quv jarayonining samaradorligini raqamli ma’lumotlar orqali baholash, o‘quv rejalari va metodlarini qayta tuzish imkonini yaratadi; masofaviy ta’lim va gibrid ta’lim esa ta’limning inklyuzivlik darajasini oshiradi, geografik cheklovlarni yo‘qotadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar milliy ta’lim tizimining ochiqligi va shaffofligini ta’minlab, boshqaruv jarayonlarida ham sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi, chunki raqamli boshqaruv tizimlari ta’lim muassasalarining faoliyatini nazorat qilish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar faoliyati monitoringi, baholash tizimining adolatli boshqaruvi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim tizimida “inson – texnologiya – bilim” triadasi asosida yangi o‘quv paradigmasi shakllanadi, bunda o‘quvchi endilikda passiv bilim oluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi, o‘z o‘quv trayektoriyasini boshqaruvchi sub’ekt sifatida qaraladi. Shu boisdan raqamli texnologiyalarni o‘rganish nafaqat texnik yoki tashkiliy masala, balki chuqur falsafiy-pedagogik muammo sifatida ham talqin etiladi.

Dialektik metod ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar bilan an’anaviy didaktika o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshilik va o‘zaro uyg‘unlashuvni aniqlash, raqamli pedagogika shakllanishining ichki ziddiyatlari, rivojlanish bosqichlari, ta’lim jarayonining dinamik xarakterini ilmiy izohlash imkonini beruvchi asosiy metod sifatida tanlandi; tizimli yondashuv esa ta’limning mazmuni, shakli, metodlari, baholash mezonlari, pedagogik boshqaruv, o‘quvchi faoliyati, o‘qituvchi kompetensiyasi va texnologik infratuzilma kabi ko‘plab tarkibiy qismlarning yagona raqamli ekotizim doirasida o‘zaro ta’sirini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotning komparativ metodi orqali Finlyandiya, Janubiy Koreya, Estoniya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlar raqamli ta’lim siyosatining metodologik asoslari O‘zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlil qilindi, bunda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish modeli, sun’iy intellekt asosida o‘qitish, milliy raqamli platformalar, o‘quv tahliliy tizimlari, adaptiv o‘qitish algoritmlari, multimodal ta’lim kognitiv mexanizmlari bilan bog‘liq tajribalar chuqur tahlil etildi. Pedagogik eksperiment elementi sifatida ayrim ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish samaradorligi, masofaviy ta’lim platformalarining o‘quvchi faoliyatiga ta’siri, virtual laboratoriyalarning o‘zlashtirish sur’atiga ko‘rsatgan ta’siri monitoring qilindi; ushbu jarayon empirik kuzatishlar, o‘quvchilar faoliyat statistikasi, platformalardagi ta’lim analitikasi ma’lumotlari orqali boyitildi. Tadqiqot doirasida kontent tahlil metodi yordamida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosati, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, xalqaro tashkilotlar – YuNESKO, OECD, UNICEF kabi tuzilmalarning raqamli ta’lim bo‘yicha metodik tavsiyalari, ilmiy maqolalar, monografiyalar, ta’lim texnologiyalari bo‘yicha global tendensiyalar aks ettirilgan ilmiy manbalar tahlil qilindi. Shu bilan birga, kognitiv psixologiya metodologiyasi yordamida raqamli texnologiyalarning o‘quvchi tafakkuriga, kognitiv yuklanish darajasiga, vizual-idrokiy jarayonlarga, diqqatni boshqarish, ishlash xotirasi, motivatsiya tizimi va refleksiya jarayonlariga ta’siri baholandi; bu esa raqamli ta’limning psixo-pedagogik asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Yuqoridagi ilmiy natijalari umumlashtirilganda, raqamli texnologiyalar O‘zbekiston ta’lim tizimining zamonaviy bosqichda sifat jihatdan yangilanishi, inson kapitalining intellektual salohiyatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining strategik omili sifatida namoyon bo‘layotgani yaqqol ko‘rinadi; ta’lim jarayonining mazmuniy, metodik, tashkiliy, boshqaruv va baholash elementlarini tubdan o‘zgartirayotgan raqamli transformatsiya nafaqat ta’limning tashkiliy shaklini modernizatsiya qilmoqda, balki pedagogik paradigma, bilimning epistemologik tuzilishi, o‘quvchi faoliyatining kognitiv xarakteri, o‘qituvchi kasbiy rolini ham yangi sifat bosqichiga ko‘tarmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida o‘quv jarayonining individuallashtirilishi, adaptiv o‘qitish mexanizmlarining rivojlanishi, sun’iy intellekt asosida teskari aloqaning kuchayishi, ta’lim analitikasi orqali o‘quvchi faoliyati monitoringining obyektivlashuvi, multimodal kontent yordamida bilish jarayonining faollashuvi, motivatsiyaning

kuchayishi, kreativ va analitik tafakkurning shakllanishi kabi bir qator pedagogik ustuvorliklarni ta’minlamoqda. Raqamli texnologiyalar orqali o‘quv materiallarning differensiallashtirilishi, o‘quvchining kognitiv imkoniyatlari va o‘rganish uslubiga moslashtirilgan kontent yaratish, o‘zlashtirishdagi individual farqlarni aniqlash imkoniyati ta’lim sifati va adolatini sezilarli oshirmoqda; bu esa ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modelining amaliyotda ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish algoritmlarining qo‘llanilishi bilim bo‘shliqlarini bartaraf etish tezligini oshirgan, o‘qituvchining diagnostika funksiyasini yengillashtirgan, baholash tizimining obyektivligini kuchaytirgan; shu bilan birga, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, onlayn platformalar, mashg‘ulotlarning multimodal shakllari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini, tajriba o‘tkazish madaniyatini, analitik fikrlash jarayonini sezilarli darajada rivojlantirgan. Raqamli texnologiyalar samaradorligining yana bir muhim jihati shundaki, ular ta’lim boshqaruvini markazlashtirilgan raqamli tizim asosida optimallashtiradi, byurokratik jarayonlarni qisqartiradi, ta’lim muassasalarining samaradorlik indeksini oshiradi, ta’limni boshqarishda shaffoflik va ochiqlikni ta’minlaydi; bunday boshqaruv mexanizmlari raqamli nazorat tizimlari, o‘quvchi faoliyatini raqamli monitoring qilish, raqamli portfoliolarni yuritish kabi vositalar orqali yanada kuchayadi. Biroq raqamli transformatsiya samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning raqamli pedagogika bo‘yicha tayyorgarligi, kasbiy kompetensiyalarining yangilanish darajasi va metodik savodxonligi bilan bevosita bog‘liq; tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish uchun o‘qituvchidan raqamli pedagogik dizayn, vizual kontent yaratish, sun’iy intellekt bilan ishlash, ta’lim analitikasi ma’lumotlarini talqin qilish, o‘quvchi faoliyatining raqamli izlarini tahlil qilish kabi murakkab kompetensiyalarni talab qiladi. Shu boisdan, O‘zbekistonda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini ra

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.

2. Fullan M., Langworthy M. A Rich Seam: How New Pedagogies Find Deep Learning. Pearson, 2014.

3. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver, 2019.

4. Mayer R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2020.

5. Laurillard D. Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge, 2012.

6. Qodirov A. Raqamli ta’limning metodologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.

7. Jo‘rayeva Z. Masofaviy ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi // Pedagogika fanlari jurnali, 2022.

8. Karimov E. Sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.
9. Bekmuratov O. Pedagogik innovatsiyalar va AKT. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
10.Nosirova G. O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish // Oliy ta’lim muammolari, 2021.

LEKSIKAGA OID BILIMLARNI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SHAKLLANTIRISH USULLARI.

Nizomiddinova Dildora Nosirovna
QDU boshlang‘ich ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti
Bakirova Sarvinoz Bahromjon qizi
QDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda leksikaga oid bilimlarni shakllantirish usullari o‘rganiladi. Leksik bilimlarning o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ro‘li, samarali usullar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Dars jarayonida didaktik o‘yinlar, matn bilan ishlash, interaktiv metodlar va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tezisda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so’z : bilim, ko’nikma , leksika , lug’at , so’z boyligi , yosh , psixalogik xususiyat.

Аннотация: В данной дипломной работе исследуются методы формирования лексических знаний в начальных классах. Анализируется роль лексических знаний в развитии языковых навыков учащихся, эффективные методы и современные педагогические технологии. В ходе урока рассматриваются возможности использования дидактических игр, работы с текстом, интерактивных методов и мультимедийных средств. В дипломной работе подчеркивается важность учета возрастных особенностей учащихся.

Ключевое слово: знания , умения , лексика , лексика , словарный запас, возраст, психологическая характеристика.

Annotation : In this thesis, methods for the formation of lexical knowledge are studied in the elementary grades. The role of lexical knowledge in the development of language skills of students, effective methods and modern pedagogical technologies are analyzed. In the course of the lesson, the possibilities of didactic games, work with text, interactive methods and the use of multimedia tools are considered. The thesis emphasizes the importance of taking into account the age characteristics of students.

Keyword: knowledge , skills , lexicon , vocabulary , age , psychalogical trait.

Kirish

XXI asr texnologiya asri bo‘lib, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga salbiy ta‘sir etadigan, ularning ma‘naviy dunyoqarashini pasaytiradigan dasturlar soni ortib bormoqda. Kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni ham ma‘nan, ham jismonan sog‘lom, ajdodlarimizga munosib qilib tarbiyalash ta‘lim tizimi oldida turgan muhim masaladir. Leksik bilimlar boshlang‘ich ta’limda til o‘rganishning muhim qismi hisoblanadi. So‘z boyligini kengaytirish o‘quvchilarning nutq madaniyatini, yozma va og‘zaki nutqini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim jarayonida leksikaga oid bilimlarni samarali shakllantirish uchun yangi pedagogik usullar va texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Mazkur tezisda boshlang‘ich sinflarda leksik bilimlarni shakllantirishning samarali usullari, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan metodlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Boshlang‘ich sinflarda leksik bilimlarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: so‘zlarning ma’nosini tushuntirish va kontekstda qo‘llash, sinonimlar va antonimlar bilan ishlash, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘rganish, frazeologik birikmalarni kiritish va yangi so‘zlarni yaratishga rag‘batlantirish. Amaliyotda didaktik o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, “To‘g‘ri so‘zni top”, “Sinonimini ayt”, “Ortig‘ini top” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. Matn ustida ishlash usuli orqali o‘quvchilar notanish so‘zlarni topib, ularning ma’nosini o‘rganadilar va yangi gaplarda qo‘llaydilar. Tasviriy vositalar — rasm, slayd va videoroliklar — so‘zlarning ma’nosini tushunishda ko‘maklashadi. Interaktiv metodlar, jumladan jamoaviy ish va rolli o‘yinlar, o‘quvchilarni faol fikrlashga jalb qiladi va leksik bilimlarni mustahkamlashda yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, elektron lug‘atlar, multimedia darsliklar va interaktiv platformalar yordamida darslarning samaradorligini oshirish mumkin. QR-kodlar orqali lug‘at ishlari yoki o‘yinlarga yo‘naltirish kabi innovatsiyalar ham qo‘llaniladi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Leksik topshiriqlarni bolalar dunyoqarashiga moslab berish, o‘yin orqali o‘rgatish motivatsiyani oshiradi va bilimni mustahkamlaydi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinflarda leksikaga oid bilimlarni shakllantirish til o‘rganish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar, matn bilan ishlash, tasviriy va interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali leksik bilimlarni samarali shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofurov N., Qodirova M., To‘xtayeva M. **Ona tili o‘qitish metodikasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 240 b.

2. Karimov B. **Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.** – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 312 b.

3. Ahmedova N. **Leksik bilimlarni o‘rgatishning metodik asoslari.** // Boshlang‘ich ta’lim, 2022, №3. – B. 45–49.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. **Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari (1–4-sinflar).** – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019–2023.

5. Rahmonov A. **Zamonaviy ta’lim texnologiyalari.** – Toshkent: Fan, 2020. – 198 b.

6. Abduqodirov A. **Til o‘rganishda leksik kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari.** – Toshkent: Ilm ziyo, 2019. – 140-bet

INDIVIDUAL MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Nizomiddinova Dildora Nosirovna
QDU boshlang‘ich ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti
Bahodirova Muxlisa Mannobjon qizi
QDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Hikmatullayeva Marhabo Adhamjon qizi
QDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur ilmiy tezis boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual kognitiv va psixologik moslashuvchanligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini yoritadi. Tadqiqotda shaxsning individual rivojlanish xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi moslashuvchan strategiyalar va interfaol metodlar tizimining ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Tajriba-sinov ishlari natijasida ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilarning kognitiv jarayonlarini faollashtirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va psixologik barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, individual moslashuvchanlik, kognitiv jarayonlar, interfaol metodlar, psixologik moslashuv, innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Аннотация: данный научный тезис освещает теоретико-методические основы развити индивидуальной когнитивной и психологической адаптивности учащихся начальных классов. В исследовании анализируются особенности индивидуального развития личности, научные основы системы адаптивных стратегий и интерактивных методов в учебной деятельности. Методика, разработанная в результате экспериментальной работы, способствует активизации когнитивных процессов учащихся, повышению учебной мотивации и развитию психологической устойчивости. Результаты исследования послужат эффективному внедрению личностно-ориентированного образовательного подхода в начальном образовании.

Ключевые слова: начальное образование, индивидуальная адаптация, когнитивные процессы, интерактивные методы, психологическая адаптация, инновационные образовательные технологии.

Abstract: this scientific thesis illuminates the theoretical and methodological foundations of the development of individual cognitive and psychological adaptability of primary school students. The study analyzes the features of individual personality development, adaptive strategies in educational activity, and the scientific foundations of the system of interactive methods. The methodology developed as a result of the experimental work contributes to the activation of students' cognitive

processes, increasing learning motivation, and developing psychological stability. The research results will serve the effective implementation of a personality-oriented educational approach in primary education.

Keywords: primary education, individual adaptability, cognitive processes, interactive methods, psychological adaptation, innovative educational technologies.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun moslashuvchanlik – bu yangi o‘quv muhitiga, dars jarayonidagi o‘zgarishlarga, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarga tez moslasha olish qobiliyatidir[11]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori Vazirlar mahkamasining “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 132-son qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida Respublikaning chekka hududlaridagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni jadallashtirish, sog‘lom, faol, barkamol, ijtimoiy moslashtirilgan bolalarni tarbiyalash, kelgusida muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni boshlang‘ich ta’limga sifatli tayyorlash rejalari berib o‘tildi[12]. Shu boisdan, ularning kognitiv va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchining metodik tayyorgarligi hamda ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligini taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual moslashuvchanligi ularning kognitiv rivojlanish darajasi, motivatsion holati va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o’qitish omillari ichida o’quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o’rinda turar ekan, ya’ni ta’lim samaradorligi 92% o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog‘liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo‘lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e’tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o‘rganish, to‘g‘ri qo‘llash va uni to‘g‘ri yo‘naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi.

Moslashuvchanlik — bu o‘quvchi tomonidan yangi o‘quv topshiriqlari, ijtimoiy vaziyatlar va hissiy bosimlarga nisbatan konstruktiv javob bera olish qobiliyatidir[13]. Moslashuvchanlikka birinchi ehtiyoj tug‘ilgandan so‘ng, bola onadan biologik mustaqil bo‘lganida paydo bo‘ladi. Jarayon uch darajani o‘z ichiga oladi- biologik, psixologik, ijtimoiy.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga asoslangan

[11] Jo‘raeva M. "Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning psixologik moslashuvi." – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. https://tdpu.uz/library/psixologik-moslashuv
[12] https://lex.uz//
[13] Abdullayev A. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv rivojlanishi." – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. https://samdu.uz/articles/kognitiv-rivojlanish

interfaol metodlardan foydalanishi lozim. Bular jumlasiga muammoli vaziyatli topshiriqlar, reflektiv suhbatlar, o‘yin texnologiyalari va kreativ fikrlash mashqlari kiradi[14]. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish ularning kognitiv faolligini oshiradi. Masalan, differensial yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar, guruhli ishlarda rollarni taqsimlash, o‘quv materiallarini moslashtirilgan shaklda taqdim etish — moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning individual moslashuvchanligi rivojlanishi ularning o‘z-o‘zini nazorat qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yechim topish ko‘nikmalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa boshlang‘ich sinfda o‘quv faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi.

Tavsiya va takliflar:

1. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar yaratishda kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tizimini kiritish.
2. Boshlang‘ich ta’lim dasturlarida individual rivojlanish monitoringini joriy etish.
3. O‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy moslashuvini o‘lchovchi psixologik diagnostika vositalarini ishlab chiqish.
4. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni individual o‘quv strategiyalari bilan integratsiya qilish.
5. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida kognitiv moslashuvchanlikni o‘rgatuvchi treninglar tashkil etish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual moslashuvchanligini rivojlantirish metodikasi zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning moslashuvchanligi faqat bilim darajasi bilan emas, balki ularning kognitiv, hissiy va ijtimoiy holatlari bilan ham belgilanadi. Shu bois, ta’lim jarayonini tashkil etishda individual yondashuv, innovatsion metodlar va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish strategiyalarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

12. Jo‘raeva M. ”Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning psixologik moslashuvi” – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. https://tdpu.uz/library/psixologik-moslashuv

13. Karimova D. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim: nazariya va amaliyot” – T.: Fan va texnologiya, 2022. https://uzedu.uz/articles/individual-ta’lim

14. Abdullayev A. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv rivojlanishi”– Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. https://samdu.uz/articles/kognitiv-rivojlanish

[14] Norqobilova N. "Interfaol metodlar yordamida moslashuvchanlikni rivojlantirish." – Farg‘ona: FarDU ilmiy to‘plami, 2023. https://fdu.uz/articles/interfaol-metodlar

15. Norqobilova N. “Interfaol metodlar yordamida moslashuvchanlikni rivojlantirish” – Farg‘ona: FarDU ilmiy to‘plami, 2023. https://fdu.uz/articles/interfaol-metodlar

16. Usmonova M. “Differensial yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish” – T.: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2024. https://nuu.uz/science/differensial-ta’lim

17. Qodirov B. “Moslashuvchan ta’lim tizimining psixologik asoslari” – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021. https://buxdu.uz/library/moslashuvchan-tizim

VARK MODELI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA BOLALARNI FANLARGA QIZIQTIRISH

Nizomiddinova Dildora Nosirovna
QDU boshlang‘ich ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti
Mo‘ydinova Zulayho Nuriddin qizi
QDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishda VARK modeli asosida ta’limni tashkil etishning samaradorligi tahlil qilinadi. Modelning har bir komponenti — Visual, Auditory, Reading/Writing va Kinesthetic — o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublarini inobatga olib, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, VARK modeli, o‘quvchi faolligi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, motivatsiya.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining faolligini oshirish, uning bilimga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon yanada muhimdir, chunki aynan shu davrda bola bilim olish, o‘rganish, fikrlash, kuzatish kabi psixologik ko‘nikmalarni rivojlantira boshlaydi.

VARK modeli o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘ziga xos o‘rganish usullarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu modelga ko‘ra, o‘quvchilar bilimni ko‘rish, eshitish, yozish/o‘qish va harakat orqali o‘zlashtiradilar. Boshlang‘ich ta’limda bu modeldan foydalanish nafaqat bilim sifati, balki o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan ichki motivatsiyasini ham oshiradi.

VARK modelining nazariy asoslari. VARK modeli 1987-yilda Neil Fleming tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘rganish uslublarini to‘rtta asosiy toifaga ajratadi: Visual (ko‘rish orqali o‘rganish), Auditory (eshitish orqali o‘rganish), Reading/Writing (yozish va o‘qish orqali o‘rganish) hamda Kinesthetic (harakat va tajriba orqali o‘rganish). Ushbu yondashuv o‘quvchining axborotni qabul

qilish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini individual tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchi bu model yordamida dars jarayonini har xil o‘quvchilar uchun moslashtiradi, bu esa o‘z navbatida darsning samaradorligini oshiradi.

VARK modelining komponentlarini amaliyotda qo‘llash. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning har biri turli o‘rganish uslubiga ega bo‘ladi. Shu sababli, o‘qituvchi darsni tashkil etishda quyidagi yondashuvlardan foydalanishi maqsadga muvofiq:

- Visual o‘quvchilar uchun: rangli rasmlar, diagrammalar, jadvallar, videodarslar;
- Auditory o‘quvchilar uchun: suhbat, hikoya qilish, audiomateriallar, qo‘shiqlar;
- Reading/Writing o‘quvchilar uchun: matn bilan ishlash, yozma topshiriqlar, konspekt tayyorlash;
- Kinesthetic o‘quvchilar uchun: tajriba o‘tkazish, rolli o‘yinlar, loyihaviy faoliyat.

Masalan, 'Atrofimizdagi olam' fanida 'Hayvonlar olami' mavzusini o‘tishda o‘qituvchi turli o‘rganish uslublariga mos mashg‘ulotlarni tashkil qilishi mumkin: hayvonlar rasmlarini ko‘rsatish (visual), ularning tovushlarini tinglash (auditory), hayvonlar haqidagi matnni o‘qish (reading/writing), va rolli o‘yinlar orqali ularni jonlantirish (kinesthetic). Bu turdagi yondashuv darsni jonli, interaktiv va qiziqarli qiladi.

VARK modelining afzalliklari va natijalari. VARK modelining asosiy afzalligi shundaki, u o‘quvchilarni o‘ziga xos usulda o‘rganishga rag‘batlantiradi. Dars jarayonida turli uslublarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning diqqatini jamlash, materialni chuqurroq tushunish va uzoq vaqt eslab qolishga yordam beradi. Shuningdek, bu model o‘qituvchiga darsni shaxsga yo‘naltirilgan tarzda olib borish imkonini beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, VARK modeli asosida o‘tilgan darslarda o‘quvchilarning fanlarga qiziqishi 35–40% ga oshadi.

Boshlang‘ich ta’limda VARK modelini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari. VARK modelini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi bir necha shartlarni inobatga olishi zarur: 1) o‘quvchilarning o‘rganish uslubini aniqlash uchun maxsus so‘rovnomalar o‘tkazish; 2) har bir darsda kamida ikki xil o‘rganish uslubiga mos topshiriqlar kiritish; 3) interaktiv texnologiyalar, video, audio va tajribaviy mashg‘ulotlardan foydalanish; 4) o‘quvchilarni baholashda ularning o‘rganish turiga mos yondashuvni tanlash.

Xulosa qilib aytganda, VARK modeli boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni fanlarga qiziqtirish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Har bir bola o‘zining o‘rganish uslubiga ega ekanligini anglab yetish o‘qituvchi uchun katta yengillik yaratadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning bunday zamonaviy modeli bolalarda mustaqillik, ijodkorlik va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar
1. Fleming N., Mills C. (1992). Not Another Inventory, Rather a Catalyst for Reflection. To Improve the Academy.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Karimova D. (2023). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish yo‘llari. – Toshkent.
4. Xayitova G. (2021). Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari va ularning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni. – Pedagogika jurnali, №4.
5. Mahmudov A. (2020). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan nashriyoti.

BOLALAR ADABIYOTI VA XALQ ERTAKLARINING BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Nizomiddinova Dildora Nosirovna
QDU boshlang‘ich ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti
Xoshimova Zilolaxon Nizomiddin qizi
QDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
G‘ofurjonova Hidoyatxon Alijon qizi
QDU boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyoti, xususan o‘zbek va ingliz xalq og‘zaki ijodining yorqin namunalaridan biri bo‘lgan xalq ertaklarining yosh avlod tarbiyasidagi muhim o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация Аннотация: В данной статье рассматривается детская литература, в частности, важная роль народных сказок — одного из ярких примеров устного народного творчества узбекского и английского народов — в воспитании подрастающего поколения.

Annotation: This article discusses children's literature, focusing on the important role of folk tales — a vivid example of the oral traditions of Uzbek and English peoples — in the upbringing of the young generation.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ertak, syujet, estetik did, folklore, alla, qo‘shiq, xalq og‘zaki ijodi, realizm, doston, rivoyat, afsona, maqol, matal,kitob.

Ключевые слова: воспитание, сказка, сюжет, эстетический вкус, фольклор, колыбельная, песня, народное устное творчество, реализм, дастан, предание, легенда, пословица, поговорка, книга.

Key words: education, fairy tale, plot, aesthetic taste, folklore, lullaby, song, oral folk art, realism, dastan (epic), legend, myth, proverb, saying, book.

Bolalar adabiyoti so‘z san’ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos,

kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e’tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm-fanga muhabbatini oshiradi.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir, undan bolalar adabiyotida syujetga bo‘lgan talab ham kelib chiqadi[1] .

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham, insoniyat alla, qo‘shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham g‘oyatda e’tiborlidir. Bolalar folklori ko‘pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba’zi hollarda bolalar o‘z o‘yinchoqlari asosida o‘zlari ham alla, qo‘shiq va ovutmachoqlar to‘qiydilar. Bularning hammasi bir bo‘lib faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qiladi . [2]

Bolalar adabiyoti –bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqi bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o’yin qo’shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo’ljallab yaratilgan og’zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo’ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo’ljallanmagan bo’lsa-da, keyinchalik bolalar adabiyotiga o’tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.

Ertak –xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida *etuk* shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda *ushuk*, Xorazmda *varsaqi*, Toshkent shahri va uning atrofida *cho‘pchak* deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib va g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta’minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta’limiy-estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi.

Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig‘ida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra, ertakni 2 guruhga –xayoliy uydirmalar asos bo‘lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklarga bo‘lish mumkin[4]. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo‘jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak syujeti esa hayotiy tarzda bo‘lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o‘zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo‘lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g‘ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Ertaklar qadim zamonlardan beri og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib, saqlanib kelayotgan xalq og‘zaki ijodiga xos keng tarqalgan janrlardan biridir. Ertaklar bolalar folkloristikasining alohida janri sanalib, o‘ziga xos qator xususiyatlari bilan boshqa janrlardan farqlanadi. Shu bilan birga, turli xalqlarga xos ertaklar ham o‘z xususiyatlariga ko‘ra farqlanishi mumkin[5].

Tilshunoslar T.Kuznetsova va O.Orlovalar XX asr birinchi yarmi AQShda yaratilgan ertaklarni tahlil qilar ekanlar, fantaziya va realizmning o‘zaro uyg‘unligi ko‘plab AQSh yozuvchilari uchun xos ekanligini, bunda haqiqiy hayot va sehrli olam o‘zaro birlashishi, va bu xususiyat ko‘proq o‘smirlar adabiyotiga xos ekanini qayd etishadi. Shuningdek, mualliflar Yevropa, xususan, Buyuk Britaniya folkloriga asoslangan Yevropa adabiyotida ertaklarning fantaziya asosiga qurilishi, ularda realizm ko‘zga tashlanmasligini ham qayd etib, shu orqali Yevropa va AQSh ertaklarini o‘zaro farqlaydilar[3].

Bolalar adabiyoti yosh avlodni ma’naviy yetuk, vatanparvar, bilimdon va ezgulik tarafdori bo‘lib kamol topishida muhim tarbiya vositasidir. U bolaning dunyoqarashi, tafakkuri va estetik didini shakllantiradi. Ayniqsa, bolalar adabiyotining harakatga boyligi, qiziqarli syujetlarga ega bo‘lishi ularni kitob o‘qishga, o‘rganishga undaydi. Xalq og‘zaki ijodi, xususan, ertaklar bolalar adabiyotining ajralmas qismidir. Ertaklar orqali bolalarga ezgulik, adolat, jasorat, aql-idrok kabi ijobiy fazilatlar singdiriladi. Uydirma va xayolot asosidagi syujetlar bolalar tasavvurini boyitadi, ularni katta orzular sari ilhomlantiradi.

Adabiyotlar

1. Элмуратова Н.Х. Болалар бадиий адабиётининг ривожланиши// https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-badiiy-adabiyotining-rivozhlanishi
2. Jumaboyev M. O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti. –Toshkent, 2002.

3. Kuznetsova T., Orlova O. Us fairytales of the first half of the 20th century: constructing the national (stylistic and plot peculiarities)//УДК 821.111(73)-343.4. DOI 10.26170/FK20-03-14. ББК Ш383(7Сое)-45. ГРНТИ 17.07.31. Код ВАК 10.01.03
4. Propp, Vladimir. Morphology of the Folktale. 1927. Ed. Louis A. Wagner. Austin: University of Texas Press, 1968. Print.
5. https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bolalar-adabiyoti-uz/

TOPISHMOQLARNI O‘QITISHDA O‘YINLI METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Qalandarov Shuxratjon Shokirjonovich
QDU boshlang‘ich ta’lim fakulteti Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,Dotsent
Rustamova Madinaxon Saydullo qizi
QDU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 18/24-guruh talabasi
sohobjonovamadina@gmail.com. +99897 2151880
Olimova Hilolaxon Jamoldinovna
Bag‘dod tumani 49-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq topishmoqlarini o‘qitish jarayonida o‘yinli metodlardan foydalanishning o‘quvchilarning tafakkurini, og‘zaki nutqini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. O‘yinli metodlarning turlari — didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, interaktiv platformalardagi o‘yinlar (Kahoot, Quizizz va boshqalar) orqali topishmoqlarni o‘rganish tajribalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada o‘yinli yondashuvlarning pedagogik samaradorligi, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishdagi roli asoslab beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируется значение использования игровых методов в процессе обучения народным загадкам для развития мышления, устной речи и творческих способностей учащихся. Освещаются виды игровых методов — дидактические игры, ролевые игры, а также игры на интерактивных платформах (Kahoot, Quizizz и др.) при изучении загадок. Кроме того, в статье обосновывается педагогическая эффективность игровых подходов и их роль в повышении мотивации учащихся к учебной деятельности.

Annotation: This article analyzes the importance of using game-based methods in teaching folk riddles to develop students’ thinking, oral speech, and creative abilities. It highlights various types of game-based methods — didactic games, role-playing games, and interactive platform games (such as Kahoot, Quizizz, etc.) used in learning riddles. The article also substantiates the pedagogical effectiveness of game-

based approaches and their role in increasing students’ motivation toward learning activities.

Kalit so‘zlar: xalq topishmoqlari, o‘yinli metod, didaktik o‘yin, rolli o‘yin, interaktiv texnologiya, tafakkur, ijodkorlik, og‘zaki nutq, samaradorlik, boshlang‘ich ta’lim.

Ключевые слова: народные загадки, игровые методы, дидактическая игра, ролевая игра, интерактивные технологии, мышление, креативность (творчество), устная речь, эффективность, начальное образование.

Key words: folk riddles, game-based methods, didactic game, role-playing game, interactive technology, thinking, creativity, oral speech, effectiveness, primary education.

Kirish. Hozirgi davr ta’lim jarayoni o‘quvchining mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash va ijodiy yondasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu maqsadga erishishda xalq og‘zaki ijodining boy namunalari, xususan, topishmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Topishmoqlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi, ularni kuzatuvchanlik, tafakkur va so‘z boyligini oshirishga undaydi. Biroq topishmoqlarni o‘qitishda an’anaviy metodlar bilan cheklanib qolish o‘quvchilarning faolligini kamaytiradi. Shu bois o‘qituvchining vazifasi — o‘quv jarayoniga o‘yinli, interaktiv yondashuvlarni joriy etish orqali ta’limni qiziqarli va samarali tashkil etishdir. O‘yinli metodlar nafaqat bolalarning e’tiborini jalb qiladi, balki ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Asosiy qism. O‘yinli metodlar — o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi, dars jarayonini tabiiy va qiziqarli shaklda tashkil etuvchi samarali pedagogik usullardan biridir. O‘yin jarayonida bola bilimni bevosita tajriba orqali o‘zlashtiradi. O‘yinli metodlar o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi, ularni erkin fikrlash, tez fikr almashish, hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.

Topishmoqlarni o‘rganishda o‘yinli metodlardan foydalanish o‘quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularning e’tibor, xotira, tasavvur va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, topishmoqlar o‘quvchilarga so‘z boyligini oshirish, fikrni aniq va lo‘nda ifodalashni o‘rgatadi. O‘yinli metodlar darsni zerikarli bo‘lmasligini ta’minlab, o‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligi oshadi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish vositasidir. Masalan, “Kim topadi?”, “Topishmoq tanlash”, “So‘z zanjiri”, “Top, top, topingchi” kabi o‘yinlar o‘quvchilarda tafakkur jarayonlarini faollashtiradi.

Bunday o‘yinlarda o‘quvchi topishmoqni yechish, mazmunini tushunish, o‘z navbatida yangi topishmoq tuzish orqali ijodiy faoliyatga kirishadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning musobaqalashish ruhini uyg‘otadi va darsni jonlantiradi.

Rolli o‘yinlar o‘quvchilarning topishmoq mazmunini jonli ifodalash, obrazlarni gavdalantirish, ularning mohiyatini his etish imkonini beradi. “Topishmoq teatri” kabi usullar orqali bolalar topishmoqdagi hayvon, predmet yoki tabiat hodisasi rolini ijro etadi.

Masalan, “Men har kuni quyosh chiqishi bilan uyg‘onaman, ammo hech kim meni uxlaganimni ko‘rmaydi” (g‘o‘za, gul, qush kabi topishmoqlar asosida sahnalashtirish). Bunday yondashuv o‘quvchilarda his-tuyg‘ular, ifoda vositalari va nutq madaniyatini rivojlantiradi.

9. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

10. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

11. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 1239-1242.

12. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 160-165.

13. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.

14. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.

15. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

16. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.

17. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – C. 87-88.

18. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – C. 89-90.

19. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS’COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 357-362.

20. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

4-SINFDA HARAKATGA DOIR MASALALAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Tolipov Rustam Mamasoliyevich[1]
Mirzasultonova Muxlisa Mansurjon qizi[2]
Bakirova Sarvinoz Bahromjon qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4-sinf matematika darslarida harakatga doir masalalarni o‘qitish metodikasi yoritilgan. Harakat masalalarining o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, tahlil qilish, taqqoslash va amaliy vaziyatlarni modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada harakatning asosiy turlari — to‘g‘ri chiziqli tekis harakat, qarama-qarshi va bir tomonga yo‘nalgan harakat, quvishish va yetib olish masalalarini bosqichma-bosqich o‘rgatish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos mashq turlari, grafik tasvirlardan foydalanish, jadval tuzish, formulalarni oson anglashga yo‘naltirilgan interfaol usullar taqdim etiladi. Tadqiqot natijalari harakatga doir masalalarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning hisoblash malakasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va mustaqil ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: 4-sinf matematikasi; harakatga doir masalalar; tezlik; vaqt; masofa; metodika; o‘qitish texnologiyalari; to‘g‘ri chiziqli harakat; quvishish masalalari; grafik tasvir; jadval; bosqichma-bosqich o‘rgatish; boshlang‘ich ta’lim; mantiqiy tafakkur; interfaol usullar.

Harakatga doir masala deb, tarkibiga harakatni xarakterlovchi miqdorlar, ya’ni tezlik, vaqt va masofa kirgan masalalarni atash mumkin. ―Harakat so‘zi har xil tipdagi masalarda: oddiy uchlik qoidaga doir masalalarda, ikki ayirma bo‘yicha noma’lumni topishga doir masalalarda va boshqa xil masalalarda uchraydi. Ammo bu masalalar harakatga doir masalalar turiga kirmaydi. Matematika o‘qitish metodikasida harakatga doir masalalar jumlasiga harakatni xarakterlovchi uchta miqdor-tezlik, vaqt va masofa orasidagi bog‘lanishlarni topishga doir masalalar kiritiladi, bu masalalarda aytilgan miqdorlar yo‘naltirilgan miqdorlar sifatida qatnashadi. Xususan, quyidagi masalalar harakatga doir masalalar jumlasiga kiradi:
1) bir jism harakatiga doir hamma sodda va murakkab masalalar (bu masalalarda miqdorlardan biri - tezlik, vaqt yoki masofa-qolgan ikkitasiga bog‘liq holda qatnashadi);
2) uchrashma harakatga doir masalalar;
3) ikki jismning qarama-qarshi yo‘nalishdagi harakatlariga doir masalalar;
4) ikki jismning bir yo‘nalishdagi harakatiga doir masalalar (masalalarning bu turi boshlang‘ich maktabda qaralmaydi).

l) a. Ma‟lum masofa va harakat vaqti bo,,yicha tezlikni topishga doir masalalar. Bu xildagi masalalar ustida ishlashning mohiyatini ushbu masalani yechish misolida ochib beramiz:

―Piyoda kishi har soatda baravardan yo‘l bosib, 3 soatda 12 km yurgani ma’lum bo‘lsa, u qanday tezlik bilan yurgan? O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida masala shartini tahlil qilish bilan bir vaqtda masalani jadvalga yozishni o‘rganadilar. – Masalada nima ma’lum? (Piyoda kishi yo‘lda 3 soat bo‘lgani.) – 3 soat - tushuntiradi o‘qituvchi - bu piyoda kishining yurgan vaqti. – Masalada yana nima

ma’lum? (Piyoda kishi 3 soatda 12 km o‘tgani.) – 12 km – piyoda o‘tgan yo‘l yoki masofa. – Masalada nimani bilish talab qilinadi? (Piyoda bir soatda qancha yo‘l o‘tgani.) Masalani analiz qilish jarayonida o‘qituvchi masalaning sharti jadvalga qanday yozilishini ko‘rsatadi:

Tezlik Vaqt Masofa ?

3 soat 12 km Bunday xulosa chiqariladi: agar masofa va harakat vaqti ma’lum bo‘lsa, tezlikni topish mumkin. Tezlik masofaning vaqtga bo‘linganiga teng.

b) Tezlik va harakat vaqtiga ko„ra masofani topishga doir masalalar. Misol uchun bunday masalaning yechilishini qaraymiz:

—Piyoda kishi soatiga 6 km tezlik bilan 3 soat yo‘lda bo‘ldi. Piyoda kishi qancha masofa o‘tgan?

Masala shartini chizma yordamida ham hal qilish mumkin. Shunga o‘xshash bir qator masalalarni yechish natijasida o‘quvchilar bunday xulosaga kelishadi:

agar tezlik va harakat vaqti ma’lum bo‘lsa, u holda masofani topish mumkin. Masofa tezlik bilan vaqtning ko‘paytmasiga teng. Ma’lum tezlik va masofaga ko‘ra harakat vaqtini topishga doir bir qator masalalarni yuqoridagidyek qarab bunday xulosaga keladilar: agar tezlik va masofa ma’lum bo‘lsa, u holda harakat vaqtini topish mumkin. Vaqt masofaning tezlikka bo‘linganiga teng. Tezlikning o‘lchov birliklarini yozganda avval uzunlik birligi yozilib, so‘ng qiya chiziq «/» (yoki «-») qo‘yiladi va qiya chiziq tagiga vaqt yoziladi. Masala yechimini shunday yozish mumkin: Yechish.

1) 70km/soat • 2 soat =140km. Javob: 140km.

2) 70 km/soat • 3 soat=210 km.

Javob: 210 km.

Berilgan tezlik va berilgan vaqtga ko‘ra bosib o‘tilgan yo‘lni topish uchun tezlik va vaqtni o‘zaro ko‘paytirish kerak. Umuman, soatiga v km yo‘l bosayotgan jismning t soatda o‘tgan yo‘lini S harft bilan belgilasak, bu yo‘l S = v•t formulaga (qoidaga) ko‘ra hisoblanadi.

1. Gulchehra 1 soatda 4 km yo‘l o‘tadi. Shunday tezlik bilan 2 soatda necha kilometr yo‘l bosadi? 3 soatda-chi? 4 soatda-chi? 30 minutda-chi? 2. Poyezd 56 km/soat tezlik bilan ketyapti. U a) 2 soatda;

b) 5 soatda necha kilometr yo‘l o‘tadi?

3. «Neksiya» avtomobili 90 km/soat tezlik bilan yurmoqda. Uning 1 minutda, 10 minutda, 15 minutda, yarim soatda o‘tgan yo‘lini toping.. Masofa va tezlik bo‘yicha vaqtnl topish Masala. Nodira 1 soatda 3 km yo‘l yuradi. U shunday tezlik bilan yursa, 6 km masofani qancha vaqtda o‘tadi? Masalani yechish uchun «6 ning ichida 3 dan nechtasi bor?» degan savolga javob berish kerak. Bu savolning javobi 6:3 = 2. Demak, masalaningjavobi 6 km : 3 km/soat = 2 soat bo‘ladi. Berilgan masofani berilgan tezlik bilan o‘tishga qancha vaqt sarflanganini bilish uchun shu masofani tezlikka bo‘lish kerak. Umuman, S masofa, v tezlik berilsa, t vaqt ushbu t = S : v formulaga ko‘ra hisoblanadi.

1.Tosnkent va Jizzax shaharlari orasidagi masofa 330 km. Avtobus soatiga 55 km tezlik bilan yursa, bu masofani necha soatda o‘tadi?

2. Kamolaning uyidan maktabgacha 1 km. Kamola 1 soatda 4 km yuradi? U uyidan maktabga qancha vaqtda boradi?

3. Toshkent va Nukus orasidagi masofa 1200 km bolsa, samolyot 600 km/soat tezlik bilan uchib, qancha vaqtda Nukusga yetib boradi? Masofa va vaqtga ko‘ra tezlikni topish Masala. Nargizaning uyidan maktabgacha 1 km 200 m. U bu masofani 20 minutda o‘tsa, Nargiza 1 minutda qancha yo‘l yuradi?

Yechish. 1 km 200 m = 1 000 m + 200 m = 1200 m. 1 minutda bosib o‘tilgan yo‘l 20 minutda o‘tilgan yo‘ldan 20 marta kam bo‘ladi. Demak, 1200 metrni 20 minutga bolamiz: 1200 m : 20 min = 60 m/min. Javob, Nargiza 1 minutda 60 metr yo‘l bosadi yoki Nargizaning yurish tezligi 60 m/min. Berilgan masofani berilgan vaqtda qanday tezlik bilan o‘tilganini bilish uchun shu masofani vaqtga bo‘lish kerak. Umuman, S masofa, t vaqt va v tezlik bo‘lsa, tezlik v = S •t formulaga ko‘ra hisoblanadi.

1. Ikki shahar orasidagi masofa 300 km. Poyezd bu masofani 5 soatda o‘tdi, Poyezdning tezligini toping. Sirdaryo bo‘yida joylashgan ikki qishloq orasidagi masofa 72 km. Kater bu masofani daryo oqimi bo‘ylab 4 soatda o‘tdi. Katerning turg‘un suvdagi tezligi 15 km/soat. Daryo oqimining tezligini toping. Amudaryo bo‘yida joylashgan ikki qishloq orasidagi masofa 42 km. Kater bu masofani daryo oqimiga qarshi yurib, 3 soatda bosib o‘tdi. Katerning turg‘un suvdagi tezligi 18 km/soat. Daryo oqimining tezligini toping. Jadval tuzing va uni to‘ldiring

a) katerning turg‘un suvdagi tezligi = - (katerning daryo oqimi bo‘yicha tezligi + katerning daryo oqimiga qarshi tezligi) : 2;

b) daryo oqimining tezligi ~ (katerning daryo oqimi bo‘yicha tezligi - katerning daryo oqimiga qarshi tezligi) : 2

Masala. Naima o‘qiydigan maktab ularning uyidan o‘ng tarafda, Naimaning opasi Nozima o‘qiydigan litsey esa uydan chap tarafda. Opa-singil bir vaqtda uydan chiqdi va qarama-qarshi yo‘nalishda biri maktabga, ikkinchisi litseyga yol oldi.

Naimaning yurish tezligi 50 m/min, Nozimaniki esa 60 m/min. 5 minutdan so‘ng ular orasi-dagi masofa necha metr bo‘ladi?

Yechish.

I usul

1) Naima 5 minutda qancha yo‘l yuradi? 50 m/min • 5 min = 250 m.

2) Nozima 5 minutda qancha yol yuradi? 60 m/min • 5 min = 300 m.

3) 5 minutdan so‘ng ular orasidagi masofa necha metr boladi? 250 m + 300 m = 550 m. Javob: 550 metr.

II usul

1) 1 minutda Naima va Nozima bir-biridan necha metr uzoqlashadi? 50 m+60 m=110 m.

2) 5 minutda opa-singillar bir-biridan necha metr uzoqlashadi?

110 m • 5 = 550 m.

Javob: 550 m.

Qarama-qarshi yo‘nalishdagi harakatda jismlarning bir-biridan uzoqlashish tezligi ular tezliklarining yig‘indisiga teng. Bir xil yo‘nalishdagi harakatga doir masalalar

Masala. Anvar va Ravshan A qishloqdan bir vaqtda bir xil yo‘nalishda velosipedlarda yo‘lga chiqishdi. Anvarning tezligi 12 km/soat, Ravshanniki esa 15 km/soat. Ularning bir-biridan uzoqlashish tezligini toping.

Yechish.

1 soatda Ravshan Anvardan 15 km - 12 km = 3 km oldinda boladi. Demak, ularning bir-biridan uzoqlanish tezligi 3 km/soat ekan.

Javob: 3 km/soat. O‘rtacha tezlikni hisoblashga doir masalalar

Masala. Avtomobil Toshkentdan Samarqandga 5 soatda yetib keldi. Toshkentdan Samarqandgacha 330 km. Avtomobilning tezligini toping. Yechish.

Avtomobil 1 soatda necha kilometr yo‘l yuradi? 330:5 = 66(km).

Javob: Avtomobilning tezligi 66 km/soat. Bu o‘rtacha tezlikdir. Mashina Toshkentdan Samarqandgacha bo‘lgan masofaning hammasini bir xil o‘zgarmas 66 km/soat tezlik bilan bosa olmaydi: u goho sekin, goho tez yuradi, svetoforlar oldida to‘xtashi mumkin. Jismning o‘rtacha tezligini topish uchun jism bosib o‘tgan yo‘lni shu yo‘lni o‘tish uchun ketgan vaqtga bo‘lish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-

ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

1. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.

2. НН, М., АА, N., NX, R., GB, U., & UA, М. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБЛАСТИ ИКТ. *Международный журнал специального образования детей раннего возраста*, *14*(7).

3. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

4. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

5. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

6. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

7. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

8. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

9. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

10. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

11. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

12. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL

JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.

13. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.

14. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

15. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.

16. Abduraxmonov U., Temirova M. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYA. O‘QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO ‘NALTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMNING ROLI //University Research Base. – 2024. – C. 87-88.

17. Sh A. U., Valijonova Z. A. BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //University Research Base. – 2024. – C. 89-90.

18. Umidjon A. CONDITIONS FOR THE FORMATION OF STUDENTS’COGNITIVE INTERESTS //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 357-362.

19. Абдурахманов У. АКТИВИЗАЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К МАТЕМАТИКЕ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TEZLIK, MASOFA, VAQT O‘LCHOV BIRLIGINI TANISHTIRISH METODIKASI

Tolipov Rustam Mamasoliyevich[1]
G‘ofurjonova Hidoyatxon Alijon qizi[2]
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezlik, masofa va vaqt o‘lchov birliklarini tanishtirishning samarali metodik yondashuvlari yoritilgan. Tezlik = masofa / vaqt munosabatining mazmunini yosh o‘quvchilar tushunadigan darajada sodda, bosqichma-bosqich va ko‘rgazmalilik asosida tushuntirish usullari tahlil qilingan. Maqolada real hayotiy vaziyatlar, amaliy tajribalar, o‘yin elementlari, rasmlar, jadvallar va videodarslar yordamida o‘quvchilar ongida harakatga doir kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, hisoblash malakasini mustahkamlash va harakatga oid masalalarni yechishda uchlik qoidasidan samarali foydalanishga oid usullar keltiriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tizimli va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan o‘qitish

jarayoni o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni anglash darajasi, tezlik-masofa-vaqt bog‘liqligini qo‘llay olish ko‘nikmasi sezilarli darajada oshishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf; tezlik; masofa; vaqt; o‘lchov birliklari; metodika; harakatga doir kattaliklar; ko‘rgazmalilik; amaliy mashqlar; interfaol usullar; uchlik qoidasi; matematik savodxonlik; boshlang‘ich ta’lim metodikasi.

Vaqt tushunchasini uzunlik, massa tushunchalariga nisbatan ancha murakkab b’lgan kattalik miqdor sifatida qaraladi, chunki vaqt oraliqlari uzunlik, yuz, og‘irlik xossalariga o‘xshash masalalariga ega. Kundalik hayotda vaqt bir voqeani ikkinchi voqeadan ajratib turadi. Vaqt birliklari taqqoslash, qo‘shish, ayirish mumkin. Insonning butun umri vaqt bilan, vaqtni o‘lchash, taqsim qilishi, qadrlash o‘quvi bilan bog‘liq. Vaqt uzluksiz o‘tadi, uni to‟xtatish ham, qaytarish ham mumkin emas. Vaqt oraliqlari o‘lchanadi. Birlik sifatida qabul qilingan vaqt oralig‘idan bir martagina foydalanish mumkin. Shuning uchun vaqt birligi muntazam ravishda takrorlanuvchi jarayon bo‘lishi kerak. Xalqaro sistemada bunday birlik qilib sekund olingan. Sekund bilan bir qatorda vaqtning boshqa birliklari minut, soat, sutka, yil, hafta, oy, asr ishlatiladi. Yil va sutka birliklari tabiatdan olingan, soat, minut, sekund birliklari kishilar o‘ylab topgan. Yil Yerning Quyosh atrofida aylanish vaqti, sutka Erning o‘z o‘qi atrofida aylanish vaqti. Yil taxminan 365 sutkaga teng. Lekin kishilarning bir yilgi hayoti sutkalarning butun sonlaridan tuzilgan. Shuning uchun har yilga olti soatdan qo‘shish o‘rniga har to‘rttinchi yilga butun sutka qo‘shiladi. Bu yil 366 kundan iborat bo‘lib, kabisa yili deyiladi. Bizning eramizgacha 46 yilda Rim Imperatori Yuliy Sezar o‘sha paytda chalkashib ketgan kalendarni tartibga solish maqsadida yillar shunday navbat bilan keladigan kalendarni yaratdi. Shuning uchun bu yangi kalendar yulian kalendari deyiladi. Shu kalendarga asosan yangi yil 1-yanvardan boshlanadi va 12 oy davom etadi. Bu kalendarda vavilonlik astronomlar yaratgan vaqt o‘lchovlardan hafta ham saqlanib qolgan. Oy vaqtning uncha aniq bo‘lmagan birligidir, u 31, 30, 28, 29 kundan iborat. Ammo bu birlik qadim zamonlardan beri mavjud va u oyning Er atrofida aylanishi bilan bog‘liq. Oy taxminan 29,5 sutkada Erni to‘la bir marotaba aylanib chiqadi va bir yilda taxminan 12 marta aylanadi. Shu ma’lumotlar qadimgi kalendarni tuzishga asos bo‘ldi. Ko‘p asr davomida izlanish, mukammallashtirish natijasida hozirgi kalendar vujudga keldi. Sutkaning hozirgidek 24 soatga bo‘linishi ham qadimgi davrdan kelib chiqqan bo‘lib, u qadimgi Misrda kiritilgan. Minut, sekund qadimgi Vavilonda kelib chiqqan.

Bu xildagi masalalar ustida ishlashning mohiyatini ushbu masalani yechish rnisolida ochib beramiz:

"Piyoda kishi har soatda baravardan yo‘l bosib, 3 soatda 12 km yurgani rna’ium bo‘lsa, u qanday tezlik bilan yurgan?"

O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida rnasala shartini tahlil qilish bilan bir vaqtda masalani jadvalga yozishni o‘rganadilar.

- Masalada nima ma’lum? (Piyoda kishi yo‘ida 3 soat bo‘igani.)
- 3 soat - tushuntiradi o‘qituvchi - bu piyoda kishining yurgan vaqti.

- Masalada yana nima ma’iurn? (Piyoda kishi 3 soatda 12 km o‘tgani.) :
- 12 km - piyoda o‘tgan yo‘l yoki masofa.

– Masalada nirnani bilish talab qilinadi? (Piyoda bir soatda qancha yo‘l o‘tgani.)

Masalani analiz qilish jarayonida o‘qituvchi rnasalaning sharti jadvalga qanday yozilishini ko‘rsatadi:

Tezlik	Vaqt	Masofa
?	3 soat	12 km

Bunday xulosa chiqariladi: agar masofa ya harakat vaqti ma’1ит Ьo’lsa, tezlikni topish mumkin. Tezlik masofaning vaqtga Ьo ‘linganiga teng.

2.Tezlik ya harakat vaqtiga ko‘ra masofani topishga doir masalalar

Misol ичun bunday masalaning yechiishini qaraymiz: "Piyoda kishi soatiga 6 km tezlik bilan 3 soat yo‘lda bo‘ldi. Piyoda kishi qancha masofa o‘tgan?"

Masala shartini chizma yordamida ham hal qilish mumkin.

Shunga o‘xshash bir qator masalalarni yechish natijasida o‘quvchilar bunday xulosaga kelishadi: agar tezlik ya harakat vaqti ma’1ит bo‘lsa, u holda masofani topish mumkin. Masofa tezlik bilan vaqtning ko‘paytmasiga teng.

Ma’lum tezlik ya masofaga ko‘ra, harakat vaqtini topishga doir bir qator masalalami yuqoridagidek qarab bunday xulosaga keladilar: agar tezlik ya masofa ma’lum bo‘lsa, u holda harakat vaqtini topish mumkin. Vaqt masofaning tezlikka bo‘linganiga teng**.**

Tezlik va vaqt bo‘yicba masofani aniqlash

Masala. «Tiko» avtomobili 1 soatda 70 km yo‘l yurdi. U shunday tezlik bilan 2 soatda necha kilometr yo‘l yuradi? 3 soatda-chi?

Yechish. 2 soatda o‘tilgan yo‘l 1 soatda o‘tilgan yo‘ldan 2 marta uzun bo‘lgani uchun avtomobil 2 soatda 70 . 2 = 140 (km) yo‘l bosadi.

3 soatda bosgan yo‘li: 70·3=210 (km) bo‘ladi. «Avtomobil 1 soatda 70 km yo‘l yurdi» deyish o‘rniga «Avtomobilning tezligi soatiga 70 km» yoki avtomobil 70 km/soat tezlik bilan harakatlanyapti deyish ham mumkin.

Uzunlikning o‘lchov birliklari mm, sm, dm, m, km; vaqtning o‘lchov birliklari sekund, minut, soat bo‘lgani kabi tezlikning ham o‘lchov birliklari bor. Ular mlmin, m/s, km/s, km/min, kml/oat bo‘lishi mumkin. Tezlikning o‘lchov birliklarini yozganda avval uzunlik birligi yozilib, so‘ng qiya chiziq «/» (yoki «-») qo‘yiladi va qiya chiziq tagiga vaqt yoziladi. Masala yechimini shunday yozish mumkin:

Yechish. 1) 70 kmlsoat· 2 soat = 140 km. Javob: 140 km.

2) 70 kmlsoat· 3 soat = 210 km. Javob: 210 km.

Berilgan tezlik va berilgan vaqtga ko‘ra bosib o‘tilgan yo‘lni topish uchun tezlik va vaqtni o‘zaro ko‘paytirish kerak. Umuman, soatiga v km yo‘l bosayotganjismning t soatda o‘tgan yo‘lini S harft bilan belgilasak, bu yo‘l S = v·t fonnulaga (qoidaga) ko‘ra hisoblanadi.

1. Gulchehra 1 soatda 4 km yo‘l o‘tadi. Shunday tezlik bilan 2 soatda necha kilometr yo‘l bosadi? 3 soatda-chi? 4 soatda-chi? 30 minutda-chi?

2. Poyezd 56 km/soat tezlik bilan ketyapti. U a) 2 soatda; b) 5 soatda necha kilometr yo‘l o‘tadi?

3. «Neksiya» avtomobili 90 km/soat tezlik bilan yunnoqda. Uning 1 minutda, 10 minutda, 15 minutda, yarim soatda o‘tgan yo‘lini toping.

Masofa va tezlik bo‘yicha vaqtni topish

Masala. Nodira 1 soatda 3 km yo‘l yuradi. U shunday tezlik biIan yursa, 6 km masofani qancha vaqtda o‘tadi?

Masalani yechish uchun «6 ning ichida 3 dan nechtasi bor?)) degan savolga javob berish kerak. Bu savolning javobi 6:3 = 2. Demak, masalaning javobi 6 km : 3 km/soat = 2 soat bo‘ladi.

Berilgan masofani berilgan tezlik bilan o‘tishga qancha vaqt sarflanganini bilish uchun shu masofani tezlikka bo‘lish kerak. Umuman, S masofa, v tezlik bo‘linsa, t vaqt ushbu t=S:v formulaga ko‘ra hisoblanadi.

1. Tosnkent va Jizzax shaharlari orasidagi masofa 330 km. Avtobus soatiga 55 km tezlik bilan yursa, bu masofani necha soatda o‘tadi?

2. Kamolaning uyidan maktabgacha I km. Kamola 1 soatda 4 km yuradi? U uyidan maktabga qancha vaqtda boradi?

3. Toshkent va Nukus orasidagi masofa 1200 km bolsa, samolyot 600 km/soat tezlik bilan uchib, qancha vaqtda Nukusga yetib boradi?

Masofa va vaqtga ko‘ra tezlikni topish

Masala. Nargizaning uyidan maktabgacha 1 km 200 m. U bu masofani 20 minutda o‘tsa, Nargiza I minutda qancha yo‘l yuradi?

Yechish. 1 km 200 m = 1 000 m + 200 m = 1200 m. 1 minutda bosib o‘tilgan yo‘l 20 minutda o‘tilgan yo‘idan 20 marta kam bo‘ladi.

Demak, 1200 metrni 20 minutga bolamiz:

1200 m: 20 min = 60 m1min

. Javob, Nargiza I minutda 60 metr yo‘l bosadi yoki Nargizaning yurish tezligi 60 m1min.

Berilgan masofani berilgan vaqtda qanday tezlik bilan o‘tilganini bilish uchun shu masofani vaqtga bo‘lish kerak. Umuman, S masofa, t vaqt va v tezlik bo‘lsa, tezlik v = S . t fonnulaga ko‘ra hisoblanadi.

1. Ikki shahar orasidagi masofa 300 km. Poyezd bu masofani 5 soatda o‘tdi, Poyezdning tezligini toping. Sirdaryo bo‘yida joylashgan ikki qishloq orasidagi masofa 72 km. Kater bu masofani daryo .oqimi bo‘ylab 4 soatda o‘tdi. Katerning turg‘un suvdagi tezligi 15 kmIsoat. Daryo oqimining tezligini toping.

2. Amudaryo bo‘yida joylashgan ikki qishloq orasidagi masofa 42 km. Kater bu masofani daryo oqimiga qarshi yurib, 3 soatda bosib o‘tdi. Katerning iurg‘un suvdagi tezligi 18 kmIsoat. Daryo oqimining tezligini toping.

Jadval tuzing va uni to‘idiring

a) katerning turg"un suvdagi tezligi =
- (katerning daryo oqimi bo‘yicha tezligi +
+ katerning daryo oqimiga qarshi tezligi) : 2;

b) daryo oqimining tezligi - (katerning daryo oqimi bo‘yicha tezligi - katerning daryo oqimiga qarshi tezligi) : 2

I. Katerning daryo oqimi bO‘yicha tezligi 21 kmIsoat, oqimga qarshi tezligi 15 kmIsoat. Katerning turg‘un suvdagi tezligini va daryo oqimining tezligini toping.

2. Kater daryo oqimi bo‘ylab 60 km masofani o‘tish uchun 4 soat sarfladi. Oqimga qarshi o‘sha masofani bosish uchun 5 soat sarfladi. Daryo oqimining tezligini toping.

3. Daryo bo‘yida joylashgan ikki qishloq orasidagi masofa 48 km. Kater bu masofani oqim bo‘yicha 2 soatda va oqimga qarshi 3 soatda bosib o‘tdi. Bu masofani sol necha soatda o‘tadi?

4. Zarur hisoblashlarni bajarib, jadvalni toldiring:

Katerning rg‘un suvdagi tezligi (km/soat)	Daryo oqimining tezligi (km/soat)	Katerning qim bo‘ylab tezligi (km/soat)	Katerning qimga qarshi tezligi (km/soat)
15	3		
18		21	
20			16
		25	15
		34	26

5. Kemaning turg‘un suvdagi tezligi 16 kmlsoat, daryo oqimining tezligi 2 kmlsoat. Kemaning oqim bo‘ylab va oqimga qarshi tezligini toping.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – C. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 11. – C. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – C. 104.

5. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.

6. HH, M., AA, N., NX, R., GB, U., & UA, M. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБЛАСТИ ИКТ. *Международный журнал специального образования детей раннего возраста*, *14*(7).

8. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

9. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023

10. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

11. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

12. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

13. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

14. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

15. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

16. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

17. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

18. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

19. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

20. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

IQTISODIY VA STATISTIK MASALALARNI YECHISHDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Qoqon davlat universiteti Boshlang`ich ta’lim kafedrasi katta o`qituvchisi U.R.Toshmatova
Maxamadaminova Mushtariybonu Shamshidin qizi
Boshlang`ich ta’lim 05//24 guruh talabasi
Nosirjonova Muniraxon Yodgorbek qizi
Boshlang`ich ta’lim 05/24 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolada boshlang`ich sinflarda matematika darslarida iqtisodiy va statistik masalalarni yechishga o`rgatish ahamiyati va ularga mos keluvchi topshiriqlar, matematika fanining o`qitish samaradorligini oshirishda iqtisodiy va statistik masalalarni ahamiyati yoritib o`tilgan.

Kalit so’zlar: Iqtisodiy masala, statistik masala, variatsion qator, o'rta arifmetik qiymat, moda, jadval, diagramma, xalqaro baholash tadqiqoti, matematika, baholash, savodxonlik, TIMSS, ta`lim standart.

ABSTRACT

In this article, the importance of teaching to solve economic and statistical problems in mathematics classes in elementary grades and the tasks corresponding to them, the importance of economic and statistical problems in increasing the effectiveness of teaching mathematics is highlighted.

Keywords: Economic problem, statistical problem, variational series, arithmetic mean, mode, table, diagram, international assessment research, mathematics, assessment, literacy, TIMSS, educational standard.

Mamlakatimiz inavatsion rivojlalanish yo`lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo`lmish yoshlarni, ularning bilim va ko`nikmalarini xorijiy ta`lim standartlari asosida shakllantirish zamonaviy aniq mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasining Prezidentining “O`zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021- yillarda O`zbekiston Respublikasining beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O`zbekiston ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda. Barchamizga ma`lumki muxtaram prezidentimiz tomonidan maktablarda o`tiladigan matematika faninig samaradorligini oshirish, yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammo va kamchiliklarni oldini olish, matematika fanidan o`quvchilar faol qatnashib, fan olimpiadalarida munosib o`rinlarni olishlarida olib borilayotgan islohatlar alohida o`rin tutadi. 2020-yil 7-may kuni Ozbekiston

Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida”gi qarori imzolandi. Prezidentimiz tomonidan imzolanayotgan har bir qarorlari o`quvchilarning o`sib kelayotgan kelajak avlodning olayotgan bilimlari maktab davridanoq puxta va mukkamal bo`lishi, olgan bilimlari bilan chet davlatlardagi o`zi bilan tengdosh bo`lgan o`quvchilar bilan bellasha olishi va Ozbekiston ta`lim tizimini dunyo miqyosiga olib chiqishiga qaratilgan. Mamlakatimizda so`nggi yillarda ta`lim tizimini tubdan isloh qilish va ta`lim sifatini baholash hamda raqamli ta`limni rivojlantirish bo`yicha keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil ***29- apreldagi “O`zbekiston respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5712-sonli Farmonida*** “PISA” (The Programme for International Student Assessment) o`quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O`zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg`or mamlakatlar qatoriga kiritish ko`zda tutilgan[1].

TIMSS (Trends in International mathematics and scince study) 4-va 8-sinf o`quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan o`zlashtirish darajasini baholash dasturi bo`lib, bu tadqiqot to`rt yilda bir marta o`tkaziladi. TIMSS dasturi o`zini birinchi tadqiqotini 1995 -yilda boshlagan bo`lib, 2019-yilga qadar har to`rt yilda 1999, 2003, 2007 2011,2015 va 2019 yillarda tashkil etilib kelinmoqda. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirish rejalashtirilmoqda. TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O`zbekiston ta`lim tizimida qo`llash, o`z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo`ladi.TIMSS savollari shundan iboratki matematik

iqtisodiy yoki statistik tushunchani yoki uni yoritib beruvchi axborotni o`z ichiga olgan masalaga aytiladi.

Boshlang'ich matematika kursida o'rganilishi mumkin bo`lgan eng sodda iqtisodiy tushunchalar quyidagilar: tejamkorlik, ish unumi, mahsulotning narxi, bahosi, sifati, foyda, iqtisod kabilar bo'lib, statistikaga oid dastlabki tushunchalar: kuzatuv va ma'lumot to'plash, to`plangan ma'lumotlarni tartiblash, variatsion qator, o'rta arfmetik qiymat. chastota, nisbiy chastota, moda, jadval va diagrammalardan iborat.

Bunday mazmundagi masalalarni boshlang'ich sinf matematika darsliklarida uchratish mumkin, lekin ulaming tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish va o'quvchi-larning iqtisodiy ongini shakllantinshga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalandan biri o'quvchilami tejamkor likka o'rgatishdir. Atrofimizdagi barcha predmetlar: jonli va jonsiz tabiat, uy-ro`zg`or buyumlari, maktab jihozlari, shaxsiy buyumlar va boshqalarni avaylab-asrash, uzmaslik, sindirmaslik. yirtmaslik. atrof muhitni ozoda saqlash, ehtiyotlik bilan munosabatda bolish kerakligini bolalar ongigiga singdirib borishsh kerak. Bu vazifa matematika darslarida iqtisodiy-statastik mazmundagi masalalarni yechish orqali

amalga oshiriladi.

Quyidagi masalani ko'raylik:

1- masala. Maktab oshxonasidagi 1 kunlik non qoldiqlari 2 kg ni tashkil etdi. Agar har kun shunchadan non qoldiqlari qolsa, maktabdagi 210 o`qish kunida qancha non isrof bo`ladi? Shuncha nonni o'rtacha oila necha kun iste'mol qilishi mumkin?



Bu masalani yechish uchun o`rtacha oila tushunchasini oydinlashtirish va bunday oila bir kunda qancha non iste'mol qilishini aniqlash kerak bo`ladi.

Yechish:

1. 2kg ·210=420kg
2. O`rtacha oila tushunchasini oydinlashtirish uchun har bir

o'quvchining oila a'zolari sonini aniqlaymiz. Olingan natijalarni ketma-ket yozib olamiz.

3. 10, 4, 3, 2, 5, 4, 5, 4, 4, 4, 8, 5, 5, 4, 3,6, 4, 4, 5, 6, 4,7,6,3.

Oila a'zolari soni								0
Oilalar soni								

Variatsion qatordan shuni xulosa qilish mumkin-ki, 4 kishilik oilalar ko'pchilikni tashkil etar ekan. Ular 9 ta. Demak 4 kishilik oila bu sinfda moda bo'ladi. Endi o'rtacha qiymatni topaylik.

Jami oilalar soni:

1+3+9+5+4+1 +1 =24(ta)

Jami oiladagi odamlar soni:

2 ·1+3· 3+4 ·9+5 ·5-6· 3+7· 1+8·1+10· l=115(ta)

O'rtacha oila a'zolari soni 115:24=4(5 qoldiq)

Demak o`rtacha oila a`zolari soni 4 ga teng. Agar bu oilada har kuni o'rtacha 2kg non iste'mol qilinsa,

420:2=210(kun)

420 kg nonni bu oila 210 kun. ya`ni 7 oy iste'mol qilishi mumkin ekan.

Bu masalani yechishda tejamkorlik, isrof. ma'lumot to'plash, to'plangan ma`lumotlarni tartiblash, variatsion qator, o'rta arifmetik qiymat, moda, jadval kabi tushunchalar ma'nosi ochib berildi.

Ish unumi deganda, vaqt birligida bajarilgan ish hajmi tushuniladi. Ish unumdorligi tushunchasi o'quvchming mehnati bilan bog`lanadi. O`quvchining ish unumi uning bilimi, tezkorligi, ya'ni, tez o'qishi, tez yo zishi, tez misol lshlashi kabilarga bog`liq. Agar u vazifani tez va xatosiz bajarsa, ishi unumli bo'ladi. Shunga ko'ra 1 minutda o'quvchi bajarishi mumkin bolgan ish hajmi aniqlanib, taqqoslansa, juda foydali va ko'rgazmali bo`ladi.

Quyidagicha masala berilishi mumkin.

2-masala. Brigada ishchilarining ish unumi haqida quyidagi ma'lumotlar olingan (ish unumi deganda 1 soatda ishlab chiqarilgan detallar soni ko'zda tutilgan):

26, 25, 24, 25, 28, 39, 28, 32, 24, 37, 20, 22, 30, 31, 35, 26, 23, 27, 28.

Ma`lumotlarni 5 tadan detal oralig`ida tartiblang, o'rtacha ish unumini toping. Variatsion qatorning modasini aniqlang. Ma'lumotlar asosida diagramma tuzing.

Xozirgi kunda mamlakatimizda yashil makon dasturi amalga oshirilayotgan bir davrda atrof muhitni toza saqlashga,

tabiatni asrashga o`rgatish maqsadida quyidagicha mazmundagi masalalrni tuzishimiz mumkin.

3-masala. Darsdan keyin sinf xonasida 500 gr qog'oz chiqindilari qolgani ma'lum bo'ldi, Agar har kuni shunchadan qog'oz isrof bo`lsa, 210 o'qish kunida qancha qog'oz isrof bo'ladi? Agar 1 ta daraxtdan 50kg qog'oz olinsa, bu tashlangan qog'ozlar qancha daraxtni kesilishdan asrab qolishi mumkin edi?

Matematika darslarida iqtisodiy masalalarni hal qilishga o'rgatish kelajakda oila byudjetini yanada oqilona rejalashtirishga yordam beradi. Asosiysi, iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish: muammoni ko'rish, uni tahlil qilish va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.Quyidagicha masalarni tuzish mumkin.







4-masala. Moxlaroyim oilaviy byudjetidagi 1 oylik daromad, sarf-xarajatlardan ortib qolsa, yangi yil uchun ko`ylak sotib olib berishlari mumkinligini o`yladi va umumiy daromad va sarf xarajatlarni hisoblab ko`rdi. Dadasi 2200000 so`m, oyisi 1800000 so`m oylik maosh olishadi, buvisi va buvasi birgalikda 1600000 so`m pensiya olishadi. 1 oyga oziq ovqat uchun o`rtacha 2500000 so`m, ukasini bog`cha to`loviga 206000 so`m, kommunal to`lovlarga o`rtacha 400000 ming so`m sarflashadi, kredit to`lovlar uchun 1100000 so`m to`lashadi. O`ylab ko`ringchi Moxlaroyim yangi yil uchun yangi ko`ylak ololadimi?

Iqtisodiy statistik masalalarni yechishga o`rgatish yuqori sinflarga o`tganda iqtisodiy bilim asoslarini o`rganishga zamin yaratadi.Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan iqtisodiy nazariyani o'rganish kelajakda biznesda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Iqtisod qilishga o`rganish esa kelajakda oila byudjetini yanada oqilona rejalashtirishga yordam beradi. O`quvchilarda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, statistik komptensiyalarni shakllantirish, mantiqiy masalalarni hal qilish jarayonlari o'quvchilarning kasb tanlash qobiliyatini muammolarni oson hal qilish usullarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. “2017–2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi”. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi farmoni.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasida ta“lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori.

3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O`zbekiston Respublikasi xalq ta“limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5712-son qarori.

4. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.

5. НН, М., АА, N., NX, R., GB, U., & UA, M. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБЛАСТИ ИКТ. *Международный журнал специального образования детей раннего возраста*, *14*(7).

a. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

7. Formation of a Scientific Worldview in Children of Primary School Age NX Rahmankulova - World of Science: Journal on Modern Research …, 2023
8. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

9. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.
10. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
11.
12. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Muxitdinova M.N., Toshpo`latova M.I. Matematika. TDPU. (Boshlang`ich ta‟lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat ta‟lim yo`nalishi talabalari uchun darslik) Toshkent-2014, 365 bet
13. Akramjon O‟ktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek Qizi Pozilova. Matematika fanini o‟qitish samaradorligini oshirishda TIMSS xalqaro tadqiqotining o`rni.Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 3 | ISSUE 4 | 2022. P.75
14. Xamedova N.A, Ibragimova Z, Tasetov T. Matematika. Darslik. T.: Turon-iqbol, 2007. 363b.
15. Хамедова Н.А., Садыкова А.В., Лактаева И.Ш.. Математика. Учебное пособие. Т.: Жахон-принт, 2007. 140 с.
16. Стойлова Л.П. Теоретические основы начального курса математики. Учебное пособие. Москва. `Академия`. 2014 272 с.
17. David Surovski. Advanced High-School Mathematics. 2011. 425 p.
18. Herbert Gintis , Mathematical Literacy for Humanists, 90 p.

BOSHLANG`ICH TA’LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Qoqon davlat universiteti Boshlang`ich ta’lim kafedrasi katta o`qituvchisi U.R.Toshmatova
Akbarova Pirzodaxon Zafarjon qzi
Boshlang`ich ta’lim 05//24 guruh talabasi
Sharibova Hadichaxon Jahongir qizi
Boshlang`ich ta’lim 05/24 guruh talabasi

ANNOTATSIYA: Bu maqolada Boshlang`ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ahamiyati va ularga mos keluvchi topshiriqlar, matematika fanining o`qitish samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ahamiyati yoritib o`tilgan.

Kalit so’zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiya, interfaol metodlar, jadval, diagramma, multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilm.

ANNOTATION: This article discusses the importance of information and communication technologies in primary education and the corresponding tasks, the importance of information and communication technologies in improving the teaching efficiency of mathematics.

Keywords: information and communication technology, interactive methods, table, diagram, multimedia, animation, graphics, slide film and video film.

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu ta’lim jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lib, bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yoshlarimizni O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o‘zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi doimo e’tiborimiz markazida turishi lozim. Bugungi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta’lim tizimida yuqori sifatli texnologiyalarni joriy etib, ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etishdan iborat.

Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarni turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qilaolaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim.

Ma’lumki, ta’lim bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligidagi faoliyat turi bo‘lib, dars orqali o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida esa o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma’lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash hamda amaliyotga

tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi.

Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilganligi xech kimga sir emas.

Mamlakatimizdagi umumta’lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang‘ich sinf darslari o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o‘qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o‘zgartirib, o‘qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo‘llari;
- o‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o‘qitish metodlari;
- o‘quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy me’roslarini o‘rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o‘ynaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma’lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Albatta, ta’lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, o‘quv mashg‘ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya’ni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish, jumladan, dars mashg‘ulotlarida multimediani qo‘llash, internet tarmog‘idan foydalanish shubhasiz o‘z samarasini beradi.

O‘qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang‘ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali

o‘quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta’limning bunday usuli o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o‘quv materialini o‘zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;
- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini beradi;
- o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki o‘quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;
- o‘quvchilarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;
- o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Boshlang‘ich ta’limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi kerak, u har bir o‘quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o‘quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Shuning uchun bir xillikdan qochish, darsni ijodkorlik bilan tashkil etish o`quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirish kerak.

Qisqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan

sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Botirov D.B., Egamqulov Sh.A., Botirova q t sinf o‘quvchilari axborotli madaruyatim shakllantinshning ayrim yo‘llari / «Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar; muammolar, yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2006 yil.

2.David Kent. Plickers and the pedagogical practicality of fast formative assessment. Teaching English with Technology, 19(3), 90- 104.

3. Google classroom как способ организации дистанционного обучения Материалы к вебинару «Организация дистанционного обучения на Google Classroom». – 23 марта, 2020 г.

4. Hayitov A.G‘. Ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro. 1999.

5. Hayitov A.G‘. Ta’limni kompyuterlashtirish tamoyillari. //Boshlang‘ich ta’lim. 2002. 1-son.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

7. M.S.Divanova, S.Q.Alimova, O.N.Alimov. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Uslubiy qoilanma. – T.: 2013. 46 bet.

Boshlang‘ich sinf darslarida motivatsiyani rivojlantirish.

Toshmatova Urmonoy Rahimovna
QDU Boshlang`ich ta’lim
kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarini fanga qiziqish larini oshirish uchun darslarda motivatsiyani rivojlantirish haqida yoritilgan. Ta’lim motivatsiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning markaziy muammolaridan biridir. Uning dolzarbligi ta’lim faoliyatining o‘zi, ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish usullarini shakllantirish, faollikni rivojlantirish bilan bog‘liq.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие мотивации на уроках, направленных на повышение интереса к науке у учащихся начальной школы. Формирование учебной мотивации является одной из центральных проблем современного образования. Её актуальность связана с развитием самой учебной деятельности, обновлением содержания образования, формированием способов самостоятельного усвоения знаний учащимися, развитием активности.

Abstract: This article discusses the development of motivation in lessons to increase interest in science among primary school students. The formation of educational motivation is one of the central problems of modern education. Its relevance is associated with the development of educational activity itself, updating the content of education, the formation of methods for independent mastering of knowledge by students, and the development of activity.

Kalit so`zlar: motivatsiya, interaktiv, kognitiv, kommunikativ, kompetentsiya
Ключевые слова: мотивация, интерактивный, познавательный, коммуникативный, компетентность.
Keywords: motivation, interactive, cognitive, communicative, competence

Ta’lim motivatsiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning markaziy muammolaridan biridir. Uning dolzarbligi ta’lim faoliyatining o‘zi, ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish usullarini shakllantirish, faollikni rivojlantirish bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda ta’limda interaktiv deb ataladigan turli shakllar, vositalar va usullar qo‘llaniladi. Faol o‘qitish usullari deganda o‘quv jarayonida sub’ektning ko‘proq faolligiga munosabatni amalga oshiradigan usullar tushuniladi. Interfaol ta’lim - bu kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lgan interfaol ta’lim bo‘lib, unda barcha o‘quvchilar birinchi navbatda o‘quv jarayonida ishtirok etadilar. Bunday darslarda o‘qituvchining o‘rni keskin o‘zgaradi, u markaziy bo‘lishni to‘xtatadi va dars maqsadiga erishish uchun o‘quvchilarning faolligini asosiy o‘ringa o‘tkazadi.

Boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitishda aniq faol o‘qitish usullaridan foydalanish bo‘yicha to‘plangan talablarni hisobga olgan holda, o‘quv

jarayoni quyidagi natijalarni shakllantirishga olib kelishi kerak:

- shaxsiy, shu jumladan o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorligi va qobiliyati, o‘rganish va bilish uchun motivatsiyani shakllantirish;
- meta-mavzu, shu jumladan o‘quvchilar tomonidan universal ta’lim harakatlari (kognitiv, tartibga soluvchi va kommunikativ), o‘rganish qobiliyatining asosini tashkil etuvchi asosiy kompetentsiyalarni va sub’ektlararo tushunchalarni o‘zlashtirish;
- fan, shu jumladan o‘quvchilar tomonidan o‘quv fanlarini o‘zlashtirish, shuningdek, dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi ilmiy bilimlarning fundamental elementlari tizimi.

Yangi standartlar o‘rganishni faoliyatga asoslangan bo‘lishini talab qiladi. Tegishli motivatsiya yaratmasdan bu vazifani bajarib bo‘lmaydi. Qisqacha qilib aytganda, har qanday yangi materialni o‘rganish motivatsiyani yaratishdan boshlanishi kerak. Motivatsiyani oshirish uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

- ta’limni differentsiallashtirish orqali o‘quvchilarda oldinga intilish, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish hissini ta’minlash;
- o‘quvchilarni qiziqtirish, mustaqil fikrlashni faollashtirish maqsadida o‘quv materialining barcha imkoniyatlaridan foydalanish;
- darsda hamkorlik muhitini, o‘zaro yordam va umuman fanga ijobiy munosabatni tashkil etish;
- har bir o‘quvchiga individual yondashish, uning shaxsiy motivlaridan kelib chiqib rag‘batlantirish.

Amalda o‘rganish uchun barqaror motivatsiyani rivojlantirishga erishish qiyin. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida motivatsiyani shakllantirishning qanday usullarini qo‘llash mumkin?

1. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga murojaat qilish.

Yangi materialni o‘rganishda o‘qituvchi o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanadi. Mavzuni o‘rganishda oldingi olgan bilimlari, ularning yoshi, qiziqishi, imkoniyatlari, intilishi kabi sifatlarini inobatga oladi. Shunday qilib, o‘quvchilar tajribasiga murojaat qilish nafaqat motivatsiyani yaratish usulidir. Eng muhimi, o‘quvchilar olgan bilimlarining amalda qo‘llanilishini ko‘radi.

2. Ko‘ngilochar materialdan foydalanish.

Sinfda o‘yinlar, boshqotirmalar, krossvordlar, rebuslar, kompyuter va mobil dasturlardan foydalanish mavzuga bo‘lgan kognitiv qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi va barqaror motivatsiyani shakllantiradi.

Demak, turli xildagi o‘quv innovatsiya vositalaridan foydalanish orqali darslar tashkil etiladi va bilimlar beriladi.

3. Tadqiqot faoliyatini loyihalash.

Loyiha usuli haqida allaqachon ko‘p narsa aytilgan va o‘qituvchilar uni o‘z darslarida muvaffaqiyatli qo‘llashadi. Shubhasiz, loyiha yaratish qiyin jarayon, lekin u o‘quvchilarni savollarga javob izlashga undaydi. Bunday ishlarda barcha o‘quvchilar qiziqish bilan qatnashadilar. Ushbu turdagi o‘quv faoliyati o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi, umumiy ta’lim ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. O‘quvchilar o‘z loyihalarini namoyish etish jarayonida notiqlik bo‘yicha tajriba orttiradilar, bu esa, albatta, kelajakda ularga foydali bo‘ladi. O‘quvchilarni ijodiy ishlarga jalb etish, uning mustaqil ravishda axborotli illyustrativ material to‘plash, o‘z ijodkorligini namoyon etish qobiliyatini rivojlantiradi, eng muhimi, u o‘z ishining natijalaridan qoniqish va o‘z qobiliyati va qobiliyatiga ishonch hissini uyg‘otadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv faoliyati uchun barqaror motivatsiyani ta’minlash uchun o‘rta darajadagi mini-loyihalardan yuqori darajadagi uzoq muddatli loyihalargacha bo‘lgan barcha darajadagi loyihalardan foydalanish kerak.

Adabiyotlar ro`xati

1.Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.// – O‘zbekiston. – T.: 2017.

2. Botirov D.B., Egamqulov Sh.A., Botirova q t sinf o‘quvchilari axborotli madaruyatim shakllantinshning ayrim yo‘llari //

3. «Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar; muammolar, yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2006 yil.

4.The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

5. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.

6. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

7. David Kent. Plickers and the pedagogical practicality of fast formative assessment. Teaching English with Technology, 19(3), 90- 104.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Toshmatova UrmanoyRaximovna
Qo`qon davlat universiteti boshlang`ich ta’lim kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’z- o’zini anglash, muomala madaniyati, axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda tayanch kompetensiyalardan foydalanishning ahamiyati xususida so’z yuritilgan

Kalit so’zlar: tayanch kompetensiya, boshlang’ich sinf, fan va texnika, uzliksiz ta’lim

Mamlakatimizda ta’limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb hunar ta’limida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini ta’minlash maqsadida 6 ta tayanch kompetensiyalar hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi. Mazkur kompetensiyalarni boshlang‘ich sinflardan boshlab shakllantirish bugungi kunning asosiy talabi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib oddiy savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish, orasta kiyinish, o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olish, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tutish, so‘z boyligini shakllantirish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishning dastlabki ko‘nikmalari shakllantiriladi. Kompetensiya (lot. compete – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muay-yan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish tushuniladi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Tayanch kompetensiyalarga esa axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari kiradi. Kommunikativ kompetensiyani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish juda muhimdir. Ma’lumki, mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod, iymon, vijdon, mas’uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio televideniya, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o‘rnini e’tirof etgan holda shuni

aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko‘ziga qarab turib aytiladigan bama’ni so‘z va hissiyotlarning o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-ona bir gapni aytishi lozim bo‘lsa, bolasining yuzini o‘ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko‘zidagi samimiyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Bunday muloqot, albatta, samarali bo‘ladi. Shu bois o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi va ota-ona-o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiyada o‘quvchining muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish ham o‘z o‘rniga ega. Umuman maktab o‘quvchisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o‘tishiga bog‘liq. Ulg‘ayayotgan kishining hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda, o‘z vazifasini anglatishda o‘qituvchining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat’iy faoliyati zarur hisoblanadi. Demak, bola kommunikativ kompetensiyani egallashi orqali uning nutqi, muomala munosabat va bilish darajasi oshib boradi. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasida ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborotlar bilan ta’minlashni rivojlantirish uchun texnika va texnologiyani bilish va ulardan foydalana olish, funksiyalari va strukturasini bilishi, texnologiyalarini joriy eta olishi talab qilinadi. O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini egallash ham boshlang‘ich sinflarda muhim ahamiyatga ega. O‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o‘ziga xos tarzda kechadi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan AQSh pedagogikasidagi ta’limotda ham quyidagilarni ko‘rish mumkin:
– bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
– o‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash;
– bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarni va g‘ururini yerga urmaslik;
– o‘quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo‘naltirish, Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash.
Shuningdek, o‘qituvchi yo‘naltiruvchi rol o‘ynaydi. Asosiy maqsad – intellektni mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishdir. O‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o‘zini, ham o‘zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo‘la boshlaydi, ya’ni unda o‘zining ijtimoiy ”men”ini anglash shakllanadi. Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o‘tishida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga ishtiyoqi hisoblanadi. Kechaga tayyorgarlik ko‘rish, shanbaliklarda ishtirok etish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatilarni tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Sinf rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati shundan

iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o‘qishda o‘quvchilarning o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini, o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, bir-biriga sidqidildan yordam berish yoki bermasligini kuzatadi va kerakli tadbirlarni qo‘llaydi. Milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axloqiy obro‘si g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi ana shundagina tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi o‘quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi uchun malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. U o‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o‘z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir kuchiga ega. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasida o‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lishlik ta’limning ijtimoiy, o‘qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Kopmetensiyaviy ta’lim o’quvchilarning muayyan bilimlar majmuini egallashinigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o’stirishni mo’ljallaydi. Shunga muvofiq ta’lim maqsadi, mazmuni ustunligi ham o’zgaradi: bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan asosiy maqsad ularni hayotda amaliy masalalarni hal qilishda erkin qo’llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo’naltiriladi. Shuning uchun bugungi kun o’quvchisi bilim, ko’nikma va malakalarni egallash barobarida, amaliyotda to’g’ri qo’llay olishi ham lozim bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 . Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo’lajak o’qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo’llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

2. Abdullayeva B. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tayyorgarliginig mazmuni / Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Jizzax, 2019-yil – 6-b.

3. Rustamova N. Media ta’lim va media madaniyat (umumiy o‘rta ta’lim muassasalari misolida).– T.: “Turon zamin ziyo”. 2016. – 131 b.

4. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

5. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

6. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

7. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

8. . Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.

O`ZBEKISTONDA BOSHLANG`ICH TA`LIM TIZIMI, UNING YUTUQLARI

Toshmatova UrmanoyRaximovna
Qo`qon davlat universiteti boshlang`ich ta’lim kafedrasi katta o`qituvchisi
Mahammadjonova Muhayyo Muzaffarjon qizi Qo`qon davlat universiteti Boshlang`ich ta’lim yo`nalishi 04/24-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi, uning tuzilishi va yutuqlari haqida batafsil ma'lumot betilgan.

Аннотация: в данной статье представлена подробная информация о системе начального образования в Узбекистане, ее структуре и достижениях. **Annotation**: detailed information on the system of primary education in Uzbekistan, its structure and achievements is presented in this state.

Kalit so'zlar: dunyoviylik tamoyili, ilmiy yondashuv, ta'lim strukturasi. **Ключевые слова**: принцип светскости, научный подход, структура образования.

Key words: principle of secularism, scientific approach, structure of education.

O’zbekistonda boshlang’ich ta’lim pedagogikasi tarixi. O’zbekiston pedagogikasi taraqqiyotida “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi” asrlar davomida rivojlanib kelgan. Mazkur predmetning tarixiy taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo’lish mumkin:

eng qadimgi davr (VII asrgacha);
o’rta asrlar davri (IX-XIX asrlar);
yangi davr (XX-XXI asrlar).

Eng qadimgi davr Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi manbalarini xalq og’zaki ijodi, “Avesto” asari va arxeologik topilmalar tashkil qiladi. Bu davrda boshlang’ich ta’lim oilada va ibodatxonalar huzuridagi bilimxonalarda berilgan. Unda yozish,

o’qish va biror hunarga yo’naltirishga e’tibor qaratilgan. Boshlang’ich ta’lim pedagogikasining o’rta asrlar davridagi manbalari juda ko’p bo’lib, ular Ustoz mutafakkirlar tomonidan yaratilgan. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-adab”, Hakim Termiziyning “Ma’rifat”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub”, Xojanazar Huvaydoning “Rohati dil”, SHermuhammad Munisning “Savodi ta’lim” asarlarida boshlang’ich ta’limni tashkil etish va o’qitish metodologiyasi tahlil qilib berilgan. Bu davrda o’g’il bolalar masjidlar qoshidagi maktablarda boshlang’ich ta’lim olgan, qiz bolalar esa Otinoyi o’qituvchilar tashkil etgan maktablarda o’qishgan. Mazkur davrda boshlang’ich ta’limdan boshlab islom dini asoslari o’qitilgan va fikrlash, nutqni o’stirish uchun shoirlarning she’rlari yodlatilgan. Misol uchun, Alisher Navoiy 6 yoshida Farididdin Attorning (XIIIasr) “Mantiq ut–tayr” (Qush tili) asarini yodlab olganligini yozgan. Boshlang’ich ta’lim pedagogikasining yangi davrida boshlang’ich ta’limni ilmiy – pedagogik qonuniyatlar asosida amalga oshirish yo’lga qo’yildi. Natijada O’zbekiston boshlang’ich ta’limida dunyoviylik tamoyili usituvor bo’lib, bu tizim xalqaro standartlarga moslashdi. Mazkur davrning manbalarini boshlang’ich ta’lim muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar va darsliklar tashkil etadi. O’tgan asrning 30 yillariga kelib O’zbekistonda barcha maktab yoshidagilar boshlang’ich ta’lim bilan qamrab olindi. O’zbekiston “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi” tarixi quyidagi tajribalarga ega: -o’qitishning eng oson va maqbul metodlarigi egalik ; -har bir bolaning savodxon bo’lishiga erishish; -har bir bolani bilim olishga qiziqtirish ; -ta’lim texnologiyalarining eng zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

-professional boshlang’ich sinf o’qituvchilari tayyorlash. 1998 yili YuNESKO tomonidan hozirgi zamon O’zbekiston boshlang’ich ta’limi eng ilg’or va samarali ta’lim turlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Mazkur tajribalar bugungi kunda dunyo miqyosida targ’ibot qilinishi kerak. Ta’lim jarayoni uzluksiz bo‘lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog‘liqdir. Ushbu maqolada biz asosan umumiy o‘rta ta’limning ilk bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’lim haqidagi fikrlarga alohida e’tibor qaratamiz. Haqiqatan ham, ta’limga zamonaviy yondashuvlar ta’lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish va qo‘yilgan o‘quv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidladi. Bu borada Finlandiya tajribasi misolqilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri. Ta’limni isloh qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, ta’lim olishning asosiy vositasi bo‘lgan darsliklarni yangilamay turib, o‘quvchi va o‘qituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib bo‘lmaydi. Zamonaviy boshlang`ich ta`lim jarayonida o`quvchilarni rivojlantiruvchi xarakterga ega bo`lgan ta`lim tizimi tadbiq qilingan. Unda kichik maktab yoshidagi o`quvchilar o`z yosh xususiyatlari, tafakkuri hamda ruhiy darajalarini o`zlashtirish

imkonini beradigan ta`limiy faoliyatga kirishadilar. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o`qish hamda o`rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o`quv predmeti bo`yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o`z xarakteriga ko`ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o`zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo`lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta`minlaydi. Shu asosga ko`ra, boshlang`ich ta`limning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda ta`lim olishga, o`rganishga qaratilgan faoliyatni shakllantirish. Va shu asosida ularni tarbiyalash hamda shaxsiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqarishdan iborat. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning rivojlanishida o`yin, sport, ijodiy faoliyat ham muhim o`rin tutadi. Lekin o`qish, o`rganish, ya`ni ta`limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsadga- bolani mujassam rivojlantirish maqsadiga yo`naltirishi lozim. Zamonaviy boshlang`ich ta`lim uchun istiqbolli, ustuvor yo`nalishlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir. O`quvchilarda har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo`naltirilgan tarbiya jarayonidir. Bugungi kunda o`zida ta`lim va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang`ich ta`lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarni o`qitish va ulardan milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo`li amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim. Bunda o`quv materiali shaklida berilgan ta`limiy matnlarda o`quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma`naviy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. Boshlang`ich ta`lim jarayonida ona tili va matematika ta`limining ahamiyati beqiyosdir. Barcha maktablarda “Milliy o‘quv dasturi”ni to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish amalga oshirildi. Boshlang‘ich maktab o‘quvchining umumiy ta’lim jarayonidagi eng muhim bosqichdir. To‘rt yil ichida u nafaqat fan fanlarining dasturiy materialini o‘zlashtirishi, balki qanday o‘rganishni – “professional talaba” bo‘lishni ham o‘rganishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mas’uliyati doimo eksklyuziv bo‘lgan. Boshlang‘ich maktabda olingan ta’lim keyingi ta’lim uchun asos, poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim boshlang‘ich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi, u quyidagi asosiy maqsadlarga erishish uchunmo‘ljallangan:o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, o‘qishga qiziqish, o‘rganishga intilish va qobiliyatni shakllantirish; ma’naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko‘nikma, tajriba tizimini o‘zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo‘llab quvvatlash.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi yaratilgan “Milliy o‘quv dasturi” asosida chiqarilgan darslikda o‘quvchilarning

og‘zaki bilim ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratilgan.O‘qish (umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari o‘quv rejasidagi adabiyot) fani og‘zaki va izchil nutqni o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
3. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari. Toshkent, 2021.
4. https://kun.uz/uz/news/2022/10/08/
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134 son 9.
6. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades
NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science
7. Рахманкулова, Н. Х. (2021). Исторические данные о числах и количестве. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, *2*(2), 97-100.
8. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).
9. Ona tili ta’limi mazmunidagi takomillashuv. Ma’rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).
10.. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida. 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.

BOSHLANG‘ICH SINF TABIIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali-qizi
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti v v b
E-mail: rn099702@gmail.com

Annotatsiya: Boshlag’ich ta’lim tabiiy fan darslarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy ishlarni tashkil etishning samarali metodlari ekanligi hamda pedagogik psixologik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. amaliy uslublar, retseptor, tajriba, obyekt, operatsiya, ekskursiya, gerbariy, granit, akvarium, terrarium

Аннотация: Освещены эффективные методы организации практической работы по приобщению детей к природе на уроках естествознания начального образования и их педагогико-психологическое значение.

Ключевые слова: Практические методы, рецептор, эксперимент, объект, операция, экскурсия, гербарий, гранит, аквариум, террариум

Annotation. Effective methods of organizing practical work in introducing children to nature in natural science lessons of primary education and their pedagogical psychological importance are highlighted.

Keywords: Practical methods, receptor, experiment, object, operation, excursion, herbarium, granite, aquarium, terrarium

Zamonaviy dunyoni ilm-fan, ma’rifat va ta’lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida ta’limni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning istiqboli aynan ushbu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimida xususan, oliy ta’lim tizimida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son farmoni bilan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

− mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

− oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

− sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash;

Ushbu maqsadlar barcha fanlar singari tabiiy fanlar sohasida ham qator masalalarni kun tartibiga qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf o'quvchilarning bo‘lajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo‘lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o‘ynab kelgan va kelmoqda. Ma’lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi.

Amaliyot - haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug’iladi va ularning to‘g’riligi amaliyot orqali
tekshiriladi hamda tasdiqlanadi.

Bilim odamlar ongida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bo‘lib, bu o‘z navbatida, odamlarning o‘zaro munosabatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy-tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi

1. Amaliyot bilish jarayonining rivojlantiruvchi omil. U nazariy bilimlarni umumlashtirib, ularni hayotiy jarayonlardan ajralishga yo‘l qo‘ymaydi.
2. Amaliyot bilishning buyurtmasi, ilovasi va maqsadi hamdir.
3. Amaliyot bilish jarayoning haqiqiy ekanligini ko‘rsatuvchi mezondir.

Tabiatshunoslikdagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo‘lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi.

Bilishning aniqligi muayyan obyekt haqidagi ma’lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo‘lsa, haqiqat ham boshqacha bo‘lishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100oC da qaynaydi. Lekin bosim o'zgarsa yoki og’ir suv bo‘lsa, u aniq - konkret hisoblanadi.

Ma’lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o‘zgarishi mumkin. G’oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o‘rgatish boshlang’ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliy uslublar o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo‘naltiriladigan, o‘quvchilar fikrini rivojlantirishga mo‘ljallagan so‘z, ko‘rgazmalilik va amaliy ishning o‘zaro murakkab bog‘lanishida bo‘lishini ko‘rsatadi.

Amaliy uslublar qo‘llanilishi o‘quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog’liq. Amaliy uslublar o‘rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo‘llashga o‘quvchilar faoliyatining o‘zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og‘zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg‘ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga:

1. O‘quvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.
2. Rasm chizishi.
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo‘yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.
5. Tajriba o‘tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo‘yilgan savol, muammo, masalaga o‘quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Tabiiy fanlar darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining birturi bo‘lib, tarqalgan o‘simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o‘rgatadi.

Taqqoslashdagi farqqa borish o‘quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo‘yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o‘qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o‘simliklarni topish va to‘plashni, namunalar yig‘ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o‘zgaruvchanlikni o‘quvchilarning o‘zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak.

O‘simliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo‘yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar. O‘simliklarni yoshini tabiatda nafaqat yillik halqalardan balki o‘simliklarni yillik shoxlanishiga qarab aniqlash mumkin. O‘simlik bahordan kuzgacha o'sish davriga ega, kuzdan bahorgacha tinim davri bo‘ladi. Bu o‘simlikning bir yoshi demakdir, ikkinchi yilda yana o‘sish, shoxlanish sodir bo‘ladi. Shoxlanish orasidagi masofa o‘simlikning bir yoshi hisoblanadi, buni o‘quvchilarga tabiatda tushuntirish talab etiladi. O‘quvchilar amaliy bilimga ega bo‘ladilar, daraxtlar yoshini kesmasdan turib ham aniqlash mumkinligini bilib oladilar. Bu ekologik, hamda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodlari tizimida amaliy ishlar tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda katta rol o‘ynaydi. Amaliy ishlar o‘quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga

o‘rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o‘quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig‘ish, maktab oldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o‘simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar

tuzish, mulyaj, maket, ko‘rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilar "Tabiiy fanlar" darsligini o‘qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo‘li bilan o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda o‘quvchilarning pedagogik - psixologik fikrlash faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil jihozlardan va avvalo ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Ko‘rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy obyektlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o’qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. B.R. Umaraliyeva. Geografiya o‘qitish metodikasi. Darslik. Farg‘ona, 2024-yil.
3. Umaraliyeva, B. R. “Educational importance of teaching geography in secondary schools.” International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 348-350.
4. Umaraliyeva. B. R. “Yordamchi maktab o‘quvchilarida geografiya fani orqali tarbiyani shakllantirishda sharq mutafakkirlarining tarbiya to‘g‘risidagi

qarashlaridan foydalanish masalalari” Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2023 yil 519-523b

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH.

Umarova Go‘zalxon Botirjonovna
Qo‘qon davlat universiteti o’qituvchisi
To‘xtanazarova Dildora Shukurjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti talabasi
Aliyeva Mahmudaxon Dilmurod qizi
Qo‘qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy usullari muhokama qilingan. O‘quv jarayonida vizual materiallar, didaktik o‘yinlar va interfaol usullardan foydalanish orqali matematik tushunchalarni samarali shakllantirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: matematik tushunchalar, boshlang‘ich ta’lim

Ta’limning bosqichlaridan biri bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim, bolaning shaxs sifatida shakllanishida, dunyoqarashining rivojlanishida, shu jumladan, intellektual qobiliyatlarining asosini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda fanlarni o‘rganishga asos bo‘ladigan asosiy tushunchalarni shakllantirishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish – bu murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, u faqatgina sonlar, amallar va formulalarni o‘rgatishdan iborat emasBoshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar (6-10 yosh) J.Piagetning aql-idrok rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, amaliy operatsiyalar bosqichida joylashgan. Ushbu bosqichda bola mavjud bilimlari asosida mantiqiy fikrlasha boshlaydi, lekin bu fikrlash konkret predmetlar va hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Abstrakt tushunchalar va gipotezal fikrlash hali to‘liq rivojlanmagan.

O‘zbekistonlik va xorijiy olimlar (L.S.Vygotskiy, A.Leontyev, P.Y.Galperin, N.F.Talizina, Sh.A.Amonashvili va boshqalar) ta’kidlashlaricha, tushunchani shakllantirish tashqi, moddiy yoki moddiy-lashtirilgan harakatdan ongli, aqliy harakatga o‘tish jarayonidir. P.Y.Galperinning bosqichma-bosqich aqliy harakatlarni shakllantirish nazariyasi matematik tushunchalarni o‘rgatishda amaliy ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, yangi harakat (masalan, qo‘shish amali) quyidagi bosqichlarda o‘zlashtiriladi:

1. Yordamchi asboblar yordamida bajariladigan harakat.
2. Tashqi nutq asosida, asbobsiz bajariladigan harakat.
3. Ichki nutq (o‘z-o‘ziga gapirish) asosida bajariladigan harakat.

4. Avtomatlashtirilgan, aqliy harakat.

Boshlang‘ich matematika kursi quyidagi asosiy tushunchalar bloklarini o‘z ichiga oladi:

Son tushunchasi – bu matematikaning asosiy tayanch tushunchasidir. Uning shakllanishi bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Natural sonlar qatorining shakllanishi. 0 soni tushunchasining kiritilishi.

Raqamlar va ularning yozuvlari. Sonning miqdoriy ifodasi bilan uning ramziy (raqam) belgisi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish.

Sonning tarkibi. Sonni turli qismlarga ajratish va birlashtirish ko‘nikmasini egallash (masalan, 5 = 2 + 3, 5 = 4 + 1). Bu keyinchalik arifmetik amallarni o‘zlashtirishga asos bo‘ladi.

O‘nlik sanoq tizimi va raqamli raqamlar. Birlik, o‘nlik, yuzlik tushunchalarini shakllantirish.

Arifmetik amallarni (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish) o‘rgatishda har doim amaliy vaziyatlar asos qilib olinadi. Masalan:

Qo‘shish – bu ikki yoki undan ortiq to‘plamlarning birlashishi.

Ayirish – bu to‘plamdan qismini ajratib olish yoki ikki to‘plamning ayirmasini topish.

Ko‘paytirish – bir xil qo‘shiluvchilardan tashkil topgan qo‘shishning qisqartirilgan shakli sifatida tushuntiriladi.

Bo‘lish – bu to‘plamni teng qismlarga bo‘lish (bo‘lish-taqsimot) yoki ma’lum songa teng bo‘lgan qismlarga bo‘lish (bo‘lish-chiqarib olish).

Boshlang‘ich sinflarda geometrik tushunchalarni shakllantirish asosan vizual-tajribaviy asosda olib boriladi. Bola geometrik shakllarni tanib olish, ularning asosiy xususiyatlarini (tomonlari, burchaklari soni) aniqlash, ularni chizish va yasashni o‘rganadi.

Geometrik shakllar: nuqta, to‘g‘ri chiziq, kesma, nur, ko‘pburchak, aylana, doira.

O‘lchovlar: uzunlik, massa, vaqt, hajm.

Kattaliklar (uzunlik, massa, vaqt, hajm) tushunchasini shakllantirish o‘quvchilarda miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tushuncha qiyoslash va o‘lchash orqali shakllanadi. Masalan:

Uzunlik: predmetlarni "uzunroq-qisqaroq" deb solishtirish, keyin o‘lchov asboblari (lineyka, lenta) yordamida o‘lchash.

Massa: qo‘lga olib "og‘irroq-yengilroq" deb solishtirish, keyin tarozi yordamida o‘lchash.

Vaqt: sekund, minut, soat, kun, oy, yil tushunchalari. Kundalik tartib, taqvim bilan ishlash.

Muammoli ta’lim usuli o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, bilim izlashga va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi. O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammoli savol yoki vaziyatni qo‘yadi (masalan, "Qanday qilib 8 ta olmani ikkita doskaga teng

taqsimlash mumkin?"). Bola turli yo‘llar bilan echim izlaydi, xato qilish huquqiga ega bo‘ladi va nihoyat, o‘zi tomonidan topilgan echim orqali yangi bilim (bo‘lish amali)ni o‘zlashtiradi.

Didaktik o‘yinlar – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos keladigan asosiy faoliyat turi. Matematik mazmundagi o‘yinlar diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan: "Matematik loto", "Aqlli to‘plar", "Sonlar zinapoyasi", "Geometrik sürpriz" va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari matematika darslarida quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

Matematik savodxonlikning pastligi: Raqamlarni noto‘g‘ri o‘qish yoki yozish, amallar tartibini eslab qolmaslik. Yechim: Ko‘proq mashq qilish, didaktik o‘yinlar, jadvallar, algoritmlardan foydalanish.

Motivatsiyaning yetishmasligi: "Nima uchun matematika kerak?" degan savol. Yechim: Matematikaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish (do‘konda hisob-kitob qilish, vaqtni hisoblash, loyihalash), muvaffaqiyat hissini kuchaytirish, rag‘batlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish – bu nafaqat kelajakdagi matematik bilimlar, balki umuman, bolaning intellektual, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim bosqichidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati bir qancha omillarga bog‘liq: o‘qituvchining bolalar psixologiyasini bilishi, turli usul va texnologiyalarni egallaganligi, didaktik materiallar bilan ta’minlanganligi va eng muhimi, bolalarga nisbatan mehr va sadoqat bilan munosabatda bo‘lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O‘qituvchi, 2003.

2. Jumayev M.E. va boshqalar. Boshlang‘ich matematika o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.

60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko`rila boshlandi. Dasturiy ta’lim o`quvchilarga muayyan bilimlarning alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQSH da faoliyat yurita boshlagan. “Dasturiy ta’lim va o`rgatuvchi mashinalar bo`yicha birlashgan Qo`mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o`zida ta’lim maqsadlari, ularni o`zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o`zgartirish majmuasini to`laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi.Sifatli ta’lim o’quvchilarning etarli darajada tarbiyallanganliklari bilan bog’liq. SHu sababli ta’lim jarayoni o’zida ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarning mushtarakligini namoyon etadi. Ta’limning tarbiyaviy va ta’limiy vazifalarining yaxlitligini tasdiqlovchi omillardan biri ta’lim metodlari tarbiya metodlarining ayrim tarkibiy qismi sifatida namoyon etilishi bo’lsa, ikkinchidan, tarbiya metodlarining o’zi ta’lim olishni rag’batlantirish metodlari sifatida namoyon bo’ladi.

Ta’lim va tarbiya shaxsning rivojlanishiga ko’maklashadi. Agar o’quvchilar maxsus rivojlantiruvchilik yo’nalishiga ega bo’lib, ular aqliy rivojlanish jarayoniga jalb etilsa, ta’limning rivojlantirish vazifasi samarali amalga oshirilgan bo’ladi.

“Ta’lim jarayoni” keng tushuncha bo’lib, bevosita biron o’quv yurti bilan bog’liq o’quv jarayoni, tahsil olish, tarbiyalanish, har tomonlama rivojlanish kabi tashkil etuvchilardan tarkib topadi. Mazkur jarayonda o’quvchilarning shaxsiy

xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ta’lim jarayonining asosiy vazifasi yangi ilmiy haqiqatlarni kashf etish sanaladi. Bilimlarning ko’pgina turlari o’quvchilar tomonidan o’rganilayotgan ob’ektlarni bevosita ko’rish yo’li bilan emas, balki o’qituvchining hikoyasi, tasvirlashi orqali idrok etish yo’li bilan egallanadi.

O’quv jarayonini tashkil etish davomida talabalarning bir-birini to’ldirib boruvchi vositalarni qo’llashi ularni sifat jihatidan yangi darajaga ko’taradi. Bu jarayon davomida ta’lim muassasasi oldida turgan masalalar kompleks amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonining tarkibiy tuzilishini ko’rib chiqish davomida uni tuzilishning asosiy, tarkibiy qismlarini va ularning orasidagi aloqalarni aniqlash zarur. Ta’lim shaxs faoliyatining turlaridan biri hisoblanadi. U albatta ma’lum darajada belgilangan shart-sharoitlarda amalga oshadigan, o’qituvchi bilan o’qitilayotganning o’zaro ta’sirlarini nazarda tutadi.

Ta’lim jarayoni o’zaro bog’liq bo’lgan ikki jarayondan – o’qitish va o’rganishdan iborat. Ta’lim o’qituvchi va o’qitilayotganlarning bir vaqtdagi faoliyatlarisiz, ularning o’zaro didaktik bog’liqligisiz tashkil etilmaydi. O’qituvchi bilimni etkazishda qanchalik faollik ko’rsatmasin, agar bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan o’quvchilarning o’zlari ongli yondashmasa, u holda ta’lim jarayoni amalga oshmaydi. SHuning uchun ta’lim jarayonida pedagogning o’quvchiga oddiygina ta’siri emas, balki, ularning hamjihatliklari ta’minlanishi kerak.

SHu bilan birga, ta’lim jarayoni o’qitish va o’rganish jarayonlarining mexanik yig’indisi hisoblanmaydi. Bu sifat jihatdan yangi, bir butun hodisa bo’lib, uning mazmunini turli-tuman shakldagi didaktik o’zaro ta’sirlari aks ettiradi. Ushbu jarayonning bir butunligi, yaxlitligida o’qitish va o’rganish maqsadlarining umumiyligi, shunday o’rganishsiz o’qitishning mavjud bo’lishi mumkin emasligi yashiringan bo’ladi. Ta’lim faqat bilish xarakteridagi jarayongina emas, balki o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro muloqoti ham demakdir. Bir turdagi ma’lumotlar o’quvchilarning ichki dunyosiga turlicha ta’sir etadi. Ta’lim jarayonidagi muloqot o’rganishning zarurligini izohlashda juda kuchli ta’sir ko’rsatadi. O’qishga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishi, faol o’rganish uchun qulay axloqiy-psixologik shart-sharoitlarning yaratilishiga xizmat qiladi.

O’qituvchining o’z faniga ijobiy munosabati o’quv jarayonida o’quvchilarga o’z vaqtida yordam qo’lini cho’zishi, ularning yutuqlari, muvaffaqiyatlarini o’z vaqtida va haqqoniy baholashi, og’ir vaziyatlarda o’zini tuta bilishi bilimlarni samarali o’zlashtirish jarayoniga juda kuchli ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilarda o’qituvchini o’zlari uchun ideal sifatida tanlab, bilimlarni izchil o’qib-o’rganish, mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta’minlaydi. Sifatli ta’lim o’quvchilarning etarli darajada tarbiyallanganliklari bilan bog’liq. SHu sababli ta’lim jarayoni o’zida ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarning mushtarakligini namoyon etadi. Ta’limning tarbiyaviy va ta’limiy vazifalarining yaxlitligini tasdiqlovchi omillardan biri ta’lim metodlari tarbiya metodlarining ayrim tarkibiy qismi sifatida namoyon etilishi bo’lsa,

ikkinchidan, tarbiya metodlarining o’zi ta’lim olishni rag’batlantirish metodlari sifatida namoyon bo’ladi.

Ta’lim va tarbiya shaxsning rivojlanishiga ko’maklashadi. Agar o’quvchilar maxsus rivojlantiruvchilik yo’nalishiga ega bo’lib, ular aqliy rivojlanish jarayoniga jalb etilsa, ta’limning rivojlantirish vazifasi samarali amalga oshirilgan bo’ladi.

“Ta’lim jarayoni” keng tushuncha bo’lib, bevosita biron o’quv yurti bilan bog’liq o’quv jarayoni, tahsil olish, tarbiyalanish, har tomonlama rivojlanish kabi tashkil etuvchilardan tarkib topadi. Mazkur jarayonda o’quvchilarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ta’lim jarayonining asosiy vazifasi yangi ilmiy haqiqatlarni kashf etish sanaladi. Bilimlarning ko’pgina turlari o’quvchilar tomonidan o’rganilayotgan ob’ektlarni bevosita ko’rish yo’li bilan emas, balki o’qituvchining hikoyasi, tasvirlashi orqali idrok etish yo’li bilan egallanadi.

O’quv jarayonini tashkil etish davomida talabalarning bir-birini to’ldirib boruvchi vositalarni qo’llashi ularni sifat jihatidan yangi darajaga ko’taradi. Bu jarayon davomida ta’lim muassasasi oldida turgan masalalar kompleks amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonining tarkibiy tuzilishini ko’rib chiqish davomida uni tuzilishning asosiy, tarkibiy qismlarini va ularning orasidagi aloqalarni aniqlash zarur. Ta’lim shaxs faoliyatining turlaridan biri hisoblanadi. U albatta ma’lum darajada belgilangan shart-sharoitlarda amalga oshadigan, o’qituvchi bilan o’qitilayotganning o’zaro ta’sirlarini nazarda tutadi.

Ta’lim jarayoni o’zaro bog’liq bo’lgan ikki jarayondan – o’qitish va o’rganishdan iborat. Ta’lim o’qituvchi va o’qitilayotganlarning bir vaqtdagi faoliyatlarisiz, ularning o’zaro didaktik bog’liqligisiz tashkil etilmaydi. O’qituvchi bilimni etkazishda qanchalik faollik ko’rsatmasin, agar bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan o’quvchilarning o’zlari ongli yondashmasa, u holda ta’lim jarayoni amalga oshmaydi. SHuning uchun ta’lim jarayonida pedagogning o’quvchiga oddiygina ta’siri emas, balki, ularning hamjihatliklari ta’minlanishi kerak.

SHu bilan birga, ta’lim jarayoni o’qitish va o’rganish jarayonlarining mexanik yig’indisi hisoblanmaydi. Bu sifat jihatdan yangi, bir butun hodisa bo’lib, uning mazmunini turli-tuman shakldagi didaktik o’zaro ta’sirlari aks ettiradi. Ushbu jarayonning bir butunligi, yaxlitligida o’qitish va o’rganish maqsadlarining umumiyligi, shunday o’rganishsiz o’qitishning mavjud bo’lishi mumkin emasligi yashiringan bo’ladi. Ta’lim faqat bilish xarakteridagi jarayongina emas, balki o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro muloqoti ham demakdir. Bir turdagi ma’lumotlar o’quvchilarning ichki dunyosiga turlicha ta’sir etadi. Ta’lim jarayonidagi muloqot o’rganishning zarurligini izohlashda juda kuchli ta’sir ko’rsatadi. O’qishga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishi, faol o’rganish uchun qulay axloqiy-psixologik shart-sharoitlarning yaratilishiga xizmat qiladi. O’qituvchining o’z faniga ijobiy munosabati o’quv jarayonida o’quvchilarga o’z vaqtida yordam qo’lini cho’zishi, ularning yutuqlari, muvaffaqiyatlarini o’z vaqtida va haqqoniy baholashi, og’ir vaziyatlarda o’zini tuta bilishi bilimlarni samarali o’zlashtirish jarayoniga juda

kuchli ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilarda o’qituvchini o’zlari uchun ideal sifatida tanlab, bilimlarni izchil o’qib-o’rganish, mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. SH.M. Mirziyoyev«Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiòti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi mahruzasi. – T.: O`zbekiston, 2017.

2. SH.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo``lishi kerak. – T.: O`zbekiston. – 2017.

3. SH.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo``lishi kerak. – T.: O`zbekiston, 2017.

4. SH.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.

5. SH.M. Mirziyoyev «Konstitutsiya– erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» mavzusidagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi mahruzasi.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR

Xudoyberganov Nodirjon Shokirjonovich[1]
Rustamova Mohira Juman qizi[2]
Abdullayeva E’zozxon Akmaljon qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning mazmuni, shakl va usullari tahlil qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarning o‘quvchilarda matematika faniga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat hamda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turlari — matematika to‘garaklari, musobaqalar, o‘yinlar, viktorinalar, loyihaviy ishlar va tadbirlar orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif tomonidan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish va samarali tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur faoliyat turlari matematika fanini o‘rganish jarayonini qiziqarli, interfaol va natijador shaklga keltiradi hamda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, matematika fani, sinfdan tashqari ishlar, to‘garak mashg‘ulotlari, didaktik o‘yinlar, ijodiy fikrlash, o‘quvchilarning faolligi, o‘quv motivatsiyasi, metodik tavsiyalar.

Bugungi kunda umumta’lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o’quchilarni fani asoslari bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan yuqori darajada rivojlanishiga erishishqir.

Umumiy ta’lim oldiga qo’yilgan bu vazifni hal qilish avvalo boshlang’ich ta’limda o’quv tarbiya ishlarini tashkil etilishi bilan bevosita bo’liqdir. Umumtalim maktablarida o’quvchilarni fan asoslarini bilan qurollantirish ularni boshlang’ich ta’limda olgan nazariy bilim va amaliy ko’nikmalariga bevosita bog’liqdir. Bu borada boshlang’ich sinfda o’quvchilarning matematikadan olgan bilim va ko’nikmalari alohida ahamiyatga egadir. Shu bilan birga o’quvchilarni aqliy rivojlantirishda matematika talimi katta imkoniyatlarga egadir. Biroq bu imkoniyatlardan dars jroyonida to’liq foydalanish imkoniyati cheklangandir. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitishda bu imkoniyatlardan to’liqroq faodlanish va ta’lim oldiga qo’yilgan yuqoridagi vaziflarni hal etish maqsadida matematika o’qitishda uzoq yillar davomida to’plangan boy tajribalar asosida qator yillar davomida ilgor o’qituvchilar tajribalari asosilangan holda boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlardan samarali foydalanib kelinmoqda.

Ikkinchi tomondan bugungi kunda boshlang’ich matematika ta’limi oldiga qo’yilayotgan dolzarb vazifalar, uning fan sifatida hajm va mazmun jihatdan kengayib borihi kabi masalalar boshlang’ich ta’limda sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish masalasini talim oldiga har doimgidan ham dolzarb qilib qoymoqda. Chunki dars mashg’ulotlari o’zining vaqt imkoniyatlari bo’yich ta’lim oldiga qo’yilgan barcha vazifalarni to’liq hal etish imkoniyatiga ega emas.

O‘quvchilarni fanlarni yaxshi o‘zashtirishlari uchun boshlang‘ich sinflarda matematika fanini puxta egallashlari va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlari kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darslarni o‘zlashtirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashish ularni mantiqiy fikrlashlrini rivojlantirish, ijodkorlik, izlanuvchanlik va tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakillntirish uchun boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur.

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini orttiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta’sir etadi.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar deganda, o‘quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg‘ulotlarni tushunamiz.

Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va

chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi.

Sinfdan tashqari ishlarning ikki turi bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi.

Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar.

Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko‘proq ikkinchi turdagi ishlar nazarda tutiladi va ular asosan quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. O‘quvchilarda matematikaga va uning tadbiqlariga qiziqish uyg‘otish.
2. O‘quvchilarning matematikadan dastur bo‘yicha bilimlarini kengaytirish.
3. O‘quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarni hosil qilish.
4. Matematik fikrlash madaniyatini tarbiyalash.
5. O‘quvchilarni matematikadan ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish.
6. O‘quvchilarning matematikaning tarixiy-ilmiy qimmati haqidagi, matematika maktabining dunyo fani orasidagi yetakchilik roli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bu maqsadlarning bir qismi dars paytida amalga oshiriladi, ammo yuqorida ta’kidlaganimizdek dars vaqti chegaralanganligidan, uning anchagina qismini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

Maktab tajribasida matematikadan kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan bajariladigan sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi.

1. Qiziqarli matematika soatlari va daqiqalari.
2. Matematik to‘garaklar uyushtirish.
3. Matematika gazetasi chiqarish.
4. Ekskursiya o‘tkazish.
5. Matematik burchak tashkil qilish.
6. Matematika kechalari o‘tkazish.
7. Boshlang‘ich maktablarda matematika olimpiadasi o‘tkazish.

Boshlang’ich ta’limda singdan tashqari ishlari tashkil etishda boshlang’ich sinf o’quvchilrining yosh hususiyatlari va bilim darajalarihisobga oliningan holda tashkil etilishi lozim.

Shu maqsdda boshlang’ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi.

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazish shakliga ko‘ra darslardan farq qiladi va ko‘pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar uyushtirishdagi dastlabki qadam qiziqarli matematika soatlari va daqiqalaridir. O‘quvchilar qiziqarli matematika soatlarida odatdagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko‘tarinki ruh bilan ishlaydilar. Bunday mashg‘ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo‘lishi kerak. Bu malakalarda qiziqarli matematikaga doir ko‘rsatma qurollar: sanash jadvallari, figuralarni sanash, devoriy oyna formasidagi o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o‘quvchilarga katta yordam beradi.

Matematika to’garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan shaklidir. Har qaysi matematika to’garagida qatnashadigan o’quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o’qituvchiga qiyinchilik tug’diradi va o’quvchilar mashg’ulotda faol ishtirok eta olmaydilar. Mashg’ulot 30-40 daqiqa davom etsa yetarli. To’garak ishini boshlashdan oldin o’qituvchi kamida uch-to’rt mashg’ulotga yetadigan materialni tayyorlab, uni rejalashtirishi va to’garak mashg’ulotni tashkil qilishga tayyorgarlik ko’rishi lozim. To’garak mashg’ulotdan maqsad, qiziqarli mashqlar bajarish orqali, o’quvchilarni fanga bo’lgan qiziqishini oshirish. Qiziqarli mashqlarga: matematik labirintlar, “Ajoyib” kvadratlar, arifmetik fokuslar, rebuslar, topishmoqlar, raqamlar sehri, matematik o’yinlar, she`rlar, qiziqarli savollar, arifmetik jumboqlar va hokozolar kiradi.

Qiyinroq misol va mashqlarni yechish, o’quvchilar tafakkurini konkretdan abstraktga o’tish, zarur umumlashtirishlarni qila olish qobilyatlarini rivojlantirish, matematik nutqini o’stirish, iqtisodiy tushunchalarni oshirish va hokozolar amalga oshirish, to’garak ishini mazmunini tashkil etadi.

Hulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar yordamida ta’lim oldiga qo’yilgan ko’plan ta’limiy va tarbiyaviy masalalar hal etiladi. Biroq bugungi kunda matematikadan sinfdan tashqari ishlar ta’limning ilg’or usullaridan va axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda tashkil etish talb etilmoqda. Sinfdan tashqari ishlar samaradorligini oshirish masalasi ta’limni tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri bo’lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – C. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Raxmankulova, N., & Mirzanazarova, S. (2022, January). DIDAKTIK OYINLAR-BILISHGA QIZIQISHNI UYGOTISH VOSITASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).

7. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

8. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

9. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

10 Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

11. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

12. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 1239-1242.

13. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING

QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 160-165.

14. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 20-24.

15. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – С. 95-96.

16. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI RIVOJLANISHIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Xudoyberganov Nodirjon Shokirjonovich[1]
Qo‘shaqova Farangiz Azizbek qizi[2]
Bekmirzayeva Shahrizoda Umidjon qizi[3]
Qo‘qon davlat universiteti v.b dotsenti[1]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[2]
Qo‘qon davlat universiteti talabasi[3]

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlanish jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘yin faoliyati o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, diqqat, xotira, tafakkur va nutqni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘yinli metodlar orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘quv faoliyatini ijodiy va motivatsion yo‘nalishga o‘tkazishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan. Didaktik o‘yinlar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, ular bolalarda hamkorlik, o‘zaro yordam, intizom va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Tadqiqotda didaktik o‘yinlardan foydalanishning metodik asoslari, ularning dars jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari ham keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, didaktik o‘yin, rivojlanish, ijodkorlik, motivatsiya, metodika, interfaol usullar, o‘quv jarayoni, psixologik faollik, tarbiyaviy ahamiyat.

Kichik maktab yoshida bolalar didaktik o‘yinlarni (syujetli, predmetli, musoboqali) rohatlanib o‘ynashadi. Ularda faoliyatning quyidagi elementlari mavjud: o‘yinli masala, o‘yinli motivlar, masalalarni o‘quv faoliyati bilan bog‘liq yechimlari. Natijada o‘quvchilar o‘yin mazmuniga ko‘ra yangi bilimlarga ega

bo‘lishadi. O‘quv-biluv masalalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilishidan farq qilgan holda, didaktik o‘yinda u bolaning o‘zini o‘yinli masalasi sifatida nomoyon bo‘ladi. Uni yechish usullari esa o‘quv-biluv faoliyatiga tegishli hisoblanadi.

Buni quyidagi misolda qarab chiqamiz. O‘quvchilar “Biz turistlarmiz” nomli didaktik o‘yinni o‘ynashadi. Uning ma’nosi shundan iboratki, bolalarni turistlar guruhining marshrut yo‘lini kartada belgilashga o‘rgatish. Uni to‘g‘ri belgilagan har bir o‘quvchi turist belgisini oladi. O‘quvchilarning o‘z oldilariga qo‘yadigan masala – turistlar o‘yinini o‘ynash. O‘yin motivi – turist belgisini olish uchun to‘g‘ri marshrutni tanlash. Bunday o‘yin shu bilan tavsiflanadiki, uning faollik shakli kattalar tomonidan aniqlanadi va o‘yin qodalari ko‘rinishida bolalar oldiga qo‘yiladi. “Biz turistlarmiz” o‘yinining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: “Marshrutni aytayotgan o‘qituvchini diqqat bilan eshiting va uni o‘z kartangizda joylashtiring. U kartada ko‘rsatilgandan so‘ng, uni namunadagi bilan solishtiring”.

Shuni qayd etishimiz lozimki, o‘yinda va undan keyin o‘yin motivlarida bilishga qarab siljish ro‘y berishi mumkin. Masalan, “Biz turistlarmiz” o‘yinidan keyin o‘quvchilar ko‘plab savollar bilan o‘qituvchiga va boshqa katta yoshdagilarga murojaat qila boshlashdi, kitoblardan mos ma’lumotlarni izlasha boshlashdi, ya’ni ularda o‘yin sifatida taqim etilgan masala o‘quv masalasiga aylandi. Bolalar hodisalar doirasidagi ma’lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan, o‘yin faoliyati bilan bog‘liq yangi tushunchalarni egallashga (kompas, topografik belgilar va boshqalarni) faol harakat qilishadi. To‘plangan bilimlar tizimlashtirilib, kichik maktab yoshidagi bolalar ta’limga nisbatan o‘z faoliyatlarini qayta moslashtirishadi. Endi u nafaqat o‘yinlar nuqtai-nazaridan, balki o‘yin davomida paydo bo‘lib, rivojlangan o‘quv-biluv qiziqishlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Demak, didaktik o‘yinlar bolalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitni paydo qiladi va bilish uchun qiziqishni rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Eng yaxshi didaktik o‘yinlar mustaqil ta’lim olish prinsipida tuzilgan, ya’ni, shunday tuzilganki, ularning o‘zi o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga qarab yo‘naltiradi. Ma’lumki, ta’lim olish ikkita komponentni o‘zida jamlaydi: kerakli ma’lumotni to‘plash va to‘g‘ri yechimni qabul qilish. Bu komponentlar o‘quvchilarda didaktik tajribani ta’minlaydi. Lekin, tajribaga ega bo‘lish ko‘p vaqtni talab qiladi. O‘quvchilarda “bunday tajribaga ega bo‘lish”ni ko‘paytirish, ularni mustaqil ravishda bu ko‘nikmalarga ega bo‘lish mashqlariga o‘rgatishdan iboratdir. Bunga psixologik tavsifdagi rivojlantiruvchi o‘yinlarni kiritish mumkin: krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar, kriptogrammalar va boshqalar.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda predmetga nisbatan qiziqishni uyg‘otadi, har bir o‘quvchini individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bilish faolligini tarbiyalaydi. Didaktik o‘yinning muhimligi, u bolalar tomonidan qanday reaksiya qilinishi bilan emas, balki u yoki bu masalani yechish har bir o‘quvchi uchun tadbiq qilinishining samaraliligi bilan aniqlanadi.

Didaktik o‘yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o‘yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Masalan, bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, o‘quvchining mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur.

Demak, kichik maktab yoshida, o‘yinlardan bolalarning o‘quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Ta’lim jarayonida o‘yin elemenlari o‘quvchilarda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, o‘yin tavsifiga ega, mehnatga taaluqli topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar. O‘yin faoliyati bolalarni ruhiy hayotining barcha tomonlarini shakllanishida, masalani qo‘yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi.

Ta’limning o‘yinli shakllari bilim o‘zlashtirilishini barcha darajalaridan foydalanishga imkon beradi, masalan, ijodiy-izlanish faoliyati. Ijodiy-izlanish faoliyati juda samarali hisoblanib, unda o‘quvchi ta’lim olishning usullarini o‘zlashtiradi.

Ishtirokchilarning tarkibiy soniga qarab, o‘yinlar yakka tartibdagi, juftliklardagi, gruhlardagi, komandali va jamoalilarga bo‘linadi. Ma’lumki, qayd etilganlardan birinchisi, ya’ni yakkatartibdagi o‘yinlar o‘quvchilarga nisbatan yakkatartibdagi yondashuvni amalga oshirilishini va ta’lim oluvchini ma’lumot manbasi bilan “muloqotini” nomoyon etadi. Qolgan o‘yinlarda esa, sheriklarni bir-birlari bilan muloqot qilishi, masalan, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida yakka tartibdagi kabi tabaqalashtirilgan yondashuvning amalga oshishi mumkin.

O‘quvchilar intellektni rivojlantiruvchi, bilish faolligini oshiruvchi bir necha o‘yinlar guruhi mavjud.

I guruh – predmetli o‘yinlar, o‘yinchoqlar va predmetlar bilan manipulyatsiya qilish sifatida. O‘yinchoqlar – predmetlar – orqali bolalar shakllarni, rangni, hajmni, materialni, hayvonot dunyosini, odamlar dunyosini va boshqalarni bilishadi, o‘rganishadi.

II guruh – ijodiy, syujetli-rolli o‘yinlar, ularda syujet – intellektual faoliyat shaklidir.

“Baxtli tasodif”, “Zakovot” va boshqa shu kabi inttellektual o‘yinlar. Ma’lumotlar – o‘quv ishlarida bilish tavsifiga ega, lekin, eng avvalo darsdan tashqaridagi ishlarda u muhim tarkibiy qismdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda rolli o‘yinlar katta ahamiyat kasb etadi. Ular shu bilan tavsiflanadiki, o‘quvchi o‘ynab turib, o‘ziga ma’lum bir aniq rolni oladi va tasavvur qilinadigan holat bo‘yicha, aniq bir insonni odatlarini takrorlab, harakatlarni amalga oshira boshlaydi. Syujetlarni turli-tuman bo‘lishligiga qaramasdan, uning ortida bitta va faqat bitta mazmun yashiringan bo‘ladi – inson faoliyati va insonlarning jamiyatdagi munosobatlari.

Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘z o‘yinlari davomida, ularni real hayotda jalb qiladigan insonlarning sifatlariga ega bo‘lishga harakat qilishadi. Shu sababdan bolalarga qahramonlik, botirlik, ochiqko‘ngillilik bilan bog‘iq bo‘lgan rollar yoqadi. O‘quvchilar haqiqiy hayotda bajara olmayotgan ishlarini ifodalashga harakat qilishib, o‘z-o‘zlarini rolli o‘yinlarda tasvirlay boshlashadi. Masalan, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchi o‘ziga yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchi rolini oladi. Bunday o‘yindagi ijobiy holat shundan iboratki, yaxshi o‘quvchi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan talablarni bola o‘z oldiga qo‘ya boshlaydi. Shunday qilib, rolli o‘yinni boshlang‘ich sinf o‘quvchisini o‘z-o‘zini tarbiyalovchi usuli sifatida qarashimiz mumkin.

III guruh o‘yinlari – bolalarni bilish faolligini rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalaniladi – tayyor qoidalardan iborat o‘yinlar bo‘lib, ular odatda *didaktik o‘yinlar* deb ataladi.

Qoidaga ko‘ra, ular o‘quvchidan jumboqni yechishni, topishmoqni topishni, eng asosiysi – predmetni bilishni talab qiladi. Didaktik o‘yin qanchalik mahoratli tuzilgan bo‘lsa, didaktik maqsad shunchalik mohirona yashiringan bo‘ladi. O‘yinda joylashtirilgan bilimlarni o‘quvchi o‘zi bilmagan holda, beixtiyoriy ravishda, o‘ynab turib o‘zlashtiradi.

IV guruh o‘yinlari – quruvchilikka, mehnat qilishga, texnikaga, konstruktorlikka doir o‘yinlar. Bu o‘yinlar kattalarning kasbiy faoliyatini aks ettiradi. Mazkur o‘yinlarda o‘quvchilar yaratuvchanlik jarayonini o‘zlashtirishadi, ular o‘z ishlarini rejalashtirishga, kerakli materiallarni tanlashga, o‘zini va boshqalar faoliyati natijalarini tanqidiy baholashga, ijodiy masalalarni yechishga o‘rganadilar. Mehnatdagi faollik bilishga bo‘lgan faollikni oshiradi.

V guruh o‘yinlari, intellektual o‘yinlar bo‘lib – ruhiy doiraga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘yin-mashqlar, o‘yin-treninglardir. Bu o‘yinlar musoboqalarga asoslangan bo‘lib, taqqoslash yo‘li orqali o‘ynayotgan o‘quvchilarga ularni tayyorgarligi darajasini, mukammalikka erishish yo‘llarini ko‘rsatadi, ya’ni bilishga bo‘lgan faolliklarini oshiradi.

VI guruh o‘yinlari – alohida guruh o‘yinlari bo‘lib, ular harakatlanuvchi o‘yinlar deb ataladi. Ular kichik maktab yoshida sezilarli o‘rinni egallaydi. Bolaning organizmi o‘suvchan bo‘lganligi sababli u har doim harakatni talab qiladi. Bolalar rohatlanib to‘p o‘ynashadi, chopishadi, sakrashadi. Turli harakatlar modda almashinuviga, qon aylanishiga va nafas olinishini yaxshilanishiga yordam beradi. Harakatlantiruvchi o‘yinlar shaxsiy sifatlarni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi: ularda iroda, fikrlash, jasurlik rivojlanadi. Jamoaviy sport o‘yinlari va musoboqalar jamoada harakatlanish ko‘nikmasini, o‘rtog‘ini qo‘llab-quvvatlanishni, sinf va maktab sha’ni uchun kurashishni rivojlantiradi.

Lekin, o‘qituvchi va sardor musoboqalar bolalarning o‘yin faoliyatini tashkillashtirishda samarali vosita ekanligi unutmagan holda uning mahsuldorligini oshirish uchun alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qilishligini esda saqlashlari zarur. Hech qachon musoboqalar maqsad bo‘lib qolishligiga yo‘l qo‘ymaslik, ular faqat bir

istak uchun – birinchi o‘rinni egallash, sovg‘a olish harakatida bo‘lmasliklari lozim. Bu holda u salbiy jihatlarni: man-manlikni, hasadni va boshqalarni shakllantiradi. O‘quvchilar musoboqalarini samarali o‘tkazilishini muhim shartalari bo‘lib quyidagilar:

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Umidjon A., Oghiloy M. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASES OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – С. 341.

2. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – С. 93-94.

3. Shoqosim o‘g‘li A. U. et al. Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1354-1365.

4. Shoqosim o‘g‘li A. U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O ‘QITISHDA MODELLASHTIRISH METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI //ILM SARCHASHMALARI. – С. 104.

5. Sh A. U. The main approaches to the formation of the control action in younger schoolchildren in the process of teaching mathematics //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2022. – Т. 11. – №. 11. – С. 142-150.

6. Абдурахмонов У. Ш. О ПОСТАНОВКЕ И ИССЛЕДОВАНИЮ ОДНОЙ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ С ТРЕМЯ ЛИНИЯМИ ИЗМЕНЕНИЯ ТИПА //E Conference Zone. – 2022. – С. 118-121.

7. Rakhmankulova, N. K. (2022). METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN EDUCATION. In *ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ* (pp. 15-17).

8. Рахмонкулова, Н. К. Важность решения математических задач в начальных классах. *Международный журнал инновационных исследований в области науки, техники и технологий*.

9. The Importance of Solving Mathematical Problems in Primary Grades
NK Rakhmonkulova - International Journal of Innovative Research in Science

10. Abdurahmonov U. FUNKSIYA HOSILASI GEOMETRIK VA MEXANIK MA’NOLARI //Журнал интегрированного образования и исследований. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 135-138.

11. Абдурахмонов У. Ш. О КРАЕВОЙ ЗАДАЧЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА В ТРЕУГОЛЬНОЙ ОБЛАСТИ. – 2022.

12. Abdurahmonov U. EKSTREMAL MASALALARNI YECHISHDA TENGSIZLIKLAR USULIDAN FOYDALANISH //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 1239-1242.

13. Abduraxmonov U. S., No‘monova D. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARINING QO ‘LLANILISHI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 160-165.

14. Abdurahmanov U. S. Application of Modern Information Technologies in Teaching Mathematics in General Education Schools //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 20-24.

15. Sh A. U., Umarjonova S. A. TA’LIMNI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV. PIRLS BAHOLASH DASTURI //University Research Base. – 2024. – C. 95-96.

16. Abduraxmonov U. UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING MATEMATIKAGA KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI //University Research Base. – 2024. – C. 93-94.

17. Abduraxmonov U., Musayeva S. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION JARAYONNING PEDAGOGIK ASOSLARI //University Research Base. – 2024. – C. 91-92.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KREATIV USULLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Yigitaliyeva Shoxsanam Isag‘aliyevna
Qo‘qon DU o‘qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD)
Murodova Mubinaxon
Qo’qon DU Btm yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. O’zbekiston mustaqillikkka erishgandan so’ng mamlakatning ko’plab sohalarida o’zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim sohasiga qaratilgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Bugungi zamonaviy ta’limda o’quvchi ta’lim olish bilan bit paytda mustaqil fikrga ega bo’lishi mustaqil fikrga ega bo’lishi muhim deb qaralmoqda. Chunki, o’z so’ziga, o’z xulosasiga ega avlodning tasavvuri buyuk kashfiyotlarning yaralishiga poydevor bo’ladi.

Kalit so’zlar: kreativ fikrlash, zamonaviy metodlar,tanqidiy fikrlash,kreativ yondashish,zamonaviy ta’lim, dunyoqarash, metod

Ma’lumki, bugungi kunda yosh avlodning ta’lim olishiga qaratilgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.Bugunning yoshlari faqatgina ta’lim olibgina qolmay, mustaqil fikrlash, ijodiy jarayonlarda qatnashish, o’z fikrini erkin va ravshan bayon etishni ham bilishi zarur. Bu borada esa kichik maktab yoshidagi bolalar dunyoqarashini shakllantirib borish juda muhim. Sababi, boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun kreativ yondashuvlar alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yosh avlodning tafakkuri shakllanib boradi. Shu bilan birga ayni davrda ularning atrof-muhitdagi voqealarga qiziqishi ham o’zgacha bo’ladi. Hayotga katta qiziqish bilan boqayotgan kelajak uchun muhim sanaladi.

Kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida kreativ yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va o'z-o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi. DTS, dastur va darsliklarida kreativ yondashuvlarni qo'llash, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Negaki o‘qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo‘lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko‘rinishi deyish mumkin. Darslar mobaynida kreativ topshiriqlar o’quvchida o’z fikrini aytishni, uni isbotlashni,mustaqil ijod qilishni, tanqidiy fikrlashni keltirib chiqaradi. Muammoli vaziyatlarda to’g’ri yo’l topa olish ham kreativ usular orqali shakllantiriladi. Masalan, “Kesy – stadi”, “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti” kabi metodlar bolani mantiqiy fikrlash jarayonida biror bir asarni rollarga bo’lib o’rgatish ham yaxshi samara beradi.

4-sinf “O’qish” darsligida berilgan “Do’st do’stga oyna” nomli darsni bahs- munozara asosida olib orilsa, o’quvchilarda do’stni hurmatlash,yaqin insonlarga munosabat kabi tuyg’ular shakllanadi.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, boshlang’ich sinf o’quvchilari shaxsiyatida qiziquvchanlik ustunlik qiladi.Ba’zi o’quvchilar o’yin orqali o’rganishga moyil bo’ladi. Ba’zilarida esa tasavvur kuchi yuqori bo’ladi.Ayrim o’quvchilar yangi tajribani tez qabul qiladi. Shu bois kreativ fikrlash ani shu yoshda yaxshi samara beradi. Darslarda kichik sahna ko’rinishlari orqali asar qahramonlariga baho bera

olish ham hayotiy ko’nikmani paydo etadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagidagi qahramonlar xislatini “T” chizmasi orqali tahlil etilsa, yosh avlodda salbiy xarakterli insonlarning hayotidagi yutqizishlari, ijobiy xarakterdagi insonlarning esa manfaatga ega bo’lishlarini anglab yetishi mumkin. Bu kabi dars jarayonlarida “Muammoli ta’lim “metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O’quvchilarga muammoli savollar, hayotiy vaziyatlar yoki noan’anaviy topshiriqlar orqali mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Shuningdek, kreativ ko‘nikmalarni mustaqil tarzda rivojlantirish sifatida ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlar (to’garak) dasturiga kiritish o‘quvchilarga kreativ ko‘nikmalarini real sharoitda qo‘llash imkonini beradi. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarni muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga undaydi va ularning kreativ ko‘nikmalarini kelajakdagi faoliyatiga o‘tkazish uchun sharoit yaratadi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, kreativ fikrlashga yo’naltirilgan darslar o’quvchilarga bilish faolligini 30-40% ga oshirishi mumkin ekan.

Xulosa. Demak, kreativ usullarning har qanday ko’rinishi o’zining dolzarbligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buyuk kashfiyotchu Albert Eynshteyn aytganidek: “Tasavvur bilimdan muhimroqdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 4-sinf “O’qish “ kitobi 1- mavzu (6-nashr.Toshkent 2020 –yil.Yangiyul.)
2. Ibragimov X. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”, Toshkent.
3. Yo‘ldoshev Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari (boshlang‘ich ta’lim).

PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING ASOSIY MANBALARI

Sevaraxon Yoqubjonova Mamirjon qizi,
Qo`qon davlat universiteti
Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 1-kurs magistranti

Kirish

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik konfliktlarning asosiy manbalari tizimli ravishda tahlil qilingan bo‘lib, ta’lim jarayonida uchraydigan ziddiyatlarning psixologik, kommunikativ, tashkiliy-pedagogik hamda ijtimoiy omillari yoritilgan. Pedagogik konfliktlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi shaxsiy xususiyatlar, muloqotdagi kamchiliklar, baholashdagi adolatsizlik, oilaviy va ijtimoiy muhit ta’siri, shuningdek, psixologik mexanizmlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: **Pedagogik konflikt, konflikt manbalari, psixologik omillar, kommunikativ omillar, tashkiliy-pedagogik omillar, ijtimoiy omillar**

Ta’lim jarayonida inson omili yetakchi bo‘lgani sababli, unda turli xil fikrlar, qarashlar, ehtiyojlar, manfaatlar va emotsional holatlar to‘qnashuvi tabiiy jarayon

sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois pedagogik jarayonda konfliktlar muqarrar bo‘lib, ular o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qituvchi va o‘qituvchi, o‘qituvchi va ota-ona, shuningdek, o‘quvchilar o‘zaro munosabatida ro‘y berishi mumkin. Pedagogik konfliktlar nafaqat salbiy oqibatlarga, balki to‘g‘ri boshqarilganda ijobiy o‘sish, o‘zgarish va yaxshilanishlarga sabab bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun pedagogik konfliktlarning manbalarini o‘rganish ularning oldini olish, boshqarish va konstruktiv yo‘naltirish uchun muhim asos yaratadi.

Ushbu maqolada pedagogik konfliktlarning asosiy manbalari tizimli tarzda tahlil qilinadi, ular psixologik, tashkiliy-pedagogik, ijtimoiy va kommunikativ omillar kesimida yoritiladi hamda ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Psixologik omillar – shaxsiy xususiyatlar to‘qnashuvi-pedagogik konfliktlarning eng keng tarqalgan manbalaridan biri – bu ishtirokchilarning psixologik xususiyatlaridagi tafovutlardir. Ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir shaxsning xarakteri, temperament turi, emotsional barqarorligi, idrok qilish uslubi, motivatsiyasi bir-biridan farq qiladi. Bu farqlar o‘z vaqtida to‘g‘ri boshqarilmasa, ziddiyatga sabab bo‘lishi mumkin.

Temperament va xarakter mos kelmasligi- xolerik o‘qituvchi bilan flegmatik o‘quvchi o‘rtasida tezlik, talabga javob berish darajasidagi tafovut sababli tushunmovchilik paydo bo‘lishi mumkin.Haddan tashqari talabchan, keskin xarakterli pedagog muloyim, ta’sirchan o‘quvchi ruhiyatiga bosim o‘tkazishi mumkin.

Emotsional boshqaruvdagi farqlar-ba’zi pedagoglar stressga chidamli, boshqalari esa tez ta’sirchan bo‘ladi. O‘quvchilarda ham shunday. Emotsional reaksiyalar tezligi va yo‘nalishi o‘zaro mos kelmasa, kichik vaziyatlar ham kattaroq konfliktga aylanadi.

Motivatsiya darajasidagi tafovutlar-o‘quvchining o‘quv faoliyatiga bo‘lgan past motivatsiyasi o‘qituvchi tomonidan intizomsizlik yoki beparvolik sifatida qabul qilinadi. Bu esa o‘zaro ijobiy munosabatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kommunikativ omillar – noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan muloqot-pedagogik jarayonning asosiy poydevori – muloqotdir. Muloqotdagi kamchiliklar konfliktlarning 60–70% gacha qismini tashkil qiladi. Notog‘ri tushunish, noto‘g‘ri talqin yoki muloqotning yetishmasligi keskin vaziyatlarga olib keladi.

Muloqot uslubidagi farqlar-avtoritar uslubdagi o‘qituvchi demokratik muloqotga o‘rgangan o‘quvchi bilan qiyinchilikka duch kelishi mumkin.O‘ta muloyim o‘qituvchi esa faol va talabchan o‘quvchilar orasida o‘zini ojiz his qilishi mumkin.

Axborotni noto‘g‘ri yetkazish-ko‘rsatmalar noaniq bo‘lsa, o‘quvchi topshiriqni tushunmagan bo‘ladi, bu esa pedagogda norozilik uyg‘otadi. O‘z navbatida, o‘quvchi o‘ziga ko‘rsatilgan e’tirozdan norozi bo‘lishi konfliktga sabab bo‘ladi.

Axborotning selektiv qabul qilinishi-o‘quvchi o‘qituvchining barcha so‘zlarini to‘liq qabul qilmasligi, tanlab eshitishi yoki noto‘g‘ri tushunishi ko‘pincha ziddiyat manbai bo‘ladi. Ayniqsa o‘smirlik davrida bu ko‘proq uchraydi.

